MAVLONA FURKATOVICH

SHUHRAT SIROJIDDINOV
DILNAVOZ YUSUPOVA
OLIMJON DAVLATOV



"TAMADDUN"

83.3Q(5O)
N-14

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

SHUHRAT SIROJIDDINOV, DILNAVOZ YUSUPOVA, OLIMJON DAVLATOV

NAVOIYSHUNOSLIK

(1-kitob)

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil 3-martdagi 1-sonli qaroriga asosan 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bosqichi talabalari uchun darslik

“Tamaddun”
Toshkent
2018

UO'K: 821
KBBK: 83.3g(5O')
N 14

Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov.
Navoiyshunoslik [Matn] Q. 1: darslik / Sh. Sirojiddinov [va boshq.].
— Toshkent: «TAMADDUN», 2018. — 520 b

Mazkur darslik respublika oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi va o'zbek tili va adabiyotini o'qitish yo'nalishidagi talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda Alisher Navoiy hayoti va ijodi hamda asarlari poetikasi bilan bog'liq eng muhim ma'lumotlar qamrab olingan, buyuk mutafakkir ijodiga doir yangicha talqinlar berilgan. Darslik navoiyshunoslikda qo'lga kiritilgan eng so'nggi yutuqlarni o'zida aks ettirganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Mas'ul muharrir:
Azizxon Qayumov,
filologiya fanlari doktori, professor
O'zRFA akademigi

Taqrizchilar:
Boqijon To'xliyev,
filologiya fanlari doktori, professor
Aftondil Erkinov,
filologiya fanlari doktori
Karomat Mullaxo'jayeva,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

ISBN 978-9943-5113-6-1

© Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov, 2018,
© "Tamaddun" nashriyoti, 2018

UQTIRISH XATI

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy dunyo tafakkuri tarixida o‘zining abadiyatga daxldor asarlari va benazir dahosi bilan turkiy xalqlarning ma’naviy siymosini yarata olgan hamda asarlarida tarannum etgan ezgu g‘oyalari bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelayotgan so‘z san’atkoridir. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risidagi 2016-yil 13-maydagi № PF-4797 Farmonida aks etganidek, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib o‘rin olgan o‘lmas asarlarini aynan ona tilimizda yaratib, uning shuhratini butun dunyoga tarannum etdi. Ham adabiy va ilmiy asarlari, ham go‘zal insoniy fazilatlari bilan barchaga o‘rnak bo‘lib kelayotgan Alisher Navoiyning rang-barang ijodi barcha siyosat-u rayosatlardan ustun kelib, Vaqt atalmish oliy hakamni ham o‘z izmiga bo‘ysundirganligi, dunyodagi eng oliy mo‘jiza – So‘z qudrati va uning go‘zal o‘zbekona ifodasi sifatida umumbashariyat mulkiga aylanganligi rad etib bo‘lmas haqiqatlardan hisoblanadi. Shu bois, ma’naviyatning umrboqiy sarchashmalariga doimiy ehtiyoj sezadigan bashariyat farzandlari bugungi kunda ham Navoiyning o‘lmas satrlarida tajassum topgan hayotiy hikmatlardan ko‘proq bahramand bo‘lishga harakat qiladi.

Bu muazzam ijodni o‘rganish, tadqiq va talqin etish Navoiyning hayotligi davrlaridayoq boshlangan bo‘lib, o‘tgan besh asr davomida so‘z san’ati bilan shug‘ullanadigan ko‘plab olim va ijodkorlar turli shaklda Navoiy merosini o‘qib-o‘rganish va boshqalarni ham bahramand qilishga harakat qilganlar. Mamnuniyat bilan aytish kerakki, Navoiy ijodini bor bo‘y-basti bilan, xolislik va ilmiylik mezonlariga mos holatda o‘rganish va o‘rgatish imkoniyati istiqlol sharofati bilan yanada kengaydi, yurtimizda bu borada ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Ilk bor ta’lim tizimida yangi o‘quv fani – “Navoiyshunoslik” joriy etildi.

Yoshlar ma’naviy dunyosining milliylik va insonparvarlik zaminida shakllanishiga g‘oyat kuchli ta’sir ko‘rsatadigan, ayni paytda o‘zbek mumtoz adabiyoti va o‘zbek milliy ma’naviyati-

TerDU ARM № 403 817

ning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini anglash yo‘lida ochqich – kalit vazifasini bajaradigan Navoiy ijodini o‘rganish orqali yoshlarda sog‘lom tafakkur tarzini shakllantirish, o‘zbek adabiyoti tarixining eng muhim davri haqida har tomonlama bilim hosil qilish, ma’naviy dunyosi mukammal bo‘lishiga ko‘maklashish ushbu o‘quv fanining bosh masalalaridan hisoblanadi.

“Navoiyshunoslik” fani uchun mo‘ljallangan ushbu darslikning dastlabki kitobi ikki yirik qismdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismida Navoiy ijodining o‘rganilish tarixi, buyuk mutafakkir hayotiga doir muhim ma’lumotlar, lirik merosi tavsifi, xamsachilik an’anasi, shoir dostonlarining g‘oyaviy-badiiy tahlili, ilmiy, diniy, irfoniy, yodnoma asarlarining mazmun-mundarijasi, asarlarining badiiyati, janrlar poetikasi, tatabbu’, nazira, tavr, muxtara’ g‘azallarning o‘ziga xos jihatlari, she’r va dostonlarining vazn xususiyatlari, Navoiy ijodida qo‘llanilgan qofiya unsurlari, badiiy san’atlarning hosil bo‘lish yo‘llari haqida ma’lumot beriladi.

Ikkinchi qismda Alisher Navoiyning hayoti va ijodi, asarlarining badiiyati chizma va jadvallarda aks ettirilgan. Zamonaviy pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, talabaga mavzularni ko‘rgazmali tarzda multimedia va kompyuter texnologiyalaridan foydalanib tushuntirish kuchli ijobiy samaraga ega. Darslikning ikkinchi qismidagi jadval va chizmalardan aynan ko‘rgazma va slaydlar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Umuman olganda, ushbu darslik Alisher Navoiyning hayoti va ijodi hamda asarlarining poetikasi bilan bog‘liq ma’lumotlarni o‘zida qamrab olganligi bilan talabalar va soha mutaxassislarining qiziqishini uyg‘otishiga umid bildiramiz. Darslik bilan bog’liq fikr-mulohazalaringizni tamaddun1991@mail.ru elektron manzili orqali yo‘llashingiz mumkin.

ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODI (I QISM)

ALISHER NAVOIY IJODINING O'RGANILISHI. HAYOTIGA DOIR MUHIM MA'LUMOTLAR

Reja:

1. *Alisher Navoiy haqida shoirning o'z asarlaridagi ma'lumotlar.*
2. *Zamondoshlarining asarlarida keltirilgan ma'lumotlar.*
3. *XVI–XIX asrlardagi tazkira, lug'at, tarixiy va badiiy asarlar.*
4. *Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida o'rganilishi.*
5. *Navoiy ijodining xorijda o'rganilishi.*
6. *Alisher Navoiy hayotini o'rganish manbalari.*
7. *Shoirning bolalik va yigitlik yillari.*
8. *Davlat arbobi sifatidagi faoliyati.*
9. *Bunyodkorlik ishlari.*
10. *Hayotining so'nggi yillari.*

Turkiy xalqlarning "shams ul-millat"i bo'lgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy jahon adabiyoti xazinasini o'zining hassos she'riyati, buyuk "Xamsa"si, fan sohalarining turli tarmoqlariga

bag‘ishlangan boy ilmiy merosi bilan boyitgan so‘z san’atkoridir. O‘z ijodiy merosida 26 mingdan ortiq lug‘at boyligidan foydalangan bu buyuk daho mana besh asrdan oshibdiki, asarlaridagi chuqur falsafiy mushohadakorlik, ma’no-mohiyatning keng ko‘lamligi va nazmiy merosidagi fasohat dengizining bepoyonligi bilan jahon ahlini hayratga solib keladi.

Dunyoda Alisher Navoiy kabi asarlari keng tarqalgan, jahonning deyarli har bir chekkasida kitoblarining nusxalari saqlanayotgan boshqa bir ijodkorni topish qiyin. Hazrat Navoiy hayotining so‘nggi yillaridayoq uning asarlari tiliga lug‘at ishlanganligi biz hozir navoiyshunoslik deb atayotgan sohaning ancha qadimiy ekanligini ko‘rsatadi.

Shu ma’noda aytish mumkinki, Alisher Navoiyning faoliyati va merosining o‘rganilish tarixi shoirning o‘z davridan, zamondoshlari asarlaridan boshlanadi. Navoiyshunoslikning tadrijiy taraqqiyotini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Navoiyning o‘z asarlaridagi ma’lumotlar

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida ilk ma’lumot beruvchi manba bu shubhasiz ulug‘ shoirning o‘z asarlaridir. Navoiy garchi o‘z tarjimai holini maxsus yozib qoldirmagan bo‘lsa-da, lekin shoirning deyarli barcha asarlarida uning shaxsiyati, ijodiy va ijtimoiy faoliyati haqida muayyan fikrlar keltiriladi. Xususan, “Vaqfiya”, “Munshaot” asarlarida ulug‘ shoirning ijtimoiy faoliyati aks etsa, “Majolis un-nafois”, “Xamsa”, “Munojot”, “Xazoyin ul-maoniy” kabi asarlarida shaxsiy hayoti, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” kabi asarlarida shoir qalamiga mansub ba’zi asarlarning yozilish tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlarni uchratamiz. Ushbu ma’lumotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Shoirning yoshlik davri.
2. Murabbiylari.
3. Tutingan farzandlari.
4. Suhbatdoshlari.
5. Navoiy va Jomiy hamkorligi.
6. Navoiy va saroy.

2. Zamondoshlarining asarlarida keltirilgan ma'lumotlar

Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla'i sa'dayn va majmai bahrayn" ("Ikki baxtli sayyoralarning kelib chiqishi va daryolarning qo'shilishi") asari shoir haqida ma'lumot beruvchi ilk manbadir. Bu asar 1467 – 1470 yillar oralig'ida yaratilgan va bevosita hazrat Navoiyning nazorati ostida yakunlangan. Bu asardagi ma'lumotlar keyinchalik boshqa tarixiy asarlarda aynan takrorlanadi. O'sha davrning yana bir tarixchisi Muhammad ibn Xovandshoh Mirxondning "Ravzat us-safo" ("Soflik bog'i") asarida ham Alisher Navoiy hayoti va faoliyatiga doir qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Asar 7 jilddan iborat bo'lib, Navoiyning bevosita topshirig'i va homiyligida yaratilgan. "Ravzat us-safo" O'rta Sharq va Osiyo tarixiga bag'ishlangan bo'lib, Navoiy haqidagi ma'lumotlar asarning asosan 7-qismida – Sulton Husayn Boyqaro saltanati davri tavsifida uchraydi.

Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" ("Shoirlar tazkirasi") asari Alisher Navoiy nomi zikr etilgan ilk tazkiradir. Tazkirada besh asr davomida yashab faoliyat yuritgan 150 ga yaqin ijodkor haqida ma'lumot keltiriladi. Asar 1486-yilda yaratilgan bo'lib, muqaddima, 7 qism va xotimadan iborat. Hazrat Navoiy hayoti va faoliyatiga doir ma'lumot asarning xotima – muallifga zamondosh shoirlar haqidagi qismida keltirilgan.

Mu'iniddin Muhammad al-Zamjiy al-Isfizoriyning "Ravzat ul-jinnot" ("Jannat bog'i", 1492) asarida hazrat Navoiyning Bodgis viloyatining Chihil duxtaron qasabasida rabot qurdirgani, Farididdin Attor mozori ustida ravoqli imorat solgani haqidagi ma'lumot keltiriladi.

Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", "Haft avrang" ("Yetti taxt"), "Nafahot ul-uns" ("Do'stlik tarovati") asarlarida ham Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlar keltiriladi. Xususan, Sa'diy Sheroziyning "Guliston"i ta'sirida yaratilgan "Bahoriston" asari 8 ravza (bob) dan iborat bo'lib, 7-ravzada 39 shoirdan biri sifatida Alisher Navoiyga to'xtalib o'tiladi va uning komil axloqi ijodidan ham yuksakroq ekanligi ta'kidlanadi.

Husayn Boyqaroning "Risola"sida ham hazrat Navoiyning turkiy tildagi ijodi, xususan, she'riyati hamda "Xamsa" asariga yuksak baho berilib, buyuk shoir "so'z mulkining kishvaristoni, sohibqironi" deb ulug'lanadi.

G‘iyosiddin ibn Humomiddin Xondamirning “Xulosat ul-axbor” (“Xabarlar xulosasi”, 1498 – 1499) va “Habib us-siyar” (“Do‘stlar siyrati”, 1515 – 1523) asarlarida Husayn Boyqaroning Xuroson taxtiga o‘tirishi va Alisher Navoiyning Hirotga qaytishidan boshlab, ulug‘ shoirning vafot etishigacha bo‘lgan davr oralig‘idagi voqealar bayon qilinadi. Tarixchining “Makorim ul-axloq” asari esa Navoiyning yuksak axloqiga bag‘ishlangan maxsus risola bo‘lib, shoir tarjimai holiga doir muhim faktik ma’lumotlarning keltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Zayniddin Vosifiy qalamiga mansub “Badoye’ ul-vaqoye’” (“Go‘zal voqealar”) xotiralar to‘plamining to‘rt bobi (XIV–XVII) Alisher Navoiy shaxsiyatiga bag‘ishlangan. Unda hazratning fe’li-sajiyasi, zamondoshlari bilan ijodiy muloqotlari, Navoiy hayoti bilan bog‘liq turli qiziqarli voqealar haqida so‘z boradi.

Shuningdek, Abdulloh Hotifiyning “Layli va Majnun”, Husayn Voiz Koshifiyning “Javohir ut-tafsir” (“Tafsir javohirotlari”, 1493–1494), Atoulloh Asiliyning “Ravzat ul-ahbob” (“Do‘stlik bog‘i”), Atoulloh Mahmud Husayniyning “Badoyi’ us-sanoyi’” (“Badiiy san’atlar”), Shamsiddin Muhammad Badaxshiyning “Risolai muammo”, Husayn bin Muhammad Husayniyning “Risolai muammo” (1499), Ahliy Sheroziyning “Kulliyoti Ahliy Sheroziy”dagi muvashshah-qasidai masnu’si va boshqa ko‘plab asarlarda ham Alisher Navoiyning hayoti, ijodi va ijtimoiy faoliyati haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan.

3. XVI–XIX asrlardagi tazkira, lug‘at, tarixiy va badiiy asarlar

Alisher Navoiy haqidagi ma’lumotlar XV asrdan keyingi tazkira, tarixiy va badiiy asarlarda ham keltirib o‘tiladi. Xususan, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” tazkirasi Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasi asosida yaratilgan bo‘lib, tazkiraning birinchi bob, to‘rtinchi faslida “Amir Haydar Alisherning muqaddas yodi” sarlavhasi ostida buyuk shoirning “Xamsa”si va turkiy g‘azallarining umumiy hajmi, forsiy tildagi she’rlaridan parcha keltiriladi[1].

[1] Hasanxoja Nisoriy hazrat Navoiyni tushida ko‘rish sharafiga muyassar bo‘lganligini va Navoiyning “Bizning ash’orimizdan biror narsa yod bilurmisan?” – degan savoliga javoban quyidagi maqta’ni o‘qiganini aytadi:

Ey Navoiy, sen kimu mehrob-u masjid istamak,
Qaydakim, xo‘blar ayog‘in qo‘ysa, sen boshingni qo‘y!

“Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga kiritilgan she’rlar orasida mazkur maqta’ bilan yakunlanuvchi she’r uchramaydi.

Faxriy Hirotiyning "Latoyifnoma" asari Alisher Navoiyning forsigo'y xalqlar orasida mashhur bo'lishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, mazkur asar aslida "Majolis un-nafois"ning fors tiliga qilingan tarjimasidir. Asarning muallif tomonidan qo'shimcha tarzda kiritilgan 9-majlisi bevosita hazrat Navoiyning hayoti va ijodiga bag'ishlangan. "Latoyifnoma"da buyuk shoirning ota-bobolari, Sulton Husayn Boyqaro bilan bolalikdan davom etib kelgan do'stlik rishtalari, Navoiyning Samarqanddagi hayoti, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, mol-davlati hajmi, vafoti tafsilotlari bilan bog'liq muhim ma'lumotlar keltirilgan. Faxriy buyuk shoir asarlaridan 14 tasi nomini ham sanab o'tadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodiga berilgan bahoning o'zgachaligi bilan alohida ajralib turadi. Asarda Navoiyning Sulton Husayn Boyqaro bilan hammaktab ekanligi, Sulton Abu Said Mirzo tomonidan surgun qilinganligi, Samarqandda Ahmad Hojibek homiyligi ostida yashaganligi, tab'i nozikligi, olti masnaviy ("Xamsa" va "Lison ut-tayr"), to'rt devon ("Xazoyin ul-maoniy") tartib berganligi, "Munshaot"ni tuzganligi haqida ma'lumotlar keltirilishi asnosida shoirning "Mezon ul-avzon" va "Devoni Foniy" asarlari xususida ba'zi tanqidiy fikrlar ham bildiriladi[2].

Mirzo Haydar Do'g'lotning "Tarixi Rashidiy" asari ikki jilddan iborat bo'lib, asosan 1541–1545-yillar oralig'ida yozib tugallangan. Asarda hazrat Navoiyning Sulton Husayn bilan bolalikdan do'st ekanligi, keyinchalik uning saroyida xizmat qilganligi, fazl-u hunar ahliga homiylik qilganligi, ko'plab imorat-u binolar, masjidlar qurganligi, tab'i nozikligi bilan bog'liq fikrlar boshqa tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga mos kelgani holda shoirning otasi uyg'ur baxshi (kotib)laridan

[2] Zahiriddin Muhammad Bobur "Mezon ul-avzon"ning ruboiy vazniga bag'ishlangan qismida 4 o'rinda xato bor deb hisoblaydi. Aruzshunos olimlar U.To'ychiyev, A.Hojiahmedov, S.Hasanovlar mazkur xatolar Alisher Navoiy emas, balki asarni oqqa ko'chirgan xattotning xatosi ekanligini ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, vaznlarga misol tariqasida keltirilgan ruboiy misralaridagi so'zlarning o'rni almashgani, ruknlar nomining chalkash keltirilganligini hisobga olsak, olimlarimizning qarashlari to'g'ri ekanligi ma'lum bo'ladi.

ekanligi va oddiy odam bo‘lganligi haqidagi qarashlar tarixiy asosga ega emas, deb aytish mumkin[3].

Lutf Alibek Ozarning “Otashkadai Ozariy”, Som Mirzo Safaviyning “Tuhfai Somiy”, Rizoqulixon Hidoyatning “Majmu’at ul-fusaho” (“Go‘zal so‘z egalarining to‘plami”) kabi asarlarida ham hazrat Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog‘liq fikrlar muayyan darajada bayon qilib berilgan.

Alisher Navoiy asarlarini chuqurroq o‘rganish uchun maxsus lug‘atlar ham tuzilgan. Navoiy hayotining so‘nggi yillarida uning asarlari asosida “Badoyi’ ul-lug‘at” (tuzuvchi Tole’ al-Iymoniy al-Hiraviy), bir oz keyinroq “Lug‘ati Navoiy” yaratiladi. 1560-yilda Aloyi binni Muhibiy “Al lug‘at un-Navoiyat val-istishhodat ul-chig‘atoiyat” (“Navoiy lug‘ati va chig‘atoy tili dalillari”) lug‘atini tuzadi. Shuningdek, bu davrda Navoiy asarlaridagi ko‘pgina so‘zlarni usmonli turk tilida tushuntirish maqsadida “Abushqa” lug‘ati ham yaratiladi. XVIII asrda Mirzo Maxdiyxon tuzgan “Maboni ul-lug‘at” (“Lug‘at poydevori”), XIX asrda Fath Ali Qozoriyning “Lug‘oti atrokiya” (“Turklar lug‘ati”), Muhammad Rizobek Xoksor tomonidan hijriy 1213, milodiy 1798–1799-yilda tuzilgan “Muntaxab ul-lug‘ot” (“Tanlangan lug‘atlar”) hamda Shayx Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turki-yi usmoniy” kabi asarlarida ham Alisher Navoiy ijodidan olingan parchalarga keng o‘rin ajratiladi.

4. Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida o‘rganilishi

O‘tgan asrning 20-30 yillaridan boshlab yurtimizda Alisher Navoiy ijodini chinakam ilmiy mezonlar asosida o‘rganishga kirishildi. Bu sohadagi dastlabki qadam sifatida Abdurauf Fitratning “Navoiyning forsiy shoirlig‘i ham uning forsiy devoni to‘g‘risinda” (“Maorif va o‘qitg‘uchi” jurn., 1925) va “Farhod-u

[3] Mirzo Haydar Navoiy vafotidan sal ilgariroq 1499/1500-yilda Toshkentda tug‘ilganligi, umrining asosiy qismi Koshg‘ar va Hindistonda o‘tganligi uchun unda Navoiy haqidagi ma’lumotlarni ulug‘ shoirni shaxsan tanigan kishilardan olish va o‘z ma’lumotlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati yo‘q edi. Shu sababli asar muallifi o‘zi fikr yuritayotgan mavzu bo‘yicha ba’zan yozma manbalarga emas, balki og‘zaki, tasdig‘ini topmagan ma’lumotlarga tayangan bo‘lishi mumkin. Bu haqda to‘liqroq ma’lumot olish uchun qarang: Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Т.: Akademnashr, 2011.

Shirin" dostoni to'g'risida" ("Alanga" jurn., 1930) maqolalarini ko'rsatish mumkin.

1919-yildan boshlab Alisher Navoiy tavalludining hijriy-qamariy sana hisobidagi 500 yilligini nishonlash uchun Turkiston Muxtor jumhuriyati hukumati va Turkiston o'lka musulmon byurosi tomonidan tayyorgarlik ishlari boshlab yuboriladi. 1925-yilning 11-iyulida O'lka musulmon byurosi huzuridagi o'zbekshunoslik qo'mitasi "Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyiga tayyorgarlik ishlarini boshlash haqida" qaror qabul qiladi va shu munosabat bilan ko'plab ishlar amalga oshiriladi. 1926-yilning 4-mart kuni Navoiy yubileyi Birinchi Turkologiya qurultoyi doirasida Boku shahrida o'tkaziladi. Yubileyda V.V.Bartold, A.N.Samoylovich, F.Ko'pruluzoda, B.Cho'ponzoda kabi olimlar Navoiyning hayoti va adabiy faoliyati haqida nutq so'zlaydilar, matbuotda ko'plab maqolalar e'lon qilinadi[4].

Butun sobiq Sho'rolar Ittifoqi miqyosida Navoiy tavalludining 500 yilligini keng nishonlash haqida ilmiy sessiyaning qarorlari qabul qilinishi munosabati bilan "Xamsa"ning qisqartirilgan varianti (Sadriddin Ayniy, 1939), "Chor devon", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mahbub ul-qulub" asarlari nashr qilindi, turli tadqiqot va monografiyalar yaratildi, shoir asarlari rus, ukrain, tojik, ozarbayjon va boshqa ko'plab tillarga tarjima qilindi. Olim Sharafiddinov ("Alisher Navoiy", 1939), M.Shayxzoda ("Genial shoir", 1940), V.Abdullayev ("Navoiyning Samarqanddagi hayoti va faoliyati haqida", 1940) kabi olimlarning tadqiqotlari yaratildi; A.Borovkov, Y.E.Bertels, H.Olimjon, X.Zarif, O.Usmonov, M.Shayxzoda hamda boshqa ijodkor va olimlarning ilmiy maqolalarini o'z ichiga olgan "Родоначальник узбекской литературы" ("O'zbek adabiyotining asoschisi", 1940) to'plami e'lon qilindi.

Shuningdek, ushbu sessiya Navoiy asarlari yuzasidan 4 jildli izohli lug'at tuzish haqidagi qarorni ham qabul qiladi[5].

Sobiq Ittifoq hududida 1941-yilda II jahon urushi boshlanganligi sababli Alisher Navoiy yubileyi 1948-yil may oyida

---

[4] Bu haqda qarang: Ҳ.Болтабоев. Алишер Навоийнинг илк юбилейи // Sharq yulduzi. – T., 2016. № 2. – B. 129-137.

[5] Ikkinchi jahon urushi boshlanishi sababli ushbu ish kechiktiriladi. Dastlab "Navoiy asarlari lug'ati" P.Shamsiyev va S. Ibrohimov tomonidan Alisher Navoiy asarlarining 15 jildligiga ilova tarzida 1972-yilda, keyinchalik 1983–85-yillarda e'lon qilinadi.

nishonlandi va shu munosabat bilan Y.E.Bertels ("Навои. Опыт творческой биографии"), O.Sharafiddinov ("Alisher Navoiy. Hayoti va ijodiyoti"), S.Ayniy ("Alisher Navoiy")larning ilmiy risolalari e'lon qilindi.

Bu davr oralig'ida Navoiy ijodiga doir bir qancha dissertatsion ishlar ham himoya qilindi. V.Abdullayevning "Alisher Navoiyning hayoti va Samarqanddagi adabiy faoliyati" (1941), I.Sultonovning "Navoiyning "Mezon ul-avzon" va uning kritik teksti" (1947), O.Usmonovning "Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari haqida (1947), S.Mirzayevning "Navoiy aruzi" (1948), A.Sa'diyning "Navoiy ijodi o'zbek mumtoz adabiyoti rivojidagi yuksak bosqich sifatida" (1949) tadqiqotlari shular jumlasidandir.

50-yillardan boshlab Navoiy ijodini o'rganish matnshunoslik yo'nalishida davom etdi. 1950–60-yillarda Porso Shamsiyev "Xamsa"ning ilmiy-tanqidiy matnini, H.Sulaymonov esa "Xazoyin ul-maoniy"ning akademik nashrini amalga oshirdilar. Bu yo'nalishdagi ishlar samarasi o'laroq Alisher Navoiy "Asarlar"ining 15 jildligi e'lon qilindi. Asta-sekin Navoiy ijodini o'rganish va ommalashtirish keng tus oldi. Adabiyotshunoslik fanining navoiyshunoslik degan sohasi vujudga keldi. O'tgan asrning 90-yillarigacha Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotlar ro'yxatining o'zi alohida bir kitobni tashkil qiladi (Alisher Navoiy: 1441–1501 yil. Adabiyotlar ko'rsatkichi, 1991).1987–2003-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti hamda H.S.Sulaymonov nomidagi Qo'lyozmalar instituti tomonidan Alisher Navoiyning 20 jildlik "Mukammal asarlar to'plami" e'lon qilindi[6]. Oybek, Olim Sharafiddinov, Sadriddin Ayniy, Yevgeniy Bertels, Vohid Zohidov, Izzat Sulton, Aziz Qayumov, Porso Shamsiyev, Maqsud Shayxzoda, Vohid Abdullayev, Hamid Sulaymonov, Natan Mallayev, Abduqodir Hayitmetov, Abdurashid Abdug'afurov, Sodir Erkinov, Alibek Rustamov, Suyima G'aniyeva, Boturxon Valixo'jayev, Najmiddin Komilov, Yoqubjon Is'hoqov, Rahim Vohidov, Muhammadjon Hakimov, Ergashali Shodiyev, Lutfulla Zohidov va boshqalar navoiyshunoslik taraqqiyotiga alohida hissa qo'shdilar. Alisher Navoiy ijodi bo'yicha o'nlab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yozildi.

[6] Mukammal asarlar to'plamining tarkibi 1-ilovada keltirilgan.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi, jamiyat hayotidagi tub o‘zgarish va erkinlik tufayli Navoiy asarlari o‘zining asl talqinini topa boshladi, shoir merosini o‘rganishning yangi ufqlari ochildi. S.Hasanovning “Navoiyning yetti tuhfasi” (1991), M.Muhiddinovning “Ikki olam yog‘dusi” (1991), H.Qudratullayevning “Alisher Navoiyning adabiy-estetik qarashlari” (1991), A.Hayitmetovning “Navoiyxonlik suhbatlari” (1993), “Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti” (1996), R.Vohidovning “Alisher Navoiyning ijod maktabi” (1994), “Alisher Navoiy va ilohiyot” (1994), A.Abdug‘afurovning “Buyuk beshlik saboqlari” (1995), S.Olimovning “Ishq, oshiq va ma’shuq” (1992), “Naqshband va Navoiy” (1996), N.Jumaxo‘janing “Satrlar silsilasidagi sehr” (1996), S.G‘aniyevaning “Navoiy nasri nafosati” (2000), “Navo topti Navoiy” (2012), N.Komilovning “Xizr chashmasi” (2005), “Ma’nolar olamiga safar” (Alisher Navoiy g‘azallariga sharhlar, 2012), A.Hojiahmedovning “Navoiy aruzi nafosati” (2006), I.Haqqulovning uch kitobdan iborat “Navoiyga qaytish” (2007, 2011, 2016), A.Qayumovning o‘n ikki jildlik “Asarlar”i to‘rt jildi (2010), “Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash’orlar” (2011), A.Rustamovning “Hazrati Navoyiyning e’tiqodi” (2010), Sh.Sirojiddinovning “Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili” (2011), M.Imomnazarovning “Navoiyshunoslikka kirish” (2015), Y.Tursunovning “Munshaot” asarining matniy tadqiqi” (2016) kabi tadqiqotlari, Q. Sodiqovning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarining tahlili, matn transkripsiyasi va hozirgi o‘zbek tiliga tabdili; M.Rashidovaning “Alisher Navoiy “Nazm ul-javohir” asarining matniy tadqiqoti” (1991), M.Hamidovaning “Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining ilmiy-tanqidiy matni va matniy tadqiqi” (1994), M.Muhiddinovning “Alisher Navoiy va uning salaflari ijodida inson konsepsiyasi” (“Xamsa”larning birinchi dostoni asosida, 1995), Q.Ergashevning “O‘zbek nasrida insho” (Navoiyning “Munshaot”i misolida, 1996), Sh.Sirojiddinovning “Alisher Navoiy hayoti va faoliyatiga oid XV–XIX asrlarda yaratilgan fors-tojik manbalari” (qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlil, 1998), A.Erkinovning “Alisher Navoiy “Xamsa”si talqinining XV–XX asr manbalari” (1998), A.Abdullajonovning “Navoiy badiiyatini nemischa tarjimalarda qayta yaratish va tabdil etish” (1998), F.Hayitmetovning “Alisher Navoiy g‘azallari qofiyasi-

da mantiq urg‘usining berilishi” (1998), H.Eshonqulovning “Alisher Navoiy she’riyatida samoviy timsollar” (1999), D.Salohiyning “Alisher Navoiy poetik uslubining tadrijiy takomili” (2001), I.Azimovning “Alisher Navoiyning nasriy asarlarida kesim markazli bosh bo‘lakli gaplarning shakliy va mazmuniy xususiyatlari” (2001), N.Bekovaning “Alisher Navoiyning hamd g‘azallari va “Ruh ul-quds” qasidasining badiiyati” (2003), K.Mullaxo‘jayevaning “Alisher Navoiy g‘azaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san’atlar uyg‘unligi: “Badoyi’ ul-bidoya” devoni misolida, 2005), S.O‘tanovaning “Alisher Navoiy g‘azaliyotida rang simvolikasi” (2007), F. Karimovaning “O‘zbek adabiyotida debocha” (Alisher Navoiy debochalari misolida, 2008), D.Yusupovaning “Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligi” (2008), Z.Mamadaliyevaning “Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidagi ramziy obrazlar tizimi” (2011), M.Tojiboyevaning “Alisher Navoiyning “Ilk devon”idagi arabcha so‘zlarning leksik-semantik talqini” (2011) kabi dissertatsion ishlari shular jumlasidandir.

Alisher Navoiy “Xamsa”si tarkibiga kiruvchi besh doston 2006-yilda nasriy bayoni bilan G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi tomonidan lotin yozuvida nashr etildi. 2011-yilda shoir asarlarining 10 jildlik To‘la asarlar to‘plami kirill yozuvida, 2013-yilda lotin yozuvida e’lon qilindi[7], “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti tarkibiga kiruvchi 4 devon (TAMADDUN, 2011, nashrga tayyorlovchi – O.Davlatov) lug‘at, izoh va sharhlari bilan nashrdan chiqdi.

Alisher Navoiy tavalludining 575 yilligi munosabati bilan “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati bir guruh navoiyshunoslar tomonidan tayyorlangan ikki jildli “Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at”ini nashr etdi. Bu nashr faqat navoiyshunoslikda emas, balki milliy qadriyatlarimiz va boy adabiy merosimizni o‘rganish, ma’naviyatimizning tarkibiy qismi hisoblangan o‘zbek mumtoz adabiyoti va tilining durdonalarini tadqiq etishda ham kitobxonlar uchun munosib tuhfa bo‘ldi.

2016-yildan boshlab Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti har yili shoir tavalludi arafasida “Alisher Navoiy va XXI asr” an’anaviy ilmiy-nazariy konferensiyasini o‘tkazishni yo‘lga qo‘ydi.

[7] 10 jildlik To‘la asarlar to‘plami tarkibi 2-ilovada keltirilgan.

5. Navoiy ijodining xorijda o‘rganilishi

Navoiy asarlari XVI asrlardayoq Yevropada ma’lum edi. 1557-yilda italyan tilida Venetsiyada nashr etilgan va Xristofor Tabriziyga nisbat beriluvchi “Sarandib shohining uch yosh o‘g‘loni ziyorati” asarining ikkinchi qismida Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidan olingan Bahrom va Dilorom sarguzashti bayon qilinadi[8]. Shuningdek, XVII asr gruzin shoiri Sitsishvili Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonini ijodiy tarjima qilib, “Yetti go‘zal” dostonini yaratadi.

1697-yilda fransuz olimi Artoleme d’Erbelo “Sharq kutubxonasi” nomli ensiklopediyada Navoiy tarjimai holi va asarlari nomini keltirsa, sharqshunos Silvestre de Sasi (1758–1838) o‘z tadqiqotlarida Alisher Navoiyning shoir va davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga to‘xtalib o‘tadi.

XIX asrga kelib, Yevropada Alisher Navoiy asarlari hamda uning asarlari asosida tuzilgan lug‘atlarni nashr etish ishlari boshlanadi. Fransuz sharqshunosi Katrmer 1841-yilda Parijda Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” va “Tarixi muluki Ajam” asarlarini nashr ettiradi. Rus olimi I.N.Beryozin o‘zining “Turk xrestomatiyasi” nomli kitobiga shoir asarlaridan parchalar kiritadi.

Rus sharqshunosi V.V.Velyaminov-Zernov 1868-yilda Aloyi binni Muhibiyning “Al lug‘at un-Navoiyat val-istishhodat ul-chig‘atoiyat” (“Navoiy lug‘ati va chig‘atoy tili dalillari”) lug‘atini Sankt-Peterburgda nashr ettiradi. Fransuz sharqshunosi Pave de Kurteyl esa Navoiy asarlaridan foydalanib, lug‘at tuzadi.

G‘arbda Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatini ilmiy aspektda o‘rganish XIX asrdan boshlangan deb aytish mumkin. 1818-yilda nemis olimi X.Purgshtall “Navoiyga oid bitiklar” asarini yaratib, unda Alisher Navoiyning nasl-nasabi, shoirligi, davlat arbobi sifatidagi faoliyati va bunyodkorlik ishlariga to‘xtalib o‘tadi. Rus sharqshunosi P.Savelyev 1835-yilda

[8] So‘nggi izlanishlarda “Sarandib shohining uch yosh o‘g‘loni ziyorati” asarining muallifi X.Tabriziy emas, bunday shaxs tarixda yashab o‘tmagan, bu nom asarning italyan tiliga tarjiymoni Maykl Tramezzinoning xayoliy tasavvuri mahsuli degan fikrlar ilgari surilmoqda (Bu haqda qarang: G.Odilova. Jahon tamaddunining tamaltoshi / Alisher Navoiy va XXI asr (Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari).– T.: TAMADDUN, 2017. – B.155-160.)

shoir ijodiga bag‘ishlab maxsus “Alisher Navoiy” nomli maqola yozadi.

1856-yilda M.Nikitskiyning shoir ijodiga bag‘ishlangan “Эмиръ Низам-Эд-Динъ-Али Ширъ. Государственном и литературном его значении” (“Amir Nizomiddin Alisher: davlat arbobi va shoir sifatida”) nomli ilk magistrlik dissertatsiyasi vujudga keladi. M.Nikitskiy Navoiyning hayoti va faoliyatini ancha to‘liq o‘rgangani; uning shoir, olim va davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga yuqori baho bergani holda Sharq mumtoz adabiyotidagi ijodiy an’analarni anglab yetmagani uchun Alisher Navoiyni “fors-tojik adabiyotining tarjimoni” deb e’lon qiladi.

Aynan shu tarzdagi g‘ayriilmiy qarashlar fransuz sharqshunoslari M.Belen (“Alisher Navoiy”, 1868), E.Bloshe “Milliy kutubxonada saqlanayotgan turkiy qo‘lyozmalar katalogi”, L.Buva (“Temuriylar davri sivilizatsiyasidan lavhalar”, 1926; “Mo‘g‘ul imperiyasi”, 1927), ingliz sharqshunosi E.Braun (“Tatar xonliklari davridagi fors adabiyoti tarixi”, 1920), rus sharqshunosi V.Bartoldlarning tadqiqot va ilmiy maqolalarida davom ettirildi. Xususan, V.Bartold o‘zining “Мир-Али-Шир и политическая жизнь” (“Mir Ali Sher va siyosiy hayot”) maqolasida Navoiyning davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga ijobiy baho beradi, lekin uning adabiy merosi mohiyatini anglab yetmaydi. Olim mazkur maqolada: “*Alisher Navoiy o‘zining devonlarida va boshqa ko‘plab badiiy asarlarida faqatgina forsiy shoirlarning taqlidchisi sifatida namoyon bo‘ladi*”, – deb yozar ekan, masalaga adabiyotshunos emas, balki tarixchining nigohi bilan yondashadi va har bir detalda aniqlik, mantiq, reallik va konkret voqelikni ko‘rmoqchi bo‘ladi[9].

Aslida esa Musulmon Sharqida ijodkorning salohiyati G‘arb adabiyotidagidan farqli ravishda yangi syujet yaratishiga qarab emas, balki an’anaviy voqelik, mavzu, qahramonlar doirasida yangi fikr ayta olish iqtidoriga qarab belgilangan. Aynan mana shu an’anaviylikni anglay olmaslik yuqoridagi olimlarning Alisher Navoiy ijodiga noxolis baho berishlariga olib kelgan.

---

[9] Bu haqda to‘liqroq ma’lumot olish uchun qarang: Эркинов А.С. Подражательность или оригинальность: оценка В.В.Бартольдом узбекской классической литературы // Русская диаспора в Узбекистане: время, события, люди. Материалы научной конференции. – Ташкент, 2009. – С.72–78.

Nihoyat sharqshunos olim Y.E.Bertels Alisher Navoiy va Farididdin Attor dostonlarini qiyosiy o‘rganish orqali (“Навои и Аттар”) hazrat Navoiyning original shoir ekanligini isbotlaydi. Shu tariqa Alisher Navoiy ijodini xorijda keng ilmiy aspektda xolis o‘rganish ishlari boshlab yuboriladi.

Nemis olimi A.Kurellaning “Buyuk shoirning qayta kashf qilinishi” nomli tadqiqoti g‘arb navoiyshunosligida yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu tadqiqotdan so‘ng G‘arbda Navoiy shaxsiyati endi ikki yo‘nalishda: ham buyuk ijodkor, ham davlat arbobi sifatida tadqiq qilina boshlandi. Bu borada inglizzabon olimlardan M.Sabtelni, V.Feldmen, D.Genchturk, D.Devin, K.Adaxl, G.Dik, N.Vomsli, fransuz olimlari M.Toutant, A.Papasning ilmiy izlanishlari va tarjima borasidagi faoliyatlari diqqatga sazovordir.

Butun dunyoda yuz berayotgan turli ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar, ma’naviy tafakkurdagi yangilanishlar buyuk Sharq mutafakkirlari, xususan Alisher Navoiy ijodiga yangicha yondashuvning shakllanishiga zamin hozirladi. Yangi asrning ilk yillaridan boshlab jahonning ko‘plab mamlakatlarida hazrat Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy anjuman va simpoziumlar o‘tkazila boshlandi. Shoir tavalludi munosabati bilan Turkiya, Ozarbayjon, Afg‘oniston, Ukraina, Germaniya, Afg‘oniston, Eronda xalqaro konferensiyalarning o‘tkazilishi va unda o‘zbekistonlik olimlarning ham ishtiroki diqqatga molik jihatlardandir.

Xususan, 2015-yil 9-fevralida Eron Islom Respublikasining Firdavsiy nomidagi Mashhad Universitetida “Amir Alisher Navoiyning tafakkuri, merosi va bashariyatga xizmati” nomi ostida xalqaro ilmiy-amaliy kongress bo‘lib o‘tdi. Kongressda dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan navoiyshunos olimlar o‘z ilmiy ma’ruzalari bilan qatnashdilar. Berlin shahrida Alisher Navoiy ijodiga bag‘ishlab avval simpozium, 2016-yilning fevralida esa “Alisher Navoiy va uning jahon adabiyoti hamda madaniyatiga qo‘shgan hissasi” mavzuida xalqaro konferensiyaning o‘tkazilishi va unda yuzdan ziyod rasmiy, ijtimoiy-madaniy, ilmiy-akademik doira vakillari, jahonning ko‘plab mamlakatlaridan sharqshunos olimlarning ishtirok etishi jahon navoiyshunosligining tobora rivojlanib borayotganligidan

TerDU ARM
№ 403 817

dalolatdir[10]. Bularning barchasi bugungi globallashuv jarayonida Alisher Navoiy ijodi va shaxsiga butun dunyoda qiziqish va ehtiyojning ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Hayotiga doir muhim ma’lumotlar. Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Amir Temurning o‘g‘li Shohrux Mirzo hukmronligi davrida Hirotda tug‘ildi. Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida ma’lumot berilishicha, shoirning tug‘ilgan sanasi hijriy 844-yil ramazon oyining 17-kunida bo‘lib, tovuq yiliga to‘g‘ri keladi. Uning otasi G‘iyosiddin Muhammad (uni G‘iyosiddin Kichkina deb ham atashgan)[11]temuriylar saroyining amaldorlaridan, onasi (ismi ma’lum emas) Kobul amirzodalaridan Shayx Abu Said Changning qizi bo‘lgan[12].

Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla’i sa’dayn” va Mirxondning “Ravzat us-safo” asarlarida keltirilishicha, Alisherning bobosi Amir Temurning o‘g‘li Umarshayx bilan emikdosh (ko‘kaldosh) bo‘lgan. Navoiy “Badoyi’ ul-bidoya”ning debochasi, “Munshaot” hamda “Vaqfiya” asarida otasi Temuriylar saltanatining sadoqatli va yaqin kishisi bo‘lganligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Jumladan, “Vaqfiya” asarida o‘z ota-bobolarining temuriylar saroyida yuqori mavqeda bo‘lganliklari haqida shunday yozadi: “*...bu xokisorning ota-bobosi ul hazrat (**Sulton Husayn Boyqaro**)ning bobo va ajdodi xizmatlarida... ulug‘ marotibqa sazovor va biyik manosibqa komgor bo‘lg‘on erdilar*”[13]. “Majolis

---

[10] Alisher Navoiy ijodining xorijda o‘rganilishi bilan bog‘liq ma’lumotlar M.Xolbekov, A.Abduazizov, R.Abdullayeva, G.Xalliyeva, Z.Mirzayeva kabi olimlarning tadqiqot va maqolalarida keltirilgan.

[11] Amir Temurning Umarshayx ismli o‘g‘liga nabira bo‘lgan shahzoda G‘iyosiddin (Sulton Husayn Boyqaroning otasi)dan farqlash uchun Alisherning otasini G‘iyosiddin Kichkina deb ataganlar.

[12] Ayrim manbalarda Navoiy onasining ismi Salima yo Salimabibi deb ko‘rsatiladi. A.Hayitmetov bu ma’lumot ilk marta XIX asrdagi qo‘lyozmalardan birida kelganini qayd etgan. Ammo bu versiya to‘liq ilmiy asoslanmaganligi uchun farazligicha qolmoqda (Bu haqda qarang: А.Ҳайитметов. Мерос ва ихлос. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985; Маънавият: асосий тушунча ва тамойиллар луғати. –Т.: Ғ.Гулом номидаги НМИУ, 2010. – Б.430).

[13] Alisher Navoiy o‘zining biror asarida ota-onasi haqida aniq ma’lumot keltirmaydi. Navoiy davrida yaratilgan manbalarda ham ulug‘ shoirning ota-onasi bilan bog‘liq yetarli ma’lumot uchramasligini kuzatish mumkin. Hazrat Navoiy g‘oyat kamtarlik yuzasidan o‘z ajdodi borasidagi tafsilotlarning keltirilishini lozim topmagan va zamondoshlarining ham bu masalada shunday yo‘l tutishlarini istagan. Alisher Navoiy vafotidan so‘ng yaratilgan manbalarda bu ma’lumotlar adadi bir oz kengayadi (Bu haqda to‘liqroq

un-nafois" hamda "Nasoyim ul-muhabbat" tazkiralarida otasini she'rsevar va darveshparvar, ijod va irfon ahliga muhabbatli inson sifatida xotirlaydi. Alisherning tog'alari Mirsaid Kobuliy va Muhammad Ali G'aribiylar ham tab'i nazmga ega bo'lib, zullisonayn shoir bo'lishgan. Bo'lajak shoir ana shunday muhitda, alohida tarbiya va nazoratda o'sadi. Kichiklik chog'idan o'z davrining mashhur olimu fozillari davrasida bo'ladi. Uch-to'rt yoshlarida mashhur shoir Qosim Anvorning

Rindem-u oshiqem-u jahonso'z-u jomachok,
Bo davlati g'ami tu zi fikri jahon chi bok

(Mazmuni: Rindmiz, oshiqmiz, jahon o'rtovchi va yoqavayronlarmiz. Sening g'aming turganda dunyo fikridan ne foyda) baytini yod aytib, mehmonlarni hayratga soladi. Bu haqda keyinchalik "Majolis un-nafois"ning birinchi majlisida eslab o'tadi. Bir yildan so'ng, ya'ni 1445-yilda maktabga boradi va temuriy shahzoda Husayn Boyqaro bilan birga o'qiydi.

Manbalarda Alisherning ota bir, onasi boshqa Shayx Bahlulbek ismli akasi hamda Darveshali ismli tug'ishgan ukasi ham bo'lganligi haqida ma'lumot berilgan.

1447-yilda Shohrux Mirzo vafot etadi va temuriy shahzodalar – Alouddavla va uning homiysi Gavharshodbegim, Mirzo Ulug'bek, Abdullatif Mirzo, Mirzo Abulqosim Bobur orasida Xuroson taxti uchun kurash boshlanadi. Hirotda ro'y bergan notinchlik sababli Alisherlar oilasi Sherozga yo'l oladi. Yo'lda, Taft shahrida yosh Alisher zamonasining mashhur tarixchisi, "Zafarnoma"ning muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi va ulug' tarixchi 6 yoshli Alisherning haqqiga duo o'qiydi. Bu haqda Navoiyning o'zi keyinchalik "Majolis un-nafois" va "Nasoyim ul-muhabbat" asarlarida ma'lumotlar keltiradi.

1451-yilda Xuroson ancha tinchib, Alisherlar xonadoni Hirotga qaytadi. Tarixchi Xondamir o'zining "Makorim ul-axloq" asarida yozishicha, karvon Yazd cho'li orqali Hirotga qaytar ekan, kunduzi issiq bo'lganligi uchun kechasi yurilgan. Tungi yurishlardan birida Alisher egar ustidan yerga tushib qoladi va uyqu zo'ridan bexabar yotaveradi. Quyosh yer-u ko'kni yoritgan-

ma'lumot olish uchun qarang: Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Т.: Akademnashr, 2011. – B. 30-32).

dan keyin uyg‘ongan bola yig‘lash va dod-voy solishdan foyda yo‘qligini tushunib, otga minadi va zo‘r diqqat bilan Xurosonga eltuvchi yo‘lni topib, ilgariga harakat qiladi. Bir oz yurgandan keyin havo qattiq qizib, tashnaligi ortadi va holdan ketishiga oz qoladi. Shu paytda uzoqdan gunbazga o‘xshash bir qora nuqta ko‘rinadi. O‘sha joyga yetib, shirin suv to‘la bir idishni topadi. Yazddan beri shirin suv ichmagan Alisher suvdan serob bo‘lib, yana yo‘lida davom etadi. Bolaning yo‘qolganini manzilga qo‘nib bilgan ota-ona bir mulozimni Yazd tomonga jo‘natadilar va Alisherni topib oladilar.

1452-yilda Abulqosim Bobur Mirzo Xuroson taxtiga o‘tiradi va notinchliklar ancha bosiladi. Abulqosim Bobur ma’rifatli hukmdor bo‘lib, tasavvuf ilmidan xabardor, tab’i nazmga moyil shaxs edi. Navoiy bu haqda keyinchalik o‘z tazkirasida shunday ma’lumot beradi: *“Bobir Mirzo – darveshvash va foniysifat va karim ul-axloq kishi erdi. Himmati olida oltunning dag‘i kumushning tosh va tufrog‘cha hisobi yo‘q erdi. Tasavvuf risolalaridin “Lama’ot” bila “Gulshani roz”g‘a ko‘p mash’uf erdi. Tab’i dag‘i nazmg‘a muloyim erdi...”*

1453-yili Abulqosim Bobur Alisherning otasi G‘iyosiddin Muhammadni Sabzavorga hokim qilib tayinlaydi. G‘iyosiddin Muhammad o‘z oilasi bilan shu shaharga ko‘chib o‘tadi. Alisher Sabzavorda o‘qishini davom ettirib, o‘z davrining shoir-u fozillaridan Xoja Ahmad Mustavfiy, Mavlono Yahyo Sebak, Darvesh Mansur, Hofiz Ali Jomiy, Xoja Mahmud, Mavlono Nomiylar bilan tanishadi, Darvesh Mansurdan aruz ilmini o‘rganadi. Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, “Bo‘ston” asarlarini o‘qiydi, Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostonini yod oladi. Bu haqda keyinchalik “Lison ut-tayr” dostonida shunday yozadi:

Istabon tashxisi xotir ustod,
Nazm o‘quturkim ravon bo‘lsun savod.
Nasrdin ba’zi o‘qur ham doston,
Bu “Guliston” yanglig‘-u ul “Bo‘ston”.
Menga ul holatda tab’i bulhavas
“Mantiq ut-tayr” aylab erdi multamas.
Topti sokin-sokin ul takrordin,
Soda ko‘nglum bahra ul guftordin.

1457-yilda Abulqosim Bobur Mirzo vafot etadi. Xurosonda Shohrux Mirzo vafotidan keyingi boshboshdoqlik yana hukm sura boshlaydi: dastlab Mirzo Sulton Ibrohim, keyin esa Movarounnahr hukmdori Abu Said Mirzo Hirotni egallaydilar. O'sha yili Hirot aholisiga uch marta og'ir soliq solinganidan shahar aholisi ko'p aziyatlar chekadi. Husayn Boyqaro taxt uchun kurashga kirishib ketadi.

Bu davrga kelib, endi Navoiy ikki tilda she'rlar bituvchi – zullisonayn shoir sifatida ancha tanilib qolgan edi. Xondamirning ma'lumot berishicha, bir kuni Alisher Navoiy Lutfiy huzuriga borganida, "malik ul-kalom" undan yangi yozilgan bir g'azalini o'qib berishni so'raydi. Navoiy o'zining

Orazin yopqoch, ko'zimdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh

matla'si bilan boshlanuvchi g'azalini o'qiydi. Shunda Lutfiy agar imkoni bo'lganida, o'zining 10-12 ming forsiy va turkiy tilda bitilgan baytlarini shu g'azalga almashtirishini aytib, shoirning iste'dodiga yuksak baho beradi.

"Holoti Sayyid Hasan Ardasher"da berilishicha, Mirzo Sulton Ibrohim Hirotni egallagan davrlarda (1457-yil 31-may – 18-iyul) Navoiy Sayyid Hasan Ardasher bilan ilk bor uchrashadi. Dastlabki muloqotdanoq bu ikki pok niyatli inson o'rtasida ota va farzand orasida bo'ladigan muhabbat va ruhiy yaqinlik paydo bo'ladi. Allaherni o'zining xoksorligi, saxovatpeshaligi, donishmandligi va qadrshunosligi bilan maftun etgan Sayyid Hasan Ardasher ham tez orada yosh shoirning muxlisiga aylanadi. Navoiyning o'zi bu haqda keyinchalik shunday xotirlaydi: *"Chun ul avqotda faqirning nazmlari Xurosonda shuhrat tutub erdi, alar dag'i iltifot qilib, ba'zi abyotni ko'p o'qurlar erdi va majolisda xushvaqt bo'lurlar erdi. Ul jumladin bu matla'durkim, fard:*

Furqatingdin za'faron uzra to'karmen lolalar,
Lolalar ermaski bag'rimdin erur pargolalar..."

1457-yili Hirot Sulton Abu Said mirzo qo'liga o'tib, jabr-u zulm va siyosiy beqarorlik yanada kuchayadi. Navoiy o'z ona shahrini tark etishga majbur bo'ladi. Mashhad shahriga borib, tahsilini davom ettirmoqchi bo'lgan yosh shoir mafosil

(bo‘g‘imlardagi og‘riq, bod kasali) dardiga chalinib, talabalar uchun ajratilgan hujrada kasal bo‘lib yotgan holatini “Majolis un-nafois”da shunday eslaydi:

“...*Sulton Abu Sa’id Mirzo zamonida Mashhadda g‘arib va xasta bir buq’ada yiqilib erdim. Qurbon vaqfasi bo‘ldi, olamning aqso bilodidin xalq imom ravzasi tavofig‘a yuz qo‘ydilar. Rasmdurkim, musofirlar muttayyin buq’a gashtiga ham borurlar, ul buq’adakim, faqir yiqilib erdim, jamoati mavolivash el sayr qilib, devorda bitilgan abyotni o‘qib, bir bayt ustida bahsga tushtilar. Bir ulug‘roq kishikim, ul jamoat ango tobe’ erdilar, ul jamoatni ilzom qildi. Faqir za’f holida ul jamoat jonibidin so‘z ayttim. Anga dedilarkim: bu bemor yigit ham bir so‘z aytadur. Ul ulug‘roq kishi xud Shayx Kamol ermishkim, ziyoratga kelgan ermish! Boshim ustiga kelib, mabhasni orag‘a soldi. Faqir javob bergach, o‘z so‘zidan qaytib, tahsinlar qilib, holimni tafahhus qildi. Ersa ul ham faqirni eshitgan ekandur va ko‘rar havasi bor ekandur*”. Alisher Navoiy va davrining mashhur shoiri Kamol Turbatiy o‘rtasidagi uchrashuv shu tariqa yuz beradi.

Mashhadda Navoiy yana bir sadoqatli do‘st va maslakdosh inson bilan birodarlik ahdini bog‘laydi. Bu kishi – keyinchalik “Pahlavoni Olam” laqabi bilan shuhrat topgan zabardast pahlavon va donishmand zot, insoniylik bobida benazir do‘st Pahlavon Muhammad edi. Mavlono Abdusalom Sheroziy tabibning muolajalari va Pahlavon Muhammadning g‘amxo‘rligi tufayli Navoiy tez orada sog‘ayib ketadi. Og‘ir damlarida yonida turib, beg‘araz yordamini ayamagan pahlavonning fazilatlari haqida Navoiy keyinchalik alohida asar yozib, uning xotirasini abadiylashtiradi.

Alisher Navoiy 60-yillarning boshlarida Hirotga qaytadi. Bu davrda Alisherning tog‘alari Mirsaid Kobuliy va Muhammad Ali G‘aribiylar Husayn Boyqaroning sipohiylari sifatida Sulton Abu Said mirzoga qarshi jangda halok bo‘lgan edilar. Shoir Hirotda uzoq qololmaydi va Samarqandga yo‘l oladi[14]. Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond va Xondamir shoirning

[14] Navoiyning Samarqandga aynan Hirotdan yo‘l olganligi masalasi bir oz bahsli bo‘lib, shoir haqidagi manbalarning birortasida ham uning aynan Hirotdan Samarqandga safar qilganligi haqidagi ma’lumot keltirilmaydi, balki “Xurosondan Samarqandga” yo‘l olganligi aytiladi. Mashhad ham Xuroson tarkibida ekanligi hisobga olinsa, Navoiy Samarqandga Mashhaddan borgan bo‘lishi ham mumkin (Bu haqda to‘liqroq ma’lumot olish uchun qarang:

Samarqandga borish sabablarini ilm o‘rganishga intilish bilan bog‘lasalar, Zahiriddin Muhammad Bobur “ixroj” (surgun) deb ataydi. Alisher Navoiyning o‘zi Sayyid Hasan Ardasherga yozgan “Masnaviy” maktubida Samarqandga ketishining bir nechta sabablarini ko‘rsatadi:

Bir ulkim, chu so‘zdindir inson sharif,
Chu hayvonga so‘z yo‘qdur, uldur kasif...
Men ul menki, to turk bedodidur,
Bu til birla to nazm bunyodidur.
Falak ko‘rmadi men kibi nodire,
Nizomiy kibi nazm aro qodire...
Yetar Tengridin oncha quvvat manga,
Kl bo‘lmas bitiriga fursat manga.
Bu maydonda Firdavsiy ul gurd erur,
Kl gar kelsa Rustam javobin berur.
Raqam qildi farxunda “Shahnoma”ye
Kl, sindi javobida har xomae.
Kl har necha nutq o‘lsa kohilsaroy,
Bitigaymen o‘ttuz yilin o‘ttuz oy.
Ne “Shahnoma”kim, “Xamsa”g‘a ursam el,
Aning panjasi sori yetkursam el.
O‘tuz yilki oni Nizomiy demish,
Qoshimda erur ikki-uch yillik ish...

Ya’ni Navoiy bu o‘rinda vatandan ketish sabablaridan biri sifatida Hirotda ijod qilish uchun imkoniyat yo‘qligini keltirib o‘tyapti. Nazmda qobiliyat jihatidan Nizomiyga teng ekanligi, Firdavsiy va Nizomiylar 30 yil vaqt sarflab yozgan “Shohnoma”-yu “Xamsa”ni 30 oyda yoza olishga o‘zida quvvat mavjudligini ta’kidlayapti.

***Yana bir bukim**, zohir o‘lmish mango,*
Kl, chiqmish Xuroson elidin vafo...

Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий — типологик, текстологик таҳлили. – Б. 45-48).

Navoiyshunos olim Q.Ergashev ham ulug‘ shoir hayotining aynan shu davri navoiyshunoslikda yaxshi o‘rganilmaganligiga e’tibor qaratadi (Эргашев Қ. Алишер Навоий ҳаёти ва ижодий биографиясига доир // Халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. – Б.35-36).

Vafo yerida zohir o'lmish nifoq,
Saxo o'rnida buxl tutmish visoq...
Ham el manzilin shah katakdek buzub,
Tovug' o'rniga chug'z o'lturg'uzub.
Elida kishilikdin osor yo'q,
Sharoratdin o'zga padidor yo'q...
Ne bir hujrakim, kom topqay ko'ngul,
Dame anda orom topqay ko'ngul.
Ne bir sho'x vaslig'a ul moyadast,
Ki, azmim ayog'ig'a bergay shikast.
Ne yoreki, ranjimni qilg'ay qabul,
Ne zoreki, hajrimdin o'lg'ay malul.

Alisher Navoiyning mamlakatni tashlab ketishga majbur bo'lganining yana bir sababi yurtdagi notinchlikdir. Odamlarda bir-biriga vafo yo'q. Vafoning o'rnini nifoq, saxovatning o'rnini baxillik egallagan. Mamlakat shohi xalq uyini katakdek buzib, tovuq o'rniga boyo'g'lini o'tkazib qo'ygan. Odamlarda odamiylikdan nishona yo'q, hamma joyda yomonlik hukmron. Ko'ngil orom topadigan bir hujra yo'q. Tasalli beruvchi biror kishi, ketaman desa, etagidan tutadigan umr yo'ldoshi, ketsa ayriliqdan eziladigan do'sti yo'q.

Samarqandga ketishning yana bir sababi ilm egallashga bo'lgan ehtiyojdir. Zero, Navoiyning fikricha, "Haq sirrining mahrami" qilib yaratilgan inson Allohni ma'rifat orqali tanishi kerak:

***Uchinch** ulki, chun Xoliqi zuljalol,*
Ki, ham lamyazal keldi, ham loyazol.
Chu lavhi vujud uzra tortib qalam,
Iki kavn tarhig'a urdi raqam...
Emas erdi maqsud juz odamiy
Ki, Haq sirrining bo'lg'ay ul mahrami.
Baridin g'araz garchi inson edi,
Anga dag'i maqsud irfon edi.

Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, Allohni tanish 2 yo'l orqali amalga oshiriladi:

1.Haqdan jazba yetishi, ya'ni Alloh yodi bilan o'zligidan bexabar bo'lib yurish, maqomlarni egallamasdan turib, hol

martabasiga erishish. Bu yo'lni Navoiy "majzubi solik" yo'li deb ataydi.

2. Pirga qo'l berib, uning irodasi bilan riyozat chekish va undan so'nggina jazba yetishi, bunda avval tariqatdagi maqomlarni bosib o'tgandan keyingina hol martabasiga erishiladi. Bu yo'lni Navoiy "soliki majzub" deb ataydi. Navoiy birinchi yo'lga erishish muyassar bo'lmagach, piri komil topib, o'zini unga topshirishga qaror qiladi:

Burun murshidi komil istay yurub,
Ani topqach o'zin anga topshurub...
Chu avvalg'i ish bo'lmadi dastgir
Ikinchisidin xo'b emastur guzir.

Shu tariqa Alisher Navoiy 1465–69-yillarda Samarqandda yashaydi. Shoir Samarqandda dastlab moddiy qiyinchilikda hayot kechiradi. Keyinroq, unga shahar hokimi Ahmad Hojibek homiylik ko'rsatadi. Ahmad Hojibek fozil va shoirta'b hukmdor bo'lib, "Vafoiy" taxallusi bilan she'rlar bitgan. Navoiy "Majolis un-nafois"ning 6-majlisini aynan shu ijodkor-hukmdor ta'rifidan boshlaydi: "*Surati xush va siyrati dilkash, axloqi hamida va atvori pisandida yigitdur. Xurosonda tarbiyat topti. Hirot dor us-saltanatida o'n yilg'a yaqin hukumat qildi. Samarqand mahfuzasida ham muddate hokim erdi... Va tab'i bag'oyat xub voqe' bo'lubtur va nazmg'a ko'p iltifot qilur*".

Alisher Navoiy Samarqandda mashhur olim Xoja Fazlulloh Abullays huzurida fiqh ilmidan saboq oladi. Bu haqda keyinchalik "Majolis un-nafois"da shunday yozadi: "*Faqir ikki yil alarning qoshida sabaq o'qub erdim, ancha iltifotlari bor erdikim, "farzand" der erdilar*".

Alisher Navoiy Samarqandda Mavlono Uloyi Shoshiy, Xoja Xurd, Mavlono Muhammad Olim, Mavlono Soyiliy, Darvesh Ahmad Samarqandiy, Mirzobek, Yusufshoh Safoiy kabi olim va shoirlar bilan tanishadi. She'riyat va adabiyotshunoslikka doir ko'plab asarlarni o'qib chiqadi, salaflar va zamondoshlarining baytlarini yod oladi. "Muhokamat ul-lug'atayn"da bu haqda shunday ma'lumot beriladi: "*Yigitligim zamoni va shabob ayyomi avonida ko'proq she'rda sehrsoz va nazmda fusunpardoz shuaroning shirin ash'ori va rangin abyotidin ellik mingdin ortuq yod tutubmen va alar zavq va xushholligidin o'zumni ovutupmen*".

Alisher Navoiy shu yillari shoir sifatida katta shuhrat qozonadi. 1465–1466 yillarda muxlislari uning she'rlarini to'plab, Mashhadda "Devon" tuzadilar va uni oqqa ko'chirishni mashhur xattot Sultonali Mashhadiyga topshiradilar. Bu devon bugun fanda "Ilk devon" nomi bilan mashhurdir.

Alisher Navoiy she'rlarining dovrug'i Sheroz-u Tabrizga ham yoyiladi. "Ilk devon" tuzilishidan so'ng oradan 5 yil o'tgach, 1471-yilda Oqquyunlilar saltanatida ham Alisher Navoiy she'rlaridan tarkib topgan yana bir devon tuziladi. Mazkur devon Oqquyunlilar saroyida faoliyat yuritgan mashhur xattot va shoir Abdurahim ibn Abdurahmon Xorazmiy (taxallusi Anisiy) tomonidan ko'chiriladi. Demak, shoirning o'zi hali rasmiy devon tartib berishga ulgurmay, uning she'rlari kiritilgan ikki devon: biri Mashhadda, biri Sherozda ko'chirilib, Navoiy ixlosmandlarining ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

1468-yil Xuroson hukmdori Abu Said Mirzo Eron uchun bo'lgan jangda halok bo'ladi va 1469-yilning boshida Husayn Boyqaro taxtni egallaydi. U Samarqandga maktub yo'llab, Navoiyni o'z yoniga chaqiradi va Navoiy Hirotga qaytadi. Shu yilning aprelida ramazon hayiti kunlarida shoir unga bag'ishlab "Hiloliya" qasidasini yozadi. U Husayn Boyqaroning taxtga chiqishini yangi oy – hilolga qiyos qiladi:

Yangi oy-u iyd iki qullug'ching o'lsun, aylagan
Sen hilol aning otin, bayram bu yerning kunyatin.

Husayn Boyqaro Navoiyni davlat ishlariga jalb qiladi. Shoir dastlab 1469–1472-yillarda muhrdor lavozimida, 1472–1476-yillarda esa amir (vazir) davozimida xizmat qiladi. Tarixchi Mirxond uning bu davrdagi faoliyati haqida "Ravzat us-safo" asarida shunday yozadi: "*...amir bir necha vaqt muhrdorlik lavozimida qoyim turib, xizmatkorlik poyasini yuqori osmondan ham o'tkazdi. Bir necha vaqtdan keyin, bu mansabni tark etish bobida iltimos qilib, bu lavozimga amir Ahmad Suhayliyni tayin qilishni iltimos qildi. Xoqoni Mansur uning bu iltimosini qabul qildi, lekin hijriy 876-yili sha'bon oyida (1472-yil, yanvar) bandanavoz podshoh ul vojib ul-atob amirni amorat mansabi bilan sarafroz qilmoqchi bo'ldi... Xoqoni Mansurning pokiza ko'ngli shu ediki, amir Alisher vojib ul-iz'on farmonga ko'ra boshqa amirlardan yuqori muhr bossa, lekin ul janobning qo'liga ma'lum soatda*

muhr bossin uchun nishon berganlarida, nafsi siniq bo'lganidan va bag'oyat ulug' tavozu'liligidan, nishonning shunday joyiga muhr bosdikim, undan tubanroqqa muhr bosishga joy qolmadi..."

Alisher Navoiy vazir lavozimida ishlab yurgan paytlarida o'zining butun kuch-quvvatini mamlakat obodonchiligi, el farovonligi uchun sarf qiladi:

Kim bor edi boshima ko'p mehnatim,
Yo'q edi bosh qoshig'ali fursatim

("Hayrat ul-abror"dan).

Mamlakatda zulm va haqsizlikka chek qo'yadi, ilm va san'at ahliga rahnamolik qiladi, bunyodkorlik va obodonchilik ishlariga keng e'tibor qaratadi. "Makorim ul-axloq"da berilishicha, Navoiyning shaxsiy mablag'i va tashabbusi bilan Hirot va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha madrasa, 52 rabot, 20 hovuz, 16 ko'prik va to'g'on hamda juda ko'p masjidlar bunyod etilgan. Ayniqsa, shaharning eng xushhavo joyi – Marg'aniy mavzeida "Ixlosiya" nomidagi katta madrasa (bu madrasada o'z zamonasining zabardast olimlari – Amir Burhoniddin Atoulloh Nishopuriy, Qozi Ixtiyoriddin Turbatiy, Amir Murtoz, Mavlono Fasihiddin Muhammad Nizomiylar dars berishgan) barpo qilingan. "Xalosiya" nomi bilan mashhur bo'lgan xonaqoh o'z davrining eng yirik ilmiy markazlaridan biriga aylangan. Navoiy qurgan madrasalarda mudarris va talabalarga vaqf yerlarining daromadlari hisobidan maosh va idror (stipendiya) belgilangan bo'lib, miqdori va moliyalashtirish manbalari "Vaqfiya" asarida batafsil bayon etilgan. Zamondosh tarixchilarning guvohlik berishlaricha, Navoiy katta mol-mulk egasi bo'lgan. Ammo umri davomida biror marta shaxsiy daromadi zakot nisobiga yetmagan – hosildor yer va bog'lar, savdo va hunarmandchilik do'konlari va boshqa mulklaridan olinadigan daromaddan o'zi uchun yashashga kifoya qilgulik qismini olib, qolgan qismining barchasini mamlakat obodonchiligi va boshqa xayriya amallariga sarflagan. Navoiyning sadoqati va to'g'riligiga to'liq ishongan Husayn Boyqaro unga katta imtiyoz va huquqlar bergan. Saroyda faqat Navoiygina bir iltimos bilan to'qqiz martagacha podshoh huzuriga kirishiga ruxsat berilgan. Navoiy bu imtiyozdan faqat raiyat tinchligi va adolat barqarorligi yo'lidagina foydalangan.

Bu davrda Navoiy zamonasining eng mashhur kishilaridan biri, tojik mutafakkiri, shoir va orif Mavlono Abdurahmon Jomiy bilan yaqindan tanishadi. Bu ikki buyuk shaxsiyatning ustoz-shogirdlik munosabatlari va maslakdoshligi afsonaviy darajada ibrat va hayratga sabab bo'lib, keyinchalik ikki qondosh xalqning do'stligi timsoliga aylandi. Navoiy bu ulug' shaxsiyatning ehtiromini o'rniga qo'yib, hamisha ijod uchun kerakli sharoitni yaratib berdi, o'z maslahatlari bilan yangi-yangi asarlar yozishga targ'ib etdi, deyarli barcha asarlarida uning nomini ixlos va ehtirom bilan zikr etdi. O'z navbatida Jomiy ham ilm va ijod bobida Alisher Navoiyga eng yaqin rahnamo va maslakdosh do'st, davlat va jamoat ishlarida beg'araz maslahatgo'y bo'lib qoldi. Qator asarlarida Navoiy haqida alohida fasl ajratib, ushbu asarlarning yaratilishida Navoiyning xizmatlari, adabiyot va madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi, noyob iste'dodini vasf etdi. Jomiy maktublarining asosiy qismi ham Navoiyga yo'llangan bo'lib, ularda Jomiy turli masalalar bo'yicha vazir va shoir do'stidan madad so'radi, mavjud muammolarni birgalikda hal etishda maslahatlar berdi.

Bu davrda Sulton Husayn Boyqaro, Jomiy va Navoiy Hirot adabiy muhiti markazida turganlar va ular siymosida adabiyot va xalq, ma'naviyat va davlat uyg'unlashgan edi. Ularning bir-birini qo'llashi, ilhomlantirib turishi ulug'vor bir madaniyatning, so'z san'ati namunalari bo'lgan o'lmas obidalarning yaratilishiga sabab bo'ldi.

Alisher Navoiyning mamlakatdagi katta huquqlari va el orasidagi yuksak e'tibori saroy amaldorlari, ayniqsa, Majiddin va uning tarafdorlarining keskin noroziligiga sabab bo'ladi va saroyda fisq-fasod kuchaya boradi. 1476-yilda Navoiy vazirlik lavozimidan iste'fo beradi va badiiy ijod bilan shug'ullanadi.

Alisher Navoiy vazirlik lavozimidan ketgandan so'ng ham Sulton Husayn saroyida eng nufuzli siyosiy arbob bo'lib qolaveradi. Husayn Boyqaro uni o'ziga g'oyat yaqin tutar, har bir narsada u bilan maslahatlashar va shoirning fikrini nihoyatda qadrlar edi. Bu holat ulug' shoir va saroy amaldorlari orasidagi nizoning oshishiga olib keladi. Husayn Boyqaro Navoiyni Astarobodga hokim qilib yuborish bilan saroydagi nizolarga chek qo'ymoqchi bo'ladi.

Alisher Navoiy 1487–1488-yillarda Astarobodda hokimlik qiladi. Mirxondning yozishicha, "*Astarobod gulshani adolat xislatlik amirning kelishi bilan Eram gulistonining g'ayratini keltiradigan bo'lib, Jurjonning sayyidlari, ulamosi, e'tiborli kishilari, fozillari ul maqtovga munosib sifatli amirning lutf-u marhamatlari bilan faxr va quvonch topdilar. Yana ra'iyati uning adolat-u insofining barakoti bilan zulm-u bedodlik zulmatidan najot topib, tinchlik va omonlik, farog'at va osudalikka erishdilar*".

1489-yilda Alisher Navoiy Hirotga qaytgach, o'rniga Astarobod hokimi qilib shahzoda Badiuzzamon tayinlangan edi. Bu orada Balxda Darveshali qo'zg'oloni boshlanadi. Husayn Boyqaro Navoiyni olib, Balxga jo'naydi. Darveshali bilan sulh tuziladi, lekin Hisorda Abu Saidning o'g'li Sulton Mahmud Husayn Boyqaroga qarshi kurash boshlaydi. Shoh Navoiyni Balxda qoldirib, o'g'li Badiuzzamonni olib, Hisorga otlanadi. U bilan ham murosaga kelishib, orqaga qaytadi va Balxni Badiuzzamon tasarrufiga beradi. Badiuzzamon o'n uch yoshli o'g'li Mo'min Mirzoni Astarobodda qoldirib, Balxga keladi. Husayn Boyqaroning suyukli ayoli Xadichabegim bilan Majididdinning o'rniga vazir qilib tayinlangan Nizomulmulk Astarobodga Muzaffar Mirzoni hokim qilib tayinlashga erishadilar. Xadichabegim shohning mastlik chog'ida Mo'min Mirzoni o'ldirish haqidagi farmonga imzo qo'ydirib, uning zudlik bilan ijro qilinishiga erishadi. Husayn Boyqaro hushiga kelib, yangi farmon jo'natadi. Lekin vaqt o'tib bo'lgan edi.

Bu hodisa Alisher Navoiyga qattiq ta'sir ko'rsatadi. Shoir ko'pdan buyon orzu qilgani haj safariga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Shohdan ijozat olib, yo'lga otlanadi. 1499-yilda Marvda Husayn Boyqaroning yana bir o'g'li Abulmuhsin otasiga qarshi bosh ko'taradi. Shoh isyonni bartaraf qilish uchun qo'shin bilan Marvga otlanadi. Mirxondning xabar berishicha, "*Marv qamali uch-to'rt oyga cho'zilib, fath-u zafar shohidi murod ko'zgusida ko'rinmagani uchun xoqoni Mansur sulhga mayl qildi. Abulmuhsin mirzo ham qal'adorlikning cho'zilib ketganidan g'am chekib, otasi qoshiga chopar yubordi va amir Alisherni talab qildikim, to ul janobning vositachiligi bilan sulh ishi voqe bo'lsin*". Shoh Mashhad ostonalariga yetib qolgan Alisher Navoiyga tez chopar yuboradi. Alisher Navoiy Mashhad ulug'lari va ham-

rohlari bilan maslahatlashadi. Ular mamlakatning tinchligi har narsadan ustun ekanligini aytib, hajga borishni kechiktirishni maslahat beradilar. Alisher Navoiy ortga qaytadi va ota-o‘g‘il orasida sulh imzolanadi.

1500-yil dekabrining oxirlarida Husayn Boyqaro Astrobod yurishidan qaytadi. An’anaga ko‘ra, saroyning barcha e’tiborli kishilari shohni kutib olishga yo‘lga chiqadilar. Ular orasida hazrat Navoiy ham bor edi. Sog‘lig‘i juda yomonlashganiga qaramay, shoir safardan qaytgan sulton huzuriga yetib keladi va hamrohlari yordamida uning ko‘ksiga bosh qo‘yib, hushidan ketadi. Bu holat “Makorim ul-axloq”da shunday tasvirlanadi: “*Bir farsaxga yaqin yurganda sohibqironning dabdabali va ko‘rkam mihaffasi ko‘rindi. Shu vaqt Xudoning inoyati bilan ul zotning muborak boshi aylanib qoldi. Olijanob amir Xoja Shihobuddin Abdullani huzuriga chaqirib: “Meni ehtiyot qilishdan g‘ofil bo‘lmang, ahvolim o‘zgarib qoldi”, dedi. Shu payt a’lo hazratning qo‘lini o‘pishga yetishmoq uchun otdan tushdi. To‘satdan yetishgan kasallikning og‘irligi so‘nggi haddiga borib qolgani va yurishga madori qolmaganidan, mazkur amir va Mavlono Jaloluddin Qosim uning qo‘ltiqlariga kirib, ulug‘ Amir boshini baland martabali podshohning quchog‘iga qo‘ya oldi. A’lo hazrat ul buyuklik va va dabdaba doirasi markazining ahvolida o‘zgarish ko‘rib, g‘oyatda qayg‘uga botdi, g‘amgin bo‘ldi*”. Shoirni og‘ir ahvolda uyga olib keladilar. Uch kun hushsiz yotgan Alisher Navoiy 1501-yilning 3-yanvarida sakta kasalligi tufayli vafot etadi.



Tayanch tushunchalar

navoiyshunoslik
an’anaviylik
ravza
tazkira
risola
qasidai masnu’
muvashshah
akademik nashr
Mukammal asarlar to‘plami
To‘la asarlar to‘plami

ilmiy-tanqidiy matn
ko'kaldosh
jazba
maqom
hol
soliki majzub
majzubi solik
irfon
amiri kabir
amir ul-muqarrab
muhrdor
fiqh ilmi



Savol va topshiriqlar:

1. Alisher Navoiy ijodiga uning hayotlik chog'idayoq qiziqish paydo bo'lganining sababi nimada deb o'ylaysiz?

2. Navoiyshunoslikning tadrijiy taraqqiyotini qanday bosqichlarga bo'lib o'rganish mumkin?

3. Hazrat Navoiyning qaysi asarlarida o'zi bilan bog'liq ma'lumotlar bayon etilgan?

4. Navoiy haqida zamondoshlari tomonidan yozilgan yoki zikr etilgan asarlar nomlarini ayting.

5. G'arb adabiyotshunoslari Navoiyni dastavval tarjiymon-shoir sifatida taniganlari sababini qanday izohlash mumkin?

6. Zamonaviy g'arb navoiyshunoslaridan kimlarni bilasiz?

7. Alisher Navoiyning bolalik yillari haqida so'zlab bering.

8. Navoiy hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar beruvchi qanday asarlarni bilasiz?

9. Samarqandga ketar chog'ida Alisher Navoiy Sayyid Hasan Ardasherga yozgan masnaviysida "Xamsa"ni o'ttiz oyda yoza olishini aytadi. Bu holatni qanday baholagan bo'lardingiz? Navoiy bunday da'vo qilishga haqli edimi?

10. Sayyid Hasan Ardasherga yozilgan masnaviy matniga tayanib, Alisher Navoiyning Samarqandga ketish sabablarini aytib bering.

11. Alisher Navoiyning davlat arbobi sifatida amalga oshirgan ishlari haqida to'xtaling.

12. Hazrat Navoiyning haj safaridan qolishiga qaysi voqealar sabab bo'ladi?

ADABIYOTLAR:

Matn va manbalar:

1. Аёзий Мирзо Муҳаммад Ҳайдар. Тарихи Рашидий. – Т.: O'zbekiston, 2011.

2. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Т.: Шарқ, 2002.

3. Бобур Заҳириддин. Бобурнома / Ҳозирги ўзбек тилига Ваҳоб Раҳмонов ва Каромат Муллахўжаева табдили. –Т.: O'qituvchi, 2008.

4. Бойқаро Ҳусайн. Рисола: Девон. – Т.: Шарқ, 1995.

5. Восифий Зайниддин. Бадоеъул вақоеъ – Нодир воқеалар / Форсийдан Н.Норқулов таржимаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979.

6. Самарқандий Давлатшоҳ. Шоирлар бўстони ("Тазкират уш-шуаро"дан) – Т.: Адабиёт ва санъат, 1967.

7. Хоксор Муҳаммад Ризобек. Алишер Навоий асарлари луғати. Мунтахаб ул-луғот. Зубд ул-луғот /Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Akademnashr, 2017.

8. Хондамир Ғиёсиддин бинни Ҳумомиддин. Макорим ул-ахлоқ (Яхши хулқлар) / Форсчадан К.Раҳимов таржимаси. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015.

9. Хондамир Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар. –Т.: O'zbekiston, 2008.

10. Навоий замондошлари хотирасида. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1985.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

11. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1–2-жилдлар /Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.

12. Алишер Навоий ижодий ва маънавий меросининг оламшумул аҳамияти (халқаро илмий-назарий анжуман материаллари). – Т.: O'zbekiston, 2011.

13. Алишер Навоий ва XXI аср (Республика илмий-назарий анжумани материаллари). – Т.: TAMADDUN, 2017.

14. Алишер Навоий: 1441–1501 йил. Адабиётлар кўрсаткичи / Туз. З.Бердиева, А.Туропова. – Т., 1991.

15. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O'zYU Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.

16. Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Movarounnahr – O'zbekiston, 2009.

17. Сирожиддинов Ш. Навоий замондошлари эътирофида. – Самарқанд: Зарафшон, 1996.

18. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Т.: Akademnashr, 2011.

19. Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2010.

20. Эргашев К. Некоторые аспекты государственной деятельности Алишера Навои. – Т.: Фан, 2009.

21. Ҳайитметов А. Темурийлар даври адабиёти. – Т.: Фан, 1996.

22. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. 2-жилд (XVасрнинг иккинчи ярми). – Т.: Фан, 1977.

23. http://www.alishernavoiy.uz

24. http://www.referun.com/n/issledovanie-zhizni-i-tvorchestva-alishera-navoi-v-zapadnoevropeyskom-vostokovedenii#ix-zz2HOWXH4iO

25. http://www.payam-aftab.com/en/news/3094/Ali-Shir-Nava'i



ALISHER NAVOIYNING LIRIK MEROSI. DEVONLARI

Reja:

1. "Ilk devon"ga tavsif

2. Oqquyunli muxlislar devoni haqida.

3. Dastlabki rasmiy devonlar: "Badoyi' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya". "Badoyi' ul-bidoya" debochasida devon tartib berish masalalari.

4. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining yaratilish tarixi. Kulliyotning tarkibiy tuzilishi.

5. "Xazoyin ul-maoniy"ga kirmay qolgan she'rlar.

6. Navoiyning forsiy she'rlari haqida umumiy ma'lumot.

Musulmon Sharqi she'riyati tarixini Alisher Navoiy lirikasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Uning lirik merosi o'zigacha yaratilgan fors-tojik va turkiy she'riyatning davomi bo'lish bilan birga barcha zamonlardagi o'zbek she'riyatining eng yuksak cho'qqisi hamdir. Har ikkala tilda yuksak badiiy asarlar yarata olish qobiliyatiga ega bo'lgan hassos shoir 45 ming misraga yaqin turkiy tildagi she'rlari va 12 ming misradan ortiq fors-tojik tilidagi nazmiy merosi bilan o'sha davr she'riyati rivojiga katta hissa qo'shdi.

Alisher Navoiy bolalik yillaridanoq badiiy ijod bilan shug'ullana boshlagan. "*Uch yosh bila to'rt yoshning orasida*" forsigo'y adib Qosim Anvorning baytini yod o'qib, yig'ilganlarni hayratda qoldirgan ("Majolis-un nafois") Alisher 15 yoshlarida "malik ul-kalom" Lutfiyning tahsiniga sazovor bo'ladi. Adabiyot ixlosmandlari undan devon tuzishni iltimos qilganlarida, u g'oyat kamtarlik yuzasidan devon tuzish uchun hali vaqt erta deb hisoblaydi. Shunda shoirning muxlislari 1465–66-yillarda uning she'rlarini to'plab, devon tuzadilar va bu devon o'z davrida "xattotlar sultoni" nomi bilan mashhur bo'lgan Sultonali Mashhadiy tomonidan nasta'liq xatida ko'chiriladi. Navoiyning o'zi "Badoyi' ul-bidoya"ga yozgan debochasida "...*ammo xaloyiq*

orasida ming bayt-ikki ming bayt ortug'roq, o'ksukrakkim o'zlari jam' qilib erdilar, bag'oyat mashhur bo'lub erdi", – deb yozadi. Devon uni nashrga tayyorlagan adabiyotshunos olim Hamid Sulaymonov tomonidan shartli ravishda "Ilk devon" deb nomlangan bo'lib, 391 g'azal, 41 ruboiy, 1 mustazod, 1 muxammas – jami 434 she'rdan tashkil topgan.

Devonga shoirning 1466-yildan avval yozilgan asarlari kirgani uchun undagi she'rlarning yozilish sanasi nisbatan aniq deb hisoblash mumkin, shu sababli bu devon shoirning o'spirinlik va yigitlik davridagi ijodi va tarjimai holi haqida muayyan tasavvur beruvchi manba sifatida yuksak qiymatga ega. Devondagi she'rlarning asosiy qismini g'azallar tashkil etadi. G'azallar 28 arab harflari bilan tugallanuvchi qofiya hamda radiflar asosida tuzilgan. "Ilk devon" musulmon Sharqida mavjud an'anaga muvofiq hamd g'azal bilan ibtido topadi:

Iloho, podshoho, kirdigoro,
Sanga ochug' nihon-u oshkoro, –

matla'si bilan boshlanuvchi ushbu g'azal shoirning dastlabki rasmiy devonlaridan o'rin olmagan bo'lsa-da, "Xazoyin ul-maoniy"ning birinchi devoni "G'aroyib us-sig'ar"ga kiritilgan. Devondagi g'azallarni kuzatar ekanmiz, bugungi kunda xalq orasida mashhur bo'lgan quyidagi g'azallar ham aynan shoir ijodining ilk davrida yaratilganligiga guvoh bo'lamiz:

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarimg'a kecha tong otquncha uyqu kelmadi...

Ko'rgali husnungni zoru mubtalo bo'ldum sango,
Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldum sango...

Navoiy falsafiy tafakkurida muhim qiymatga ega bo'lgan "Ango" radifli g'azalning ham aynan shu devondan o'rin olganligi shoirning o'sha davrdagi yuksak salohiyatidan darak beradi. G'azal matla'sini keltiramiz:

Har gadokim, bo'riyoyi faqr erur kisvat ango,
Saltanat zarboftidin hojat emas xil'at ango.

"Ilk devon"ga g'azal janridan so'ng

Ne vo'sma-vu ne kesmadur ul zulfi sumansoy,
ne g'amzai jodu

Mashshota sanga zoli falakdur magar, ey oy,
xurshid anga ko'zgu

– deb boshlanuvchi bitta mustazod joylashtirilgan bo'lib, bu mustazod Alisher Navoiy tomonidan dastlab "Badoyi' ul-bidoya", keyinchalik "Badoyi' ul-vasat" devoni tarkibiga kiritilgan.

Devonga uchinchi janr sifatida kiritilgan bitta muxammas yaratilish xusiyatiga ko'ra taxmis shaklida bo'lib, Mavlono Lutfiy g'azaliga bog'langan. Muxammas "*Sharbati yuhyil izom erni mayi nobindadur*" degan misra bilan boshlanadi. Bu taxmis ham dastlab "Badoyi' ul-bidoya"ga, keyinroq kulliyotning uchinchi devoni "Badoyi' ul-vasat"ga kiritilgan.

"Ilk devon" ruboiy janridagi she'rlar bilan intiho topadi. Devondan jami 41 ta ruboiy o'rin olgan bo'lib, ular ham g'azal singari arab alifbosi tartibida joylashtirilgan. Tartiblangan ruboiylar mazmunida ham Sharq devonchiligi an'anasiga amal qilish ko'zga tashlanadi: dastlab hamd va munojot mazmunidagi ruboiylar, keyin esa na't mazmunidagi ruboiylar keladi. Ushbu ruboiylar Alisher Navoiy tomonidan dastlab "Badoyi' ul-bidoya"-ga, keyinchalik "G'aroyib us-sig'ar" devoni tarkibiga kiritilgan. Devondagi dastlabki ruboiy "*Subhonalloh Xoliqi zul-majdu alo*" misrasi bilan boshlanib, unda Yaratganning in'ikosi mehr (quyosh) timsoli vositasida tashbih qilinib, uning nisbati quyosh va zarra munosabatlari orqali ochib berilgan. "Ilk devon"dan o'rin olgan oxirgi ruboiyning

Kim hashrda mast o'lay xarob ey soqiy,
To anglamay etsalar azob ey soqiy

– deb tugallanuvchi so'nggi ikki misrasi devonga ham yakun yasaydi.

"Ilk devon"dagi barcha she'rlarning keyinchalik "Xazoyin ul-maoniy"ga kiritilganligi ularning Alisher Navoiy uchun ham qadrli bo'lganligini ko'rsatadi. Devondagi she'rlar kulliyot tarkibidagi devonlarga quyidagicha taqsimlangan:

"G'aroyib us-sig'ar"ga – 156, "Navodir ush– shabob"ga – 0, "Badoyi' ul-vasat"ga – 132, "Favoyid ul-kibar"ga – 146 ta she'r.

"Ilk devon"ning fanga hozirgacha ikki qo'lyozma nusxasi ma'lum:

Sultonali Mashhadiy tomonidan 870/1465-66 yilda ko'chirilgan qo'lyozma Sankt-Peterburg shahrida, Rossiya Milliy kutubxonasida Dorn 564 inventar raqami ostida saqlanadi.

Qozon shahrida saqlanuvchi qo'lyozma 976/1567-68 yilda Mahmud kotib tomonidan ko'chirilgan bo'lib, Qozon davlat universitetining ilmiy kutubxonasida 1742-inventar raqami ostida saqlanadi.

Navoiyshunos olim, filologiya fanlari doktori Aftondil Erkinov jahon qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan nusxalarni o'rganish asnosida Alisher Navoiyning ixlosmandlari tomonidan tuzilgan yana bir devoni qo'lyozmasini aniqlab, 2012-yilda fanga ma'lum qildi. Mazkur devon shoirning Oqquyunlilar sulolasi (Ozarbayjon va G'arbiy Eron hududida 1378–1508-yillarda hukmronlik qilgan o'g'uz turklari) hukmronligi hududidagi muxlislari tomonidan tuzilgan bo'lib, hozircha fanda shartli ravishda "Oqquyunli muxlislar devoni" nomi bilan yuritilmoqda.

Devon 1471-yil 25-dekabrda Anisiy taxallusi bilan she'rlar yozgan shoir va xattot Abdurahim ibn Abdurahmon Xorazmiy tomonidan Oqquyunlilar saltanatining markazlaridan biri bo'lgan Sheroz shahrida ko'chirilgan. Devonda jami 229 ta she'r bor: 224 g'azal, 1 mustazod, 3 muxammas va 1 tarji'band. Bu majmuadagi 224 g'azaldan 217 tasi "Badoyi' ul-bidoya"ga va faqat bittasigina "Navodir un-nihoya"ga o'tgan. Devondagi 85% g'azal "Ilk devon"da uchramaydi. Bu holat mazkur g'azallarning katta qismi 1466-yildan keyingi 5 yil orasida (1471 yilgacha) yaratilganligini ko'rsatadi.

"Oqquyunli muxlislar devoni" qo'lyozmasi:

Ey, safhayi ruxsoring azal xattidin insho,
Debochayi husnungda abad nuqtasi tug'ro, –

matla'li g'azal bilan boshlanadi. Devondagi g'azallarning aksariyat qismi besh yoki yetti baytdan tarkib topgan. Unda "Ilk devon"dan o'tgan kattaroq hajmdagi g'azallar ham besh yoki yetti baytdan iborat tarzda, ya'ni qisqartirib berilgan.

Devondan o'rin olgan mustazod:

Ey, husnungga zarroti jahon ichra tajalli,
mazhar sanga ashyo,
Sen lutf bila kavn-u makon ichida mavli,
olam sanga mavlo.

– degan bayt bilan boshlanadi, bu mustazod keyinchalik shoirning birinchi rasmiy devoni "Badoyi' ul-bidoya" va "Xazoyin

ul-maoniy" kulliyotining ilk devoni "G'aroyib us-sig'ar"ga kiritilgan.

Devondagi 3 muxammas Lutfiy g'azallariga yozilgan bo'lib, ular ham keyinchalik "Xazoyin ul-maoniy" tarkibidagi devonlardan o'rin olgan.

"Oqquyunli muxlislar devoni" devondagi so'nggi janr – tarji'bandning:

Yodingni qilay harifi majlis,
Fikringni etay ko'ngulga munis

– bayti bilan yakun topgan.

Avvallari Alisher Navoiyning turkiy tildagi she'riyati 4 bosqichda: "Ilk devon", "Badoyi' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya", "Xazoyin ul-maoniy" tarzida o'rganilib kelinardi. Endilikda mazkur devon topilgandan so'ng Alisher Navoiy she'riyatini besh bosqichda o'rganishga zarurat seziladi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

Bosqichlar	Navoiy devonlari	Tuzilish muddati
I	"Ilk devon"	1465-66
II	"Oqquyunli muxlislar devoni"	1471
III	"Badoyi' ul-bidoya"	1470-80
IV	"Navodir un-nihoya"	1480-87
V	"Xazoyin ul-maoniy"	1492-98

Oqquyunlilar saltanatining asosiy aholisi o'g'uz turklari bo'lgani uchun mazkur qo'lyozmada Alisher Navoiy she'rlari o'g'uz lahjasiga moslashtirilib ko'chirilgan. Masalan, *quyosh* so'zi *gunash, tosh-dosh, ber-ver, yig'lar-ag'lar, bor-vor, emas-emaz, sarg'arib-sararub, yo'q-yo'x* tarzida berilgan va hokazo. Navoiyning mashhur g'azali matla'si ushbu devonda quyidagi holatda uchraydi:

*Mehr **cho'x go'rsatdim,** ammo mehribone **dopmadim,***
*Jon base qildim fido, oromi jone **dopmadim.***

"Oqquyunli muxlislar devoni"ning hozirga qadar faqat bitta qo'lyozmasi ma'lum bo'lib, u Qohira shahridagi Misr milliy kutubxonasida Lit. Turc. 68 raqami ostida saqlanmoqda.

Alisher Navoiy Husayn Boyqaro taxtga chiqqanidan keyin uning topshirig'i bilan o'zining birinchi rasmiy devoni "Ba-

doyi' ul-bidoya" ("Badiiylikning boshlanishi")ni tartib beradi. Devonning Alisher Navoiy hayotlik davrida (1480-, 1482– va 1486-yillarda) ko'chirilgan nusxalari Parij Milliy kutubxonasida (1480– yil, inv. № 746), Britaniya muzeyida (1482-yil, inv. № 401) va Toshkent shahrida (1486-yil, inv. № 216, asos nusxa) saqlanadi. Devon mazkur nusxalar asosida filologiya fanlari nomzodlari Sh.Sharipov va M.Rahmatullayevalar tomonidan nashrga tayyorlangan (MAT, 1-jild).

Shoir bu devoni uchun maxsus debocha ham yozib, unda devon tartib berish masalalariga to'xtaladi va quyidagi xususiyatlarni alohida ko'rsatib o'tadi:

"Avval budurkim, har kishikim devon tartib qilibdurur, o'ttiz ikki harfdinki, xaloyiq iboratida voqi'durur va ulus kitobatida shoyi', to'rt harfg'a taarruz qilmaydururlar...

Yana bukim, har harf g'azaliyotining avval bitigan g'azal bila o'zga g'azallar orasida uslub xaysiyatidin tafovut rioyat qilmaydururlar. Muqarrardurkim, har amrda bir lahza Haq subhonahu va taolo hamdidin yo rasul alayhissalom na'tidin, yo bu ikki ishga dalolat qilurdek bir amrdin g'ofil bo'lmamog'liq avlodur...

Yana bir bukim, go'yiyo ba'zi el ash'or tahsilidin va devon takmilidin g'araz majoziy husnu jamol tavsifi va maqsud zohiriy xattu xol ta'rifidin o'zga nima anglamaydururlar. Devon topilg'aykim, anda ma'rifatomiz bir g'azal topilmag'ay va g'azal bo'lg'aykim, anda mav'izatangiz bir bayt bo'lmag'ay...

Yana bukim, soyir davovinda rasmiy g'azal uslubidinkim, shoyi'durur, tajovuz qilib, maxsus nav'larda so'z arusining jilvasig'a namoyish va jamolig'a oroyish bermaydururlar. Va agar ahyonan matla'e maxsus nav'da voqi' bo'lg'on bo'lsa, hamul matla' uslubi bila itmom xil'atin va anjom kisvatin kiydurmaydururlar, balki tuganguncha agar bir bayt mazmuni visol bahorida guloroyliq qilsa, yana biri firoq xazonida xornamoyliq qilibdurur... Ul jihatdin sa'y qilindikim, har mazmunda matla'e voqi' bo'lsa, aksar andog' bo'lg'aykim, maqta'gacha surat haysiyatidin muvofiq va ma'ni jonibidin mutobiq tushkay".

Alisher Navoiy bu o'rinda devonni g'azallar bilan boshlash, g'azallarni 28 harf emas, balki 32 harf (چ – chim, ژ – je, گ – gof va ﻻ – lom-alifni ham qo'shgan holda) bilan tugallash zarurligi, devonga dastavval Allohga hamd yoki Payg'ambarga

na't mavzusidagi g'azallarni joylashtirish, g'azallarga ma'rifat va mav'iza mavzulariga doir baytlar kiritish, g'azal matla'sida keltirilgan fikrni maqta'gacha rivojlantirib borishni nazarda tutadi.

Alisher Navoiyning mazkur devoni aynan yuqoridagi qonun-qoidalarga amal qilingan holda tartib berilgan bo'lib, unda 11 janrga oid jami 1046 ta she'r mavjud. Devonga she'rlar quyidagi tartibda joylashtirilgan: g'azal – 777 ta, mustazod – 3 ta, muxammas – 5 ta, musaddas – 2 ta, tarji'band – 3 ta, qit'a – 46 ta, ruboiy – 85 ta, lug'z – 10 ta, muammo – 52 ta, tuyuq – 10 ta, fard – 53 ta.

Alisher Navoiy tartib bergan ikkinchi rasmiy devon "Navodir un-nihoya" ("Behad nodirliklar") deb atalib, 1480–1487-yillar oralig'ida tuzilgan. Devonning 1487-yilda Hirotda mashhur xattot Abdujamil kotib tomonidan ko'chirilgan nodir qo'lyozma nusxasi hozirda O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida (inv. №11675, asos nusxa) saqlanmoqda. Shuningdek, devonning yana bir nisbatan to'liq nusxasi Sulton Ali Mashhadiy tomonidan Hirotda ko'chirilgan bo'lib, bu nusxa ham hozirda O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida (inv. №1995) saqlanadi[15]. "Navodir un-nihoya" devoni matni mazkur nusxalar asosida filologiya fanlari nomzodi M.Rahmatullayeva tomonidan nashrga tayyorlangan bo'lib, unda 862 she'r bor (MAT, 2 jild). Mazkur nashrdan o'rin olgan she'rlarning barchasi g'azal janriga oid.

Aslida "Navodir un-nihoya"ning Sultonali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan nusxasida g'azaldan tashqari, yana mustazod, tarji'band, qit'a, ruboiy, lug'z, muammo va tuyuq kabi janrlar ham mavjud bo'lib, ular jami 693 ta she'rni tashkil qiladi.

Ushbu janrlarning joylashish o'rni, miqdori va qo'lyozmadagi sahifasini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

---

[15] 80-yillarning oxirida navoiyshunos Suyima G'aniyeva "Navodir un-nihoya"ning yana bir nusxasini Eronning "Koxi Guliston" muzeyi fondidan topdi va bu nusxa 1991-yili "Navoiy dastxati" nomi bilan e'lon qilindi. Olimaning fikricha, mazkur nusxada shoirning muhri bosilgan bo'lib, u "Navodir un-nihoya"ning Navoiy ko'chirgan musaddava (qoralama) nusxasidir. Devonning tarkibi faqat g'azallardan iborat bo'lib, to'liq emas: "kof" bilan tugallangan g'azallardan so'ng matn uzilib qolgan.

T.r	Janr nomi	Miqdori	Sahifasi
1.	G‘azal	628	1b -184 b
2.	Mustazod	3	184b-188 a
3.	Tarji’band	3	188a -198b
4.	Qit’a	5	198b -199 b
5.	Ruboiy	46	199b -204a
6.	Lug‘z	1	204b
7.	Muammo	6	204b -205a
8.	Tuyuq	1	205a
	Jami	693	

Bu janrlar tarkibini o‘rganib, ularni avvalgi rasmiy devondagi she’rlar bilan qiyoslasak, quyidagi natija paydo bo‘ladi: devondagi she’rlarning aksariyati, ya’ni 65 she’rdan 63 tasi avvalgi rasmiy devon “Badoyi’ ul-bidoya”da ham mavjud (bir qit’a va ruboiydan tashqari). Bu taajjublanarli hol, chunki Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” debochasidagi “*ul jam’u tartibdin boshqa (*“Badoyi’ ul-bidoya” nazarda tutilyapti*) yana har taqrib bila har nav’ abyotkim, aytilib erdiyu har nav’ g‘azaliyotkim, yig‘ilib erdi (*“Navodir un-nihoya” haqida so‘z boryapti*)* degan fikriga tayanadigan bo‘lsak, mazkur devondagi turli janrga mansub she’rlarning asosiy qismi yangi bo‘lishi kerak edi, qolaversa, shoir ijodiy laboratoriyasini o‘rgangan olimlar uning “Xazoyin ul-maoniy”gacha bo‘lgan davrdagi she’riyati devondan devonga asosan yangilanib borganligini ta’kidlaydilar[16].

Bundan tashqari, mazkur devon uchun debocha ham yozilgan bo‘lib, Navoiy bu haqda “Xazoyin ul-maoniy”da shunday deydi: “*... ikkinchi devonimdakim, “Navodir un-nihoya”g‘a mashhurdur, rabt-u tartib berib, debochasinda sharh bila aizzayi as’hobu ajillayi ahbob xidmatlarida arz qilib erdim*”. Lekin afsuski bu debocha bizga ma’lum qo‘lyozmalarda ham, zamonaviy nashrlarda ham uchramaydi.

Bu kabi masalalar navoiyshunoslikdagi yechimini kutayotgan muammolardan bo‘lib, ushbu holat “Navodir un-nihoya” devonining mukammal nusxasi hali topilmaganligini ko‘rsatadi.

“Navodir un-nihoya”dagi g‘azallar keyinchalik “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga quyidagi miqdorda joylashtirilgan: 64

[16] Bu haqda to‘liqroq ma’lumot olish uchun qarang: Д.Юсупова. Наводир ун-ниҳоя фақат ғазаллардан иборат девонми? // Алишер Навоий ва XXI аср (Республика илмий-назарий анжумани материаллари). – Т.: TAMADDUN, 2017. – Б.54-60.

g‘azal “G‘aroyib us-sig‘ar”ga, 331 g‘azal “Navodir ush-shabob”ga, 213 g‘azal “Badoyi’ ul-vasat”ga va 196 g‘azal “Favoyid ul-kibar”ga kiritilgan. Hazrat Navoiy “Navodir un-nihoya”dagi g‘azallarni “Xazoyin ul-maoniy”ga kiritganda ko‘pincha ularni tahrir qilgan, ba’zi g‘azallarning faqat matla’sini saqlab qolib, qolgan baytlarini butunlay o‘zgartirgan.

Devon Navoiyning hamd mazmunidagi mashhur g‘azali bilan boshlanadi:

Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo,
Yuzung quyoshig‘a zarroti kavn o‘lub shaydo.

Alisher Navoiy 1492–1498-yillarda Husayn Boyqaroning taklifi bilan o‘zining barcha she’rlari, jumladan, avvalgi rasmiy devonlariga kirgan she’rlarini ham to‘plab, “Xazoyin ul-maoniy” (“Ma’nolar xazinasi”) nomli yirik kulliyot yaratadi. Kulliyot to‘rt devonni o‘z ichiga olganligi uchun “Chor devon” deb ham yuritiladi. Kulliyotning Sankt-Peterburg (1498-99, inv. Xanikov-55; 1592-96, inv. Dorn-558), Istanbul (1495-97, xattot Darvesh Muhammad Toqiy ko‘chirgan, inv. № 808), Parij (1525-27, kotib Hijroniy ko‘chirgan, inv. № 316-317) nusxalari mavjud bo‘lib, ular asosida professor H.Sulaymonov kulliyotning ilmiy-tanqidiy matnini yaratdi (1959-60). Mazkur matn MATning 3–6-jildlarini tashkil etuvchi devonlar uchun asos bo‘lgan.

Alisher Navoiy to‘rt devonning har biriga inson umrining fasllariga moslab nom berdi. Shu ma’noda 7–8 yoshdan 20 yoshgacha bo‘lgan davrni inson umrining bahori deb atadi va kulliyotning birinchi devonini “G‘aroyib us-sig‘ar” (“Bolalik g‘aroyibotlari”) deb nomladi.

20 yoshdan 35 yoshgacha bo‘lgan davrni inson umrining yozi deb belgiladi va “Navodir ush-shabob” (“Yigitlik nodirliklari”) deb atadi. 35–45 yoshni umrning kuziga qiyos etdi va “Badoyi’ ul-vasat” (“O‘rta yosh go‘zalliklari”) deb nomladi. 45–60 yoshini umrining qishiga o‘xshatib, “Favoyid ul-kibar” (“Keksalik foydalari”) deb atadi. Har bir devonga 650 tadan g‘azal kiritdi, shunga muvofiq boshqa she’riy janrlarga (jami 16 janr) ham joy ajratdi.

Mazkur janrlarning kulliyotdagi tartibi va o‘zaro nisbatini H.Sulaymonov tuzgan quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

№	*Navoiy foydalangan lirik janrlar*	*"G'aroyib us-sig'ar" devonida*	*"Navodir ush-shabob" devonida*	*"Badoyi' ul-vasat" devonida*	*"Favoyid ul-kibar" devonida*	*Jami to'rt devonda*
1	G'azal	650 ta (4975 bayt)	650 ta (4998 bayt)	650 ta (5001 bayt)	650 ta (5029 ta)	2600 ta (20003 bayt)
2	Mustazod	1 ta (7 bayt)	1 ta (7 bayt)	1 ta (7 bayt)	1 ta (7 bayt)	4 ta (28 bayt)
3	Muxammas	3 ta (57,5 bayt)	3 ta (52,5 bayt)	2 ta (30 bayt)	2 ta (37,5 bayt)	10 ta (177,5 bayt)
4	Musaddas	1 ta (27 bayt)	1 ta (27 bayt)	2 ta (42 bayt)	1 ta (21 bayt)	5 ta (117 bayt)
5	Musamman				1 ta (28 bayt)	1 ta (28 bayt)
6	Tarji'band	1 ta (100 bayt)	1 ta (103 bayt)	1 ta (56 bayt)	1 ta (110 bayt)	4 ta (369 bayt)
7	Tarkibband		1 ta (56 bayt)			1 ta (56 bayt)
8	Masnaviy	1 ta (148 bayt)				1 ta (148 bayt)
9	Qasida			1 ta (91 bayt)		1 ta (91 bayt)
10	Soqiynoma				1 ta (458 bayt)	1 ta (458 bayt)
11	Qit'a	50 ta (138 bayt)	50 ta (126 bayt)	60 ta (127 bayt)	50 ta (112 bayt)	210 ta (503 bayt)
12	Ruboiy	133 ta (266 bayt)				133 ta (266 bayt)
13	Muammo		52 ta (54 bayt)			52 ta (54 bayt)
14	Lug'z			10 ta (40 bayt)		10 ta (40 bayt)
15	Tuyuq			13 ta (26 bayt)		13 ta (26 bayt)
16	Fard				86 ta (86 bayt)	86 ta (86 bayt)
Jami		*840 ta (5718,5 bayt)*	*759 ta (5423,5 bayt)*	*740 ta (5420 bayt)*	*793 ta (5888,5 bayt)*	*3132 ta (22450,5 bayt)*

Aslida kulliyotdagi she'rlarning bunday taqsimlanishi nisbiy bo'lib, Navoiy o'z she'rlarini devonlarga taqsimlaganda ularning haqiqiy xronologiyasiga emas, balki har bir she'rning ruhi, uslubiga ko'proq e'tibor qaratgan. Shuning uchun ham yoshlik davrida bitgan she'rlarining ba'zilari keyingi devonlarda, qarilik chog'ida yozgan she'rlari avvalgi uch devonga kirib qolganligini kuzatish mumkin. Shoirning turli davrda yozgan g'azallari soni bir-biridan farq qilgan bo'lishi tabiiy. Hamid Sulaymonov "Xazoyin ul-maoniy" devonlaridagi she'rlarning nisbiy xronologiyasini belgilab chiqqan.

Shoir kulliyot uchun maxsus debocha ham yozgan. Debocha "G'aroyib us-sig'ar" devonining boshlanish qismidan o'rin olgan bo'lib, unda an'anaviy hamd va na't qismlaridan so'ng zamona hukmdori Husayn Boyqaro madh etiladi va uning ushbu kulliyotni tartib berish borasidagi rag'bati va farmoni bayon qilinadi. Debochada kulliyotning yaratilish tarixi, tarkibidagi devonlar, ularning mazmun mohiyati, shoirning badiiy ijod bilan bog'liq qarashlari hamda buyuk mutafakkirning muayyan tarzdagi hasbi holi o'z ifodasini topgan. Shoir o'z fikrlarini umumlashtirish, xulosalash paytida ruboiy janridan unumli foydalangan. Debochada jami 30 ta ruboiy keltirilgan.

Alisher Navoiy o'zi ta'kidlab ko'rsatgan devon tuzish mezonlariga rioya etgan holda kulliyotning har bir devonini Allohning hamdi ila ochadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, devonlardagi dastlabki besh g'azal hamd yo'nalishida: ularning to'rttasi tavhid mavzusida bo'lsa, beshinchisi munojot mazmunidadir.

"G'aroyib us-sig'ar" devonidagi dastlabki g'azal

Ashraqat min aksi shamsil ka'si anvor ul-hudo
Yor aksin mayda ko'r deb jomdin chiqdi sado

matla'i bilan boshlanadi. Ushbu g'azal Alibek Rustamov tomonidan *fotiha (ochuvchi) g'azal* deb baholangan edi. Chunki g'azalda aks etgan mazmun faqatgina "G'aroyib us-sig'ar" emas, balki butun kulliyotga xosdir. Yoki boshqacha aytganda, bu g'azalni "Xazoyin ul-maoniy"ga *kirish yo'li* deb atashimiz mumkin. G'azalda ulug' shoir dunyoqarashining asosiy yo'nalishi aks etgan va u keyingi she'rlarda ham davom ettirilgan. Shu ma'noda mazkur g'azal Navoiy devonlaridagi boshqa g'azallarni ham anglab yetishga yordam beradi va biz ushbu g'azal orqali

umuman Alisher Navoiy kulliyotining mazmuniy mundarijasini, g'oyaviy yo'nalishini, shoirning umumshe'riyatiga xos bo'lgan konseptual ildizni topamiz.

G'azalda insonning yaratilishi, uning hayotdagi vazifasi, borliq va yo'qlikning hikmati, qisqacha aytganda, insonning Haqqa bog'lanishi, Unga tobeligi, Haqning marhamati bilan bog'liq masalalar xususida so'z yuritgan.

"Navodir ush-shabob" devonining ilk g'azali

Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo,
Yuzung quyoshig'a zarroti kavn o'lub shaydo

– tarzida boshlanib, unda ishq hodisasi maxsus talqin qilinadi va Haqning husni mazohiriga oshiq bo'lishdek sirli va xos jarayonning bayoni beriladi.

"Badoyi' ul-vasat" devonidagi birinchi g'azal esa mutlaq muhabbat mazharining "navbahori oraz"i tavsifi bilan boshlanib, unda shoir olamning go'zalligi, tabiatdagi yaralish va ijod jarayonining asl ijodkoriga sano yo'llashda eng nozik iboralar, eng chiroyli tashbihlarni qo'llaydi:

Ey navbahori orazing subhiga jonparvar havo,
Andin gul-u bulbul topib yuz barg birla ming navo.

"Favoyid ul-kibar" devoni

Ey yetti manzar tarhig'a me'mori sun'ingdin bino
Masnu'lari foniy, vale maslub soni'dan fano

– matla'li g'azal bilan ochilgan.

Kulliyotdagi qolgan g'azallar oshiqona, orifona, rindona kabi turlarga bo'linsa-da, ular devonlar nomi va o'rnidan kelib chiqib, muayyan ruh bilan sug'orilgan. Xususan, dastlabki devonlardan yoshlikka xos jo'shqinlik va shijoat ruhi yetakchi g'azallar o'rin olgan bo'lsa, "Favoyid ul-kibar"da ijtimoiy ruh yetakchi bo'lgan g'azallar ko'pchilikni tashkil etadi. Murakkab hayot yo'lini bosib o'tgan shoir o'zining uzoq kuzatish va mushohadalar natijasida hosil bo'lgan xulosalarini, davr ahli haqidagi achchiq mulohazalarini keksalik devonidagi g'azallarida yuksak ehtiros bilan ifodalaydi:

Dahrda yo'qtur karam, dahrning ahlida ham,
Qilmag'asen, ey ko'ngil, fikri muhol o'zgacha (548-g'azal).

Ko‘ringanidek, Navoiy devonlaridagi g‘azallarning taqsimlanishi xronologik jihatdan nisbiy bo‘lsa-da, shoir ularning umumiy ruhiyatini devonlar tartibiga moslashtirishga harakat qilgan. Bu holat uning tabiat tasviri bilan bog‘liq g‘azallari tahlilida ham namoyon bo‘ladi. Navoiyning bu yo‘nalishdagi g‘azallarining deyarli barchasi bahor va bahordagi yomg‘irli tong payti tasviri bilan bog‘liq. Ularda tabiat tasviri faqat estetik funksiyani bajaribgina qolmay, muhim ijtimoiy-axloqiy vazifani ham ado etadi. Har bir g‘azal o‘zining muayyan xarakterli belgilari bilan inson uchun ibrat sifatida xizmat qiladi. Agar yigitlik davri lirikasida bu yo‘nalishdagi g‘azallarda bahorga xos holat lirik qahramon kechinmalari va ruhiyati bilan qiyosan kontrast usuli vositasida tavsif etilsa (*“Navbahor ayyomi bo‘lmish, men diyor-u yorsiz”*, “G‘aroyib us-sig‘ar”, 204-g‘azal), “Badoyi’ ul-vasat” devonidan o‘rin olgan g‘azallarda bahor faslining muvaqqat va g‘animat ekanligi olam va odam umrining o‘tkinchiligiga bog‘liq holda falsafiy-ijtimoiy mohiyat kasb etadi (*“Pili gavharkashdurur har yon sahobi pilrang”* deb boshlanuvchi g‘azal).

Navoiyshunoslikda shoir g‘azallarini tasniflashda shoirning “Favoyid ul-kibar” devonidagi qit’asiga diqqat qaratiladi. Navoiy ushbu qit’ada:

G‘azalda uch kishi tavridur ul nav’
Kim, andin yaxshi yo‘q nazm ehtimoli –

deb yozar ekan, Xusrav Dehlaviyning oshiqona, Hofiz Sheroziyning rindona va Abdurahmon Jomiyning orifona g‘azallaridan ruhlanganini e’tirof etadi. Kulliyotdagi har bir devonning so‘nggi g‘azallarini o‘zaro qiyosan o‘rganish asnosida e’tiborli bir holat ko‘zga tashlanadi: “G‘aroyib us-sig‘ar”da Xusrav Dehlaviy, “Navodir ush-shabob”da Hofiz Sheroziy nomiga urg‘u qaratilgan bo‘lsa, “Badoyi’ ul-vasat” Abdurahmon Jomiy yodi bilan intiho topadi. “Favoyid ul-kibar”da Navoiy “to‘rt daftar”, ya’ni devonlarni yakunlayotganiga ishora qilar ekan, o‘z so‘zini aynan Rasulluloh madhi bilan tugallamoqchi ekanligini alohida ta’kidlaydi:

Sening madoyihi na’tingda, yo Rasulullo,
Tamom bo‘ldi Navoiy takallumi poki.

Bu holat buyuk shoirning Rasulullo (s.a.v.)ga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbati, Ul zotning shafoatiga muyassar bo‘lish istagini ifodalaydi.

"Xazoyin ul-maoniy"ga kiritilgan to'rtta mustazod ham mavzu jihatdan rang-barang. Shoir devonlardagi janrlarni qo'llashda muayyan tartibga rioya qilganidek, she'rlarni mazmun-mavzusi asosida taqdim etishda ham izchillikni saqlab qoladi. Shu bois birinchi devon "G'aroyib us-sig'ar"ga hamd mazmunidagi mustazod (*Ey husnunga zarroti jahon ichra tajalliy, mazhar sanga ashyo// Sen lutf bila kavnu makon ichida mavliy, olam sanga mavlo),* "Navodir ush-shabob"ga rindona (*Din ofati bir mug'bachai mohliqodur, mayxoravu bebok // Kim ishqidin oning vatanim dayri fanodur, sarmastu yaqom chok),* "Badoyi' ul-vasat"ga oshiqona *(Ne vo'smavu ne kesmadur ul zulfi sumansoy, ne g'amzai jodu‖ Mashshota sanga zoli falakdur magar, ey oy, xurshid anga ko'zgu)* va so'nggi devonga orifona mazmundagi (*Bordim bu sahar dayri fano sori urub gom, maxmuri shabona, // Tortar edi har lahza sabuh ahli ichib jom, noqusi mug'ona*) mustazodni kiritadi.

Kulliyotdan jami o'nta muxammas o'rin olgan bo'lib, ular asosan taxmis yo'nalishida: uchta taxmis "malik ul-kalom" Lutfiy g'azallarini beshlantirish asosida vujudga kelgan bo'lsa, qolgan yetti taxmis shoirning o'z g'azallariga bitilgandir. Musaddas janridagi she'rlari misolida Navoiy o'z zamondoshlari Lutfiy va Husayniy she'rlarini qayta jonlantirdi: kulliyotdagi beshta musaddasdan ikkitasi Lutfiyga, bittasi Husayniy g'azaliga bog'langan. Qolgan ikki musaddasdan biri o'z g'azaliga tasdis, ikkinchisi – shoirning o'z tab'ida yaratilgan musaddasidir. Navoiy o'zigacha turkiy tilda faqat Yusuf Amiriy she'riyatida qo'llanilgan janr – musammanga ham murojaat qildi. Har bir bandi sakkiz misradan iborat yetti bandlik, jami ellik olti misradan iborat bu musamman "Favoyid ul-kibar" devoniga kiritilgan. Devonlarning har biridan o'rin olgan to'rtta tarji'bandning dastlabki ikkitasi tasavvufiy-falsafiy, qolgan ikkitasi ishqiy mavzuda. "G'aroyib us-sig'ar"ga kiritilgan tarji'band "*Ketur soqiy, ul mayki subhi alast*" misrasi bilan boshlanib, hajman 10 band (har bandda 10 bayt), 100 baytni o'z ichiga oladi. Kulliyotdan o'rin olgan ikkinchi tarji'band "*Jahon qasrig'adur su uzra bunyod*" misrasi bilan boshlanib, hajman 8 band (bandlar 11–12 baytli), 103 baytni o'z ichiga oladi. "Badoyi' ul-vasat" devoniga kiritilgan tarji'band esa ishqiy mavzuda bo'lib, "*Ey kirpiki neshu ko'zi xunxor*" misrasi bilan boshlanadi. Hajman

7 band (har bir band 8 bayt), 56 baytdan iborat. Kulliyotdagi so‘nggi tarji’band “*To xarobot aromen durdoshom*” misrasi bilan boshlanadi. Hajman 10 band (har bandda 11 bayt), 110 baytdan iborat bo‘lib, “Favoyid ul-kibar” devoniga kiritilgan.

Kulliyotda yagona hisoblangan, “Navodir ush-shabob”dan o‘rin olgan tarkibband Sayyid Hasan Ardasher xotirasiga bag‘ishlangan bo‘lib, marsiya yo‘nalishida. Hajman 7 band, 56 baytdan iborat bu tarkibband quyidagicha boshlanadi:

Dahr bog‘iki jafo shoriidur har chamani,
Juz vafo ahlig‘a sonchilmadi aning tikani...

“Xazoyin ul-maoniy”dan o‘rin olgan bitta masnaviy ham Sayyid Hasan Ardasher nomi bilan bog‘liq. Masnaviy hajman 148 baytdan iborat bo‘lib, yosh shoirning safar oldidan ustozi va do‘stiga yozgan she’riy maktubini o‘z ichiga oladi. Ushbu masnaviy-maktub shoirning yoshlik lirikasi mahsuli bo‘lib, kulliyotning birinchi devoniga kiritilgan.

Kulliyotga kiritilgan yana bir yirik janr qasida bo‘lib, hajman 91 baytdan iborat. Qasida 1469-yilning 14-aprelida ramazon hayiti kuni yozib tugallangan va Husayn Boyqaroning taxtga chiqishi munosabati bilan o‘tkazilgan marosimda shohga taqdim etilgan. Qasida Navoiyning yoshlik lirikasi mahsuli bo‘lsa-da, shoir kulliyotning shakliy jihatlarini hisobga olib, uni uchinchi devoni “Badoyi’ ul-vasat”ga kiritadi. Qasida shoirning avvalgi rasmiy devonlariga kiritilmaganligidan uni Navoiy keyinchalik qayta ishlagan va hozirgi tugal holatga keltirgan bo‘lsa kerak degan taxmin kelib chiqadi. Qasidaning “Hiloliya” deb atalishiga sabab, shoir Husayn Boyqaroning taxtga o‘tirishini yangi chiqqan oy – hilolga qiyos qiladi.

Turkiy adabiyotga soqiynoma janri ham Navoiy ijodi bilan birga kirib keldi. “Favoyid ul-kibar” devonidagi kichik dostonga qiyoslash mumkin bo‘lgan soqiynoma hajman 458 baytdan iborat bo‘lib, Navoiy yashagan davrdagi tarixiy shaxslar, davr muammolari, eng avvalo, Navoiy shaxsi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni o‘zida aks ettirganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Kulliyotdan 210 ta qit’a ham o‘rin olgan bo‘lib, “Badoyi’ ul-vasat”ga 60 ta, qolgan devonlarga 50 tadan qit’alar joylashtirilgan. Kulliyot devonlaridagi qit’alar ham an’anaviy hamd va na’t mavzusi bilan boshlanib, ijtimoiy hayot masalalari,

muayyan davr voqea-hodisalari hamda u yoki bu guruh vakillari faoliyati haqidagi mazmun bilan davom etadi.

"Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidagi barcha devonlar muayyan kichik lirik janrlar bilan ziynatlangan. "G'aroyib us-sig'ar"-da bu holat ruboiy janri vositasida namoyon qilingan bo'lsa, "Navodir ush-shabob" muammo, "Badoyi' ul-vasat" lug'z va tuyuq janrlari joylashtirilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi, "Favoyid ul-kibar" esa xulosalovchi janr hisoblanmish fard bilan yakunlangan. Bu holat faqat shakliy xususiyat kasb etmay, devonlarning nomlanishi va mohiyati bilan ham aloqador. Kichik lirik janrga mansub she'rlar o'zaro boshqa devonlarda uchramaydi, ya'ni ruboiylar "Navodir ush-shabob"da, fardlar esa "G'aroyib us-sig'ar"da yo'q. Alisher Navoiy bu janrlarni devonlarga taqsimlar ekan, mantiqiylikka ham rioya qilgan. Masalan, ruboiyda fikr va tuyg'uni lo'nda tarzda ifodalash imkoni mavjud va aksar ruboiylarda asosan ishq mavzusi yetakchilik qilgan. Bu esa aynan insonning ulg'ayish jarayonidagi holatlarini o'zida aks ettirayotgandek. Muammo esa kishidan zehn, diqqat va aqliy mehnat talab qiladi. Yigitlikda insonning aqli charxlanib boradi. Shu bois, "Navodir ush-shabob"da muammolarning kelishi ayni shu holatning ifodasi deyish mumkin. Qolaversa, "Xazoyin ul-maoniy"ga qadar yaratilgan "Badoyi' ul-bidoya" devoniga kiritilgan muammolarning barchasi "Navodir ush-shabob"ga ko'chib o'tgan. Demak, shoir turkiy tildagi barcha muammolarini qirq yoshiga qadar yozib bo'lgan.

"Badoyi' ul-vasat"da kelgan lug'z janriga oid she'rlar topqirlikni, tuyuqlar esa hassoslikni, sezgirlikni talab qiladi. O'rta yoshlarda inson, odatda, hayot haqiqatlarini to'la bir shaklda tushunadi, qalbidan o'tkazadi. Bu janrga mansub she'rlar esa ayni shu holatga mos keladi. Alisher Navoiy devonni tariblashda bu holatga ham diqqat qaratgan, nazarimizda. Fard, asosan, pandnoma ruhida yoziladi. Unda hayotiy xulosalar quyma misralarda aks ettiriladi. Keksalik – donishmandlik va mutafakkirlik maqomidir. Bu maqomdan turib hayotiy tajribalarni o'zida mujassam qilgan chuqur mazmunli fardlarni yaratish tabiiy. Shuning uchun Alisher Navoiyning fardlari "Favoyid ul-kibar" devonidan o'rin olishi zamirida ushbu o'ziga xoslikni payqash mumkin. Qolaversa, yoshligida do'stlari va yaqinlari ko'p bo'lgan inson keksayganda, o'zi istasa-istamasa fardlikka

– yolg'izlikka yuz tutishi kuzatiladi. Ehtimol, fardlarning faqat "Favoyid ul-kibar"da keltirilishi ushbu haqiqatning tasdig'i ham bo'lishi mumkin. Bu holatlar Alisher Navoiy she'rlarni o'z kulliyotiga joylashtirar ekan, janrlarning nafaqat shakli, balki mohiyatiga ham diqqat qaratganini asoslaydi.

Olim H.Sulaymonovning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, Navoiy "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotini tuzish ustida bir necha yil tinimsiz mehnat qilgan va 1498– yildagina uni hozirgi holatda tugal tarzda yakunlagan. Navoiy kulliyot devonlarini o'zaro ichki mustahkam bog'liq holda va qat'iy mutanosiblikda tuzadiki, ularga keyinchalik birorta g'azal kiritish yoki devonlar tarkibidan tushirib qoldirish va hatto ichki o'rnini almashtirish ham mumkin bo'lmagan.

"Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining ichki tuzilishi jahatidan nihoyatda mustahkam tarzda tartib berilganligini shundan tasavvur qilish mumkinki, Alisher Navoiy undagi to'rt devonning har biriga teng miqdorda 650 tadan g'azal joylashtirgangina emas, balki shu bilan birga, ushbu g'azallarning qofiyalanishiga ko'ra ham har bir devonda o'zaro teng va qat'iy mutanosib bo'lishiga jiddiy ahamiyat bergan. Ya'ni, "alif" harfi bilan tugallanuvchi qofiya va radifli g'azallar to'rtala devonda ham 39 tadan, "be" harfi bilan tugallanuvchi qofiya va radifli g'azallar 27 tadan va h.k. teng tarzda uchraydi.

Yoki yana bir misol. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida hammasi bo'lib "Ango" radifli 12 g'azal mavjud. Bu g'azallar to'rtala devonga uchtadan teng tarzda taqsimlangan. Shuningdek, ular har bir devonda bir o'rinda, ya'ni 8-9-10 o'rinlarda joylashtirilgan. Bularning barchasi kulliyotning nihoyatda mustahkam tartibda o'zaro mutanosib holatda tuzilganligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti takmilini 1498-yilda tugatgandan so'ng bu sanadan keyingi yillarda ham yuksak ijodiy sur'at bilan ishlashda davom etgan. Shoirning o'zi kulliyot debochasida guvohlik berishicha, bir kunda bir-ikki, ba'zan uch-to'rt g'azal yozgan paytlari ham bo'lgan:

Kun bor ediki bir g'azal-u ikki g'azal,
Bal uch g'azal-u to'rt g'azal ba'zi mahal...

Navoiyshunos A.Abdug'afurovning yozishicha, Navoiy hayotining so'nggi yillarida ham ana shunday katta ilhom va jiddiy sur'at bilan barakali qalam tebratgan va keyingi ikki yildan

ortiq vaqt davomida ko‘plab g‘azal, qit’a, ruboiy, muxammas va boshqa lirik janrlarda asarlar yaratgan[17]. Olim bu lirik she’rlar o‘rin olgan bir necha manbalarni keltiradi:

“Muhokamat ul-lug‘atayn”da shoir o‘zbek adabiyoti va jonli so‘zlashuv tilining boyligini ko‘rsatish maqsadida ko‘plab so‘z va iboralarning yozma adabiyotda ishlatilishiga misol tariqasida o‘z she’riyatidan baytlar keltiradi. Keltirilgan baytlarning aksariyati taxallus bilan yakunlanuvchi maqta’ ekanligi hazrat Navoiyning mazkur g‘azali tugal holda mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Ba’zi tazkiralar, xususan, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” tazkirasida keltirilgan maqta’ bayt Navoiy devonlarining hech birida uchramaydi.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Risolai aruz” asarida Navoiy ijodidan ramal bahri uchun misol tariqasida keltirilgan qirq oltd g‘azal matla’larining bittasi kulliyot tarkibiga kirmaganligining guvohi bo‘lamiz.

Alisher Navoiy asarlariga XV–XVHI asrlarda tuzilgan lug‘atlar, xususan, “Badoyi’ ul-lug‘at”, “Abushqa”, “Sanglox” lug‘atlarida ko‘plab so‘zlarning izohi uchun keltirilgan ayrim misol baytlar ham “Xazoyin ul-maoniy”da uchramaydi.

Alisher Navoiy g‘azallariga bitilgan ko‘plab taxmislar tarkibidagi shoir qalamiga mansub baytlar ajratib olinganda ularning ba’zilari “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida mavjud emasligi ma’lum bo‘ladi[18].

Bularning barchasi Alisher Navoiy umrining so‘nggi yillarida ham ijod qilishdan bir lahza to‘xtamaganligini ko‘rsatadi.

Alisher Navoiy forsiy tilda bitgan she’rlarini ham yig‘ib, “Devoni Foniy” nomli to‘plam tuzdi. Bizgacha devonning bir necha qo‘lyozma nusxalari yetib kelgan. Bulardan 2 tasi Parij (inv. № 285, 1345), 2 tasi Turkiya (inv. № 3850, 1952) va bir

[17] Adabiyotshunos F.Sulaymonova Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga kirmagan she’rlarini to‘plab, “Ayyomi visol o‘ldi yana” nomi bilan nashr ettirdi. Mazkur to‘plamga Alisher Navoiyning 61 g‘azali, 2 ruboiysi, 7 qit’asi va 4 fardi kiritilgan. MATning 20-jildiga ilova tarzida kiritilgan qismda Alisher Navoiyning ushbu she’rlaridan tashqari Husayniy g‘azaliga taxmisi va turli manbalarda uchraydigan she’riy parcha hamda baytlari keltirilgan..

[18] Adabiyotshunos olim A.Erkinovning ta’kidlashicha, Alisher Navoiyning nuxlislari tomonidan tuzilgan Oqquyunlilar devoni tarkibida ham “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga kirmagan 2 g‘azal mavjud.

nusxa Tehron (inv. № 15002) kutubxonalarida saqlanadi. Bu nusxalar orasida Parijdagi 285-raqamli qo'lyozma nisbatan to'liqroq hisoblanadi[19]. Akademik B.Valixo'jayev "Devoni Foniy" nusxalarini o'rganib chiqib, ulardagi she'riy janrlar miqdorini quyidagicha deb ko'rsatadi: 10 qasida, 554 g'azal, 1 musaddas, 1 marsiya, 72 qit'a, 73 ruboiy, 16 ta'rix, 373 muammo, 9 lug'z. Olim ularning miqdorini 1109 ta deb belgilab, umumiy hajmi 6179 bayt ekanligini ta'kidlaydi.

Mukammal asarlar to'plamining 18-, 19– va 20-jildlari "Devoni Foniy"ni o'z ichiga oladi. Mazkur nashrda 552 g'azal, 1 musaddas, 1 tarkibband – marsiya, 64 qit'a, 72 ruboiy, 16 ta'rix, 266 muammo, 10 qasida, 9 lug'z kabi janrlardan tashkil topgan 991 she'r mavjud bo'lib, nusxalardagi har xilliklar ushbu devonning mukammal nusxasi hali topilmaganligini ko'rsatadi.

Ko'ringanidek, Alisher Navoiyning barcha she'riy merosi 9 devonda jamlangan bo'lib, ularning ikkitasi muxlislari tomonidan tuzilganligi Navoiy she'rlariga hamma davrlarda, xususan, o'z davrida ham yuqori darajada ehtiyoj bo'lganligidan darak beradi.

Tayanch tushunchalar

debocha
devon tartib berish shartlari
Navoiy dastxati
nasta'liq xati
rasmiy devon
kulliyot
to'rt devon
lirik janr
janriy xususiyatlar

Savol va topshiriqlar

1.Shoir sifatida ancha tanilib qolgan bo'lsa-da, Alisher Navoiy yigitlik davrida nima uchun devon tartib berishga rag'bat ko'rsatmagan deb o'ylaysiz?

2. Alisher Navoiygacha va Alisher Navoiydan keyin muxlislari tomonidan devoni tuzilgan yana qaysi shoir nomini keltira olasiz?

3. Alisher Navoiyning muxlislari tuzgan devonlari haqida aytib bering.

4. Alisher Navoiyning mukammal she'riy devon uchun qo'ygan talablarini sharhlang.

[19] Professor H.Sulaymon "Devoni Foniy" nusxalarini o'rganish asnosida shunday xulosaga kelgan.

5. "Navodir un-nihoya"ning qo'lyozma nusxalari va ulardagi janrlar miqdori haqida ma'lumot bering.

6. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining yaratilish tarixi haqida nimalarni bilasiz?

7. "Xazoyin ul-maoniy"dagi she'rlarning aniq matematik tartibda joylashtirilganligidan qanday xulosaga kelish mumkin?

8. Mazkur kulliyotning o'zbek she'riyati taraqqiyotiga ko'rsatgan ijobiy ta'siri haqida qanday tasavvurga egasiz?

ADABIYOTLAR:

Matn va manbalar:

1. Алишер Навоий. Хазойинул маоний (Илмий-танқидий текст асосида нашрга тайёрловчи Ҳ.Сулаймонов). 4 жилдлик. 1-4-ж. – Т.: Фан, 1959-1960.

2. Алишер Навоий. Илк девон. 1466 йил кўчирилган қўлёзманинг факсимил нашри (Нашрга тайёрловчи Ҳ.Сулаймон). – Т.: Фан, 1968.

3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1987-1988. 1-2-ж.

4. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1988-1990. 3-6-ж.

5. Алишер Навоий. Девони Фоний. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 2003. 18-20-ж.

6. Алишер Навоий. Айёми висол ўлди яна: Янги топилган ғазаллар (Нашрга тайёрловчи Ф.Сулаймонова). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995.

7. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Нашрга тайёрл. О.Давлатов. Том 1-2. – Т.: TAMADDUN, 2011. 1–4-ж.

8. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. 1–4 ж.

9. Алишер Навоий. Оққуюнли мухлислар девони. 1471 йилда кўчирилган қўлёзманинг факсимил нашри (Нашрга тайёрловчи А.Эркинов / Ali Shir Navoi. Divan of the Aq qoyunli Admirers (1471). Tokyo, 2015.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

10. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1 – 2-жилдлар /Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.

11. Алишер Навоий ва XXI аср (Республика илмий-назарий анжумани материаллари). – Т.: TAMADDUN, 2017.

12. Абдуғафуров А. "Хазойин ул-маоний"дан четда қолган ғазаллар// Навоийнинг ижод олами (мақолалар тўплами). – Т.: Фан, 2001.

13. Неҳоқов Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси: Филол. фан.номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссерт. – Т., 1963.

14. Эркинов А. Навоийнинг мухлислари томонидан тузилган яна бир девони // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: Фан, 2012. – № 1.

15. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. 2-жилд (XV асрнинг иккинчи ярми). – Т.: Фан, 1977.



XAMSANAVISLIK AN'ANASI VA ALISHER NAVOIY "XAMSA"SI. "HAYRAT UL-ABROR"

Reja:

1. Xamsanavislik tarixi. Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy xamsalari.

2. Hirot adabiy muhiti xamsanavisligi.

3. Abdurahmon Jomiy "Xamsa"sining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

4. Alisher Navoiy "Xamsa"siga umumiy tavsif.

5. "Hayrat ul-abror" dostonining tarkibiy tuzilishi.

6. Doston muqaddimasi – "Xamsa" uchun ochqich sifatida.

7. Maqolatlarda komil inson axloqiga doir qarashlar.

8. Dostondagi hikoyatlar – pandnomalarning yetuk namunalari sifatida.

Musulmon Sharqi epik poeziyasi tarixi xamsachilik an'anasi bilan chambarchas bog'liq. Dastavval XII asrda vujudga kelgan xamsa janri sakkiz asrga yaqin vaqt davomida yuzlab javob dostonlarga ega bo'ldi. Sharq adabiyotida birinchi bo'lib "Xamsa" yozgan shaxs buyuk ozarbayjon shoiri *Nizomiy Ganjaviy*dir. U 1170–1204-yillar oralig'ida birin-ketin 5 ta doston yaratdi. Bu dostonlar shoir vafotidan so'ng yaxlit bir to'plamga birlashtirilib, "Panj ganj" ("Besh xazina") deb atala boshlandi va keyinchalik "Xamsa" nomi bilan mashhur bo'ldi.

Nizomiy beshligidagi birinchi doston "Maxzan ul-asror" ("Sirlar xazinasi") deb atalib, 1180-yilda yaratilgan. Nizomiy bu dostonini g'aznaviylar hukmdori Bahromshoh (XII asr)ga bag'ishlaydi. "Maxzan ul-asror"ning vujudga kelishida XII asr klassigi Hakim Sanoiy "Hadiqat ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar bog'i") dostonining ta'siri bor. Umuman, musulmon Sharqida falsafiy-didaktik yo'nalishdagi dostonlarning ibtidosi ham bevosita shu doston bilan aloqadordir.

"Maxzan ul-asror" falsafiy-axloqiy masalalarga bag'ishlangan bo'lib, 18 bobdan iborat muqaddima, asosiy qism va xotima bobni o'z ichiga oladi. Muqaddima hamd, ikki munojot, na't, me'roj tuni ta'rifi, to'rt salavot, Malik Faxriddin Bahromshoh madhi, kitobning maqomi va martabasi, so'z fazilati bayoni, manzum so'zning mansur so'zdan afzalligi, tun tavsifida, birinchi xilvat, birinchi xilvat samarasi, ikkinchi xilvat va ikkinchi xilvat samarasi bilan bog'liq boblardan tashkil topgan. Asosiy qism 20 maqolat va har bir maqolatga ilova qilingan 20 hikoyatdan iborat. Birinchi maqolat Odamning yaratilishi haqida bo'lib, unga "Noumid podsho va uni Xudo kechirgani" hikoyati ilova qilingan. 2-maqolat adolat, 3-maqolat olam hodisalari, 4-maqolat xalqiga mehrli shohlar, 5-maqolat keksalik, 6-maqolat borliq, 7-maqolat insonning boshqa maxluqotlardan ulug'ligi, 8-maqolat yaratilish, 9-maqolat himmat va oqko'ngillik, 10-maqolat oxir-zamon alomatlari, 11-maqolat dunyoning bevafoligi, 12-maqolat manzil bilan vidolashmoq, 13-maqolat jahon malomati, 14-maqolat g'aflat malomati, 15-maqolat hasadgo'ylar, 16-maqolat yo'lning shiddat bilan bosib o'tilishi, 17-maqolat ibodat va tanholik, 18-maqolat munofiqlar, 19-maqolat oxiratni qarshi olish va 20-maqolat zamondoshlarning hayosizligiga doir masalalarga bag'ishlangan bo'lib, har bir maqolatdan so'ng uning mazmuniga mos holda hikoyat keltirilgan. "Maxzan ul-asror" xotima bob bilan yakun topadi.

Nizomiy beshligidagi ikkinchi doston "Xusrav va Shirin" deb atalib, taxminan 1181-yilda yozib tugallangan. Shoir bu dostonini saljuqiy hukmdor To'g'rul II (1174 – 1194) topshirig'iga ko'ra yaratadi. Doston hajmi manbalarda 6139 baytdan 6500 baytgacha deb ko'rsatiladi. Dostonning asosini Madoyin shahzodasi Xusrav Parviz bilan Barda' malikasi Shirin o'rtasidagi murakkab sevgi sarguzashtlari tashkil etadi. "Xusrav va Shirin" an'anaviy muqaddimadan so'ng Madoyin hukmdori Xurmuz xonadonida Xusrav Parvizning tug'ilishi tufayli uyushtirilgan shodiyona tasviri bilan boshlanadi. Bola tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qaraydilar: u favqulodda kuch va g'ayrat, aql-idrok egasi bo'lib ulg'ayadi. Lekin shu bilan birga uning tabiatida yengiltaklik, beqarorlik ham mavjud edi. Bir kuni Xusrav Shopur ismli rassomdan Barda' hukmdori Mehinbonuning go'zallikda tengsiz jiyani Shirin haqida hikoya eshitadi va

unga oshiq bo‘lib qoladi. Xusrav Shopurni Barda’ga sovchilikka yuboradi. Shopur Shiringa Xusravning suratini ko‘rsatadi va Shirin Madoyinga keladi. Lekin bu paytda Xusrav va uning otasi o‘rtasida nizo chiqib, Xusrav mamlakatdan qochib ketgan edi. Shirin va Xusrav uchrasha olmaydilar. Shirin Madoyinda uzoq qolib ketadi va unga shahardan tashqariga, toshloqdan iborat yerga qasr qurib beradilar. Shirin shu yerda yashay boshlaydi. Madoyin hukmdori Xurmuz vafot etgach, Xusrav taxtga o‘tiradi, lekin sarkarda Bahrom Cho‘binning qarshiligiga dosh berolmay, Rum qaysarining huzuriga madad istab boradi. U yerdan qaysarning qizi Maryamga uylanib qaytadi va Madoyin taxtini qaytadan egallab, saltanat ishlariga sho‘ng‘ib ketadi. Shirin Xusravning hajrida iztirob chekadi va Mehinbonu huzuriga boradi. Mehinbonu bu paytda o‘lim to‘shagida edi. U Shiringa Barda’ hukmronligini topshiradi. Shirin mamlakatni bir vorisiga topshirib, Madoyinga keladi va o‘zining toshloq qasrida yashay boshlaydi. Yoshligidan sut ichib o‘rgangan Shirin bu yerda sut yo‘qligidan qiynaladi. Shuning uchun unga yaylovdan qasrga qadar sut arig‘i qazdirish va bu ishda Farhod ismli usta muhandis yigitning yordamidan foydalanish to‘g‘risida maslahat beradilar. Farhod sut arig‘ini qazishga kirishadi va Shirinni ko‘rib, unga oshiq bo‘lib qoladi. Buni eshitgan Xusrav hiyla bilan Farhodni halok qiladi. Bu orada Maryam ham vafot etadi. Xusravga isfahonlik Shakarning go‘zalligi haqida xabar keltiradilar va Xusrav Shakarga uylanadi. Lekin u Shirinni unuta olmaydi, Shirinni Madoyinga keltirishlarini buyuradi. Xusravning Maryamdan tug‘ilgan o‘g‘li Sheruya Shirinni ko‘rib, otasini o‘ldiradi. Shirin ham Xusrav maqbarasi ichiga kirib, o‘zini halok qiladi. Doston zamona hukmdori To‘g‘rulshohning Nizomiyni huzuriga chorlagani va uni taqdirlaganiga doir bob bilan xotima topadi.

Nizoviy “Xamsa”sidagi uchinchi doston “Layli va Majnun” 1188–89-yillarda Shirvonshoh Axsitan ibn Manuchehr topshirig‘iga ko‘ra yaratiladi. Hajman 4022 baytdan iborat. Dostonda an’anaviy muqaddimadan so‘ng asosiy qism boshlanadi. Bani Omir qabilasining boshlig‘i uzoq kutgandan so‘ng farzand ko‘radi va unga Qays deb ism qo‘yadi. Qays o‘n yoshida maktabga boradi va u yerda Layli ismli qizni yaxshi ko‘rib qoladi. O‘rtada o‘zaro muhabbat boshlanadi. Buni sezgan odamlar

ularni ajratadilar. Laylidan ajralgan Qays ko‘chada, bozor rastalarida she’rlar aytib yuradigan bo‘ladi va atrofdagilar uni “Majnun” (“telba”, “jinni”) deb atay boshlaydilar. O‘g‘lining holatini sezgan ota Laylinikiga sovchilikka boradi. Dostonda Majnunning otasi mansab va mavqe jihatidan Laylining otasidan ustun ekanligi ko‘rsatilgan. Laylining otasi avval Majnunni davolashni, keyin sovchi bo‘lib kelishni maslahat beradi. Shunda Majnunning otasi o‘g‘lini o‘z qabilasidan biror qizga uylantirmoqchi bo‘ladi, lekin Majnunni ko‘ndirolmaydi. Uning ahvoli kundan-kunga og‘irlashadi. Layliga bag‘ishlab g‘azallar bita boshlaydi va uning g‘azallari tez orada xalq orasida tarqalib, yod bo‘lib ketadi. Otasi qarindoshlar va keksalarning maslahati bilan o‘g‘lini hajga olib boradi. Majnun Ka’bada ishq otashini yanada kuchaytirishni so‘rab, Xudoga munojot qiladi. Majnunning munojoti haqidagi xabar juda tez tarqaladi va Layli qabilasidagi ayg‘oqchilar uni Laylining otasiga yetkazadilar. Laylining otasi qilich yalang‘ochlab, Majnunni o‘ldirishini aytadi. Layli bog‘ sayriga chiqqan paytida uni Bani Asad qabilasidan bo‘lgan davlatmand Ibn Salom ko‘rib qoladi va Laylining uyiga sovchi yuboradi. Laylining otasi rozilik berib, to‘yni Layli tuzalganidan keyin boshlashi mumkinligini aytadi. Majnunni dashtda yurgan paytida ov qilib yurgan Navfal uchratib qoladi va unga achinib, yordam bermoqchi bo‘ladi. Laylining qabilasiga 100 nafar yaxshi qurollangan odamini yuborib, Laylini Majnunga berishlarini, aks holda urush ochishini ma’lum qiladi. Laylining otasi rad javobini bergach, urush boshlaydi. Urushda Navfal g‘alaba qozonayotganligini ko‘rgan Laylining otasi qizini Navfalning biror quliga berishga yoki o‘ldirib itining oldiga tashlashga roziligini, lekin Majnunga berishga hech qachon rozi bo‘lmasligini, agar zo‘rlik bilan Majnunga olib bermoqchi bo‘lishsa, uni hoziroq o‘ldirishini aytadi. Navfal zo‘ravonlik bilan ish bitmasligini sezib, ortiga qaytadi. Ibn Salom ikkinchi marta sovchi yuborib, nihoyat Layliga uylanadi. Lekin Layli uni o‘ziga yaqinlashtirmaydi. Majnun Laylining turmushga chiqqanligini eshitib, qattiq xafa bo‘ladi. Dostonda Majnunning Layliga, Laylining Majnunga yozgan xatlari keltirilgan bo‘lib, ular noma janrida bitilgan. O‘g‘illarining holatidan qattiq ezilgan Majnunning ota-otasi birin-ketin vafot etadilar. Layliga uylangan Ibn Salom esa maqsadiga erisholmay, qattiq iztirobga

tushadi va bir oz o‘tgach, bu yorug‘ dunyoni tark etadi. O‘z sevgisiga sodiq qolgan Laylining salomatligi ham yomonlashib, oxirgi nafasigacha Majnunning nomini takrorlab kuz faslida vafot etadi. Buni eshitgan Majnun qabristonga kelib, Laylining qabrini quchib, hayotdan ko‘z yumadi. Doston Nizomiyning Shirvonshohga murojaati bilan yakunlanadi.

Nizomiy beshligidagi to‘rtinchi doston “Haft paykar” (“Yetti go‘zal”) 1197– yilda yozib tugallanadi. Doston 4600 baytdan iborat bo‘lib, hukmdor Alouddin Ko‘rpa Arslon (1174–1207) topshirig‘i bilan yaratilgan. Manbalarda “Bahromnoma” deb ham yuritiladi. “Haft paykar” an’anaviy muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat. Asosiy qism Bahrom sarguzashtlarini o‘z ichiga oluvchi qoliplovchi hikoya va yetti malika tomonidan aytilgan yetti qissadan tashkil topgan. Dostonda tasvirlanishicha, Bahrom sosoniy shoh Yazdigirdning yagona vorisi. Yazdigird o‘g‘lini munosib tarbiyalash uchun Yamandagi vassali Nu’mon qo‘liga topshiradi. Bahrom yoshligidan qulon oviga o‘ch bo‘lib o‘sadi. Shunga ko‘ra u Bahrom Go‘r (qulonchi) laqabini oladi. Yazdigird vafot etgach, Bahrom taxtga o‘tiradi va mamlakatni adolat bilan boshqara boshlaydi. Bir kuni Bahrom Fitna ismli san’atkor kanizi bilan ovga chiqadi va Fitnaning da’vati bilan qulon ovlashda mahorat ko‘rsatib, undan maqtov kutadi, lekin Fitna bu holat muttasil mashq qilish natijasi ekanligini aytish bilan cheklanadi. Bahrom g‘azablanib, o‘z sarkardasiga Fitnani o‘ldirishni buyuradi. Lekin Fitna tadbir ishlatib, omon qoladi va o‘zidagi jami zeb-ziynatlarni sotib, sarkarda madadi bilan ko‘shk qurdiradi. Yangi tug‘ilgan buzoqni har kuni bir necha pillapoya ko‘shk ustiga olib chiqib, mashq qildiradi. Bir kuni tasodif bilan ko‘shk yonidan o‘tib ketayotgan Bahromga o‘z san’atini ko‘rsatib, lol qoldiradi. Bahrom xatosini anglab yetadi va Fitnadan uzr so‘rab, unga uylanadi. Dostonda Bahrom sarguzashti davomida malikalar qissalari keltiriladi va qissaxonlik tugagach, Bahrom sarguzashti yana davom etaveradi.

Yamanda usta Simnor tomonidan qurilgan Xavarnaq qasrida Bahromning yettita shoh qizlari davrasida o‘tirgani tasvirlangan bo‘lib, Bahrom bu tasvirni ko‘rib hayratlanadi va oradan yillar o‘tgach, bu qasrni hayotning o‘zida ham ko‘rishni niyat qiladi. Turli mamlakatlardagi malikalarni o‘z nikohiga olib, ular uchun alohida qasrlar qurdiradi va shanba kunidan boshlab

juma kunigacha hafta davomida kechalari ulardan qissa tinglaydi. Qoliplovchi hikoya tarkibida shu tariqa yettita qissa paydo bo‘ladi. Bahrom shanba kuni Furak ismli Kashmir malikasidan qora libos kiygan shoh haqidagi hikoyatni, yakshanba kuni turk malikasi Yag‘monozdan Iroqlik kanizakfurush podshoh va uning go‘zal kanizagi haqidagi hikoyatni, dushanba kuni zangori qasrda Nozpari ismli malikadan diyonatli Bishr va maqtanchoq Maliha haqidagi hikoyatni, slavyan podshosining qizi Nasrinnushdan slavyan podshosining qizi va uning oshiqlari haqidagi hikoyatni, chorshanba kuni beshinchi iqlim shohining qizi Ozariyun aytib bergan misrlik Mohin ismli savdogarning boshidan kechirgan sarguzashtlari bilan bog‘liq hikoyatni, payshanba kuni sandal qasrda Chin malikasi Humoydan Xayr va Shar haqidagi hikoyatni va nihoyat juma kuni Bahrom eron malikasi Durustiydan olim va oshiq yigit haqidagi hikoyatni tinglaydi. Bu orada Bahromning aysh-ishratga berilgani va davlat ishlarini unutib qo‘yganidan foydalangan Rost Ravshan ismli vaziri bosh sarkarda bilan til biriktirib, xalqqa zulm o‘tkazadi, xazinani talab, mamlakatni vayrona holga keltiradi. Bahrom bu haqda bilgach, vazirni xalq oldida qatl ettiradi, mamlakatni tiklaydi va adolat o‘rnatadi, Rost Ravshan qamagan mahbuslarni ozod qiladi. Dostonda yetti qissadan so‘ng nohaq qamalgan yetti mahbus hikoyasi ham keltirilgan. Voqealar so‘ngida Bahrom ovga chiqib, bir kiyikning orqasidan g‘orga kirib ketadi va qaytib chiqmaydi. Mulozimlari uni izlab g‘orga kirganlarida: “Orqangizga qaytib ketavering, shohlaringiz qaytib chiqmaydi, u ish bilan band” degan ovoz eshitiladi. Doston shoh Alouddin Ko‘rpa Arslon madhi bilan yakunlanadi.

Nizomiy beshligidagi so‘nggi – beshinchi doston “Iskandarnoma” deb atalib, ikki qism: “Sharafnoma” va “Iqbolnoma”dan iborat. Doston hajman 10500 bayt bo‘lib, 1197–1204-yillar oralig‘ida yozilgan. Doston uchun Sharq adabiyotida keng tarqalgan Iskandar Zulqarnayn timsoli bosh qahramon sifatida olingan. “Sharafnoma”da Iskandarning harbiy yurishlari va jahongirligi tasvirlansa, “Iqbolnoma”da Iskandar donishmandligi va payg‘ambarligi bilan namoyon bo‘ladi. Dostonda keltirilishicha, Iskandar juda erta ota taxtiga o‘tiradi. Ko‘p janglarda ishtirok etib, mohir sarkarda va adolatparvar shoh sifatida shuhrat qozonadi. Uzoq-yaqindagi hukmdorlar undan qattol dushmanlarni

yengishda yordam so‘raydilar. Iskandar o‘z tadbirkorligi bilan Chin va Hind mamlakatlarini yengib, insoniyat osoyishtaligiga xavf yetkazayotgan ya’juj-ma’jujlar ustidan g‘alaba qozonadi. U donishmand shoh sifatida o‘z zamonasining faylasuflari bilan doimiy muloqotda bo‘ladi, ular bilan olamning ibtidosi, intihosi, mamlakatni boshqarish qonun-qoidalari, muvaffaqiyat va inqirozga sabab bo‘ladigan omillar haqida suhbat quradi, o‘zining harakatlarini sarhisob qiladi. U qayerga borsa, dastlab davlat boshqaruv usuli, idora nizomlarining adolat talablariga muvofiqligiga e’tibor qaratadi. Shoh-u gadoning so‘zlariga quloq tutadi, o‘z maslahat va tavsiyalarini aytadi. Umuman olganda, Nizomiy tasviridagi Iskandarning jahongirligi ilm-u donish, hikmat va aql jahongirligidir.

Nizomiy beshligi yaratilgandan keyin oradan bir asr vaqt o‘tib, ***Xusrav Dehlaviy*** (1253–1325) unga javob yozdi va shu bilan xamsanavislik an’anasini boshlab berdi. Uning 1299–1302-yillarda yozilib, Alouddin Xiljiyga bag‘ishlangan “Xamsa”si quyidagi dostonlardan iborat: 1) “Matla’ ul-anvor” (“Nurlarning chiqish joyi”); 2) ”Shirin va Xusrav”; 3) ”Majnun va Layli”; 4) “Oyinai Iskandariy” (“Iskandar ko‘zgusi”); 5) “Hasht behisht” (“Sakkiz jannat”). Xusrav Dehlaviy Nizomiy dostonlarining shakli va syujeti, obrazlar tizimini asosan saqlagan holda, ularni o‘ziga xos talqin etdi va yangi mazmun bilan boyitdi. Jomiyning “Bahoriston”ida e’tirof etilishicha, hech kim Nizomiy “Xamsa”siga Dehlaviydan o‘tkazib javob yoza olmagan.

Xusrav Dehlaviy “Xamsa”sining birinchi dostoni “Matla’ ul-anvor” 1299– yilda Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror”iga javob tarzida yozilgan. Doston tasavvufiy-falsafiy masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, 3310 baytdan iborat. An’anaviy muqaddimadan so‘ng 20 maqolat va 20 hikoyatni o‘z ichiga olgan asosiy qism boshlanadi. Maqolatlar quyidagi nazariy masalalardan tarkib topgan: 1-maqolat iymon, 2-maqolat ma’rifat, 3-maqolat so‘z, 4– va 5-maqolatlar islom dini va uning ahkomlari, 6-maqolat tasavvuf va so‘fiylar, 7-maqolat qanoat, 8-maqolat ishq, 9–12-maqolatlar islomda ulug‘langan ezgu amallar, 13-maqolat podsholarning faqirlarga yordam berishlari, 14-maqolat xoinlik, 15-maqolat zulm malomati, 16-maqolat tug‘ma xislatlar, 17-maqolat yoshlik, 18-maqolat keksalik, 19–20-maqolatlar dunyoning g‘addorligi va bevafoligi bilan bog‘liq masalalarga

bag‘ishlangan. Har bir maqolatdan so‘ng uning mazmuniga mos ravishda kichik hajmli hikoyat keltirilgan. So‘nggi bobdan muallifning o‘z qizi Masturaga nasihati o‘rin olgan.

“Shirin va Xusrav” Xusrav Dehlaviy “Xamsa”sidagi ikkinchi doston bo‘lib, 1299-yilda yozilgan. Hajman 4124 baytdan iborat. Doston an’anaviy muqaddima, asosiy qism va xotima bobdan tashkil topgan. “Shirin va Xusrav”ning asosiy qismi sosoniy hukmdor Xusrav Parvezning taxtga o‘tirish voqeasi bilan boshlanadi. U ota taxtiga o‘tirgach, mamlakatda adolat o‘rnatishga alohida e’tibor qaratadi. Uning bu siyosatidan bir vaqtlar qo‘rqmas sarkarda sifatida nom qozongan Bahrom Cho‘bin norozi edi. Bahrom Cho‘bin Xusravga qarshi hujum uyushtiradi va Xusrav Sosoniylar poytaxti Madoyinni tark etishga majbur bo‘ladi. Xusravga rassom Shopur hamrohlik qiladi. U shohga Armaniston malikasi Shirinning suratini ko‘rsatadi. Xusrav ovda Shirinni uchratib, uni sevib qoladi.

Shirinning ham unga befarq emasligi ma’lum bo‘ladi. Xusrav harbiy yordam uchun Rumga boradi va u yerdan rumlik malika Maryamga uylanib qaytadi. Xusravning mavqeyi tobora mustahkamlanib boradi va u o‘z saltanatini Antioxiyagacha kengaytiradi. Uning qudratidan cho‘chigan Rum qaysari o‘z boyliklarini kemaga ortib, Habashiston tomonga suzmoqchi bo‘ladi. Lekin bo‘ron ko‘tarilib, boyliklar Xusravning mamlakati tomonga kelib qoladi. Keyinchalik bu holat “Shamol keltirgan xazina” (ganji bodovard) qo‘shig‘ining vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Bir oz vaqt o‘tgach, Maryam vafot etadi. Shoh qayg‘uga botadi va Shirinni o‘z haramiga taklif qiladi. Lekin Shirin buni rad etadi. Shopur Xusravga go‘zal Shakar yashaydigan Isfahonga borishni maslahat beradi. Bir kuni Shirin ovdan qaytayotib, tosh yo‘nuvchi Farhod tomonidan mohirlik bilan qazilgan ariqni ko‘rib qoladi va Armanistonda xuddi shunday ariq qazishni Farhoddan iltimos qiladi. Suhbat jarayonida Farhod Xitoy xoqonining o‘g‘li ekanligi ma’lum bo‘ladi. Shiringa oshiq bo‘lib qolgan Farhod ishga kirishadi. Farhodning Shiringa muhabbati Xusravning qulog‘iga yetib boradi va u musofir qiyofasida Arman yurtiga yo‘l oladi. Uning hiylasi bilan Farhodga Shirinning o‘limi haqidagi yolg‘on xabarni yetkazadilar va Farhod halok bo‘ladi. O‘z navbatida Shirin ham kanizlaridan birini Shakarni zaharlash uchun Isfahonga yuboradi va shu orqali Xusravdan

qasos oladi. Bir kuni Xusrav ov qilib yurib, a'yonlaridan ajralib chiqadi va Shirinning qal'asi tomon kelib qoladi. Ikki sevishgan yarashadilar va Xusrav Shiringa muhabbati ramzi sifatida shohlik uzugini taqdim etadi. Keyingi boblarda Xusrav donishmandlar davrasida olam haqidagi savollariga javob izlagan holda tasvirlanadi. Xusravning o'g'li Sheruya otasidan norozi ba'zi amaldorlar bilan til biriktirib, unga qarshi fitna uyushtiradi va otasining o'limiga sababchi bo'ladi. Xusravning jonsiz tanasi ustida Shirin ham hayot bilan vidolashadi. Doston dunyoning foniyligi haqidagi bob bilan yakunlanadi. Doston syujetidan ma'lum bo'ladiki, "Shirin va Xusrav"da Nizomiy dostonidan farq qiladigan ba'zi o'rinlar mavjud. Bular: dostonda Farhod timsoliga kengroq o'rin ajratilgan; Shirin Nizomiyda asosiy planda tasvirlangan bo'lsa, Dehlaviyda muallifning ideal shaxs bilan bog'liq qarashlari Shirindan ko'ra ko'proq Xusrav timsolida mujassamlashgan; Dehlaviyda Sheruyaning Shiringa oshiq bo'lish sahnasi kiritilmagan va b.

"Majnun va Layli" Xusrav Dehlaviy "Xamsa"sidagi uchinchi doston bo'lib, 1299-yilda yaratilgan. Hajman 2650 baytdan iborat. Dostonda an'anaviy muqaddimadan so'ng asosiy voqea bayon qilinadi. Bani Omir qabilasida tug'ilgan farzandga Qays deb ism qo'yadilar va uning sharafiga bayram uyushtiriladi. Dehlaviy syujetning shu qismidan boshlaboq Nizomiy dostonida uchramaydigan munajjim bashorati bilan bog'liq epizodni o'z dostoni tarkibiga kiritadi va bu epizod dostonning g'oyaviy yo'nalishini belgilashda asos vazifasini o'taydi. Bu epizodga ko'ra, munajjim go'dak ulg'aygach, uning telba oshiq bo'lishini bashorat qiladi. Qays yoshi yetib, maktabga boradi va u yerda qo'shni qabilalik Layli ismli qizni ko'rib, sevib qoladi. Ularning sevgisidan xabardor bo'lgan kishilar ikki yoshni bir-biridan ajratadilar va Majnun dashtga chiqib ketadi. O'g'lining holatidan iztirobga tushgan ota Laylini so'rab, sovchi yuboradi. Lekin Laylining otasi rad javobini beradi. Majnunning otasi ko'mak berishni so'rab, "arablar hukmdori" Navfalga murojaat qiladi. Navfal Layli qabilasi tomon urush ochadi. Layli qabilasi yengila boshlagach, qabila mansabdorlari maslahatlashib, Laylini o'ldirishga qaror qiladilar va shu orqali urushni to'xtatib, baxtsizlikning oldini olish mumkin, degan xulosaga keladilar. Bu haqda do'stidan eshitgan Majnun Navfaldan urushni to'xtatishni

so‘raydi. Urush to‘xtaydi, Navfal o‘z qizi Xadichani Majnunga uzatadi (Nizomiy dostonida mavjud bo‘lmagan yana bir epizod). To‘y bo‘lib o‘tadi. Lekin Majnun Xadichaga yaqinlashmay, tonggacha o‘tirib, so‘ng chiqib ketadi. Layli Majnunni tushida ko‘radi va uni izlab yo‘lga chiqadi, ikki sevishgan uchrashadilar. Bir kishi Majnunning o‘lganligi haqidagi yolg‘on xabarni Layliga yetkazadi va bundan Laylining ahvoli og‘irlashib, vafot etadi. Majnun Laylining janozasiga yetib keladi va Laylining jasadini quchganicha vafot etadi. Ularni bir qabrga ko‘madilar. Dostonning xotima bobi marsiya yo‘nalishida bo‘lib, unda Xusrav Dehlaviy doston yakunlanishidan bir oz ilgari vafot etgan onasi va ukasi Husomiddin Qutlug‘ uchun aza tutib, ko‘z yosh to‘kishini aytadi.

“Hasht behisht” (“Sakkiz jannat”) Xusrav Dehlaviy “Xamsa”sidagi to‘rtinchi doston bo‘lib, 1302-yilda yozilgan, hajman 3352 baytni o‘z ichiga oladi. Dostonning muqaddimasi yetti bob, yakunlovchi qismi esa bir bobdan iborat bo‘lib, ularning umumiy soni sakkizta, bu bevosita asar nomi bilan bog‘liqlik kasb etadi. Dehlaviyning borliqni anglash haqidagi asosiy g‘oyalari ana shu sakkiz bobda o‘z aksini topgan. Asosiy qismning dastlabki boblarida Bahromning taxtga o‘tirishi, ovni sevishi va Diloromning tarixi bilan bog‘liq voqealar tasvirlanadi. Keyingi boblarda mashhur ov mojarosi keltiriladi: Diloromning talabiga ko‘ra Bahrom kiyiklardan birining shoxini o‘q bilan otib, ikkinchi kiyikka o‘rnatadi va Diloromdan maqtov kutadi. Lekin Dilorom bundan ham yaxshiroq mahorat ko‘rsatish mumkinligini aytgach, Bahrom g‘azablanib qizning bir o‘zini jazirama sahroda qoldirib ketadi. Diloromni bir darvesh o‘ziga qiz qilib oladi va uni o‘qitib, o‘z davrining turli bilim va hunarlarini o‘rgatadi, ayniqsa musiqa va san’atkorlikda tengsiz qilib tarbiyalaydi. Benazir musiqachi va san’atkor haqidagi xabar Bahromning qulog‘iga yetib boradi va u Diloromni sotib olish uchun qizning oldiga keladi. Dilorom yuzini yashirgan holda san’atini namoyish qiladi. Bahrom uning mahoratidan hayratlanadi, lekin buni sezdirmaydi. Shunda Dilorom unga bo‘lib o‘tgan voqeani eslatadi. Bahrom Diloromni tanib, uni o‘z saroyiga olib ketadi. Bahrom Diloromga yetishgach, yana aysh-ishratga berilib ketadi va saltanat ishlarini unutadi. Yaman shohi No‘mon haddan tashqari ovga berilib ketgan Bahromni

poytaxtga qaytarish uchun usta binokor Shidga yetti rangda qasr qurishni buyuradi. Yetti qasrga yetti iqlim shohining qizlarini joylashtiradilar. Bahrom haftaning yetti kunida ushbu qasrlardan biriga kirib, malikalardan hikoya tinglaydi. Dostonda keltirilgan ushbu hikoyalarning syujeti uchun qadimgi hind adabiyoti yodgorliklari asos vazifasini o‘tagan. Bahrom shanba kuni qora qasrda Sarandib shohi va uning uch oqil o‘g‘li bilan bog‘liq hikoyatni, yakshanba kuni oltinrang qasrda usta Hasan zargar haqidagi hikoyatni, dushanba kuni yashil qasrda hindistonlik mehmondo‘st podshoh va uning diyonatsiz vaziri haqidagi hikoyatni, seshanba kuni la’l qasrda mo‘ltonlik shahar hokimi va qizil libos kiygan qiz haqidagi hikoyatni, chorshanba kuni rumlik savdogar va uning qiziqqon o‘g‘li haqidagi hikoyatni (bu hikoyat mazmunan Nizomiy dostonidagi 1-hikoyatga o‘xshab ketadi), payshanba kuni sandal qasrda yamanlik podsho va uning tuhmatga uchragan Rom ismli o‘g‘li haqidagi hikoyatni hamda juma kuni podshoh va uning to‘rt xotini haqidagi hikoyatni tinglaydi. Dostonda yetti hikoya bayonidan so‘ng Bahromning ovga chiqishi tasvirlangan. Bahrom ov vaqtida kiyikni quvib ketayotganida quduqqa tushib, g‘oyib bo‘ladi. Mulozimlari uni qancha qidirsalar-da, topa olmaydilar. Dostondan kelib chiqadigan xulosaga ko‘ra, Bahrom nomunosib shoh bo‘lganligi uchun nafsining qurboniga aylanib, halokatga yuz tutadi.

Dehlaviydan keyin xamsanavislik an’ana kasb etdi va butun Sharq dunyosiga tarqaldi. Juda ko‘p xalqlarda Nizomiy dostonlari mavzusi va syujeti asosida asarlar paydo bo‘ldi. Ozarbayjon olimi G‘. Aliyev jahon kutubxonalarida saqlanayotgan qo‘lyozma va manbalarni o‘rganib chiqish asosida Nizomiy beshligiga muayyan tarzda javob yozgan 300 ga yaqin ijodkorni aniqladi va ular haqidagi ma’lumotlarni umumlashtirib, “Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока” nomli monografiyasini yaratdi.

Xamsanavislik tarixida XV asr Hirot adabiy muhiti alohida o‘rin egallaydi. Izlanishlardan ma’lum bo‘ldiki, aynan shu davr va shu muhitning o‘zida 20 ga yaqin ijodkor xamsanavislikda o‘z kuchlarini sinab ko‘rganlar. Garchi bu ijodkorlarning barchasi to‘liq xamsa yaratmagan bo‘lsalar-da, lekin beshlikning u yoki bu dostoniga javob yozish bilan mazkur an’anaga o‘z munosabatlarini bildirganlar. Bu davrdagi Nizomiy mavzulariga

murojaat qilgan ijodkorlar haqida Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", Humomiddin Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarlarida ma'lumotlar uchraydi.

Ijodkorlar guruhini xamsanavislikka bildirgan munosabatiga ko'ra shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

I. To'liq xamsa mualliflari.

II. "Xamsa"ning ba'zi dostonlariga javob yozgan ijodkorlar.

III. Bitta dostonga javob yozgan ijodkorlar.

I. TO'LIQ XAMSA MUALLIFLARI

Jamoliy

Amir Temur va Shohrux zamonida yashagan bu ijodkorning tavallud va vafot etgan sanalari haqida aniq ma'lumot yo'q. Faqat G'.Aliyev o'zining monografiyasida uning beshligi 1402–1417 yillar oralig'ida yaratilgan degan fikrni bildiradi.

Jamoliy "Xamsa"si quyidagi dostonlardan iborat:

1. **"Tuhfat ul-abror"** ("Yaxshi kishilarning tuhfasi", "Maxzan ul-asror"ga javob).
2. **"Mehr-u Nigor"** ("Xusrav va Shirin"ga tatabbu').
3. **"Mahzun va Mahbub"** ("Layli va Majnun"ga tatabbu').
4. **"Haft avrang"** ("Yetti taxt", "Haft paykar"ga tatabbu').

Beshinchi dostonning nomlanishi aniq emas. Lekin voqealar mazmuni va qo'llanilgan vazn Nizomiy "Iskandarnoma"sini eslatgani uchun uni Nizomiy beshligidagi so'nggi dostonga javob tarzida yozilgan deb hisoblash mumkin.

Ashraf Marog'iy

Shohrux Mirzo zamonida yashaganligi va 1450-yilda vafot etganligi ma'lum. Uning beshligi 1428–1444-yillar oralig'ida yaratilgan bo'lib, quyidagi dostonlardan iborat:

1. **"Minhoj ul-abror"** ("Yaxshi kishilarning yo'li", 1428). Nizomiy dostonidan bir oz farqlanib, 21 maqolatdan iborat va ularning har bir-biriga ikkitadan hikoyat ilova qilinadi.
2. **"Riyoz ul-oshiqin"** ("Sevishganlar bog'i", 1432). Ba'zi manbalarda "Xusrav va Shirin" nomi bilan ko'rsatiladi.
3. **"Ishqnoma"** ("Layli va Majnun"ga tatabbu', 1438)
4. **"Haft avrang"** ("Yetti taxt", 1440)
5. **"Zafarnoma"** (1444). Nomlanishdagi o'zgachalikka qara-

may, voqealar bayoni ham, qo'llanilgan vazn ham "Iskandarnoma"ni eslatadi.

Mazkur guruhdagi yana ikki ijodkor Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy "Xamsa"lari haqida mavzu so'ngida batafsilroq fikr yuritganimiz sababli bu o'rinda ularga to'xtalib o'tirmaymiz.

II. "XAMSA"NING BA'ZI DOSTONLARIGA JAVOB YOZGAN IJODKORLAR

Kotibiy Turshiziy

Bu ijodkorning Nishopurdan kelganligi va 1434/36-yilda Astrobodda vafot etganligi haqida Y.E.Bertels o'zining "Навои и Джами" tadqiqotida ma'lumot keltiradi.

Turshiziy 10 ga yaqin masnaviy-dostonlar muallifi, ulardan faqat uchtasi "Xamsa" dostonlariga tatabbu' tarzida vujudga kelgan:

1. **"Gulshan ul-abror"** ("Yaxshi kishilarning gulshani").
2. **"Layli va Majnun".**
3. **"Bahrom va Gulandom".**

Abdulloh Hotifiy

1445/50–1521 yillar oralig'ida yashagan. Manbalarda Abdurahmon Jomiyning jiyani sifatida tilga olinadi. "Xamsa"ning quyidagi dostonlariga javob yozganligi ma'lum:

1. **"Layli va Majnun".**
2. **"Shirin va Xusrav"** (1490).
3. **"Haft manzar"** ("Yetti manzara", "Haft paykar"ga tatabbu' tarzida yaratilgan).
4. **"Temurnoma".** "Iskandarnoma" vaznida bitilgan bu doston Amir Temurning zafarli yurishlariga bag'ishlangan.

Ko'rinadiki, Hotifiy dostonlari orasida faqat "Maxzan ul-asror"ga javob tarzida yozilgan doston uchramaydi.

Badriddin Hiloliy

Asli astrobodlik bo'lgan bu ijodkor XV asrning 70-yillarida tug'ilgan. 1529-yilda qatl etilgan."Xamsa" dostonlariga javoban yozilgan 2 ta dostoni bor:

1. "Sifot ul-oshiqin" ("Maxzan ul-asror"ga javob).
2. "Layli va Majnun".

Shahobiddin Jomiy

Bu ijodkorning tug‘ilgan va vafot etgan yillari haqida aniq ma’lumot yo‘q. Faqat Xondamirning “Makorim ul-axloq”da Shahobiddin Jomiyning Alisher Navoiy maslahatiga ko‘ra, “Layli va Majnun” va “Xusrav va Shirin” dostonlarini yozganligi haqidagi ma’lumotiga tayanadigan bo‘lsak, muallifning XV asrning ikkinchi yarmida yashaganligi ma’lum bo‘ladi. Shahobiddin Jomiyning bu ikki dostoni bizgacha yetib kelmagan yoki haligacha topilmagan.

III. BITTA DOSTONGA JAVOB YOZGAN MUALLIFLAR[20]

Bu guruhni g‘oyaviy yo‘nalishiga qarab ikkiga ajratish mumkin:

“Maxzan ul-asror” yo‘nalishida doston yozgan mualliflar:

Osafiy Hiraviy, Nargisiy, G‘iyosiddin Sabzavoriy, Fosih Rumiy, Sayyid Qosimiy.

“Layli va Majnun” yo‘nalishida doston yozgan mualliflar:

Shayxim Suhayliy, Ali Ohiy, Xoja Imod Loriy, Xoja Hasan Xizrsholi, Zova Qozisi.

Xamsachilik tarixida fors-tojik adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Abdurahmon Jomiy (1414 – 1492) beshligi alohida o‘rin tutadi. Jomiy ijodkor bo‘lish bilan birga naqshbandiya suluki vakili ham edi, bu holat u yaratgan asarlarda ham namoyon bo‘ladi. Sharqshunos olim N. Konradning ta’biri bilan aytganda, “u – sholr, u – faylasuf, u – filolog, u – musiqashunos. Lekin shu bilan bir qatorda u ko‘proq so‘fiy. Uning uchun borliqni anglashning ikki ko‘rinishi mavjud – borliq sirlari va ijod sirlari” (Konrad N.I. Запад ва Восток, 276-bet).

Adabiyotshunoslikda Jomiyning “Xamsa” yozgan-yozmaganligi bilan bog‘liq bahsli fikrlar mavjud. Ayrim adabiyotshunoslar Jomiy dostonlariga “Xamsa” tarzida emas, balki yettilik – “Haft avrang” (“Salomon va Absol” hamda “Silsilat uz-zahab” dostonlarini ham qo‘shgan holda) shaklida qarash zarurligini ta’kidlaydilar. Lekin Jomiyning o‘zi “Xiradnomai Iskandariy” xotimasida o‘z asarini “Panj ganj” deb ataganligi uchun Jomiyni “Xamsa” yaratgan ijodkorlar qatoriga kiritish to‘g‘riroq bo‘ladi.

[20] Aslida bunday nomlanish ham nisbiy bo‘lib, bu o‘rinda faqat bizgacha yetib kelgan dostonlar va ular haqidagi adabiyotshunoslikda mavjud ma’lumotlarga tayanildi.

Abdurahmon Jomiy "Xamsa"sining birinchi dostoni **"Tuhfat ul-Ahror"** 1481– yilda yaratilgan. Falsafiy-axloqiy masalalarga bag'ishlangan bu doston Nizomiy "Maxzan ul-asror"i hamda Amir Xusravning "Matla' ul-anvor" dostonlariga javob tarzida vujudga keldi. Dostonlar nomlanishidagi ohangdoshlik, kompozitsion qurilishdagi o'xshashlik va qo'llanilgan she'riy o'lchov bu fikrni tasdiqlaydi. Doston 1707 baytdan iborat bo'lib, muqaddima qismi basmala bobi, beshta hamd, beshta na't, Xoja Bahouddin Naqshband haqidagi fasl, Xoja Ahror Valiy tavsifidagi fasl, so'z ta'rifidagi uchta bob, ko'ngil ta'rifidagi alohida bob hamda ilmul-yaqin, aynul yaqin va haqqul yaqin haqidagi uchta suhbatdan iborat. Salaflari – Nizomiy va Amir Xusravdan farqli o'laroq, Jomiyning dostonida zamon podshohi madhiga bag'ishlangan bob yo'q. Asarning nomlanishi, umumiy ruhi, Xoja Ahror Valiyga bag'ishlangan bobning ma'no-mazmunidan kelib chiqib, bu dostonni Jomiy o'z piri – Xoja Ahror Valiyga bag'ishlab yozgan, degan xulosa kelib chiqadi.

Asosiy qismda Jomiy salaflarga izdoshlik qilgan holda 20 ta maqolat va har bir maqolatdan keyin mavzuga mos ravishda ibratli hikoyatlar keltiradi. Maqolatlar quyidagi tartibda keltiriladi: 1) olamning yaralishi bayonida; 2) odamning xalq qilinishi zikrida; 3) islom dinining saodati haqida; 4) iymonning mohiyati haqida; 5) saloti xamsa (besh vaqt namoz) haqida; 6) zakot haqida ishoratlar; 7) Ka'ba ziyorati haqida ishoratlar; 8) uzlat bayonida; 9) sukut foydalari haqida; 10) falakning gardishidan shikoyat; 11) riyokor so'fiylar va haqiqiy darveshlar bayonida; 12) zohir ulamolarining ahvoli bayonida; 13) podshohlarga xitob; 14) munshiylar va vazirlar haqida; 15) qarilik haqida; 16) yoshlik bayonida; 17) husn va go'zallik haqida; 18) ishq ta'rifida; 19) xomtama shoirlarning ahvoli bayonida; 20) nasihat bobida.

1482–83-yillarda "Xamsa"ning ikkinchi dostoni **"Subhat ul-abror"** ("Yaxshi kishilarning tasbehi") maydonga keldi. An'anaga muvofiq, xamsaning ikkinchi dostoni ishqiy mavzuga bag'ishlanishi kerak edi. Lekin Jomiy bu o'rinda an'anadan butunlay chekinib, falsafiy yo'nalishdagi yana bir doston yaratadi. Lekin u birinchi doston kabi 20 ta maqolatdan emas, balki 40 ta bo'lim – "iqd" (tasbeh donasi)dan iborat bo'lib, har bir nazariy qismdan keyin alohida hikoyat va munojot ilova qilib

boriladi. Doston hajman 2870 baytdan iborat bo‘lib, qisqacha nasriy so‘zboshi, basmala bobi, hamd, na’t, munojot mavzusidagi an’anaviy boblar bilan boshlanadi. Asosiy qism quyidagi fasllardan iborat: 1) ko‘ngil haqiqatining kashfida; 2) so‘z ta’rifida; 3) she’r va shoirlik bayonida; 4) borliqqa tafakkur qilish orqali Alloh borligini dalillashtirish; 5) tavhid bobida; 6) Haq taolo zoti – Borliq haqiqati ekanligi bayonida; 7) tasavvuf sharhi; 8) murid va muridlik odobi; 9) tavba maqomi; 10) taqvo sirrining kashfi; 11) zuhd maqomi; 12) safar va sayr-u suluk sirri; 13) sabr bayonida; 14) shukr bayonida; 15) xavf bayonida; 16) rijo (umid) bayonida; 17) tavakkul bayonida; 18) rizo bayonida; 19) muhabbat bobida; 20) shavq bayonida; 21) g‘ayrat haqida; 22) qurb haqida; 23) hayo haqida; 24) hurriyat haqida; 25) futuvvat haqida; 26) sidq haqida; 27) ixlos bayonida; 28) saxovat bobida; 29) qanoat haqida; 30) tavozu’ bobida; 31) halimlik bayonida; 32) ochiqyuzlilik va xushfe’llik bobida; 33) do‘stlik va unsiyat bobida; 34) samo‘ bobida; 35) podshohlar va davlatchilik bayonida; 36) davlat arbobini yaxshilikka targ‘ib etish bayonida; 37) raiyatni odil podshohdan minnatdor bo‘lishlariga targ‘ib etish; 38) farzandi – Ziyouddin Yusufga vasiyatlar; 39) o‘z nafsiga nasihatlar; 40) kitobxonlardan muallifning iltimoslari zikrida.

Har bir bobda Jomiyning tegishli mavzuda nazariy fikrlari, fikrining dalili sifatida ibratli hikoyat, latifa yo tamsil, hikoyat oxirida umumlashma xulosalar keltirilgan.

“Subhat ul-abror” ramali musaddasi maxbuni maqsur vaznida yozilgan bo‘lib, Navoiyning guvohlik berishicha, Jomiygacha hech kim bu vaznda doston yozmagan. “Xamsat ul-mutahayyirin”ning uchinchi maqolatida Navoiy “Subhat ul-abror”ni “Haft avrang” tarkibidagi to‘rtinchi doston sifatida qayd qilib, “Saddi Iskandariy”da bu dostonni Jomiy “Xamsa”si tarkibidagi ikkinchi doston sifatida qayd qilib o‘tadi:

Yana “Subha” jon rishtasin tor etib
Ki, har muhra bir durri shahvor etib

(“Saddi Iskandariy”, 7-bob).

Abdurahmon Jomiy beshligidagi uchinchi doston **“Yusuf va Zulayxo”** deb atalib, 1483-yilda yaratilgan. Nizomiy beshligida bunday mavzu va syujetdagi doston uchramaydi. Jomiy “Xusrav va Shirin” mavzusidagi an’anaviy doston yaratishdan voz kechib, Qur’onda “ahsan ul-qasas” – “qissalarning sarasi” deb

ta'riflangan Yusuf qissasi bayoniga bag'ishlangan "Yusuf va Zulayxo" dostonini yaratadi. Dostonning umumiy hajmi 4000 baytdan iborat bo'lib, xutba, hamd, na't, me'roj, Xoja Ahror Valiy va Sulton Husayn Boyqaro madhidagi muqaddimaviy boblar bilan boshlanadi. Jomiy bu doston syujetiga "Yusuf" surasi hamda ushbu suraga yozilgan tafsirlar, "Qasas ul-anbiyo" hamda isroiliyyot (islomiyatdan oldin o'tgan payg'ambarlar haqidagi yahudiy va nasroniy manbalar)ni asos qilib olgan. Dostonda Yusufning beqiyos jamoli, otasi – Ya'qubning unga bo'lgan beqiyos muhabbati, akalarining hasadgo'yligi va Yusufni quduqqa tashlab yuborishlari, ertasi kuni Misr karvonidagilarga arzimagan pulga o'z jigargo'shalarini sotib yuborishlari, Yusufning Misr bozoridagi savdosi, Misr Azizi uni vazniga teng oltin to'lab sotib olishi, Azizning sohibjamol xotini – Zulayxo Yusufni ko'rib, bolaligidan tushida ko'rib, sevib qolgan kishi aslida Yusuf ekanligini bilib, unga oshiqi beqaror bo'lishi, Zulayxoning talabini rad etgan Yusuf malomat va tuhmatga uchrab, zindonga tushishi, tush ta'biri tufayli zindondan ozod bo'lib, oliy maqomlarga erishishi, Zulayxo Haq dinga iymon keltirgandan keyin Alloh uni qaytadan sohibjamol qilib qo'ygani va Yusuf unga uylangani haqidagi lavhalar juda jonli va ta'sirchan qilib tasvirlangan. Xotima qismida Jomiy asarning yozilish sanasi ta'rixi va baytlar miqdorini (4000 bayt) yozib, Yusuf timsolidan murod – Mir Alisher Navoiy ekanligini ta'miya (muammo san'ati) usulida qayd qilib o'tadi.

Abdurahmon Jomiy "Xamsa"sidagi to'rtinchi doston **"Layli va Majnun"** mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, 1483-yilda yaratilgan. Hajman 3680 baytdan iborat. Asar salaflar dostonlaridan tasavvufiy bo'yoqlarning quyuqligi va ramziylikning kuchli ifodasi bilan ajralib turadi. Dostonda an'anaviy muqaddimadan so'ng voqealar mazmuni keltiriladi. Unga ko'ra, Qays oiladagi o'n farzandning eng kenjasi. Uning bolaligi tasviri keltirilmaydi, voqealar ibtidosida u tuya minib yuruvchi yengiltabiat yigit sifatida tasvirlanadi. Qays dastlab Karima ismli qizga ko'ngil qo'yadi. Lekin Karimaning badavlat yigitga rag'bat bildirganligini ko'rib, qabilani tark etadi va choparlardan Layli ismli qizning ta'rifini eshitib, uni ko'rishga boradi va sevib qoladi. Layli va Qaysning qabilalari o'zaro adovatda edilar. Qaysni amakisining qiziga uylantirmoqchi bo'ladilar, lekin u ko'nmaydi.

Shunga qaramay, Qaysning uylanayotganlik xabari Layliga yetib boradi va u yigitni beqarorlikda ayblaydi. Bundan ta'sirlangan Qays Layli tomon yo'lga tushadi va agar uni uchrata olsa, Ka'ba ziyoratiga borishga ont ichadi. Qaysning orzusi amalga oshib, Laylini uchratadi va Ka'ba ziyoratiga boradi. Makkadan qaytgach, sevishganlar yana uchrashadilar. Bu paytga kelib Qays "Majnun" laqabini olgan edi. Laylining otasi Qaysga qilich bilan tahdid qilib, qizi bilan uchrashishni ta'qiqlaydi. Qaysning otasi Laylini so'rab, sovchilikka boradi, lekin Laylining otasi qizini dushman qabilaga berishni istamaydi. Majnun dashtga – yovvoyi hayvonlar tomonga chiqib ketadi. Dashtda Majnun lashkarboshi va shoir Navfal bilan uchrashadi. Navfal Majnun nomidan Laylining oilasiga sovchilikka boradi, lekin Laylining otasi yana rad javobini beradi. Majnun ishqiy she'rlari bilan shuhrat qozonadi va ularni tinglagan xalifa hatto uni taqdirlamoqchi bo'ladi, lekin Majnun rozi bo'lmaydi.

Saqif qabilasidan bir yigit Ka'ba yo'lida ketayotib, Laylini uchratib qoladi va unga sovchi yuboradi. Laylining otasi nasab va boylikda yuqori bo'lgan bu yigitga rozilik bildiradi va to'y bo'lib o'tadi. Layli kuyovga Majnunni sevishini va agar unga yaqinlashsa, o'zini ham, uni ham o'ldirishini aytib, qasam ichadi. Majnun Laylining turmushga chiqqanligini eshitib, qattiq xafa bo'ladi. Dostonda Majnunning Layliga, Laylining Majnunga yozgan maktublari keltirilgan. Laylining kuyovi uning visoliga erisholmay, qattiq iztirobga tushadi va xastalanib, vafot etadi.

Bir kuni Layli va Majnun tasodifan uchrashadilar, Majnun Laylini ko'rib hushini yo'qotadi, Layli bazo'r uni hushiga keltiradi va kelasi safar yana shu yo'l orqali uning huzuriga kelishini aytadi. Oradan ancha vaqt o'tgach, Layli Majnunni yana shu joyda harakatsiz holda uchratadi, uning boshiga qushlar in qurishga ulgurgan edilar. Ma'lum bo'ladiki, Majnun o'sha uchrashuvdan so'ng shu yerda Laylini kutib turgan ekan. Majnun Laylini tanimaydi, uni endi Laylining qiyofasi qiziqtirmas edi, chunki uning ishqi majoziylikdan ilohiylik darajasiga o'tib bo'lgan edi. Majnunni yovvoyi hayvonlar orasida o'lik holda topadilar, uning o'limini eshitgan Layli ham hayotdan ko'z yumadi. Asar bu olamning o'tkinchiligi haqidagi bob bilan yakun topadi.

"Xamsa"dagi so'nggi – beshinchi doston **"Xiradnomai Iskan-**

dariy" ham Jomiyning an'anaga rioya etishi bilan xarakterlanadi. Ko'rinadiki, Abdurahmon Jomiy yaratgan masnaviy-dostonlar orasida falsafiy yo'nalishdagi dostonlar yetakchi o'rinda turishi bilan xarakterlanar ekan.

Fors adabiyotida Nizomiy beshligiga birinchi javob bitgan ijodkor Xusrav Dehlaviy bo'lsa, Navoiy bu vazifani turkiy tilda ado etdi. Navoiy beshligida xamsanavislikning barcha shartlariga qat'iy amal qilinganligini ko'ramiz. Chunki xamsanavislik an'anasidan bir oz bo'lsa-da chekinish, turkiy tilda "Xamsa"dek buyuk asarni yozib bo'lmaydi degan fikrga olib kelishi mumkin edi. Navoiy o'z "Xamsa"si misolida an'anaviy shakl doirasida ham yangi fikr ayta olish imkoniyatini, belgilab berilgan shakllarni jilvalantirish usullari mavjudligini ko'rsatib berdi va uning bu asari umumjahon adabiyotining yuksak cho'qqisi bo'lib qoldi. Navoiy "Xamsa"si ajdodlarimiz ma'naviy holatining ko'zgusi bo'lib, unda o'tmish davr ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatlari, din-diyonat, axloq-odob haqidagi qarashlar o'z aksini topgan. Navoiy "Xamsa"si bir-biri bilan ich-ichidan mustahkam bog'langan beshta dostonni o'z ichiga oluvchi yaxlit asardir. Buyuk shoir unda zamonasining barcha dolzarb masalalarini qalamga oladi. Mundarijaviy doston bo'lmish "Hayrat ul-abror"da shoir umr, uning mazmuni, tabiat, jamiyat va inson munosabatlariga doir savollarni qo'ysa, keyingi dostonlarda muayyan taqdirlar, voqealar misolida ularga javob berishga harakat qiladi. "Xamsa" dostonlaridagi muqaddimalar voqelikka shunchaki an'anaviy kirish bo'lmay, balki dostonlar mundarijasi uchun ochqich vazifasini ham o'taydi. Shu ma'noda muqaddimalarda keltirilgan fikrlarga alohida e'tibor berish dostonlar tagzaminida yashiringan ramziy ma'nolarni ochishga yordam beradi. Aynan muqaddimada buyuk mutafakkirning olam va odam, tabiat, kishilik jamiyati, umr va uning mazmuni haqidagi falsafiy-axloqiy qarashlari, ijodkor sifatidagi buyuk salohiyati u qo'llagan badiiy timsollar, tashbih-u tamsillar vositasida butun bo'y-basti bilan namoyon bo'ladi.

O'zbek mumtoz adabiyotining cho'qqisi bo'lgan Alisher Navoiy "Xamsa"si jahon adabiyotining noyob va o'lmas durdonasidir.

"Hayrat ul-abror. Alisher Navoiy "Xamsa"sidagi birinchi doston "Hayrat ul-abror" ("Yaxshi kishilarning hayratlanishi") 1483-yilda yaratilgan edi. Doston 3988 baytdan iborat bo'lib, Ni-

zomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror", Amir Xusrav Dehlaviyning "Matla' ul-anvor" hamda Abdurahmon Jomiyning "Tuhfat ul-ahror" dostonlariga javob tariqasida yozilgan. "Hayrat ul-abror" 63 bob, 20 maqolat va 20 hikoyatdan tashkil topgan. Shundan muqaddima 21 bobni o'z ichiga oladi.

Dostonning birinchi bobi "Bismillahir rohmanir rohim" ("Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman") oyatining shoirona talqiniga bag'ishlanganligi uchun "basmala bobi" deb ham ataladi. Bu bob nafaqat "Hayrat ul-abror", balki umuman "Xamsa" uchun ham kirish vazifasini o'taydi, chunki keyingi dostonlarda biz bu ilohiy jumlani uchratmaymiz.

Salaflarda "Xamsa"ni "Bismilloh" oyati bilan boshlash an'ana tusiga kirgan bo'lib, Nizomiydan boshlab barcha xamsanavislar o'z so'zlarini ana shu oyat bilan boshlaganlar. Faqat Navoiyga kelibgina bu bob mustaqil basmala bobiga aylandi, ya'ni ushbu bob to'lig'icha "Bismilloh" oyati asosida qurildi.

Hazrat Navoiy dastlabki 12 baytni "Bismilloh" oyatining umumiy tavsifiga bag'ishlaydi: oyat o'z shakli va mohiyatiga ko'ra butun Borliqning nizomini ushlab turuvchi "jahon rishtasi", tiriklik asosi bo'lmish "jon rishtasi", abadiylik xazinasiga eltuvchi sinoatli tasbih, ham dunyo, ham oxirat saodatini sayd etuvchi arqon, obihayot oquvchi ariq, Arshi a'loni yorituvchi qandilga o'xshatiladi. Keyingi baytlarda vahdat (Birlik, Alloh taoloning Bir-u Borligi) xazinasiga eltuvchi yo'l sifatida ta'riflangan "Bismilloh"dagi har bir harfga ikki toifa – "ahli qabul" (qabul etganlar) va "ahli rad" (inkor qilganlar) uchun alohida-alohida ma'no yuklatiladi. Dastlab rad etuvchilarga to'xtalinar ekan, ushbu jumladagi har bir harfning bu toifa kishilarini jazolantirishga xizmat qildirilganligini ko'ramiz. Xususan, "س" – "sin" harfi haqida gapirilganda, uning shakli nahang balig'ining umurtqa suyagidagi arradek bo'lib, rad etuvchilar uchun ofatdek; "م" – "mim" harfi ilon nafasidek o't sochib, yo'l boshida og'zini ochgan holda yotadi, degan tashbihlardan foydalaniladi. Shu tariqa Navoiy ushbu jumladagi qolgan harflarni ham mazkur maqsadga xizmat qildiradi va kitobat (harf) san'atining betakror namunasini yaratadi.

Ikkinchi toifa, ya'ni qabul qiluvchilarga to'xtalinganda, endi bu harflarning ijobiy ma'no kasb etishini kuzatamiz. Xususan, "س" "sin" harfi endi salomatlik yo'lining zinasiga o'xshatilsa,

"م" – "mim" harfining maqsad manzilidagi buloq boshiga nisbat berilganligini ko'rish mumkin. Bularning barchasida Navoiyning yuksak badiiy mahorati namoyon bo'ladi.

Dostonning ikkinchi bobidan boshlab Navoiy "Xamsa"sining yana bir o'ziga xos jihatiga duch kelamiz. Navoiygacha yozilgan "Xamsa"larda boblarga alohida sarlavha qo'yilmagan. "Hayrat ul-abror"ning ikkinchi bobidan boshlab Navoiy saj'ning go'zal namunasi bo'lmish jumlalar orqali bobning umumiy mazmun-mohiyatini ochib beruvchi nasriy sarlavhalardan foydalanadi. Shoir sarlavhalar tuzishda hamisha ham bir xil andozadan kelib chiqmagan: zarur paytlarda murakkab shakllarni qo'llagan, ayrim o'rinlarda oddiy ifoda usullaridan foydalanish bilan cheklangan.

Ikkinchi bob Xoliq, ya'ni Alloh hamdiga bag'ishlanadi. Mazkur bobda shoir butun borliqni yaratgan Xoliqning osmon va quyoshdan tortib har bir zarrani, butun o'simliklar va hayvonot olamini, kishilik jamiyatini bir-biriga bog'lab harakatlantirib turishini cheksiz hayrat bilan tasvirlaydi. Alisher Navoiy "Uning zoti lutf va safodan iborat, lekin vafo isi unga begona" degan fikrlarni ilgari surar ekan, bu o'rinda tasavvuf ta'limoti asosida fikr yuritilayotganligi ma'lum bo'ladi.

Dostonning 3 – 6-boblari (to'rt bob) munojotlarni o'z ichiga oladi. Birinchi munojotda Alloh taoloning Bir-u Borligi, jamiyki maxluqot unga sano aytsalar ham, uning hamdini ado etolmasliklari, Haq taolo o'z Zotiga mazhar – ko'zgu yaratish maqsadida olamni yo'qdan bor qilgani haqida so'z yuritiladi. Olamning go'zalligi va mukammal yaratilganligini vasf etish orqali mutafakkir shoir Parvardigori olamning benazir yaratuvchi ekanligini chin e'tiqod sohiblariga xos bo'lgan jo'shqinlik bilan vasf etadi. Shu bilan birga, Borliqni yaratishdan asosiy maqsad, olamning hikmati va gultoji, koinotning mohiyati inson ekanligini alohida iftixor va shukronalik bilan qayd qilib o'tadi:

Ganjing aro naqd farovon edi,
Lek boridin g'araz inson edi.

Ikkinchi munojotda esa, Alloh olamdagi jamiyki mavjudotning yaralish va foniylikka yuz tutish jarayoni davomida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jamiyki voqea va hodisalarni o'z ilmi, irodasi va qudrati bilan tasarruf etishi, azaliylik va abadiylik faqat Xudoga xos ekanligi, haqiqiy iloh faqat Alloh taoloning

O‘zi bo‘lib, olamdagi barcha mavjudot faqat Unga sajda va itoat qilishlari lozimligini bayon etib, o‘z iltijolarida ilohiy g‘azabdan qo‘rqib, rahmatidan umidvor holda yashayotganini, iymon gavharidan ayri qoldirmaslikni yolvorib so‘raydi:

Yo Rab, agar yetsam o‘shul kunga jazm,
Yoki burun aylasam ul yonga azm.

Ul nafas iymon manga hamroh qil,
Ko‘nglum aro mahvi sivalloh qil.

Uchinchi munojotda olam ahlining qiyomat kunidagi ahvoli tasvirga tortilib, o‘sha kuni oxirzamon payg‘ambari – Muhammad mustafo (s.a.v) Haq taolo izni bilan musulmon ummatini shafoat qilishi, Navoiy ham bu shafoatdan umidvor ekanligi haqida so‘z yuritiladi. To‘rtinchi munojot esa, Alloh taoloning karami kengligi, jamiyki bandalariga mehribon va rahmli ekanligi haqida bo‘lib, Navoiyning talqiniga ko‘ra:

Har kishi osiy-u gunahkorroq,
Afv ila rahmatqa sazovorroq.

Bobda aytilishicha, dunyodagi barcha mavjudotlar o‘z Yaratganiga doim sajda qilishlari zarur. Xudoning qahri kelsa, “ko‘k bir etak kul” kabi sovurilib ketishi hech gap emas. Shuning uchun inson o‘ylab ish qilishi, gunoh qilishga yo‘l qo‘ymasligi, qiyomat kunini unutmasligi, har bir gunoh uchun qiyomat kuni jazo olajagini esda tutishi, islom dini qoidalariga to‘la rioya qilishi zarur. Navoiy munojot so‘ngida Yaratganga murojaat qilib, gunohlarini kechirishini so‘raydi:

Garchi gunahning had-u poyoni yo‘q,
Aylamasang rahm ham imkoni yo‘q.

Adabiy an’anaga ko‘ra, munojotdan so‘ng payg‘ambar madhiga, ya’ni na’tga o‘tiladi. Dostonda 5 ta na’t keltirilgan. Ushbu na’tlarning dastlabki to‘rttasi vasf yo‘nalishida bo‘lsa, beshinchi na’t me’roj haqida. Dostonda Navoiy Payg‘ambar (s.a.v.)ni komil inson deb talqin etar ekan, ul Zotning insoniyat taqdiridagi o‘rnini – bu dunyoning yaratilishidan maqsad Rasulullohdek komil inson ekanligini ta’kidlaydi, u Zotni alohida mehr-muhabbat bilan madh etadi.

Birinchi na'tda tasavvuf ta'limotidagi "Nuri Muhammadiya" nazariyasiga to'xtalinar ekan, ushbu nazariyadagi "Odam Ato unga ham o'g'il, ham ota" degan tushuncha ta'rifi beriladi. "Nuri Muhammadiya"ga ko'ra, Alloh barcha olamlarni yaratishdan oldin Muhammad nurini yaratgan bo'lib, shu nur tufayli olamni va odamni yaratgan. Demak, Odam Ato ham Muhammad nuridan bino qilingan. Shuning uchun hazrati Muhammad (s.a.v) Odam Atoga ham ota, ham o'g'ildir:

Bo'ldi sanga Odami sabqatnamo,
Avval o'g'ul, so'ngra gar o'lsa oto.

Ikkinchi na'tda Payg'ambar (s.a.v.)ning tug'ilishlari, bolalik paytlarida otadan yetim qolishlari, savdogarlik bilan shug'ullanishlari, hali payg'ambarlik maqomiga yetishmagan zamonlarida ham qabiladoshlari orasida yuksak axloqlari bilan nufuz topganlari, payg'ambarlikning dastlabki yillarida ayrim mushrik qabiladoshlari tomonidan ko'p aziyatlar chekkan bo'lsalar hamki, ularni duoi xayr qilganliklari haqida so'z yuritilsa, uchinchi na'tda Muhammad alayhissalomning payg'ambarliklariga dalil bo'lgan mo'jizalar – u Zotning soyasiz bo'lganliklari, Oyni ishorat barmog'i bilan ikkiga bo'lganliklari, xat-savodsiz bo'lganlari holda olamning jamiyki hikmatlaridan boxabar, butun olamlarga rahmat qilib yuborilgan payg'ambar ekanliklari haqida so'z yuritiladi. To'rtinchi na'tda esa, Navoiy ahli sunnat va jamoat e'tiqodiga ko'ra, Payg'ambar (s.a.v.)ning sifatlarini bayon etib, u Zotning ahli bayti va jamiyki sahobalar, ayniqsa to'rt xalifa – Abu Bakr Siddiq, Umar Foruq, Usmon Zunnurayn va Ali Murtazoga salavot yuboradi.

Beshinchi na't esa an'anaga muvofiq, me'roj kechasining ta'rifiga bag'ishlangan. Oxirzamon payg'ambarining mo'jizalari ko'p bo'lsa hamki, u Zotning ikki mo'jizasi – me'roj va shafoat hodisasi badiiy adabiyotda alohida tilga olinadigan mavzu hisoblanadi. Aynan me'roj hodisasi sodir bo'lganidan keyin kufr va iymon chegarasi aniq bo'ldi – bu hodisaga ishonganlar musulmon, ishonmaganlar kofir degan ilohiy hukm nozil bo'ldi. Shafoat masalasi esa, islom payg'ambarining mo'jizalari qiyomatgacha davom etishi, ummatining gunohini shafoat qilish imkoniyati faqat Muhammad alayhissalomga berilganining isboti hisoblanadi.

Dostonning 12-bobi ulug‘ salaflar Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy madhiga bag‘ishlangan. Dastlab Nizomiyga ta’rif berilar ekan, uning ismidagi harflar abjad hisobiga ko‘ra 1001 soniga teng kelishi jihatidan Xudoning 1001 ismiga hamohang ekanligi aytiladi. Ishtiqoq (o‘zakdosh so‘zlarni keltirish) va iyhom (baytda ikki xil ma’noni qo‘llash) san’atlari vositasida u yaratgan xazina (“Xamsa”)ga ta’rif beriladi:

Ganja vatan, ko‘ngli aning ganjxez,
Xotiri ganjur-u tili ganjrez.

Xusrav Dehlaviy madhi keltirilganda esa uning ismidagi “xusrav” so‘zining podsho ma’nosini bildirishi Dehlaviyning so‘z podshosi sifatida hind mulkini obod qilganligi, uning har bir dostoni Hindistonning bir o‘lkasiga teng ekanligi bilan izohlanadi:

Nazmi savodi aro har doston,
O‘ylaki, bir kishvari Hinduston.

13-bob Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhini o‘z ichiga oladi. Navoiy Nizomiy va Dehlaviyni bir bobda ta’riflagani holda ustozi va do‘sti Abdurahmon Jomiyga alohida bob bag‘ishlaydi. Uni o‘sha davrning “qutbi tariqati” deb atar ekan, o‘zining unga nisbatan ojiz va muhtojligini g‘oyat kamtarlik bilan bayon qilsa, Jomiyning yangi yozgan biror asarini o‘zidan oldin hech kim ko‘rmasligini faxr bilan ta’kidlaydi:

Nomag‘akim roqim etib xomasin,
Ko‘rmadi men ko‘rmayin el nomasin.

“Hayrat ul-abror” dostonining yozilishiga aynan Jomiyning “Tuhfat ul-Ahror” dostoni turtki bo‘lganligini aytadi:

Boshtin-ayoq gavhari shahvor edi,
Qaysi guhar, “Tuhfat ul-Ahror” edi...

Chun o‘qimoq zamzamasi bo‘ldi bas,
Ko‘nglum aro dag‘dag‘a soldi havas.

Kim bu yo‘l ichraki alar soldi gom,
Bir necha gom o‘lsa manga ham xirom.

Dostonning 14–15-boblari so‘z ta’rifiga bag‘ishlangan. Shoir ushbu boblarda so‘zni tavsif etar ekan, nazmning qimmati, so‘zdagi ma’no, uning shaklga muvofiqligi, shakl va mazmun masalasi, umuman, ijod haqidagi masalalarga e’tibor qaratadi. Navoiy so‘zning buyukligini “kun” (yaral) so‘zining olam va odamni yaratishda vosita bo‘lganligi bilan dalillaydi:

Dahr muqayyad bila ozodasi,
Borcha erur “kof” ila “nun” zodasi.

Zodasidin zoda bo‘lub beadad,
Zodaga ham volid o‘lub, ham valad.

Alisher Navoiy bu o‘rinda so‘zning mahsuli bo‘lgan adabiy turlar haqida ham to‘xtalar ekan, nazm va nasrga alohida ta’rif beradi, nazmni nasrdan ustun qo‘yib, gulshanda gullarning saf tortib turishini nazmga, sochilib, to‘kilib yerda yotishini nasrga o‘xshatadi. Shoirning e’tiroficha, nazm bu qadar e’zozlanmasa, Tangri so‘zida she’r bo‘lmas edi:

Bo‘lmasa e’joz maqomida nazm,
Bo‘lmas edi Tengri kalomida nazm.

Shuningdek, Navoiy ushbu bobda turkiy tilda she’r aytishga kuchli ishtiyoq sezishini va bu yo‘lda ancha yuqori darajaga erishganini faxr bilan bayon qiladi. Mazkur bobda Navoiy shoirlar axloqi, shoirlik rutbasi, ayrim zamondosh shoirlar bilan bog‘liq “adabiy sirqat” (plagiat, boshqa shoirlardan ma’no yo mazmun o‘g‘irlash) haqida ham fikr yuritganki, bu fikrlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Dostonning 16-bobi zamona sultoni Husayn Boyqaro madhini o‘z ichiga oladi. Alisher Navoiy bu bobda talmih san’ati vositasida Husayn Boyqaroni kuch-qudratda Firdavsiy qahramoni Rustamga, adolat va fazl-u kamolda Eronning afsonaviy podshosi Jamshidga o‘xshatadi.

17-bob “Ko‘ngul ta’rifida” deb nomlanadi. Bobning ilk baytlarida shoir Xudoni dehqonga, inson vujudini gulistonga qiyoslaydi. Uning fikricha, Xudoning inson vujudini yaratishdan asosiy maqsad-muddaosi inson vujudining eng sharif a’zosi – ko‘ngilni yaratishdir.

Ermas edi anda g'araz hech gul,
G'ayri ko'ngulkim, g'araz erdi ko'ngul.

Shu bilan birga, shoir ko'ngilni inson ko'ksining chap tomonida joylashgan a'zo – yurak bilan adashtirmaslikka chaqiradi. Yaratganning yodi bilan yashaydigan insondagina haqiqiy ko'ngul bo'ladi va ugina "ahli dil" sanalishi mumkin. Shuningdek, Navoiy ko'ngilni olami kubro, Ka'badan-da ulug' joy deb ataydi.

Muqaddimaning qolgan uch bobi (18–20-boblar) hayrat ta'rifiga bag'ishlangan. Bu boblarda Xoja, ya'ni ko'ngilning avval mulk (narsalar) olamiga, keyin malakut (farishtalar) olamiga va nihoyat so'ngida "ajoyib bir shahar" (inson tanasi) ga sayohati bayoni keltiriladi va bu sayohat ko'ngilning o'zligini tanib, inson tanasiga kirgani tasviri bilan yakunlanadi. Alisher Navoiy bu o'rinda "o'zligini tanigan Xudoni ham taniydi" g'oyasini ilgari suradi:

Nafsg'a chun orif o'lub mo'-bamo'
Foyiz o'lub "qad arafa rabbahu".

Ko'ngil hayratlari yaratilgan olamlarning mukammalligi, uning inson tomonidan idrok etilishi va inson qadri kabi masalalarga tutashadiki, bular keyingi – 21-bobda Xoja Bahouddin Naqshband hamda Xoja Ubaydulloh Ahror madhlarida davom etadi.

Alisher Navoiyning muqaddimadagi so'nggi bobni aynan shu shayxlarga bag'ishlashi shoirning naqshbandiya suluki vakili ekanligiga ishora edi. Bob o'z ichida ikki qismga ajratiladi, birinchi qism 15 baytdan iborat bo'lib, uning deyarli har bir baytida *naqsh* so'zining turli holat va shakllarda ishtiqoq (o'zakdosh so'zlarni keltirish) va tanosub (ma'no va mohiyat jihatidan bir-biriga yaqin so'zlarni keltirish) san'atlari vositasida qo'llanilganligini ko'ramiz. Navoiy Bahouddin Naqshbandni yuksak martabali naqqoshga, uning ta'limotini muhtasham va dilkash naqshga o'xshatadi:

Xojaki naqqoshi sipehri baland,
Bo'lg'ali har safhasig'a naqshband.

Ayladi avroq munaqqash base,
Naqsh raqam ayladi dilkash base.

Bobning ikkinchi qismi naqshbandiya tariqatining o‘sha davrdagi mashhur pirlaridan biri Xoja Ubaydulloh Ahror madhiga bag‘ishlangan. Navoiy uni murshidi ofoq (yo‘lboshlovchi pir) deb ulug‘lar ekan, shohlar unga qulluq qilishga o‘zlari keladilar, hatto haqiqat sirlaridan ogohlar ham uning huzurida hushlaridan judo bo‘ladilar deb yozadi:

Yuz qo‘yubon qullug‘ig‘a shohlar,
Bazmida bexud o‘lub ogohlar.

Alisher Navoiy bobni ulug‘ shayx faoliyatiga yuksaklik tilash va uning himmatidan bahramandlik umidi bilan yakunlaydi va bu umid bevosita muqaddimaga ham yakun yasaydi:

Qo‘ymasun ayvoni jahonni tihi,
Dabdabai ko‘si Ubaydullahi.

Himmatidin bizni ham etsun Xudoy,
Faqr yo‘lida g‘ani, iymong‘a boy.

Dostonning 22-bobidan asosiy qism boshlanadi. Asosiy qism maqolat va hikoyatlardan tashkil topgan 40 bobni o‘z ichiga oladi. Maqolatlar muayyan bir axloqiy-falsafiy mavzuga bag‘ishlangan bo‘lib, shoir dastlab ushbu mavzuga munosabat bildiradi, mavzu yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bayon qiladi, so‘ngra shu mavzuga mos ibratli hikoya keltiradi. Maqolatlarning barchasi, ularga ilova qilingan hikoyatlar ham bir-biri bilan izchil bog‘langan, mazmunan biri ikkinchisini davom ettiradi, to‘ldiradi, rivojlantiradi.

Shu tariqa asosiy qism 20 maqolat va unga ilova tarzida keltirilgan hikoyatlar bayoni tarzida davom etadi. Buni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

№	Maqolat nomi	Hikoyat
1	Iymon sharhida	Shayx Boyazid Bistomiy va uning muridi haqidagi hikoyat
2	Islom bobida	Ibrohim Adham va Robiya Adviya haqidagi hikoyat
3	Salotin (sultonlar) zikrida	Shoh G‘oziy hikoyati
4	Xirqa kiygan riyokor shayxlar xususida	Abdulla Ansoriy haqidagi hikoyat

5	Karam (xayru ehson) vasfida	Hotami Toyi hikoyati
6	Adablilik to‘g‘risida	No‘shiravon va nargis haqidagi hikoyat
7	Qanoat bobida	Qanoatli va qanoatsiz ikki do‘st haqidagi hikoyat
8	Vafo bobida	Ikki vafoli yor hikoyati
9	Ishq o‘ti ta’rifida	Shayx Iroqiy haqidagi hikoyat
10	Rostliq ta’rifida	Sher bilan Durroj hikoyati
11	Ilm osmonining yulduzlardek baland martabaliligi haqida	Imom Roziy va Xorazmshoh haqidagi hikoyat
12	Qalam va qalam ahllari haqida	Yoqut haqidagi hikoyat
13	Bulutdek foyda keltiruvchi odamlar haqida	Ayyub va o‘g‘ri haqidagi hikoyat
14	Osmon tuzilishida shikoyat	Iskandar haqidagi hikoyat
15	Jaholat mayining quyqasini ichadiganlar haqida	Isroiliy rind haqidagi hikoyat
16	Xunasasifat oliftalar haqida	Abdulloh Muborak haqidagi hikoyat
17	Bahor yigitligining sofligi haqida	Zaynulobidin va uning o‘g‘li haqidagi hikoyat
18	Falak g‘amxonasi haqida	Go‘zal malika va uning oshig‘i haqidagi hikoyat
19	Xurosonning misli yo‘q viloyati bayonida	Bahrom va bog‘ haqidagi hikoyat
20	Maqsadning o‘talgani haqida	Xoja Muhammad Porso haqidagi hikoyat

Eng **avvalgi maqolat** iymon sharhiga bag‘ishlanadi. Bu bejiz emas, zero dostonning bosh g‘oyasi – komil inson timsolini vasf etishdir, komillikning bosh belgisi esa iymondir:

Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki, nishoni anga iymon erur.

Alisher Navoiy “Kimdaki iymonning uch belgisi bo‘lsa, u haqiqiy insondir” deydi va bu belgilar sifatida *sabr*, *shukr* va *hayo*ni ko‘rsatib o‘tadi:

Bas, ani inson atag‘il beriyo
Kim, ishidur sabr ila shukr-u hayo.

Komil inson ta'rifidan keyin iymon sharhiga to'xtalib o'tiladi. Hazrat Navoiy iymonning 6 sharti sifatida quyidagilarni keltirib o'tadi:

Haqning borligiga iymon keltirish;
farishtalarga iymon;
Allohning so'zlari bo'lgan muqaddas kitoblarga iymon;
Payg'ambarlarga iymon;
qiyomat kuniga iymon;
taqdiri azalga iymon.

Ushbu fikrlardan so'ng Shayx Boyazid Bistomiy va uning muridi haqidagi hikoyat keltiriladi. Hikoyatda bir kuni Shayx Boyazid Bistomiydan g'amginlik sababini so'ragan muridiga shayx bu dunyoda haqiqiy insonlar kamayib ketganligidan xafaman, deb javob beradi. Shunda muridi shayxni haqiqiy insonlar safida deb hisoblashini aytganida, shayx o'zini ham yuz ming sarson-sargardonlar qatorida sanashini, agar bu dunyodan iymon bilan ketmas ekan, inson sanalmasligini aytadi. Hikoyatda diniy mazmundan tashqari, tasavvufiy qarashlar ham mavjud bo'lib, bunda tariqatdagi xavf maqomi haqida so'z boradi, deb aytish mumkin. N.Komilovning "Tasavvuf" kitobida yozilishicha, xavf tariqatning 6-maqomi bo'lib, bunda solikning nafs makridan qo'rqishi, shayton nayrangining ko'ngilga xavf solishi nazarda tutiladi. Nafs shunday kuchli dushmanki, solik tariqatdagi tavba, vara', zuhd, faqr, sabr kabi maqomlarni egallagan bo'lishiga qaramay, nafsning iymonga daxl qilishi mumkinligidan doim xavfda bo'ladi.

Ikkinchi maqolatda esa, islom dinining mohiyati va arkonlari haqida so'z yuritiladi. Maqolat avvalida Navoiy basmala bobidagi "ahli qabul" va "ahli rad" tushunchalariga yanada oydinlik kiritib, shunday yozadi:

Olam aro xalqni Yazdoni pok,
Ahli najot etti-yu ahli halok.
Bu birisin obidi asnom bil,
Ul birisin zumrai islom bil.
Kufr eli yo'l topti malomat sari,
Zumrai islom salomat sari.

Navoiy talqini bo'yicha, islom davlatida yashashning o'zigina musulmon bo'lish uchun yetarli emas. Shoir hadisga tayangan

holda haqiqiy musulmon deb, boshqa odamlar qo'li va tilidan omon va salomat bo'lgan kishigagina nisbatan qo'llash mumkinligini ta'kidlaydi. Bunday axloqiy darajaga yetish uchun inson islomning besh ruknini xolis niyat va pok e'tiqod bilan bajarishga harakat qilishi kerak. Navoiy islom dinining arkoni – shahodat kalimasini aytish; namoz, ro'za, zakot hamda hajning shartlarini bayon etish bilan birga bu amallar shunchaki rasm-rusum emas, balki ruhiy tarbiyaning asoslari ekanligini juda chiroyli tarzda ifodalab bergan. Jumladan, 25-bobdagi hikoyatda keltirilishicha, shohlikni tark etib, darveshlikni ixtiyor etgan Ibrohim Adham biyobon yo'li bilan hajga borishni ixtiyor etib, har bir bosgan qadamining shukronasiga ikki rak'at namoz o'qib boradi. Haj yo'lini shu tariqa o'n to'rt yilda bosib o'tgan Ibrohim Adham Makkaga kirsa, Ka'bani o'z o'rnida topmaydi. Haq taologa munojot qilib, sababini so'rasa, g'aybdan "Ka'ba biyobon yo'li orqali muhabbat shavqidan qaddi egik bir kampir ziyoratiga ketdi", degan ovoz keladi. Ko'p o'tmay, biyobon yo'lidan kelayotgan Robiya Adviyani ko'rib, bu ishning hikmatini so'rasa, Robiya unga shunday javob beradi:

Senga samar berdi namoz-u riyo,
Menga samar berdi niyoz-u fano.

Bu hikoyat orqali Ilohga bo'lgan chin ixlos va muhabbat har qanday ibodatdan ustun ekanligini ta'kidlagan Navoiy keyingi ya'ni **to'rtinchi maqolatda** sultonlar ta'rifiga o'tadi. Navoiy bu bobda podshohlikning mezoni – asosi adolatda ekanligini sarlavhadayoq bayon etadi. Navoiyning talqini bo'yicha, podshoh ham boshqa insonlar kabi tuproqdan yaralgan oddiy banda. Podshohlik – imtiyoz emas, balki vazifa, uni halol bajarish uchun haqni nohaqdan ajratib, adolat tamoyiliga so'zsiz rioya qilish shart. Xalq birligi, mamlakat obodligi, turmush farovonligini ta'minlovchi asosiy omil ham adolat hisoblanadi. Ammo, afsuski, deb davom ettiradi o'z mushohadasini Navoiy, bu qoidaga hamma vaqt ham rioya qilinmaydi, zulm va zo'ravonlikning boshida ko'pincha maishatparast va zolim hukmdorlar turadi.

Navoiy bu zulmkorliklarning natijalari sifatida shohlarning bazmi jamshidlarini batafsil tasvirlaydi. Bu ajablanarli emas. Chunki uning o'zi bunday tongotar bazmlar, mayxo'rliklar, bema'ni va bemaza gap-gashtaklar, xalqning peshona terisi-

dan yig‘ilgan mablag‘larni ko‘kka sovurishlarni ko‘p ko‘rgan edi. Nafs itining qo‘lida zabun bo‘lgan bu toifaning qiliqlarini o‘tkir o‘xshatish va tashbihlar orqali fosh etib, ushbu jirkanch manzara tasviri orqali hokimiyatning oliy tabaqasini ogohlikka, bunyodkorlikka da’vat etadi:

Zulmni tark ayla-vu dod aylagil,
Marg kunidin dag‘i yod aylagil.

Maqolatdan keyingi hikoyatda Sulton Husayn Boyqaroning faoliyatiga bog‘liq hikoyatni keltiradi. Unda aytilishicha, bir kuni Husayn Boyqaro oldiga bir kampir kelib, uni qozi mahkamasiga olib boradi va undan o‘g‘lining xunini talab qiladi. Qozi guvoh so‘raganda, sultonning adolati va insofidan bo‘lak guvohi yo‘qligini aytib, adolat so‘raydi. Shariat qozisi bunda yo diyat (xun to‘lovi) yo jonga jon deb hukm chiqaradi. Sulton kampirning da’vosini qabul etib, shariat bo‘yicha ish tutishlarini so‘raganida, kampir sultonning odilligini ko‘rib, uzr so‘rab, da’vosidan kechadi. Sulton xun to‘lovi uchun shunchalik ko‘p mablag‘ beradiki, kampir odamlar ichida “Zoli Zar” (“Tilla kampir”) laqabi bilan shuhrat topadi. Bu hikoyat orqali Navoiy Husayn Boyqaroni zolim podsholarga qarama-qarshi qo‘yib, ularni ana shunday odil hukmdorlardan ibrat olishga da’vat etadi.

To‘rtinchi maqolatda jamiyatning quyi tabaqasi – darveshlar haqida fikr yuritiladi. Ushbu maqolatning uchdan ikki qismi riyokor shayxlar hajviga bag‘ishlangan bo‘lib, qolgan o‘ttiz besh bayti chin so‘fiylar ta’rifidadir. Navoiy “riyoyi xirqapo‘shlar” timsolini yaratar ekan, uchta asosiy jihatga e’tibor qaratadi: birinchidan, bunday diyonatsiz dindorlar ommani aldaydigan darajada tashqi suratlarini so‘fiylarga moslashtirganlar: xirqalari darveshlarnikiday quroq parchalardan tikilgan, qo‘llarida hamisha tasbih, eski sallani chirmab, doimo zikr tushish orqali odamlarning e’tiborini o‘zlariga jalb etadilar. Ikkinchidan, bu toifaning muridlari ham shayxlariga o‘xshab, yolg‘on, hiyla va riyoni san’at darajasida o‘zlashtirganlar. Ular nasha tarqatadigan bangi shayxlarini Xizr deb ataydilar, safsatalarini karomat sifatida talqin qilib, ovoza qiladilar. Birov agar zarracha shubha yo e’tiroz bildirsa, unga qarshi jamiyki tuhmat va bo‘htonlarni ishga soladilar. Uchinchi jihat shuki, bu nayranglar va soxta

mashhurlikdan asosiy maqsad – boylar nazariga tushish, ko‘proq nazr-niyoz to‘plash, alaloqibat, mamlakat sultoni inoyatlaridan bahramand bo‘lishdir. Navoiy xulosasi bo‘yicha, din va diyonat niqobi ostida riyokorlik qiladigan, odamlarni to‘g‘ri yo‘ldan adashtiradigan bu toifa eng yomon kimsalardir:

Bu el erur barcha yomondin yomon,
Kimki yo‘q ondin yomon – ondin yomon.

Haqiqiy so‘fiylar esa, bularning aksi: bu dunyoning yaxshi-yomoni bilan ishlari yo‘q, yolg‘on, shuhratparastlik va riyodan uzoq, ko‘ngli muhabbat va ma’rifat nuri bilan munavvar, Haq yo‘lida sobitqadam, payg‘ambar sunnatidan bir qadam ham chekinmasdan ruhiy kamolotni kasb qilgan zotlar, bu yo‘lda hatto “Xizr bir axzar (yashil) giyoh”dir.

Haqiqiy oriflarning biri Xoja Abdulloh Ansoriyga ko‘ra, ibodatni do‘zaxdan qutulish yo jannatga kirish uchun emas, balki Haq taolo buyrug‘iga so‘zsiz amal qilish deb bilish kerak:

Biym ila kim Haqni parastish qilur,
Nafs najotini tilab ish qilur.
Kim chekar ummid ila farsudaliq,
Qasdi erur ravzada osudaliq.

Beshinchi maqolat karam va saxovat haqida. Unda berilishicha, Xudo kimga mol-davlat bergan bo‘lsa, saxovat va qo‘li ochiqlik uning qismatiga aylanishi kerak. Eng yomon sifatlardan biri baxillik bo‘lsa, eng yaxshi xislatlardan biri saxovat hisoblanadi. Navoiy ushbu maqolatda saxovatning quyidagi shartlarini keltiradi: 1) saxovatda isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik; 2) shuhratparastlik yuzasidan xayr-saxovat qilmaslik; 3) faqat muhtoj kishigagina xayr qilish; 4) befoyda ehson oshlari va xayriya tadbirlarini o‘tkazish uchun xalq molini talon-toroj qilmaslik; 5) xayr-u ehson qilishda sabab-chini Xudo, o‘zini bor-yo‘g‘i bir vosita deb bilish, saxovatni Alloh yo‘lida qilish. Maqolat so‘ngida hazrat Alining “Haqiqiy karam diram sochish emas, balki tama tarkidir” mazmunidagi hikmatini keltirib, Hotam Toyi haqidagi hikoyatni ilova qiladi. Hikoyatdagi asosiy g‘oya esa, “o‘z mehnati tufayli bir diram topish birov bergan xazinadan yaxshiroq” mazmunidagi ushbu baytda ifodalangan:

Bir diram olmoq chekibon dastranj,
Yaxshiroq andinki birov bersa ganj.

Navoiyning odob, hayo va xoksorlik haqidagi qarashlari **oltinchi maqolat**da o‘z ifodasini topgan. Bobning sarlavhasida shoir adabni baxtiyorlik kaliti, eng ko‘p qadrlanadigan insoniy fazilat, hayo bilan xushtavozelikni esa odobning asosiy shartlaridan deb ta’kidlagan. Maqolatda esa, bu hayotiy xulosaning turli qirralari ochib berilgan. Navoiy bu bobda turli ijtimoiy munosabatlar – oila va er-xotin munosabatlari, farzand tarbiyasi, ota-ona oldidagi burchni bajarish, jamiyatdagi turli qatlamlar orasidagi munosabatlar, podshoh xizmatida bo‘lish odoblari haqida aniq tavsiya va foydali maslahatlar beradi. Navoiyning talqiniga ko‘ra, insonga sharaf keltiruvchi narsa mol-dunyo, mansab yo nasl-nasab emas, balki insonni jamiyatning gultojiga aylantiruvchi narsa uning odobidir:

Elga sharaf bo‘lmadi joh-u nasab,
Lek sharaf keldi hayo-u adab.

Anushervon odil haqidagi hikoyat (Anushervonning hali shoh bo‘lmagan paytida bir kanizakka oshiq bo‘lib, bog‘da bu kanizakka qo‘l uzatmoqchi bo‘lgani, ammo ochilgan nargis gulini ko‘rib, qilmishidan uyalgani) orqali hayo va odob shoh-u gado uchun bir hisoblangan insoniy fazilat ekanligi ta’kidlangan.

Qanoat ta’rifidagi **yettinchi maqolat** badiiy timsollarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Navoiyning fikricha, kimki qanoatni o‘ziga kasb qilgan bo‘lsa, u eng boy insondir. Oltin, kumush va zeb-u ziynatlarni boylik deb bilmaslik kerak, balki haqiqiy boylik qanoat xazinasidir:

Kimgaki ish bo‘ldi qanoat fani,
Bilki, ani qildi qanoat g‘ani.

Ganji tajammulni g‘ino bilmagil,
Balki g‘ino ganji qanoatni bil.

Mazkur maqolatda qanoat tushunchasi chiroyli tashbihlar va tamsillar vositasida ifodalab berilganligini ko‘ramiz. Masalan, osmon qanchalik katta bo‘lmasin, u bitta kulcha, ya’ni quyosh bilan kun kechiradi. Ko‘z doim shuning uchun ravshanki, u

mehrob ostida turib, ikkita bodom bilan oziqlanadi. Shunday ekan, insonlar qanoat bobida osmon va ko‘z singari bo‘lishlari kerak. Maqolatda kitobat (harf) san’atining ham yetakchilik qilishini kuzatish mumkin:

Qushlar aro shohki, anqo durur,
Nuktae bu amrda paydo durur.

Bordur agar fikr ila topsang vuquf,
Qoni’u anqog‘a muvofiq huruf.

Qushlarning ichida anqo shoh hisoblanadi. Bunda ma’lum bir ma’no bor. Agar fikr bilan voqif bo‘lishni istasang, “qoni’” va “anqo” so‘zlarining yozilishida harflar bir-biriga muvofiqdir. Yoki:

Shoh boshining sharafi toj emas,
Angla ani shohki, muhtoj emas.

Shoh agar ul bo‘lsaki, muhtojdur,
Harf ila muhtojda ham tojdur.

Shoh boshining sharofati tojdan emas, kimki muhtoj bo‘lmasa, o‘shani shoh deb tushun. Muhtojni ham shoh deb atash mumkin bo‘lsa, harf nuqtai nazaridan “muhtoj” so‘zida ham “toj” bor-ku!

Maqolatga “Qanoatli va qanoatsiz ikki do‘st” haqidagi hikoyat ilova tarzida keltirilgan. Unda aytilishicha, ikki do‘st Fors mulkidan Chin mamlakati tomon yo‘lga otlanadilar. Biri taqdir berganiga qanoatli inson bo‘lib, ikkinchisi ochko‘z, tamagir edi. Yo‘lda ketayotib, bir toshga ko‘zlari tushadi. Uning yarmi yer ostida bo‘lib, yarmi yer yuzasiga chiqib turardi. Tosh ustida: “Kimki mehnat qilib toshni aylantirib qo‘ysa, ostidagi afsonada vayrona tagida bekitib qo‘yilgan xazina haqida yozib qo‘yilgan. Kimki bu mashaqqat, azob-uqubatlarni xohlamasa, uning uchun sabr-u qanoat hammasidan yaxshiroqdir”, degan yozuv bitilgan edi. Ochko‘z yigit yozuvni o‘qigach, xazina ilinjida tosh ostini qazishga tushib ketadi. Qanoatli odam esa beparvo tarzda shahar tomon yo‘l oladi. Shaharga kiradigan bir necha darvoza bo‘lib, u shaharga birinchi bo‘lib kiradi. Shahar aholisining odatiga ko‘ra,

mamlakat podshosi qazo qilsa, darvozadan birinchi kirgan odamni podshoh qilib ko‘tarar ekanlar. Shu tariqa bu do‘st o‘z qanoati tufayli mamlakatga podshoh bo‘ladi. Uning tosh ostini qaziyotgan do‘sti esa og‘ir mehnatni bajarib bo‘lgach, toshni ag‘darib qarasa, “Xomtama bu dunyoda alam chekadi” deb yozib qo‘yilgan ekan. Xulosa shuki, qanoatli inson o‘z sabr-u qanoati tufayli shoh martabasiga erishadi, qanoatsiz inson esa tama ilinjida xor-u zor bo‘ladi.

Sakkizinchi maqolat vafo haqida bo‘lib, shoir bu axloqiy kategoriyani do‘stlik tushunchasiga bog‘liq holda talqin qiladi. Yor-do‘sti yo‘q kishi dursiz sadaf kabi qiymatsizdir, burgutning bir qanoti sinsa qulab tushadi, bitta o‘tindan gulxan yoqib bo‘lmaydi, bitta ustun uy tomini ko‘tarolmaydi. Shu kabi hayotiy misollar orqali mutafakkir shoir tiriklikning asosiy qonuniyatlardan biri – juft bo‘lib, jamoaviylikda yashashning fazilatini olqishlaydi hamda bunday munosabatlarda o‘zaro vafo va sadoqat asos bo‘lishi lozimligini uqtiradi. Uning ta’kidlashicha, vafo olamdagi eng noyob gavhar, inson umrini bezaydigan, unga mazmun va ulug‘vorlik bag‘ishlaydigan xislat. Vafo, sadoqat – beg‘araz tuyg‘ular. Vafoli kishi – shamdek yonib, o‘zgalarga nur sochishi va buning evaziga hech narsa talab qilmasligi lozim:

Yorki, oyini vafo yo‘q anga,
Sham’ kibidurki, ziyo yo‘q anga.

“Ikki vafoli yor” hikoyatida esa shoir vafoning oliy namunasini ibrat qilib ko‘rsatadi: Hindistonni katta qiyinchilik bilan fath etgan Amir Temur Ko‘ragon aholini qatliom qilishga buyuradi. Olam qonga belanib, minglab kesilgan boshdan to‘kilgan qonlar daryo bo‘lib oqadi. Qiyomat qoyim bo‘lgandek, jang maydonida “ikki bechora yor” Temurning qattol sipohiga duch keladilar. Askarlarning biri shohning amrini ado etish uchun ular tomon ot soladi. Ikki do‘st bir-birining ustiga o‘zini tashlab, “mening boshimni kes, do‘stimni omon qoldir”, deb yolvoradilar. Qotil har ikkisining ham birdaniga boshini kesmoqchi bo‘lganida, do‘stlar boshini tig‘ ostiga tutib, “oldin meni o‘ldir, men do‘stimning o‘limini ko‘rishga toqatim yo‘q”, deb iltimos qilardi. Shu tariqa bir muddat o‘tib, to‘satdan “al-omon” (omonlik, kechirim) degan buyruq keladi. Qatliom to‘xtatiladi:

Bir-biriga kechti alar qonidin,
Shoh dag'i kechti ulus qonidin.

Vafoli do'stlar haqidagi hikoyatdan so'ng ishq ta'rifidagi **to'qqizinchi maqolat** keladi. Chunki vafo va ishq, sadoqat va muhabbat – bir-birini to'ldiruvchi, bir-biriga aloqador tushunchalar. Navoiyning yozishicha, ishq – azaliy hodisa, u "ruh mayi" bilan jismga kirib ketadi va uni mast etadi. Ishq – Ruh olamining go'zalligi, husn-u jamoli hadsiz-chegarasiz. Ishq bulbuli bu go'zallikni ko'rib, olamga g'ulg'ula soladi. Inson jismiga taralgan ishq shu'lasi ana shu Mutlaq Go'zallik olamidan ingan nurdir. Bu nur butun borliqni qamrab olgan "jahon mulki"ga aylangan, ya'ni shoir nazarida olamdagi muvozanat, tiriklik va harakatni ta'minlovchi asosiy mohiyat – Ishq qonuniyatidir. Shoir talqiniga ko'ra, go'zal chehrani ko'rib, visoliga havas qilgan odam oshiq emas, oshiqlikni da'vo qilgan kishiga vafo va sadoqat tuyg'usi begonadir, uning tosh ko'ngliga ishq o'ti asar qilmaydi. Nafsoniy istaklarini muhabbat niqobida ko'rsatmoqchi bo'lgan odam har qanday jazoga loyiq:

Bu esa oshiq, erur o'lturguluk,
Boshdin ayoq jismini kuydurguluk.

Keyingi baytlarda haqiqiy oshiqning sifatlari keltiriladi. Unga ko'ra, haqiqiy oshiqning "ham tili, ham ko'zi-yu ham ko'ngli pok", u o'zgalar xayolidan begona, ishq yo'lida hatto o'zlikdan ham voz kechgan dardkash inson:

Oshiq ani bilki, erur dardnok,
Ham tili, ham ko'zi-yu ham ko'ngli pok.

O'zlugidin ishq ani pok etib,
Balki fano o'tig'a xoshok etib.

Navoiy maqolatdan keyingi hikoyatda Shayx Faxriddin Iroqiy haqida bir rivoyatni keltirib, ishqning tarbiyaviy ahamiyatini ham ochib beradi. Navoiyning talqinicha, ko'nglida ishq otashi alanga olgan odam birovga yomonlikni ravo ko'rmaydi va o'zi ham yomonlikka yurmaydi. Ishq, eng avvalo, go'zallik va ezgulikka oshno etadi, go'zallik sir-u asrorini kashf etishga undaydi, oshiqning didini, farosatini, zehni va qobiliyatini oshiradi. Ishq

– tosh ko‘ngillarni yumshatuvchi, Shayx San’onlarni butparast etuvchi, johilni ma’rifatli shaxsga aylantira oladigan kayhoniy kuch, ilohiy tuyg‘u.

O‘ninchi maqolat to‘g‘rilik ta’rifida va egrilik inkorida bo‘lib, unda Navoiy rostlik, to‘g‘riso‘zlik, to‘g‘ri yashash, odamlarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish kabi fazilatlarni navbat bilan sanab chiqib, uning ziddi bo‘lmish egrilik, yolg‘onchilikning ofatlarini ham birma-bir keltirib o‘tadi. Navoiy talqiniga ko‘ra, bu dunyoda faqat to‘g‘ri so‘z gapirib yashash imkonsiz. Ba’zida inson zarurat tug‘ilib, yaxshi niyatda yolg‘on gapirishga majbur bo‘ladi. Ammo yolg‘onni kasb qilgan kimsa odamlar orasida obro‘ topmaydi. Bunday kishi agar to‘g‘ri gapirsa hamki, uning chin so‘ziga hech kim ishonmaydi:

Kimki o‘zin ayladi yolg‘on so‘zin,
Kizb, der el, chin desa, qolg‘on so‘zin.

Maqolatdagi fikrlarning tasdig‘i sifatida mashhur “Sher va durroj” hikoyasi keltirilgan.

O‘n birinchi maqolatda ilm o‘rganish, olimning jamiyatdagi mavqeyi, ilm talabidagi riyozatlar haqida so‘z yuritiladi. Navoiyning ilm va olimlik haqidagi fikrlari asosan quyidagilardan iborat:

ilm yo‘li fidoyilik va irodani talab qiladi;

maktab va madrasa ko‘rganlarning hammasini ham olim deb bo‘lmaydi – olimlik tug‘ma iste’dod va kuchli iroda hamda uzoq yillik riyozat orqali qo‘lga kiritiladi;

ilm olish, bilimli bo‘lish insonga obro‘ va sharaf keltiradi;

ilm shunday boylikki, unga amal qilgan inson bilan bir umrlik sadoqatli do‘st sifatida qoladi;

haqiqiy olim jamiyatning bebaho boyligi va uning kamolot ko‘zgusidir;

ilmni boylik orttirish, mansab pillapoyalarini egallash vositasi qilgan odam johil va gumroh kishi hisoblanadi. Haqiqiy ilm – odamlarga manfaat yetkazadigan va oxirat koriga yaraydigan bilimdir. Bunday bilim sohibi bo‘lgan kishi o‘tkinchi havaslar va muvaqqat muvaffaqiyatlar ketidan quvmaydi. Dunyoviy havaslar uyasi bo‘lgan qalbda ilmga joy qolmaydi:

Ilmni kim vositai joh etar,
O‘zini-yu xalqni gumroh etar.

Maqolat so‘ngida Navoiy haqiqiy olimning ta’rifini keltirib, Muhammad Xorazmshoh bilan Imom Faxr Roziy o‘rtasida bo‘lib o‘tgan mashhur hikoyat bilan fikrlarini dalillaydi.

O‘n ikkinchi maqolat qalam va qalam ahli haqida bo‘lib, bu bobda Navoiy oldingi maqolatda bildirgan fikrlarini mantiqiy izchillik bilan davom ettiradi. Dastlabki 18 bayt qalamning tavsifiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda olam yaralishi jarayoni bosqichlarida qalamning o‘rni, jamiyat taraqqiyoti va istiqbolidagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Keyingi baytlarda esa, qalam o‘z kotibining xislati va niyatiga qarab, yaxshilik yoinki yovuzlikka xizmat qilishi mumkinligi uqtiriladi. Qozilik mahkamasidagi amaldorlarning qalami egasining xudobexabarligi sababli qonunga xilof ishlarni “qonuniylashtirish” uchun xizmat qiladi:

Barcha xiyonatni diyonat bilib,
Barcha diyonatda xiyonat qilib.

Qalam poraxo‘r muftiylar, noinsof soliqchilar, zulmda nom chiqargan mahalliy amaldorlar, savodsiz kotiblar qo‘liga tushganda, xalq boshiga keladigan ko‘p kulfatlarga guvoh bo‘ladi. Aslida qalam ahli faqat ezgulikka da’vat etuvchi kitoblar bitishi, odamlarning og‘irini yengil qiluvchi farmoyishlar, munosabatlarni mustahkamlovchi yozishmalar, ma’rifatni oshiradigan narsalarni yozishi kerak. O‘shanda u mashhur xattot Yoqut Mu’tasimdek yuksak martabali inson sifatida dovruq qozonishi mumkin.

Navoiyning yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlari **o‘n uchinchi maqolat**da yanada aniqroq, yorqinroq o‘z ifodasini topgan. Buyuk mutafakkir maqolatning dastlabki baytlarida yaxshilik ulashuvchi zotlarning asosiy belgilari: mehribonlik, ochiqko‘ngillik, himmatbalandlik, saxiylik kabi insoniy fazilatlar haqida so‘z yuritib, bu xislatlarni o‘zida tarbiyalamagan odam pastkash, nokas, g‘iybatchi, birovning aybini qidirib, fosh qilishdan rohatlanadigan, hasadgo‘y, tamagir bo‘lishi mumkinligidan ogohlantiradi. Keyingi baytlarda inson fitratining ana shunday illatlardan xoli qilib yaratilganiga shukrona keltirishi lozimligi, odamlarga beminnat manfaat keltirish hamda qo‘li ochiqlik bu tuyg‘uga asos bo‘lishini quyidagicha ifodalaydi:

Shukr nedur? Naf' fuzun aylamak,
Bazl kamandini uzun aylamak.

Yaxshilik ulashish, odamlarga yordam berish faqat qo'l bilan emas, balki ochiq chehra va shirinzabonlik bilan ham amalga oshishi mumkin. Eng yaxshi ehson – lutf va shirin so'z bilan qilingan saxovatdir. Qilingan yaxshilik odamlarni to'g'ri yo'lga solib, yomon niyatlardan qaytarishi kerak. Buning misoli sifatida mashhur faqih va muhaddis Ayyub bin Xalaf Xazrajiy (677–767) hayotidan hikoyat keltiriladi: Hazrat Ayyub kechasi ibodatga mashg'ul bo'lgan chog'da bir o'g'ri uyi tagidan lahm (yer osti yo'li) qazib, ichkariga kiradi. Ayyub o'g'rini ko'radi, ammo indamay ibodatini davom ettiraveradi. O'g'ri uydagi bor narsalarni yig'ib chiqib ketmoqchi bo'ladi, lekin yuki katta bo'lganligi sabab lahmda tiqilib qoladi. Ayyub bu holni ko'rib, ibodatni tugatadi va eshikni ochib, o'g'riga yo'l ko'rsatadi. O'g'ri shayxning bu muruvvatini ko'rib, qilmishidan butkul tavba qiladi va to'g'ri yo'lga kiradi.

Yaxshilik va yomonlik tushunchalari **o'n to'rtinchi maqolat**da yanada kengroq ko'lam kasb etadi. Navoiy ushbu maqolatda olam va odam, davr va shaxs, ko'ngil istaklari va falak evrilishlari haqida dunyo va uning asl mohiyatini tushuntirish orqali mulohaza yuritadi. Shoir tashxis san'ati yordamida bag'ri yulduzlarga to'la falakni yamoqli to'n kiygan hiylagar tosboz – ko'zbo'yamachiga, dunyoni esa pardoz tufayli chiroyli ko'rinadigan makkora yalmog'izga o'xshatib, foniy dunyoda bularning hiylalariga aldanish hasratidan ogohlantiradi. G'alvirga o'xshagan falakning chambarida yaxshi-yu yomon, poklar-u nopoklar – barcha insonlar birga, aralash holatda yashashga mahkum. Falakning nayranglari tufayli ko'pincha gavharni oddiy toshdan ajratolmaydigan farosati yo'q odamlarga behisob mol-dunyolar nasib etadi, sotqinlik va zulm qon-qoniga singib ketgan egri niyatli odamlar mas'ul lavozimlarga o'tirishadi; to'g'riso'z, halol odamlar e'tibordan chetda qolib ketadilar. Eng qizig'i, bir muddat o'tgandan keyin ajal tig'i oldida yaxshi ham, yomon ham bir xil bosh egishga majbur bo'ladi. Shu sababli, olam bebaqoligini bilgan, umr yaxshilik bilan ham, yomonlik bilan ham o'tishi muqarrarligini anglagan inson imkon boricha yaxshilik qilishi va o'zidan ezgu nomni meros qilib qoldirishi

kerak. Maqolatdagi g‘oyalar shoh Iskandarning bu olamdan qo‘li ochiq holda ketgani haqidagi hikoyat bilan quvvatlantiriladi.

Navoiy **o‘n beshinchi maqolat**da mayparastlik va mayxo‘rlik zararlari haqida fikr yuritadi. Uning nazarida mayga ruju qo‘yish jaholat va nodonlikning nishonasi bo‘lib, insoniy fazilatlardan mahrum, irodasiz, o‘z qadr-u qimmatini bilmagan kishigina bu yo‘lga kirishi mumkin. Mayparastlik tufayli insondagi hayvoniy kuchlar yanada quvvat oladi, kibr-u havo, manmanlik kuchayadi. Mayxo‘rlik koni zarar, u salomatlikning kushandasi, hayot qotili bo‘lish bilan birga, naslga ham ta’sir qiladi, jamiyatning osoyishtaligiga raxna soladi. Navoiy umumlashma xulosalarini berganidan so‘ng mayzada kishining jonli portretini yaratib, o‘tkir so‘zlar bilan hajv qiladi: sharob ko‘p ichganidan o‘zidan bexabar odam ko‘chaga chiqib, quturgan it kabi yo‘lovchilarga tashlanadi; oyog‘ida tik turolmaydi, ust-boshi bir ahvolda yosh bolalar va ko‘cha itlariga ermak bo‘lib qoladi. Uyini topolmay, ko‘chalarda yiqilib qolgan, kiyimlari va pullarini kissavurlarga o‘g‘irlatgan bir alpozda kechani kunduz qiladi. Ertalab xayoli joyiga kelganda yana xumori tutib, may qidirishga tushadi. Eng achinarlisi, deydi Navoiy, bundaylar o‘zining ayanchli ahvolidan uyalmaydi, balki yigitchilik, yoshlik va rindlikning sho‘xligi, deb o‘zini oqlamoqchi bo‘ladi. Holbuki, sharobga mukkasidan ketish aql egasining ishi emas:

Bodag‘a ko‘rguzsa kishi xiraliq,
Aql charog‘iga berur tiraliq.

Shu sababli, bu yo‘lga kirgan odam tavba qilib, to‘g‘ri yo‘lga kirishi lozimligi uqtiriladi va tavbaga ta’rif beradi. Navoiyning talqiniga ko‘ra, tavba bir necha ko‘rinishga ega. Bulardan: birovning qistovi yo hurmati yuzasidan tavba qilish, qozining oldida yolg‘ondan qasam ichish, mayxo‘rlik tufayli biror nojo‘ya ish yo jinoyatga qo‘l urganidan hosil bo‘lgan vaqtinchalik pushaymonlik haqiqiy tavba hisoblanmaydi. Haqiqiy tavbaning o‘z shart-sharoitlari bo‘lib, bular – mayxo‘rlikning noto‘g‘ri ish ekani va bu yo‘lning oxiri halokatga eltishini anglash; o‘z ishidan chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish; mayzadalikdan nafratlanish va boshqa bu yo‘lga kirmaslikka chin ko‘ngildan bel bog‘lash va shunga og‘ishmay amal qilishdir. Maqolatga

Bani Isroil qavmidagi Maymana ismli rindning tavbasi haqidagi hikoyat namuna sifatida ilova qilinadi.

O'n oltinchi maqolatda Alisher Navoiy jismoniy kuch-quvvatiga aldanib qolib, o'zini davlat tayanchi va barqarorlik posboni deb o'ylaydigan takabbur bahodir va beklarni tanqid qiladi. Navoiy tasviriga ko'ra, ijtimoiy odoblarni nazar-pisand qilmasdan, yanada haybatli ko'rinish uchun uzun mo'ylovlar qo'yib, qulog'iga ayollarga o'xshab sirg'a taqadigan bu mushtumzo'rlar mardlik lofini ursalar ham, aslida maydagap, lofchi, ezma, nomard kimsalardir. Manfaat uchun jang maydoniga kiradigan, qaysi hukmdor ko'proq pul va'da qilsa, o'sha tomonga o'tib oladigan sotqinlar faoliyatining jihod va g'azotga hech qanday aloqasi yo'q. Haqiqiy g'azot Vatan, millat, insoniy sha'n kabi muqaddas narsalarning toptalmasligi uchun o'z jonini ayamaydigan fidoyi kishilarning qo'lidangina keladi. Maqolatga ilova qilingan hikoyatda buyuk muhaddis Abdulloh Muborakning niqob kiyib jang maydonida qilgan jonbozliklari, u kishining yuzlarini ko'rmoqchi bo'lganlarga bu ishni Alloh uchun qilganliklari va ko'z-ko'z qilish maqsadida emasliklarini ta'kidlaganlari go'zal tasvirlar asosida bayon qilib berilgan.

O'n yettinchi maqolat umrning ikki asosiy bosqichi hisoblanmish yoshlik va qarilik haqida. Bu maqolatda ham Navoiy falsafiy mushohadakorlik bilan so'zni bog' tasviridan boshlab, ko'klam, yoz, xazon va qish fasllaridagi peyzajni katta mahorat bilan chizadi. Keyingi baytlarda esa, inson umrini xuddi shu holatga qiyoslab, olamdagi barcha narsa kabi inson umri ham zavol topishi muqarrarligini shoirona tilda ifodalaydi. Shu sababli, deyarli har bir maqolatda qayta-qayta ta'kidlangan – umrni g'animat deb bilish hamda uni bekorga o'tkazmaslik g'oyasi bu maqolatda yanada o'tkirroq mohiyat kasb etgan. Muhammad alayhissalomning evaralari – Imom Zaynulobidinning hayotidan olingan ibratli hikoyat orqali yoshlikda bilim va tafakkur sohibi bo'lish fazilati targ'ib qilinadi.

Umrni behuda o'tkazmaslik, har bir nafasni g'animat deb bilish, kelgan balolarga sabr qilib, shukronalikda hayot kechirish, imkon boricha do'stlar va yaqinlarning qadriga yetib, ular bilan shod-xurramlikda kun kechirish masalasi **o'n sakkizinchi maqolat**da ham o'z ifodasini topgan. Navoiy talqiniga ko'ra, olam g'amxona bo'lsa hamki, shikva-shikoyatga o'rin yo'q. Falakning

kajravligi, olamning beqarorligi norozilik va noshukurlikka sabab bo'lolmaydi. Eng muhimi – olamning beqarorligini bilgan holda, barcha yaxshi-yomon kunlar o'tkinchi ekanligini jondan his etib, rizo va shukronalikda kun kechirishdir. Kimki dunyo ishini oson tutsa, unga mashaqqat va musibatlarni yengish shunchalik oson bo'ladi:

Ishga necha sa'bliq imkon erur,
Kim ani oson tutar, oson erur.

Shod ani bil dahrda kim g'am yemas,
Dahr ishi chun g'am yegali arzimas.

Nafasdek qisqa umrni g'animat bilib, uning qadriga yetish, bekorga sarflamasdan, rizo va shukronalikni shior aylash lozim, deydi shoir. Uning talqiniga ko'ra, har bir kishi bu dunyoda tosh, o'simlik yoki qandaydir jonzot emas, balki koinot gultoji – inson etib yaralishining o'zi eng oliy saodatdir. Chunki borliqning asl sababi va mohiyati, olam mavjudligining yagona asosi, tiriklikning asl maqsadi – inson ekan, bu mukarram maqom va aziz martabaning qadriga yetib, berilgan ne'matlarga shukrona qilish kerak bo'ladi. Navoiy insonga berilgan ne'matlarni birma-bir sanab chiqar ekan, ajoyib bir dalil keltiradi: inson bir marta nafas olganida Alloh unga ikki ne'mat ato qilarkan: nafas olish orqali tiriklik ozig'idan bahramand bo'lsa, nafas chiqarishi zotining quvvatiga sabab bo'ladi. Ana shu ikki ne'matning shukrini bajo keltirish uchun jonlar fido bo'lsa hamki, kamlik qiladi:

Borchani qo'yduq, muni-o'q aytu bas,
Kim bu nafaskim, sangadur hamnafas.

Kirmagi bir ne'mat erur mug'tanam,
Uylaki kirmakligi, chiqmog'i ham.

Biri erur quti hayoting sening,
Yana biri quvvati zoting sening.

Bu iki ne'matki namudordur,
Har biriga shukr yeri bordur.

O‘n to‘qqizinchi maqolatni Navoiy Xuroson mintaqasi hamda mamlakat poytaxti Hirot shahrining ta’rifiga bag‘ishlaydi. Ushbu maqolatni Navoiyning Vatan haqidagi madhiyasi, deyish mumkin. O‘z mamlakati va tug‘ilib o‘sgan shahrini vasf etish asnosida Navoiy Xuroson yerning qoq yuragi – to‘rtinchi iqlimda joylashganini alohida qayd etib, uni to‘rtinchi falakda joylashgan Quyoshga qiyoslaydi. Osmonning munavvarligi Quyoshga bog‘liq bo‘lsa, Yerning obod va ma’murligi, tinch va barqaror bo‘lishi aynan Xuroson o‘lkasiga bog‘liq, deydi Navoiy. Ayniqsa, Hirot shahrining ta’rifida shoir eng chiroyli o‘xshatishlar, eng yoqimli mubolag‘alarni qo‘llaydi. Yurtning tinchligi, xalqning farovonligi, qishloq va shaharlarning obodligi jamiyatda adolat tamoyili barqarorligi tufayli ekanligini shoh Bahrom haqidagi hikoyat mazmuni bilan quvvatlantiradi: Yazdijirddan taxtni meros olgan Bahrom bir muddat saltanat ahvolidan g‘ofil bo‘lib, aysh-ishratga berilib ketadi. Ov chog‘i bir kambag‘al odamning kapasida mehmon bo‘ladi. Uy egasi notanish mehmon oldiga bir piyola suv bilan bir burda qotgan non keltirib qo‘yadi. Bahrom uy egasidan ahvol so‘raganida, mezbon shohning zulmidan obod turmushi buzilib, qashshoq bo‘lib qolganidan shikoyat qiladi. Bahromga ro‘parasida ko‘rinib turgan bir vayronani ko‘rsatadi va bir zamon bu vayrona muhtasham saroy bo‘lgani, saroy egasi yerdan suv chiqarib, bog‘dorchilik va dehqonchilik orqali katta daromad olib turgani, zulm kuchayib, quduq qurib qolgani, natijada, hammayoq qurib, vayrona-valangor bo‘lganini katta nadomat bilan aytib beradi. Bahrom o‘sha zahoti qilib yurgan ishlaridan pushaymon bo‘lib, mamlakatni adolat bilan obod qilishni niyat qiladi. Bu niyatning barakatidan quduqning ko‘zi ochilib, yana suv kela boshlaydi:

Ev egasi Tengrig‘a aylab niyoz,
Dedi: “Hamonoki shahi ayshsoz,

Zulm qo‘yub, adldurur niyati,
Kim bu asar ayladi xosiyati”.

“Hayrat ul-abror”ning valiahd shahzoda Badiuzzamonga bag‘ishlangan **yigirmanchi maqolatida** Navoiyning davlatchilik bobidagi qarashlari yaxlit bir konsepsiya tarzida bayon etilgan

bo‘lib, unda bayon eilgan tavsiyalar Amir Temur tomonidan o‘z vorislariga vasiyat qilib qoldirgan o‘n ikkita tuzukka to‘la-to‘kis mos tushadi. Masalan, Navoiy bu bobda asl maqsadga yuzlanmoqchi bo‘lgan valiahd, eng avvalo, din va shariat ahkomlariga so‘zsiz bo‘ysunishi hamda shariat ahkomlari jamiyatda bekamko‘st ado bo‘lishiga mas’ul bo‘lmog‘i hukmdorlikning birinchi sharti ekanligini quyidagicha ifodalagan:

Istar esang maqsadi asliyg‘a yuz,
Joddai shar’i Muhammadni tuz.

“Temur tuzuklari” kitobida keltirilishicha, Amir Temurning birinchi tuzuki ham *“Tangri taoloning dini va Muhammad mustafoning shariatiga dunyoga rivoj berish”* bo‘lgan.

“Hayrat ul-abror”dagi fikrlarning “Temur tuzuklari”dan yagona tafovuti – tuzuklar va Navoiy g‘oyalarining tartibi mos tushmasligidir. Faqat birinchi va oxirgi – o‘n ikkinchi tuzuklar Navoiyning fikrlar tizmasi tartibi bilan muvofiq kelib, qolgan tuzuklarning ma’nolari bobning turli joylarida sharhlangan. Masalan, birinchi tuzukning sharhidan so‘ng oltinchi tuzuk (*“Adolat va insof bilan Tangrini yaratgan bandalarini o‘zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim” – “Temur tuzuklari”, 75-bet)* mazmunini unga muvofiq keladigan oyat va hadislar ma’nolari bilan boyitib, quyidagicha nazm ipiga tergan:

Shar’ tariqini shior aylagil,
Adl ila mulkunga mador aylagil.

Shohki ish adl ila bunyod etar,
Adli buzuq mulkini obod etar.

Alisher Navoiy o‘n ikki tuzukni ana shu zaylda sharhlar ekan, so‘zining xotimasida bu fikrlar uning tafakkuri mahsuli bo‘lmay, balki Sulton Husayn Boyqaro faoliyatining dasturi ekanligini mamnuniyat bilan qayd etadi:

Har neki bu nomada mastur erur,
Borchag‘a shoh ishlari dastur erur.

Ishda agar shahg‘a shabih o‘lg‘asen,
“Al-valadu sirru abih” o‘lg‘asen.

Bu baytlardan ma'lum bo'ladiki, Temur vasiyatlari uning munosib vorislari tomonidan izchillik bilan tatbiq etilib, bu mo'tabar sulolaning davlatchilik konsepsiyasiga aylangan.

"Hayrat ul-abror" dostonida xotima o'ziga xos o'ringa ega. Dostonning 62–63-boblari hazrat Navoiyning xulosa va yakuniy fikrlarini o'z ichiga oladi. 62-bobda Navoiy dostonni yaratish orzusidan boshlab uni tugatgunicha bo'lgan jarayon haqida yozar ekan, dostonni yozish xayoli unga tinchlik bermagani, el-u yurt xizmati, xalq arz-dodini tinglash uni asosiy maqsadga yetmoq yo'lini uzoq qilgan bo'lsa-da, Xudoning o'zi unga marhamat ko'rsatib, nihoyat bu ulug' muddaoni poyoniga yetkazganini betakror tashbihlar vositasida bayon qilib beradi. Bob so'ngida Navoiy g'oyat nazokat va kamtarlik bilan agar yozganlari elga manzur bo'lmasa, uni afv etishlarini so'rab, Allohga iltijo qiladi:

Jilva ber el ko'ziga ham xo'b ani,
Qilg'il ulus ko'ngliga marg'ub ani.

Har nechakim, jurmum erur pech-pech,
Lekin erur rahmating olinda hech.

63-bobda oyog'i toyib ketib, kosadagi oshni shohning boshiga to'kib yuborgani va olijanob shohning xijolatdan o'lar holatga yetgan bu qulni afv etgani haqidagi hikoyat beriladi va bu hikoyat bevosita 62-bobga hamohang tarzda, unga ilovadek keltiriladi. Navoiy Allohni olijanob shohga, o'zini oyog'i toyib ketgan qulga o'xshatar ekan, shunday yozadi:

Har necha ko'p bo'lsa gunohim mening,
Shukrki, bor sendek Ilohim mening.

Xijlat ila qolmadi xud jon manga,
Yeri durur aylasang ehson manga.

"Hayrat ul-abror" dostonida kun tartibiga qo'yilgan masalalar bevosita "Xamsa"ning keyingi dostonlarida ham davom etadi, xususan, komil insonga xos adab, qanoat, karam va saxovat, futuvvat, rostlik, vafo kabi xislatlar bilan bog'liq masalalar "Farhod va Shirin" dostoni, "Sab'ai sayyor" tarkibidagi hikoyatlar, "Saddi Iskandariy" dostonlarida yangicha talqin topganligini ko'ramiz.

Doston aruz tizimining sari' bahri – **sari'i musaddasi matviyi**

mukshuf *(ruknlari va taqti'i: muftailun muftailun foilun – VV – / – V V – / – V –)* vaznida yozilgan. Bu vazn pand-u nasihat mazmunidagi fikrlarni bayon qilishga nihoyatda qulay bo'lganligi sababli doston uchun asosiy she'riy o'lchov vazifasini o'tagan.



Tayanch tushunchalar

xamsa
xamsanavislik
xamsanavislik shartlari
Hirot adabiy muhiti
to'liq beshlik mualliflari
ba'zi dostonlarga javob yozganlar
bir dostonga javob yozganlar
muqaddima
hamd
na't
munojot
me'roj
maqolat
hikoyat
xotima



Savol va topshiriqlar

1. Xamsanavislik an'anasiga asos solgan shoir sifatida qaysi ijodkorni ko'rsatish mumkin deb o'ylaysiz: Nizomiy Ganjaviy yoki Xusrav Dehlaviy? Va qaysi asoslarga ko'ra?

2. "Xamsa" yaratgan ijodkorlarni shartli ravishda qay shaklda guruhlash mumkin?

3. Nima uchun Xusrav Dehlaviy hamda Navoiy xamsachilikning barcha shartlariga amal qilishgan?

4. Abdurahmon Jomiyning "Xamsa" yaratgan yoki yaratmagani to'g'risida nima uchun yakdil fikr yo'q?

5. Sizningcha, nima uchun Abdurahmon Jomiy "Xusrav va Shirin" mavzusida doston yozishdan voz kechgan?

6. Alisher Navoiy "Xamsa"sining adabiyotimizda tutgan o'rni haqida qanday mustaqil xulosalaringiz bor?

7. "Hayrat ul-abror" yo'nalishida yozilgan boshqa yana qanday dostonlar nomlarini ayta olasiz?

8. "Hayrat ul-abror" umumiy "Xamsa" uchun kirish vazifasini o'tashini dostondagi qaysi xususiyat orqali bilish mumkin?

9. Dostonning kirish qismida Navoiy qanday fikr va g'oyalarni ilgari surgan?

10. Dostondagi maqolat va hikoyatlarning o‘zaro bog‘liqligini aniq misollar bilan asoslang.

ADABIYOTLAR:

Matn va manbalar:

1. Алишер Навоий. Ҳайрат ул аброр. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1991. 7-жилд.

2. Алишер Навоий. Хамса: Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.6.

3. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – T.: G’.G’ulom nomidagi NMIU, 2006.

4. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр (насрий баёни билан). Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ: – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

5. Абдуғафуров А. Буюк бешлик сабоқлари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1995.

6. Алиев Г. Ю. Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока. – М.: Наука, 1985.

7. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.

8. Валихўжаев Б. “Хамса” ёзиш анъанасига Алишер Навоийнинг муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти. - 1990.– № 1.

9. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O‘zYU Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.

10. Исҳоқов Ё. “Хамса” поэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти.– 1986. - № 1.

11. Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Т.: Маънавият, 2005.

12. Навоийнинг ижод олами (мақолалар тўплами).–Т.: Фан, 2001.

13. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979.

14. Эркинов А. С. Алишер Навоий “Хамса”си талқинининг XV–XX аср манбалари. Филол. фан. докт. дисс... – Т., 1998.

15. Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. – Тошкент: MUMTOZ SO’Z, 2011.

16. Қаюмов А. “Ҳайрат ул-аброр” талқини. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1985.

17. Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. – Т.: Фан, 1996.

"FARHOD VA SHIRIN" DOSTONINING TIMSOLLAR OLAMI

Reja:

1. "Farhod va Shirin" dostonining yaratilish tarixi.

2. Muqaddimalarda dostonning g'oyaviy mazmuni bilan bog'liq qarashlar.

3. Farhod – ilohiy ishq yo'liga kirgan solik timsoli, Shirin – ilohiy mazhar.

4. Dostondagi ramziy timsollar.

5. Dostonning badiiy xususiyatlari.

Alisher Navoiy "Xamsa"sidagi ikkinchi doston "Farhod va Shirin" deb atalib, 1484-yilda yozib tugallangan. Navoiygacha bu mavzu "Xusrav va Shirin" shaklida mashhur edi. Afsonaning bosh qahramoni Xusrav Parvez aslida tarixiy shaxs bo'lib, milodiy 590-yilda taxtga chiqib, 628-yilda o'z o'g'li Sheruyaning buyrug'i bilan o'ldirilgan Eron shohidir. Uning oromiy yoki arman qizi Shiringa bo'lgan muhabbati ko'pgina tarixiy asarlarda qayd etilgan. Xususan, Alisher Navoiyning o'zi ham "Tarixi muluki Ajam" asarining Sosoniylar tarixiga bag'ishlangan qismida Xusrav Parvez haqida ma'lumot beradi. Badiiy adabiyotda Xusrav va Shirin muhabbati haqida birinchi bo'lib Firdavsiy o'zining "Shohnoma" dostonida yozib qoldiradi, Nizomiy esa uni alohida ishqiy-sarguzasht doston holiga keltiradi. Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostoni 1340-yilda Qutb Xorazmiy tomonidan turkiy tilga tarjima qilingan.

Alisher Navoiy bu mavzudagi dostoni uchun avvalgi dostonlarda ikkinchi darajali timsol tarzida talqin qilingan Farhodni bosh qahramon qilib oladi. Farhodning bosh qahramon qilib olinishi adabiyotda ilk bor XIV asrda Ozarbayjonda yashab faoliyat yuritgan Orif Ardabiliyning "Farhodnoma" (1369) nomli fors-tojik tilida yozilgan dostoni bilan boshlanadi. Lekin unda tasvirlangan voqealar Navoiy dostonidan butunlay farq qiladi.

Ardabiliy dostoni ikki qismdan iborat bo‘lib, har bir qism mustaqil tarzda rivojlanuvchi voqealar tizimiga ega. Birinchi qism “Farhod va Guliston” deb ataladi. Ushbu qismda Nizomiy va Dehlaviyda mavjud bo‘lmagan Farhod tarixi tasvirlanadi: Xitoy xoqonining o‘g‘li Farhod o‘z do‘sti, rassom Shopurning qo‘lida tosh yo‘nuvchi ustaning qizi Gulistonning suratini ko‘rib qolib, uni izlab Abxaziyaga ketadi, Xitoy taxtini esa uning amakisi egallaydi. Farhod Abxaziyada Gulistonni uchratadi va uni sevib qoladi, lekin Gulistonning otasi o‘z qizini faqat toshyo‘nar ustaga berishini aytadi. Farhod tosh yo‘nish hunarini o‘rganadi va bu sohada o‘z mahoratini namoyish qilib, Gulistonga uylanadi. To‘yga Abxaziya malikasi Mehinbonu va uning go‘zal jiyani Shirin ham tashrif buyuradilar. Shirinning go‘zalligi Eron hukmdori Xusravning qulog‘iga yetib boradi va u Shiringa oshiq bo‘ladi. Farzand ko‘rish arafasida Guliston vafot etadi va Farhod uning qabri ustiga kichik ibodatxona qurdiradi.

Dostonning ikkinchi qismi “Farhod va Shirin” deb ataladi. Voqealar rivoji Nizomiy dostonidan keskin farq qiladi: Shirin Farhodga ko‘ngil qo‘yadi va Xusravning uning ko‘nglini olish bilan bog‘liq urinishlari hech qanday natija bermaydi. Farhod Shirin uchun Besutun tog‘ida sut arig‘ini barpo etadi. Bir vaqtlar Gulistonga oshiq bo‘lgan va Farhod tomonidan rashk tufayli o‘ldirilgan rumlik yigitning onasi Farhodni zaharlaydi va Farhod vafot etadi.

Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida bu mavzuda qalam tebratgan ijodkorlar sifatida Nizomiy, Dehlaviy, Ashraf Marog‘iylarni eslab o‘tar ekan, yana bir noma’lum ijodkorga ham ishora qilib o‘tadi:

Yana bo‘lg‘on ekan bu noma marqum,
Vale roqim emastur yaxshi ma’lum.

Adabiyotshunoslikda ushbu noma’lum ijodkor aynan Orif Ardabiliy bo‘lishi mumkin degan fikrlar mavjud.

Farhod obrazining ildizlari xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi. O‘z asarining manbalarini xalq og‘zaki ijodidan olgan Firdavsiy “Shohnoma”sida Farhod pahlavon (Afrosiyobning jangovar sipohsolori) sifatida tilga olingan. Bu obraz Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostonida epik planda talqin etila boshladi. Nizomiyning dostonidagi Farhod xalq orasidan

chiqqan toshyo‘nar usta. U oqil va insonparvar, g‘oyat savodli va pahlavon. Farhod garchi doston syujeti rivojida asosiy rol o‘ynamasa-da, muallifning yetakchi g‘oyasini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Xusrav Dehlaviyning “Shirin va Xusrav” dostonida esa Farhod oliynasab shahzoda, taqdirga tan beruvchi baxtsiz oshiq sifatida tasvirlanadi.

Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni 54 bob, 5782 bayt-dan iborat. Shundan muqaddima 11 bobni o‘z ichiga oladi. Doston an’anaviy hamd – Allohning maqtovi bilan boshlanadi. Dostonda ikkita hamd mavjud. **Birinchi hamd**da Alisher Navoiy Yaratuvchining qudratini ta’riflab, uning irodasi bilan qalamga olmoqchi bo‘lgan g‘oyaviy niyati haqida so‘z yuritar ekan, birinchi misrani arabcha kalima bilan boshlaydi:

Bihamdik fathu abvob ul-maoniy,
Nasib et ko‘ngluma fath o‘lmak oni.

Ya’ni: Ma’nolar eshiklarining ochilishi sening maqtoving bilan va ko‘nglumga ularni zabt etishni nasib qil.

Keyingi baytlarda Navoiy ma’nolar xazinasi qulfiga qo‘lining kalit bo‘lishini, shu vosita bilan barcha umidlariga yetishishni tilaydi, ana shu ma’nolar xazinasidan olam ahlini bahramand qilishni umid qiladi.

Ikkinchi hamdda shoir yozishga kirishayotgani “Farhod va Shirin” dostonining umumiy talqini, undagi qahramonlarning muxtasar tavsifini beradi, “dard bog‘i” deb ta’riflangan ishq bilan aloqador barcha hayajon va iztiroblar haqida yozadi. Shoir Xoliq maqtoviga kirishar ekan, eng avvalo, u inson ko‘nglini ishq gulshani, bu gulshanda esa ishqni xazinaga aylantirganligini madh etadi:

Ki inson ko‘nglin etti gulshani ishq,
Bu gulshanning harimin maxzani ishq.

“Farhod va Shirin” dostoni majoz va haqiqatni, ramziylik va hayotiylikni san’atkorlik bilan qo‘shib olib boradigan doston ekanligi shu ilk boblardan boshlab namoyon bo‘la boshlaydi. A.Rustamovning “Navoiyning badiiy mahorati” kitobida yozilishicha, Navoiy qazoni Farhodga, osmonni Farhodga aloqador Besutun tog‘iga, aqlni Chin xoqonining vaziri Mulkoroga va donishmand Suqrotga, tunni Xusrav Parvezning oti Shabdezga, qadarni Farhodning do‘sti Shopurga, ajalni otasini o‘ldirgan

Parvezning o‘g‘li Sheruyaga, zamonni Parvezning sozandasi Nakisoga o‘xshatgani holda “shirin”, “tilism” so‘zlarini, Besutun, Xusrav va uning ashulachisi Borbad nomlarini tilga olib, muqaddimani dostonning mundarijasiga uyg‘unlashtirgan. Shu bilan birga, bu o‘xshatishlar zamirida shoir doston mundarijasida qahramon va timsollar faoliyati qaysi ko‘lamda kechishi, ular dostonda qanday rol o‘ynashi bilan ham kitobxonni tanishtiradi.

Munojot (3-bob)da Alisher Navoiy insonning yo‘qlikdagi holati, dunyoga kelishi, go‘dakligi, hayoti to‘g‘risida bayon qiladi. “Lavhi mahfuz” (kishilarning yaxshi va yomon amallari, taqdiri azaldan bitib qo‘yilgan taxta) haqida fikr yuritar ekan, inson azaliy qismat ijrochisi ekan, bunga uni gunohkor qilishni qanday izohlash mumkin degan fikrlarni aytadi:

Va gar ul lavh uza bo‘lsa muharrar,
Azal taqsimidin bo‘ldi muqarrar.
Ne dersen bas bu jam’i benavog‘a,
Gunohe qilmayin qolg‘on balog‘a?

Keyingi baytlardayoq Navoiy bu fikrlarni behuda da’vo deb hisoblab, ruju’ san’ati vositasida bu da’voni inkor qiladi va Allohdan unga marhamat qilishini so‘raydi:

Junundin so‘zga bir dam bo‘lmay ogoh,
Gar ortuq so‘z dedim, astag‘firulloh.
Ilohiy, boqmag‘il majnunlug‘umg‘a,
Karamdin chora qil mahzunlug‘umg‘a.

Dostonning **to‘rtinchi bobi** Muhammad payg‘ambar (s.a.v) madhiga bag‘ishlangan. Bob payg‘ambarning muborak chehralari tavsifi bilan boshlanib, u Zotning o‘qish va yozish bilan shug‘ullanmaganligi ajoyib badiiy san’atlar vositasida bayon qilib beriladi. Xususan, qalamning payg‘ambar unga mayl ko‘rsatmaganidan, ya’ni uni qo‘lida tutmaganligidan keyin yoqasini chok qilib, ko‘z yoshlarini to‘kib, afg‘on qilganligi, u Zotning qo‘lini o‘payin deb qancha og‘zini ochmasin, uning orzusi amalga oshmaganligi husni ta’lil san’ati asosida keltirilganligini ko‘ramiz:

Necha choki giribon qildi xoma,
To‘kub ashkini afg‘on qildi xoma.
Ochib og‘zin qilay deb dastbo‘si,
Muyassar bo‘lmayin bu orzusi.

Bobda "insonlar payg'ambar belgilab bergan shariat qoidalari asosida yashasalargina, haqiqiy saodatga erishadilar" degan g'oya ilgari suriladi.

Beshinchi bob me'roj tuni ta'rifiga bag'ishlangan bo'lib, unda Payg'ambar (s.a.v.)ning Buroq oti yordamida Alloh huzuriga yo'l olganliklari tasviri beriladi. Rasuli akram 12 burj va 7 sayyoralarni oshib o'tib, Lomakonga ko'tariladilar, "qoba qavsayn" (ikki yoy oralig'i) darajasida Allohga yaqinlashadilar va foniy maqomiga erishadilar.

Anga bu surma bo'lg'och qurratul ayn,
Nasib o'ldi maqomi "qoba qavsayn".

O'zin gum aylabon, lekin topib Haq,
Ko'rinmay kimsa Haqdin ayru mutlaq.

Alisher Navoiy dostonning na't qismida aks ettirgan Rasulullоh (s.a.v.)ga xos fazilatlarni keyinroq dostonning asosiy qismida Farhod obraziga ko'chirgan. Payg'ambarimizning (s.a.v.) muborak chehralarini tasvir qilgan Navoiy Farhod va Shirin obrazlari portretini ham ana shu ifodaga yaqin tarzda tasvirlagan. Aynan "Farhod va Shirin" dostonida Rasulullohning (s.a.v.) maxsus ta'lim olmasdan turib ilohiy hikmat bilan o'ta chuqur ilmga ega bo'lganliklarining ta'kidlanishi bejiz bo'lmay, Farhoddagi olimlik va oriflik ilohiy lutf bilan amalga oshganiga ishoradir. Me'roj voqeasi haqidagi bobda esa "Chin" so'zining keltirilishi va shu so'z bilan bog'liq badiiy san'atlarga murojaat qilinishi na'tlar boshqa muqaddima boblari kabi dostonning asl mazmunini ochishga xizmat qilganligini ko'rsatadi.

Dostonning **oltinchi bobi** qalam ta'rifi hamda ulug' salaflar Nizomiy va Dehlaviylar madhini o'z ichiga oladi. Navoiy dastlab qalamga ta'rif berar ekan, uni Xusrav Parvezning tez uchar qora oti Shabdezga, qalamni tutuvchi barmoqlarni shu ot ustidagi chavandozga, barmoq bo'g'inlarini chavandozning belbog'iga, tirnoqlarni esa uning yuziga o'xshatadi:

Qalamkim, rahnavardi teztakdur,
Azaldin manzili favqul falakdur.

Magar vahm adhamidur tezraftor,
Ne adham, jardai Shabdezraftor.

Chiqib ustiga barmoq shahsuvori,
Bo‘g‘un belbog‘i-yu tirnoq – uzori.

Hazrat Navoiy Nizomiyni xazinadorga, uning ma’nolarga to‘la asarlarini xazinalarga o‘xshatib ta’riflaydi. Xusrav Dehlaviyni u yashagan Hindiston bilan bog‘liq holda hindu, to‘ti, bulbul, qaqnus, mushk hidli bulutga o‘xshatadi. “Xamsa” yozish an’anasini kurash maydoniga o‘xshatib, o‘zining bugungi kunda nihoyatda mashhur baytlarini yozadi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasig‘a panja urmoq.
Tutaykim qildi o‘z changini ranja,
Nekim urdi aning changiga panja.
Kerak sher ollida ham sheri jangi
Agar sher o‘lmasa, bori palangi.

Aynan shu bobdan boshlab 2-3 baytli soqiynomalar berib boriladi. Ko‘pincha bu soqiynomalarda keyingi bobda qalamga olinadigan voqea yoki masalalarga ishora qilinadi:

Kel, ey soqiyki, tushmish jonima jo‘sh,
Ketur bu ikki yodi birla bir qo‘sh.
Alar ishqida no‘sh aylab iki jom,
Tutay Jomiy mayi madhin saranjom.

Yettinchi bob “Hazrati shayx ul-islomiy mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy” madhidadir. Alisher Navoiy Nizomiy va Dehlaviyni ikkita filga o‘xshatgani holda, Jomiyni yuz filga o‘xshatadi. So‘z o‘yini vositasida uni XI–XII asrlarda yashagan mashhur so‘fiy Zindapili Jomiyga qiyoslaydi, “fano timsoli”, “jahoni begaron” (cheksiz jahon), “olami kubro” (ulug‘ olam) deb ataydi. Bob Jomiy qo‘lidan bir jom ichish umidi bilan yakunlanadi:

Keturgil, soqiy, ul jomi kiromiy
Ki, tutsun rindlar sarxayli Jomiy.
Chu piri dayr may qildi havola,
Icharmen gar erur gardun piyola.

Navbatdagi bob dostonning yozilish sababi haqida. Bu bobda shoir dostonni yaratish orzusi paydo bo‘lgach, bepoyon

durr-u gavharlar dengiziga cho‘mganligini, ya’ni ko‘p mutolaa qilganligini, tinmay o‘ylaganligini aytadi. Dostonni yozishga undagan sabablardan biri o‘zining muhabbati, bu ishqning alam va iztiroblari ekangligini aytib, u tufayli o‘ziga yetishgan azob-u uqubatlarni bayon qiladi. Shunda unga g‘oyibdan nido kelib, hotif (g‘oyibdan oq fotiha beruvchi) uni yangi bir asarni yozishga ilhomlantirganini, keyin Jomiyning oldiga borganida, u ham shoirni duo qilib, bu ishda unga oq yo‘l tilaganini yozadi.

To‘qqizinchi bob asar rejasini tuzib olgani, turli afsonalar, tarixiy manbalarni ko‘rib chiqqani, shu mavzuda yozilgan dostonlarda yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatib, o‘z g‘oyalarini qay tarzda ifoda etmoqni niyat qilgani bayonidadir. Bunda Navoiy yozilajak asari yangi bo‘lishi lozimligini, avval shu mavzuda yaratilgan dostonlarni takrorlamaslik kerakligini ta’kidlaydi:

Ani nazm etki, tarhing toza bo‘lg‘ay,
Ulusqa mayli beandoza bo‘lg‘ay.

Yo‘q ersa nazm qilg‘onni xaloyiq,
Mukarrar aylamak sendin ne loyiq.

Xush ermas el so‘ngincha raxsh surmak,
Yo‘likim, el yugurmishtur yugurmak.

Dostonning **o‘ninchi bobi** Sulton Husayn Boyqaro ta’rifiga bag‘ishlangan. Navoiy uni sultonlar ichida Shoh G‘oziy, g‘azot maydonida Ali ibn Abu Tolib, shariat rivojida payg‘ambar singaridir deb ulug‘laydi va uni adolatli, saxovatli hukmdor sifatida madh qiladi.

O‘n birinchi bob shahzoda Badiuzzamon Bahodir madhiga bag‘ishlangan. Navoiy uni “Badi ud-dahru Doroi zamon” deb atab, uning ismini kitobat (harf) san’ati asosida sharhlab o‘tadi. Shahzodaning ismi 10 harfdan iborat bo‘lib, Navoiy uning har bir harfiga alohida ma’no yuklaydi:

“ب” – “be” ehsonda birlik, yagonalikning dalilidir, “د” – “dol” davlatdan nishona bo‘lib, din-u diyonat undan iqbol topadi. “ى” – “yo” harfi yumn (baxt, omad)dan darak berib, uning qadami bilan zamona tinchiydi. To‘rtinchi harf “ع” – “ayn” bo‘lib, adolatdan olingandir. “ا” – “alif” harfi o‘z shakli bilan uning to‘g‘riligi, rostgo‘yligini bildiradi. “ل” – “lom” harfi lutfdan

voqif etib, latofat gulshanidan bahramand etadi. "ز" – "ze" harfi abjad hisobiga ko'ra 7 raqamini anglatadi, bu Alloh unga 7 iqlimni nasib aylashiga ishoradir. "م" – "mim" harfi millat kiromi, musulmonlik nizomi undan ekanligini anglatadi. "ا" – "alif" harfi Alloh uning yori ekanligiga dalolat bo'lsa, so'nggi harf "ن"– "nun" nasr (madad) Allohdandir, degan ma'noni bildiradi.

Navoiy yuqorida dostonni yaratishdan maqsad "ishq, ya'ni ilohiy ishq dardini kuylash" ekanligini aytib o'tgan edi:

Bu rangin sahfa bilkim, dard bog'i,
Ayon har lolasida ishq dog'i.

Bundan ma'lum bo'ladiki, dostondan bosh maqsad ilohiy ishq dardiga mubtalo bo'lgan solik (tariqat yo'liga kirgan oshiq)ning sarguzashtlarini tasvirlashdan iboratdir.

Dostonning asosiy qismi **o'n ikkinchi bob**dan boshlanadi. Voqealar Chin xoqonining farzandsizligi va uning iztiroblari tasviri bilan ibtido topadi. Shoirning maqsadi "ishq dardi"ni kuylash ekanligi muqaddimalardayoq ayon bo'lgan edi. Bu ruh, ohang asar voqealari bilan bog'liq o'rinlarda ham ta'kidlanadi. Nihoyat uning iltijolari qabul bo'lib, Tangri unga bir o'g'il in'om etadi. Navoiy go'dakning tug'ilishidan tortib ulg'ayishigacha bo'lgan har bir jarayonni alohida tasvirlaydi, hatto go'dakka qo'yilgan ismga ham alohida ma'no yuklaydi. "Farhod" so'zining ma'nosi nurli siymo, baxti o'ziga yo'lboshchi demak. Shoir esa bu nomning arab yozuvidagi harflariga ramziy ma'no berib, ularni *firoq, rashk, hajr, oh va dard* deb talqin etadi. Bu bilan Navoiy o'z qahramonining hayot yo'lini, u chekadigan iztiroblarni, uning ilohiy ishq dardiga mubtalo bo'lib tug'ilganiga ishora qiladi:

Anga farzona Farhod ism qo'ydi,
Hurufi ma'xazin besh qism qo'ydi.

Firoq-u rashk-u hajr-u oh ila dard,
Biror harf ibtidodin aylabon fard.

Farhod bolaligidan favqulodda xislatlari bilan atrofdagilarni hayratga soladi. O'n yasharligida:

Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm, –

darajasiga erishadi. Asarda Farhod ham cheksiz jismoniy qudrat, benazir iste'dod egasi, ham yuksak fazilatlar sohibi sifatida tasvirlanadi.

Farhod yoshi ulg'aygani sari qayg'uli va xastadil bo'lib bo'lib boradi. Xoqon Farhodning ko'nglini ochish, hazin kayfiyatini ko'tarish uchun yilning to'rt fasliga moslab to'rt qasr qurdiradi. Shu asnoda Farhod Qorandan tosh yo'nish, Boniydan me'morlik, Moniydan naqqoshlik sirlarini o'rganadi. Lekin u egallagan bilimlar, o'rgangan hunarlar zohiriy (dunyoviy) bilimlar bo'lib, ilohiy sir-u asrorni ochishga kifoya qilmaydi.

Farhoddagi hazinlikning tarqamaganini ko'rgan xoqon unga taxtni taklif qiladi va shu bilan go'yoki o'g'lining dardiga davo topmoqchi bo'ladi. Aslida esa Farhoddagi bu holat zaminiy, dunyoviy bo'lmay, ilohiy ishqning nishonasi edi. Shu o'rinda Navoiy ilohiy ishq dardida yongan inson bilan bunday saodatdan mahrum qolgan foniy dunyo kishilari orasidagi farqni ko'rsatib beradi. Farhod otasining taxtni egallash haqidagi taklifini saltanat ishlarini o'rganish, tajriba orttirishga ijozat so'rash bilan ortga suradi. Shuni ham ta'kidlash muhimki, Navoiy mana shu epizodni olib kirib, avvalo, o'z qahramonining dunyo hoyu-havaslaridan oson voz kecha oladigan ma'rifat yo'lidagi inson ekanligini tushuntirmoqchi bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zi yashayotgan davrda o'z otasi, og'a-inisi bilan toj-taxt, mulk talashayotgan shahzodalarga nasihat qilgandek ham bo'ladi. Farhod asta-sekin xoqon xazinasidagi behisob boyliklar bilan tanisha boshlaydi. Natijada yashirin parda ortidagi xonada saqlanayotgan sirli sandiq va undagi tilsimli ko'zguni ko'rib qoladi. Farhod ushbu ko'zguning sehrini ocholmay, Yunoniston safariga, Suqrot huzuriga otlanadi.

Farhodni tarbiyalab voyaga yetkazgan, hunarlar o'rgatgan ustozlari asosan dunyo ilmlarini o'rgatgan edilar. Shu bois u qancha ilm, hunar o'rganmasin, qalbida kechayotgan iztiroblarni oxirigacha anglay olmaydi, chunki uning iztiroblari dunyoviy tashvishlardan ancha ustun turardi. Demak, unga pir-rahnamo kerak edi.

Dostonda Farhodning Yunonistonga safari voqealari tasvirida ramziylik yanada kuchayadi. Shoir Yunoniston safari vositasida Farhodning sulukdagi yo'lini, Yunon donishmandlari yasagan, Iskandardan qolgan "hikmat ko'zgusi"ning tilsimini

ochishni faqat Suqrot o‘rgatishi mumkinligini ishoralar bilan bayon etadi. Suqrot bilan uchrashishga ahd qilib yo‘lga chiqqan Farhod dastlab Suhaylo bilan uchrashadi. Suhaylo Suqrot darajasida emas, u ko‘zguning sehrini ochishga qurbsiz, lekin Suqrotga yetishish yo‘li, dushmanlarini yengish sirlaridan xabardor.

N.Komilovning “Tasavvuf” nomli kitobida yozilishicha, Suhaylo Farhodning tariqat yo‘lidagi birinchi piridir. U Farhod yengib o‘tishi kerak bo‘lgan to‘siqlar: ajdarho va devdan xabar beradi. Tasavvufda ajdarho – nafs timsoli, dev – saltanat timsoli hisoblanadi. Suhaylo Farhodga ajdarhoni yengish uchun samandarning yog‘ini beradi. Samandar – olov ichida yashaydigan jonivor. U – ishq ramzi. Farhod badaniga samandar yog‘ini surganda, ajdarhoning o‘ti unga kor qilmaydi, ya’ni ishq otashi nafs o‘tini so‘ndiradi. Shuningdek, Farhodga keyingi manzillarda uchraydigan sher va temir paykarning ham ramziy ma’nosi bor. Sher – g‘azab timsoli, ilohiy ishq yo‘liga kirayotgan solikda esa g‘azab bo‘lmasligi kerak. Temir paykar – ro‘yo, yolg‘on dunyo ramzi. Solik dunyo mo‘jizalariga chalg‘imasligi, ularga ko‘ngil qo‘ymasligi kerak. Farhod temir paykarni ham yengib, nihoyat Suqrot dargohiga kirib boradi.

Aslida Suqrot timsolining asar tarkibiga kiritilishi tasodifiy bo‘lmay, bosh maqsadni ochib berish yo‘lidagi muhim vositadir. N.Komilovning yozishicha, Suqrot piri komil timsoli bo‘lib, usiz Farhodning o‘z maqsadiga erishishi mumkin emas edi. Navoiy Suqrotni quyosh kabi porloq siymo, jismi pok ruh kabi, shaxsi aqlning haykali deb ta’riflaydi. U kamolot cho‘qqisini egallagan komil inson, o‘zi bir joyda o‘tirsa ham, ruhi butun dunyoni kezib chiqadi. Jamshid jomi, Iskandar ko‘zgusi ham uning ko‘ngil ko‘zgusi oldida xira. U Farhod bilan yakkama-yakka suhbatlashib, uni o‘z farzandiday e’zozlaydi. Chunki bu yigit siymosida u o‘z suluk (yo‘l)ining davomini ko‘rgan edi. U Farhodga shunday deydi:

Muni bilkim, jahon foniydur asru,
Haqiqat ahli zindoniydur asru.

Agar topsa Sikandar mulki zoting,
Gar o‘lsa Nuh umricha hayoting.

Bu baytda Navoiy Suqrot tilidan tasavvufning muhim g'oyasini bayon etadi. Ya'ni bu dunyo o'tkinchi, foniydir, shu sababli unga ko'ngil bog'lash to'g'ri emas.

Chu mahbubi haqiqiy uldurur ul,
Aning vasli sori qat' aylamak yo'l...

Bu yo'l ichraki behad dard-u g'amdur,
Uzoq tortar, vale ikki qadamdur.

Kim ul ikki qadamning qat'i ming yil,
Kishi ursa qadam mumkin emas bil.

Biri o'zlukni qilmoq bo'ldi foniy,
Yana bir dog'i topmoq bo'ldi oni.

Haqqa yetishish yo'li ikki qadam masofadek gap, lekin bu ikki qadamni bosib o'tish uchun ming yillik mashaqqat sarflanishi kerak. Bu ikki qadamning biri o'zlikdan voz kechish, ikkinchisi o'zlikni topish, ya'ni o'zlikdan voz kechmay turib, chin ilohiy o'zlikni topish mumkin emas.

Inson o'zlikdan qutulmay, Ilohga yetolmas ekan, demak, uni tezlashtiruvchi chora – vosita kerak. Dostonda majoziy ishq tong yorug'iga, haqiqiy ishq quyoshga o'xshatiladi:

Bu o'zlukdin qutulmoq chorasozi,
Nima yo'q, o'ylakim ishqi majoziy...

Majoziy ishq bo'ldi subhi anvar,
Haqiqiy ishq anga xurshidi xovar.

Alisher Navoiyning bu o'rinda majoziy ishq va haqiqiy ishq haqidagi fikrlari Navoiy ijodida ishqni to'g'ri talqin qilishga ko'mak beradi. Shoir majoziy ishqni tong nuriga, haqiqiy ishqni quyoshga o'xshatish bilan "majoz – haqiqat yo'lidagi ko'prik" ekanligiga, Yaratganga muhabbat U yaratgan xilqatlarga muhabbat orqali oydinlashishiga ishora qiladi. Zero, tongning nuri quyosh tarafga nazar tashlashga undaydi. Demak, Farhodning oldida turgan ishq dastlab majoziy ishq sifatida namoyon bo'ladi. Biroq majoziy ishq uchun "mazhar" kerak. Mazhar – Haq jamoli zuhur etgan insondir. Farhod uchun mazhar – Shirin edi.

Farhod shu tariqa Suqrot huzuriga borar yo‘lda tariqat maqomlarini bosib o‘tadi, piri komil suhbatidan bahramand bo‘lib, ilohiy ishqning mohiyatini anglay boshlaydi. Chin mamlakatiga qaytib borib, ko‘zguda endi nafaqat Shirinni, balki o‘zini va o‘zi kelgusida boshdan kechirishi kerak bo‘lgan voqealarni ko‘ra boshlaydi.

Farhodning keyingi faoliyati bevosita Armaniston bilan bog‘liq. Ko‘zguda Shirinni ko‘rgan Farhodning hayoti yana balolarda, sinovlarda o‘taveradi. Avval kemaning halokatga uchrashi, uning yolg‘iz bir taxta ustida qolib, dengizda oqim bo‘ylab suzishi, eronlik savdogarlar tomonidan qutqarilishi, qaroqchilarga qarshi jang, Arman o‘lkasiga yetib olishi, tog‘ qaziyotgan odamlarning joniga oro bo‘lib kirishi – tog‘ kesib, suv chiqarish mashaqqatlari – bularning barchasi ramziy ma’noda majoziy ishq yo‘lida chekkan ruhoniy iztiroblar, azob-mashaqqatlar. Bu voqealarni jonli, rangin bo‘yoqlarda tasvirlagan shoir Farhodning dard-u iztiroblari, ishq hasratlarini kuchli dramatizm bilan taqdim etadi. Dostonning hakim Suqrot bilan bog‘liq o‘rinlarida tasavvufiy mazmun-mohiyatning kuchayib ketganligini ko‘rish mumkin edi. Umuman olganda, bu uslub asarning boshidan-oxirigacha kuzatiladi. Shu bois asarni zohiriy va botiniy ma’nolarda tushunish, idrok etish mumkin. Zohiriy mazmunning o‘ziga asoslanib idrok etilganda ham dostonning ma’rifiy qimmati yuqori ekanligini kuzatish mumkin. Masalan, Farhodning ko‘hkanligi Nizomiy dostonida asosan Besutun tog‘idan Xusrav askarlariga yo‘l ochish orqali ko‘rsatilsa, Navoiy dostonida suvdan qiynalgan xalqqa ariq qazishi voqeasi garchi o‘ta mubolag‘aviy tarzda berilgan bo‘lsa-da, muayyan jihatlari hayotiy asosga ega. Navoiy yashagan davrda Hirotning o‘zida ham suv tanqisligi muammosi mavjud edi. “Vaqfiya” asaridagi ariqlar, hovuzlar qazilganligi haqidagi ma’lumotlar bunga misol. Farhoddek shahzodaning xalqqa bergan ko‘magini badiiy tasvirlagan shoirning ijtimoiy (shahzodalarga pand ma’nosida) maqsadlari bor edi. Xos va avom kitobxonga birdek qiziq bo‘lgan bu dostondan har xil darajadagi kitobxon o‘z imkoniyat va iqtidori darajasida ta’sirlanishi mumkin. Asarning yana bir nomi “Mehnatnoma”ni ko‘pchilik Farhodning Armaniyadagi mehnati bilan bog‘lab tushuntirishga intiladi. Bu bir qarashda to‘g‘ridek. Biroq Navoiyning o‘zi doston boshida

"Mehnatnoma"ni qo'llaganida, Farhod boshidan kechirgan qiyinchiliklar va mashaqqatlarni nazarda tutgan edi.

Dostondagi har bir timsol yuksak mahorat bilan ishlangan bo'lib, Navoiy har bir obrazga, har bir detalga muayyan badiiy ijtimoiy "vazifa" yuklaganligini ko'rish mumkin. Dostonda ilohiy ishqdan bebahra foniy dunyo kishilaridan biri Xusravdir. Muallif bu ikki qahramonning munozarasini tasvirlar ekan, ikki xil ishq – avom ishqi va ilohiy ishq o'rtasidagi tafovutni ko'rsatib beradi. Jami 25 baytdan iborat bu munozarada deyarli har bir baytda muayyan badiiy san'atning yetakchilik qilishini kuzatish mumkin. Xususan,

Dedikim: ishq o'tidin de fasona!
Dedi: kuymay kishi topmas nishona.

– baytida "o't" va "kuymoq" so'zlari asosida tanosub san'ati yasalganligini ko'rsak, keyingi baytda "a" unlisining takrorlanishi asosida vujudga kelgan assonans badiiy vositasining qo'llanilganligini ko'ramiz.

Dedikim: kuymagingni ayla ma'lum,
Dedi: andin erur joh ahli mahrum...

Xusrav savol-javobda ham, jismoniy harakatlarda ham Farhodni yenga olmaydi, chunki dunyoviy kuch ilohiy qudratni yengishi mumkin emas edi. Shunda u makkorlik yo'liga o'tadi: yosuman kampir vositasida Farhodning o'limiga erishadi.

Navoiy tilidan Farhodning o'limi munosabati bilan aytilgan:

Vujudin o'rtab ul so'z-u gudozi
Haqiqatqa badal bo'ldi majozi,

degan iqrorini Alloh jamoliga yetishgan ishq ahli haqidagi ma'naviy xulosa deyish mumkin. Quyidagi misralarda shoir fikrini yanada kuchaytirganligini, Farhod timsolida ilgari surilgan qarashlarini oydinlashtirganini ko'rish mumkin:

Baqo shahrida sultonliqqa yetti,
Haqiqat mulkida xonliqqa yetti.

Doston poetikasidagi muhim jihatlaridan biri, undagi dramatizm, yuqori darajadagi pafosdir. Alisher Navoiy Farhod obraziga alohida yondashgani uning hissiyotlarini yoritishda yanada ko'proq

seziladi. Shoir Farhodning o'limi oldidan chekkan iztiroblarini **(49-bob)** bayon qilish orqali asarning asl mohiyatini ma'lum qilgan, bu nuqtadagi dramatizm, fojiaviylik o'ziga xos lirizmga uyg'unlashib ketgan. Aynan shu o'rinda Farhodning o'limi yuz beradi. Bobning avvalida Farhod o'z holini bayon qiladi, ishq yo'lida chekkan iztiroblarini aytib falak – taqdir bilan suhbatga kirishadi, so'ng unga bir qancha vaqtdan buyon hamroh va munis bo'lib qolgan parranda, hayvonlarga vidosini aytadi, boshidan o'tgan voqealarni qisqacha so'zlab beradi, tong shamoliga murojaat qilib, ota-onasiga o'zi haqida xabar berishini iltimos qiladi. Mazkur monologda Farhod Xusravdan ozor chekkani haqida ham to'xtaladi. Xusrav o'z qilmishlari uchun jazosini olishini so'raydi. O'z holatini shu tariqa bayon qilgach, ishq uning butun jon-u jismini kuydiradi hamda Farhod dunyodan ko'z yumadi:

Qilib jononi otin tilga ta'lim,
Tutub jonon otin, jon etti taslim.

Mazkur o'rinda Farhodning "jonon otini tutub" jon berishi asar g'oyasini aniqroq tushunishga yordam beradigan nuqta bo'lib, bu tasavvufdagi solikning o'limi Haq zikri ila kechishini bildiradi.

Dostonning **52-bobi**da qalamga olingan voqealar asar mazmunini yanada kengroq ochib beradigan lavha hisoblanadi. Unda shoir Shirin o'lgan kuni qirq nafar ahli tariqat bir xil tush ko'rganini ma'lum qilgan. Tushlarida jannat namoyon bo'lgan va jannatda osmon qadar ulkan qasrda Farhod va Shirin taxt uzra o'tirgan ekanlar. Ularning atrofida esa ota-onalari va barcha yaqinlari ham bo'lib, bu oshiq va ma'shuqning sharofati tufayli amalga oshgan edi. Jannat farishtasi Farhodning ishq yo'lida dunyo taxti va sultonligidan voz kechgani uchun unga shunday ulkan martaba nasib qilgani haqida xabar qiladi.

Mazkur tushni qirq nafar valiy zot ko'rgach, bo'lib o'tgan voqea butun olamga ma'lum qilinadi. Farhodning boshqa yaqinlari – Shopur va Bahrom Arman o'lkasiga keladilar, Farhod va Shirin o'limida aybdor bo'lganlarni jazolaydilar. Bu ishlarni tugatgach, Farhod va Shirin qabri ustida mujovir bo'lib qoladilar.

Doston xotimasi ikki bob (53-54) dan iborat bo'lib, 53-bob Sulton Husayn Boyqaroning o'g'li shahzoda Abulfavoris Shohg'arib Mirzo madhi va unga bag'ishlangan bir necha nasi-

bilmi o'z ichiga oladi. Navoiy Shohg'arib Mirzoga kamolotga erishish yo'llari haqida gapirar ekan, shahzodaga Iskandar Zulqarnayn, Mirzo Ulug'bek kabi hukmdorlarni ibrat qilib ko'rsatadi. Eng muhim ilmlar sifatida fiqh, hadis va tafsirni egallash zarurligini uqtiradi, shuningdek, tibbiyot va hikmat ilmini ham o'rganishni tavsiya etadi:

Shah uldurkim shiori ilmi dindur,
Nedinkim ilmi din ilm ul-yaqindur...

Bu din ilmiki xomam qildi tahrir,
Erur fiqh-u hadis-u so'ngra tafsir...

Valekin tibb-u hikmat ham erur xo'b
Ki, sihhatdur kishi jismida matlub.

Yakuniy bobda Navoiy Farhod timsolini o'z zamonasidagi barcha shahzodalarga ibrat hamda o'rnak qilib ko'rsatadi.

"Farhod va Shirin" ishqiy sarguzasht dostonlar uchun mo'ljallangan *hazaji musaddasi mahzuf* vazni (ruknlari va taqti'i: mafoiylun mafoiylun fauvlun *V– – – V– – – V– –*) da yozilgan.

Tayanch tushunchalar

noqiynoma
nolik
noliki majzub
ishqi majoziy
ishqi haqiqiy
ramziy timsollar
hazaji musaddasi mahzuf

Savol va topshiriqlar

1. "Xamsa"dagi ikkinchi doston Navoiygacha qanday shaklda qaysi manbalarda uchrar edi?

2. Orif Ardabiliy dostoni qaysi jihatlari bilan Navoiy dostoniga yaqin turadi?

3. Navoiy "Farhod va Shirin"ning kirish qismida ishqqa aloqador hayajonlarni tasvirlar ekan, qazoni, aqlni va hokazolarni dostondagi qaysi qahramonlarga qiyoslaydi?

4. Dostondagi ramziy timsollarga ta'rif bering.

5. Farhod qo'lga kiritishi kerak bo'lgan: Jamshid jomi, Iskandar ko'zgusi va bu yo'lda unga to'siq bo'lgan ajdaho, sher, temir paykar qanday ma'nolarni ifodalaydi?

6. Dostondagi Suhaylo hakim va Suqrot obrazlari Farhod faoliyatida qanday o'rin tutadi?

7. Doston xotimasi necha bobdan iborat va uning mazmuni nimalarni ifodalaydi?

ADABIYOTLAR:

Matn va manbalar:

1. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1991, 8-жилд.

2. Алишер Навоий. Хамса: Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. 6-жилд.

3. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2006.

4. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин (насрий баёни билан). Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1989.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

5. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.

6. Араслы Н.Г. Ариф Ардабили и его поэма «Фархаднама». Автореферат дисс. ... канд. филол. наук.

7. Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Movarounnahr – O'zbekiston NMIU, 2009.

8. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979.

9. Эркинов С. Навоий "Фарҳод ва Ширин"и ва унинг қиёсий таҳлили. – Т.: Фан, 1971.

10. Эркинов С. Шарқ адабиётида Фарҳод қиссаси. – Т.: Фан, 1985.

11. Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2011.

12. Қаюмов А. "Фарҳод ва Ширин" сирлари. – Т., 1979.

"LAYLI VA MAJNUN" DOSTONIDA MUALLIF BADIIY NIYATINING IFODALANISHI

Reja:

1. "Layli va Majnun"– pok va yuksak muhabbat ifodasi.

2. Dostonning tarkibiy tuzilishi, g'oyaviy mundarijasi va timsollar olami.

3. Dostondagi bosh qahramonlar hayoti.

4. Doston badiiyati.

Yaqin va O'rta Sharq xalqlari adabiyotida "Layli va Majnun" mavzusiday keng tarqalgan boshqa bir ishq qissasini topish qiyin. Mana o'n uch asrdirki, ushbu mavzuda adabiyot olamida she'r va dostonlar bitib kelinadi. Ushbu qissaning kelib chiqish manbai qadim arablar hayoti bilan bog'liq voqealarga borib taqaladi. Arab manbalarida ma'lumot berilishicha, Majnun tarixiy shaxs bo'lib, Shimoliy Arabistondagi Bani Omir qabilasiga mansub bo'lgan. Uning ismi manbalarda Qays ibn Mulavvah, Mahdiy ibn Muod, al-Aqra va ba'zan al-Buhturiy ibn al-Ja'd tarzida keltiriladi. Majnun o'z qabilasidan Layli ismli qizni sevib, unga bag'ishlab ajoyib she'rlar to'qigan. Uning she'rlari qabiladoshlari va boshqa qabila kishilari orasida keng tarqalganligi haqida Ibn Qutaybaning "Kitob ush-she'r vash-shuaro" asarida ma'lumotlar keltiriladi. Lekin shu bilan birga ayrim tarixchilar Majnun tarixiy shaxs emas, uning nomi majoziy, mavjud she'rlar o'z amakisining qizini sevib qolgan umaviy bir yigitning she'rlari, u she'rlarida Majnun taxallusini qo'llagan deb aytadilar. Har holda, nima bo'lganda ham VH asrning ikkinchi yarmidan boshlab arab she'riyatida Majnun taxallusi bilan ishq mavzusida yozilgan g'amgin she'rlar paydo bo'lgan.

Badiiy adabiyotda bu qissa doston shaklida ilk bor Nizomiy Ganjaviy tomonidan vujudga keldi. Nizomiy xalq orasida tarqalgan rivoyatlardan ijodiy foydalangan holda "Layli va Majnun" qissasini g'oyaviy jihatdan mukammal va badiiyati

nuqtayi nazaridan yuksak asar darajasiga ko‘tardi. Bani Omir qabilasi boshlig‘ining o‘g‘li Qaysning maktabdoshi Layliga muhabbatini tasvirlash orqali har ikkala qahramonning ruhiy va ma’naviy dunyosini ochib berishga alohida e’tibor qaratdi, xalq rivoyatlarida faqat tashqi go‘zalligi bilangina mashhur bo‘lgan Layli timsolini ijtimoiy omillar va badiiy-estetik yuk orqali mukammallashtirdi. Nizomiy dostoni Sharq xalqlari adabiyotida keng shuhrat qozondi va oradan bir asrdan ziyodroq vaqt o‘tgach, Amir Xusrav Dehlaviy unga javob yozdi. Dehlaviy dostoni 1299-yilda yaratilgan bo‘lib, “Majnun va Layli” deb ataladi. Muallif doston qahramonlari nomini almashtirish bilan yangilikka, o‘z salafidan o‘zgachalikka intilganligini ta’kidlaydi hamda ushbu qissaning arab xalqlari orasida dastavval “Majnun va Layli” shaklida ommalashganligiga e’tibor qaratadi. U Nizomiy dostonining kompozitsion qurilishini asosan saqlab qolgan holda uning syujetiga ba’zi o‘zgartirishlar kiritadi (munajjimning Majnun taqdiri haqidagi bashorati, Navfalning o‘z qizini Majnunga nikohlab berishi va b.). Xusrav Dehlaviy ushbu dostoni bilan Sharq xalqlari adabiyotida “Layli va Majnun” mavzusidagi dostonga javob yozish an’anasini boshlab berdi. Dehlaviydan keyin forsiy adabiyotda, xususan, Hirot adabiy muhitida Ashraf Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, Kotibiy Turshiziy, Shayxim Suhayliy, Abdulloh Hotifiy, Badriddin Hiloliy, Xoja Imod Loriy va boshqalar ham bu mavzuda asar yozdilar.

Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni turkiy tilda ushbu mavzuda yaratilgan ilk doston bo‘lib, Navoiy uni yaratishdan avval arab rivoyatlari bilan bir qatorda Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Ashraf Marog‘iy va Shayxim Suhayliy dostonlarini chuqur o‘rganadi. U xamsanavislikda o‘zigacha mavjud an’analardan ijodiy foydalangan holda o‘z dostoniga yangicha ruh bag‘ishlaydi, o‘z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, “afsonaga yangi libos kiygizadi”.

Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni 38 bob, 3623 baytdan iborat. Shundan muqaddima 9 bobni o‘z ichiga oladi. Doston an’anaviy hamd – Allohning madhi bilan boshlanadi. Unda shoir olamning yaratilishi; tun, kun, oy, quyosh, yulduzlarning, yil fasllari va ulardagi tabiatning o‘ziga xos jilolari, insonning tabiat ichida yaratilishi, yo‘qdan bor, bordan yo‘q

bo‘lishi – bularning hammasi Allohning beqiyos qudrati va ulug‘ligining ifodasi ekanini ta’kidlab, unga hamd-u sanolar o‘qiydi. Navoiy bobda g‘oyat ustalik bilan Allohning yerdagi tajalliysi tasvirini ushbu yozilayotgan dostoni g‘oyasi bilan bog‘liq holda bayon qiladi. Yaratuvchining har yerdagi tajalliysi jahonda Layli bo‘lib ko‘rinadi, jilva qiladi, uning bu xususiyati ona yuratilganlarni Majnun qilishdan iboratdir:

Ey har sorikim, qilib tajalli,
Ul mazhar o‘lub jahonda Layli.

Ey oniki Layli aylab otin,
Majnun qilmoq qilib sifotin.

Ikkinchi bob Munojotni o‘z ichiga oladi. Mazkur bobda Navoiy Allohga murojaat qilib, uni borliqni yaratgan yagona va oliy zot deb deb ataydi va o‘z gunohlarini, xatolarini kechirishni iltijo qiladi. Shoir dostonni yozishga kirishar ekan, Xudodan o‘ziga madad va ko‘mak so‘raydi:

Yo Rab, eshigingda ul gadomen,
Kim, boshtin ayoqqacha xatomen.

Mushkum bu xatoda bo‘ldi kofur,
Kofur ila mushkum o‘ldi benur...

Boq dard u malolatimg‘a, yo Rab,
Rahm ayla bu holatimg‘a, yo Rab...

Shukrungg‘a tilimni qoyil ayla,
Sajdangg‘a boshimni moyil ayla...

Bo‘l rohnamun mango ul ishga,
Kim, bo‘lsa sanga rizo ul ishga...

Dostonning **uchinchi bobi** Muhammad (s.a.v) madhiga bag‘ishlangan. Bu bobda Navoiy Rasulullo (s.a.v)ni risolat sipehri (payg‘abarlik osmoni)ning quyoshi deb atab, Odam Atoni uning daraxtidagi mevaga o‘xshatadi. Kitobat san’ati vositasida payg‘ambarlik muhri – xotamning “ا” – “alif” va “ت” – “te”sida uning oti yashiringanini aytadi:

Ul muhri xututi vasfi zoting,
Xotam "alif"i-yu "te"si oting.

Navoiy na'tni Payg'ambar(s.a.v.) va uning oilasiga yuz ming salavot-u vasflar aytish bilan yakunlaydi.

To'rtinchi bob Me'roj tuni ta'rifiga bag'ishlangan. Bob nomi muayyan tarzda asarning bosh qahramonlaridan biri (Layli) ning nomi bilan uyg'unlik kasb etadi: "Ul shomi visolingkim, "Val-layli izo yag'sho" ("Tun qorong'iligi bilan qasam ichaman") oyati bo'la olg'ay aning shonida savodi yozilmog'i..."

Navoiy me'roj tunini ta'riflar ekan, bu tunning rangini toza mushk rangiga o'xshatib, uning har bir yulduziga quyosh rashk etadi deb yozadi:

Kim rangi edi chu mushki nobi,
Har yulduzi rashki oftobi.

Alisher Navoiy dostonning ushbu bobida Rasululloh (s.a.v.)-ning mahbub (Haq) vasliga orzumand bo'lishlari (*Mahbub xayoli birla mashg'ul*), uning huzuriga ketayotganlarida behush bo'lishlari (*Solib o'zin anda bexudona*) bilan bog'liq holatlarni keyinchalik dostonning asosiy qismida Majnun timsoliga ko'chiradi.

Navoiy Muhammad payg'ambar (s.a.v.)ning Buroq otiga minib, ko'kka ko'tarilishini tashxis san'ati vositasida bayon qilar ekan, sayyoralar, yulduzlar, o'n ikki burjlarning nomlarinigina emas, ularning xususiyatlarini ham ko'zda tutib, Me'roj tunining mo'jizaviy holatini tasvirlaydi. Shoirning yozishicha, payg'ambar Allohning huzuriga oy bo'lib borib, quyosh bo'lib qaytdi, gavhar bo'lib borib, Ummon dengiziga aylanib keldi:

Oy bordi-yu keldi mehri raxshon,
Dur bordi-yu keldi bahri Ummon.

Dostonning **5-bobi** so'z ta'rifi, Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy madhini o'z ichiga oladi. Navoiy dastlab so'zga ta'rif berar ekan, uni eng ajoyib gavhar, mavj urgan dengizga o'xshatadi:

Ey so'z, ne balo ajab guharsen,
Gavhar neki, bahri mavjvarsen...

Aytib sovumas tarona sen-sen,
Olib qurumas xizona sen-sen.

Nizomiy Ganjaviy madhida talmih san'atining yetakchilik qilishini kuzatish mumkin. U fazilatda Turdagi Muso, qanoatda Qofdagi Anqoga o'xshatiladi:

Ham Turi fazilat uzra Muso,
Ham Qofi qanoat uzra Anqo.

U Ganjada ganj (xazina)dek yashirinib, besh ganj ("Xamsa")-ni nishon qilib ketdi:

Ul Ganjada ganjdek nihoni,
Besh ganj qo'yub vale nishoni.

Bobda Dehlaviy "sohiri Hind" (hind sehrgari) ta'rifi ostida keltirilib, u yaratgan asarlar fitnagarlikda Kashmir o'lkasidek, kitoblari sahifalaridagi yozuvlar Bobil mamlakatining katta yo'lidek ekanligi ta'kidlanadi:

Ko'rgach bu tilism sohiri Hind,
Jodulig' ishida mohiri Hind...
Har safhai nazmi gohi tahrir,
Fitna aro bir savodi Kashmir.

Salaflarning "Layli va Majnun" mavzuidagi dostonlari "qal'a" va "qasr"ga, Navoiyning o'z dostoni "qal'a" va "qasr" atrofidagi "shahar" va "bog'"ga nisbat beriladi:

Ham qal'a uchun kerakdurur shahr,
Ham qasrg'a bog'-u sabzadin bahr.

Oltinchi bob Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhidadir. Navoiy Jomiy ismidagi "nur" so'ziga alohida urg'u berib, uning oti ham, zoti ham "nurun-alo nur"dir deydi:

Sochib laqabi jahon aro nur,
Zoti bila nurun-alo nur.

Navoiy bu o'rinda Jomiy hali to'lalagicha "Xamsa" yaratmagan bo'lsa-da (Jomiy beshligi 1481 – 85 yillarda yaratilgan, bu vaqtga kelib, Jomiy beshligidagi faqat 3 doston yozib tugallangan edi), lekin o'zining besh xazinasi, ya'ni "Silsilat uz-zahab", "Tuhfat ul-Ahror", "Subhat ul-abror", "Ahsan ul-qasas" ("Yusuf va Zulayho") dostonlari va "Devon"i bilan besh xazinaga munosib javob aytganligini ta'kidlaydi.

Dostonning **yettinchi bobi** zamona hukmdori Sulton Husayn

Boyqaroga bag‘ishlangan. Navoiy Husayn Boyqaroni shariatning himoyachisi, adolatparvar, saxovatpesha, bunyodkor shoh, fiqh ilmida Abu Hanifa singari yuksak darajaga ega shaxs sifatida madh qiladi. Shoirning yozishicha, u qilichi bilan sherni mahv etishdek qudratga ega bo‘lsa-da, chumoliga shikast yetsa, ko‘z yoshini tiyolmaydigan, shohlar orasidagi o‘rni falak yuksakligida bo‘lgani holda darveshlar oldida tuproqdek xokisor podshohdir:

Sher uzra qilichi barq choqib,
Mo‘r o‘lsa shikasta yoshi oqib.
Darvesh desam ulus uza shoh,
Shohi darvesh borakalloh.

8-bob shahzoda Badiuzzamon ta’rifidadir. Navoiy shahzodaning ismi “zamonasining go‘zali, nodiri” ekanligiga ishora qilib, shunday yozadi:

Gar oti o‘lub zamon badii,
Zoti kelib ins-u jon badii.
Alloh, Alloh, ne ot erur bu,
Ne pok-u xujasta zot erur bu.

Bobda Badiuzzamonning adolati, saxovati bilan birga qahriga ham alohida ta’rif beriladi:

Adli yorutub jahonni jovid,
Ul adl boshida ayni xurshid.
Chun qahri sharori ko‘kka roji’
Ul “shin” uza nuqta Nasri Voqi’.

Dostonning **9-bobi** tun ta’rifiga bag‘ishlangan. Bob muayyan ma’noda muqaddima bilan asosiy qismni bog‘lovchi ko‘prik vositasini o‘taydi. Bobda shoirning qorong‘i tunda xayol otiga minib, sayrga chiqish tasviri berilgan. Ishq vodiysiga yetganda ot oqsoqlanib, yo‘lda davom etolmay qoladi. Yomg‘ir, bo‘ron aralash momaqaldiroq guldurab, chaqin chaqadi. Chaqin yorug‘ida shoir saksovulday taxlanib yotgan inson suyaklari, vahshiy hayvonlarni ko‘radi. N.Komilovning “Tasavvuf” kitobida yozilishicha, bu tasvirlarning hammasida muayyan ramz bor. Bu tun hajr tuni, bu vodiy esa ishq vodiysi, vahshiy hayvonlar oshiqqa xuruj etgan balo-ofatlar, suyaklar ishq qurbonlaridan nishona. O‘z asli, Ilohdan ajralgan musofir, g‘arib ruh Majnun

shu vodiyda yakka o‘zi boshini egib o‘tiribdi. Shu o‘rinda ikkita tashbih qo‘llanilganligini ko‘ramiz. Qorong‘i tunda birin-ketin chaqmoq chaqib, uning yorug‘ida qabilalar ko‘zga tashlanadi, shunda shoir tunni Laylining sochiga, chaqmoqni esa Layli yuzining ochilishiga o‘xshatadi:

Andoqki qilib karashma mayli,
Zulf ichra jamolin ochsa Layli.

Layli yuzi bu o‘rinda ilohiy nur manbai, uzun sochlari – moddiy dunyo, firoq tuzoqlari, (“Layli” so‘zining o‘zi ham tun ma’nosini bildiradi), ana shu nur manbaining chaqmoqlari Majnun qalbi va vujudidan joy olgan. Ikkinchi tashbih: Navoiy ishq vodiysida “Nori Ayman” (shoxlari shu’lalanib turgan daraxt)ni ko‘radi. Qissa boshlanib, Layli va Majnunning birinchi uchrashuvi tasvirlanganda shoir shu tashbihni takrorlab, Majnunni xuddi shu shu’lali daraxt qiyofasida chizadi, ya’ni Layli yuzining shu’lasidan Majnun qalbi alangalanib ketadi. “Nori Ayman” aslida Qur’ondagi Muso hikoyasiga ishoradir. Muso alayhissalom Allohga yuzingni ko‘rsat deb iltijo qilganlarida, Alloh bir uchqunni Tur tog‘i tomon yo‘naltiradi. Tur tog‘i parchalanib, qum holiga keladi, Ayman vodiysi esa yorishib ketib, undagi daraxtlar mash’aladay porlaydi. Alloh ishqi mana shunday qudratga ega.

Bu bobning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, unda shoir hotif (g‘oyibdan ovoz beruvchi) tilidan o‘z yozilajak asarining salaflar dostonlaridan qanday farq qilishi lozimligini bayon etadi.

10-bobdan dostonning asosiy qismi boshlanadi. Bani Omir qabilasida uzoq kutilgan farzand – Qays dunyoga keladi. Qaysning tug‘ilishi, o‘sishi tasvirida ham ilohiy taqdir sezilib turadi. Tug‘ilgandan ishq olovi bilan yo‘g‘rilgan Qays o‘tga talpinadi:

O‘t ko‘rsaki mayl etib nihoniy,
Ishq o‘ti tasavvur aylab oni.

Uni 4–5 yoshlarida Layli qabilasiga o‘qishga beradilar. Qays maktabda tez saboq chiqaradi, qisqa fursat ichida barcha ilmlarni o‘zlashtiradi va saboqdoshlarini hayratga soladi (Bu o‘rinda Navoiy Alloh o‘zining xos bandalariga alohida iste’dod berishiga ishora qilyapti). Qays saboq olib yurgan bu paytda Layli betobligi

uchun maktabga qatnamayotgan bo‘ladi. Tuzalganidan so‘ng ustozi benihoya shodlanganidan barcha shogirdlarini o‘qishdan ozod qiladi. Layli saboqdoshlarini gulshan sayriga taklif qiladi, ular bilan birga Qays ham bog‘ sayriga chiqadi. Qays Laylini ko‘rib hushini yo‘qotadi. Navoiy bu o‘rinda Laylining husni gulzorni charog‘on qilib yubordi va gulzordagi bir nihol (Qays) ni xazon etdi deb yozadi:

Shod o‘ldi jamolidin dabiston,
Andoqki bahordin guliston.
Lekin bu bahori zindagoniy,
Bir naxlni ayladi xazoniy.

Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, guliston darveshning ruhiyati, uni Haq ishqi egallab oladi va u betoqatlanib, hushini yo‘qotadi. Shu tarzda majzubi solik (Haqdan jazba yetgan, ustozi ham, piri ham Ishq bo‘lgan, maqomlarni egallamasdan turib, hol martabasiga erishgan oshiq)ning sarguzashtlari boshlanadi. Qays shu tariqa Laylini har ko‘rganida hushidan ketadi. Xalq orasida “Majnun” laqabi bilan ovoza bo‘ladi:

“Layli, Layli!” – debon chekib un,
El deb: “Majnundur, ushbu majnun!”

Navoiyning ishq haqidagi tushunchasi insonning ilohiy fayzdan bahramandligi bilan bog‘liq e’tiqodga asoslangan, ya’ni haqiqiy muhabbat faqat pokiza insonlar qalbidan joy olishi mumkin. Majnunning ishqi bu borada eng oliy namuna, chunki u butun qalbi va jon-u dili bilan Allohni sevadi, shu sababli u mehr-muruvvati, yuksak axlōqi va beqiyos iste’dodi bilan eng go‘zal insondir. Shuningdek, Navoiyning fikricha, pok insoniy muhabbat va ilohiy ishqni bir-biriga zid qo‘yish to‘g‘ri emas, chunki ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, biri ikkinchisidan o‘sib chiqadigan hodisa. Majnunning ota-onasi uni Layliga uylantirish bilan dardiga chora topmoqchi bo‘ladilar va Layli qabilasiga sovchi yuboradilar. Navoiy shu o‘rinda haqiqiy ishqdan bexabar kishilar “ishq uylanish, oila qurish bilan yakuniga yetadi” degan tushuncha asosida yashashlariga ishora qiladi, ya’ni Majnunning ota-onasi va jamiyat ahli ishq deganda Navoiy “Mahbub ul-qulub”da keltirgan ishqning quyi darajasi, ya’ni avom ishqinigina anglaydilar. Majnunning ota-onasi uni

Layliga uylantirish uchun sovchi yuboradilar. Lekin Laylining otasi qizini aql-hushdan begona bir "devona"ga berishdan or qiladi va Majnunning Layli qabilasiga kelishini taqiqlab qo'yadi. Majnunning otasi qabiladoshlari bilan maslahatlashib, Qaysni zanjirband qiladi. Lekin ishq otashi ta'siridan zanjir uzilib, Majnun uyidan chiqib ketadi. U bedard qabiladoshlarini ham, yaqinlarini ham, umuman, jamiyatni unutish darajasiga boradi, zero, bu holat haqiqiy oshiq uchun xos xususiyatdir:

O'z oti-yu qavm-u xayli oti
Yo'q yodida, g'ayri Layli oti.

Tasavvufda bu holat "tafrid" (yolg'izlanish) deb ataladi. Oshiq shunday bir hol martabasini egallaydiki, yaqinlaridan, umuman, insonlardan bezor bo'ladi; yakkalikni, yolg'izlikni qo'msaydi. Yolg'izlanish dilning Haqqa yuzlanishi uchun imkon yaratadi.

Qaysning otasi o'g'lining dardiga shifo bo'ladi, degan umidda haj munosabati bilan Ka'ba ziyoratiga olib boradi (20-bob). Qarindoshlar ham Qays Ka'bani tavof etsa, ahvoli yaxshilanadi, deb umid qiladilar. Lekin Majnun Allohga munojot qilib, Layli ishqini ko'ngliga mustahkamroq jo etishini so'raydi. Mazkur lavha dostonning eng ta'sirchan o'rinlaridan biri bo'lib, qirq uch baytdan iborat. Bu o'ziga xos "munojotnoma"da yigirma to'rt o'rinda "ishq" so'zidan foydalanilgan. Bu tasodifiy emas, albatta. Navoiy ushbu so'zni turli poetik unsurlar va ritmik vositalar bilan uyg'unlikda qo'llab, ritmik ohangning turli-tuman jilvalanishlariga erishadi.

Dastlab ishq o'ti bilan jahonni yondirgan "hakimi dono"ga sokin murojaat bilan boshlangan mazkur munojot asta-sekin tantanavor ohang kasb eta boradi va bunda "ishq" so'zining ritmik zarb (mantiqiy urg'u asosiga qurilgan, ijodkor aytmoqchi bo'lgan fikr yoki ifodalamoqchi bo'lgan kuchli his-tuyg'uni o'zida aks ettiruvchi ritmik birlik) darajasiga ko'tarilganligi muhim omil bo'lib xizmat qiladi:

Chek aynima ishq to'tiyosin,
Ur qalbima ishq kimiyosin!

Majnun o'z munojotida ishqni shu tariqa ulug'lar ekan, undan ishq va Laylini unutishni so'ragan kishilarga nisbatan achinish hislarini namoyon qiladi va hatto Tangridan ularni afv etishini so'raydi:

Alloh-Alloh, bu ne so‘z o‘lg‘ay,
Ul qavmg‘a Tengri uzr qo‘lg‘ay.

“Tasavvuf” kitobida keltirilishicha, Ka’ba ziyorati lavhasi tasavvuf ahlining har qanday suratlar, timsollarga sig‘inishni inkor etishlariga ishoradir. Ya’ni Ilohning o‘ziga oshiq bo‘lgan, faqat Uni deb yongan kishiga bu ishlar ortiqchadir.

Majnunning otasi o‘g‘lini uyga qaytarib olib keladi va u yana sahroga chiqib ketadi. Sahroda u ovga chiqqan lashkarboshi Navfalni ko‘rib qoladi. Navfal ham bir vaqtlar ishq dardiga uchragani uchun Majnunning qalbini tushunadi, unga rahmi keladi:

Navfal dag‘i ishq ko‘rgan erdi,
G‘am dashti aro yugurgan erdi.

Navfal ishq dardidan xabardor bo‘lsa-da, lekin Majnun darajasiga ko‘tarila olmagan, uning sulukdagi maqomi ma’lum bir bosqichga yetgandan keyin to‘xtab qolgan. Shu sababli u Majnunni Layliga uylantirish bilan uning dardiga malham topish mumkin, deb o‘ylayli va Layliga sovchi yuboradi. Lekin Laylining otasi rozi bo‘lmagach, urush ochadi. Laylining otasi urushda yengilishini sezib, qizini o‘ldirishga qasd qiladi. Bu holat Majnunga tush orqali ayon bo‘lgach, Navfaldan urushni to‘xtashini so‘raydi. Navfal Majnun uchun yana bir chora vositasi sifatida o‘z qizini unga berishga qaror qiladi. Laylini esa Bani Asad qabilasining boshlig‘i Ibn Salomga unashtiradilar. Navfalning qizi boshqa insonni sevishini aytib, Majnunga aka-singil bo‘lishni taklif qiladi. Ibn Salomning esa quyonchiq (tutqanoq) kasali qo‘zg‘ab, behush yiqiladi.

Layli va Majnun ishq dashtida uchrashadilar. Navoiy bu uchrashuvni chuqur hayajon bilan tasvirlaydi. Ular bir-birining vasliga yetishgan damlarda butun borliq ularga madad ko‘rsatadi, osmon jismlari ham, yerdagi barcha tirik mavjudot sukutga cho‘madi, oshiq-ma’shuqlarga xayrixohlik qiladi. Layli va Majnun ruhan birlashadilar, ikkilik o‘rnini birlik – tavhid egallaydi. Navoiy ularning vasli poklikdan ayri bo‘lmaganligini aytadi. Shoirning fikricha, ishq ahli ulardek pok bo‘lar ekan, ularga abadiy vasl muyassar bo‘lsa, ne ajab, zero, nafs maqsadida oshiq bo‘lganlar uchun oshiqlik haromdir:

Ishq ahli bu nav’ bo‘lsalar pok,
Gar vasl muabbad o‘lsa ne bok?

Oshiqki murodi kom bo'lg'ay,
Oshiqlik anga harom bo'lg'ay.

Dostondagi eng ta'sirchan boblardan yana biri bu Majnun ota-onasining o'limi haqidagi bobdir (33-bob). Majnunning dardiga chora topa olmagan ota-ona farzandining g'am-u alamida kuyib, birin-ketin dunyodan ko'z yumadilar. Majnun bu holdan tush orqali xabar topadi: tushida bolalarini inlariga qaytarmoqchi bo'lgan ikki kaptar burgutga yem bo'ladilar. Bobda ota-onasidan ajralgan Majnunning iztiroblari, g'am-alamlari chuqur hissiyot bilan tasvirlangan. Ayniqsa, uning onasi qabri ustida tortgan afg'oni yuksak pafos bilan yo'g'rilganligini ko'rish mumkin:

Sen Ka'ba mangavu men tilab dayr,
Tavfing sori hech qilmayin sayr.

Solib sanga iztirob har dam,
Ka'bamni qilib xarob har dam.

Ka'bam bo'lmish mening xarobim,
Tengriga ne bo'lg'usi javobim?!

Majnunning ota-onasi vafot etganini eshitgan Layli yorining ham firoq alamidan, ham ota-ona motamidan iztirobga tushayotganini o'ylab, chuqur g'amga botadi. Majnun ota-onasining g'amidan azobda bo'lsa, menga ham bu g'am, ham uning g'ami ikki hissa azobliroqdir, deydi:

Anga ato-anoning g'amidur,
Ham bu manga, ham aning g'amidur.

Laylining ruhiy ahvoli o'zgara boshlaydi, uning tanasida kuchli harorat paydo bo'ladi. Tabiblar bu hol oldida ojiz qoladilar. Layli bu dunyodan ketish fursati yaqinlashganini sezib, onasiga Majnun kelsa, uni huzuriga kiritishlarini vasiyat qiladi. Majnun Laylining bu dunyodan ketayotganini ilohiy bir kuch bilan sezib, uning qabilasi tomon keladi. Shu tariqa umr bo'yi bir-birining ishqida kuygan, visoliga intilganlar Ruhi mutlaq tomon ravona bo'ladilar.

Doston Xotimasi uch bob (36 – 38)ni o'z ichiga oladi. 36-

bob "Ishq ta'rifi"ga bag'ishlangan bo'lib, bunda Navoiy ishqni kimyoga va olamni ko'rsatuvchi ko'zguga o'xshatadi:

Ey, ishq, g'arib kimiyosen,
Bal oyinayi jahonnamosen.

Qadimda kimyogarlar mis va boshqa ma'danlarni yuqori harorat ta'sirida oltinga aylantirish mumkin deb hisoblaganlar. Navoiy bu o'rinda shu afsonaga ishora qilib, odam aslida tuproqdan yaralgan, ammo ishq olovining "kimyo"ligi uni oltinga aylantiradi, ya'ni ishq inson vujudini turli xil chiqindilar: jismoniy talablar va nafsoniy istaklardan poklaydigan otashdir, degan fikrni keltiradi:

Chun xolis-u pok-u beg'ash o'ldi,
Oltin neki kimiyovash o'ldi.

Poklanish, ya'ni "kimyo"lanish ishqi majoziy bo'lib, undan "oltin"ga aylanib chiqqan oshiq endi o'zligidan qutuladi va qayoqqa qarasa, haqiqiy Yor(Haq)ni ko'radi:

Chun boqqali ixtiyor topti,
Har soriki boqti yor topti.

Ham naqshi vujudin etti foniy,
Ham topti baqoyi jovidoni.

Bu esa qalbning ko'zguga, ya'ni "oyinai jahonnamo"ga aylanishi, boshqacha aytganda, ishqi haqiqiyga molik bo'lishdir.

Dostonning 37-bobi Sulton Husayn Boyqaro akasining o'g'li shahzoda Sulton Uvays bahodir madhiga bag'ishlangan. Navoiy shahzodani ta'rif-u tavsif qilish asnosida g'oyat ustalik bilan unga shariat, adl-u himmat bobida nasihatlar ham qiladi va zamona sultoni Husayn Boyqaroni unga ibrat qilib ko'rsatadi.

Dostonning so'nggi bobi "dard navhasi" (yig'isi)ning yakuni haqida bo'lib, shoir bunda dostonni tugallagani uchun Allohga shukrona keltiradi. Navoiyning doston mohiyati haqida aytgan eng muhim fikrlari aynan shu bobda tajassum topgan:

So'gin nechakim uzottim oxir,
Yig'lay-yig'lay tugattim oxir...

Yozmoqta bu ishqi jovidona,
Maqsudum emas edi fasona.

Mazmunig'a bo'ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli...

Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu fasonani hikoyat.

Kim, shuhrati chun jahong'a to'lg'ay,
Turk eliga dog'i bahra bo'lg'ay...

"Layli va Majnun" dostonidan kelib chiqadigan xulosa shuki, bu dunyoda yashovchi har bir inson oshiqlik yo'lini tutib, o'zini o'limga emas, balki vasl mayini ichishga tayyorlashi kerak, zero, bu dunyoning birdan-bir mazmuni ham shu. Ruhi mutlaqni tasavvur qilishda inson aqli va ongi ojizlik qiladi, shu sababli Navoiy uni mazhar – Layli timsolida yaratadi.

Dostonda har bir timsol yuksak mahorat bilan ishlangan bo'lib, Navoiy har bir obrazga, har bir detalga muayyan badiiy ijtimoiy "vazifa" yuklaganligini ko'rish mumkin. Dostonning 14-bobida tasvirlangan it obrazi bu jihatdan alohida ahamiyatga ega. Ma'lumki, it sadoqat, vafodorlik ramzi sanaladi. Dostonda Majnun o'z sadoqati, vafosidan ko'ra itning sadoqatini ustun qo'yadi, chunki it Majnunga qaraganda Layliga ancha yaqin turadi. U ham Majnun kabi oshiq, yorining oyog'i ostida yotib o'z vafodorligini, sadoqatini namoyon qiladi. Buning fahmiga yetgan Majnun o'z dardini to'kib soladi:

Sen mendin o'lub vafoda afzun,
Ham sidqda, ham safoda afzun.

Bu o'rinda Navoiy Majnunning o'zini oshiq sanab, it darajasiga ham ko'tarila olmaganidan qattiq iztirobda ekanligini bayon qiladi. It Laylini ko'rganda Majnun singari hushini yo'qotmaydi, uning oyoqlariga suykalib, erkalanadi – itning bardoshi kuchli, bu esa Majnunning yeta olmas armoni.

Doston kompozitsiyasida bosh qahramonlar – Layli va Majnunning bir-birlariga yozgan maktublari ham muhim o'rin tutadi. Maktub ko'ngillarni bog'laydigan vosita bo'lib, u vasldan xabar beradi, oshiq-ma'shuqlarni umidlantiradi. Shoir Laylining maktubida *nido* san'atidan foydalanib, yorning o'z oshig'iga murojaati orqali ma'shuqaning qalb izhorlarini, his-tuyg'ula-

rini ifodalasa, Majnunning Layliga yozgan maktubida vafo va sadoqatdan so‘zlovchi oshiq kechinmalari qalamga olinadi. Ushbu maktublar dostonning umumiy poetik qonun-qoidalari (vazn, qofiyalanish tizimi)ga moslashtirilgan noma janrining betakror namunalaridir.

Dostonning badiiy jihatdan yuksak chiqishini ta’minlagan vositalardan yana biri unda tabiat tasvirining alohida o‘rin egallashidir. Navoiy tabiat fasllaridan umumiy ramziy fon sifatida foydalanib, ulardagi o‘zgarishlarni qahramonlar kayfiyati va ruhiyatiga hamohang tarzda tasvirlaydi. Qahramonlar shodlangan paytda, ularni o‘rab turgan tabiat ham yashnab turadi, ular qayg‘uga tushganda go‘yo borliq ham xo‘rsinib nafas olayotgandek bo‘ladi. Masalan, Majnun gulshanda hushsiz yotgan paytda butun tabiat uning boshiga tushgan og‘ir savdoga “hamdarlik bildiradi”: gul o‘z yoqasini chok etadi, lola ko‘ksiga qora dog‘ soladi, sunbul o‘z qiyofasini qora rangga bo‘yaydi va boshqalar. Doston voqealarining bahor faslida boshlanib, kuz faslida yakunlanishida ham muayyan ramziy ifoda bor.

Doston hazaj bahrining *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf* (ruknlari va taqti’i: maf’ulu mafoilun fauvlun, – – *V* | *V* – *V* – | *V* – –) vaznida yozilgan. Dostonda mazkur vazn bilan birga qo‘shimcha tarzda *hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf* (ruknlari va taqti’i: maf’ulun foilun fauvlun, – – – | – *V* – | *V* – –) vaznining ham qo‘llanilganligini kuzatish mumkin. Bu holat tasodifiy bo‘lmay, doston mazmuni va g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq. Dostondagi 3623 baytdan 240 misra aynan mana shu o‘lchovda yaratilgan bo‘lib, dostondagi ziddiyatli voqealar, asar qahramonlarining chuqur ruhiy iztiroblari tasviri, qahramonlar ruhiyatining tabiat tasviri bilan bog‘liq bayoni, qahramonlar hayrati aks etgan misralar – lirik chekinish paytida mazkur vaznga murojaat qilinganligini ko‘rish mumkin.



Tayanch tushunchalar

tajalliy
majzubi solik
tafrid
kimyolanish
Oyinai jahonnamo
ritmik zarb
ritmik variatsiya

hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf
hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf

Savol va topshiriqlar

1. Nima deb o'ylaysiz: nega Layli va Majnun mavzusidagi dostonlar musulmon Sharq adabiyotida bunchalik keng tarqalgan?

2. Badiiy adabiyotda Layli va Majnun mavzusidagi qissa doston shaklida birinchi marta kim tomonidan yaratildi?

3. Navoiy "Layli va Majnun" dostoni muqaddimasida qaysi masalalarga to'xtalgan?

4. Doston mohiyatan qanday ishqni ulug'laydi?

5. Majnun va Farhod sevgisining mushtarak va farqli jihatlari nimada deb o'ylaysiz?

6. Navoiy talqin qilgan "majzubi solik" va "soliki majzub" yo'llarining mazkur "Layli va Majnun" hamda "Farhod va Shirin" dostonlariga aloqadorlik jihati bormi?

7. Dostonda qo'llangan ritmik variatsiyalar haqida fikr yuriting.

ADABIYOTLAR:

Matn va manbalar:

1. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1992. 9-жилд.

2. Алишер Навоий. Хамса: Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. 7-жилд.

3. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2006.

4. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун (насрий баён муаллифи В.Раҳмонов, Н.Норқулов). – Т.: Адабиёт ва санъат, 1990.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

5. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1–2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.

6. Аҳмедов Т. Алишер Навоийнинг "Лайли ва Мажнун" достони. – Т.: Фан, 1970.

7. Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Movarounnahr – O'zbekiston NMIU, 2009.

8. Назруллаева С. Тема "Лейли и Меджнун" в истории литературы народов Советского Востока. – Т.: Фан, 1983.

9. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979.

10. Қаюмов А. Ишқ водийси чечаклари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1985.

"SAB'AI SAYYOR" DOSTONINING TARKIBIY TUZILISHI, HIKOYATLAR TAHLILI

Reja:

1. "Sab'ai sayyor" dostonining yaratilish tarixi.

2. Muqaddimalarda dostonning mazmuni bilan bog'liq qarashlar.

3. Dostonning tarkibiy tuzilishi va asosiy timsollari.

4. Yetti qasrdagi yetti musofir hikoyatlari.

5. Dostonning badiiy xususiyatlari.

Alisher Navoiy "Xamsa"sining to'rtinchi dostoni "Sab'ai sayyor" deb atalib, 1484-yilda yozib tugallangan. Asarning bosh qahramoni Bahrom tarixiy shaxs sifatida Eronning sosoniy hukmdori Varaxran V (420–438-yillarda podsholik qilgan)ga borib taqaladi. Bu podsho qulon (yovvoyi kiyik)ni ovlashga nihoyatda o'ch bo'lganligi uchun xalq orasida Bahrom Go'r (qulon) laqabi bilan shuhrat topgan. Sharq mamlakatlarida Mars (Mirrix) yulduzi Bahrom deb atalib, jang-u jadallar homiysi sifatida keladi.

Bahrom bilan bog'liq xalq naqllari, afsona va rivoyatlar dastavval eronliklar tomonidan vujudga keltirilgan va davrlar o'tishi bilan Sharq xalqlari orasida keng tarqalib ketadi.

Bahrom obrazi dastlab forsiy adabiyotda Abulqosim Firdavsiy "Shohnoma"sida tasvirlanadi. Firdavsiy Bahromni musbat va manfiy jihatlarga ega murakkab shaxs sifatida tasvirlaydi: u bir tomondan, adolatsevar podsho, vatanparvar yurt egasi, tengsiz aql-idrok, kuch-quvvat sohibi, mohir ovchi bo'lsa, ikkinchi tomondan, kitobxon ko'z o'ngida aysh-ishratga, ehtirosga o'ch, xudbin va qahri qattiq shaxs sifatida gavdalanadi. "Shohnoma"da Bahrom Go'r haqidagi voqea dostonning faqat bir faslini tashkil etib, unda Bahromning tug'ilishi, taxtga chiqishi, mamlakatni idora qilish tadbirlari, ov vaqtida o'z kanizagi Ozoda bilan to'qnashuviga doir voqealar qalamga olingan.

Bahrom Go‘r va uning kanizagi orasidagi “Shohnoma”dan olingan bu lavha Nizomiy Ganjaviy tomonidan qayta ishlanib, mashhur “Haft paykar” dostoni vujudga keladi. Nizomiy Bahrom qiyofasidagi asosiy xususiyatlarni: mohir merganlik, pahlavonlik, kuchli shijoat va dovyuraklik, mamlakatni adolat bilan boshqarish kabi fazilatlarni saqlab qolgani holda uni yangi ma’no va mazmun bilan boyitadi, ushbu timsol orqali o‘z davri ijtimoiy masalalarini, umuminsoniy g‘oyalarni ilgari suradi. Nizomiy Firdavsiy dostonidagi Bahromning kanizak bilan bog‘liq hikoyasini qoliplovchi hikoya qilib olib, unga 7 mustaqil hikoyat kiritadi.

Nizomiy asari yaratilganidan keyin bir asrdan ko‘proq vaqt o‘tgach, Xusrav Dehlaviy unga javob tarzida “Hasht behisht” dostonini yozadi. Uning dostonida ham Bahromning sarguzashtlarini tasvirlovchi asosiy qoliplovchi hikoya va yetti malika hikoyasi mavjud. Ushbu hikoyalar birgalikda jamlanib, 8 hikoyani hosil qilganligi uchun Dehlaviy o‘z dostonini “Hasht behisht” deb nomlaydi va malikalar aytib beradigan 7 hikoyatni hind eposidan oladi. Shuningdek, dostonning muqaddimasi yetti bob, yakunlovchi qismi esa bir bobdan iboratligi, umumiy boblar soni sakkiztaligi uchun ham shunday nomlanishga sabab bo‘lgan, degan qarashlar ham mavjud. Dehlaviy o‘z dostonini Bahromning taxtga chiqish voqeasidan boshlab, ungacha bo‘lgan voqealarni tushirib qoldiradi.

Mazkur mavzuda yaratilgan asarlardan yana biri – Ashraf Marog‘iyning “Haft avrang” dostoni bo‘lib, Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”da Ashrafning ushbu dostonini “Sab’ai sayyor” dostoni uchun asos bo‘lgan asar sifatida tilga oladi. Navoiy “Ashraf “Haft paykar”ning yetti hurvashin peshkashimg‘a yarog‘labtur”, deb yozar ekan, Nizomiyning “Haft paykar” dostonidagi yetti go‘zal haqidagi hikoyalarni hal qilishni Ashraf unga topshirganligiga ishora qiladi. Ashraf dostonida Bahromning kanizak bilan ovga chiqishi va umuman uning oshiq bo‘lishi bilan bog‘liq sahna yo‘q. Ashraf oshiq podshoh emas, balki odil podshoh timsolini yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni mazkur mavzuda yaratilgan birinchi turkiy doston bo‘lib, Navoiy o‘ziga qadar badiiy adabiyotda yaratilgan dostonlar va to‘plangan boy ijodiy

tajribadan foydalangan holda mazmun e'tibori va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan salaflari asarlaridan farq qiluvchi yangi doston yaratdi.

Doston 38 bob, 5009 baytdan iborat bo'lib, shundan 11 bobni muqaddima tashkil qiladi.

Doston **muqaddimasi** an'anaviy hamd bilan boshlanadi. Navoiy Allohni olamning yaratuvchisi sifatida madh etar ekan, dostonning mazmuni taqozosi bilan birinchi bobdayoq yetti raqamiga alohida e'tiborni qaratib, *iltizom* (bir so'zni biror parchaning barcha misra yoki baytlarida qo'llab, shu so'zning muhimligini ta'kidlash) badiiy san'ati vositasida falakning yetti qavat ekanligi, yetti gunbazdan tashkil topgani, yer yuzi yetti iqlimga bo'lingani, yetti ko'k, yetti yulduz kabilar haqida fikr yuritadi. Shuningdek, Bahrom va Dilorom so'zlarini asl va majoziy ma'nolarda qo'llab, sayyoralar olami, dunyoning yaratilishi haqida o'z falsafiy qarashlarini bayon qiladi, olamning yaratilishini tasavvufdagi vahdat ul-vujud falsafasi asosida bayon qiladi:

Ishq sensen dog'iyu oshiqsen,
Yana ma'shuqluqqa loyiqsen.
Ayni ma'shuqluqda jilvai zot,
O'zini ko'rgali tilab mir'ot.
Husnunga har dam o'zga surat o'lub,
Ko'zgu takrori ham zarurat o'lub.
Necha husn ichra jilva zohir anga,
Ko'zguluk aylabon mazohir anga...
Sensen-u sendin o'zga xud nima yo'q,
Gar ko'runsa sen o'lg'ung ul nima o'q.

Dostonning **2-bobi** munojot bo'lib, bunda buyuk shoirning Yaratuvchiga murojaati, najot umidi, tavba va iltijolari o'z ifodasini topgan:

Qodiro, ul zaif-u osiymen,
Ki boshimdin ayoq maosiymen.

Navoiy tashbih san'ati vositasida o'zini toat vaqtida xasta chumoliga, isyon vaqtida vahshiy sherga, nafsini bahaybat filga, ko'nglini nimjon pashshaga o'xshatadi:

Toat aylarda mo'ri xasta barin,
Lek isyon mahalli sheri arin.

Nimjon pashsha ko'nglum ayla gumon,
Zo'ri nafsim nechukki pili damon.

Shuningdek, munojotda yaratilayotgan asarning shuhratini olamga yoyishni so'rab qilingan iltijo ham mavjudligini ko'ramiz:

Shuhratin olam ichra paydo qil,
Olam ahlin alarga shaydo qil.

Navbatdagi bob Muhammad (s.a.v.) madhiga bag'ishlanadi. Bob sarlavhasida "Ul shohi risolatpanoh na'tikim" degan jumlalarning qo'llanilishi tasodifiy bo'lmay, yozilajak dostonning bosh qahramoni shoh ekanligiga ishora. Bobda Payg'ambarimizning asli qurayshiy, yerlari abtahi, mazhablari hoshimiy, manzillari Yasrib ekanligi aytilgach, U zotning nuri "Lot" bilan "Uzzo" ismli butlarni shikastlagani, ismlarining harflari yechilganda, ikkita "mim" harfining etaklari osilib, kufr eli motamining zulmatiga, din elining esa ulug'vorligiga aylanishi aytiladi.

To'rtinchi bob Me'roj tuni ta'rifiga bag'ishlanadi. Bunda payg'ambarimiz huzuriga elchi (Jabroyil) kelib, Haqning salomini yetkazganligi va oshiq o'z mahbubining visoliga erishmoq niyatida ekanligini xabar qilgani, payg'ambarimiz yaratuvchining huzuriga borganlarida ummatlarining gunohini kechirishni iltimos qilganlari va barcha istaklari birma-bir qabul qilinganligi haqida so'z boradi.

Beshinch bob so'z ta'rifida. Navoiy bu bobda so'zga yuksak baho berar ekan, shunday yozadi:

So'z kelib avval-u, jahon so'ngra,
Ne jahon, kavn ila makon so'ngra...

Alloh-Alloh, ne so'zdurur bu so'z
Mundin ortuq yana bo'lurmu so'z?

Jism bo'stonig'a shajar so'zdur,
Ruh ashjorig'a samar so'zdur.

Oltinchi bob ulug' salaflar Nizomiy va Dehlaviy madhiga bag'ishlangan. Shoir dastlab badiiy adabiyotdagi ikki adabiy tur, ya'ni nazm va nasr ta'rifiga to'xtalib, ularni bir-biriga qi-

yoslaydi va nazmning nasrdan ustunligini isbotlar ekan, she'riy asarlarda chiroyli, ta'sirli ibora va badiiy san'atlarni ko'plab qo'llash va injuni ipga tergandek misralar tizish mumkin, nasr esa sochib yuborilgan javohirdek go'zallikdan mahrum deb yozadi. Shuningdek, nazm shakllari orasida masnaviyga alohida to'xtalib, uni "vasi' maydon" (keng maydon) deb ataydi:

Masnaviykim, burun dedim oni,
So'zda keldi vasi' maydoni.

Nizomiy haqida so'z yuritar ekan, u bu maydondan to'pni olib chiqib ketdi, ya'ni go'y va chavgon o'yinida yutdi: masnaviy yaratishda birinchi bo'ldi deydi:

Qoyili xush kalomi zebogo'y
Kim, bu maydon elidin eltti go'y...

Ahli nazm afsahul kalomi ul,
"Xamsa"ning nozimi Nizomiy ul.

Xusrav Dehlaviyni Nizomiy beshligiga javob yozgan ijodkor sifatida ta'riflar ekan, uni "hind sehrgari, qaro balo, ofati Xudo" kabi tashbihlar bilan madh qiladi. Shuningdek, Navoiy bu ikki xamsanavisni shatranj o'yinidagi oq ot-u (Nizomiy) qora filga (Dehlaviy), o'zini oddiy piyodaga nisbat beradi:

Cheksa shatranj iki saf oq-u qaro,
Xas ne qilg'ay, chu tushsa arsa aro.

O'zni topqay bisot aro payvast,
Ot ila pil ayog'i ostida past.

Dostonning **7-bobi** "hazrat shayxulislom mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy" madhiga bag'ishlangan. Navoiy uni fazl koni-yu ilm daryosi deb atar ekan, ustozini arab tilidagi bilimdonligi jihatidan "Kofiya" asarining muallifi Ibn Hojibga, tafsir ilmida yuzta Ibn Hojarga, fiqh ilmida Imomi A'zamga o'xshatadi. Jomiyning bu sohalarda yaratgan asarlari, devonlari va dostonlarining nomlarini keltiradi.

Sakkizinchi bob salaflarning nuqsonlari haqida bo'lib, shoir bob sarlavhasida ustozlar asarlariga mulohaza bildirayotgani uchun uzr so'raydi. Navoiy bu bobda doston yaratishdan ol-

din tush ko‘rganini, tushida 7 gumbaz, 7 gumbaz ichida 7 xil rangdagi mutasaddiyni ko‘rganini, shu yerda 7 kun yurib, 7 afsona tinglaganini, bir mo‘ysafid unga avvalgi dostonlardagi qusurlarni tuzatishni so‘raganini, uyqudan uyg‘ongach, muabbir (tush ta’birchisi) aytgan dalillardan so‘ng doston yozishga kirishganini aytadi. Shundan so‘ng o‘zigacha yozilgan Bahrom haqidagi dostonlarni sinchiklab o‘qib chiqqanini ta’kidlab, ustozlarning hurmatini o‘z o‘rniga qo‘ygan holda ularga uchta e’tiroz bildiradi:

Biri bukim yo‘q anda moyayi dard,
Qildilar ishq so‘zidin ani fard.

Shoirning fikricha, oldingi xamsanavislarning birinchi aybi dard-u g‘amga yetarlicha ahamiyat bermasdan, uni ishqdan xoli tasvirlaganliklaridadir.

Yana biri bukim anda ba’zi ish,
Zohiran nomunosabat tushmish:

Buyla tuhmatki, aysh uchun Bahrom
Yasadi yetti qasr surgali kom.

Yetti iqlim shohidin yeti qiz,
Har biri lutf-u husni g‘oyatsiz...

Uyqu komin olurg‘a mastona,
Sho‘xlarg‘a buyurdi afsona...

Anga xud g‘aflat o‘ldi da’b-u sifat,
Uyqusig‘a fasona ne hojat?

Bahromning ayshi uchun yettita qasr qurilishi, yetti malikaning o‘zi mastlikdan g‘aflat holatiga yetgan shohni uxlatish uchun afsonalar aytishlari asossiz, deydi Navoiy. Buning ustiga, agar afsona aytish zarur bo‘lsa, ulardan boshqa qissaxon yo‘qmidi, degan savolni ham qo‘yadi.

Salaflarning uchinchi kamchiliklari dardsiz va nodon kishining sarguzashtlarini ko‘rsatishni maqsad qilib olganliklarida edi:

Bo‘yla nodon uchun yozib avsof,
Anga qilgaylar o‘zlarin vassof.

Bob so‘ngida Navoiy g‘oyat kamtarlik bilan o‘zini salaflarning faqir shogirdi deb atab, men go‘yo pashshadek bo‘lib, fil ishini qilmoqchiman, osmon tomiga narvon, quyoshga shamdon yasamoqchiman, o‘rgimchak ipidan kamand qilib, ajdarhoni tutmoqchiman deydi va Allohdan doston yozishda madad so‘raydi.

To‘qqizinchi bob Sulton Husayn Boyqaro madhiga bag‘ishlangan. Bu bobda Navoiy falakdagi barcha sayyoralarga birma-bir murojaat qilib, ularni o‘z hunarlaridan biroz tinmoqqa chaqiradi, shoh madhida qalam surmoqchiligini aytadi. Shohning ikki tomonlama xon avlodi – ulug‘ otasi Chingizxon, onasi Alanquvo ekanligini aytadi. Navoiy Husayn Boyqaroni cheksiz saxovat, chumoliga ham marhamatli adolat egasi deya ta’riflab, adolat bobida hatto Anushervon ham uning oldida xijolat chekadi deb yozadi:

Anda Nushirvon kerak boqqay,
Boshini erg‘atib ovuch qoqqay.
Chun qilib yod o‘z adolatidin,
Mutag‘ayyir bo‘lub xijolatidin.

Dostonning **o‘ninchi bobi** “Xamsa”ning avvalgi dostonlarida keltirilmagan Bilqisi Soniy – Xadichabegim madhiga bag‘ishlangan. Bu holat tasodifiy bo‘lmay, shoir sulton Husayn Boyqaro saroyida alohida nufuzga ega bo‘lgan malika Xadichabegimni ta’riflash orqali shoh Bahrom yonidagi Diloromga ishora qiladi, bu uning shoh taqdirida muhim o‘rin tutganligiga ishora edi. Navoiy talmih san’ati vositasida Xadichabegimni payg‘ambarlar ayollari Sorai Uzmo (Ibrohim payg‘ambarning rafiqalari) va Xadichai Kubro (Muhammad (s.a.v)ning ayollari)ga o‘xshatadi. Navoiyning yozishicha, uning go‘zalligidan sunbul va nargis gullari tashvishda, nargis uyatda. Shuningdek, Navoiy Xadichabegimning ikki farzandi Muzaffar Mirzo va Shoh G‘arib Mirzo (Shoir G‘aribiy) haqida ham to‘xtalib o‘tib, ularni ikki saodatli yulduz, ularning onasini oy-u quyoshga o‘xshatadi:

Oy-u kun yo‘q agarchi monanding,
Ikki sa’d axtar ikki farzanding.

O‘n birinchi bob Bahrom tarixi haqidadir. Navoiy Bahromni sosoniylar hukmdori Yazdijurdning o‘g‘li bo‘lsa-da, otasidan

farqli ravishda ezgu ishlar bilan shug'ullandi, otasi nimani buzgan bo'lsa, u barchasin qaytadan tuzdi deydi:

Har ne ul buzdi, bu borin tuzdi,
Bu borin tuzdi, har ne ul buzdi.
Kimni o'lturdi ul qilib majruh,
Bu qo'yub marham, o'ldi jismig'a ruh.

Navoiy salaflar bo'yicha shoh Bahrom tarixini qisqacha bayon etib, endi men aytadigan qissa avvalgilaridan farq qiladi deydi va Allohga shukrona keltirib, Bahrom qissasini boshlaydi.

Asosiy voqealar **o'n ikkinchi bob**dan ibtido topadi. Yetti iqlim shohi bo'lgan Bahrom ov qilib yurib, rassom Moniyni uchratib qoladi. Moniy Chinda tengi yo'q bir go'zal Dilorom haqida xabar berib, o'zi chizgan suratni shohga taqdim etadi. Shoh suratni ko'rishi bilan Diloromga oshiq bo'lib qoladi va Chin mamlakatining bir yillik xirojini to'lab, qizni saroyga keltiradi. Shundan keyin Bahrom qizga butunlay mahliyo bo'lib, davlat, mamlakat ishlarini unutadi, kayf-safoga berilib ketadi. Natijada, saltanat-u mamlakatda tartibsizliklar boshlanib, xalq orasida shikoyat va norozilik kuchayadi, shaharlar vayronaga aylanadi:

Ish anga yettikim bu yanglig' shoh,
Mulk ishidin emas edi ogoh.
Boqmayin mulk ila sipoh sori,
Qilmayin mayl dodxoh sori...

Firdavsiy "Shohnoma"sida tasvirlanganidek, ovda kiyik hodisasi yuz beradi. Dilorom Bahromning merganlik mahoratini "mashqning natijasi", – deb aytadi. Shoh mastlikda qizning oyoq-qo'lini o'z sochlari bilan bog'lab, biyobonga tashlab kelishni buyuradi. Ertasiga g'azab va mastlik tarqab, afsuslanganidan keyin, uni o'zi borib izlaydi, lekin topa olmaydi. Hijron azobidan o'zini butunlay yo'qotadi:

Joni ikki balo arosinda,
Mo'r ikki ajdarho arosinda.
Ne o'luk erdi, ne tirik soni,
Bo'lmas erdi tirik demak oni.

Shohning ahvoli og'irlasha boradi. Navoiy bu o'rinda shoh Bahromda endi chin ma'noda oshiqlik sifatlari paydo bo'layot-

ganligiga e'tibor qaratadi, zero, ruhiy iztiroblar va hijron dardi ishqning ortishiga sabab bo'ladi. Iztirobdan o'zini butunlay yo'qotgan Bahromning avval falakka, so'ng xalqi va qo'shiniga murojaat qilib, notavon jonini bu azoblardan qutqarishini so'rab chekkan faryodlari dostonning 16- va 17-boblarida nihoyatda ta'sirli tarzda ifodalanganligini ko'ramiz:

Manga ne qilding, ey sipehr, oxir,
Yo'q emish senda zarra mehr, oxir!
Mehrsizlik ishim aro qilding,
Ro'zgorim yuzin qaro qilding...
Naylayin bu jahonni jonsiz men?
Bal jahon birla jonni onsiz men?
Jonni olg'ilki, to'ymisham, billoh!
Ko'ngul o'lmakka qo'ymisham billoh!..
Yorliq qayda ketti, yoronlar?
Yo'q musulmonliq, ey musulmonlar!
O'lturub g'avrima yeting oxir!
Ming o'lumdin xalos eting oxir!

Saroy ahli tashvishga tushadilar. 400 hakim va tabib to'planib, ikki yil davomida shohni davolaydilar. Shoh biroz o'ziga kelganday bo'ladi. Maslahat bilan yetti iqlim shohi yetti qasr quradilar. Bu yetti qasr yetti shohning mamlakatiga olib boradigan yo'l ustida quriladi. Rassom Moniy uning har birini alohida bir rang bilan bezaydi. Bahrom ularni tomosha qilar ekan, kasali tuzala boshlaydi. Yetti rangdagi yetti qasr bitgach, yetti iqlim shohining yetti qizi Bahrom bilan nikohlanadi. Yetti qasrning har biri yetti sayyoradan birining rangiga mos bo'lib, haftaning shu sayyora homiy hisoblangan kuniga xos edi. Shanba kuni uchun shu kunning homiysi Zuhal (Saturn) sayyorasining rangiga mos qora qasr, yakshanba uchun uning homiysi Quyosh sayyorasining rangiga mos sariq qasr, dushanba uchun dushanba homiysi Oy sayyorasining rangiga mos keluvchi yashil qasr, homiysi Mirrix (Mars) bo'lgan seshanba kuni uchun Mirrix rangini ifodalovchi qizil qasr, chorshanba kuni uchun uning homiysi Utorud (Merkuriy) rangiga mos moviy qasr, payshanba uchun Mushtariy (Yupiter) rangiga mos keluvchi sandal qasr va juma uchun uning homiysi Zuhra (Venera) rangiga mos oq qasr barpo qilingan edi.

Navoiy har bir qasrdagi shoh, malika va musofir hamda

jihozlar tasvirini berishda ranglarning turfa xil nomlanishlaridan ustalik bilan foydalanadi. Hikoyatlarda ham ramziy ma'no mujassam topgan bo'lib, ularning hammasida hikoyat qahramonlari qiyinchiliklar orasida toblanib, oqibatda baxtiyorlikka erishadilar. Bu kelajakda Bahromni ham baxt-tole kutayotganligidan dalolat edi. Darhaqiqat, u yettinchi hikoyatda o'z vafodori Diloromdan xabar topadi. Barcha hikoyatlarda shoh yoki shahzoda ishtirok etadi, dabdabali qasrlar, tilla-javohirlar, qimmatbaho harir liboslar, tantanali bazmlar, serishva, jafokor va ayni paytda vafodor go'zallar tasviri "Ming bir kecha"dagi hikoyatlarni eslatadi. Hikoyatlarda shoh va shahzoda obrazlarining muhim o'rin tutishi ularning aynan shoh (Bahrom) uchun aytilganligiga ishora. Har bir hikoyatdagi voqealar, albatta, safar asnosida ro'y beradi, hikoyat qahramonlari sayr-u sayohat orqali o'z maqsadlariga erishadilar. Bu bilan Navoiy sayyoralarning tinimsiz harakatiga, shu bilan insonning o'z maqsadiga yetish uchun sa'y-ko'shish qilmog'i darkorligiga ishora qiladi. Hikoyatlarda jo'mardlik, vafodorlik, taqvo kabi futuvvat – javonmardlik g'oyalari ham kuylangan bo'lib, bundan muallifning maqsadi mazkur hikoyatlar orqali shoh Bahrom ongiga javonmardlik g'oyalarini singdirib borishdir. Hikoyatlarning mavzu ko'lami keng, ularda hayot masalalaridan tortib, turmush voqea-hodisalarigacha, tabiat va uning bag'ridagi nabotot va hayvonot olamidan tortib, koinot va undagi jismlargacha – barcha-barcha masalalar hamda ularga xos xususiyatlar mujassamlashgan. Mutafakkir shoirning xayoloti Movarounnahr, Xuroson, Ajam, Hindiston, Sarandib, Misr, Rum, Yaman va boshqa o'lkalarga, sarhadsiz sahrolarga, to'lqin urib yotgan dengizlarga, sirli-sinoatli jazirama joylarga parvoz qiladi, turli manzil va makonlar, xilma-xil e'tiqod va ijtimoiy guruhlar hamda kasb-korga ega bo'lgan ko'plab kishilarning timsollarini, ularning shakl-u shamoyillarini yaratadi.

Shanba kuni uchun shu kunning homiysi Zuhal (Saturn) sayyorasining rangiga mos qora qasr – mushkfom qasrda shoh Bahrom hindistonlik sayyohning Farrux va Axiy haqidagi hikoyatini tinglaydi. Unga ko'ra, Hind mamlakati podshosi Jasratxonning aql-u husnda tengsiz o'g'li shahzoda Farrux tushida bir parivashni ko'rib, sevib qoladi. O'sha sanamga yetishish ishqida safarga chiqqan shahzoda Halab shahrida tushida ko'rgan

mahvashni uchratib, hushidan ayriladi va taqdir taqozosi bilan birgina palosga o‘ranib, og‘ir ahvolda qolganida unga saxovati bilan nom qozongan Axiy yordam ko‘rsatadi. U bilan suhbatda bo‘lgan Axiy Farruxning zakovatiga qoyil qoladi va shahzodaning dardiga davo topishni chin dildan xohlaydi. Nihoyat Farruxning ishqi tushgan go‘zal o‘zining ayoli ekanini bilib oladi va jufti halolini taloq qilib, Farruxga nikohlab beradi. Farrux o‘z yurtiga qaytadi va otasi vafot etgani uchun taxtga o‘tiradi. Bu orada Axiyning ishlari orqaga ketadi, tuhmatga uchraydi, o‘z yurtidan qochib, jon saqlab qoladi. Farrux uylangach, Axiyning mardligidan hayratga tushadi, ayolni o‘ziga singil kabi tutadi va do‘stini izlaydi. Axiy esa Hind mulkiga borib qoladi, shu yerda ikki do‘st topishadi, Farrux singlim deya Axiyning o‘z ayolini unga katta to‘y bilan nikohlab beradi. Shu tariqa ular chin do‘st sifatida, bir-biridan yordam va mehrini ayamay, uzoq umr kechiradilar. Mazkur hikoyat yakunida sayyoh shoh Bahromga o‘zining Axiy avlodidan ekanini ma’lum qiladi. Shoh uni siylab, saroyda olib qoladi.

Yakshanba kuni uning homiysi Quyosh sayyorasining rangiga mos sariq qasrda shoh Bahrom rumlik sayyohning Zayd Zahhob haqidagi hikoyatini tinglaydi. Unga ko‘ra, juda o‘tkir bilim egasi bo‘lgan Zayd Zahhob ismli zargar Rum mamlakati podshosining eng yaqin do‘sti edi. U shohning ishonchini qozongan bo‘lib, hukmdor u bilan har bir ishda maslahatlashar edi. Bir kuni Zayd Zahhob shohga oltin taxt yasab berishni taklif qiladi. Shoh ko‘nadi va xazinadan ikki ming botmon oltinni zargarga olib beradi. Zayd Zahhob sirti oltin bilan qoplangan, lekin ichki tomoni kumush bilan to‘ldirilgan taxt yasaydi. Qolgan oltinlarni esa o‘zlashtirib yuboradi. Shoh bundan bexabar bu hashamatli taxtga chiqib, qoyil qoladi. Zayd Zahhobning dushmanlari shohga uning firibini ma’lum qiladilar. Shoh Zayd Zahhobni zindonga tashlaydi. Zayd zindondan qochib, Qustantaniyaga borib, butxonada rohiblik qila boshlaydi. U yerda hammani o‘ziga muxlis qilib, butxonaning oltindan yasalgan barcha buyumlarini shisha va boshqa metallar bilan almashtirib qo‘yadi. Keyin o‘z muxlislariga bu yurtni tark etishini aytganda, hamma uni yig‘lab kuzatadi, Zayd keta turib, ularga bir xat qoldirganligi haqida ma’lum qiladi. “Rohib” ketgach, muxlislari uning xatini topib, ko‘zga surib o‘qisalar, unda Zaydning hamma kirdikorlari

bitilgan bo‘ladi. Butparastlar oh-voh qilib qolaveradilar. Zayd esa Rumga qaytib, bemor bo‘lib qolgan shohni davolaydi, qayta uning ishonchiga kirib, dushmanlarini jazolaydi. Hikoya yakunlangach, sayyoh o‘zining Rum mamlakatidan, Zayd Zahhobning avlodlaridan biri ekanligini aytadi. Shoh Bahrom bu sayyohga ham muruvvat ko‘rsatib, saroyda olib qoladi.

Dushanba kuni shu kun homiysi Oy sayyorasining rangiga mos yashil qasrda shoh Bahrom misrlik sayyohdan Sa’d haqidagi hikoyatni tinglaydi. Unga ko‘ra, misrlik boy xojaning kamolga yetgan o‘g‘li Sa’d otasi kabi musofirlarni mehmon qilishni xush ko‘rar edi. Bir kuni uning dargohiga shahrisabzlik ikki sayyoh kelib, o‘z yurtlaridagi g‘aroyib xususiyatli dayr – butxona haqida aytib beradilar. Mazkur butxonaning o‘ziga xos tomoni shu ediki, kimki u yerda bir kun tunasa, tush ko‘rar va tushi, albatta, o‘ng kelar edi. Sa’d shu butxonaga borish ishqiga tushadi va otasining roziligini olib, safarga otlanadi. Unga shahrisabzlik ikki musofir hamrohlik qiladilar. Dayrga yetib borgan Sa’d tush ko‘radi. Tush ta’sirida xayolga botib o‘tirsa, eshikdan bir mo‘ysafid kirib keladi. Mo‘ysafid unga o‘z taqdirini aytib beradi va Sa’dni ancha vaqtdan buyon kutayotganligini ma’lum qiladi. Sa’d bu donishmand mo‘ysafidning maslahat va ko‘rsatmalari bilan harakat qiladi. Uzoq sarguzashtlarni, sinovlarni boshdan kechirib, gul yuzli go‘zalning vasliga yetishadi. Sayyoh hikoyatni yakunlagach, o‘zining Shahrisabzdan, Sa’d avlodlaridan biri ekanligini ma’lum qiladi. Shoh Bahrom sayyohni Shahrisabzga voliy etib tayinlaydi. Umuman olganda, hikoyatning bosh qahramoni Sa’dning sarguzashtlari Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod bilan bog‘liq voqealarni yodga soladi.

Homiysi Mirrix (Mars) bo‘lgan seshanba kunida Mirrix rangiga mos qizil qasrda shoh Bahrom navbatdagi sayyohdan shoh Juna va uning do‘sti Mas’ud haqidagi qissani tinglaydi. Roviy shohga Dehlida sultonlik qilgan Junaning saxovati cheksiz ekanligini hikoya qilish bilan o‘z qissasini boshlaydi. Sulton Juna shu qadar saxovatli bo‘lib, uning saxiyligi chegara bilmasdi. Bir kuni bir musofir uning mehmoni bo‘lib, bir ko‘zgu sovg‘a qiladi. Ko‘zgu rost gapirgan odamning yuzini oq, yolg‘onchining yuzini qora ko‘rsatar edi. Shoh Juna musofirni siylab, undan mendan ham o‘tadigan saxiy bormi, deya so‘raydi. Yo‘q, deb javob bergan sayyohning yuzi ko‘zguda qora bo‘lib ko‘rinadi.

Shohning qistovidan so‘ng uyalib, “sizdan ham saxiyroq odam bor, bu go‘zal Taroz o‘lkasida yashovchi Mas’uddir”, deydi. Shoh esa hammaga ruxsat berib, payt topib, Tarozga jo‘naydi. U yerda Mas’ud bilan uchrashib, do‘st tutinadi. Mas’udning fasohatidan hayratda qoladi. Mas’ud unga o‘zi uchun eng aziz bo‘lgan nimaiki bo‘lsa, hammasini ikkilanmay hadya qilib yuboradi: sevimli, kuy va qo‘shiqda mohir kanizagini, mayi tugamaydigan jomini, Gulgun laqabli otini. Bundan ta’sirlangan shoh Mas’udni Tarozga hokim qilib tayinlash to‘g‘risida farmon beradi. Taroz hokimi Jaypur esa bundan bezovta bo‘lib, Ballu degan qattol vaziri bilan maslahatlashib, Mas’udni yo‘q qilish rejasini tuzadi. Unga ko‘ra, Jaypur Mas’ud bilan do‘st tutinadi, bir kuni Mas’udni mast qilib, bir chohga tashlatadi. So‘ng qayg‘urgan bo‘lib yig‘laydi, boshqalarni ham ishontiradi va Mas’ud uchun motam ham ochtiradi. Ballu esa Mas’udni azoblay boshlaydi. Jaypurning bir go‘zal qizi bo‘lib, Mas’udga oshiq edi. U Mas’ud haqida bilib qoladi va ikki sodiq kanizi yordamida uni qutqarib, davolaydi va otasining saroyidan Mas’ud bilan qochib ketadi. Jaypur ularga yetolmay dog‘da qoladi. Ikki sevishgan yo‘lda ko‘p qiyinchilik bilan Dehliga borib qoladilar. Mas’ud o‘zi mehmon qilgan Junaning shoh ekanini bilmasdi, shuning uchun pul topish ilinjida shoh saroyiga borganda sehrli jomini, kuy chalib, qo‘shiq aytayotgan kanizini, Gulgun otini ko‘rib, avval hayron bo‘ladi, keyin shohning ham Juna ekanini bilib qoladi. Mas’udni tanigan boshqa mahramlar bu haqda Junaga aytadilar. Do‘stini yo‘qotib, hajr azobida qolgan shoh bundan bag‘oyat shodlanib, do‘stiga mehribonlik ko‘rsatadi, uning yorini ham olib keltiradi, Jaypur va Balluni esa jazolaydi.

Hikoyasini shu tariqa yakunlagan sayyoh shoh Bahromga o‘zini Tarozdan, Mas’ud avlodlaridan biri ekanligini aytadi. Bahrom uni Tarozga hokim qilib tayinlaydi.

Chorshanba kuni uchun uning homiysi Utorud (Merkuriy) rangiga mos moviy qasrda Bahrom navbatdagi jahongashtadan Mehr va Suhayl haqidagi hikoyani tinglaydi. Unga ko‘ra, Adan degan joyda bir orolni o‘z makoniga aylantirib, dengizda qaroqchilik qilishni kasb qilgan Jobir degan yo‘lto‘sar Behishtsaro shahrining go‘zal malikasi sayr qilib chiqqan qayiqni qo‘lga kiritadi. Lekin Mehr shu qadar go‘zal ediki, Jobir uni ko‘rib, hushini yo‘qotardi. Shuning uchun qizga yaqinlasha olmay,

o‘zining baland devorlar bilan o‘ralgan bog‘ida yashashiga ruxsat beradi. Mehrning otasi Navdarshoh Yaman mamlakati shohi No‘monning o‘g‘li Suhaylga qizini bermoqchi edi, shuning uchun shoh No‘mon o‘g‘lini kemaga chiqarib, Navdarning mamlakatiga yuboradi. Suhayl dengizda Jobirga yo‘liqadi va Jobirning hiylasi tufayli unga asir tushadi. Suhaylning jang qilishiga, jasoratiga qoyil qolgan Jobir uni o‘ldirmasdan o‘z bog‘idagi bir chohga tashlatadi. Shoh Navdar va No‘mon o‘zaro xat yozishib, birgalikda Jobirga hujum qilish rejasini tuzadilar. Unga ko‘ra Navdarshoh quruqlikdan, No‘monshoh dengizdan Jobir ustiga qo‘shin tortishga kelishadilar. Quruqlikdan kelayotgan Navdar ovga bo‘lgan ishtiyoqi tufayli askarlaridan ajrab, Jobir qo‘liga asir tushadi. Dengizda esa No‘monshoh ham yengilib, dengiz qaroqchisiga tutqun bo‘ladi.

Mehr visoliga yetisholmagan Jobir esa ichkilikka zo‘r beradi. Mehr bog‘da aylanib yurib, chohda yotgan Suhayl haqida xabar topib, uni qutqaradi. Suhayl Jobir bilan jang qilib, uni yengadi va tutqunlikdagi asirlarni ozod qiladi. Hikoyat so‘ngida barchalari murod-maqsadlariga erishadilar. Hikoya poyon topgach, shoh Bahrom roviyni munosib taqdirlab, uyquga ketadi.

Payshanba kuni shu kun homiysi Mushtariy (Yupiter) rangiga mos sandal qasrda shoh Bahrom Muqbil va Mudbir haqidagi qissani tinglaydi. Unga ko‘ra, Muqbil va Mudbir Boxtar degan joydan Xovarga yo‘l oladilar. Muqbil ibodatli, rostgo‘y bo‘lib, Mudbir kazzob va pastkash edi. Ular qaynoq vodiyi hamimdan birga o‘tadilar. Mudbirning axmoqona gaplaridan Muqbil ko‘p ozor chekib, undan voz kechmoqchi bo‘lsa, Mudbir unga yolvorib, tavba qiladi. Ular shu tariqa safarda davom etadilar. Dengiz sohiliga borib, bir kemaga chiqadilar. Muqbil odatdagidek ibodat qilib, tasbih o‘girib o‘tirsa, Mudbir Xudoga shirk keltirib, valdiray boshlaydi. Shunda to‘fon boshlanib, ularning kemasini g‘arq qiladi. Bu ikkisi taqdir taqozosi bilan qutulib, qirg‘oqqa chiqib, o‘rmonga duch keladilar. Shu yerdagi bir daraxt kovagida buloq bo‘lib, uning suvini ichgan odam mutlaqo ochiqmaligi, suvsamasligi, lekin yolg‘on gapirsa, yorilib o‘lishi haqida yozilgan bo‘ladi. Muqbil va Mudbir bu suvdan to‘yib ichib, yozuvni o‘qisalar, buloq suvida boshi bilan sho‘ng‘ib cho‘milgan odam g‘aroyib voqealarni ko‘rishi aytilgan ekan. Faqat rostgo‘y odam cho‘milishi mumkin, yolg‘onchi esa

kuyar ekan. Natijada, suvga Mudbir tusholmaydi, Muqbil buloqqa sho'ng'ib, bir qasrga duch keladi, u yerda bir mahvashga oshiq bo'lib qoladi... O'ziga kelib, suvdan chiqqanida esa oshiq bo'lgan go'zal ishqida o'zini yo'qotib bexud bo'ladi. Muqbil va Mudbir qirg'oqda bir kemaga duch keladilar. Bu kema sandal daraxti yog'ochi bilan to'la bo'lib, odamlari o'lib yotardilar. Gap shundaki, Xovar mamlakati shohining qizi kasalga chalingan bo'lib, tabiblar unga sandal daraxtidan yasalgan qasrda yashashni tavsiya qilganlari uchun ko'plab savdogarlar shu daraxt yog'ochlarini olib kelayotganlarida, dengizda po'rtanaga tushib, chiqolmay, ochdan o'lgan edilar. Ular qirg'oqqa borganlarida, Xovar shohiga duch keladilar. Mudbir o'zini savdogar, kema egasi, Muqbilni qulim, deb tanishtiradi va shu zahoti yorilib o'ladi. Muqbil esa bor gapni yashirmay aytib beradi. Shoh uni o'ziga kuyov qilishni xohlab, to'y boshlaydi. Malikaning qasriga borgan Muqbil xuddi buloqda ko'rgan holatiga duch keladi: sandal qasr, go'zal qizlar va... o'sha u sevib qolgan mahvash. Keyin ma'lum bo'ladiki, bu go'zal Xovar shohining qizi bo'lib, unga jinlar shohi oshiq bo'lgan ekan. Lekin qizga yetisholmagan jinlar shohi o'sha oroldagi daraxt kovagida qizning suvratini, uning qasrining nusxasini paydo qilib, o'zini ovutib o'tirarkan. Muqbil shunga duch kelgan ekan. Shu tariqa Xovar shohining go'zal qizi va rostgo'y Muqbil vaslga erishadilar. Hikoya yakunlangach, xushnud bo'lgan shoh Bahrom uyquga ketadi.

Juma uchun uning homiysi Zuhra (Venera) rangiga mos oq qasr barpo qilingan edi. Muborak juma (odina) kunida Bahrom oppoq – kofuriy kiyimda oq qasr ichida fil suyagidan yasalgan taxt ustida o'tirib, oq kiyimli go'zal bilan billur jomda oq may ichadi va Chin go'zali qoshida xorazmlik musofirning hikoyasini tinglaydi. Musofir o'zining Xorazmdan ekanligini, soz chalishini, iqlimdagi barcha ustozlar uning shogirdlari ekanligini, kutilmaganda bir chinlik savdogarning go'zal kanizagi Xorazmga kelgach, uning ishi kasodga uchraganini, kanizak huzuriga borib arz qilganini, uning sozini tinglab, tarixi bilan qiziqqanini va kanizak unga boshidan o'tganlarni so'zlab berganini aytadi. Shoh Bahrom aytilganlardan bu kanizak Dilorom ekanligini bilib, Diloromni olib kelish uchun Xorazmga sipohlarini jo'natadi.

Ko'ringanidek, Bahrom birinchi hikoyani o'z ruhiy hola-

ti kabi qora qasrda, qora libosda tinglagan edi, chunki u o‘z Diloromidan ayrilgan, hijron zulmatiga giriftor bo‘lgan edi. Yettinchi hikoyani esa oq qasrda oq libosda tinglaydi va bu hikoyat unga visol umididan darak beradi, qalbiga yorug‘lik olib kiradi. Lekin Bahrom Diloromni topgach, yana ovga, aysh-ishratga beriladi. Bir kuni u saroy ahli, sonsiz qo‘shin va Dilorom bilan katta ovga chiqqanida, yomg‘ir yog‘adi va eski botqoqning og‘zi ochilib, Bahromni Dilorom va butun arkoni davlati bilan birga yer yutadi.

Bahrom bo‘lib o‘tgan voqealardan va tinglagan hikoyatlaridan xulosa chiqarmaydi: oshiqlik va shohlikni bir qiyofada olib bormoqchi bo‘ladi, aslida esa chin oshiqlik toj-u taxt va boylik bilan muvofiq kelmaydi:

Ishq ila shohlig‘ muvofiq emas,
Ishq lofida shoh sodiq emas.

Shu bilan birga shoh Bahromning halokatini tasavvuf ta’limotiga ko‘ra yana shunday izohlash mumkin: butun jonzotlar, tabiat, hayvonot va nabotot olami Allohning zuhuridir. Ularning barchasini Alloh yaratgan ekan, ularga zarar yetkazish Yaratgan irodasiga qarshi borish bilan tengdir. Shu ma’noda shoh Bahromning tabiatga yetkazgan jabr-zulmi uning halokatiga olib keldi.

Shoir Bahrom timsoli munosabati bilan o‘z davridagi ba’zi dolzarb masalalarga ham ishora qilib o‘tgan. Xususan, haqiqiy hukmdor har qanday illatlardan xoli bo‘lishi zarurligi, xalq ahvolidan g‘ofillik va ayish-ishratga berilish oxir-oqibat shohni va mamlakatni tanazzulga olib borishi mumkinligi shoir aytmoqchi bo‘lgan muhim g‘oyalardan biridir.

Shu ma’noda Navoiy dostonning o‘ttizinchi bobida tush ko‘rganligini aytadi. Tushida shoirni shoh Bahrom yo‘qlab, uni nazm mulkida sohibqiron deb atab, yozgan dostoniga yuqori baho beradi va farzandi qatorida sanalmish Sulton Husayn Boyqaroni ogohlantirishini iltimos qiladi hamda unga quyidagi so‘zlarni yetkazishni aytadi:

Ki jahon kimsaga vafo qilmas,
Shohlig‘ tarkiga kiro qilmas.
Shahki, ming yil oning hayotidur,
G‘araz – o‘lganda yaxshi otidur.

"Sab'ai sayyor"da Navoiy dahosining qudrati shoirning o'z tilidan aytilgan o'rinlarda ham namoyon bo'ladi. Jumladan, doston yakuniga yaqinlashganda shoir asarning yozilish muddatiga to'xtalib, shunday deydi:

Bo'ldi chun bu raqam ishi tayyor,
Qo'ydum otini "Sab'ai sayyor".
Tortqonda bu turfa savti maddin,
Bayti besh mingga tortti addin.
Manga ayyomi garchi yod ermas,
Lek to'rt oydin ziyod ermas.
Bo'lsam o'zga umurdin emin,
Bor edi to'rt hafta ham mumkin...
Garchi tarixi erdi sekkiz yuz,
Sekson o'tmish edi yana to'qquz.
Oyi uning jumodiussoniy,
Panjshanba yozildi unvoni.

Doston xafif bahrining *xafifi musaddasi maxbuni mahzuf* (ruknlari va taqti'i: foilotun mafoilun failun – v – – / v – v – / v v –) vaznida yozilgan.

Tayanch tushunchalar

Iltizom
hikoyat
7 raqami talqini
7 sayyora
7 qasr
7 kun
vahdat ul-vujud
xafif bahri
xafifi musaddasi maxbuni mahzuf

Savol va topshiriqlar

1. Tarixiy Bahrom va Bahromning badiiy obrazi o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud deb o'ylaysiz?

2. Dostonda keltirilgan iltizom san'ati dostonning badiiy va g'oyaviy mohiyatini anglatishda qanday o'rin tutgan?

3. Nima sababdan Navoiy aynan "yetti" raqamiga maxsus to'xtalgan?

4. Navoiy salaflari Bahrom timsolini ifodalashda qanday kamchiliklarga yo'l qo'ygan, deb hisoblaydi?

5. Qasrlarning rangi, hafta kunlari va hikoyatlarning Bahrom kayfiyati bilan bog'liqlik jihatini qanday tushundingiz?

6. Bahrom orqali Navoiy Husayn Boyqaroga qanday fikrlarni aytishga harakat qilgan?

7. Dostonda ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda o'z ahamiyatini qay tarzda namoyon qiladi deb o'ylaysiz?

ADABIYOTLAR:

Matn va manbalar:

1. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1992. 10-жилд.

2. Алишер Навоий. Хамса: Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. 7-жилд.

3. Alisher Navoiy. Sab'ai sayyor. – T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2000.

4. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр (насрий баёни билан). Таҳрир қайъати: А.Қаюмов ва бошқ. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

5. Алишер Навоий ижодий ва маънавий меросининг оламшумул аҳамияти (халқаро илмий назарий анжуман материаллари). – Т.: O'zbekiston, 2011.

6. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.

7. Мурталаев В. Алишер Навоий "Сабъаи сайёр" ва Хусрав Деҳлавий "Ҳашт беҳишт" достонларининг қиёсий таҳлили: Филол. фан. ном. дисс. ... – Т., 1991.

8. Муҳиддинов М. Нурли қалблар гулшани. – Т.: Фан, 2007.

9. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979.

10. Хасанов С. Роман о Бахраме. – Т.: Издательство литературы и искусства, 1988.

11. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. 2-жилд (XVасрнинг иккинчи ярми). – Т.: Фан, 1977.

12. Ҳасанов С. Навоийнинг етти туҳфаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991.

"SADDI ISKANDARIY" DOSTONINING G'OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Reja:

1. *"Saddi Iskandariy" dostonining yaratilish tarixi.*
2. *Dostonning tarkibiy tuzilishi.*
3. *Muqaddimalarda dostonning g'oyaviy mazmuni bilan bog'liq qarashlar.*
4. *Iskandar va Doro timsollari.*
5. *Dostonning badiiy xususiyatlari.*

Bu asar dunyodagi buyuk siymolardan biri, uch sohibqironning eng mashhuri – jahongir Iskandarga bag'ishlangan bo'lib, "Xamsa"ning yakunlovchi dostonidir. Sharqda u Iskandar Zulqarnayn ("ikki shoxli" yoki "kun chiqish va kun botish hukmdori") nomi bilan mashhur. Dastlab Iskandar mavzusi Firdavsiyning "Shohnoma" dostonida qalamga olingan. Keyinroq Nizomiy Ganjaviy u haqda maxsus "Iskandarnoma" degan doston yozadi. Xusrav Dehlaviy bu dostonga javob tarzida "Oyinayi Iskandariy" asarini yozgan bo'lsa, Abdurahmon Jomiy o'z dostonini "Xiradnomayi Iskandariy" deb ataydi. Alisher Navoiy esa bu mavzuni turkiy tilda qayta ishlab, o'z asariga "Saddi Iskandariy" ("Iskandar devori") deb nom beradi.

"Saddi Iskandariy" Navoiy "Xamsa"sidagi eng yirik doston bo'lib, **89 bob** va 7215 baytdan tashkil topgan. Dostonning muqaddimasi 14 bobni o'z ichiga oladi.

Birinchi bob an'anaviy hamd – Allohning sifatlari ta'rifiga bag'ishlangan. Navoiy ushbu bobda tasavvuf ta'limoti asosida olamning yaratilish tarixiga to'xtalib o'tadi: 9 qavat osmon, sayyoralar, yulduzlar turkumining har biriga alohida ta'rif beradi. Yaratganning buyukligiga hamd-u sano aytadi. Bularning barchasidan maqsad eng oliy zot – Odamni yaratish ekanligini ta'kidlaydi:

Karam birla xalq aylagay olame,
Bu olamda maqsud anga odame.

G'araz odame anga olam tufayl,
Nekim g'ayri olamdur, ul ham tufayl.

2-bob munojotni o'z ichiga oladi. Navoiy bobda Allohning karami kengligi haqida gapirar ekan, banda zoti mavjud ekan, uning gunoh ishlar qilishi tabiiy degan aqidani ilgari suradi:

Ilohiy, alarkim gunahkor ekin,
Sen o'tkarmagan ne gunah bor ekin?
Chu har mujrimekim, sen etting karam,
So'ralmas hamul jurm ila o'zga ham.
Agar afo birla karam budurur,
Bori xalqning jurmi ma'fudurur.

Munojot so'ngida Navoiy "quyosh yerni o'z nurlari bilan munavvar qilgan chog'da zarralar orasidagi farqni fahmlab bo'lmaganidek, zarralarga karam qilgan chog'ingda Navoiyga ham bir zarra kabi karam aylagil, uning gunohlarini kechirgil" deb iltijo qiladi:

Yorurda quyosh partavidin saro,
Qachon farq o'lur fahm zarrot aro.

Qilur vaqt bu zarralarg'a karam,
Navoiyg'a lutf ayla bir zarra ham.

Sazo andin ar jurmu pindor erur,
Sen ul qilki, sendin sazovor erur.

Xato aylaganni hisob aylama,
Xatosig'a loyiq azob aylama.

Dostonning **3-bobi** "sayyid ul-mursalin" (payg'ambarlar ulug'i) Rasuli akram vasfi (na't)dan iborat. Navoiy dastlabki baytlarda payg'ambarlik nuri haqida gapirar ekan, Odam Ato unga o'g'il, qolganlar nabira qatoridadir deydi va barcha muqaddas kitoblarda uning xususiyatlari bayon qilinganligini ta'kidlaydi. Na'tda ilohiy kitoblarning nomi keltirilganligi va Allohning dini so'nggi ilohiy kitob – Qur'oni karim bilan kamol topganligining ta'kidlanishi bevosita "Xamsa"ning takmiliga ham ishora edi. Navoiy Payg'ambar (s.a.v.)ning barcha payg'ambarlardan ustun

ekanliklari va muhri nubuvvat bilan bog‘liq baytlarni keltirar ekan, dostonning bosh qahramoni Iskandarning dunyo hukmdori bo‘lib, barcha shohlardan ustun ekanligiga ishora qiladi.

Rasuli akramning tug‘ilishi go‘yo ko‘kda yana bir quyoshning porlashiga o‘xshatiladi:

Sening tug‘mog‘ing ravshan aylab jahon,
Aningdekki, tuqqay quyosh nogahon.

An’anaga muvofiq, na’tdan so‘ng me’roj tuni ta’rifi keladi. Navoiy **bu bob**da payg‘ambarimizning birin-ketin 9-osmonga ko‘tarilganlari, sayyoralarning bu holatni ko‘rib, hayratga tushgani, nihoyat Lomakon olamiga sayr qilib, 70 ming qavat parda ko‘tarilib, Janobi Haq bilan diydorlashganlari jarayonini kuchli pafos bilan tasvirlaydi. Ularning yerga qaytishlari ham falak ahli va maloyiklar tomonidan chuqur hayrat bilan kuzatilgani betakror badiiy san’atlar vositasida bayon qilinadi:

Falak ahli ichra alolo tushub,
Malak xaylig‘a sho‘r-u g‘avg‘o tushub.

Maloyik tutub yo‘l boshin javq-javq,
Tamoshosida borcha ko‘nglida shavq.

Jamolig‘a chun ko‘zlarin ochibon,
Tabaq nurlar boshig‘a sochibon.

Anga nur sochmoqqa monand bu
Ki, sochqay kishi Bahri Ummong‘a suv.

Dostonning 5-bobi “Xamsa” takmili (mukammal bitkazish) xususida bo‘lib, Navoiy bu bobda unda “Xamsa” yozish havasi ancha ilgari, Nizomiy va Dehlaviy “Xamsa”larini o‘qib yurgan chog‘laridayoq uyg‘onganligini bayon qilib, ulug‘ ustozlari ruhidan madad so‘raydi:

Bu vodiy aro Xizri rohim bo‘ling,
Qayon yuz ketursam panohim bo‘ling.

Burundin chu ko‘rguzdunguz yorliq,
Base yetti sizdin madadkorliq.

Kichik erkanimdin bo'lub qoshima,
Ulug' muddao soldingiz boshima.

Oltinchi bob so'z ta'rifi, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy madhiga bag'ishlangan. Navoiy bu bobda dastlab so'zga ta'rif berar ekan, uni o'z ahamiyati bilan inson idrok etgan hamma narsadan yuqori deb baholaydi, uni "javhari jon", "obi hayvon" degan sifatlashlar bilan madh qiladi:

Biyikrak maqom ichra aflokdin,
Ne aflokdin, vahmu idrokdin...
Bashar zotida javhari jon ham ul,
O'luk jismida obi hayvon ham ul.

Navoiy so'z xazinasiga ega bo'lganlarning nodiri yaktosi sifatida Ganjada parvarish topgan zot Nizomiy Ganjaviyni tilga olib, kotiblarning homiysi Atorud (Merkuriy) uning xizmatkoridir deydi. Shuningdek, bu bobda Nizomiy beshligiga munosib javob bitgan Xusrav Dehlaviy ham madh etilib, unga so'z jodugari, ilm-u hikmat bilimdoni deb ta'rif beriladi. So'z avjida Nizomiy oy bo'lsa, Dehlaviy Mushtariy kabidir deyiladi:

So'z avjida gar ul mahi xovariy,
Bu gar yo'q mahi xovariy, Mushtariy.

Yettinchi bob Nizomiy va Dehlaviyning nazmdagi izdoshlari Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhiga bag'ishlangan. Navoiy kitobat (harf) san'ati vositasida Jomiyning taxallusiga ishora qilib, uning nazmini "jom" va "may" deb ta'riflaydi va bu nazmdan yer-u ko'k eli mast-u notavon bo'lganini aytadi:

Dema jom ila mayki, nazmi ravon,
Yer-u ko'k elin ayladi notavon.

Shuningdek, Navoiy ushbu bobda Jomiyning g'azal-u masnaviy janrlarida erishgan yutuqlariga ham to'xtalib o'tib, uning "Xamsa" tarkibiga kiruvchi dostonlarini nomma-nom sanab o'tadi:

G'azal dard-u so'zini, vah-vah, ne dey,
Desa masnaviy, Alloh-Alloh, ne dey...

Bo'lub jilvagar tab'i ko'zgusida
Ki, sabt ayladi "Xamsa" o'trusida...

Burun jilva aylab ayon "Tuhfa"si,
Berib olam ahliga jon tuhfasi.

Yana "Subha" jon rishtasin tor etib
Ki, har muhra bir durri shahvor etib.

Chu Yusuf so'zin oshkor aylabon,
Zulayho kibi elni zor aylabon.

Chekib xoma "Layliyu Majnun" sari,
Yuz ofat solib tog'u homun sari.

Bu damkim qilib xomasin durfishon,
Sikandar hadisidin aytur nishon.

Bu ma'lumotlar adabiyotshunoslikdagi Jomiyning "Xamsa" yozgan-yozmaganligi bilan bog'liq bahslarga ham munosib javob bo'la oladi.

Dostonning **8-bobi** – "Inoyat quyoshi vasfi va hidoyat buluti ta'rifida" deb atalib, bu bobda Navoiy kimgaki baxt-u iqbol yor bo'lsa, uning hamma ishida zafar bo'ladi, tikan ushlasa g'uncha, tuproq olsa oltin bo'ladi, bularning barchasi Xudodan, shunday ekan, unga shukrona bildirish kerak degan fikrlarni keltirar ekan, Alloh unga nazm yozish fazilatini taqdim qilgani uchun shukrona aytadi va nazmning turli sinf (janr)larida shuhrat qozonganini faxr bilan bayon qiladi:

G'azal tarzig'a avval aylab sitez,
Jahon ichra soldim ulug' rustaxez.

O'qur vaqti ahli salomat muni
Ko'rub olam ichra qiyomat kuni...

Har asnofi zikri emas sha'nima,
Bilur har kishi boqsa devonima.

Shuningdek, Navoiy nazmdagi bu muvaffaqiyatlariga qanoat qilmay, ulug' muddao "Xamsa" yozish niyatida ekanini, bu yo'lda Nizomiy va Dehlaviylarning nuroniy ruhiga, Jomiyning ilohiy quvvatiga Qur'on tilovat qilib, fotiha o'qiyman deb yozadi:

Alarning ravoni puranvorig'a,
Bu birning dog'i quvvati korig'a.

Qilib fotiha xatmi ixlos ila,
Ko'zum bahrida jismi g'avvos ila.

To'qqizinchi bob Shoh G'oziy Husayn Boyqaro ta'rifiga bag'ishlangan. Navoiy bu bobda mubolag'a san'ati vositasida Muhammad (s.a.v.) payg'ambarlar orasida alohida mavqeda bo'lsa, Sulton Husayn Boyqaro ham barcha shohlar ichida shunday maqomdadir deb yozadi. Shuningdek, uning janggohdagi mahoratini tasvirlar ekan, doston mazmuni bilan bog'liq ravishda dushmanlariga nisbatan saddi Iskandariydek g'ov chekadi, agar jahonda Iskandardek ulug'sifat zotni topish kerak bo'lsa, Sulton Husayndan boshqasi mos kelmaydi deb yozadi.

Dostonning **10-bobi** shahzoda Badiuzzamon Bahodir madhidadir. Navoiy unga donishmandlik bog'ining sarvi, zamona ahlining shahzodasi deb ta'rif berar ekan, zoti ham, sifati ham malak (farishta)ga o'xshashini aytib, *tavze'* (bir tovushni bir necha marta takrorlash) va *takrir* (bir so'zni baytda ikki va undan ortiq holda takrorlash) san'atlari vositasida uning boshdan oyoq yaxshilik va yaxshi xislatlardan iborat ekanligini bayon qiladi:

Yig'ib yaxshiliq birla yaxshi qiliq,
Qiliqdek boshingdin ayoq yaxshiliq.

11–14-boblarda qadimgi fors-eron shohlarining to'rt tabaqasi: peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar va sosoniylar tarixi haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Dostonning asosiy qismi **15-bob**dan boshlanadi. Asosiy qism o'ziga xos kompozitsiyaga ega. Uni shartli ravishda quyidagi 4 qismga bo'lish mumkin:

Iskandar voqeasi – Iskandar hayoti bilan bog'liq biror voqea yoki hodisa bayoni;

nazariy masala – muayyan axloqiy muammoning ta'rifi;

hikoyat – shu axloqiy masalaga doir hikoyat;

hikmat – Arastu va Iskandarning suhbati.

Birinchi qism lirik xotimaga ham ega. Bu soqiy, mug'anniy va Navoiyga murojaat tarzidagi baytlar bo'lib, Nizomiyda

"Iskandarnoma"ning birinchi qismi bo'lmish "Sharafnoma"da soqiyga, ikkinchi qism "Iqbolnoma"da mutribga murojaatni ko'rsak, Dehlaviy dostonida ham soqiy, ham mutribga murojaat mavjudligini kuzatamiz. Navoiyda esa soqiy va mutribdan so'ng, o'z-o'ziga ham murojaat qilinganligi ko'rinadi. Xususan, 15-bobning lirik xotimasi quyidagicha:

Ayog'chi, ber ul javhari g'amzudo,
Dema g'amzudo, jomi motamzudo.

Ki, andin sumursam g'amim qolmasun,
Ato so'gidin motamim qolmasun.

Mug'anniy, qilib soz rudi nishot,
Aning birla tuzgil surudi nishot.

Ki, so'z taxtida bo'ldum oromgir,
Bo'lay tahniyat bazmida jomgir.

Navoiy, jahonning firibin yema,
Xirad ollida naqsh-u zebin dema.

Chu davron ishi bevafoliqdurur,
Fuzun shohlig'din gadoliqdurur.

Asosiy qism voqealari Iskandarning tug'ilishidan boshlanadi. Rum mamlakatining shohi Faylaqus Tangridan farzand so'raydi. Bir kuni ovdan qaytar ekan, shaharga kiraverishdagi vayronada yangi tug'ilgan chaqaloq va o'lik onani uchratadi. Shoh o'likni dafn ettirib, chaqaloqni o'ziga farzand qilib oladi va unga Iskandar deb nom beradi. Shoh Iskandarning ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor beradi va Arastuning otasi Naqumojisni unga ustod qilib tayinlaydi. Iskandar toj-taxt va boylikka emas, balki ilm-fan va olijanob fazilatlarga muhabbat ruhida ulg'ayadi.

Doston bilan tanishish jarayonida Navoiy shunchaki Iskandar tarixini yozishni emas, balki u bilan bog'liq voqealarning ma'nosini ochishni maqsad qilganligini ko'ramiz. Buni yuqorida keltirganimiz muayyan axloqiy masalaning ta'rifi, hikoyatlar, savol-javob va lirik xotimalarning o'zaro almashinib kelishidan ham sezish mumkin.

Faylaqus vafot etgach, valiahd sifatida taxtni Iskandar egallashi kerak edi, lekin u taxtga chiqishga oshiqmaydi. Xalq uning shoh bo'lishini qattiq talab qilib turib olgandan keyingina Arastu unga toj kiygizadi. Iskandar xalq oldiga shart qo'yib, kimning arz-dodi bo'lsa, shohni o'zi bilan teng ko'rib, ahvolini aytishini so'raydi:

Ki, berdi manga dodgarlik Iloh,
Bor ersa xaloyiq aro dodxoh,
Kelib ollima arzi hol aylasun,
O'z ahvolini qiylu qol aylasun!

Iskandar taxtga o'tirgach, adolat bilan mamlakatni boshqara boshlaydi. Xalqni ikki yillik xirojdan ozod etadi. Dostonda shu o'rinda adolatning ta'rifi beriladi. Bu ta'rif hadislar vositasida tushuntiriladi. Masalan, bir soatlik adolat farishtalarning, dunyodagi barcha insonlarning toatidan afzal, degan hadis keltiriladi. So'ng shoh Mas'udning bir kuni tushida otasi Mahmudni nurga g'arq bo'lgan holda jannat bog'larida yurganini ko'rgani va otasidan bu holga qanday sazovor bo'lganini so'raganida, otasi Hindistonni egallash vaqtida elga qilgan birgina adolati tufayli Alloh unga shunday martabani loyiq ko'rgani haqida so'zlab berganiga doir hikoyat ilova qilinadi. "Hikmat" bobida esa Iskandarning Arastu bilan adolat haqidagi savol-javobi keltiriladi. Arastuning fikricha, shoh har bir ishda adolat mezoni asosida ish tutsa, uning mulk-u mamlakati obod, xalqi badavlat bo'ladi. Xalq badavlat bo'lsa, askarlarning maoshi ham ortadi va qo'shin hamisha g'olib bo'ladi.

Yigirma uchinchi bobdan dostonga Doro obrazi kirib keladi. Navoiy Doroga tavsif berar ekan, uning Kayoniylar sulolasi vakili ekanligini, jahon podshosi sifatida Kayxisra-vu Kayqubodlarning avlodi ekanligini, uning davlatni boshqarishida Luhrosbning tartiblari, qo'shinida Gushtosbning qonunlari ustuvor ekanligini bayon qiladi. Doro va Iskandar orasidagi xiroj mojarosi bu ikki shoh o'rtasida ixtilofning paydo bo'lishiga olib kelganligini afsus bilan ta'kidlaydi.

Yigirma to'rtinchi bobda kishilik jamiyatida ko'p uchraydigan hodisa – ziddiyat va ixtilof haqida mulohaza yuritarkan, mutafakkir shoir bu hodisa inson bolasiga azaldan xos ekanligi, muayyan tabaqa, jamiyat yo qatlamga tegishli emas, balki

barcha uchun umumiy bo‘lgan muammo ekanligini qayd etadi. Uningcha, bir kasbda mahorat hosil qilishning o‘zi kishiga kasbdoshlari orasida ziddiyat va qarama-qarshilikni keltirib chiqarish uchun yetarli asos bo‘ladi. Masalan, biror kasb yo hunar ahli o‘z sohasida katta malaka hosil qilib, el orasida nufuzi oshaversa, kasbdoshlari bunga g‘ashlanib qolaveradilar. Podshoh bilan qaysi amaldor o‘rtasida yaqinlik paydo qilsa, boshqa amaldorlar unga dushmanlik qila boshlaydilar. Hatto gadoy va tilanchilar ham o‘z hollariga yarasha o‘zaro nizo va ixtiloflarni keltirib chiqaradilar. Ammo bularning eng qo‘rqinchli va ashaddiysi – ikki podshoh o‘rtasidagi adovat va kelishmovchilikdir. Chunki podshohlarning adovati albatta urush va xunrezlikka olib keladiki, bu urushlar minglab begunoh odamlarning qoni to‘kilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli, deydi Navoiy, o‘zaro do‘st tutingan ikki darvesh adovatda bo‘lgan ikki podshohdan afzalroqdir:

Rafiq ikki darvesh beishtiboh –
Erur yaxshiroqkim, aduv ikki shoh!

Fikrining tasdig‘i sifatida keyingi bobda Chingizxon va Muhammad Xorazmshoh zamonida bo‘lib o‘tgan bir voqea keltiriladi: Chingizxon va Xorazmshoh oralariga nifoq tushgach, mo‘g‘ul lashkari barcha shaharlarda ketma-ket g‘alaba qozonib, Xorazmshohni ta’qib qila boshlaydi. Navbatdagi – Shom (hozirgi Suriya) mamlakatidagi jangda ham Chingizxon qattiq urushdan keyin g‘alaba qozongach, aholini qatliom qilishga buyuradi. Ana shu jarayonda ikki do‘st mo‘g‘ul qilichi damiga duchor bo‘ladilar. Do‘stlar bir-birining ustiga o‘zlarini tashlab, “oldin meni qatl eting, do‘stimning halok bo‘lishini ko‘rishga toqatim yo‘q”, deb yalinadilar. Bu paytda Chingizxon uxlab yotgan bo‘ladi. Tushida bu ikki do‘stning ishi ayon bo‘lib, birov unga: “Sen Xorazmshoh bilan dushman bo‘lgansan, oddiy xalqning gunohi nima?!” deya tanbeh beradi. Chingizxon uyg‘ongach, omonlik e’lon qiladi. Ikki do‘st sharofati bilan qatliom to‘xtatiladi. Ushbu hikoyat o‘z g‘oyaviy mazmuni bilan “Hayrat ul-abror”dagi “Ikki vafoli yor” hikoyatini yodga soladi.

Urush boshlanadi. Ikki tomondan katta qo‘shin saf tortadi. Dastlab bir vaqtlar Doroga xizmat qilgan, ammo xizmatiga yarasha qadr topmaganidan xafa bo‘lib, Iskandar tomonga

o‘tgan Boriq Barbariy maydonga chiqadi va Harron, Shayda kabi to‘qqiz pahlavon ustidan g‘alaba qozonadi. Oxiri Mag‘ribiy degan bir pahlavon chiqib, Boriqni asir oladi, ammo Doroning oldiga keltirmasdan, noma’lum tomonga ketib qoladi.

Ikkinchi kuni Doroning noiblari xiyonat qilib, jang payti Doroni pichoqlaydilar. Iskandar Doroni yarador holda topadi. Doro o‘limi oldidan uch narsa – xiyonatkorlarni jazolash, kayoniylar – o‘zining qarindosh-urug‘lariga ozor bermaslik va qizi Ravshanakka uylanishni Iskandarga vasiyat qiladi. Iskandar Doroning barcha vasiyatlarini ortig‘i bilan ado etadi, Doroni izzat-ikrom bilan dafn qiladi. Shu o‘rinda Iskandarning jahongir shoh bo‘lish bilan birga cheksiz mehr sohibi ekanligi ham g‘oyat mohirlik bilan tasvirlanadi.

Ushbu voqea bayonidan so‘ng **28-bob**da Navoiy davlatchilik asoslari haqida o‘z fikrlarini bayon etishga kirishadi. Bobda berilishicha, olamning barcha ishlarida muayyan tartib, nizom va uyg‘unlik mavjud bo‘lganidek, davlatchilikda ham bexato va aniq ishlaydigan tizim bo‘lishi lozim. Mamlakatdagi barqarorlik va rivojlanishni ta’minlovchi asosiy masala – har bir odamni o‘z layoqati va vazifasiga qarab tayinlash, har bir davlat xodimining o‘z ishi bilan shug‘ullanishi va boshqalar ishiga daxl qilmasligidir. Navoiy bunga ajoyib bir hayotiy misol keltiradi:

Eshik it yeridur, gar o‘lsun bo‘ri,
Mushukka maqom o‘ldi uyning to‘ri.

Gar ul dasht saydini aylar figor,
Valekin bu uy saydin aylar shikor.

Itning vazifasi uyni tashqi dushmanlardan himoya qilish bo‘lgani uchun eshik ortida, mushuk esa, sichqon va boshqa xonaki zararkunandalardan tozalashi uchun uyning to‘rini makon tutadi. Bularning har biri o‘z o‘rnida kerakli bo‘lgani kabi, davlatchilikdagi turli muammolarning yechimi uchun layoqati va lavozimiga qarab xodim tanlash hamda ularga shunga munosib maqom va martaba berish lozim bo‘ladi. Xizmatlarni rag‘batlantirish va qadrlashda ham alohida yondashuv talab qilinadi: bo‘ri agar qo‘zi bilan boqilsa, cho‘ponning dushmaniga aylanadi, sher agar molning qorni bilan oziqlansa, paytini topib egasining qornini yorishi hech gap emas. Shuning uchun

podshohdan talab qilinadigan eng asosiy masala – odamlarning qobiliyatini to‘g‘ri aniqlash va shunga muvofiq ularga amal yo martaba berish hisoblanadi. Iste’dodlining qadriga yetmaslik yo iste’dodsiz odamni ulug‘lash – gavharning qadriga yetmaslik va eshakmunchoqni e’zozlash kabi bir xil ziyon keltiruvchi ishlardan hisoblanadi.

Navoiy shu o‘rinda tarixda yuzlab marotaba o‘z isbotini topgan ana shunday hayotiy haqiqatlarga amal qilmagan Sulton Abu Said Mirzoning fojiasini ibrat qilib ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, Amir Temur Ko‘ragondan keyin Xuroson va Movarounnahr mintaqalarini yagona davlat bayrog‘i ostiga birlashtira olgan bu temuriy sulton o‘z qo‘shini va raiyatiga yetarlicha muruvvat ko‘rsatmagani sababli Doro singari dushman qo‘liga asir tushdi va qatl etildi. Shu sababli, hukmdor hamisha xalq bilan birga hamnafas bo‘lishi shart. Aks holda:

Sipahdin judo shoh erur bir kishi,
Ne bo‘lg‘usidur bir kishining ishi.

Iskandar Eronni zabt etgach, Doro o‘rnini egallagan jahon podshosi sifatida ko‘plab o‘lka podsholariga xat yozib, mamlakatda adolat va osoyishtalik o‘rnatmoqchi ekanligini va shunga mos holda o‘z ixtiyorlari bilan unga taslim bo‘lishlarini so‘raydi. Aksariyat podsholar unga bo‘yin egib keladilar. Faqat Kashmir, Hind va Chin xoqonlarigina unga bo‘ysunishni istamaydilar. Kashmir hukmdori Mallu ibn Mabok ochiqdan-ochiq Iskandarga bo‘ysunmasligini izhor etgan bo‘lsa, Hind hukmdori mamlakati belgilangan xirojni vaqtincha to‘lay olmasligini ma’lum qiladi. Chin Xoqoni esa, uning mamlakati Doro zamonida ham Doroga tobe mamlakat emas, balki to‘laqonli mustaqil davlat bo‘lganligi, agar Iskandar xohlasa, o‘zaro teng sharoitda hamkorlik qilishi mumkinligini bildiradi.

Iskandar bu javoblarni olgach, ustozi Arastu maslahati bilan jahongirlik yurishlarini boshlaydi. Dastlab Balx, Moxon, Marv, Zobul, Isfahon shaharlarini oldingidan ham obod va ma’mur etib, Xurosonda Hirot, Movarounnahrda esa Samarqand shaharlarini bunyod etadi. So‘ng Kashmirga Malluga qarshi qo‘shin tortadi:

Sikandar otodi Samarqand ani,
Samarqandi firdavsmonand ani.

Ani chun tugatti qilib ehtimom,
Ravon qildi Kashmir sori xirom.

Iskandar sehrgarlari bilan mashhur bo'lgan Kashmir shahrini tilsimlangan holda topib, tilsimni hikmat ahli yordamida juda osonlik bilan yechadi. Mallu bu ahvolni ko'rib, mamlakatni tashlab qochadi. Iskandar Kashmir ahliga omonlik berib, bir muddat bu yerda yashaydi. Kashmirda qo'lga kiritgan boyliklardan biri – Jamshid zamonidan qolgan sehrli jom edi. Jomning davrida yozilishicha, Jamshid o'z zamonida ikkita jom yasatgan ekan:

Birisin dedi: Jomi Getinamoy,
Birisin dedi: Jomi Ishratfizoy.

Iskandar qo'lga kiritgan jom Jomi Ishratfizoy (shodlik ko'paytiruvchi jom) bo'lib, uning xosiyati shunda ediki, qancha ichilsa ham, sharobi tugamasdan, limmo-lim turardi va egri tutilganda ham undan bir tomchi to'kilmasdi.

Mallu ibn Mabok mag'lub va yarador holda Iskandar oldiga taslim bo'lib keladi hamda undan kechirim so'raydi. Iskandar uzrini qabul qiladi. Ko'p o'tmay, Mallu vafot etadi. Iskandar uning vasiyatiga binoan qizi Mehrnozga uylanadi, o'g'li Feruzni Kashmirga podsho qiladi.

Kashmirdan so'ng Iskandar Hindiston tomonga yurish qiladi. Hind Royi Iskandarning Kashmirda ko'rsatgan shijoat va hikmatini eshitib, had-hisobsiz sovg'a-salomlar bilan bir guruh donishmandlarni elchi qilib jo'natadi. Iskandar hindistonlik donishmandlarni katta izzat-ikrom bilan qabul qilib, taxtda emas, tuproqda ular bilan birga o'tirib, muzokara olib boradi. Ular Iskandarning aql-u zakovati va bag'rikengligiga tan berib, Hind Royining gunohini so'raydilar. Iskandar Hindistonning ikki yillik xirojidan kechib, Royning ham gunohidan o'tadi.

"Qissadan hissa" tariqida keltirilgan keyingi – **44-bob**da Navoiy kechirimlilik fazilati haqida so'z yuritadi. Bobda berilishicha, kechirimli va saxovatpesha bo'lgan kishi hukmdorlar orasida alohida ehtiromga sazovordir:

Birov shahlar ichra erur muhtaram,
Ki bo'lg'ay aning da'bi afv-u karam.
Ani bil javonmard yoxud karim,
Ki bedodidin bo'lmag'ay elga bim.

Navoiy talqiniga ko‘ra, agar gunohkor o‘z aybiga iqror bo‘lib kechirim so‘rasa, gunohidan o‘tish yoki yengilroq jazo muqarrar qilish javonmardlik belgisidir. Kechirimlilik shohlarning asosiy xislati bo‘lmog‘i lozim. Hattoki qatl hukmi vojib bo‘lgan joyda ham hukmni zindonga almashtirish to‘g‘riroq bo‘ladi. Chunki har bir mahkumning onasi bor. Ona farzandini bilib-bilmay jinoyat qilib, kimningdir g‘azabiga duch kelishi va qatl etilishi uchun tarbiya bermaydi:

Ani ko‘rkim, ul zori mazlum ona,
Necha ko‘rdi hifzida ranj-u ano.
Ul uyg‘onmasin deb yebon qayg‘usin,
Harom ayladi kechalar uyqusin.

Iskandar qishni Hindiston o‘rmonlarida ovchilik va aysh-ishrat bilan o‘tkazib, ko‘klam faslida Chin va Xitoy tomonga yurish qiladi. Chin xoqoni katta qo‘shin bilan Iskandar istiqboliga chiqadi, ammo unga bas kelolmasligini anglab, o‘zi elchi libosida Iskandar huzuriga borib, tinchlik bitimi tuzishga erishadi. Chin xoqoni ham Iskandar sharafiga katta ziyofat beradi. Ziyofat chog‘ida xoqon oliymaqom mehmoniga ikkita ajoyib narsa sovg‘a qiladi. Birinchisi – ikki tomoni ham “oy-u kundek yorug‘” bo‘lib, bir tomoni rostni yolg‘ondan ajrim qiluvchi, ikkinchi tomoni mast odamning haqiqiy qiyofasini ko‘rsatuvchi Chin ko‘zgusi, ikkinchisi – ham husn-u jamolda, ham fazl-u kamolda benazir Chin go‘zali edi. Iskandarga bu sovg‘alar juda ma’qul tushib, hakimlariga ushbu sovg‘aning evaziga biror ixtiro qilishlarini topshiradi. To‘rt yuz hakim ikki guruhga bo‘linib, ishni boshlaydilar. Aflotun va Suqrot boshchiligidagi guruh osmon ahvolini ko‘rsatuvchi usturlobni, Arastu va Buqrot rahbarlik qilgan guruh esa, olam ahvolini ko‘rsatuvchi Iskandar ko‘zgusini yaratadilar:

Ul o‘ldi suturlobi maxfisamo,
Bu bir o‘ldi mir’oti getinamo.

Chin xoqoni bu kashfiyotlarni ko‘rib, Iskandar va uning saroyidagi hakimlarga qoyil qoladi. Iskandar Chinda bir muddat turib keyin Mag‘rib tomonga yurishni boshlaydi. Mag‘rib tomonda ko‘kko‘z, soqoli sariq, rangpar yuzli vahshiy qabilalar bilan urushadi. Vahshiylar xaylidan bir pahlavon chiqib,

Iskandar qo'shinidan o'n uch pahlavonni asir oladi. Iskandar bu holatdan muztar bo'lib turgan chog'da Chin lo'bati maydonga kirib, dushmanni osonlikcha mag'lub etadi va Iskandar oldiga asir etib keltiradi. Iskandar bundan xursand bo'lib, Chin lo'batini o'zining xos haramiga oladi. Tutqun pahlavonni esa, iltimosiga ko'ra ozod etadi. Ozod bo'lgan pahlavon borib, o'zi asirga tushirgan o'n uch pahlavon bilan birga Doro bilan bo'lgan urushda asir tushgan Boriq Barbariyni ozod qilib, Iskandar xizmatiga keladi.

Iskandar Mag'rib diyorini fath etib, o'z vatani – Rum tomonga ot surganda, yo'lda Qirvon diyori ahli unga Ya'juj va Ma'juj zulmidan panoh istab murojaat qiladilar. Iskandar bu yerda olti oy davomida ikki tog' orasida mashhur Saddi Iskandariyni bunyod etib, Ya'juj va Ma'juj balosini daf qiladi:

Bo'lub olame buyla san'atnamoy,
Kecha kunduz ish qildilar olti oy.

Ki necha ming ustod-u san'atgari
Tamom ettilar Saddi Iskandariy.

Jahonning quruqlik qismini to'la fath etgan Iskandar Rumga qaytib, bir muddat o'z vatanida maskan tutadi. Endi unda suv sayri ishtiyoqi g'olib kelib, uch ming kema bilan dengizga chiqadi. O'n ikki yil davomida Suqrot rahnamoligida yetti dengiz – Rum, Mag'rib, Zang, Hind, Ummon, Qulzum, Chin, Mashriq dengizlari hamda bu dengizlar ichidagi o'n ikki mingta orolni kezib chiqadi. Iskandarning keyingi dengiz safari butun olamni o'rab turuvchi Muhit (okean) uzra bo'lib, bu safarda xalq uning valiylik va payg'ambarligidan bahramand bo'ladi:

Berib xaylig'a mujda ul holdin,
Bo'lub barcha muqbil ul iqboldin.

Bilib xalq shohi muzaffar oni,
Hakim-u vali-yu payambar oni.

Iskandar safardan qaytishda xastalanadi va tutingan onasi Bonuga o'g'illikni o'rniga qo'ya olmaganidan uzr so'rab, maktub yozadi. Mazkur maktub butun dunyoni zabt etsa-da, oxir-oqibat u dunyoga hech bir narsasiz, ochiq qo'l bilan ketayotgan, bu

olamga shoh bo‘lgandan ko‘ra onadek buyuk zotga qullik qilish sharafi yuksakroq ekanligini anglagan ulug‘ jahongirning iqrornomasi edi:

Boshimg‘a tushub harza andeshaye,
Dedim olam ochmoq erur peshaye.

Ne qilg‘on xayolim bori xom emish,
Havas jomi ko‘nglumga oshom emish.

Kerak erdi, to kirdi mag‘zimg‘a hush,
Xirad toki soldi dimog‘img‘a jo‘sh.

Demon qilsam erdi o‘g‘ulluq sanga,
Qabul aylasam erdi qulluq sanga.

Sanga aylabon xoki dargohliq,
Aning otin aytsam edi shohliq.

Asosiy qismning so‘nggi bobida yetti faylasuf hakim: Aflotun, Suqrot, Balinos, Buqrot, Hurmus, Farfinyus va Arastu Iskandarning onasiga ta’ziya bildirgani keladilar va shu bilan Iskandar voqeasi poyoniga yetadi.

Doston boshqa dostonlardan farq qilib, kattagina xotima bilan yakunlanadi. Xotima 6 bobdan iborat bo‘lib, “Saddi Iskandariy” dostonini tugallash bilan muayyan ma’noda “Xamsa”ga ham yakun yasaydi. Xotima quyidagi boblarni o‘z ichiga oladi:

84-bob – Husayn Boyqaro va uning farzandlari ta’rifi
85-bob – Hakimlar (donishmandlar) ta’rifi
86-bob – Gadoning shohga nasihati xususida
87-bob – So‘z gavhari xususida
88-bob – Darveshaliga nasihat
89-bob – Xulosa.

Dostonning so‘nggi bobida Navoiy unga baxt-davlat rahnamolik qilib, nihoyat “Xamsa”ni yakunlaganini yozar ekan, “Hayrat ul-abror” dostoni yozilishidan boshlab “Saddi Iskandariy” yakunlanguncha bo‘lgan jarayonni birma-bir eslab o‘tadi. Navoiy tong otib kech kirguncha el-yurt tashvishi bilan band bo‘lgani holda salaflari uzoq muddat yozgan “Xamsa”ni

juda qisqa muddatda – ikki yilda yakunlaganini, agar bevosita faqat yozish uchun ketgan vaqt hisoblab chiqilsa, olti oyga ham bormasligini faxriya tarzida bayon qiladi:

Sangakim yo'q emgakda g'oyat padid,
Ulus mehnatida nihoyat padid.
Qilib tongdin oqshomg'acha qiylu qol,
Yuzungga yetib har nafas yuz malol.
O'zung tinmayin xalq g'avg'osidin,
Qulog'ing xaloyiq alolosidin.
Bu mehnatlar ichra chekib so'zga til,
Zamondin kamo besh o'tub iki yil.
Chekib xoma bu noma itmomig'a,
Yetturgaysen og'ozin anjomig'a
Ki, aqli muhosib shitob aylasa,
Deyilgan zamonin hisob aylasa.
Yig'ishtursa bo'lmas bori olti oy
Ki, bo'ldung bu ra'nog'a suratnamoy.

Navoiy o'z beshligi kitobxonlar tomonidan qanday baholanishini bilish uchun ustozi Abdurahmon Jomiyning huzuriga boradi va unga "Xamsa"ni taqdim etadi. Jomiy asarni birma-bir varaqlab, shoirga lutf bilan munosabatda bo'ladi va bir qo'lini shoirning yelkasiga qo'yadi. Ustozi ham piri Jomiyning qo'li yelkasiga tekkach, shoir bir lahza hushini yo'qotadi va taxayyul olamiga g'arq bo'ladi: Navoiy ajoyib bir gulistonda sayr qilib yurib, bir guruh suhbatdoshlarni ko'rib qoladi. Ulardan biri shoir tomonga kelib, o'zini fors-tojik shoiri Hasan Dehlaviy deb tanishtiradi va davradagilar shoirni ko'rmoqchi ekanliklarini aytadi. Navoiy hayajon bilan davra ahliga yaqinlashadi. Hasan Dehlaviy davradagilarni Navoiyga tanishtiradi. O'rtada Nizomiy Ganjaviy, uning ikki yonida Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy, ularning atrofida o'tirganlar esa Firdavsiy, Unsuriy, Sa'diy, Sanoiy, Hoqoniy va Anvariylar edi:

"... O'rtodag'i piri farruxjamol
Ki, vasfida keldi xirad nutqi lol,
Erur hazrati Shayx, ogoh bo'l!
Niyoz aylabon xoki dargoh bo'l.
O'ng ilgi sori anga payravdurur,
Jahon ofati – Mir Xusravdurur.

Yana bir yon ustodu piring sening,
Raqamxoni lavhi zamiring sening
Chu Sa'di-yu, Firdavsi-yu, Unsuriy,
Sanoi-yu, Xoqoni-yu, Anvariy"...

Davradagilar Navoiyni ko'rishlari bilan o'rinlaridan turadilar. Uning bir qo'lidan Xusrav Dehlaviy, ikkinchi qo'lidan Abdurahmon Jomiy tutib, Nizomiyning yoniga o'tqizadilar. Navoiy Nizomiyga ta'zim bajo keltirib, uning yoniga o'tiradi. Nizomiy Navoiyning "Xamsa"siga yuksak baho beradi va Jomiydan shoir haqqiga duo o'qishini so'raydi...

Shu onda Navoiy taxayyul olamidan qaytib qarasa, Jomiy qo'lini uning yelkasidan olgan va unga qarab turgan ekan. Jomiy Navoiyni ulug' muddaoga yetishganligi bilan qutlab, Tangriga shukrona keltirishga chorlaydi. Nihoyat Allohdan madad so'rab, ilohiy jumla bilan ibtido topgan "Xamsa" buyuk Yaratganga shukronalik bilan yakun topadi:

Navoiy, qilib Tengri koming ravo,
Sanga ro'zi etti ajoyib navo.
Uzot Tengri shukri navosig'a til,
Navo ortuq istar esang, shukr qil!

Professor Najmiddin Komilov talqiniga ko'ra, "Saddi Iskandariy" dostonining markaziga qo'yilgan bosh g'oya bu – ibrat va ogohlikdir. Navoiy talqinidagi, Iskandar aslida shahzoda emas, balki vayronadan topilgan chaqaloq – onasi uni tug'ib, so'ng vafot etgan. Farzandsiz Faylaqus go'dakni topib, uni o'ziga farzand bilib, parvarish etadi. Tabiatan darveshlar sulukiga ishtiyoqmand, saltanat savdosidan bezor Iskandar zimmasiga jahongirlik missiyasi tushadi. Jahongirlik va fotihlik da'vosi bilan tarix sahnasiga chiqqan boshqa hukmdorlardan farqli o'laroq, Navoiy xalq orzu-istagi va Haq roziligi asosida dunyoda adolatli hukmdorlikni o'rnatish, bilim va aql-zakovat, xayr-u saxovat, mehr-u shafqat tantanasiga erishishni o'zining burchi deb bilgan Iskandar obrazini yaratdi. Shu sababli, bu dostonning oxiri qayg'uli tugasa-da, Navoiy voqealar bayoni davomida inson va jamiyat, shoh va darvesh, hayot va o'lim, ustoz va shogird, yaxshilik va yovuzlik, hikmat va hukumat kabi turli ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-falsafiy masalalar ustida mushohada

yuritadi. Ana shu xulosalar, qissadan chiqarilgan hissalar tufayli Navoiy tasvirlagan Iskandar jahongir podshohdan ko'ra, xaloskor, adolat o'rnatuvchi, tabiati hukmdordan ko'ra darveshlikka ko'proq moyil, ilm-hikmatga maxzan bo'lgan ma'rifatli shaxs sifatida ko'ngilga o'rnashadi.

"Saddi Iskandariy" dostoni "Xamsa"ning oxirgi dostoni bo'lganligi sababli, muayyan darajada oldingi dostonlardagi g'oyalarni umumlashtiruvchi xulosaviy xarakterga ega. Bu dostondagi adolat, afv, to'g'rilik, karam va saxovat, yigitlik, falakning jafokorligi haqidagi fikrlar "Hayrat ul-abror"ning shu mavzularga bag'ishlangan maqolatlardagi fikrlarning davomi bo'lsa, oldingi dostonlarning markaziy qahramonlari bo'lgan Majnun (33- va 66-boblar), Bahrom Go'r (54-bob) va Farhod (68-bob)lar hikmatli boblardan so'ng asosiy g'oyaning isboti sifatida keltirilgan hikoyatlarda ishtirok etadilar. Bu esa, Navoiyning "Xamsa"siga beshta mustaqil doston majmui emas, balki murakkab arxitektonikaga ega yaxlit bir asar sifatida qarash va o'rganishni taqozo etadi.

"Saddi Iskandariy" mutaqorib bahrining *mutaqoribi musammani mahzuf* (ruknlari va taqti'i: fauvlun fauvlun fauvlun faal V – – / V – – / V – – / V –) vaznida yozilgan.

Tayanch tushunchalar

doston kompozitsiyasi
saqiy
mug'anniy
sadd
ya'juj-ma'jujlar
hikmat
lirik xotima
"Xamsa" takmili
mutaqoribi musammani mahzuf

Savol va topshiriqlar

1. Tarixiy Iskandar va badiiy timsol sifatida olingan Iskandar faoliyatini qiyoslashga harakat qiling.

2. Navoiy Iskandar obrazi orqali mukammal shoh qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak deb hisoblaydi?

3. Dostonning asosiy qismidagi kompozitsiya qanday bo'limlarni o'z ichiga oladi?

4. Iskandar va Doro o'rtasidagi ziddiyat sabablari nimada deb o'ylaysiz?

5. Dastavval Iskandarga bo'ysunmagan hukmdorlar keyinroq o'z ixtiyori bilan unga xayrixoh bo'lib qolganlari sababi haqida to'xtaling.

6. "Saddi Iskandariy" dostoni umumiy "Xamsa"ning yakuni sifatida o'zida qanday xususiyatlarni namoyon qiladi?

ADABIYOTLAR:

Matn va manbalar:

1. Алишер Навоий. Садди Искандарий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1993. 11-жилд.

2. Алишер Навоий. Хамса: Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.8.

3. Navoiy Alisher. Saddi Iskandariy. – T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2006.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

4. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.

5. Навоий Алишер. Садди Искандарий (насрий баёни билан). Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991.

6. Бертельс Е.Э. Роман об Александре и его главной версии на Востоке / Избранные труды. Навои и Джами. – М.: Наука, 1965.

7. Қаюмов А. "Садди Искандарий". – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975.

8. Эркинов А.С. Навоий – пейзаж устаси. – Т.: Фан, 1988.

9. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. 2-жилд (XV асрнинг иккинчи ярми). – Т.: Фан, 1977.

"LISON UT-TAYR" – IRFONIY DOSTON NAMUNASI SIFATIDA

Reja:

1. Dostonning tarkibiy tuzilishi.

2. Muqaddimaviy boblarda doston mundarijasiga doir qarashlar.

3. Doston tarkibidagi hikoyatlar. "Shayx San'on hikoyati".

4. Dostondagi yetti vodiy tavsifi.

5. Ramziy timsollar tahlili.

"Lison ut-tayr" Alisher Navoiyning umrining so'nggi pallasida, 1499-yilda yozilgan yirik irfoniy doston bo'lib, hajman 193 bob, 3666 baytdan iborat. Dostonning yozilishi sababi haqidagi bobda berilishicha, bolaligida ustozi yosh Alisherga Qur'oni karim suralarini yodlatish barobarida zehni tez va tab'i ravon bo'lishi uchun "Guliston", "Bo'ston", "Mantiq ut-tayr" kabi kitoblarni ham o'qitib turgan. Bularning orasida ayniqsa, "Mantiq ut-tayr" bo'lajak shoirga qattiq ta'sir qilib, xayolchan va odamovi bo'lib qoladi. Ota-onasi bunda, xavotirga tushib, kitobni yashirib qo'yishadi. Dostonni deyarli to'liq yod bilgan Alisher endi sevimli kitobini ko'nglida yashirincha takrorlab yurishga odatlanadi. "Mantiq ut-tayr" muhabbati uning doimiy hamrohiga aylanadi. Nihoyat, yoshi oltmishga yetganda to'rt devon va beshta dostoni bilan turkiy she'riyat mamlakatini o'z tasarrufiga kiritgan mutafakkir shoir bolalikdagi orzusini amalga oshirishga jazm etadi:

Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam...

Munchakim nazm ichra qildim ishtig'ol,
Xotirimdin chiqmas erdi bu xayol.

Kim bu daftarg'a berib tavfiq Haq,
Tarjuma rasmi bila yozsam varaq...

Oltmishqa umr qo'yg'onda qadam,
Qush tilin sharh etgali yo'ndum qalam.

Ramziy-allegorik qissa va hikoyatlarning tarixiy ildizi miloddan oldingi davrlarga borib taqalsa-da, musulmon Sharq mumtoz adabiyotida qushlar sayri bilan bog'liq ilk asar sifatida Ibn Sinoning "Tayr qissasi" ("Qush qissasi") risolasi e'tirof etiladi. Risolada qushlar ovchidan qochib, Podshoh huzuriga borganlari hikoya qilinadi. Bu risolaga raddiya tarzida yozilgan Abu Homid G'azzoliyning "Risolat at-tayr" ("Qush risolasi") asarida esa syujet va kompozitsiya asosan saqlanib qolgani holda asar g'oyasida keskin o'zgarish yuz beradi: qushlar Podshohning ishqida Uning O'zini talab qilib, Oliy dargohga boradilar.

Mazkur mavzu yozma adabiyotda ilk bor Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari orqali yaxlit va mukammal syujetga ega bo'lgan badiiy doston holiga keltirildi. Unda syujet chiziqlari qayta ishlanishi bilan birga asarga tolib qushlar va yetakchi qush – Hudhud obrazi kiritildi. Qushlar podshosi nomi Simurg' tarzida o'zgartirildi va ko'pgina hikoyatlar qo'shildi. Natijada, asar hikoyat ichida hikoyat yo'nalishidagi ramziy-allegorik doston darajasiga ko'tarildi.

"Lison ut-tayr" murakkab irfoniy doston bo'lib, unda Navoiy majoziy obrazlar va ularning ramzli sarguzashtlari orqali obyektiv borliq va ilohiyot haqidagi qarashlarini bayon etadi, shu bilan birgalikda dostonda real hayot lavhalari, kishilarning xatti-harakati, fe'l-atvoridagi ijobiy va salbiy xususiyatlar ham tasvirlangan.

Doston an'anaga muvofiq muqaddimaviy boblar bilan boshlanadi. Muqaddima 13 bobdan iborat bo'lib, uning dastlabki bobi Alloh hamdiga bag'ishlangan. Navoiy bu olamni Alloh aniq bir reja asosida bunyod qilganligi haqida yozar ekan, unda hech bir narsa tasodifiy yaratilmaganligini aytadi. Shoirning fikricha, Yaratuvchi koinotdagi barcha narsa va hodisalarni o'zaro aloqador holda vujudga keltirgan, shu jihatdan olib qaraganda, tabiat son-sanoqsiz uyg'unliklarning bir butun majmuidan iborat. Allohning mo'jizasi sifatida bir-biriga zid bo'lgan to'rt unsur (suv, olov, tuproq va havo) inson vujudida bir butun holda birlashtirilgan, zero, butun olamni yaratishdan maqsad insondir:

Uylakim dushman yarotib o'tqa suv,
Yelni ham tufroqqa aylab aduv.

Sun'idin ko'rgilki mundoq to'rt zid,
Bo'lub inson xilqatida muttahid.

Ofarinishdin qilib inson g'araz,
Oni aylab xalq ichinda beevaz.

Mazkur bobda Navoiyning tabiat va ilohiyotning bir butunligi (vahdat ul-vujud) nazariyasiga asoslangan konsepsiyasi ham o'zining qisqacha poetik ifodasini topgan. Shoirning fikricha, olamdagi barcha narsa, hodisa va o'zgarishlarning ijodkori bo'lgan Xudo o'zi yaratgan narsalardan tashqarida emas, balki ular bilan birga, bir butun holda mavjuddir. Shunga ko'ra, ilohiyot va tabiatni bir-biridan ajratib qarash mumkin emas.

Bobda, shuningdek, inson va shayton ziddiyati qalamga olinib, Alloh Odamni o'z siridan xabardor qilib, xalifalik toji bilan yuksaltirgani, shaytonni esa unga sajda qilishdan bosh tortgani uchun mardud-u la'in (rad etilgan va la'natlangan) qilganligi haqida ham aytib o'tiladi.

Dostonning **2-bobi** munojotni o'z ichiga oladi. Bobda o'tgan umrini sarhisob qilgan buyuk mutafakkirning o'z-o'zini taftish etishi, Yaratgan qoshida o'zini behad gunohkor deb hisoblashi bilan bog'liq fikrlar keltirib o'tilgan:

Alloh, Alloh, o'lturur sharmandaliq,
Yodima kelsa bu yanglig' bandaliq.

Yuz qarolig' oncha bo'lmish jahl aro,
Kim ko'zimga qildi olamni qaro.

Qilmadim umrumda bir rak'at namoz,
Sar-basar mahzi niyoz, ey beniyoz.

Hargiz andoq qo'ymadim tufroqqa bosh,
Kim keraklik bo'lmag'ay boshimg'a tosh.

Bermadim hargiz gadog'a bir diram,
To o'zumni ko'rmadim sohibkaram.

Tutmadim oting qilib farzonaliq,
Subha eldin osmayin yuz donaliq.

Bir amal hargiz riyosiz qilmadim,
Zarqsiz hargiz o'zumni bilmadim.

O'ylakim mendurmen inson bo'lmasun,
Yo'qki inson – dev-u shayton bo'lmasun.

"Lison ut-tayr"ning **3–4-boblari** payg'ambar Rasuli akram madhi va me'roj tuni ta'rifini o'z ichiga oladi. Navoiy dastlab "Nuri Muhammadiya" haqida fikr yuritar ekan, bu nur olam yaratilishidan ham ilgari mavjud bo'lganligini, Odam Atodan Shis payg'ambarga va shu orqali ko'plab nasllarga o'tib, Rasuli akramning otalari Abdullohga yetib kelganligi va nihoyat uning farzandi chehrasida payg'ambarlik nuri sifatida zohir bo'lganligini yozadi. Bobda shuningdek, Rasuli akramning payg'ambarlik davrlaridagi faoliyatlari: kofirlarga qarshi kurashganlari, Lot butining holini xarob qilganlari, xalqqa Allohdan boshqa iloh yo'qligi haqidagi haqiqatni yetkazganliklariga to'xtalib o'tiladi. Me'roj tuni ta'rifiga bag'ishlangan bobda esa payg'ambarimizning huzurlariga farishta Jabroil kelib, Yaratganning xabarini yetkazgani va Rasuli akramning Buroq otini minib, Alloh huzuriga ko'tarilganliklari, oradagi yetmish qavat parda ko'tarilib, bor-yo'q to'siqlar bartaraf bo'lganligi, payg'ambarimiz Allohdan ummatlarining gunohini so'raganliklari va Alloh o'z habibining barcha istaklarini qabul qilgani haqida fikr yuritiladi.

Dostonning **5–12-boblari** to'rt xalifa – chahoryorlar tavsifiga bag'ishlangan. Navoiy dastlab har bir xalifaga ta'rif beradi, ular sajiyasiga xos eng muhim nuqtalar bilan kitobxonni tanishtiradi, so'ngra chahoryorlar hayotidan muayyan voqea aks etgan hikoyatni keltiradi. Hazrat Abu Bakr Siddiqning sadoqati, Umar Foruqning adolati, Usmon Zinnuraynning halimligi va hayosi, Ali Murtazoning shijoati go'zal badiiy vositalar bilan ko'tarinki ruhda vasf etiladi, bu xalifalar islom olamining dastlabki arkoni davlati yoki oxirzamon payg'ambarining yaqin kishilari bo'lganliklari uchungina emas, balki axloq, ilm, dunyoqarash va e'tiqodi bilan barchaga o'rnak va namuna, payg'ambarimiz ishining haqiqiy davomchilari ekanliklari bilan yuksak sharafga erishganliklari alohida ta'kidlanadi.

Xususan, to'rt xalifaning birinchisi Hazrat Abu Bakr Siddiq

madhiga bag‘ishlangan **bob (5-bob)da** Alisher Navoiy bu zotni “sodiq-u siddiq” deb atab, tashbih san’ati vositasida payg‘ambarimizni g‘or ichidagi xazinaga, Abu Bakr (r.a.)ni esa shu xazinani qo‘riqlab yotgan ajdarhoga o‘xshatadi:

Sodiq-u siddiq-u hamrozi oning,
Har yomon-yaxshida damsozi oning...
Ganjkim g‘or ichra pinhonlik qilib,
Ajdahodek ul nigahbonlik qilib.

Abu Bakr Siddiqning payg‘ambarimizdan keyin xalifa imom bo‘lib qolganliklarini go‘yo quyosh ketib, oy qolganligiga nisbat beradi:

O‘rnig‘a oni rasul aylab imom,
Oy bo‘lib xurshidg‘a doim maqom.

Oltinchi bob Hazrat Abu Bakr Siddiq haqidagi hikoyatni o‘z ichiga oladi. Hikoyatda aytilishicha, Abu Bakr Siddiq xalifalik taxtiga o‘tirganlarida dindan qaytgan bir guruh kishilar islom farzlaridan biri bo‘lgan zakotni bekor qilishni talab qiladilar. Shunda xalifa g‘azab bilan: “Payg‘ambar qonunida biror ip miqdoricha narsani ham o‘zgartirish mumkin emas. Kimki bunga qarshi bosh ko‘tarsa, ularga javob qilich va o‘qdir” deb aytadilar.

Dostonning **7-bobi** Hazrat Umar Foruq vasfiga bag‘ishlangan. Alisher Navoiy islom olamida haqni xatodan farq qilishda bu kishiga teng keluvchi boshqa inson yo‘q edi, deydi:

Haqni botildin birovkim qildi farq,
Adli birla ravshan etti g‘arb-u sharq.
Ondin o‘zga yo‘q edi ofoq aro,
Balki ushbu qasri oliy toq aro.

Sakkizinchi bob Hazrat Umar Fòruqqa bag‘ishlangan hikoyatdan iborat. Hikoyatga ko‘ra, Hazrat Umar Madoyinni egallaganlarida, juda katta xazina yig‘iladi. U zot bu xazina va mol-mulkka qo‘z qirlarini ham tashlamaydilar: barcha xazinani g‘azotga chiquvchilar uchun bo‘lib berishni buyuradilar.

To‘qqizinchi bob Hazrat Usmon (r.a.) vasfidadir. Hazrat Usmon payg‘ambarimizning ikki qizlariga uylanganliklari uchun “Zunnurayn” laqabini olganlar. Alisher Navoiy bu zot-

ning Qur'oni karimni to'plaganlari, xalq Usmon ibn Affon deb atashi haqida shunday yozadi:

Tengri aylab jome'i Qur'on oni,
Xalq deb Usmon bin Affon oni.

O'ninchi bob Hazrat Usmon haqidagi hikoyatni o'z ichiga oladi. Hikoyatga ko'ra, payg'ambarimiz(s.a.v.) bir kuni eldan farog'at istab, xilvatga kirib, bir oyoqlarini uzatib o'tiradilar. Ularning huzurlariga ba'zi zodagon sahobalar, ayrim aziz va sharif kishilar kirganlarida ham ularning holatlarida o'zgarish bo'lmaydi. Lekin xonaga hazrat Usmon kirgach, Rasuli akram uzatgan oyoqlarini yig'ib oladilar. Bu payg'ambarimiz(s.a.v.)-ning hazrat Usmonga bo'lgan cheksiz hurmatlari ifodasi edi.

Mo'minlar amiri Hazrat Ali (r.a.) vasfiga bag'ishlangan **o'n birinchi bob**da bu zotning payg'ambarimizga farzand darajasida bo'lganliklarini aytib, ular orasida "men senikiman, sen menikisan" degan ahd mavjudligiga ishora qiladi va keyingi bobda Hazrat Alining e'tiqod va ibodatda mustahkam ekanliklari vasf etilgan hikoyat keltiradi. Unga ko'ra, g'azot janglaridan birida Hazrat Aliga o'q tegadi. O'qning uchi ularning suyaklarigacha botib, tortib olishning iloji bo'lmaydi. Shunda sahobalar payg'ambarimizdan bu ishning chorasini so'raganlarida, Rasuli akram "U namoz o'qiyotgan paytda o'qni tortib olish payida bo'lingiz. U namozga shunday berilgan bo'ladiki, o'qni tortib olganlaringni bilmay qoladi", – deydilar. Sahobalar aytilgandek qiladilar va Alloh kushoyish berib, bir lahzada jarohatdan na dard-u na o'q uchi qoladi.

Dostonning **o'n uchinchi bobi** buyuk forsigo'y adib Farididdin Attor madhiga bag'ishlangan. Navoiy so'z o'yini vositasida shoir taxallusiga majoziy nisbat berib, butun olamda boyliklar, dengiz va konlardagi dur-u gavharlar qancha bo'lsa undan yuzlab marotaba ko'prog'i Attor do'konida mavjudligini aytadi:

Har ne gardun bahr ila konida bor,
Oncha yuz Attor do'konida bor.

Navoiy Attorning yozgan asarlari xalq uchun gulqand kabi foydali ekanligini ta'kidlaydi va shu munosabat bilan uning asarlari ro'yxatini keltiradi: "Musibatnoma", "Ilohiynoma", "Ushturnoma", "Haylojnoma", "Tazkirat ul-avliyo", "Mantiq

ut-tayr" va boshqalar. Bob so'ngida Navoiy agar Haq madad bersa, mendek gado Shayx ruhidan yordam olib, qushlar nutqini izhor qilsam, ya'ni "Mantiq ut-tayr"ga javob yozsam deydi:

Lek haq tavfiq bersa, men – gado,
Shayxning ruhig'a aylab iqtido.

O'yla qushlar nutqini izhor etay,
Bulbul-u to'ti kibi guftor etay.

Kim xaloyiq chun tarannum aylagay,
Qush tili birla takallum aylagay.

Lek surmak nuktani to'ti misol,
Budur insof o'lsa, ey farxunda fol.

Kim bu to'ti tumasi bo'lg'ay shakar,
Ul shakar fikr aylasang bo'lg'ay magar.

Tengrining lutf-u inoyat xonidin,
Ya'ni ul Attorning do'konidin.

Attor asarlarini sanab o'tgan Navoiy o'zi javob yozadigan dostonning Attor dostoniga munosib javob bo'lishiga umid bildiradi.

Dostonning asosiy qismi bosh qoliplovchi qissa: jahondagi barcha qushlarning yig'ilib, martaba va fazilatlariga ko'ra joy talashish voqeasidan boshlanadi. Bu yig'inda behunar hunarmanddan, iste'dodsiz iste'dod sohibidan o'zib ketish holatlari, har bir qush o'zini eng yuqori joyga munosib deb bilishi, boshqalardan o'zini ustun deb hisoblashi tufayli turli ixtilof va mojarolar paydo bo'ladi. Shunda ularning munosib o'rnini belgilab beruvchi bir adolatli podshoga ehtiyoj paydo bo'lganligini sezgan Hudhud degan qush shunday podshoh borligi, nomi Simurg' ekanligi va uning huzuriga bormoqchi bo'lganlar uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tishlari zarurligini aytadi. Qushlar Simurg'ning zoti va sifotidan hikoya qilishni so'raydilar. Hudhud uning sifoti mingdan oshishi-yu, zotining yagona ekanligini aytadi. Simurg' ta'rifi dostonda **olti bobni (15–20-boblar)** tashkil etadi.

Hudhud *To'ti, Bulbul, Qumri, Kaklik, Tazarv, Durroj, Kabutar, Shohboz* (*qirg'iy*), *Shunqor* kabi qushlar bilan individual ravishda suhbat qurar ekan, u bilan Simurg'ni bog'lab turgan rishtadan gap boshlaydi va ana o'sha rishta tufayli ularning Simurg'ga aloqadorligini, uning visoliga qarab intilish darkorligini targ'ib qiladi. Bu suhbat va targ'ibot **10 bobni** (21–31-boblar) tashkil etadi.

Qushlar Hudhud boshchiligida yo'lga tushadilar. Bir necha kun yo'l yurgach, mashaqqatli safar ularni toliqtiradi, ortga qaytmoqchi bo'ladilar va bir-ketin Hudhudga o'z uzrlarini ayta boshlaydilar. Dostonda yo'l qiyinchiliklariga chidolmay, uzr so'ragan qushlar tartibi quyidagicha keltirilgan: *To'ti, Tovus, Bulbul, Qumri, Kabutar, Kabki dariy, Tazarv, Qarchig'ay, Shunqor, Burgut, Kuf* (boyo'g'li), *Humoy, O'rdak* va *Tovuq.*

Dastlab To'ti Hindistondek issiq o'lkalarda yashashi, ko'zgu oldida nozaninlar so'zini takrorlashi uchun shakar yeb yurishi, umri rohat-farog'atda bo'lgani sababli bu safarning mashaqqatiga chidolmasligini aytib, uzr aytadi. Hudhud unga javoban "Hiylagarlikni kasb qilgan yashil chakmonli kishi" bilan bog'liq hikoyatni keltiradi. Unga ko'ra, bir kishi bozordagi noz-u ne'matlarni ko'rib, yashil xirqa kiyib oladi va o'zini shayx deb e'lon qiladi. Bozor ahli unga ixlos qilib, uning kashkuliga turli-tuman oziq-ovqatlarni sola boshlaydilar. Haqiqiy bir orif bu holni mushohada etib, riyokor shayxning oldiga keladi va bozordan yiqqan narsasini tutmog'ini so'raydi. Soxta shayx kashkulini to'kib qarasa, ovqatlar aynib, najosatga aylangan ekan. Piri komil qilgan ishidan pushaymon bo'lgan hiylagarga bir hovuch tosh aralash tuproq berib, "bu bilan tirikchilik qiling", deydi. Hiylagar qo'lidagi tuproq pirning barakotidan oltin va javohirga aylanadi. Hiylagarlik va riyozatning oqibati turlicha ekanini ko'rgan riyokor tavba qilib, to'g'ri yo'lga kiradi.

To'tidan so'ng Tovus uzr aytib, "Tangri meni atrofdagilar ko'rib, husnimga tahsin aytishlari uchun yaratgan, shunday ekan, menga bu safardan ne hojat?", deydi. Hudhud unga javoban masxaraboz bir hinduning o'zini turli naqsh-u nigorlar bilan bezab, maydonda tomosha ko'rsatgani, uning atrofi bir gala beboshlar to'dasi bilan to'lgach, nazoratchilar tomonidan tutib olinib, darra bilan savalangani haqidagi hikoyatni keltiradi. Undan so'ng Bulbul uzr aytadi. U o'z chamanidagi bir

gulga oshiqligini, undan ayriliqqa chiday olmasligi va bu safar unga cheksiz hajr azobini olib kelayotganligini aytadi. Hudhud unga bir podshohga oshiq bo‘lib qolgani haqida lof urgan gado hikoyatini keltirib, haqiqiy go‘zallik Simurg‘ dargohida ekanligini ta’kidlaydi.

Shu tariqa uzr aytgan qushlarga Hudhud mos holatda turli hikoyatlar bilan javob qaytaradi. Dostondagi axloqiy ruhdagi hikoyatlarning aksariyati mana shu boblarda aks etgan. Ushbu munozaralar **41 bobni** (32–73-boblar) tashkil etadi. Qushlar va Hudhud munozarasining diqqatga sazovor tomoni shundaki, bu o‘rinda Navoiy qushlar obrazidan mohirlik bilan foydalanib, ma’naviy kamolotga to‘sqinlik qiluvchi turli axloqiy illatlarni tanqid ostiga oladi. Shu ma’noda To‘ti xudbinlik va shaxsiyatparastlik timsoli, Tovus va Tazarv tashqi go‘zallik bilan mag‘rurlanish, Kabki dariy va Kuf shaxsiy boylik va mol-dunyo yig‘ishga mukkasidan ketish, Qarchig‘ay johillik va shuhratparastlik kabi illatlarning majoziy timsollari hisoblanadi. Hudhud ularni tanqid qilar ekan, kishilarni bu xil illatlardan qutulishga chaqiradi.

Hudhudning tanqidlari tufayli o‘z qusurlaridan ogoh bo‘lgan qushlar buncha kamchilik va ojizliklar bilan qanday qilib Simurg‘ga yetishish mumkinligi haqida so‘raydilar (74–76-boblar). Hudhud faqat Ishq ularni maqsad manziliga yetkazishi mumkinligini aytib, dostondagi eng katta va alohida mavqega ega bo‘lgan Shayx San’on haqidagi hikoyatni so‘zlab beradi (79-bob). Hikoyatda keltirilishicha, Shayx San’on[21] ismli avliyo Ka’badagi barcha shayxlarga murshid – ustoz darajasida edi. Uning 400 ga yaqin muridi bo‘lib, ularning har biri Junayd[22] va Boyazid[23]larga teng edi. Shayx San’on tushida biror narsani ko‘rsa, bu voqea o‘ngida ham yuz berardi. Bir kuni u tushida Rum mamlakatida butxona ichida mast holda sayr qilib yurganligini ko‘radi. Uyg‘onib, bu holiga tavba qiladi. Lekin bu tush bir necha bor takrorlangach, uning ta’biri taqdiri bilan aloqador ekanligini his qilib, o‘z muridlari bilan Rum sari

[21] Shayx San’on (Ibn Saqqo) – XI – XII asrlarda yashagan tarixiy shaxs.

[22] Junayd Bag‘dodiy – tasavvufdagi sahf (hushyorlik) konsepsiyasining asoschisi. 910-yilda vafot etgan.

[23] Boyazid Bistomiy – tasavvufdagi sukr (ilohiy sharobdan mastlik – devonalik) yo‘lining asoschisi. 961-yilda vafot etgan.

yo‘lga tushadi. Nihoyat, Rum o‘lkasiga yetib kelishadi. U yerda g‘aroyib bir butxonani ko‘radilar. Shayx tushida ayon bo‘lgan butxonaga kirgach, holatida o‘zgarish sodir bo‘ladi, ko‘ngli iztirobdan betoqat bo‘la boshlaydi. Shunda uning qarshisida yuziga parda tortgan tarso (xristian diniga mansub) qiz paydo bo‘ladi. Shamol ko‘tarilib, go‘zalning yuzidagi parda ochilgach, Shayx o‘zidan ketib, tuproqqa yiqiladi. Shu tariqa Shayx ishq dardiga mubtalo bo‘ladi. Navoiy uning iztirobli holatini shayx tilidan shunday tasvirlaydi:

Kim: – “Bo‘lur har lahza ranj afzun manga,
Ne edikim qilding, ey gardun, manga!

Ofiyatdin ishq sori boshlading,
Yuz yonar o‘t ichra olib toshlading...

Alloh! Alloh! Ne kechadur bu kecha!
Sa’b mundog‘, yo Rab, o‘lg‘aymu kecha!

O‘tkaribmen ko‘p suubat kechalar,
Ko‘rmadim mundog‘ uqubat kechalar!..

Do‘stlar, netti madad yetkursangiz,
Jam’ o‘lub men zorni o‘ltursangiz.

To qutulsa dahr orimdin mening,
Dahr eli afg‘on-u zorimdin mening.

Jonima, as’hob, tig‘i qatl urung.
Kuydurub, haryon kulumni sovurung.

To jahonda bo‘yla rasvo bo‘lmayin,
Bir o‘lay, yuz qatla hardam o‘lmayin!»

Shayxning bu musibatli holatini ko‘rib, muridlari nasihat qila boshlaydilar. Ular shayxga aql mezoni bilan murojaat etadilar, shayx esa ishq yo‘sinida javob qaytaradi. Muridlar unga tahorat olib, ibodat qilmoqni maslahat berganlarida shayx ularga shunday javob qaytaradi:

Shayx deb: – "Yo'q ko'z yoshimdin o'zga suv,
Qon kelur hardam bog'irdin ko'zga suv".

Muridlardan birining Ka'bani ziyorat qilmoq darkor degan da'vatiga Shayx tomonidan shunday javob bo'ladi:

Shayx debkim: "Onda qilg'onni talab,
Munda topdim, ne chekay ul yon taab".

Shu tariqa Shayx har muridning kuyinib aytgan o'gitlariga ishq so'zi bilan javob qaytaradi.

Butxonadagi kishilar esa din ahlining bu holatini mazax qilib, o'z dinlarining ustunligini gumrohlarcha ta'kidlay boshlaydilar. Bu hol tong yorishgunga qadar davom etadi. Muridlar nomusga chiday olmay, shayxni yolg'iz tashlab ketadilar. Shayx butxonadagi bolalarga ham masxara bo'ladi. Shu tariqa oradan bir oy o'tadi. Nihoyat, tarso qizi yana butxonada paydo bo'ladi va islomdek buyuk din peshvosi Shayxning kofirlar butxonasida bu tarzda yashashidan maqsadi ne ekanini so'raydi. Shayx tarso qiziga o'z holini bayon qilib, bularning barchasiga sababchi sening orazing, deb javob beradi. Tarso qizi shayx ishqining dalili sifatida unga to'rt shartni bajarishi va ikki jurmona (jarima) to'lashi kerakligini aytadi. Aytilgan to'rt shart quyidagilar edi:

may ichmoq;
zunnor bog'lamoq;
Qur'onni o'tda kuydirmoq;
butparastlar diniga kirmoq.

Ishq o'tida yongan Shayx tarso qizning shartlariga rozi bo'ladi. Bundan masrur bo'lgan dayr ahli to'rda hashamatli bir taxt qo'yib, go'zal qizni o'tqazadilar. Otashkadadan olov olib kelib, Shayx San'onning qo'lidan Qur'onni oladilar. Tarso qiz taxtdan tushib, o'z qo'li bilan Shayxga may uzatadi. Nozaninning husni va iltifotidan sarmast bo'lgan Shayx San'on yig'lay-yig'lay sharobni ichadi. Bir necha qadah ichgandan so'ng tarso qiz boshqa shartlarni bajo keltirishga buyruq beradi: rohiblar Shayx San'onning xirqasi va Qur'onni o'tda kuydirib, beliga zunnor bog'laydilar. Shayx mast holida butga sajda qiladi:

Ham bo'lub jomi damodam birla mast,
Ham qilib mastona o'zni butparast.

Bir necha kun bexudlik va mastonalik bilan dayr ahliga masxara bo‘lgan Shayx bir sahar tarso qiziga fig‘on chekib, aytilgan shartlarni ortig‘i bilan bajargani, endi u ham ahdiga vafo qilishini so‘raydi. Tarso qizi bu to‘rt shart Ishq shukronasi ekanligi, endi jurmona sifatida bir yil davomida cho‘chqaboqarlik qilish va otashgohda o‘t yoqishni buyuradi. Shayx bunga ham rozi bo‘lib, kechasi dayr otashxonasida o‘t yoqib, kunduzlari cho‘chqa boqishga kirishadi. Shu tariqa oradan bir yil o‘tadi.

Shayxning Ka’bada bir foniy[24] muridi bo‘lib, piri Rumga otlanganida, u boshqa bir mamlakatda safarda edi. Safardan qaytgach, Shayxni topolmay, bo‘lib o‘tgan voqealar haqida surishtiradi. Muridlar unga ahvolni bayon qiladilar. Foniy murid ularga ta’na qilib, shayxni yolg‘iz qoldirib kelganlikda ayblab shunday deydi:

Shayxkim, pir erdi-yu, sizlar murid,
Borchag‘a irshodidin behbud umid...

Shayxingizga bevafoliq boshlabon,
Qiblangingizni dayr ichinda tashlabon....

Odami bo‘lsa, vafo andin yiroq,
It vafo bobida andin yaxshiroq...

Sadoqatli shogird barcha muridlarni Rum sari yo‘lga boshlaydi. Yetib borib, ko‘radilarki, Shayxda na islom, na iymon maslagidan asar qolmagan edi. Sodiq shogird bu holni ko‘rib, oh uradi va kecha-kunduz Yaratganga munojot qilib, Shayxning haqiga duo o‘qiydi va, nihoyat, tushiga Muhammad (s.a.v.) kirib, Alloh uning duosini qabul etgani haqida bashorat beradi. Shayxga ham g‘oyibdan ogohlik yetib, ko‘zlaridan xijolat yoshlarini to‘kib, sadoqatda bemisl bo‘lgan shogirdiga uzrxohlik qiladi. Yana egniga poklik xirqasini kiyib, o‘z muridlari bilan Ka’ba sari yo‘l oladi.

Rumda qolgan tarso qizi tush ko‘radi. Tushida Iso alayhissalomdan: “Shayx San’ondek buyuk murshid sening huzuringga mehmon bo‘lib kelsa-yu, sen mezbonlik odatini bilmasdan, uning boshiga ne kunlarni solding?! Endi vaqtni g‘animat bilib, uning ortidan bor, diniga musharraf bo‘l”, – degan xabar keladi.

[24] Foniy – o‘zligidan kechib, Haq vasliga yetishgan solik.

Tarso qizi oh urgancha, ko‘zlaridan nadomat yoshlarini to‘kib, Ka’ba tomon yo‘lga tushadi. Yo‘lda unga xastalik va ojizlik yuzlanib, tuproq ustida hushidan ketadi. Shayxga bu hol ayon bo‘lib, muridlari bilan ortga qaytadi va tarso qizining so‘nggi lahzalarda iymon sohibasi bo‘lib jon berishiga shohid bo‘ladi. Alisher Navoiy hikoyat so‘ngida ishqqa shunday ta’rif beradi:

Ishq bahredurki, yo‘q poyon anga,
Har hubobi gunbadi gardon anga...

Olamedur ishq, lekin bas vase’,
Toramedur ishq, lek asru rafe’...

Ma’lumki, tasavvufda Haqni tanishning ikki yo‘li mavjud. Birinchisi hayajonli, ruhiy kechinmalarni oshkora izhor etib borish mayli (sukr – mastlik) bo‘lsa, ikkinchisi osoyishta, ichki dardni yashirish mayli (sahv – hushyorlik)dir. Shayx San’onning barcha diniy ilmlari va Qur’onni unutishi bu Haqqa yetish uchun dunyoviylikdan, jumladan, aql va aqliy narsalardan qutulish, o‘zligini unutishga ishoradir. Uning xotirasi qaytishi esa, sukrdan sahvga qaytish hisoblanadi. Haqiqiy baqo esa sahv, ya’ni hushyorlikka qaytishdan keyin boshlanadi. Sukrdagi solik bamisoli dengizga sho‘ng‘ib, g‘arq bo‘lgan kishi bo‘lsa, sahvga qaytgan dengizga sho‘ng‘ib, gavhar donalarini olib qaytib chiqqan g‘avvos kabidir. Bob so‘ngida Navoiy agar Alloh unga umr bersa, o‘z ishqi sharhini nazmga solib, bir doston yozish niyati borligini ham aytadi:

Bir necha kun umrdin topsam amon,
Sharhi ishqim nazm etay bir doston.

Anda bilgay kimgakim insofdur,
Kim so‘zum chinmudurur yo lofdur.

Mazkur hikoyatdan so‘ng tolib qushlar ruhiyatida keskin o‘zgarish sodir bo‘ladi. Endi ular yo‘ldan qaytish haqida emas, Simurg‘ga qanday qilib tezroq yetib borish to‘g‘risida savollar bera boshlaydilar. Dostondagi shu o‘rindan boshlab, muallif qushlarning nomini aytmaydi, balki, hammasini “bir qush” tarzida nomlaydi. Dostondagi falsafiy hamda tarixiy shaxslar hayotidan olingan ibratli hikoyatlar tasviri shu o‘rindan boshla-

nadi. Bu savol-javoblar **68 bobni (80–148-boblar)** tashkil etadi. Qushlar va Hudhud o‘rtasidagi savol-javoblar tasavvuf ta’limoti bilan bog‘liq ayrim nazariy va amaliy masalalar (pir va murid munosabatlari, tariqat va uni ado etish, tavba va gunoh va b.) muhokamasiga bag‘ishlanish bilan birga ularda axloqiy illat va insoniy fazilatlar haqidagi qarashlar ham aks etadi. Xususan, nafsni tiyish, mol-dunyo va siym-u zarga hirs qo‘ymaslik, himmat, insof kabi inson ma’naviy takomilida muhim o‘rin tutuvchi axloqiy xislatlarning Hudhud tilidan qilingan bayoni mazmun jihatidan shoirning “Hayrat ul-abror”, “Saddi Iskandariy”, “Mahbub ul-qulub” va boshqa asarlarida shu xususda keltirgan fikrlariga hamohangdir. Bu hikoyatlarning ayrimlari Attor dostonida mavjud bo‘lsa-da, asosiy qismi arab ishqnomalari, xalq og‘zaki ijodi, tasavvufiy va diniy manbalar asosida yaratilgan.

Ba’zi syujetlarni Navoiyning o‘zi muayyan oyat yo hadisdagi g‘oyani ifodalash uchun mustaqil tarzda yaratgan. Jumladan, dostonning 119-bobida shunday bir hikoyat keltiriladi: Haq yo‘liga kirgan Majnun al-Haq deb nomlangan bir devona bor edi. U bir kuni o‘zi kabi bir “log‘ar eshak”ka minib, Ka’ba sari safarga otlanadi. Qorong‘u tushib, yomg‘ir yog‘a boshlaydi. Majnun al-Haq yo‘l bo‘yida bir vayronani ko‘rib, o‘sha yerda tunamoqchi bo‘ladi va Xudodan eshagiga qarab turishini so‘rab, o‘zi vayrona ichiga kirib uxlaydi. Tomdan chakka o‘tib, devonani uyg‘otadi va u yarim tunda yana yo‘lga chiqmoqchi bo‘ladi. Tashqariga chiqib, eshagini topolmay fig‘oni falakka chiqadi va Xudoga malomat qila boshlaydi: “Ey Xudo, men senga eshagimni topshirgan edim, nimaga asramading? Agar odamlar sening uyingga bormaganlarida, senda bunday maqom-u manzalat yo‘q edi. Eshaksiz uying (Ka’ba)ga qanday boraman? Yarim tunda menga uning qayerdaligini ko‘rsatmayapsan. Mening eshagimga qarab turishga or qilding, holbuki, senga topshirgan omonatimni asrash vazifang edi”. Shu asnoda bir ajib chaqmoq chaqib, Majnun al-Haqning yo‘lini munavvar etadi va u uzoqda o‘tlayotgan eshagini ko‘rib quvonadi. Telba eshagi topilganidan keyin ham Xudo bilan muomalani davom ettiradi, ammo endi uning so‘zlarida g‘azab emas, balki lutf va mehribonlik ustuvor edi: “Ey mening jonim ichida, balki yuz jondan ortiq Tangrim, sen mening haqiqiy do‘stimsan. Albatta, boshida sen mening eshagimni bo‘yniga arqon bog‘lab, saqlamading, shu sababli, menda

"bir ajib oshuftalig'" yuz berdi, ammo sen mening bu ahvolimni ko'rib, tadbir aylab, eshagimni ko'rsatding va bu ishing bilan meni senga nisbatan aytgan so'zlarim tufayli sharmisor etding. Men sening bu noto'g'ri qilmishingni batamom unutdim, sen ham menga o'xshab, jahl ustida aytgan gaplarimni unutsang, yaxshi bo'lardi. Men seni kechirdim, sen ham meni kechir".

Devona shu alfozda goh o'zini maqtab, goh Tangrini ulug'lab yo'lida davom etadi. Navoiy bu hikoyatdan shunday xulosa chiqaradiki, garchi telbaning so'zlari shariat mezoni bo'yicha mutlaqo noto'g'ri va kufr bo'lsa-da, lekin u Haqqa do'st tutingan odamning tilidan aytilgani uchun ham ayni haqiqatdir.

Payg'ambarimiz Muhammad mustafodan shunday bir hadisni rivoyat qilishgan: *"Uch kishi borki, Alloh ularning duosini qabul qilmaydi:*

1. Xaroba uyga kirib yotgan kishi (panohingda asragin, degan duoga quloq yo'q). 2. Yo'l ustida yotgan kishi (o'zing asra deganini). 3. Ulovini qo'yib yuborib, Allohdan yo'qolmasligini so'ragan kishi".

Majnun al-Haq, aynan ana shu uchta mustasno holat, ya'ni Allohning madadi kafolatlanmagan amalga qo'l urganini ko'ramiz. Qorong'u tushib, yomg'ir yog'ayotgan vaqtda ulovini Allohga topshirib, yo'l ustidagi vayronaga kirib yotadi. Ammo Alloh uni va ulovini muqarrar bo'lgan balo-qazolardan saqlaydi va hatto, Majnun al-Haqning qilmishidan g'azablanmasdan, ulovini topishga yordam beradi. "Fath" surasida keltirilganidek, ***"Alloh O'zi xohlagan kishini mag'firat qilur va O'zi xohlagan kimsalarni azoblar. Alloh mag'firatli va mehribon bo'lgan zotdir".***

Dostondagi voqealar davomida Hudhud asl manzilga yetish uchun yetti vodiyni bosib o'tish kerakligini aytadi. Dostonda qushlar bosib o'tishi mumkin bo'lgan ushbu vodiylar (*Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Faqr-u Fano* vodiylari) tasavvuf yo'liga kirgan solik riyozat chekib bosib o'tishi lozim bo'lgan tariqat maqomining yetti bosqichidir. Tasavvufda ruhiy kamolot darajalarini maqom, manzil, hol, martaba nomlari bilan tasnif etish mavjud. Ansoriy "Manozil as-soyirin" kitobida Haqqa yetishish manzilini 1000 manzil deb belgilagan bo'lsa, Hakim Termiziy "Maqosid as-solikin ilalloh" kitobida tariqat va suluk bosqichlarini "yetti 'aqaba" (tog' yo'li) iborasi bilan ifodalab, har bir 'aqaba – tavba, zuhd...ga alohida ta'rif beradi.

Termiziydagi yetti ‘aqaba bilan Attordagi yetti vodiyning tartibi va tasnifi bir-biridan tubdan farq qiladi, shu bois Attorni yetti vodiy nazariyasining ijodkori, deyishga to‘liq asos bor.

Ibn Sinoning “Tayr” qissasida qushlar ovchidan qochib, sakkiz tog‘ni oshib o‘tadilar. Ushbu motiv, ya’ni qissadagi qushlar uchib o‘tgan sakkiz tog‘ payg‘ambarimiz me’roj kechasi bosib o‘tgan osmonning sakkiz qavatiga ishora. G‘azzoliy qissasida esa qushlar uchib o‘tgan tog‘lar “vodiy” so‘zi bilan almashtiriladi. Ixtiyor, iztiror vodiylari haqida so‘z boradi. Biroq ularning soni aniq aytilmaydi. Attorda esa bu tartib aniq, ya’ni yettita qilib belgilanib, Talab, Ishq, Ma’rifat, Istig‘no, Tavhid, Hayrat va Faqr-u fano deb nom qo‘yiladi va har biriga o‘ziga xos tasnif beriladi. Navoiy “Lison ut-tayr”da vodiy nomlari va ularning tasniflarini o‘zgarishsiz qoldiradi. Lekin ularni muallif emas, qushlarning savollariga javob tariqasida Hudhud ta’riflaydi.

Hudhud ta’rifiga ko‘ra, Simurg‘ga yetishish yo‘lida dastlab Talab vodiysini kezmog‘i shart. Talab vodiysidagi yo‘lovchi dastavval kimni izlayotgani, nima xohlayotganini aniq bilmay qiynaladi, mavhumlik, nomuayyanlik uni iztirobga soladi. Dunyoviy orzu-istaklar, hoyu havaslar ma’naviy kamolot yo‘lida xalal bera boshlaydi. Shunday holga tushgan kishida tark tuyg‘usi g‘olib kelib, dunyoviy maqsadlarga boshlovchi narsalardan butkul voz kechsa (*Har nekim g‘ayri talabdur, tashlamoq, O‘zni maqsad manziliga boshlamoq*), talab vodiysidagi azob-u iztiroblar endi unga rohat va farog‘at bag‘ishlaydi. Maqsadning ulug‘ligini jondan his etgan kishining nazarida tog‘ – ravon yo‘l, fil – pashsha, sher – cho‘loq chumoliday ko‘rinadi. Hattoki, oldidan ajdaho chiqsa ham xazinaga duch keldim, deb quvonadi. Chunki ulug‘ maqsadlarga yetishmoqning sinovlari ham shunga yarasha bo‘ladi.

Dostonda vodiy mohiyatini ochib berish uchun shahzoda va uning oshiqlari haqidagi hikoyat keltirilgan. Unga ko‘ra, qadimda bir qudratli podshohning Yusufdek go‘zal o‘g‘li bo‘lib, butun olam ahli unga oshiq-u shaydo ekan. Bir kuni u sahroda aylanib yurib, minglab oshiqi zorlar uning ishqida iztirob chekayotganligini ko‘radi[25]. Ular orasida ikki devona shahzodaning diqqatini

[25] Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, ma’shuq, ya’ni ilohiy mazhar moddiy jismdan xoli deb qaraladi, uning jinsi va yoshi (ayol yoki erkak, keksa yoki navqiron

tortadi. Mulozimlar ularni ushlab qasr tomon olib keladilar. Shoh devonalardan birini zindonga tashlab, ikkinchisini o'ziga itboqar qilib tayinlaydi. Ishq dardiga giriftor bir kishi ulardan hol so'raganda, majnunsifat oshiqlarning biri bu holat mashaqqat emas, negaki u yor ko'yining iti bo'lmoqni orzu qilgani, yorning itboqari bo'lgani u uchun kutilmagan baxt ekanligini aytadi. Ikkinchisi ham bu so'zlarni tasdiq etib, oshiq o'z ma'shuqi vasliga talabgor ekan, bu azoblar unga faqat mamnunlik baxsh etishini bayon qiladi. Bu so'zlarni pana joydan eshitib turgan shahzoda benihoya xursand bo'lib, ularni o'zining yaqin mahramlariga aylantiradi. Hikoyatdan Talab vodiysiga qadam qo'ygan solik oshiqlikdan keladigan jami sinovlarga, mashaqqat va uqubatlarga tayyor turishi, ma'shuq vasli yo'lidagi qiyinchiliklarni baxt-u saodat deb qabul qilishi kerak, degan xulosa kelib chiqadi. Zero, bu vodiydan maqsad Yaratganning vaslidir.

Talab vodiysi nihoyaga yetgach, Ishq vodiysiga qadam qo'yiladi. Agar talab vodiysidagi asosiy shart – dunyoviy istaklar va bog'lanishlardan uzilish bo'lsa, Ishq vodiysida jonfidolik va poklik talab qilinadi:

Ishq aro poku qalandarliq kerak,
Shu'la bahrida samandarliq kerak.

Solik ishq shu'lasi ichida samandardek yonib kul bo'lib, yana kuldan qayta tirilishi, oshiqlik, fidoyilik va sadoqatni hayot tarziga aylantirmog'i lozim. Ammo bu muhabbat namoyish qilinmasdan, jondan aziz sir-sinoatga aylanmog'i durust. Tasavvuf ahli orasida mashhur bo'lgan "Kimki oshiq bo'lsa va ishqini pinhon tutib, shu yo'lda jonini qurbon qilsa, darhaqiqat, shahid ketibdir", mazmunidagi hadisga muvofiq, ushbu vodiy tavsifi uchun Navoiy arab tilshunos olimi, johiliyat davridagi xalq dostonlari va she'rlarning to'plovchisi Asma'iy bilan bog'liq hikoyatni keltiradi. Hikoyatga ko'ra, Asma'iy hajga ketayotib, bir chashma boshida yozuv bitilgan toshni ko'radi. Toshda shunday deb yozilgan edi: "Ey Hijoz ahli! Bir sirning chorasini topsangiz: agar kishi Ishqqa mubtalo bo'lib, Ishq uni sabr-u qaroridan judo etgan bo'lsa, nima qilsin?"

Asma'iy qo'liga qalam olib, yozuv tagiga shunday so'zlarni

---

ekanligi) ahamiyat kasb etmaydi. Shu o'rinda, buyuk so'fiy Shams Tabriziy va sohirnafas shoir Jaliloddin Rumiylarning muhabbatini esga olish kifoya.

bitadi: "Kimki bu halokatli yo'lga kirgan bo'lsa, undan qo'rqmasin". Bu so'zlarni yozib bo'lib, Asma'iy yana yo'lida davom etadi. Ertasiga yana shu joyga kelib qarasa, toshda yangi yozuv paydo bo'lgan ekan: "Agar oshiq pok bo'lsa-yu, ishqini yashirin saqlasa, lekin muhabbat shiddatidan toqati toq bo'lib, vaslga ehtiyoj sezsa, buning ilojini topmasa, nima qilsin?" Asma'iy bu so'zlarni o'qib, qalami bilan shunday deb yozib qo'yadi: "Agar o'sha dardli inson nasihatlarimdan o'z maqsadiga erishmagan bo'lsa, o'lsin va ishq o'tidan o'zini xalos qilsin!"

Oradan bir kun o'tib, oshiqning javobini bilish uchun o'sha joyga kelgan Asma'iy chashma yonida boshini toshga urib, o'zini halok etgan bir kishini ko'radi. Asma'iy bu holdan azoblanib, halok bo'lgan oshiq uchun motam tutadi va marhumni shahidlar rasmiga muvofiq kafanlamasdan kiyimi bilan qabrga qo'yadi. Ushbu hikoyatdan oshiqning asosiy maslagi – Ishq yo'lida jismdan voz kechish va yor uchun o'lmoqlikni afzal bilish, degan xulosa kelib chiqadi.

Uchinchi vodiy Ma'rifat deb nomlanadi:

Vodiyedur, yuz tuman ming onda yo'l,
Ul bu bir kelmay, oningdekkim bu ul.

Bu vodiyda kufr ahli ham, iymon ahli ham haqiqatni tanish va anglashda o'zining yo'liga ega degan qarash ustuvorlik qiladi. Har kishi bu dunyoda o'z yo'li, o'z holi va e'tiqodiga yarasha mutlaq Haqiqatdan bahramand bo'ladi. Yaxshining ham, yomonning ham o'z haqiqati bor va inson umr bo'yi o'zi bilgan haqiqatga tayanib yashaydi. Navoiy tarjima qilib keltirgan hadisi sharifga ko'ra, olamda necha odam bo'lsa, Haq taolo sari boruvchi yo'l miqdori ham shunchadir:

Mundin aytibdur nabiyi rohbar,
Kim ulusqa Haq sari bo'lsa safar.

Istasang yo'l kasratiga addu had,
Xalq anfosi bila teng bil adad.

Ammo bu yo'llar hammasi ham bir maromda bo'lmagani sababli, xalq orasida ixtilof yuzaga keladi. Butunlay noto'g'ri, haqiqatdan yiroq yo'l bo'lmagandek, juda oz yo'llar sof haqiqatga mos tushadi. To'g'ri yo'ldan adashmaslikning asosiy belgisi

– oxirzamon payg‘ambari shariatiga mos yo‘l tutish, deb fikrini xulosa qiladi Navoiy.

Vodiy ta’rifiga ilova tarzida quyidagi hikoyat keltirilgan: aytishlaricha, bir kuni bir guruh ko‘rlar taqdir taqozosi bilan Hindistonda bir muddat yashab, o‘z yurtlariga qaytibdilar. Shunda bir kishi ulardan: “Hindistonda filni ko‘rdinglarmi?” – deb so‘rabdi. Ko‘rlardan tasdiq javobini olgach, filning qanday hayvon ekanini ta’riflashlarini iltimos qilibdi. Shunda ko‘rlarning har biri filning ma’lum bir a’zosini paypaslab hosil qilgan tasavvuri asosida filni ustunga, ajdahoga, ikkita suyakka, osilib turgan ilonga, cho‘qqiga, qimirlab turgan ikki yelpig‘ichga o‘xshatibdi. Ularning ta’rifini tinglab turgan, filbonlikdan xabari bo‘lgan asli hindistonlik bo‘lgan bir donishmand ko‘rlarga tanbeh bermasdan, shunday debdi: “Garchi ular o‘z bilganlaricha so‘z aytib, bir-birlariga zid fikrlarni keltirgan bo‘lsalar-da, ularning aytganlari kechirarlidir. Chunki ular aytgan bu sifatlarning barchasini bir yerga jam qilsa, bu javoblardan fil haqidagi muayyan tasavvur paydo bo‘ladi”.

Hikoyatdan kelib chiqadigan xulosa shuki, Allohni tanish va bilish yo‘li har bir solik uchun o‘ziga xos bo‘lib, bu yo‘llar qanchalik xilma-xil bo‘lmasin, ularning maqsadi bir – Yaratganni anglashdir. Anglash esa, inkor va taassub bilan emas, ma’rifat va bilim orqali hosil bo‘ladi.

Istig‘no (ehtiyojsizlik) vodiysida qushlarning ehtiyojmand, Simurg‘ning esa ehtiyojsizligi tasviri bayonida solikning mana shu ehtiyojsizlikni anglab yetish zamiridagi holati ifodalanadi. Bu vodiyda ilohiy hikmat insoniy mantiq qonuniyatlariga mos tushmasligi, hayot jumboqlarga to‘la ekanligi, javobsiz ko‘rinadigan jumboqlarning asosiy yechimi – Yaratuvchining yaratganlariga butkul hojatsizligini anglashdir: Nuh payg‘ambar kemasiga minishi uchun minglab odamlar to‘fonda halok bo‘ladilar (holbuki Xudo bunga yo‘l bermasligi ham mumkin edi), Muso alayhissalom tug‘ilgan kechada qanchadan-qancha chaqaloqlar tig‘ damidan o‘tkaziladi; xudolik da’vosini qilgan Namrud yarim pashsha tufayli ajal sharobini ichadi; Buxtunnasr zulm bilan nom chiqargan bo‘lsa, Anushervon odillik bilan shuhrat topadi. Ammo bu ishlarning bo‘lishiga ham, bo‘lmasligiga ham Yaratgan hech qanday ehtiyoj yo zarurat sezmaydi. Kufr ham, iymon ham ehtiyojsizlik pallasida teng turgan ho-

latda solikning ishi qiyin bo‘ladi, chunki u ikkilanib, xavf va umidsizlik girdobiga tushishi mumkin:

Kufr ila dinga chu teng miqdordur,
Munda ish solikka bas dushvordur.

Vodiy mohiyatini yoritish uchun Alisher Navoiy shatranj o‘yini bilan bog‘liq hikoyatni keltiradi. Unga ko‘ra, ikki shatranj ustasi ikki tomonga o‘tirib, o‘rtaga taxtani qo‘ygan holda unga shatranj donalarini terib chiqishadi. Ikki o‘rtada kurash boshlanadi. Bunda shatranj taxtasi o‘rab olingan qal’aga, undagi kurash esa xuddi haqiqiy urush maydoniga o‘xshab qoladi. Agar o‘yin tugab, shatranj o‘ynovchi taxtaning bir chetini ko‘tarsa, bularning barchasi bir zumda yo‘qqa chiqadi. Chunki shatranj o‘ynovchi usta uchun o‘yin tugagach, shatranj donalarining hech qanday farqi qolmaydi. Shatranj donalari xalta ichiga solingach, “shoh” quyi tushishi, “piyoda” esa yuqoriga ko‘tarilishi mumkin. Xulosa shundaki, Haq nazdida barcha insonlar shatranj donalari kabi “hayot o‘yini”dan so‘ng teng daraja kasb etadilar.

Beshinchi – Tavhid vodiysida solik tafrid va tajrid maqomlarini kasb qilishi lozim bo‘ladi:

Vodiyi Tavhid ondin so‘ngra bil,
Fard o‘lub tajrid ondin so‘ngra bil...

Barchag‘a kom-u havo tajrid o‘lur,
Barchag‘a lahn-u navo tafrid o‘lur.

Tajrid va tafrid – tariqatdagi maqomlardan hisoblanadi. Zohir olamida dunyoning barcha bog‘liqliklaridan qutulmoq va botinda buning evaziga hech narsa talab qilmaslik tajrid bo‘lsa, tafrid maqomida solik bu dunyoning hoyu havaslariga berilganlardan ham uzoqlashib, o‘zining vujudini – menligini inkor etish hamda Allohga vosil bo‘lishni kasb etadi. Allohdan o‘zga mavjud yo‘qligini anglash, yakka-yu yagona Xudodan o‘zga Borliq aslida yo‘qlikka mahkumligini bilish, Allohning Bir-u Borligini tanish yo‘lida hatto o‘z borlig‘ini ham inkor eta olish – Tavhid vodiysining mohiyatini tashkil etadi. “Men”likni har qanday shaklda e’tirof etish – ikkilikka (“Men” = banda va “U” = Xudo) olib keladiki, bu Tavhid vodiysida eng katta

adashishlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan xatarlardan hisoblanadi. Shu sababli, Navoiy ta’lim beradiki:

Bir bo‘l-u, bir ko‘r-u, bir de, bir tila,
Mayl qilma munda ikkilik bila.

Vodiy mohiyatini yanada aniq ifodalash uchun Alisher Navoiy Mansur Halloj[26] bilan bog‘liq voqeani keltiradi. Unga ko‘ra, Mansur Halloj doim tilida “Analhaq” jumlasini takrorlab yuradi. Din va tariqat peshvolari: “Senga yuzlangan holat suluk ahlining ko‘piga ayon, lekin ular odob saqlab, o‘z da’volarini oshkor qilmaganlar. Sen ham nafsingni dorga sazovor qilma”, – deb nasihat qiladilar. Lekin Mansur Halloj bu jumlani takrorlashdan to‘xtamaydi. Bir kuni u tushida Rasulullоh (s.a.v.)ni ko‘radi. Rasulullоh (s.a.v.) uning dilidagi “Nega Muhammad (s.a.v.) me’roj kechasi faqat islom ummatining gunohini so‘radi, barcha osiylarning gunohini tilaganda nima bo‘lardi” degan o‘y-xayoli uchun unga tanbeh beradi:

Onda menlikning xayoli yo‘q edi,
Balki bu lafz ehtimoli yo‘q edi.

Eltgan ul erdi boshlag‘on ham ul,
Istag‘on ham ul, bag‘ishlag‘on ham ul...

Ul edi degon o‘zi, berg‘on o‘zi,
Bazl aro sochqon o‘zi, terg‘on o‘zi.

Hikoyatdan kelib chiqadigan xulosa shuki, Mansur Halloj tavhid mohiyatini to‘la anglab yetmagani uchun “menlik” xayoli bilan “Analhaq” (Men – Haqman) jumlasini takrorlab yurar edi. Aslida tavhid vodiysida “menlik”ka yo‘l yo‘q, faqat Haq bor.

Tavhid vodiysidan keyin **Hayrat vodiysi**ga ta’rif beriladi:

Vodiyi Tavhid qat’ o‘lg‘on zamon,
Vodiyi Hayrat ko‘runur begumon...

Hayrat aylar tilni gungu lol ham,
Aql zoyil, hushni pomol ham.

[26] Mansur Halloj – 858-922-yillarda yashab o‘tgan so‘fiy shaxs. “Anal Haq” – “Men Haqman” degani uchun ruhoniylar tomonidan o‘limga hukm qilingan. Tasavvufdagi sukr yo‘li tarafdorlaridan.

Tavhid vodiysida tajrid va tafrid maqomlarini egallash orqali o‘zlashtirgan narsalari o‘z mohiyatini yo‘qotganday ko‘rinadi. Haq taolodan o‘zga hech narsa mavjud emasligini kashf qilgan solik Borliq va Yo‘qlik orasida o‘zining mavjud yo nomavjudligini anglolmay, parishon holatga tushadi:

So‘rsalarkim, bormusen yo yo‘qmusen,
Hech qaysi yo ikisi-o‘qmusen?!

Bera olmas hech qaysiga javob,
Bor-u yo‘qluqqa qila olmas xitob.

Alisher Navoiy mazkur vodiy bilan bog‘liq qarashlarini ifodalash uchun bir bora vasl sharobidan mast bo‘lib, o‘zini yo‘qotgan va hajrda qolgan yigit haqidagi hikoyatni ilova qiladi. Unga ko‘ra, bir podshohning husnda yagona qizi tushida bir yigitni ko‘rib, sevib qoladi. Bir kuni otasining bazmida u yigitni ko‘rib, hushidan ayriladi. Yigit ham qizni ko‘rib, ishqda yona boshlaydi. Podshohning qizi o‘ziga yaqin bo‘lgan ikki mahram kanizagiga o‘z sirini ochib, dardiga davo topishlarini o‘tinadi. Bu ikki kanizak juda ustomon va aqlli bo‘lib, o‘z malikalarining hajr o‘tini bartaraf etish uchun yigitni izlab topib, u bilan do‘st tutinadilar. Suhbatlarda yigit o‘z ishqi haqida ularga aytib beradi. Ikki kanizak bazm uyushtirib, yigitni chorlaydilar, qo‘shiq aytib, may bilan mast qiladilar. So‘ng podshohning qizi huzuriga yigitni eltadilar. Yigit u yerda ham may ichadi, aqlni olguvchi bazmda mast bo‘ladi, mutlaqo o‘zini unutadi... Nihoyat, hushi o‘ziga qaytgach, ma’shuqa vaslining tushmi, o‘ngmi ekanini fahm etolmay, parishon bo‘ladi. Atrofdagilar uning holini so‘rashsa, men hajr o‘tida yonyapman, yana holimni so‘rab, azobga solmang, deb javob beradi. Shoir bu hikoyatni aynan hayrat vodiysi bilan bog‘lab keltirar ekan, Haq vasli sari intilgan solik hali chinakam visolga erishmay turib, undan benihoya hayratga chulg‘anib, o‘zligini unutishiga ishora qilyapti. Bu esa o‘z o‘rnida chinakam diydor uchun solik ruhini tayyorlash bosqichini o‘taydi.

So‘nggi vodiy **Faqr-u Fano vodiysi** deb ataladi. Bu vodiy ta’rifida shoir dengiz timsolidan foydalanadi. Uning talqiniga ko‘ra, odamlar, tabiat, voqea va hodisalar – borliqdan nishon beruvchi jamiyki narsalar dengizning to‘lqini kabidir. Katta den-

giz ustida har lahzada minglab to‘lqin mavj urib, yana yo‘qlikka yuz tutishi, mavjlarning mavjudligi dengiz borlig‘iga bog‘liq ekanligi, dengiz mavj ursa-urmasa, uning suvidan bir tomchi ham kamaymasligi singari atrofimizni o‘rab turgan borliqning bor-yo‘qligi Haqiqiy Borliq – Haq taolo borlig‘iga hech qanday ta’sir o‘tkazolmaydi. Biz borliq yo olam deb bilganimiz aslida dengiz mavjidek beqaror va foniy bir narsadir. Jumladan, insonning o‘zi ham foniy bo‘lishga mahkum:

Har nekim qilsang gumon topg‘on vujud,
Budi yo‘q, bu nav’ erur bori namud.

G‘ayri Haqkim, qodiri barhaqdur ul,
Borcha foniy, boqiyi mutlaqdur ul.

Ushbu vodiy sharhida Navoiy bir emas, to‘rt hikoyat keltiradi. Ular orasida “Parvonalar va sham” hikoyati alohida ahamiyatga ega. Hikoyatga ko‘ra, bir kecha parvonalar jam bo‘lib, shamga yetishmoqni maqsad qilishibdi. Qanotlarini o‘tda yoqishga hozirlab, o‘z hollarini izhor qilmoqchi bo‘libdilar. Parvonalardan biri qanotlarini qoqib, shamda yona boshlabdi va sham haqidagi so‘zlarni boshqa parvonalarga ayon qilibdi. Parvona har qancha ravshan so‘zlamasin, eshituvchilar uni anglay olmabdilar. Shunda boshqa parvonalar ham bu holni anglamoq uchun urinib ko‘ribdilar va o‘z qanotlarini kuydiribdilar. So‘nggi parvona qo‘rqmasdan o‘zini shu’laga urib, pok bo‘libdi va o‘zi ham shu’laga aylanibdi. U o‘z maqsadi ichra nobud bo‘libdi va fanoda ayni muddaoga erishibdi. Hikoyatdan kelib chiqadigan xulosa shuki, kuymay turib, sham bilan birlikka erishib bo‘lmaydi. Solik fano bo‘lmay turib, abadiylikka, Haq visoliga erisholmaydi. Shoir hikoyat so‘ngida “Foniy” taxallusini qo‘llash bilan vodiy mohiyatini yanada teranroq, chuqurroq anglatadi:

Foniyo, lofi fano urmog‘ni qo‘y,
Vasl esa koming, fano o‘tig‘a kuy.

Evrulub sham’ o‘tig‘a parvonavor,
O‘zni tashla shu’lag‘a devonavor.

Navoiy inson oliy darajadagi ma’naviy poklikka erishishi

uchun faqat axloqiy illatlardan qutulishining o‘zi kifoya emas, u jamiyatdagi ijtimoiy illatlarni ham bartaraf etishi, ulardan ustun turishi kerak, degan fikrni ilgari surar ekan, inson haqiqatni tashqaridan, o‘zga joylardan emas, balki o‘zligini anglab, o‘zidan qidirishi zarurligini ta’kidlaydi:

O‘z vujudingg‘a tafakkur aylagil,
Har ne istarsen o‘zungdin istagil.

Navoiy “Faqr-u fano vodiysining adosi”dan keyin qushlarning safarini tasvirlash uchun yana uchta bob kiritadi. Bular “Qushlarning Fano vodiysining nihoyatidin baqo mulkidin nishon topmoqlari” (166-bob), “Qushlarg‘a fano navmidlig‘ida Hudhudning irshodidin quvvat hosil bo‘lg‘oni” (167-bob) va “Qushlarning fano husulidin baqo vusulig‘a yetkoni” (169-bob) deb nomlangan boblardir. Ushbu boblarda Navoiy fano va baqo martabasini va undagi qushlarning holatini mukammal tushuntiradi va bir nechta hikoyatlar yordamida badiiy ifodalaydi. Baqo holatida qushlar uchun hamma narsa – gul-u gulshan ko‘zgu bo‘lib, ularni visolga oshno qiladi:

Ko‘rdilar o‘zni qayonkim tushti ko‘z,
Alloh-Alloh, ne ajoyibdur bu so‘z.

Kim qilib Simurg‘ o‘ttiz qush havas,
O‘zlarin ko‘rdilar ul si murg‘u bas.

Demak, qushlarning endi Simurg‘ni izlashi behuda edi. Ularning o‘zi o‘sha Simurg‘ning zarrasi, uning zuhuri edi. Qushlar ne mashaqqat bilan kelgan manzillari – Simurg‘ asli o‘zlari ekanliklarini, bu safar sadafning gavhar bo‘lmog‘i uchun – dunyo-yu nafs mayllaridan kechib, Haqiqiy o‘zlikni topish uchun bo‘lganligini anglab yetadilar. Nihoyat, vodiylar so‘ngida faqat 30 qush qolganligi ma’lum bo‘ladi. O‘ttiz qush forschada “Si murg‘” degani. Ular qaerga boqmasinlar, u yerda o‘zlarining akslarini ko‘ra boshlaydilar. Navoiyning o‘zi buni so‘z o‘yini vositasi bilan yakunlaydi. Bu dostonning falsafiy-g‘oyaviy yakuni ham edi.

Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, bu dunyo Haqning tajalliysi – Allohning jilolanishidir. Dunyodagi barcha mavjudot Allohning zuhuridir. Shu ma’noda inson ham o‘zidagi mana shu zarrani

kashf etishi, buning uchun esa juda uzun va mashaqqatli yo'lni bosib o'tmog'i kerak. Bu yuqorida keltirilganidek, yetti vodiy bo'ylab safardir. So'nggi vodiy faqr-u fano vodiysi, yana yo'qlikka aylanib, Allohga qo'shilmoqdir.

172-bobdan doston xotimasi boshlanadi. Xotima tariqatdagi yetti vodiyga bag'ishlangan munojotlar, shoirning o'z asariga bo'lgan munosabati, asarda qo'llanilgan taxallus masalasi, Sulton Husaynga madhiya va asarning yozilish sanasiga bag'ishlangan boblardan iborat.

Dostonning yakunlovchi 193-bobi "Bu nazm tarixi guftori va o'zining aste'fo va istig'fori" deb nomlanib, unda muallif o'z kitobxonidan ruhiga duo umid qilib, duogo'y kitobxonining barcha niyatlari ham Yaratgan tomonidan ijobat bo'lishini so'rab duo qiladi. Asar:

Har parishon so'zki yozdim, yo Karim,
Barchadin astag'firillo, al-azim,

degan bayt bilan yakunlanadi.

Dostonning syujeti majoziy bo'lgani kabi, undagi timsollar ham majoziydir. Simurg' – Haqqa yetishish timsoli, Hudhud – murshid, piri komil ramzi, qushlar – tariqat yo'liga kirishga otlangan soliklardir. Navoiy Simurg'ni eng oliy borliq deb e'tirof etar ekan, Xudoni olamdan tashqarida emas, balki shu olamning o'zida, butun koinot va mavjudotda mujassamlashgan, har bir kimsa va narsada zuhur etgan oliy moya – substansiya deb tushunadi. Hudhud rahnamoligidagi qushlarning ulug' maqsadi Simurg'ga yetish ekan, bu majoziy mazmun zamirida solikning Haq vasliga yetishish uchun chekkan azob-uqubatlarini anglash mumkin. Dostondagi asosiy g'oyaning ochib berilishida ulardan o'rin olgan turli hajmdagi hikoyatlar asosiy o'rin tutadi. Dostonda 65 ta hikoyat keltirilgan bo'lib, ularning 51tasi Navoiyning original ijodi bilan bog'liq, qolgani esa Attor dostonidan olingan hikoyatlardir. Hikoyatlarning jami bayt miqdori (1800 baytga yaqin) doston umumiy hajmining teng yarmini tashkil qiladi. Ushbu hikoyatlarni quyidagi guruhlarga bo'lib tasniflash mumkin:

1. Hudhud dostondagi qushlarni Simurg' yo'liga targ'ib qilib, ularga murojaat qilayotgan paytda aytilgan hikoyatlar. Bu hikoyatlar shoirning ijtimoiy fikrlarini umumlashtirib bayon

qilishga xizmat qiladi. Undagi timsollar ham ijtimoiy-didaktik ahamiyat kasb etgan bo‘lib, ularga yashil to‘n kiygan soxta darvesh, mazxaraboz hindu va bo‘yra shohi haqidagi, uquvsiz bog‘bon haqidagi, soxta zargar haqidagi, musht yeb kun ko‘ruvchi tekinxo‘r haqidagi, mechkay pahlavon haqidagi, vayronada ganj qidirgan kishi haqidagi, giyohvand darvesh haqidagi, suvga cho‘kib ketgan xasis haqidagi va hajga bormagan savdogar haqidagi hikoyatlarni kiritish mumkin.

2. Tarixiy shaxslar bilan bog‘liq ibratli fikrlar aks etgan hikoyatlar. Bular qatoriga payg‘ambarlar va valiylar to‘g‘risidagi hikoyatlar kiradi. Jumladan, Odam Safiyulloh, Ibrohim alayhissalom, Sulaymon alayhissalom bilan bog‘liq, Muhammad payg‘ambar, to‘rt nafar sahoba – Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali (r.a.) haqidagi hikoyatlar; tasavvuf namoyandalaridan Xoja Abdulloh Ansoriy, Boyazid Bistomiy, Ibrohim Adham, Abusaid Abuxayr, Abulhasan Xaraqoniy, Abu Bakr Nishopuriy, Mansur Halloj, Abul Abbos Qassob Omuliy, So‘fiyon Suriy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Muhammad Porso va Xoja Abu Nasr, tilshunos olim Asma’iy, Mahmud va Ayoz to‘g‘risidagi hikoyatlarini keltirish mumkin.

3. Keyingi turdagi hikoyatlarga muallifning falsafiy-tasavvufiy fikrlarini bayon etish uchun keltirilgan hikoyatlarni kiritish mumkin. Bularga Simurg‘ haqidagi, uning Chin shahriga tushgan pati to‘g‘risidagi, gulxanda yongan soxta oshiq haqidagi, husnini namoyish qilishga ko‘zguni vosita qilgan shoh haqidagi, shohga sovg‘a tayyorlovchi oshiqlar haqidagi, shohga oshiq bo‘lib zindonda yotishga va itboqarlikka tayyor oshiqlar to‘g‘risidagi, Sidra daraxti shoxidagi qushlar to‘g‘risidagi, Iskandarning elchilikka borganligi haqidagi, Shayx San’on haqidagi, Arastuning shogirdi to‘g‘risidagi, g‘am chekuvchi misrlik to‘g‘risidagi, Majnun al-Haq, fil va ko‘rlar xususidagi, ikki shatranjchi haqidagi, hayrat zabun etgan ma’shuq yigit to‘g‘risidagi, parvonalar va sham’i haqiqiy zikridagi, Majnun haqidagi, devona oshiq va uning oqil ma’shuqi to‘g‘risidagi, Qaqnus haqidagi, podshohdan hech nima so‘ramagan darvesh to‘g‘risidagi va yiqilgan devor haqidagi hikoyatlar misol bo‘la oladi.

“Lison ut-tayr” dostoni Alisher Navoiyning yuksak badiiy mahoratini ko‘rsatib beruvchi asar bo‘lib, doston poetikasini ta’minlaydigan muhim unsurlardan biri uning mukammal

ishlangan kompozitsiyasidir. Dostonda qush tili va umuman qushlar bilan bog'liq turli tushuncha hamda holatlardan doston muqaddimasi, qoliplovchi qissaning ibtidosi va xotimada ustalik bilan foydalanilgan. Xususan, dostondagi an'anaviy hamdning

Jon qushi chun mantiqi roz aylagay,
Tengri hamdi birla og'oz aylagay, –

degan misralar bilan boshlanishi uning qushlar tili vositasida yozilajak asar bo'lishiga ishora qiladi. Shuningdek, shoir o'z salafi Attor ta'rifini bayon etishda (Qaqnus qushi haqidagi rivoyatning keltirilishi), zamona hukmdori Sulton Husayn Boyqaro madhi bilan bog'liq o'rinlarda ham qush tili bilan bog'liq iboralardan foydalanadi.

Doston kompozitsiyasining o'ziga xos muhim xususiyatlaridan yana biri, unda "qissadan hissa" usulidan foydalanilganlikdir. Sharq adabiyotida keng istifoda etilgan ushbu usul "Lison ut-tayr" dostoni hikoyatlari so'ngida mohirlik bilan qo'llanilib, xulosaning badiiy ta'sirchanlik kuchini oshirgan. Xususan, "Xasis kishining o'limi" yoritilgan hikoyatda o'z hayotini oltin-kumush yig'ishga bag'ishlagan ziqna odam obrazi chizilib, uning hayoti fojiali o'lim bilan tugaganligi tasvirlangan va xulosa tarzida kitobxonga murojaat qilinib, shunday deyilgan:

Siym yig'moqqa natija bo'ldi bu,
Sen oning savdosidin ilkingni yu(v).

Ushbu didaktik xulosa muhim ibratli fikrni o'zida mujassamlashtirish bilan birga badiiy jihatdan yuksak shaklda ifodalangan: ikkinchi misradagi "ilkingni yuv" iborasi baytga o'ziga xos go'zallik bag'ishlab, xulosaning xalqchil chiqishni ta'minlagan. Bu xildagi "qissadan hissa" chiqarishning yana bir necha namunalarini dostondagi "Riyokor qalandar", "Masxaraboz hindu", "Soxta oshiq", "Ganj axtargan devona" kabi hikoyatlar tarkibida ham uchratish mumkin.

Navoiyning badiiy asarda konflikt hosil qilish mahorati mazkur dostonda ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'lgan. Qoliplovchi qissa syujetida konfliktning turli-tuman ko'rinishlari zuhur etgan bo'lib, doston keskin dramatik epizod – qushlarning o'rin talashish voqeasi bilan boshlanadi va asar konflikti mazkur epizod bilan bog'liq holda kelib chiqadi. Bu konflikt

qushlarning safardan bosh tortishlari tarzida rivojlanib, keyinchalik ular bilan yo'l mashaqqatlari o'rtasidagi mardonavor kurash shaklida davom etadi. Bu asar konfliktining zohiriy ko'rinishidir. Aslida esa u doston mazmuni bilan uzviy bog'liq holda insondagi ijobiy va salbiy xususiyatlarning o'zaro kurashi ma'nosini ifodalaydi. Dostonda konflikt ikki shaklda (tashqi va ichki) namoyon bo'lib, chuqur ijtimoiy mohiyatga egadir. Bu mazkur dostonning majoziy xususiyati bilan izohlanadi.

"Lison ut-tayr" dostoni badiiyatiga xos muhim jihatlardan yana biri shoirning portret yaratish mahoratidir. Dostonda qushlarning o'ziga xos "portret"lari mohirlik bilan chizilgan. Navoiy qushlar va Hudhud munozarasi epizodida har bir qushning o'ziga so'z berib, ularning o'z tilidan tashqi qiyofalari, shakli-shamoyili va turmush tarzi haqidagi muhim tomonlarni gavdalantiradi. Masalan, shoir qarchig'ayni tavsiflar ekan, avval uning changal va minqor (tumshuq)ini, keyin ov qushi ekanligi va shohlar qo'llarida ko'tarib yurishlarini, ya'ni o'sha qushga xos muhim belgilarni uning o'z tilidan ta'riflab beradi. Yoki burgutning tog'larda yashashi, savlati yirik, qahri yomonligi va shu kabi unga xos xususiyatlar burgut tilida yuksak mahorat bilan bayon qilingan:

Savlatim mufritduru qahrim yamon,
Tog' mulki ichra menmen qahramon.

Necha kaklik to'madur har kun manga,
Bo'lmasa bu uyqu kelmas tun manga.

Yuqorida ko'ringanidek, "Lison ut-tayr" dostoni Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostoniga javob tarzida yozilgan. Bir qarashda bu ikki dostondagi voqealar rivoji ham, undagi qahramonlar ham bir xildek tasavvur uyg'onadi. Aslida, har ikki muallif g'oyaviy nuqtai nazar hamda qahramonlarga zimmasidagi badiiy yuk jihatidan bir-birlaridan farqlanadilar. Adabiyotshunos Z.Mamadaliyeva o'zining "Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" dostonidagi ramziy obrazlar tizimi" nomli tadqiqotida mazkur ikki dostondagi ramziy timsollarni talqin qilish asnosida Navoiy dostonidagi Hudhudning o'ziga xos bir necha xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi:

Navoiy talqinidagi Hudhud komil inson ramzi bo'lish bilan

birga muallifning dostondagi birinchi raqamli timsoli hamdir;

Navoiy tasvirlagan Hudhud yuksak irfoniy masalalarni har bir qushning darajasiga mos ravishda sodda hayotiy voqealar va misollar bilan tushuntirib beradi;

Fariddiddin Attor o'z dostonida asar syujetini hech bir voqeaniz qushlarni ta'riflash bilan boshlaydi, "Lison ut-tayr"da esa qushlarni ta'riflash vazifasi Hudhudga yuklanadi;

"Mantiq ut-tayr"da yetti vodiy ta'rifi kelganda Hudhudning vazifasi tugaydi, lekin Navoiy dostonidagi Hudhud qushlarni so'nggi – faqr-u fano vodiysida ham qo'llab-quvvatlaydi.

Shuningdek, tadqiqot muallifining fikricha, "Mantiq ut-tayr"dagi g'oyaga ko'ra, undagi qushlar Simurg'ning soyasi, xolos. Ya'ni ular Simurg'ga intilganlaridagina ahamiyatli. Qushlar (insonlar)ning bu dunyodagi hayoti hijron va ayriliqda. Navoiyda esa ularning yaratilishi hijron va ayriliqda emas, balki Yaratganning hikmatidadir. Shu ma'noda ikki dostonda vahdat ul-vujud falsafasining ikki xil talqini aks etganligini ko'ramiz. Attor dostonida qushlar so'nggi vodiyda Simurg' bilan birlik kasb etadilar, Navoiy dostonida esa riyozat chekish asnosida poklanib, o'zlaridagi Simurg'ni kashf etadilar.

"Lison ut-tayr" dostoni Attor dostoni singari ramal bahrining *ramali musaddasi mahzuf* vazni (afoyili va taqti'i: foilotun foilotun foilun – V – – / – V – – / – V –) vaznida yozilgan. Filologiya fanlari nomzodi Sh.Eshonxo'jayev dostonning ilmiy-tanqidiy matnini yaratib, izohlar bilan nashrga tayyorlagan.

Tayanch tushunchalar

ruh ul-amin
nuri Muhammadiya
talab vodiysi
ishq vodiysi
ma'rifat vodiysi
istig'no vodiysi
tavhid vodiysi
hayrat vodiysi
faqr-u fano vodiysi
ramali musaddasi mahzuf
ramziy timsollar

Savol va topshiriqlar

1. "Lison ut-tayr" muqaddimasida "Xamsa"da zikr etilmagan qaysi tarixiy shaxslarga bag'ishlangan maxsus boblar bor?

2. Dostonda mavjud ramziy timsollarni sharhlang.

3. Dostonda keltirilgan vodiylar mohiyatini izohlashga harakat qiling.

4. "Shayx San'on hikoyati"dan kelib chiqadigan xulosani bayon etishga urinib ko'ring.

5. Dostonda Simurg' va qushlar dialoglari orqali qanday g'oyalar ilgari suriladi?

6. Navoiy nima uchun "Lison ut-tayr"da aynan Foniy taxallusini qo'llagan?

ADABIYOTLAR:

Matn va manbalar:

1. Алишер Навоий. Лисон ут тайр. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1994. 12-жилд.

2. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.9. – 768 б.

3. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr (nasriy bayoni bilan). – T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2005.

4. Лисонут тайр (насрий баёни билан). Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

5. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.

6. Бертельс Е.Э. Навои и Аттар / Суфизм и суфийская литература. – М.: 1965. – С. 377-421.

7. Имомназаров М. Ҳақиқат ва мажоз (2-3-мақолалар) // Шарқ юлдузи. – Т., 1989. – №4; 1991. – №4.

8. Н.Комилов. Тасаввуф. –Т.: Movarounnahr – O'zbekiston, 2009.

9. Олимов С. Ишқ, ошиқ ва маъшуқ. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1992.

10. Шарипов Ш. Алишер Навоий "Лисонут тайр" достонининг генезиси ва ғоявий-бадиий хусусиятлари. – Т.: Фан, 1982. – 96 б.

11. Шарипов Ш. "Лисонут тайр" ҳақиқати. – Т.: Маънавият, 1998.

12. Мамадалиева З. "Лисон ут-тайр" достонидаги рамзий образлар тизими. - Филол.фан.номз.дисс... – Т., 2011.

13. Мамадалиева З. "Лисон ут-тайр" образлари: рамз ва мажоз олами. – Т.: TAMADDUN, 2014.



ALISHER NAVOIYNING ILMIY MEROSI

Reja:

1. Adabiyotshunoslik asarlari. "Mufradot" – muammo janriga bag'ishlangan asar.

2. "Majolis un-nafois" – turkiy tildagi birinchi tazkira sifatida.

3. "Mezon ul-avzon"da aruz nazariyasiga doir masalalarning yoritilishi.

4. Alisher Navoiy – tilshunos. "Muhokamat ul-lug'atayn"da ikki til muhohasasi.

5. Tarixiy asarlari. "Tarixi muluki Ajam" va "Tarixi anbiyo va hukamo" – mumtoz tarixnavislik manbasi sifatida.

Alisher Navoiy badiiy ijod bilan birga ilmiy faoliyatni teng olib borgan buyuk mutafakkirdir. Uning adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix, din tarixi va nazariyasiga doir ko'plab asarlari muhim ma'lumotlarni qamrab olganligi, aniq dalillarga asoslanganligi va obyektiv xulosalarga egaligi bilan bugungi kun ilm-fani uchun ham nihoyatda qimmatlidir.

Alisher Navoiy adabiyotshunoslikka doir uch asar yaratgan bo'lib, uning **"Mufradot"** yoki "Risolai muammo" asari hijriy 890, milodiy 1485-yilda fors-tojik tilida yaratilgan[27]. Manbalarda asar nomi "Risolai mufradot" ("Makorim ul-axloq"), "Mufradot dar fanni muammo" ("Qomus ul-a'lom", "Tuhfai Somiy"), ayrim qo'lyozma nusxalarda "Risolai muammo" tarzida ham qayd qilingan. Asarning muqaddimasida esa bu haqda shunday deyiladi: "Va chun in muhaqqar dar in fan ba mushobihai "alif" va "be" bud, musammo ba "Mufradot" namud" (Mazmuni: Ushbu arzimas asar bu (muammo) fanda "Alifbe"ga o'xshagani sababli "Mufradot" deb ot qo'yiladi).

Mufradot so'zi istiloh sifatida quyidagi ma'nolarni ifodalagan: 1) mumtoz o'zbek she'riyatida eng kichik janr hisoblanmish fardning ko'pligi; devon va kulliyotlarda fardlarga ajratilgan

[27] "Mufradot" asari bo'yicha L.Zohidov nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan.

qismning nomlanishi; 2) alifbodagi harflarning alohida-alohida shakllari hamda birdan o‘ngacha bo‘lgan raqamlarning umumiy nomi. Harflarning yolg‘iz shakllarini yozishda husni xat bo‘yicha qo‘llanmalar “Mufradot”, to‘la kalligrafik mashqlar esa “Murakkabot” deyiladi.

Asarda keltirilgan misollar asosan fard – baytlar shaklida bo‘lganligi hamda shoir kamtarlik bilan muammo sohasining boshlang‘ich ma’lumotini endi egallaganini ta’kidlagani, shuningdek, bu kitob muammo ilmini endi o‘rganayotgan kishilar uchun mo‘ljallab yozilgani sababli “Mufradot” deb nomlangan.

Risola muammo janrini yechish qonun-qoidalariga bag‘ishlangan. Muammo arabcha “ko‘r qilingan”, “yashiringan” ma’nolarini bildiruvchi va bir, ba’zan esa ikki baytdan iborat mustaqil she’r turidir. Muammoda biror ism yoki narsa-buyum nomi berkitiladi. Bunda arab yozuvidagi harflarni turlicha o‘zgartirish yo‘li bilan yashiringan so‘zlar topiladi. Muammo 2 xil ma’no asosiga quriladi: tashqi (chalg‘ituvchi) ma’no va ichki (asosiy ma’no). Tashqi ma’noda baytning lug‘aviy ma’nosi nazarda tutiladi, ichki ma’no esa yashiringan so‘zni topish bilan bog‘liq ma’nodir.

Alisher Navoiy “Risolai muammo” asarida o‘zidan avval yaratilgan asarlarning murakkabligi va ulardagi kamchiliklar haqida gapirar ekan, o‘z asarida iloji boricha ularni bartaraf qilishga intiladi. Shoir risolaning kirish qismida g‘oyat kamtarlik bilan uni yaratishdan maqsad olimlar e’tiboriga havola qilish emas, balki keng xalq ommasi, xususan, yosh avlodga muammo sirlarini o‘rgatish ekanligini ta’kidlaydi:

“*Bu muxtasar asarning risolalar qatoriga kirish qobiliyati va bu kaminada uni olimlar ko‘zlariga ko‘rsatish salohiyati bo‘lmasa ham, bolalarga muammo amallarini o‘rganishlarini osonlashtirish uchun yarashi mumkin*”.

Risolaning yozilish tarixi haqida “Xamsat ul-mutahayyirin” asarida ham ma’lumot beriladi. Asarda aytilishicha, bir kuni Alisher Navoiy o‘zidan avval muammo haqida yaratilgan asarlar va ulardagi murakkabliklar haqida o‘ylab o‘tirganida, uning huzuriga Abdurahmon Jomiy tashrif buyuradi. Navoiy unga muammoga doir sodda va oddiy xalq ommasi uchun tushunarli bo‘lgan asar yozmoqchi ekanligini aytadi. Shunda Jomiy o‘zi ham anchadan beri shu haqda o‘ylab yurganligini ta’kidlab, qis-

qa muddat ichida "Risolai muammoi manzum" asarini yaratadi va Alisher Navoiyga ko'rsatadi. Navoiy bu asarning ham ancha murakkab (xalq ommasi uchun tushunarsiz) ekanligini ko'rib, o'zi "Risolai muammo" asarini yaratadi va Jomiyga tuhfa qiladi. Jomiy asarni nihoyatda yuksak baholab, o'g'li Ziyovuddin Yusuf uchun darslik sifatida tavsiya etadi.

"Mufradot" asarida muammoning turli uslub va amallari ixcham, ravon tilda bayon qilinadi. Muammo amallariga keltirilgan misollar ham nihoyatda aniq va tushunarlidir.

Asarda Alisher Navoiy muammo amallarini 3 qismga ajratadi:

a'moli tahsiliy – hosil qilish amallari;

a'moli takmiliy – mukammallashtirish amallari;

a'moli tashiliy – osonlashtirish amallari.

Navoiy *a'moli tahsiliy*ga ta'rif berar ekan, uning *intiqod* (saralash) degan turini izohlab, unga ko'ra so'zning ba'zi harflarini olish orqali muammo hosil qilinishini aytadi va ODAM ismida

Dili moro chu xohy boz justash
Z–ohu dardu mehnat cho' naxustash

(Ma'nosi:

Dilimizni yana axtarmoqchi bo'lsang,
Oh, dard, mehnatdan birinchisini qidir)

muammosini misol qilib keltiradi. Bu muammoni yechish uchun oh, dard, mehnat so'zlarining bosh harflari olinsa, ODAM ismi kelib chiqadi.

Shuningdek, MALIK ismida

Jonibi huru so'yi Kavsar-u Firdavs mapo'y,
Ruxi on moh-u labi la'l-u sari ko'yash jo'y.

(Mazmuni:

Hur, Kavsar, Firdavs tomoniga borib yurma,
Ul moh(oy)ning yuzini, la'l labini va ko'chasining boshini izla)

muammosi keltirilib, bunda moh, la'l va ko'cha so'zlarining boshi, ya'ni birinchi harflari olinishi orqali MALIK ismi kelib chiqishi ta'kidlanadi.

Muammoni yechish amallarining ikkinchisi *a'moli takmiliy*, ya'ni mukammallashtirish amallari deb atalib, uning o'zi yana 3 turga bo'linadi: ta'lif, isqot, qalb. *Ta'lif* (ulash)ga ko'ra, misradagi ba'zi so'zlarning bir-biri bilan qo'shilishi natijasida yashiringan ism hosil qilinadi. Masalan:

Chun bibirad jom ba so'i dahan,
Qatra zi lab pok kunad mohi man

(Mazmuni: *Mening oyim jom (qadah)ni dahan (og'zi) tomon olib borsa,*
Labidagi qatralarni toza qiladi).

Bunda "jom" so'zi "dahan" (og'iz) tomonga, ya'ni "d" tomonga olib boriladi va "jomid" so'zi hosil bo'ladi, ikkinchi misrada nazarda tutilgan labdagi qatra, ya'ni nuqta tozalansa (olib tashlansa), "Homid" ismi kelib chiqadi.

Asarda shu tarzda 3 amal, 15 qism va 48 ta uslub qoidalari va ular bilan bog'liq holda 121 ta muammo va uni yechish usullari ko'rsatib beriladi.

"Mufradot" asari shu mavzudagi boshqa ilmiy risolalardan bir necha xususiyati bilan farq qiladi. Asar muallifning o'zi ta'kidlaganidek, tushunarli qoida va shu qoidaga kerakli misollardan tarkib topgan. Risolada oddiylikdan murakkablik tomonga borish tamoyiliga izchil rioya qilingan. Dastlab muammo ilmiga ta'rif berilib, so'ng tushunilishi oson bo'lgan qoidalar va misollar keltirilgan. Shuningdek, Navoiy bu asarni qo'llanma sifatida yozgani bois ilmiy munozaralarga kirishmasdan, asosiy e'tiborni umum e'tirof etilgan qoida va qonuniyatlarni yoritishga qaratgan. "Mufradot"da keltirilgan misollarning barchasi fardda yozilgan bo'lib, boshqa risolalardan farqli o'laroq, "Qaro", "Temur", "Bek" kabi o'zbekcha ismlar asosida ham muammolar keltirilgan. Shuningdek, Navoiy boshqa risolalarda uchraydigan va tatbiq qilinishi nisbatan mushkul bo'lgan qoida hamda amallar (masalan, tahrik va taskin, izhor va asror, ma'ruf va majhul, ta'rib va ta'jim kabi qoidalar)ni keltirmasdan, imkoni boricha bu fanni jimjimadorlik va murakkablikdan xoli ko'rishni istagan.

"Mufradot" asarida yoritilgan qoida va amallar devonlardagi boshqa turkiy va forsiy muammolarni yechishda ham amaliy qo'llanma vazifasini bajaradi.

Umuman olganda, Alisher Navoiyning «Mufradot» asari muammoning turli uslub qoidalari ixcham va tushunarli tilda bayon qilib berilganligi bilan adabiyotshunoslikda muhim ilmiy qimmat kasb etadi.

Alisher Navoiyning adabiyotshunos olim sifatidagi faoliyatini ko'rsatib beruvchi yana bir asar bu **"Majolis un-nafois"**

tazkirasidir[28]. Navoiy tazkirani 1491–1498-yillar davomida yaratadi. Tazkirada XV asrda yashab, faoliyat yuritgan 459 shoir haqida ma'lumot keltiriladi. Alisher Navoiy tazkiraning muqaddimasida asarning tarkibiy qismi va nomlanishi haqida shunday yozadi: "*...chun bu maqsudg'a yetildi, oni sekkiz qism etildi har qismi bir majlisg'a mavsum bo'ldi va majmuig'a "Majolis un-nafois" ot qo'yildi*". Tazkiradagi shoirlar majlis, ya'ni qismlarga quyidagicha taqsimlangan: 1-majlisda 46 ta, 2-majlisda 91 ta, 3-majlisda 175 ta, 4-majlisda 72 ta, 5-majlisda 21 ta, 6-majlisda 31 ta, 7-majlisda 22 ta va 8-majlisda Husayn Boyqaro bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan.

Tazkiraning birinchi majlisi "Jamoati maxodim va azizlar zikridakim, bu faqir alarning sharif zamonining oxirida erdim va mulozimatlari sharafiga musharraf bo'lmadim" degan nom bilan tasnif etilgan bo'lib, bunda hazrat Navoiy o'z tazkirasini "tabarruk qilmoq uchun" shayxlardan Mir Qosim Anvor zikri bilan boshlaganini ta'kidlaydi:

"*Ul jumladin soliki atvor va koshifi asror, ya'ni Hazrati Amir Qosim Anvor (quddisa sirruhu)dur. Har necha alarning rutbasi shoirlig poyasidin yuqoriroqdur va valoyat ahli zumrasida vasfdin toshqariroq, ammo chun haqoyiq va maorif adosida nazm libosi dilpazirroq uchun iltifot qilur ekandurlar, tayammun jihatidin bu muxtasarni alarning sharif ismlari bila ibtido qilildi*".

Qosim Anvordan keyin uning shogirdlari: Mir Maxdum va Hofizi Sa'd haqida ma'lumotlar beriladi.

Tazkiraning 2-majlisida shoir bolaligi va yigitlik paytida suhbatlariga musharraf bo'lgan shoirlar haqida hikoya qilinadi. Bu majlis mashhur tarixchi, "Zafarnoma" muallifi Sharafidddin Ali Yazdiy zikri bilan boshlanadi. Majlisda Alisher Navoiy o'zining tarbiyasi va ijodiy kamolotiga alohida ta'sir ko'rsatgan zotlar: Xoja Fazlulloh Abullaysiy, Shayx Sadriddin Ravosiy, Shayx Kamol Turbatiy, Darvesh Mansur, Hofiz Ali Jomiy, Xoja Yusuf Burhon; o'z zamonining taniqli shoirlari: Mavlono Lutfiy, Yaqiniy, Atoyi, Muqimiy, Sakkokiy, shoir tog'alari Mir Said Kobuliy, Muhammad Ali G'aribiy, farzand o'rnida qadrlagani shoir Mirzobek, ustozi va do'sti Sayyid Hasan Ardasher haqida ma'lumot beradi. Xususan, Alisher Navoiy Mirzobek haqida yozar ekan, uning juda erta vafot etganini, badiiyat jihatdan

[28] Mazkur asar prof. S.G'aniyeva tomonidan chuqur tadqiq qilingan.

yetuk baytlar bitsa-da, ularni yakuniga yetkazmaganligini afsus bilan bayon etadi. Jumladan, uning:

Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur,
Kim jonga qaro balo bo'lubtur, –

deb boshlanuvchi matla'sini tugatib, o'z devoniga kiritganligini aytadi.

Tazkiraning 3-majlisi o'z davri she'riyatiga ulkan hissa qo'shgan yuksak tab'li ijodkorlar haqida bo'lib, buyuk shoir Abdurahmon Jomiy zikri bilan ochiladi. Majlisda, shuningdek, Amir Shayxim Suhayliy, Abdulloh Hotifiy, Osafiy Hiraviy, Zova Qozisi kabi "Xamsa" dostonlariga tatabbu' bitgan ijodkorlar, Sayfiy Buxoriy kabi muammo va aruz ilmiga doir risola bitgan ijodkor, Kamoliddin Binoiy, Gadoiy kabi sohibi devon shoirlar haqida ma'lumotlar keltiriladi.

To'rtinchi majlisda zamon fozillari – she'rda mashhur bo'lmasalar-da, ammo ba'zan latif bayt aytuvchi ijodkorlar haqida so'z boradi. Alisher Navoiy bu majlisni kamoloti "azharu min ash-shams" (quyoshdan porloq) shaxs – Pahlavon Muhammad Go'shtigir zikri bilan boshlaydi. Shoir uning pahlavonligi u erishgan kamolotning eng quyi darajasi bo'lib, musiqa ilmida o'z davrining benaziri ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, nazm aytishda ham yuksak iqtidorga egaligini aytib, Husayn Boyqaro Pahlavon Muhammadning quyidagi baytiga ming oltin tanga tuhfa qilganligini faxr bilan tilga oladi:

Guftamash: "Dar olami ishqi tu koram bo g'am ast",
Guft xandon zeri lab: "G'am nest, kori olam ast".

(Mazmuni: Unga aytdimki, sening ishqing olamida ishim g'amdan iborat bo'ldi.
U kulgu aralash miyig'ida: "g'am emas, olamning ishidir", dedi).

Ushbu majlisda shuningdek, Xoja Kamoliddin Udiy, Atoulloh Husayniy, Husayn Voiz Koshifiy, Mirxond, Xondamir, Sulton Ali Mashhadiy kabi zamonasining fozillari haqida so'z boradi.

Tazkiraning 5-majlisi Xurosonning "tab'i nazmi bor" mirzozodalari zikrida bo'lib, Davlatshoh Samarqandiy ta'rifi bilan boshlanadi. Alisher Navoiy Davlatshohning hasham va mol-dunyodan voz kechib, faqrlik yo'lini tutganligi haqida ma'lumot

berar ekan, uning "Majmua' ush-shuaro" ("Tazkirat ush-shuaro") asarini mutolaa qilgan shaxs Davlatshohning iste'dodi va kamoloti qay darajada ekanligidan xabar topadi, degan fikrni keltiradi. Mazkur majlisda, shuningdek, Mir Husayn Ali Jaloyir, Muhammad Solih, jiyani Mir Haydar Sabuhiy, akasining nabirasi Mir Ibrohim kabi mirzozodalar haqida ham ma'lumotlar keltiriladi.

Tazkiraning 6-majlisida Xurosondan tashqaridagi, xususan Samarqanddagi fozillar haqida so'z boradi. Ushbu majlis Samarqand hokimi Ahmad Hojibek ta'rifi bilan ochiladi. Alisher Navoiy uning "Vafoiy" taxallusi bilan she'rlar bitishini, Hirotda ham o'n yil hokimlik qilganligini, "surati xush va siyrati dilkash" shaxs ekanligini ta'kidlab, jangchi sifatidagi shijoati va botirligini alohida tahsin qiladi. Uning ijodidan quyidagi matla'ni keltiradi:

Girifti joni man az tan ba zulfi purshikan basti,
Kushodi parda az ruxsori xeshu chashmi man basti.

(Mazmuni: Tanimdan jonimni olib, ko'p zanjirli soching bilan bog'lading, yuzingdan pardani ochib (u bilan) ko'zimni bog'lading).

Mazkur majlisda Ulug'bek Mirzo madrasasining mudarrisi Xoja Xurd, Nizomiy "Layli va Majnun"iga tatabbu' bitgan Xoja Imod Loriy, Kirmon viloyati hokimi Amir Mahmud Barlos va boshqalar haqida ham ma'lumotlar keltiriladi.

Yettinchi majlis Amir Temur, temuriy ijodkorlar va o'sha davrdagi boshqa hukmdor ijodkorlar (Ya'qub Mirzo) zikriga bag'ishlangan. Unda Sohibqirondan boshlab Sulton Ali Mirzogacha jami 22 shaxs haqida so'z boradi. Tazkiraning so'nggi sakkizinchi majlisi to'laligicha Husayn Boyqaro – Husayniy ijodiga bag'ishlanib, uning devonidagi 164 g'azalining matla'ini keltiradi va u qo'llagan badiiy timsollar, she'riy san'atlar, nozik ma'no va ohorli tashbihlar xususida fikr yuritadi. Jumladan, uni *"xub ash'ori va marg'ub abyoti bag'oyat ko'ptur"* deb, matla'larini *"bu matla' g'arib ado topibdur"*, *"ajab o'tluq matla' tushubturkim"*, *"radifi bag'oyat shirin va dilpazir va rangin voqe' bo'lubtur"*, *"bu matla'dek oz voqe' bo'lubturkim"*, *"bu matla' so'znok voqe' bo'lubturkim"*, *"bu matla' yagona va bag'oyat oshiqona voqe' bo'lubtur"* kabi sifatlar bilan ta'riflaydi.

Tazkirada Husayn Boyqaroning:

Hajring o'ti jismi zorim qildi kul, ey yor, bil,
Gar bino qilsang mazorim tarhin ul kul birla qil –

matla'li g'azaliga o'z davrida ko'plab naziralar yozilganligi, ammo hech biri Husayn Boyqaro g'azalichalik mashhur bo'lmaganligi aytiladi. Sulton nazira yozish san'atida ham usta bo'lganligini Mavlono Yaqiniyning bir she'riga ikki nazira bog'laganidan bilish mumkin. Alisher Navoiy uning:

Ey visoling xasta ko'nglum marhami, oromi jon,
O'lmadim hijron elidin men qatiq jonlig' yamon –

matla'sini Mavlono tirik bo'lganda, mazkur she'r o'z g'azalidan yaxshiroq ekanligini inkor etmas, hatto bu bahr va qofiyadagi naziralarning ikkalasi bir-biridan yaxshi ekanligini tasdiqlar edi, deydi.

Tazkiraning "Xilvat" deb atalgan xotima qismida Husayniyning daqiq uslubi va nuktadonligi haqida ma'lumot beruvchi ikki voqea keltirilgan. Ulardan birida Navoiy bir kuni mavlono Lutfiydan Xusrav Dehlaviyning hindcha she'rlaridan birida balchiqqa toyib yiqilayozgan yorning yomg'ir rishtasini ushlab, turib ketganligi haqidagi lavhani eshitib, Dehlaviyning nafis taxayyuliga ofarin aytganligi, bu haqda Husayn Boyqaroga aytganida, u yomg'ir tomchilari yuqoridan pastga tushganligi uchun mahbubaning ularga osilib, o'rnidan turib ketishi mantiqsizlik deb e'tiroz bildirganligi va quyidagi baytni o'qiganligini aytadi:

Za'fdin kulbamda qo'pmoq istasam aylar madad,
Ankabute rishta osqon bo'lsa har devorg'a.

Shundan so'ng Navoiy Husayn Boyqaroning zakiyligiga tahsinlar aytib, o'z nuqsonini anglab etadi va shohning haqqiga duolar o'qiydi. Ikkinchi voqeaga ko'ra, hisorlik yosh shoir Qabuliy yangi yozgan g'azalini Navoiyga o'qib berganida, Navoiy uning ikkinchi baytiga o'zgartirish kiritib:

Sarv moyil bo'ldikim, o'pgay ayog'ing tufrog'in,
Yo'qsa har soat sabo tahrikidin xam bo'lmadi –

tarzida tuzatib beradi. Mazkur g'azal Husayn Boyqaroning e'tiboriga havola qilinganida, u ikkinchi baytning Alisher

Navoiy qalamiga mansubligini darhol payqaydi. Bu holdan atrofdagilar hayratga tushadilar.

Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da adabiyot maydonida endigina ko'rina boshlagan shoirlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Buni quyidagi misollarda ko'rish mumkin:

"*Mavlono Sifotiy emdi paydo bo'lg'onlardandur, faqir hanuz ani ko'rmaydurmen, ammo she'rin eshitibmen*";

"*Mavlono Asiriy ham emdi paydo bo'lg'on xushtab' yigitlardindur*" va boshqalar.

"Majolis un-nafois"da o'sha davrda yashagan ba'zi ayol shoiralar haqida ham ma'lumot keltiriladi. Garchi ularning nomlari tazkirada alohida ijodkor sifatida keltirilmasa ham, ular haqidagi shoirning qaydlari adabiyotshunoslik uchun nihoyatda muhimdir. Alisher Navoiy tazkiraning shoir Shayxzoda Ansoriyga bag'ishlangan faslida "andoq zohir bo'lurkim, volidasi ham xushtab'dur va Bediliy taxallus qilur" degan ma'lumotni keltirsa, Mavlono Sulaymoniy haqidagi faslda Hofiz Sheroziy g'azaliga nazira tariqasida yozilgan va Mavlono Sulaymoniyniki deb hisoblangan she'r haqida "Va mashhuri mundoqdururkim, bu abyot Mavlono Hakim tabibning xotini Mehriningdur" deb yozadi.

Tazkirada shoirlarning bilim darajasi, fe'l-atvori, axloqi bilan bog'liq xususiyatlar ham alohida ko'rsatilgan. Har bir shoirga berilgan tavsif uning ijodidan namuna keltirish bilan asoslangan.

Asarda badiiy ijod bilan bog'liq nazariy masalalar yuzasidan ham fikr bildiriladi: ba'zi shoirlarning she'rlaridagi jiddiy nuqsonlar tanqid ostiga olinadi. Navoiy Atoyi, Baqoiy, mavlono Nargis, Qobuliy kabi shoirlarga baho berar ekan, ularning she'rlaridagi shakliy jihatlar, xususan, qofiyasiga alohida ahamiyat qaratadi va nuktadon she'rshunos sifatida namoyon bo'ladi. Tazkirada o'sha davr adabiy muhitidagi qizg'in jarayon, adabiyotdagi poetik janr va turlar rang-barangligi ham ko'rsatib berilgan. Asar jonli va ravon tilda, ixcham va sodda uslubda yozilgan. Navoiy g'oyat siqiq jumlalarga katta ijtimoiy yoki badiiy voqelik va maqsadni singdirishga intilgan. Shu ma'noda tazkira XV asr ilmiy nasrining go'zal namunasi hisoblanadi.

"Majolis un-nafois" Navoiyning hayoti va faoliyatini o'rganishda ham muhim avtobiografik manba hisoblanadi. Tazki-

ra orqali shoirning qaysi hududlarda bo‘lgani, kimlar bilan uchrashgani, ustozlari, do‘slari, yaqin kishilari, hamsuhbatlari, qarindoshlari, farzandi o‘rnidagi shaxslar va h.k.lar haqida ma’lumot olish mumkin.

Navoiy tazkirasida nomlari tilga olingan ko‘p shoirlarning asarlari bizgacha yetib kelmagan. Bu jihatdan ham “Majolis un-nafois” g‘oyat nodir manba bo‘lib, adabiyotshunoslik uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

“Majolis un-nafois” boshqa xalqlar tillariga ham tarjima qilinib, tazkirachilikning rivojiga samarali ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, XVI asrda fors tiliga 3 marta (Faxriy Hirotiy, “Latoyifnoma”, 1521–22, Hirot; Muhammad Qazviniy, 1522–23, Istanbul; Shoh Ali Abdulali, 1598, Nishopur), bugungi kungacha turli tillarga 7 marta to‘liq tarjima qilingan. Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”, Som Mirzoning “Tuhfai Somiy” va boshqa ko‘plab tazkiralar Navoiy tazkirasi ta’sirida maydonga kelgan. “Majolis un-nafois”ning XV asrning oxiri – XVI asrning boshlarida ko‘chirilgan bir necha nusxasi Vena, Parij, Boku, Sankt-Peterburg, Toshkent va boshqa joylarda saqlanmoqda.

Alisher Navoiyning **“Mezon ul-avzon”** asari 1492–1493-yillarda yaratilgan[29]. Navoiy turkiy tildagi adabiyotshunoslik masalalariga bag‘ishlangan Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asari bilan tanish bo‘lmagani uchun aruz nazariyasiga doir qonun-qoidalarni turkiy tilda ilk marta bayon qilayotganini alohida ta’kidlaydi, xususan *“g‘araz bu maqolotdin va maqsud bu muqaddimotdin bu erdikim, chun turk alfozi bilakim nazm voqi’ bo‘lubdur, anga zobitaye va qonune yo‘q erkondur...”* deb yozarkan, turkiy tilda aruz qonun-qoidalariga oid maxsus asar yo‘qligini aytib o‘tadi.

“Mezon ul-avzon” muqaddima, asosiy qism va kichik xotimadan iborat. Muqaddimada Allohga hamd aytilgach, Sulton Husayn Boyqaroning ushbu asarni yozishga ilhomlantirganligi haqida so‘z boradi. Unda aytilishicha, Husayn Boyqaro Amir Xusrav Dehlaviyning 18 ming baytdan iborat g‘azaliyotini yig‘dirib, bir to‘plam holiga keltiradi. Xusrav Dehlaviy she’rlarining ko‘pi murakkab bahr va vaznlarda bo‘lib, ularni aniqlashda hatto ba’zi shoirlar ham ojizlik qilar edilar. Husayn Boy-

[29] “Mezon ul-avzon” asari bo‘yicha S.Mirzayev, I.Sultonov, A.Hojiahmedov kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

qaroning topshirig‘i bilan aruzshunoslar Xusrav Dehlaviyning har bir she’ri ustiga shu she’rning vaznini yozib chiqadilar. Shundan so‘ng devon tuzishda har bir she’rning vaznini qayd etib qo‘yish odat tusiga kiradi. Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti ham shu yo‘sinda tartib beriladi.

Alisher Navoiy muqaddimada o‘zidan avval yaratilgan aruzga doir manbalar: Xalil ibn Ahmadning “Kitob ul-ayn”, Shams Qays Roziyning “Al-Mo‘jam”, Nasiriddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or”, Abdurahmon Jomiyning “Risolai aruz” asarlariga to‘xtalib o‘tib, ularda mavjud bo‘lmagan ba’zi qoida, doira va vaznlarni o‘z asarida keltirib o‘tishini aytadi. Ya’ni: “*...necha qoida-u doira va vaznkim, hech aruzda, misli fan vozii Xalil ibni Ahmad va ilm ustodi Shams Qays kutubida va Xoja Nasir Tusiyning “Me’yor u-l-ash’or”ida, balki Hazrati Maxdumiy navvara marqadahu nuran “Aruz”larida yo‘q erdikim, bu faqir bu fan usulidin istixroj qilib erdikim, bu kitobg‘a izofa qildim*”.

So‘ngra Navoiy aruzning “sharif” fan ekanligiga to‘xtalar ekan, Qur’oni karimdagi ba’zi oyatlar va payg‘ambarimiz hadislaridagi ayrim jumlalarning aruz vaznlari bilan mos kelishi, Amir ul-mo‘minin Hazrat Ali devonidagi she’rlar ko‘plab mashoyix va avliyolarning nazmlari, masnaviylari aruz vaznida ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Aruzning sharif fan ekanligini shu tariqa asoslagach, ushbu fanning kashfiyotchisi Xalil ibn Ahmad va “aruz” istilohi haqida ma’lumot beradi. Navoiyning yozishicha, Xalil ibn Ahmad yashagan hudud yaqinida “Aruz” degan vodiy bo‘lgan va bu vodiyda arablar chodirdan uylar tikib, ularni bezatib sotgan ekanlar. Uyni “bayt” deb atashar ekan. Baytning mavzun-nomavzun (vaznli-vaznsiz) ekanligini aruz fanining o‘lchoviga solib ko‘rishganidek, bezatilgan uylar ham bahoga solib, o‘lchab ko‘rilar ekan. Shu tariqa mazkur ilm ushbu vodiy nomi bilan “*Aruz*” deb atala boshlangan.

Shundan so‘ng aruzning nazariy qoidalari bayoniga o‘tiladi. Dastlab aruzdagi eng kichik birlik – juzvlar haqida ma’lumot berilar ekan, asarda ular “rukn” istilohi ostida keltiriladi. Juzvlar soni 6 ta bo‘lib, ular quyidagilardir: *sababi xafif* va *sababi saqil* (yengil va og‘ir sabab), *vatadi majmu’* va *vatadi mafruq* (birikkan va ajralgan vatad) hamda *fosilai sug‘ro* va *fosilai kubro* (kichik va katta fosila).

Asarda ushbu juzvlarning barchasi ishtirok etgan quyidagi misra keltiriladi:

Ul ko'zi qaro dard-u g'amidin chidamadim.

Juzvlardan so'ng asl ruknlar ta'rifi keladi, ular "asllar" yoki "usul" nomi bilan beriladi. Navoiy ularning soni sakkizta ekanligini aytib, juzvlardan hosil bo'lish tarkibini quyidagicha keltiradi:

1) Fauvlun – bir vatadi majmu' va bir sababi xafifdan iborat bo'ladi;

2) Foilun – bir sababi xafif va bir vatadi majmu'dan tarkib topadi;

3) Mafoiylun – bir vatadi majmu' va ikki sababi xafifdan tashkil topadi;

4) Mustaf'ilun – ikki sababi xafif va bir vatadi majmu'dan tashkil topadi;

5) Foilotun – bir sababi xafif, bir vatadi majmu' va yana bir sababi xafifdan iborat bo'ladi;

6) Mafoilatun – bir vatadi majmu' va fosilai sug'rodan tashkil topadi;

7) Mutafoilun – bir fosilai sug'ro hamda bir vatadi majmu'dan iboratdir;

8) Maf'ulotu – ikki sababi xafif va bir vatadi mafruqdan tarkib topadi.

Navoiy ushbu asl ruknlardan beshtasi fors-tojik va turkiy she'riyatda qo'llanilishini ta'kidlaydi va zihofot (asl ruknlarni turlicha o'zgartirish) va furu' (tarmoq ruknlar)ga bag'ishlangan faslda shu besh aslni tahlil qiladi.

Asllar ta'rifidan keyin ulardan hosil bo'luvchi zihof va furu' (tarmoq ruknlar)ga to'xtalib o'tiladi. Bunda Alisher Navoiy *mafoiylun* aslidan 11 zihof va 11 furu', *foilotun* aslidan 10 zihof va 15 furu', *mustaf'ilun* aslidan 9 zihof va 14 furu', *maf'ulotu* aslidan 9 zihof va 14 furu', *fauvlun* aslidan 6 zihof va 6 furu' – jami 45 zihof va 60 furu'ni keltiradi. Keyinroq doiralar – tuzilish jihatidan o'xshash bo'lgan bahrlar guruhi ta'rifiga o'tilib, jami 7 ta doira keltirilgan. Ulardan to'rttasi Navoiygacha yaratilgan fors-tojik risolalarida mavjud edi: "Doirai *mo'talifa*" (ramal, hazaj va rajaz bahrlaridan tuzilgan), "Doirai *muxtalifa*" (muqtazab, mujtass, munsarih va muzore'

bahrlaridan tuzilgan), "Doirai *muntazia*" (mushokil, sari', jadid, qarib va xafif bahrlaridan tuzilgan), "Doirai *muttafiqa*" (mutaqorib va mutadorik bahrlaridan tuzilgan).

Navoiy ushbu doiralarga qo'shimcha tarzda yana uchta doira haqida ma'lumot beradi. Asardagi 5-doirani bevosita Alisher Navoiyning o'zi tartib bergan bo'lib, bunda Navoiy "Doirai muxtalifa"dagi 4 bahr va "Doirai muntazia"dagi 5 bahr – jami 9 bahrning solim (ya'ni zihof kirmagan, o'zgarishga uchramagan) ruknlarini jamlab, ularni bir doiraga kiritadi va bu doirani "*Doirai mujtamia*" deb ataydi. 6-doira "*Doirai muxtalita*" deb atalib, bu doiraga Navoiy komil va vofir bahrlarini kiritadi va mazkur bahrlarning matbu' (yoqimli) bahrlar ekanligini, lekin negadir ularda kam she'r yozilganligini ta'kidlab o'tadi. 7-doira "Doirai mushtabiha" esa uch – tavil, madid va basit bahrlaridan tuzilgan. Navoiyning yozishicha, bu bahrlar arab adabiyotiga xos bo'lib, ajam she'riyatida deyarli qo'llanilmagan va maxsus doiraga kiritilmagan.

Asarning she'r taqti'iga bag'ishlangan fasli turkiy aruzning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy bunda bevosita turkiy til xususiyatlaridan kelib chiqqan holda taqti' qoidalarini bayon qiladi hamda bahr va vaznlarni aniqlash usullarini tushuntiradi.

Risolaning keyingi faslida bahrlar va ulardan hosil bo'luvchi vaznlar bayoniga o'tiladi. Bunda Navoiy bahrlar tartibini yuqorida keltirilgan doiralar asosida berib boradi. Shu ma'noda Navoiy dastavval "Doirai mu'talifa" tarkibiga kiruvchi hazaj bahri vaznlarini keltirib o'tadi. Asarda hazaj bahrining 11 ta musammman ruknli, 10 ta musaddas ruknli va bitta murabba' ruknli vaznlari, agar unga 24 ta ruboiy vaznlari ham qo'shiladigan bo'lsa, jami 46 vazni keltirilgan.

"Mezon ul-avzon"ning turkiy aruzni shakllantirish va rivojlantirishdagi yana bir muhim ahamiyati unda ruboiy vaznlarining ishlab chiqilganligidir. Navoiy turkiy adabiyotga endigina kirib kelayotgan ruboiy janrining o'ziga xos qonuniyatlariga to'xtalib o'tib, risolada hazaj bahrining axrab va axram shajaralariga mansub jami 24 vaznning ruknlari va furu'larini keltiradi, har bir vaznga bir misradan she'r keltiradi, shu tariqa 24 vaznni 6 ruboiyda aks ettiradi.

Bobur "Boburnoma"da, shuningdek "Risolai aruz" asarida

Navoiyning "Mezon ul-avzon"da ruboiy vaznlarini ko'rsatishda yo'l qo'ygan xatolari haqida fikr yuritib, "yigirma to'rt ruboiy vaznida to'rt vaznda g'alat qilibdur", deb yozadi. Bunda Bobur Navoiyning axrab shajarasidan ikkita va axram shajarasidan ikkita vaznni takror berib, to'rt vaznning nomini keltirmaganligini ta'kidlaydi. Adabiyotshunoslikda bu masala U.To'ychiyev va A.Hojiahmedov tomonidan maxsus o'rganilgan bo'lib, xatolikka asarni ko'chirgan kotib yo'l qo'yganligi aniqlandi. Kotib misralardagi ba'zi so'zlarning o'rnini almashtirib (masalan, *"urdi ko'p"*ning o'rniga *"ko'p urdi"*), ba'zi so'zlardagi harflarni tushirib qoldirib (*"rahmekim"*ning o'rniga *"rahmkim"*) va qofiyalardagi ayrim so'zlarni harakat (qisqa unli) vositasida yozganligi (*"nazor"*, *"sharor"*, *"osor"*ning o'rniga *"nazar"*, *"sharar"*, *"asar"*) orqali ushbu xatoliklar kelib chiqqan.

"Mezon ul-avzon"da jami 19 bahr, 160 vazn keltirilgan bo'lib, vaznlar uchun tanlangan misollar asosan muallifning o'z ijodi mahsulidir. Asar tarkibida Xoja Ismat Buxoriy va Husayn Boyqaro ijodidan ham baytlar uchraydi.

Asarda keltirilgan bahrlar va ularning vaznlarini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

№	Bahr nomi	Vaznlar soni			
		Musamman vaznlar	Musaddas vaznlar	Murabba' vaznlar	Jami
1.	*Hazaj*	11 / 24 (ruboiy vaznlari)	10	1	46
2.	*Rajaz*	6	6	1	13
3.	*Ramal*	7	4	2	13
4.	*Munsarih*	8	3	2	13
5.	*Muzori'*	8	5	-	13
6.	*Muqtazab*	2	1	4	7
7.	*Mujtass*	7	1	2	10
8.	*Sari'*	-	6	-	6
9.	*Jadid*	-	2	-	2
10.	*Qarib*	-	4	-	4
11.	*Xafif*	-	6	-	6
12	*Mushokil*	1	2	2	5
13.	*Mutaqorib*	8	2	– / Mutatavval	10
14.	*Mutadorik*	4	3	-	7

15.	*Komil*	1	-	-	1
16.	*Vofir*	1	-	-	1
17.	*Vofir*	1	-	-	1
18.	*Mashtd*	1	-	-	1
19	*Hasil*	1	-	-	1
	Jami	**91**	**55**	**14**	**160**

Navoiy vaznlarga ta'rif berar ekan, unga ko'proq misollarni o'z g'azaliyotidan keltiradi. Xususan, hazaji musammani solim vaznini ta'riflashda:

Sihi mulkungning o'n sekiz mingidin bir kelib olam,
Bu olam ichra bir uyluk qulung Havvo bilan Odam.

Rajazi musammani matviyi maxbun vazni bilan bog'liq o'rinda:

Gar alamimg'a chora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun netay,
Vah, g'amima shumora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun netay.

Mutaqoribi musammani mahzuf vaznida:

Ochildi chaman, gul'uzorim qani?
Sihi sarv bo'yluq nigorim qani?

kabi baytlarni keltiradiki, bu holat Navoiy keltirgan vaznlar turkiy adabiyot uchun shunchaki tajriba bo'lmay, balki ularda badiiyat jihatdan yuksak g'azallar yozish mumkinligini ko'rsatadi.

"Mezon ul-avzon"da 9 ta poetik shakl va ularning vaznlari haqida ham ma'lumot keltirilgan bo'lib, ularning aksariyati turkiy xalq og'zaki ijodiga mansubdir. Navoiy ularning xalq orasida tarqalgan nomlaridan foydalanadi, nomi yo'qlarini esa aruzdagi vaznlardan qaysi biriga mos bo'lsa, shu vazn nomi bilan ataydi. Ushbu poetik shakllar quyidagilardir: *o'n olti ruknli ramali maxbun, tuyuq, qo'shiq (1), qo'shiq (2), chinga, muhabbatnoma, mustazod, aruzvoriy, turkiy.*

"Mezon ul-avzon" turkiy aruzshunoslikka qo'shilgan munosib hissa bo'lib, o'z davridayoq zamondoshlari tomonidan yuksak baholangan. Xondamir "Makorim ul-axloq"da risolaga yuqori baho berib, Navoiyning iste'dodi va badiiy mahoratini ko'rsatib beruvchi asar ekanligini, avvalgi risolalarda keltirilmagan doiralarni kiritganligini uning aruzshunoslikdagi eng katta xizmati sifatida e'tirof etadi.

"Mezon ul-avzon" o'zidan keyin turkiy tilda Boburning "Risolai aruz" asari yaratilishi uchun zamin hozirladi, XIX asrda Furqatning "Ilmi she'rning qoidai avzonini bayoni" dastxatiga asos bo'ldi.

Navoiy turkiy tilning rivojiga shoh asarlar yaratish bilangina hissa qo'shib qolmay, uning taraqqiyotini nazariy jihatdan ham boyitdi. Uning bu boradagi xizmatlaridan biri 1499 (hijriy 905)-yilda yaratilgan **"Muhokamat ul-lug'atayn"** ("Ikki til muhokamasi") asaridir.

Mazkur asarida Navoiy turkiy va forsiy (sort) tillarini bir-biriga qiyoslash asnosida, turkiy tilning boy va keng imkoniyatlarga ega ekanligini isbotladi. Asar musulmon Sharqi adabiyoti an'analariga muvofiq Allohga hamd aytishdan boshlangan. Alisher Navoiy arab tilidagi hamddan so'ng turkiy tilda bir ruboiy keltirib, uning ilk baytidayoq so'z bilan olam yaratilganligini, arab tilining barcha tillardan ustun ekanligini ta'kidlaydi. Bu tilda payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) so'zlashgani, muqaddas kitob – Qur'oni karimning nozil qilinganligi uning sharafli ekanligini bildiradi, deb aytadi.

Navoiy arab tilidan so'ng uch (turkiy, forsiy va hind) tilini "asl va mo'tabar" deb hisoblab, ushbu tillarning kelib chiqishi Nuh payg'ambarning uch o'g'li – Yofas, Som va Hom bilan bog'lanishini aytib o'tadi. Abu Turk laqabi bilan mashhur bo'lgan Yofas payg'ambarlik toji bilan sarafroz va rasullik mansabi bilan mumtoz etilganligini ta'kidlaydi.

Navoiy yashab ijod etgan davrda turkiy til forsiy tilga nisbatan pastroq maqomda deb hisoblanib, turkiy tilda ijod etgan Haydar Xorazmiy, Sakkokiy, Atoyi, Yaqiniy, Gadoiyning ijodi forsiy meros bilan teng keladigan darajada emas edi. Alisher Navoiy ushbu shoirlarning nomlarini keltirib, ular orasida forsiy adabiyotdagi Xoqoniy, Avhadiddin Anvariy, Kamol Ismoil, Zahir Foryobiy, Salmon Sovajiy kabi qasidanavislar, Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviydek masnaviy ustalari, Sa'diy Sheroziy va Hofiz Sheroziy kabi g'azalnavis shoirlar yetishib chiqmaganligiga e'tiborni qaratadi va turkiy shoirlardan faqát Lutfiygina ular bilan she'riy musobaqaga kirishish salohiyatiga ega bo'lganligini ta'kidlaydi. Bu bilan Alisher Navoiy turkiy til va bu tilda ijod qiluvchi shoirlarning zimmasida ulkan vazifa turganligini eslatib o'tadi.

Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn"da turkiy va o'zi mukammal bilgan forsiy tilni o'zaro chog'ishtirish yo'lidan borib, ikki tilning leksik va poetik imkoniyatlarini ilmiy nuqtai nazardan muqobil beradi. Asarda turkiy va forsiy tillar fonetika, leksika va morfologiya doirasida o'zaro qiyoslanadi. Dastlab har ikki tildagi unlilar qiyoslanganda, Navoiy forsiy tilda unlilar sonida chegara borligi, turkiy tilda esa unlilar bir qancha ma'no farqlovchi xususiyatlarga ega ekanligi va ular o'zaro uzun-qisqaligi bilan ajralib turishini dalillar orqali ko'rsatib bergan. Xususan, turkiy tilning fonetik xususiyati qofiyadosh so'zlar uchun forsiy tilga nisbatan qulayligini asoslar ekan, "vov" – "و" hamda "yoy" – "ی" harflari forsiy til fonetikasida faqat ikki harakatni: "*vov*" "o'" hamda "u"ni, "*yoy*" esa "i" va "e" tovushlarini berishini, (masalan, "xud" (خود) hamda "dud" (دود) so'zlarida "u" tovushi; "zo'r" (زور) va "nur" (نور) so'zlarida "o'" tovushini), turkiy tilda esa bu ikki harfning har biri uch yoki to'rt tovushni ifodalashini "ter" so'zi orqali ko'rsatib beradi. Bu o'rinda Navoiy "ter" so'zining **termoq, may, o'q** ma'nolari borligini va "ter" (تیر) so'zidagi "yoy" (ی)ning talaffuzi ma'nosiga ko'ra farqlanishini, ammo yozuvda bir xil ko'rinishda bo'lishini ta'kidlash orqali turkiy tilning fonetik imkoniyatlariga e'tibor qaratadi.

Navoiy asarda forsiy tilda muodil (ekvivalent)i bo'lmagan 100 ta fe'lni keltiradi[30]. Masalan, "telmurmak" so'ziga izoh berar ekan, bu so'z anglatgan ma'no forsiylarda yo'qligini, mahbubaning nazari oshiq yuziga tekkach, oshiqning "*niyoz yuzidin* **telmurmagi** *asru munosib ish*" ekanligini aytadi va quyidagi baytni keltiradi:

To'kadur qonimni har dam ko'zlaring boqib turub.
Kim, necha yuzumga boqqaysen yiroqdin telmurub."

Bu o'rinda Navoiy "telmurmak" so'zining nozik semasini tahlil etib, "telmurish" orqali ikki insonning o'zaro muhabbati namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Keltirilgan misoldan: "*Ko'zlaring*

[30] "Muhokamat ul-lug'atayn"ning shu kungacha mavjud nashrlarida 99 ta fe'l keltirilgan. Asarning ilmiy matni, tahlili va hozirgi o'zbek tiliga tabdilini amalga oshirgan olim Q.Sodiqov "Muhokamat ul-lug'atayn" ning Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasi va Budapeshtda saqlanayotgan nusxalari asosida 100-fe'lni ham aniqlab, e'lon qildi. Bu hozirgi tilimizda "chimchilamoq" ma'nosini anglatuvchi *chimdilamoq* fe'lidir.

har lahza menga boqib qonimni to'kadi, chunki uzoq-uzoqlardan menga telmurib *boqasan*", degan mazmun orqali mahbubaning o'z oshig'iga befarq emasligi ma'lum bo'ladi.

Alisher Navoiy turkiy va forsiy tillar leksikasini qiyoslash uchun turli sohalarga doir narsa-buyum, tabiiy hodisalar va hayvonlarning forsiy tilda mavjud bo'lmagan turkiy tildagi nomlarini berib, ularning ba'zilari forsiy til leksikasi tarkibiga ham kirganligini aytib o'tadi. Xususan, turkiylar ovlanadigan kiyikni jinsiga qarab nomlashlarini, erkagini "huna", urg'ochisini "qilchoqin" deb atashlarini, forsiy tilda esa bular bir xil qo'llanilishini yoki yana forsiylar qo'yning faqat ba'zi a'zolarini nomlaganliklarini, lekin qo'yning orqasini, oshiq-ilikni, yon suyakni, qovurg'ani, ilik, o'rta ilik, bo'g'izni turkcha aytishlarini ta'kidlaydi. Shuningdek, qaymoq, qatlama, bulama, qurut, uloba, quymoq, urkamoch kabi taom nomlari forsiy tilga turkiy tildan o'zlashganligini aytib o'tadi.

Alisher Navoiy omonimlik va so'zlarning ko'p ma'noliligi jihatidan turkiy tilning imkoniyati kengligini, ularning she'riyatda turli nozik ma'nolarni ifodalashdagi ahamiyatini (*ot, it, bor, sog'in, tuz, ko'k* kabi so'zlar talqinida) ko'rsatadi, shu orqali tajnis va iyhom san'atiga asos bo'ladigan so'zlarning forsiy tildagiga nisbatan ko'pligini misollar bilan isbotlaydi, aynan tajnis orqali vujudga keladigan va forsiy she'riyatda qo'llanilmaydigan tuyuq janrining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib beradi.

Navoiy ba'zi mansab egalari yoki kasb-hunar, umuman, muayyan soha bilan shug'ullanuvchi shaxs nomlarini bildiruvchi *"-ch"* hamda *"chi"*qo'shimchalarini keltirib, forsiylar ushbu qo'shimchalar orqali yasaladigan **qo'rchi, suvchi, chavgonchi, qo'riqchi** kabi o'nlab so'zlarning muodili o'z tillarida bo'lmaganligi uchun ularni turkiy tildagi varianti asosida qo'llashlarini aytib o'tadi.

"Muhokamat ul-lug'atayn" asari adabiyot va adabiyotshunoslik fanlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy asarda forsiy tilda yaratilgan adabiyotning yetuk namoyandalarini chuqur hurmat bilan tilga oladi, ularning musulmon Sharqi she'riyatiga qo'shgan hissasini, turkiy adabiyot, xususan, o'z ijodiga ko'rsatgan ta'sirini alohida ta'kidlaydi, forsigo'y va turkiy shoirlar orasidagi o'zaro adabiy hamkorlik – adabiy mav-

zularda suhbat, munozaralar, badiiyatga doir mubohasalar bo‘lib turishi haqida ma’lumot beradi. Navoiy turkiy she’riyatning forsiy she’riyatga nisbatan sustroq rivojlanganligini bir necha sabablar orqali ko‘rsatib beradi: 1) turkigo‘y ijodkorlar turkiy tilda ona tilining murakkab va nozikligini bildiruvchi bir necha ma’noli so‘z va ifodalar ko‘p bo‘lganligidan, ularni tushunish va she’riyatda mahorat bilan ishlatish mashaqqatidan cho‘chib, oson lik sari mayl ko‘rsatadilar; 2) ba’zi idrokli shoirlar o‘z zamonidagi hukmron an’ana va adabiy rasm-rusumlardan chetga chiqishni xohlamay, shu doirada qolishni o‘zlariga munosib deb biladilar; 3) yosh ijodkorlar o‘z yozgan asarlarini tajribali ustozlarga ko‘rsatib, ularning e’tirofini eshitmoq istaydilar, bunday ustozlarning aksariyati esa forsigo‘y bo‘lganliklari uchun yosh shoirlar o‘z she’rlarini forsiyda yozmoqni ma’qul ko‘radilar.

Asarda Alisher Navoiyning ijodiy biografiyasi bilan bog‘liq qimmatli ma’lumotlar ham keltirilgan. Asarda muallif devonlari, dostonlari va boshqa ko‘plab asarlarining ro‘yxati va ixcham tavsifi mavjud. Xususan, shoirning turkiy tilda yaratgan asarlari ro‘yxati ularga asos bo‘lgan manbalar nomi bilan birga keltirilishi Navoiy asarlarining tub mohiyatini anglashda muhim ahamiyatga ega. Masalan, uning “Xamsa” tarkibiga kiruvchi dostonlarning har biri uchun asos bo‘lgan manbalar quyidagi tartibda keltiriladi: 1)“Hayrat ul-abror” ↔ “Maxzan ul-asror” (Nizomiy); 2) “Farhod va Shirin” ↔ “Shirin va Xusrav” (Xusrav Dehlaviy); 3) “Layli va Majnun” ↔ “Gavharnoma” (Hoju Himmatiy), 4) “Sab’ai sayyor” ↔ “Haft paykar” (Ashraf Marog‘iy); 5) “Saddi Iskandariy” ↔ “Xiradnomai Iskandariy” (Abdurahmon Jomiy).

“Muhokamat ul-lug‘atayn”da o‘sha davrdagi turkiy til bo‘yicha amalga oshirilgan tadbirlar haqida ham ma’lumotlar keltiriladi. Husayn Boyqaro turkigo‘y shoirlarni o‘z ona tillarida ijod qilishga chorlab, maxsus farmonlar chiqarilganligi, Husayn Boyqaroning o‘zi turkiy tilda Husayniy taxallusi bilan ijod qilganligi va devon tartib berganligi bilan bog‘liq masalalar haqida fikr yuritiladi.

Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari mohiyatida adabiy til masalasi bosh mavzu sifatida tanlangani, forsiy va turkiy tilni leksik, fonetik va grammatik jihatdan qiyoslagani nuqtai nazaridan tilshunoslik yo‘nalishidagi muhim

manba bo‘lish bilan birga ilmiy nasrning yorqin namunasidir.

Fanda “Muhokamat ul-lug‘atayn” 4 ta qo‘lyozmasi ma’lum:

Istanbuldagi To‘pqopi saroy muzeyi Revan kutubxonasida 808-inventar raqami ostida saqlanuvchi nusxa. Bu qo‘lyozma Navoiyning boshqa asarlarini ham o‘z ichiga olib, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari qo‘lyozmaning 774a – 781b sahifalarida keltirilgan.

Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasining Fotih bo‘limida 4056-inventar raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozmaning 773b – 781a sahifalari “Muhokamat ul-lug‘atayn”ni o‘z ichiga oladi.

Parij nusxasi. Suppl.Turc.317|1513-inventar raqami ostida saqlanayotgan ushbu qo‘lyozmada “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari 277b – 285b sahifalarni egallaydi.

Budapesht nusxasi.

Alisher Navoiyning tarixnavis sifatidagi faoliyati uning “Tarixi anbiyo va hukamo” hamda “Tarixi muluki Ajam” asarlarini bitganligida namoyon bo‘ladi[31]. Buyuk mutafakkirning **“Tarixi anbiyo va hukamo”** risolasi islom dini manbalariga asoslangan nasriy yo‘lda yozilgan asar bo‘lib, payg‘ambarlar – rasul va nabiylar hamda hakim zotlar – allomalar tarixiga bag‘ishlangan. Shu ma’noda asarni shartli ravishda ikki qismga bo‘lish mumkin:

Anbiyo – payg‘ambarlar tarixi.
Hukamo – hakim zotlar tarixi.

Alisher Navoiygacha musulmon Sharqida anbiyolar to‘g‘risida turli rivoyat va qissalar mavjud bo‘lgan. “Tarixi Tabariy”, “Tarixi Banokatiy” kabi asarlarda tarixiy voqealar, ba’zi podshohlarning yurishlari din tarixiga oid ma’lumotlar bilan birga berilsa, “Qisas ul-anbiyo”lar, xususan Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida aynan payg‘ambarlar tarixi keltiriladi. Navoiy ushbu mavzuni davom ettirib, o‘zigacha

---

[31] Akademik olimlar Aziz Qayumov va Botirxon Valixo‘jayevlar bu asarlarni aslida umumiy tarix kitobining bo‘laklari deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, Navoiy yashagan davrda tarixshunoslikda mavjud an’anaga ko‘ra, muayyan hukmdorning tarixini yozishdan avval payg‘ambarlar tarixi, so‘ngra to‘rt Ajam sulolalari tarixi, Islom davri tarixi, undan so‘nggina zamon tarixiga o‘tilar edi (Bu haqda qarang: Қаюмов А. Дилкушо тақрорлар ва руҳафзо ашъорлар; Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар.).

Akademik B.Valixo‘jayevning fikricha, ushbu ikki asar tarixiy mavzuda yaratilgan tazkira janridagi asarlardir.

yaratilgan asarlarni tizimlashtiradi, nabiylar biografiyasini sulolalar bo'yicha keltiradi. Asarda Odam Ato (a.s.)dan tortib Jarth Rohibgacha bo'lgan 60 dan ortiq nabiy va nabiylar avlodi haqida ma'lumot keltirilgan.

Dastavval, Odam Ato (a.s.) qissasi hikoya qilinadi. Unda Odamning yaratilishi, Iblisning Oliy Dargohdan quvilishi, so'ng Odam va Momo Havvoning yer yuziga tushirilishi bilan bog'liq hikoyalar keltiriladi.

Navoiy payg'ambarlarni an'anaga binoan ikki guruhga bo'ladi: rasul va nabiylar. Rasullarga Alloh kitob va sahifa nozil qilgan bo'lib, ular "mursalin" nomi bilan ataladi. Nabiylar esa faqat vahiy olgan payg'ambarlar bo'lib, ularga kitob nozil qilinmagan (tushirilmagan).

Afsuski Navoiy payg'ambarlar haqida so'zlab, ularning yashagan davrlariga to'xtaladi, aniq yillarni keltiradi (Masalan, Mahoyil binni Qinon 865 yil yashagan). Shuningdek, payg'ambarlarning ahli ayoli, farzandlari, kasb-u kori haqida ma'lumot beriladi. Payg'ambarzodalarning hammasiga ham payg'ambarlik maqomi berilmagan, ularning ba'zilarigagina Allohdan vahiy tushgan. Masalan, Odam Atoning nevarasi Anush, uning o'g'li Qinon kabilar bu sharafga noil bo'la olmaganlar. Shu tariqa muallif oltmishdan ziyod payg'ambar va payg'ambar avlodlarining hayoti, tarjimai holini batafsil yoritadi.

Zikr etilganlar orasida Qur'onda nomi tilga olingan barcha payg'ambarlar, Luqmoni hakim, Zulqarnayn kabi vahiy tushgan yo tushmagani ixtilofli bo'lgan zotlarni ham ko'rishimiz mumkin. Mazkur asarda bir zamonda bir necha payg'ambarlar yashagani ham aytiladi. Masalan, Is'hoq (a.s.) vafot etgan yili Yusuf (a.s.)ning Misr hokimi bo'lgani va hokazo. Shuningdek, Qur'onda tilga olingan "As'hobi kahf" qissasi ham mazkur asardan o'rin olgan.

Payg'ambarlar qissasi hajman o'zaro farqlanadi. Ba'zi payg'ambarlar, masalan, Xizr (a.s.) haqida qisqa ma'lumot bilan cheklanilsa, Yusuf (a.s.), Ibrohim (a.s.), Muso[32] (a.s.) va Iso (a.s.)

[32] Asar bilan tanishish jarayonida ba'zi payg'ambarlar qissalari bilan boshqa xalqlar ijodida mavjud epos yoki hikoyatlar o'xshash holatlarni uchratamiz. Masalan, arman eposi "Dovud Sosuniy"da tilga olingan Misr shohi Malik, uning ayoli Xondut xotun hamda uning asrab olgan o'g'li haqidagi voqealar bilan Muso (a.s.)ni Fira'vnning ayoli Osiyo asrab olgani bilan bog'liq holatlarda juda aniq o'xshashliklar ko'zga tashlanadi (Bu haqda qarang: Наири Зарьян.

larning hayotiga doir juda ko‘p voqealar bayon qilinadi. Alisher Navoiy Yusuf (a.s.) haqidagi qissani bayon qilishga kirisharkan, Firdavsiy Tusiy va Abdurahmon Jomiylar ham mazkur mavzuda doston yozganlarini aytib, o‘zining ham turkiy tilda masnaviy yozish niyati borligini bildirib o‘tadi.

Mazkur qismda keltirilgan ma’lumotlarning bosh manbasi Qur’oni karim bo‘lib, muallif o‘z fikrlarini asoslash uchun muayyan oyatlarni havola qilib boradi. Yana bir e’tiborli jihati, Alisher Navoiy payg‘ambarlarning iymoni, sabri va yuksak fazilatlarini alohida tasvirlaydi. Masalan, Ayyub (a.s.)ning boshiga tushgan tashvish va balolar ham uni Allohga ibodat qilishdan to‘smaganini aytarkan, bu bilan sevgi va do‘stlikning sobit bo‘lishi haqidagi g‘oyalarini bayon qiladi.

Asarda har bir payg‘ambar qissasidan so‘ng muayyan she’riy parchalar keltiriladi. Shoir ularni “masnaviy”, “ruboiy”, “bayt”, ba’zan esa “she’r” yoki “nazm” nomlari ostida berib boradi. Mazkur she’riy parchalarda qissasi hikoya qilingan payg‘ambar nomi tilga olinadi va falsafiy xulosalar chiqariladi.

Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining ikkinchi qismi hukamolar tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib, bu qism umumiy asarning taxminan to‘rtdan bir qismini tashkil etadi. Hukamolar tarixi anbiyolarnikiga nisbatan qisqa bo‘lib, umumiy ma’lumotlar bilan cheklanilgan. Alisher Navoiy Luqmoni hakim, Fishog‘urs (Pifagor), Jomosb, Buqrot (Gippokrat), Buqrotis, Suqrot (Sokrat), Aflotun (Platon), Aristotilis (Arastu), Balinos, Jolinus (Galen), Batlimus (Ptolemey) kabi yunon faylasuflari va Sodiq, Buzurgmehr kabi fors hakimlarining, jami o‘n uch nafar olimning tarixini qisqacha yoritadi. Hakimlarning umumiy tavsifini bergandan so‘ng ularning hikmatli so‘zlaridan keltiradi. Har bir tavsifdan keyin yakun sifatida shoir o‘sha faylasuf tomonidan aytilgan iboraning mazmunini ifodalovchi bir bayt she’rni ilova tarzida berib boradi. Masalan:

“Jomosb hakim Gushtosbning qardoshidur va Luqmonning shogirdi erdi. Nujum ilmida g‘arib ahkomi bor. O‘z zamonidin so‘ngra uch ming yilgacha kelur ishlarni hukm qilibdur. Va aning so‘zlaridindurkim, karimning yomonroq xislati o‘z ilmining tarki va laimning yaxshiroq xislati o‘z ilmining tarki. Va aning madfani Fors viloyatidadur.

Довуд Сосуний. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1976. – Б. 114).

She'r:

Kishiga bo'lsa ko'kka chiqmoq fan,
Ne asig', ko'rsa oqibat madfan".

Biz mazkur asardagi payg'ambarlar bilan bog'liq voqealarni "Qisasi Rabg'uziy" va "Shajarayi turk" kabi turkiy tilda yaratilgan boshqa ko'plab asarlarda ham uchratamiz. Umuman olganda, Alisher Navoiyning "Tarixi anibiyo va hukamo" asari din tarixiga bag'ishlangan muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan manba bo'lish bilan birga ilmiy nasrning yorqin namunasi bo'lib, muallif asarda din tarixi hamda yunon falsafasi bilimdoni sifatida namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiyning **"Tarixi muluki Ajam"** ("Arab bo'lmagan shohlar tarixi") asari o'z davri nuqtai nazaridan ilmiy dalillarga asoslangan risola hisoblanadi. Asarda Eron va Turon mulkida hukmronlik qilgan to'rt sulola: peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar, sosoniylar tarixi batafsil hikoya qilinadi.

An'anaga muvofiq tarix Odam Ato (a.s.) davriga bog'liq ravishda talqin qilinadi. Alisher Navoiy mazkur asarda Abdulxayr Nasiriddin Abdulloh bin Umarning "Nizom ut-tavorix", Banokatiyning "Jome' ut-tavorix" va "Devon un-nasab", Abu Homid Muhammad ibn Muhammad G'azzoliyning "Nasihat ul-muluk", peshdodiylar podshosi Hushangga nisbat beriluvchi "Jovidoni xirad", Bu Ali Miskavayhning "Odob ul-arab va al-furus", Hamdulloh Mustavfiy Qazviniyning "Tarixi guzida", Sharafiddin Ali Yazdiyga nisbat beriluvchi "Muntaxab" kabi manbalardan foydalanadi va ko'plab ma'lumotlarni shu asarlardan olganini aytib o'tadi. Risolada shoirlardan Abulqosim Firdavsiy va uning "Shohnoma"siga ko'proq murojaat qilinadi. Navoiy Iskandar haqidagi qissada xamsanavislar: Xusrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviylarning qarashlarini ham keltirib o'tadi.

Alisher Navoiy masalaga nuktadon muarrix – tarixchi olim sifatida yondashar ekan, har bir ma'lumotning aniq va asosli bo'lishiga alohida e'tibor qaratadi.

Alisher Navoiy peshdodiylar sulolasiga mansub 11, kayoniylar sulolasidan 9, ashkoniy sulolasidan 15, sosoniylar sulolasidan 28, jami to'rt suloladan 63 hukmdorning nomlari, ularning tarjimai holi, hayoti va yuritgan siyosatiga doir ma'lumotlarni taqdim etadi. Deyarli har podshoh qissasidan keyin an'anaga

muvofiq "she'r" nomi ostida qissa mazmuniga uyg'un baytlar ilova qiladi. Bundan tashqari, to'rt sulola hukmdorlari haqidagi qissalarning so'ngida ham umumiy yakunlovchi masnaviylar mavjud.

Alisher Navoiy mazkur asarida tarixga oid juda qiziqarli va ahamiyatli ko'plab ma'lumotlarni beradi. Balx, Bobil, Nishopur, Marv, Samarqand va yana o'nlab shaharlarni bunyod qilgan shohlar, Navro'z bayramining kelib chiqishi, ro'zaning paydo bo'lishi, butparastlikning sabablari bilan bog'liq voqealar shular jumlasidandir.

Navoiy shohlar haqida so'zlar ekan, adolatli sultonlarni olqishlaydi, ularning xayrli taqdirini mamnuniyat bilan hikoya qiladi. Masalan, peshdodiylar sulolasining vakili Hushangni "xiradmand va odil va olim podshoh erdi" deb ta'riflar ekan, uning birinchilardan bo'lib mamlakatni ilm va qonun bilan boshqarishga uringani, "Jovidoni xirad" nomli asar bitgani, toshdan temir chiqargani, yog'ochdan uylarga eshik yasagani, ariqlar chiqarib, yurtni obod qilgani, shaharlar barpo qilgani va doim ibodatda bo'lganligi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, Navoiy asarda ba'zi podshohlarning ayanchli kechmishiga ibrat nazari bilan boqishga undaydi. Masalan, Jamshid haqidagi hikoyada shoh Jamshid dastlab adolatli hukmdor bo'lganligini, ko'plab bunyodkorlik ishlarini amalga oshirganligini, 40 minordan iborat binolar bitgach, katta bazm uyushtirib, o'sha kun "Navro'z" deb atala boshlaganligi haqida ma'lumot berib, keyinchalik Jamshidning o'z qudratiga ishonib, kibr-u havoga berilganligini va odamlardan o'ziga sig'inishini talab qilganligini, oqibatda, ayanchli o'lim topganligini aytib o'tadi.

Alisher Navoiy No'shiravoni odil haqida ma'lumot berar ekan, uning sosoniylar sulolasiga mansub o'n to'qqizinchi hukmdor ekanligini, otasining ismi Qubod bo'lganligini aytib, No'shiravonning adolatiga alohida urg'u beradi va bir qator mashhur hikoyatlarni ilova qiladi. Hikoyatlardan birida aytilishicha, No'shiravon davrida bir kishi bog' sotib oladi. Bu bog'dan xazina topib olgach, bog' sotgan kishining oldiga borib, oltinlarni unga bermoqchi bo'ladi. Bog'ni sotgan odam: "Bog'ga qo'shib, yerni va undagi hamma narsani senga sotganman, oltinlar senga tegishli", deb javob beradi. Ularning

bu "mojarosi" No'shiravonning qulog'iga ham yetib boradi va u ikki kishini chaqirib, quda bo'lishni va xazinani barpo etilajak yangi oilaga berishni maslahat beradi. Bu hikoyatda hukmdor adolatli bo'lsa, xalqda ham insof-u iymon bo'ladi, degan falsafiy xulosa mavjud.

Alisher Navoiy Iskandar haqida to'xtalar ekan, uning tarixi ixtilofli ekanligini aytadi va garchi u kayoniylar sulolasi vakili sifatida keltirilsa-da, bu borada ham turli taxminlar mavjud, deb ta'kidlaydi. Shoir Iskandar va uning tug'ilishi, nasl-nasabi to'g'risida fikr yurita turib, Xusrav Dehlaviyning "Oyinayi Iskandariy" va Nizomiy Ganjaviy "Iskandarnomasi"dagi ma'lumotlarni o'zining "Saddi Iskandariy"sida keltirgan ma'lumotlari bilan qiyoslaydi. O'rtadagi farqlarni aytib o'tadi. Samarqand, Hirot, Marv va Isfahonni Iskandar bunyod qilgani bilan bog'liq ma'lumotlarni ham keltirib o'tadi.

Navoiy nomlarini keltirgan 63 hukmdor ichida uch ayol podshoh ismi ham tilga olingan bo'lib, ulardan biri kayoniylarning oltinchi hukmdori Humoy yoki Humondur. U kayoniylar hukmdori Bahmanning ayoli bo'lib, shoh vafot etganda homilador edi. Bahman jon berish paytida tojini ayolining qorniga qo'yadi va olamdan o'tgach, arkoni davlat Humoyni podshoh qilib ko'taradi. Humoy o'g'il farzand ko'rgach, saltanatga mehri zo'rligi yoki o'g'lining xavfsizligini o'ylab, uni sandiqqa solib daryoga oqizadi va sandiqqa o'g'lining podshohzoda ekanini anglatuvchi yoqutlarni ham soladi. Taqdir taqozosi bilan o'g'li ulg'ayib, onasini topadi. Humoy unga davlat boshqaruvini topshiradi.

Alisher Navoiy tilga olgan keyingi ikki ayol podshoh sosoniylarning 27- va 28-hukmdorlari Turonduxt va Ozarmduxtdir. Shoir ularning taxtga chiqishi va hukmdorlik davri bilan bog'liq qiziqarli faktlarni keltiradi. Bu ikki ayol podshoh opa-singil bo'lib, 23-podshoh Xusrav Parvizning qizlari edi.

Alisher Navoiy "Tarixi muluki Ajam" asari orqali tarix bilimdoni qiyofasida namoyon bo'ladi. Asardagi yuzlab geografik nomlar, ko'plab shaxslarning ismi sharifi hamda voqealarning keltirilishi muallifning kuchli xotirasidan ham darak beradi.

Asarning xotimasi masnaviy tarzida bo'lib, 50 baytdan iborat. Unda Navoiy bevosita Shoh G'oziy – Sulton Husayn Boyqaroga murojaat qiladi. Uning adolati va saxovatini, inson sifatidagi yuksak xulqini madh qiladi. Shohni yagona javhar-

ga qiyoslaydi va shuning uchun ham unga "Nazm ul-javohir" asarini bag'ishlab yozganini aytadi. Va aynan Husayn Boyqaro tarixini bitish niyati borligini bildiradi:

Vale azmim emdi budurkim Xudoy
Agar bo'lsa umrumg'a muhlatfizoy.

Chekib turfa tarixingga xomani,
Qilib nuktag'a tez hangomani.

Shu tariqa xotima-masnaviyning so'nggi baytlarida Navoiy shohsiz jahonga omonlik bo'lmasligini aytib, Husayn Boyqaroga yaxshi tilaklar bildiradi, duosini yo'llaydi va o'zi ham duolardan umidvor ekanini aytib, asarni yakunlaydi.

Alisher Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" asari buyuk mutafakkirning tarixchi olim sifatidagi yana bir muhim qirrasini ochish bilan birgalikda Sharq xalqlarining tarixidan kengroq xabardor bo'lish imkoniyatini beradi.

Tayanch tushunchalar

tazkira
muammo amallari
a'moli tahsiliy
a'moli takmiliy
a'moli tasxiliy
ta'lif
isqot
qalb
majlis
sharif fan
juzv
rukn
asl ruknlar
tarmoq ruknlar
yengil va og'ir sabab
birikkan va ajralgan vatad
katta va kichik fosila
asl rukn
usul
zihof
furu'
aruz doiralari

doirai mo‘talifa
doirai muxtalifa
doirai muntazia
doirai muttafiqa
doirai mujtamia
bahr
matbu’ vaznlar
solim
muodil
saj’



Savol va topshiriqlar

1. Alisher Navoiyning “Risolai muammo” asarining yaratilish tarixi bilan bog‘liq nimalarni bilasiz?

2. Muammo janrining xususiyatlarini aytib bering.

3. Alisher Navoiy muammo amallarini necha qismga ajratgan? Ularni sharhlashga harakat qiling.

4. Turkiy tilda yaratilgan ilk tazkira sifatida qaysi asarni tilga olish mumkin?

5. “Majolis un-nafois” majlislarida tilga olingan shoirlar bilan bog‘liq qaysi jihatlarni bilasiz?

6. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”ning 1-majlisini qaysi shoirni zikr etish bilan boshlaydi?

7. “Majolis un nafois”da adabiyot maydoniga kirib kelayotgan shoirlar xususida Alisher Navoiy qanday fikrlar bildiradi?

8. “Mezon ul-avzon” muqaddimasida Alisher Navoiy tilga olgan manbalarni sanab bera olasizmi?

9. “Mezon ul-avzon”da jami nechta vazn va bahrlar keltirilgan?

10. “Mezon ul-avzon”da Alisher Navoiy qaysi ijodkorlarning baytlaridan misol tariqasida foydalangan?

11. “Muhokamat ul-lug‘atayn”da Alisher Navoiy tilning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq qanday fikrlarni ilgari surgan?

12. “Muhokamat ul-lug‘atayn”da shoir o‘zining qaysi dostonlari bilan bog‘liq ma’lumotlarni keltirib o‘tadi?

13. “Muhokamat ul-lug‘atayn”da keltirilgan 100-fe’l qaysi?



ADABIYOTLAR:

Matn va manbalar:

1. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 20 жилдлик. Т.: Фан, 1997. 13-жилд.

2. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 2000. 16-жилд.

3. Алишер Навоий.Мезон ул-авзон. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 2000. 16-жилд.

4. Алишер Навоий. Муфрадот. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 2000. 20-жилд.

5. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.9.

6. Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. Тарихи мулуки Ажам. – Т.: Фан, 2000. 16-жилд.

7. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн / Қосимжон Содиқов таҳлили, табдили ва талқини остида. – Т.: Akademnashr, 2017.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

8. Алишер Навоий: қомусий лугат. 1-2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.

9. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. 1 жилд. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2002.

10. Воҳидов Р. “Мажолис ун-нафоис”нинг таржималари / Масъул муҳаррир: Б.Валихўжаев. – Т.: Фан, 1984.

11. Зоҳидов Л. Алишер Навоий ижодида муаммо жанри / Масъул муҳаррир: С.Эркинов. – Т.: Фан, 1986.

12. Зоҳидов Л. Алишер Навоийнинг “Рисолаи муфрадот” асари ва унинг муаммолари: Филол. фан. номз. дисс. – Т., 1970.

13. Орзибеков Р. Муфрадот //Адабий мерос. – Т.,1982. – №2.

14. Қаюмов А. Дилкушо такрорлар ва руҳафзо ашъорлар. – Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2011.

15. Ғаниева С. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асари ва самарқандлик шоирлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1970. – №6.

16. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. 2-жилд (XV асрнинг иккинчи ярми). – Т.: Фан, 1977.

DINIY VA TASAVVUFIY, MA'RIFIY-TA'LIMIY ASARLARI, YODNOMALAR

Reja:

1. "Arbain"da sahih hadislar tarjima va talqini.

2. "Vaqfiya"da Alisher Navoiyning ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq masalalar.

3. "Nazm ul-javohir" ruboiylar to'plami Hazrat Alining "Nasr ul-laoliy" asari tarjimasi sifatida.

4. "Siroj ul-muslimin" asarida islom diniga oid hukmlarning ifodalanishi.

5. "Munojot"da tavba-tazarru va Haqqa bo'lgan ishq ohanglari.

6. "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida tasavvuf masalalari.

7. Navoiy yodnomalari – memuar janrining yuksak namunasi.

8. "Munshaot" asarining turkiy epistolyar janri taraqqiyotidagi o'rni.

9. «Mahbub ul-qulub"da ma'rifiy-ta'limiy masalalarning yoritilishi.

10. Navoiyga nisbat beriluvchi asarlar.

Davlatshoh Samarqandiy Alisher Navoiyni "Mir Nizomiddin", ya'ni "dinning nizomi – qonuni" deb bejiz ulug'lamagan. Hazrat Navoiyning deyarli barcha asarlarida, xususan, "Xamsa" dostonlarining muqaddimalarida Allohga hamd, Payg'ambarga na't, munojot va Rasulullоh (s.a.v.) madhining mavjudligiyoq bu fikrni tasdiqlaydi. Biz quyida ko'rib chiqadigan asarlarda Alisher Navoiy shariat va tasavvuf ilmining chuqur bilimdoni, nazariyotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

"Arba'in" yoki **"Chihil hadis"**("Qirq hadis") – inson axloq-odobiga doir 40 hadisning she'riy tarjimasi bo'lib, 1481-yilda yaratilgan. Asar an'anaviy hamd va na't bilan boshlanadi. Muqaddima – "Sababi ta'lifi manzuma"da Navoiy ustozi Abdurahmon Jomiy sahih hadislardan 40 tasini tanlab olib, forsiy tilda "Arba'in" yaratganini, lekin turkiy kitobxon bu chash-

madan bebahra ekanligini aytib, Jomiyning ruxsati bilan shu 40 hadisni turkiy tilga tarjima qilganligini yozadi:

Forsiydonlar aylabon idrok,
Oriy erdi bu naf'din atrok.

Istadimki, bu xalq ham bori
Bo'lmag'aylar bu naf'din oriy.

Men demakni chu muddao aylab,
Ul ijozat berib duo aylab.

Shuningdek, Navoiy Jomiy o'z asarini hijriy 886 (milodiy 1481) yilda yaratganligini, u ham tez orada ustozidan ijozat olib, asarni bir-ikki kun ichida tamomlaganini aytadi:

Bir-iki kunki ehtimom ettim,
Ko'z tutardin burun tamom ettim.

"Arba'in" asariga asos qilib olingan hadislarning 6 tasi *muttafaqun alayh* (Imom Buxoriy va Imom Muslimning "Sahih"larida keltirilgan mushtarak hadislar) bo'lib, 8 tasi Imom Termiziyning "Sunani Termiziy" asari, 8 tasi Imom Ahmad Hanbalning "Sunani Ahmad" asari, qolganlari Imom Buxoriyning "Al-adab al-mufrad", "At-tarix al-kabir" asarlari hamda Imom Dorimiy, Abu Dovud, Nasoiy, Ibn Moja, Bayhaqiy, Suyutiy, Tabaroniy, Daylamiy kabi mashhur muhaddislarning hadislar to'plamidan olingan.

"Arba'in"ning asosiy qismi "Sizlardan hech biringiz o'ziga ravo ko'rgan narsasini birodariga ravo ko'rmaguncha, chin mo'min bo'lolmaydi" degan mashhur hadisning navoiyona talqini bilan boshlanadi:

Mo'min ermastur, ulki iymondin
Ro'zgorida yuz safo ko'rgay.
Toki qardoshiga ravo ko'rmas –
Har nekim o'ziga ravo ko'rgay.

Keyingi hadislarda ham haqiqiy mo'minga xos fazilatlar targ'ib va talqin qilinadi: mo'min kishining muhabbati va adovati, biror narsani berish-bermasligi – barchasi Alloh uchun bo'ladi (2-qit'a), uning tili va qo'lidan dindosh birodarlari

omonda (3-qit'a); baxillik va badxulqlik unga begona (4-qit'a); shukronalik (6-qit'a), rahmdillik (7-qit'a) kabi xislatlar egasidir va hokazo. Tarjima qilingan hadislar mazmun-mohiyatiga ko'ra, amri ma'ruf va nahyi munkar shaklida bo'lib, ayrim qit'alarda yuksak insoniy fazilatlar tarannum etilsa, ayrimlarida yomon illatlardan qaytariladi, ularda insonning hayot va jamiyatdagi vazifasi anglatiladi. Masalan, "Insonlarning eng yaxshisi – insonlarga foydasi tegadiganidir" degan hadisni Alisher Navoiy turkiy tilda shunday ifoda etadi:

Xalq aro yaxshiroq, deding, kimdur?
Eshitib, ayla shubha raf' andin.
Yaxshiroq bil ani ulus arokim,
Yetsa ko'prak ulusqa naf' andin.

Ko'rib o'tganimizdek, ushbu sharh orqali insonning ulusga – jamiyatga xizmat qilishi yuksak fazilat sifatida ulug'lanyapti. Mashhur "Kurashda g'olib chiqqan pahlavon emas, balki g'azabi kelganda o'zini yenga olgan odam pahlavondir" hadisini shoir shunday talqin qiladi:

Emas ul pahlavonki o'z qadrin
Bosh uza eltibon nigun qilg'ay.
Pahlavon oni bilki, yetsa g'azab
Nafsi ammorani zabun qilg'ay.

Mazkur hadis insonni o'z nafsi – g'azabi ustidan hokimlik qilishga chaqiradi. Alisher Navoiy buni tarjima qilish orqali kishi jahlga qul bo'lib qolishdan saqlanishi kerakligini eslatyapti.

"Arba'in" uchun tanlab olingan hadislarning asosiy qismi XV asr ziyoli qatlami uchun ma'lum va mashhur bo'lib, jonli muloqotda maqol va hikmatli so'zlardek tez-tez takrorlanib turgan. Jomiy va Navoiyning "Arba'in"dagi yondashuvi – hadisdagi o'zak ma'noni aniq va tushunarli tilda ommaga yetkazish hamda asliyatdan uzoq bo'lgan turli uydirma talqin va sharhlarning oldini olish, shu orqali islom dinining sofligi uchun kurashish hamda go'zal axloq namunalari targ'ib qilingan hadislarning ta'sir kuchidan foydalanib, o'quvchilarni insoniylikka da'vat etish bilan izohlanadi.

Shoir "Arba'in"ni "Lison ut-tayr" va "Nasoyim ul-muhabbat" kabi tarjima asar, deb atagan bo'lsa ham, unda Navoiyga xos

tarjimonlik mahoratining yangi qirralari namoyon bo‘lganini kuzatish mumkin. Agar “Lison ut-tayr” va “Nasoyim ul-muhabbat”da asliyat matniga erkin yondashib, qisqartirish va to‘ldirish, ayrim holatlarda butkul yangi g‘oya va muddaolarni ifoda etish yo‘lidan borgan bo‘lsa, “Arba’in”da imkoni boricha asl matndan uzoqlashmasdan, turkiy tilning imkoniyatlaridan kelib chiqib, qofiya tanlash hamda hadisning mazmunini o‘zbekcha jaranglatish uchun yangi ifoda vositalaridan foydalanishga intilgan. Jomiyning aksar qit’alarida dastlabki ikki misra hadis mohiyatini tushunishda ochqich vazifasini bajarib, hadisning tarjimasi oxirgi misralarda berilgan bo‘lsa, Navoiy hadis mazmunini ko‘pincha birinchi baytda talqin qilib, ikkinchi baytda Jomiy fikrlarini umumlashtirib, rivojlantirib va to‘ldirib ifodalaydi. Chunonchi, “Jannat onalarning oyog‘i ostidadir” mazmunidagi hadisning shoirona talqinini berishda Jomiy o‘z qit’asini ona xizmatidan bo‘yin tovlamaslik kerakligi, inson boshidagi ulug‘lik toji onalar oyog‘ining gardidan hosil bo‘lishi mazmunidagi xulosa bilan boshlab, shundan keyin hadisning mazmunidan kelib chiqib, jannat onalarning oyog‘i ostida ekanligini aytadi:

Sar zi modar makash, ki toji sharaf
Garde az poi modaron boshad.
Xok shav peshi poi o‘, ki bihisht
Dar qadamhoi modaron boshad.

Navoiy esa birinchi baytda hadis mazmuniga urg‘u berib, ikkinchi baytda Jomiyning birinchi baytidagi xulosani keltiradi. Jomiy “Onaning oyog‘i tuprog‘i bo‘lki, jannat onalarning oyog‘i ostidadir” desa, Navoiy qit’asidan “Jannat bog‘i visolini istar esang, onalar oyog‘i tuprog‘i bo‘l”, mazmunidagi xulosa hosil bo‘ladi:

Onalarning oyog‘i ostidadur
Ravzai jannat-u jinon bog‘i.
Ravza bog‘i visolin istar esang,
Bo‘l onaning oyog‘i tufrog‘i.

Alisher Navoiy asarlarining qo‘lyozmalari orasida “Arba’in” eng ko‘p tarqalgani hisoblanadi. ToshDShI ShQM qo‘lyozmalar xazinasida asarning 18 qo‘lyozma nusxasi

naqlanadi. Ularning ayrimlarida hadislarning arabcha matni ko'rsatilgan bo'lsa, ayrimlarida Jomiyning "Arba'in"i matni bilan birga berilgan.

Umuman olganda, "Arba'in" asari insonning ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bu haqda shoir asarning xotima qismida aytib o'tadi:

Erur ul arba'inning avvali hol,
Ayla bu "Arba'in" bila a'mol.

Asarning umumiy hajmi 108 baytdir. E'tiborli jihati, kirish (hamd va na't) va yakuniy qismlar bir xil – 5 baytdan iborat.

Asosiy qismda keltirilgan she'rlar shakl jihatidan qit'a singari bo'lib, bunda faqat juft misralar qofiyalangan va toq misralar ochiq qoldirilgan:

Tengridin rahm agar tama' qilsang,
Avval o'lmoq keraksen elga rahim.
Har kishikim ulusqa rahm etmas,
Anga rahm aylamas rahimi karim.

"Arba'in"dagi qit'alar xafif bahrining *xafifi musaddasi maxbuni mahzuf* yoki *maqtu'* (afoyili va taqti'i: foilotun mafoilun failun yoki fa'lun – V – – / V – V – / V V – yoki – –) vaznida yaratilgan.

Alisher Navoiyning **"Vaqfiya"** asari 1481–82-yillar oralig'ida yaratilgan bo'lib, uning davlat arbobi sifatidagi faoliyati, vaqf qildirgan yerlari, qurdirgan binolari haqida ma'lumot beruvchi asardir[33]. "Vaqfiya" hamd, na't, hukmdor madhi, hasbi hol kabi qismlardan iborat kattagina muqaddima bilan boshlanadi. Asar nasriy yo'l bilan bitilgan bo'lsa-da, unda *nazm, masnaviy, ruboiy, bayt, misra* nomlari bilan atalgan she'riy parchalar ham uchraydi. Muqaddima Sharq badiiy ijodida bo'lgani kabi an'anaviy xarakterga ega bo'lib, unda ifodalangan Allohning xoliqligi, bir-u borligi, odilligi, xotami rasulning shafoatparvarligi, yurt hukmdorining oqil-u donoligi, odilligi borasidagi qarashlar Navoiyning o'z hasbi holiga kelib tutashadi.

Navoiyning ta'kidlashicha, Husayn Boyqaro Xuroson taxtini egallagach, mamlakatdagi ko'pgina ishlar o'z o'rniga

[33] Asar yuzasidan I.Shamsimuhamedov nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

tushgan. Jumladan, hokimiyat boshqaruvida faol qatnashgan barlosiy, arlotiy, tarxoniy, qiyot, qo‘ng‘irot, uyg‘uriy, uyg‘ur, cho‘li, jaloyir, qavchin kabi urug‘larning davlat boshqaruvidagi burch va vazifalari to‘g‘ri hal etilgan, ularning har biriga o‘ziga munosib vazifa tayin etilgan. Navoiy ota-bobolari ham temuriylar xizmatida bo‘lib, ulug‘ martabalarga sazovor bo‘lgan bo‘lsalar-da, o‘zida davlat ishlari va biror bir mansabga intilish bo‘lmaganini, bu borada o‘ta tajribasiz ekanligini aytadi. Hali o‘zining saroy xizmatiga chaqirilmasdan ilgarigi hayoti va rejalari xususida shunday deydi: *“...ammo bu haqir hech nav’ xizmatqa o‘z qobiliyatimni chenamagan jihatdin va hech turluk mashaqqatqa o‘z quvvatimni anglamog‘on sababdin borcha tamanno eshigin yuzumg‘a madrus va jam’i muddaolar abvobin ilayimga masdud qilib erdim. Xayolim bukim, chun olamning xiyonati va olam ahlining diyonati ravshan va jahonning ishvanamo ajuzasining vafosizlig‘i va hayotning ruhafzo mahbubasining baqosizlig‘i muayyandur”*. Ya’ni Navoiy xaloyiqdek zohir huzuri uchun jahonning g‘urur jomini ichish niyatidan xoli bo‘lgan. Ammo ko‘p vaqt o‘tmay, Husayn Boyqaroning taklifi bilan saroy xizmatiga o‘tadi.

Navoiy saroydagi xizmatining “daryog‘a qatra madadkorlig‘idek” ekanini bilsa-da, sidq va safo bilan xizmat qilishga tirishgan. Oz fursatda Husaynning vahiy asarlik so‘zi va ilhom xosiyatlik va’dasidek e’tibor qozongan, nufuzga ega bo‘lgan. Buni o‘ziga ulug‘ martaba ham hisoblagan:

Iqbol mutiu baxt yovar bo‘ldi,
Xurshed rahiyu sipehr chokar bo‘ldi.
Olam elidin kimga muqarrar bo‘ldi
Bu martabakim, manga muyassar bo‘ldi.

Muqaddima so‘ngida Navoiy Husayn Boyqaro davrida ko‘plab maqsadlari amalga oshganini mamnuniyat bilan qayd etsa-da, ikki orzusi hanuz ro‘yobga chiqmaganini alohida ta’kidlaydi. Bularning birinchisi, muborak safar – hajga borish bo‘lsa, ikkinchisi, Husayn Boyqaro zikri va madhida maxsus katta-kichik asarlar yaratish edi. Biroq avom xalq tashvishi Navoiyga mazkur orzularni amalga oshirish imkonini bermagan.

Navoiy muqaddimadan so‘ng vaqf sifatida ajratilgan mulklar to‘g‘risida qisqacha ma’lumot beradi. Chunki Navoiy vaqf

qilgan mulklarning to‘liq tafsiloti fors tilida yozilgan vaqfiyalar – vaqf vasiqalarida bitilgan edi. Unda vaqf mulkchiligi qoidasiga muvofiq podshoh va qozi muhridan tortib oddiy xalq guvohligiga qadar barcha hujjatlar o‘z aksini topgan. Navoiy vaqf mulklari to‘g‘risida qisqacha ma’lumot berganda, asosiy e’tiborni to‘rt jihatga qaratadi:

1) vaqf mulki sifatida ajratilgan yer, joy, bog‘, saroy, shahar, koriz kabilarning maydoni va joylashgan o‘rni;

2) vazifadorlar va ularning maoshi, tirikchiligi; masalan, ikki halol olim– o‘qituvchining yillik ish haqi ikki yuz oltin naqd, yigirma to‘rt yuk oshlig‘, shundan uchdan bir qismi arpa, ikki qismi bug‘doy bo‘lgan. Yigirma ikki talabaning oltitasi a’lo o‘qisa, har biriga oylik naqd yigirma to‘rt oltin, yiliga besh yuk bug‘doy; sakkiz o‘rtacha o‘qiydigan talabaning har biriga naqd o‘n olti oltin, yiliga to‘rt yuk bug‘doy berilgan; past o‘qiydigan har bir talaba oyda naqd o‘n ikki oltin, yiliga uch yuk oshlig‘ olgan.

3) ravotib, ya’ni vaqf mulklari bilan bog‘liq ishlarni yuritadigan xizmatchilarga vaqti-vaqti bilan, asosan, xayrli oylarda berib turiladigan maosh, nafaqa va shu kabi moddiy yordamlar haqida;

4) sharoit, ya’ni vaqf mulklarini idora qilishda amal qilinishi lozim bo‘lgan shart va vazifalar haqida. Bu borada Navoiy alohida va qat’iy ta’kidlagan shart shu ediki, mutavalli – vaqf mulklarini boshqaruvchi vaqf vasiqasini har o‘ttiz yilda qayta ko‘chirishi va biror joyiga o‘zgartirish kiritmasligi zarur. Asar garchi “Vaqfiya” deb atalsa-da, Navoiy unda vaqf qilingan mulklari to‘g‘risida juda qisqa – bir-ikki sahifada ma’lumot beradi, qolgan qismi o‘z hayoti haqidagi ma’lumotlardan iborat.

Asarda Navoiyning mamlakat obodligi va el-yurt farovonligiga doir muhim fikrlari ham o‘z ifodasini topgan:

To hirs-u havas xirmani barbod o‘lmas,
To nafs-u havo qasri baraftod o‘lmas.
To zulm-u sitam jonig‘a bedod o‘lmas,
El shod o‘lmas, mamlakat obod o‘lmas.

Umuman olganda, Alisher Navoiyning “Vaqfiya” asari shoirning xayriya ishlari va vaqf qildirgan mulk, yerlari haqida

ma'lumot berish bilan birga Navoiyning Sulton Husayn Boyqaro saroyidagi ijtimoiy faoliyatini aks ettiruvchi qimmatli manba sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Alisher Navoiyning **"Nazm ul-javohir"** asari pandnoma yo'nalishida bo'lib, Hazrat Ali ibn Abutolib hikmatlarining musarra' ruboiy shaklida qilingan she'riy tarjimalarini o'z ichiga oladi[34]. Asar 1485-yilda Sulton Husayn Boyqaroning "Risola"siga javob va minnatdorlik izhori tarzida yozilgan. "Nazm ul-javohir" muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat. Muqaddimada Navoiy dastlab an'anaviy hamd, na't va vasf mavzularida qalam tebratib, so'ng so'z gavhari haqidagi mulohazalarini bayon etadi hamda uni shakl va ma'no uyg'unligi bo'yicha *a'lo* (eng oliy), *avsat* (o'rta) va *adno* (quyi) kabi uch darajaga bo'lib tasniflaydi. So'zning eng oliy darajasi (a'lo martabasi)ga Allohning Kalomi – Qur'oni karim, hadisi sharif, so'ngra nabiylar, sahobalar hamda valiylarning hikmatlari; o'rta darajasiga balog'at ilmini chuqur egallagan shoir va adiblar, notiq va voizlarning so'zlari; adno – quyi darajasiga omma iste'molida bo'lgan so'zlashuv uslubini kiritadi. Navoiy nutq sharafi bilan mumtoz bo'lgan insonning so'zdan murodi – ma'no olamiga yo'l topish, mohiyatni anglash hamda odamlar orasida o'z bilimi va so'z gavharini tasarruf qilish mahoratiga qarab imtiyoz topishi ekanligini ta'kidlab o'tadi. Bayon etilgan fikrlarning deyarli barchasi oyat va hadislardan iqtibos keltirish orqali dalillanadi, xulosalar ta'sirchanligini oshirish uchun to'rt misrasi ham qofiyadosh – musarra' ruboiylardan foydalaniladi.

"Nazm ul-javohir"ning yozilish sabablari haqida to'xtalar ekan, Navoiy bolaligidan Qur'on va hadisdan ta'lim olish barobarida hazrat Alining hikmatlari bilan ham tanishgani, zamondosh olimlar va fozillardan ushbu hikmatlar fors tiliga tarjima bo'lganini eshitib, o'sha davrlardayoq bu sharafli ishni turkiy tilda amalga oshirmoqni niyat qilganini qayd qiladi. Ushbu niyat hijriy 890, milodiy 1485-yil yanada quvvat oladi: Sulton Husayn Boyqaro turkiy tilda risola bitib, unda saltanat

[34] Asar haqida A. Qayumov, S. G'aniyeva, T. G'ofurjonova, I. Husanxo'jayev, H. Boltaboev, I. Haqqulov, M. Rajabova ilmiy maqola va tadqiqotlar e'lon qilganlar. M. Rashidova "Nazm ul-javohir"ning matniy tadqiqoti bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan hamda ilmiy-tanqidiy matnini nashr ettirgan.

davrida qo‘lga kiritgan yutuqlari hamda shukronalikka sabab bo‘lganlar – mamlakat hududida yashab faoliyat yuritayotgan zotlar, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish va madaniy hayotdagi yuksalishlar haqida fikr yuritib, ayniqsa, Navoiyning bu boradagi qahramonliklarini alohida mamnuniyat bilan qayd qilib o‘tadi va unga turkiy she’riyatning sohibqironi, deb yuksak baho beradi. Bunday shohona iltifot va do‘stona e’tirofga munosib javob qaytarish va o‘zining samimiy munosabatini izhor etish maqsadida ko‘p mulohaza yuritgan Navoiy g‘ayb olamidagi hotif ko‘ngliga nido solganidan keyin Hazrat Alining “Nasr ul-laoliy” (“Sochma durlar”) asaridagi hikmatlarni she’riy tarjima qilishga kirishadi. Aynan “Nasr ul-laoliy”ni Husayn Boyqaro risolasiga javob tarzida tarjima qilishida ham ma’no bo‘lib, bu Hazrat Alining Islom olamida tutgan yuksak o‘rni bilan izohlanadi. Husayn Boyqaro darajasi Hazrat Alining maqomi bilan qiyos etiladi[35].

Rashididdin Vatvot va Afzal Marog‘iy “Nasr ul-laoliy”dagi 100 arabcha hikmatni “Sad kalima” (“Yuzta hikmatli so‘z”) nomi bilan taronai ruboiy shaklida fors tiliga tarjima qilganliklaridan xabardor bo‘lgan Navoiy 300 ta o‘zbekcha ruboiyi tarona yozib, bu yo‘nalishda ham miqdor, ham sifat bo‘yicha forsiy salaflaridan kam bo‘lmagan asar yaratishga erishgan. Bundan tashqari, “Nazm ul-javohir” “Sad kalima”dan farqli ravishda nasrda yozilgan muqaddima va xotima qismidan iborat. Ushbu qismlarda keltirilgan 32 ruboiy ham musarra’ ruboiy shaklida bitilgan. Jumladan, quyidagi ruboiyda to‘rt xalifai roshidon ta’rifi to‘rt misrada bayon qilingan:

Avvalg‘ini fazl durrig‘a ummon bil,
Soniysini adl gavharig‘a kon bil,
Solisni hayo gulbunig‘a bo‘ston bil,
Robi’ni valoyat badanig‘a jon bil.

Asosiy qismda dastavval Hazrat Alining arabcha hikmati asliyatda keltirilib, so‘ng har bir hikmatning umumiy yo‘na-

[35] Adabiyotshunos M.Rajabova “Nazm ul-javohir”ning yaratilishiga yana bir sabab sifatida hazrat Ali qabrining Balxda ekanligi va uni tahqiq etishda Alisher Navoiyning shaxsan o‘zi qatnashganligini keltirib o‘tadi. (Bu haqda qarang: М.Ражабова. “Назм ул-жавоҳир” тарихига оид муҳим манба // Алишер Навоий ижодий ва маънавий меросининг оламшумул аҳамияти (халқаро илмий-назарий анжуман материаллари). – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б.72-75.)

lishidan kelib chiqqan holda to‘rt misrasi ham qofiyalanuvchi ruboiylardan foydalanilgan. Ushbu ruboiylardan 221 tasi muraddaf (radifli) bo‘lib, shundan 33 tasi ikki so‘zli, 188 tasi bir so‘zli radif, 47 ruboiy esa radifsiz. Umumiy miqdori 268 ta bo‘lgan arabcha hikmatli so‘zlardan anglashiladigan fikrlar to‘rt misradan iborat she’riy shaklda o‘zining tugal poetik ifodasini topgan. Mazkur ruboiylarning to‘rt misrasi ham qofiyadosh bo‘lishida ramziy ma’no bor: shoh taxtining to‘rt poyasi uni ko‘tarib turadi, Ka’batullohni biz to‘rt devori bo‘lganligi uchun tasavvur eta olamiz, falakning to‘rtinchi qavati quyoshning maskanidir va boshqalar:

Har birini to‘rt durri shahvor degil,
To‘rtunchi falakda mehri zarkor degil.
Rub’i maskunda Ka’bai osor degil,
Baytul muqaddasqa to‘rt devor degil.

“Nazm ul-javohir”dagi ruboiylar mavzu jihatdan rang-barangdir. Ularda biz hayotning mohiyati, do‘stlik va sevgining ulug‘vorligi, insoniylikning qadr-qimmati to‘g‘risidagi nodir fikrlardan bahramand bo‘lamiz. Masalan, 100-ruboiyga hazrat Alining “Do‘stlarni ziyorat qilish muhabbatni oshiradi” degan o‘gitlari asos qilib olingan:

Har kimki habibing o‘lsa evrul boshig‘a,
Mahv o‘l yuzig‘a, jonni fido qil qoshig‘a,
Tosh ursa, ravoningni tufayl et boshig‘a,
Tajdidi muhabbat angla bormoq qoshig‘a.

Yoki 237-ruboiyda “Kishining ulug‘ligi uning himmatidan bilinadi” degan fikr sharhlanadi:

Har kimsaki iqbol aning yovaridur,
Har yonki yuz ursa, himmati rahbaridur,
Himmat duri faxr tojining gavharidur,
Chun himmati odam o‘g‘lining sarvaridur.

“Nasr ul-laoliy” – Hazrat Alining axloqiy qarashlari aks etgan hikmatlar majmui. Navoiy bu asardan chinakam insoniy barkamollik kasb etishi uchun lozim bo‘lgan shartlarni saylab, birma-bir ta’riflaydi. Ahdga vafo qilish, shukr, oila tutish odobi, diyonat va omonatni saqlay bilish, ota-onaga hurmat, sabr, nafs

dushmanligi, til ofati, minnat bilan yaxshilik savobini yo‘qqa chiqarish xatari, tavakkul, ilmga intilmoq, himmat va adolat kabi ibratli fazilatlar tarannumidan iborat bo‘lgan ruboiylarida arabcha hikmatlarda muxtasar tarzda bayon etilgan mangulikka daxldor quyma fikrlarni rivojlantirib, yangi mazmunlar bilan boyitgan.

Ruboiylar mazmun-mundarijasiga ko‘ra turkumlanmagan. Ayrim to‘rtliklar yaxlit bir mavzu g‘oyalarini ifodalasa-da, ular "Nasr ul-laoliy"da qay tartibda kelgan bo‘lsa, shundayligicha kitobat qilingan. Masalan, asarda so‘z ta’rifida 14 ta ruboiy yozilgan bo‘lib, ular ketma-ket keltirilmaydi. To‘rtliklar zamiriga singdirilgan hikmatlar so‘z gavharining turli qirralarini yoritib, bir-birini to‘ldirib boradi. Jumladan, 19-ruboiyda kishi boshiga ko‘p balolar tilidan kelishi ta’kidlangan bo‘lsa, 46-ruboiyda so‘zlarning eng yaxshisi qisqa, lo‘nda va muxtasar so‘z hisoblanishi aytiladi:

Har kimsaki, so‘z demak shiorida durur,
Ma’ni guli nutqining bahorida durur,
So‘zkim desun ulki ixtiyorida durur,
So‘z yaxshilig‘i chu ixtisorida durur.

Shu mavzudagi keyingi ruboiylarda esa yaxshi suhbatdoshning fazilati, achchiq so‘zning kasofati, so‘z – aqlning belgisi, ravon va fasohat bilan so‘zlash – ma’naviy boylik ekanligi, sukut saqlash sharofati kabi durdona fikrlar nazm ipiga tizilgan. Hikmatli so‘z (aforizm)ning asosiy xususiyati – juda ko‘p fikrlarni oz so‘z bilan ifodalash malakasidir. Shu sababli, hikmatlar zamirida jo bo‘lgan ma’no qatlamlarini tafakkur va tadabbur etib, mag‘zini chaqib olish ham fikr daqiqligi va alohida tayyorgarlikni talab qiladi. Navoiy Hazrat Alining hikmatlarini she’riy yo‘sinda sharhlar ekan, hikmatlarning bosh g‘oyasini asos qilib oladi va oddiy o‘quvchi ilg‘ashi qiyin bo‘lgan jihatlariga shoirona izoh beradi. “Nazm ul-javohir” ruboiylarining yana bir muhim xususiyati – ularda murakkab ifoda usullari, anglash qiyin bo‘lgan ma’naviy san’atlar, ikki-uch ma’noni ifodalaydigan so‘zlar, ilmiy atamalar, talmihlar umuman qo‘llanilmagan. Navoiyning “sahli mumtane’” (tushunilishi oson, ammo o‘xshatib yozish imkonsiz) uslubida yozilgan ruboiylarda bayon etilgan falsafiy umumlashmalar

tufayli o‘quvchining taxayyul ufqlari kengayadi, ruboiyda ifoda etilgan fikrlarni rivojlantirib, yangi-yangi xulosalar chiqaradi va hayotga tatbiq qilish imkonlarini ko‘ra boshlaydi.

Hikmatlar Hazrat Alining boy ma’naviy olami, beqiyos tafakkur tarzi, so‘z mo‘jizasini egallash qobiliyati, teran tafakkuri hamda benazir shaxsiyatidan guvohlik beradi. XV asrning ijtimoiy barqarorligiga xavf solgan shialik mazhabiga mansub ayrim buzg‘unchi guruhlar Hazrat Alini umr bo‘yi siyosiy hokimiyat uchun kurashgan va bu siyosiy kurashni kelajak avlodga ham vasiyat qilib qoldirgan omadsiz siyosatchi sifatida talqin qilib, islom olamida oxirzamon payg‘ambaridan keyin eng mashhur bo‘lgan shaxs nomidan o‘zlarining g‘arazli niyatlarini amalga oshirishda foydalanmoqchi, ayrim mutaassib sunniylar esa Hazrat Aliga tavajjuh zohir qilgan sog‘lom e’tiqodli kishilarni rofiziylik tuhmati bilan badnom qilmoqchi bo‘lganlar. Navoiy bu hikmatlar tarjimasi orqali Hazrat Alining shaxsiyati, dunyoqarashi, e’tiqodi va maslagi dunyoparastlarning da’vo va iddaolaridan baland turishini amalda isbotlab berdi hamda e’tiqod, diyonat, dunyoqarash bobida xalifa Alidek zotlar bilan maslakdosh ekanligini ham ko‘rsatdi.

“Nazm ul-javohir”ni o‘qigan kishi islom dini – eng avvalo, ma’rifat, go‘zal axloq, ezgu niyat va solih amal qilishga hidoyat etuvchi, jaholat, riyo, xudbinlik, tanballik, zulm va zo‘ravonlikni qoralaydigan muqaddas din ekanligiga yana bir karra ishonch hosil qiladi. Shu sababli, “Nazm ul-javohir” mavzu nuqtai nazaridan diniy asar hisoblansa-da, mohiyat e’tibori bilan axloqiy-didaktik asarlar sirasiga kiradi.

Alisher Navoiyning “Siroj ul-muslimin” (“Musulmonlar nuri”) asari sof diniy yo‘nalishda bo‘lib, islom dini ahkomlarini yoritishga bag‘ishlangan. Asar hijriy 905, milodiy 1499 – 1500-yilda masnaviy shaklida yozilgan bo‘lib, hajman 208 baytdan iborat.

“Siroj ul-muslimin”da muallif har bir oddiy musulmon bilishi zarur bo‘lgan aqidaviy va fiqhiy masalalarni yoritishni maqsad qilib, islomning besh ruknini qisqacha tarzda o‘zbek tilida bayon etgan. Asar basmala bobi, kitobning yozilish sababi bayon etilgan bob, turli diniy mavzularga bag‘ishlangan 25 bob va xotimadan iborat. Besh baytli basmala bobida Navoiy avval hamd, na’t va salavot aytib, so‘ng ushbu asarning yozilish

tarixini quyidagicha bayon etadi: Sulton Husayn Boyqaroning bevosita rag'bati va himmati tufayli ham ma'naviy obidalar, ham ko'plab binoi xayrlar qurishga muyassar bo'lgan Navoiyning bu ishlari turli majlis va anjumanlarda suhbat mavzusiga aylangan. Ana shunday majlislarning birida Navoiyning xayrixohlaridan biri uning sa'y-harakati tufayli bunyod etilgan "oliy rabot"ni maqtab qoladi. Shu majlisda Sultonning yaqin kishilaridan bo'lgan boshqa bir kishi, "she'rlarida ishq-u oshiqlikni madh etib, din-u diyonat uyini xarob etuvchi kishining binoyi xayr qurdirishi hisobga o'tarmikan?" degan ma'noda e'tiroz bildiradi. Bu xabar Navoiyga yetib kelgach, tanqidda qaysidir ma'noda jon borligini anglagan shoir aqida hamda islom arkoni masalalari bilan bog'liq oddiy turkiyzabon kishilarga tushunarli til va uslubda sof diniy asar yozishni niyat qiladi. Ammo o'sha paytda turli tashvish va muammolar sabab uning bu niyati amalga oshmay qoladi. Bir kuni Samarqand shahridan Hirotga kelgan martabali bir kishi Xoja Ahror bilan suhbatlari chog'ida Navoiyni ham esga olgani, "diniy mavzuda ham bir asar yaratsa, yaxshi bo'lardi", deganini aytib qoladi. Natijada, burunroq rejalashtirilgan xayrli ish Xoja Ahrorning taklifi bilan amalga oshadi.

Navoiy asarda dastlab shariat hukmlari hamda aqida qoidalarini bayon qiladi. Bu bejiz emas. Chunki shariatda e'tiqod birlamchi, amal e'tiqodga nisbatan ikkilamchi darajada turadi. Xudoga va Uning payg'ambariga e'tiqod qilmasdan turib, shariat ahkomlarini bajarish – ildizi yo'q daraxtni parvarish qilish kabi samarasiz. Shuning uchun har bir inson, eng avvalo, e'tiqod asoslari haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishi lozim:

Amaldin chun burun keldi aqoyid,
Bas, andin yetkuray avval favoyid.

Alloh taolo aql-hushi joyida hamda balog'atga etgan bandasiga farz qilgan birinchi narsa iymon keltirishdir: Iymon keltirish – 1) butun borliqni yo'qdan bor qilgan, o'xshashi va tengi yo'q yakka-yu yagona Allohga; 2) Alloh yaratgan farishtalarga; 3) Alloh yuborgan ilohiy kitoblarga; 4) Alloh bandalariga yuborgan payg'ambarlarga; 5) qiyomat kuniga; 6) taqdiri ilohiyga shak-shubhasiz ishonish va unga amal qilish demak.

Navoiy iymonning mohiyatini sharhlar ekan, aqida ilmining

muhim masalalaridan biri – Alloh taoloning zotiga oid sakkiz sifatini keltiradi. Unga ko'ra, mo'min inson Allohning zamon va makondan munazzah – xoli ekaniga, sherigi yo'qligiga, uning bezavol ilmiga, eshitish va ko'rishiga, kalomiga, taqdir egasi ekaniga ishonishi shart. Hazrat Navoiy Allohning o'xshashi yo'q, uning qudrati har qanday jismdan xoli bo'lib, bandalar kabi ehtiyojmand emasdur degan islom aqidasidagi fikrni uqtirar ekan, bunga isbot tariqasida "Sho'ro" surasidagi 11-oyatni keltiradi. Shuningdek, musulmon kishi e'tiqod qilishi lozim bo'lgan – qabr azobi, ikki farishtaning savol-javobi, qiyomat kuni Allohni ko'rish mumkinligi, sirot ko'prigi va gunoh-savoblar tarozusi, jannat va do'zaxning borligi, payg'ambarlar mo'jizalari, oxirzamon payg'ambarining qiyomat kuni shafoat qilishi kabi bir qator aqidaviy masalalarni ham bayon etadi. Bu masalalarni qisqacha bo'lsa-da, tilga olishdan asosiy maqsad, avvalo, ahli sunnat va jamoaning e'tiqodini bayon etish, shu bahonada maslak va mazhabining ham ochiq-oydin ravishda moturidiya e'tiqodida ekanligini bildirishdir. Chunki aqidaviy masalalar turli mazhabda turlicha amal qilgan. Navoiy bahsga kirishmasdan, o'zi e'tiqod qilgan haqiqatlarni keltirib, xulosa chiqarishni o'quvchiga havola qilishni ma'qul ko'rgan.

"Islom arkonining sharhi" bobi bilan boshlanadigan qismda Navoiy islom dinining besh rukni – shahodat kalimasi, namoz, zakot, ro'za va haj haqida ma'lumot beradi. Shahodat kalimasi – Alloh taoloning yagona ma'bud hamda Muhammad (s.a.v.) Uning rasuli deb guvohlik berish ekanligini qayd etib, so'ng "saloti xams" – besh mahal farz qilingan namozning shart va tartiblarini keltiradi. Namozlar umumiy hisobda o'n yetti rak'at (bomdod – ikki, peshin va asr – to'rt rak'atdan, shom – uch, xufton – to'rt rak'at) bo'lib, xuftonda uch rak'at vitr namozi vojib qilingan. Sunnat namozlari esa jami o'n ikki rak'atdir:

Ikirar rak'at o'ldi subh ila shom,
Ul ikki to'rtar angla barcha ayyom.

Islomning uchinchi rukni – zakot haqida ma'lumot berarkan, zakot – moli nisobga etgan kishi uchun farz bo'lib, mol-davlatidan qirqdan bir hissani mustahiq – zakot olishga haqli bo'lgan insonlarga berish buyurilgani, ammo kiyib yurilgan

kiyim-kechaklar, zaruriy ehtiyojga qo'llaniladigan ot-ulov va boshqa narsalardan zakot berilmasligini ta'kidlaydi. Navoiy talqinida, zakot – balolarni qaytaruvchi hamda qiyomat kuni gunohlarni yengillatuvchi amallardan hisoblanadi:

Adosida baloning raddi angla,
Yana qilmoq sabukbor o'zni tongla.

Islomning to'rtinchi rukni ro'za tutish bo'lib, ramazon oyi davomida tongdan shomgacha taom, ichimlik va jinsiy yaqinlikdan uzoq bo'lishlik farz etilgan. Farz ro'zalarda tong otmay turib niyat qilish afzal, nafl ro'zalarda esa peshingacha niyat qilish joiz ekanligi bildirilgan. Islomning beshinchi rukni – haj ham farz amallardan bo'lib, bu amalning farzga aylanishiga muayyan shartlar mavjud. Ular – haj qilishga moddiy imkoniyat, yo'lning bexatarligi, qarzdor bo'lmaslik, haj safarida bo'lish muddatiga yetadigan oilaning ta'minoti mavjudligi, haj safariga chiqishga mone'lik qila oladigan kasallik yo'qligi bo'lib, bu shartlar ijobiy hal qilinganda haj amalini bajo keltirish farz bo'ladi.

Xotima qismida asarning yozilish sanasi (hijriy 905 / milodiy 1499-1500) va nomlanishi qayd qilinib, duo istagi bilan tugallanadi.

"Siroj ul-muslimin"ning sodda til, ravon uslub hamda mantiqiy izchillik bilan yozilganligi o'rta asrlarda urf bo'lgan "nazmi ta'limiy" (she'r bilan yoziladigan o'quv qo'llanma) an'analarini eslatadi. Arab va fors she'riyatida falsafa va irfon, axloq va din, riyoziyot va lug'atshunoslik fanlariga bag'ishlangan she'riy asarlar mavjudligidan yaxshi xabardor bo'lgan Navoiy "Siroj ul-muslimin" vositasida ushbu an'anani turkiy she'riyatga ham joriy qilishga erishgan. Shuningdek, Husayn Boyqaro olib borayotgan bag'rikenglik siyosati tufayli Hirotda faoliyat olib borayotgan boshqa mazhab va firqalarning aqidalarini kamsitmagan holda o'zi e'tiqod qilgan ahli sunna va jamoaning mo'tadil qarashlarini himoya qilib chiqqan. "Siroj ul-muslimin" o'zbek tilida yaratilgan ilk diniy-aqidaviy manbalarning biri sifatida ham katta ahamiyatga ega. Asar aruzning hazaji musaddasi mahzuf (ruknlari va taqtiyi: mafoiylun mafoiylun fauvlun, V – – –/ V – – –/ V – –) vaznida yozilgan.

"Munojot" – Allohga iltijo tarzida yaratilgan nasriy asar bo'lib, "Hamd", "Na't" va "Munojot" deb atalgan uch qismni

o‘z ichiga oladi. “Hamd”da Allohning buyukligi, abadiyligi haqida so‘z borsa, “Na’t”da Payg‘ambarimiz rasuli akram ta’riflari ketiriladi. Asarning “Munojot” qismi bevosita shoirning Allohdan najot so‘rab qilgan iltijolariga bag‘ishlangan. Asarning har bir jumlasi Allohga murojaat, ya’ni “ilohi” so‘zi bilan boshlanadi. Navoiy o‘zini behad gunohkor, yaratganni pok va akram (karamli), o‘zini cheksiz isyonkor va Xoliqni rahmli va mehribon deb atar ekan, ichki qofiya, tazod, ishtiqoq san’atlarining betakror namunalari Shoir his-tuyg‘ulari bilan uyg‘unlik kasb etganligini ko‘ramiz:

Ilohi, akram ul-akramin – sen va men – gunohkor.

Ilohi, arham ar-rohimin – sen va men – tiyraro‘zgor.

Ilohi, agarchi jurmu isyondin o‘zga ishim yo‘q, ammo sendin o‘zga ham kishim yo‘q...

“Munojot” asari mohiyatan Haq vasliga tashna, oriflik maqomiga erishgan oshiqning hissiyotlarini o‘zida aks ettirib, janriy jihatdan nazm va nasr xususiyatlarini namoyon qiladi. Asarning o‘ziga xos musiqiy ohangi, saj’ usulidan mahorat bilan foydalanilganligi uning badiiy jihatdan qiymatini oshirgan, deb aytish mumkin. Mazkur asar o‘zining g‘oyaviy va badiiy xususiyatlari bilan mumtoz adabiyotimizdagi shoh asarlari sifatida o‘z o‘rniga egadir.

Alisher Navoiyning **“Nasoyim ul-muhabbat”** (to‘liq nomi “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyil ul-futuvvat” – “Mardlik xushbo‘yliklarini taratuvchi muhabbat shabadalari”) asari 1495–96-yillarda yaratilgan bo‘lib, Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds” (“Muqaddas dargohdan esgan do‘stlik tarovati”) asarining ijodiy tarjimasidir.

Asarning tanqidiy matni muallif yashagan davrda ko‘chirilgan nusxa asosida 1996-yil Turkiya (Anqara)da Kamol Eraslon tomonidan yaratilgan. 2011-yil navoiyshunos olim H.Islomov ham mazkur asarning ilmiy-tanqidiy matnini yaratib, chop qildirdi.

Asarda milodiy VIII asrning boshidan XV asrning oxiriga qadar Osiyo, Afrika va Yevropa qit’alarida yashab o‘tgan avliyolarning tarjimai holi, ibratli hikoyatlar hamda o‘git va hikmatlaridan namunalar keltirilgan.

Asar muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat. Muqad-

dima o'z navbatida arabcha hamd va na't, asarning yozilishi sababi, "Bu toifa sulukida muqaddima tamhidi", "Bu toifaning a'mol u af'ol va muomilot-u riyozotidin ba'zini zikr qilmoq", "Avliyoullohg'a voqe' bo'lg'on xavoriqi odotu karomot bayoni" boblariga bo'linadi. Hamd va na't mazmunidagi arabcha jumlalar *barotti tatehlol* san'atining yuksak namunasi sanaladi. Navoiy bu orqali ahli sunnat va jamoat e'tiqodida ekanligini qayd etadi. Asarning yozilishi tarixi va sababi mazmunidagi parchada XI–XV asrlar tasavvuf tarixini qamrab oluvchi ishonchli manba bo'lmagani, Abdurahmon Jomiy Navoiyning iltimosi bilan bu vazifani sharaf bilan uddalagani, "Nafahot ul-uns" tazkirasi katta shuhrat topib, qo'lma-qo'l bo'lib ketgani, yozilganidan yigirma yil o'tib, Navoiy Jomiyning "Nafahot ul-uns" tazkirasini tarjima qilish orqali turkiylarning fors va arab tilidan bexabar bo'lgan qatlamini tasavvufning yetuk namoyandalari bosib o'tgan ibratli hayoti bilan tanishtirish maqsadida "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasini yozgani haqida ma'lumot beriladi.

"Bu toifa sulukida muqaddima tamhidi" deb atalgan qismda Navoiy inson yaratilishi sababi, Allohning hikmati, payg'ambarlar sayyidi Muhammad (s.a.v.)ning Haqqa habib ekanligi bilan bog'liq tushunchalarni bayon qiladi. Alisher Navoiy Rasulullo (s.a.v.)dan so'ng payg'ambarlik eshigi berkitilgan bo'lsa-da, mo'minlar pok e'tiqod, taqvo bilan Allohga do'stlik – valiylik maqomiga erishishlari mumkin, chunki "Olimlar – payg'ambarlarning vorislaridir", valiy zotlarning barchasi Alloh yo'lida sobit bo'lgan zotlardir, ular xalqni to'g'ri yo'lga boshlaydi, deb ta'kidlaydi.

"Bu toifaning a'molu af'ol va muomilotu riyozotidin ba'zini zikr qilmoq" bobi avliyolarning a'moli – amallari, af'oli – fe'l-atvori, muomilotu riyozati – muomalasi (xalq bilan munosabati) va Haq yo'lida chekadigan mashaqqatlarini yoritishga bag'ishlangan. Unda valiy zotlar bilan bog'liq luqma halolligi, shariatga amal qilish, iymon kalimasini ruhga singdirish, besh vaqt namoz o'qish, zakot berish, ro'za tutish, haj qilish, odob, hilm,taqdirga rizo bo'lish va sabr qilish, sidq – rostgo'ylik, riyozat chekish kabi amallar keltirib o'tiladi. Bu fazilatli amallar oddiy odamlarnikidan farq qiladi. Asarda keltirilishicha, iymon kalimasi – kalimai shahodatni hamma chin dildan aytishi mumkin, lekin valiylar bu kalomni aytib, hushlarini ham

yo‘qotishlari mumkin. Yoki shariatda zakot molning qirqdan bir qismini faqirlarga berish bilan amalga oshirilsa, valiylar qo‘lidagi narsaning ortig‘i bilan ehson qilishni zakot deb bilishlari haqida ibratli fikrlar keltiriladi (shayx Abu Bakr Shibliyning bir faqihga bergan javobi misolida).

Bundan tashqari, luqma halolligiga erishish uchun har bir valiy zot o‘z kasbi koriga ega bo‘lgan. Masalan, Shayx Abu Said Xarroz, Xoja Abdulloh Ansoriylar etikdo‘zlik, shayx Muhammad Sakkok pichoqchilik, shayx Abu Hafz Haddod temirchilik bilan mashg‘ul bo‘lganlar.

Islom aqidasiga ko‘ra mo‘jiza va karomat haqdir. Mo‘jiza payg‘ambarlar tomonidan Allohning qudrati bilan amalga oshiriladigan va inson aqli yetmaydigan hodisalar bo‘lsa, avliyolarning bu kabi ishlari karomat deyiladi. Bular umumiy tarzda xavoriqi odat – g‘ayriodatiy, g‘ayritabiiy ishlar, deb ataladi. Masalan, duolar ijobati, g‘ayb sirlaridan ogoh bo‘lish, inson ko‘nglidagi o‘yni anglash, suv va taomsiz ro‘za tutish, bir lahzada dunyoning u chetidan bu chetiga borib qolish kabi oddiy inson aqli uchun g‘ayritabiiy bo‘lgan holatlar avliyolarga xos bo‘lib, ularni ko‘p oshkor qilmaslik valiyning yuksak maqomini bildiradi.

“Nasoyim ul-muhabbat” bir tildan ikkinchi tilga aynan o‘girilgan asar emas, balki ijodiy yondashuvga tayanilgan erkin tarjima namunasi hisoblanadi. Bunga bir necha sabab bor:

birinchidan, “Nafahot ul-uns” murakkab ilmiy-nazariy asar bo‘lib, undagi arabcha va forscha ta’birlar va hikmatlar asosan ramz va ishora tilida aytilganligi sababli tasavvuf istilohlaridan bexabar kimsaning bu so‘zlar mohiyatini anglashi qiyin kechadi. Shuning uchun, Navoiy kerakli joylarda matnni qisqa izoh va sharh bilan boyitib borgan. Jomiy tazkirasining muqaddimasida valiylik nazariyasiga ilmiy yondashilganligi sababli, Navoiy turkiyzabon o‘quvchilar dunyoqarashini hisobga olgan holda mustaqil ravishda nisbatan sodda va tushunarli muqaddima yozgan;

ikkinchidan, Jomiy o‘z asarini yozishda asosan Imom Yofi’iy, Sullamiy hamda Ansoriyning tazkiralariga tayangan. Navoiy esa asosiy manba – Jomiyning tazkirasidan tashqari, Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asaridagi 19 nafar mashhur avliyo, Shayx Farididdin Shakarganjdan so‘ng Hindistonda yashab o‘tgan 31 shayx, shuningdek 100 dan ortiq turk mashoyixlari haqidagi ma’lumotlarni qo‘shimcha tarzda keltirgan. Shuning-

dek, Nosir Xusrav, Shayx Mahmud Shabustariy, Ozariy, Lutfiy, Ashraf, Nasimiy, Shayx Imodiddin Faqih, Mavlono Jomiy kabi valiylik maqomiga erishgan shoirlarga ham o'rin ajratilgan. O'zi bevosita muloqot qilgan valiysifat zamondoshlaridan Mavlono Sharafiddin Ali Yazdiy, Bobo Xokiy, Bobo Ali Mast Nisoiy, Bobo Xushkeldi singari Xudoning nazari tushgan aziz zotlar haqida ham ma'lumot berib, shayxlar sonini 618 dan 770 ga etkazgan.

Jomiyning tazkirasi birinchi marta "so'fiy" nomi bilan atalgan Abuhoshim So'fiy zikri bilan ibtido topadi. Navoiy tazkirasi Uvays Qaraniy haqidagi fasl bilan boshlanadi. Uvays Qaraniyning Payg'ambarimiz (s.a.v.)ga g'oyibona mehr qo'ygani uning kuchli va mustahkam muhabbati barcha islom ummati uchun ibrat hisoblanadi.

"Nasoyim ul-muhabbat" tarkibida tilga olingan avliyolar orasida islomdagi to'rt mazhab boshliqlari – imom A'zam, imom Molik, imom Shofe'iy, imom Ahmad ibn Xanbaldan tortib Muhammad G'azzoliy, Bahouddin Valad, o'g'li Jaloliddin Rumiy, Rumiyning o'g'li Sulton Valad kabi buyuk zotlar haqidagi turli qiziqarli, ibratli hikoyalarga duch kelamiz. Ushbu avliyolar haqidagi ma'lumotlar ilmiy asosga ega bo'lib, tasavvuf tarixini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi (Masalan, Jaloliddin Rumiyga bolaligida Fariddin Attor o'zining "Asrornoma" asarini hadya qilishi yoki Shamsiddin Tabriziy va Rumiy uchrashuvi bilan bog'liq ma'lumotlar).

Navoiy chishtiya tariqatining Hindistondagi yirik namoyandalari hayotini yoritishda Sayyid Muhammad Dehlaviyning "Siyar ul-avliyo", Badriddin Is'hoq Dehlaviyning "Asror ul-avliyo" (Shayx Farididdin Shakarganj manoqibi), "Tabaqoti Nosiriy" kabi muhim va mo'tabar manbalarga suyangan. Farididdin Attorning asarlari ("Mantiq ut-tayr", "Tazkirat ul-avliyo"), Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si (Bobo Sungu, Shayx Boyazid haqidagi boblar), Sulton Husayn Boyqaroning xotiralari (Bobo Xushkeldi, Bobo Ali Mast Nisoiy), ismi keltirilmagan ishonchli kishilar rivoyat qilgan hikoyatlar hamda o'zining kuzatuvlari va xulosalari asosida turk mashoyixi va zamondoshlari haqidagi haqiqatlarni tiklashga erishgan. Shu sababli "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasi XV asr ma'naviy hayotida muhim iz qoldirgan valiysifat insonlar haqidagi eng mo'tabar va ishonchli manbalardan biri hisoblanadi.

Jomiy asarini tarjima qilish jarayonida Navoiy o‘z asarini yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirish asnosida qisqartirish yo‘lidan ham borgan. Ko‘p rivoyatlar, bahsli nuqtalar, mohiyatan bir-birining takrori bo‘lgan hikmatlarni tarjima qilmagan. Bahs va ixtilofga sabab bo‘ladigan ayrim shayxlar haqidagi fasllarni umuman tashlab ketgan.

Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da mavjud manbalar asosida shayxlarning tarjimai holi, tug‘ilgan yili va vafoti haqidagi aniq sanalarni ham keltirishga harakat qilgan. Ammo bu prinsipga qat’iy rioya etilmagan. Ba’zi shayxlarning yashagan davri va tug‘ilgan joyi ma’lum emas. Ma’lumotlar hajmi ham har xil. Ba’zi shayxlar haqida ikki-uch sahifa ma’lumot berilgan bo‘lsa, ayrimlari haqida ikki-uch og‘iz so‘z bilan kifoyalangan. Ammo barcha oriflarning qaysi shayxdan ta’lim olganligi, silsila omonatini kimdan olganligi, kimlarning suhbatiga etishgani haqida imkoni boricha aniq va ishonchli ma’lumotlar berilgan. Navoiyning ushbu tazkirani yozishdan maqsadi shayxlarning tarixiy siymosini yaratish emas, balki o‘quvchida ularning ma’naviy olami haqida tasavvur hosil qilish bo‘lgan.

“Nasoyim ul-muhabbat”dagi hikoyatlar, hikmat va rivoyatlarning asosiy qismi bashariy xislatlarni tark eta borib, ilohiy axloqni kasb etuvchi, ma’rifatni egallashga bel bog‘lagan zotlarning ruhiy-axloqiy kamolot yo‘li, dunyoning arzimas manfaatlari ustidan g‘olib chiqib, tafakkurining sathi osmon-u falaklar qadar keng qamrovli, ko‘ngli Ma’rifat va Muhabbat maxzaniga aylangan komil insonlar haqida. Bunday hikoyatlar har bir insonning ruhiyatiga poklik olib kiradi, qalbda sof tuyg‘ularni uyg‘otadi, har qanday davr-u zamonda, har qanday sharoitda Rahmonning izidan, Haq yo‘ldan borish abadiy saodatga eltuvchi yo‘l ekanligini anglatadi.

Alisher Navoiyning mazkur yo‘nalishdagi asarlarini o‘rganish orqali uning dinga bo‘lgan munosabati, e’tiqodi bilan bog‘liq muayyan ma’lumotlar olish bilan birgalikda, uning islom ilmlarining yetuk bilimdoni ekanligi to‘g‘risida tasavvur hosil qilamiz. Bu ulug‘ shoirning o‘z davri ijtimoiy hayotida tutgan o‘rni nechog‘lik muhim bo‘lganligini belgilab beruvchi o‘ziga xos omil ekanligi bilan ahamiyatli sanaladi.

Alisher Navoiy o‘zining uch ustoziga bag‘ishlab uch yodnoma – manoqib yaratgan. Manoqib yuksak fazilatli, valiy va

o'ziga xos xislat egalarining tarjimai holi, siyrati va sajiyasini aks ettiruvchi mumtoz janr hisoblanadi.

Shunday asarlardan biri Navoiyning piri, ustozi Abdurahmon Jomiy xotirasiga bag'ishlangan **"Xamsat ul-mutahayyirin"** ("Besh hayrat") asari hisoblanadi. Muallif kirish qismida asar mundarijasini keltiradi. Unga ko'ra, mazkur asar muqaddima, uch maqolat va xotimadan iborat.

Asar muqaddimasida Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiyning nasl-nasabi, bolaligi, umr yo'li haqida to'xtaladi. Shuningdek, Jomiyning xizmatiga qachon kelganligi haqida ham xabar beradi. Shoir muqaddimada Abdurahmon Jomiyning bolaligi haqida hikoya qilish asnosida qiziq voqeani keltiradi. Bir kuni zamonasining piri murshidlaridan hisoblanmish Faxriddin Luristoniy Jom viloyatiga – Abdurahmon Jomiyning uylariga keladi. O'sha paytlarda to'rt-besh yoshlar atrofida bo'lgan Abdurahmon juda sezgirlik bilan ulug' murshidning harakatlarini kuzatadi va shayx barmoqlari bilan "Umar" va "Ali" so'zlarini havoga yozsa, ilg'ab olib, o'qib beradi. Buni ko'rib, Faxriddin Luristoniy boladagi ziyraklikdan hayratga tushadi. Hazrat Navoiy Jomiyning umr yo'li bilan bog'liq ma'lumotlarni keltirib, ustozining Shohrux Mirzo zamonidan Abusaid zamonigacha Hirot shahrida yashaganligini aytadi. So'ng avliyo Sa'diddin Koshg'ariy mozori qoshida maskan tutadi. Shundan so'ng umrining oxirgacha shu yerda yashaydi.

Asarning ikkinchi qismi "Avvalg'i maqolot" deb atalib, hazrat Navoiy o'zi va ustozi o'rtasida bo'lib o'tgan qiziq va ibratli voqealar, ma'naviy suhbatlar xususida ma'lumot beradi. Mazkur qismda Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ishtirokidagi o'n to'rt voqea keltirilgan. Ularning barchasi turli vaqt va holatlarda ro'y bergan bo'lsa-da, ustoz va shogirdning, balki ikki do'stning mehru muhabbati, sadoqati, hamfikrliligi haqidagi xulosalarni beradi. Masalan, Navoiy keltirgan voqealardan birida kotib Abdullohning Alisher Navoiyga shayx Xoja Abdulloh Ansoriyning "Ilohiynoma" kitobini ko'chirib keltirganligi qalamga olinadi. Kotib kitobni tashlab ketgach, Alisher Navoiy bir varaqlab ko'rish bahonasida ikki qismdan iborat yirik asarni bir o'tirishda o'qib tugatib qo'yadi. Ertasi kuni kotib Abdulloh Shoirdan kitobni qaytarishini yoki haqini to'lashini so'raydi. Shunda atrofdagilar unga Alisher Navoiy kitobni qo'liga olib,

bir zarb bilan o‘qib tugatganligini aytadilar. Hayratga tushgan kotib: “Kecha kitobni hazrati Maxdumi Nuran – Abdurahmon Jomiyga ham eltib edim, ul zot ham xuddi shu tarzda uni xatm qilib edilar”, – deydi.

Shuningdek, yana bir qiziq voqea keltiriladi: Bir majlisda Udiy ismli hofiz Xoja Hasan Dehlaviyning g‘azalini kuylaydi. Shunda g‘azalning:

Misoli qatrai boron sirishki man ham dur shud,
Chunin asar dihad, alhaq, tului chun tu suhayle.

(Mazmuni: “Mening yomg‘ir tomchisi kabi ko‘zyoshlarim injuga aylandi, haqiqatan, sening suhayl yulduziday chiqishing shunday ta’sirlantiradi”) baytiga kelganda majlis ahli misradagi “dur” so‘zidan ko‘ra ko‘zyoshni qonga o‘xshatilganligi badiiy ta’sirchanlikni oshiradi, deyishadi. Hamma shunday fikr aytib, Navoiydan ham fikr so‘raydilar. Shoir g‘azaldagi ifodaning o‘zi chiroyli, lekin buni isbotlab berolmayman, kelinglar, bir kishini hakam qilamiz, u to‘g‘ri fikrni aytsin, garov o‘ynaymiz, deydi. Hamma rozi bo‘ladi va g‘azal bayti Abdurahmon Jomiyga yuboriladi. Baytdagi “dur” yoki “xun” (“qon”) so‘zlarining qaysi biri ma’qul ekanligini so‘rashadi. Shunda Jomiy:

Suxan durr astu taalluq ba go‘shi shah dorad –

(“So‘z – dur, shohning qulog‘iga tegishli”) mazmunidagi bir misrani bitib yuboradi. Davra ahli javobning nozik va qisqaligidan, Navoiy va Jomiyning shu qadar hamfikr ekanligidan hayratga tushadilar. Bu voqea butun Hirotga tarqalib ketadi, majlislarda uzoq vaqt aytib yuriladi.

Yana boshqa voqeada bir qurilishga sarv daraxtlari kesilib olib ketilayotgani bilan bog‘liq holat tilga olingan. Aravada qurilishga sarv daraxtlarini olib ketilayotganini ko‘rgan Jomiy aravakashdan sarv daraxt qoldimi, nechta yog‘och olib ketyapman, deb mutoyiba bilan savol bersa, bir yuz to‘rtta deydi. Jomiy “nega aynan 104 ta” deb so‘raganda, Navoiy axir, sarv yorning qaddiga qiyosdir, “qad”[36] so‘zining adadi ham bir yuz to‘rtdir, deydi. Jomiy Navoiyning zakovatiga qoyil qoladi.

Asarning ikkinchi maqolati Alisher Navoiy va Abdurah-

[36] “Qad” so‘zi abjad hisobida 104 raqamini hosil qiladi. Bunda ق – 100, د – 4 ni bildiradi.

mon Jomiy bir-biriga yozgan xatlari xususida. Bu maktublar Jomiy ham, Navoiyning ham ba'zi asarlari tarkibiga kiritilgan. Aynan shu qismda Alisher Navoiy o'zining "Tuhfat ul-afkor" qasidasining yozilishi tarixiga ham to'xtalib o'tadi. Maqolatda yozilishicha, bir kuni Alisher Navoiy va Jomiy suhbatlashib o'tirganlarida Xusrav Dehlaviyning "Daryoyi abror" qasidasidan so'z ketadi. So'z asnosida Navoiy Xusrav Dehlaviyning *"Agar aflok havodisi va ro'zigor navoyibidin mening borcha nazmim zamona sahifasidan mahv bo'lsa va bu qasidam qolsa, menga basdir, nevchunkim, har kishi ani o'qisa bilurkim, nazm mulkida mening tasarruf va iqtidorim ne martabada erkandur"*, mazmunidagi faxriyasini eslab o'tadi. Biroz vaqt o'tib Navoiy Marvga ravona bo'ladi. Hazrat Navoiy Jomiy huzuriga borganida, Jomiy "Daryoyi abror"ga tatabbu tarzida yozilgan "Lujjatu-l-asror" qasidasini Navoiy e'tiboriga havol qiladi. Navoiy qasidani o'qib, g'oyat ta'sirlanganligidan yo'lda bu qasidaga tatabbu tarzida matla'ni bitib, agar Jomiyga ma'qul kelsa, uni davom ettirishi mumkinligini aytadi. Jomiyga bu matla' ma'qul kelib, uni yakunlashga Navoiyni ilhomlantiradi.

"Uchinchi maqolat"da Jomiy yaratgan asarlar ta'rifiga bag'ishlangan bo'lib, mazkur faslni jomiyshunoslikning poydevori deb aytish mumkin. Unda Navoiy Jomiyning 38 asari nomini keltirgan.

"Xotima"da Navoiy ustozi Jomiy huzurida o'qigan asarlari ro'yxatini keltiradi. Bu asarlarning ba'zilari Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub bo'lsa ("Risolai qofiya", "Risolai muammo"ning ikkinchi daftari, "Risolai aruz", "Lavoeh" ("Yaltiroqliklar"), "Lavome'" ("Ravshanliklar"), "Sharhi ruboiyyot", "Nafahot ul-uns" ("Do'stlik tarovati"), "Ashi'at ul-lamaot" ("Porloq shu'lalar"), "Shavohid un-nubuvvat" ("Payg'ambarlik shohidlari"), "Haft avrang"), qolganlari Xoja Muhammad Porsoning "Qudsiya", Faxriddin Iroqiyning "Lamaot", Xoja Ubaydulloh Ahrorning faqr va fano to'g'risidagi risolalari, Abdulloh Ansoriyning "Ilohiynoma" asari va boshqalar edi. Shuningdek, xotimada Jomiyning xastaligi, vafoti, dafn qilinish tafsilotlari ham keltirib o'tiladi. Abdurahmon Jomiy vafotidan bir yil keyin Navoiy ustozi qabri ustiga katta maqbara qurdiradi, Sulton Husayn Boyqaro ishtirokida katta marosim o'tkazib, bu

marosimda ustozining vafotiga bag‘ishlab yozgan ta’rix va marsiyasini o‘z davrining mashhur notig‘i Mavlono Husayn Voiz Koshifiyga o‘qittiradi. Mazkur marsiya keyinchalik “Devoni Foniy” tarkibidan o‘rin olgan.

“Holoti Sayyid Hasan Ardasher” manoqibi Sayyid Hasan Ardasher vafotidan ikki yil keyin – 1490–91-yillarda yaratilgan. Alisher Navoiy Sayyid Hasan Ardasher bilan birinchi marta hijriy 860 yil – milodiy 1455–56-yillarda Sulton Ibrohim Mirzo taxtga o‘tirgan yili uchrashib, tanishgan. Buyuk shoirning bu zotga alohida hurmat va ehtirom bilan qaraganligini yigitlik davrida unga bag‘ishlab she’riy maktub – masnaviy bitganligi, uning nomini “Majolis un-nafois”, “Nasoyim ul-muhabbat” asarlariga kiritganligi, “Xazoyin ul-maoniy”dagi tarkibband-marsiyani buyuk zot vafotiga bag‘ishlaganligi, “Soqiynoma”da uning nomini alohida eslab o‘tganligi ham ko‘rsatadi.

Asar Navoiyning nasimi quds (poklik shabadasi)ga bu dunyoni tark etgan do‘stlar qabristoniga borib, yer o‘pib, undan salom yetkazishini so‘rab qilgan iltijosi bilan boshlanadi. Ushbu murojaat ruboiy shaklida ifodalangan. Navoiy dastlab Sayyid Hasan Ardasherning otasi haqida ma’lumot berib, uning Shohrux o‘g‘li Boysung‘ur mirzo saroyida qushchilik kasbi bilan shug‘ullanganligini, keyinchalik mehnat va mahorati tufayli qushbegi lavozimigacha ko‘tarilganligini aytadi. Sayyid Hasan Ardasherning o‘zi ham otasi singari Boysung‘ur Mirzo xizmatida bo‘lib, kichik yoshdan o‘z tab’i va bilimi bilan atrofdagilar e’tiborini qozonadi. Navoiy uning sarf (morfologiya), nahv (sintaksis), lug‘at, arab tili, mantiq, kalom (e’tiqod ilmi), fiqh (islom huquqshunosligi), hadis, tafsir (Qur’on oyatlari sharhi), muammo va ta’rix ilmi, nujum ilmi (astronomiya), advor (musiqa nazariyasi) sohalarida mukammal bilimga ega bo‘lsa-da, g‘oyat kamtarlik va odob yuzasidan majlislarda sukut saqlab o‘tirishini chuqur hurmat bilan qayd etadi. Boysung‘ur Mirzo uning fe’l-sajiyasini nihoyatda qadrlagan va hatto o‘z o‘g‘illariga ibrat qilib ko‘rsatgan: “Na bo‘lg‘ay sening af’ol va xisoling ham faloniyga o‘xshasa erdi”. Sayyid Hasan saroyda harbiy amaldor lavozimida bo‘lgan, ammo bu lavozimga rag‘bat ko‘rsatmagan. Boysunqur mirzoning o‘g‘illari: Alouddavla Mirzo, Sulton Muhammad Mirzo va Abulqosim Bobur Mirzo ham o‘z hukmronliklari davrida Sayyid Hasanni xizmatlariga taklif

otadilar, ammo u rozi bo'lmaydi. Takliflar haddan oshgach, Sayyid Hasan o'zini "lavandlik va oshiqpeshalikka" urib, rindi mayxo'rlar majlisiga qatnaydigan bo'lib qoladi. Uning tabiati va pok qalbi mirzozodalarga shu qadar xush kelganki, ular ortiqcha takalluf va mulozamatlarsiz Sayyid Hasan Ardasher bilan musohib bo'lishni o'zlariga sharaf bilganlar.

Sayyid Hasan Ardasher turkigo'y shoirlardan Lutfiy va Muqimiy she'rlarini, forsigo'y ijodkorlardan Xoja Hofiz Sheroziy "Devon"ini, Sa'diy Sheroziyning "Bo'ston", Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asarlarini sevib mutolaa qilgan, hatto ulardagi aksar baytlarni yod bilgan. Shuningdek, Muhammad G'azzoliyning "Kimyoi saodat" asari va Aziziddin Nasafiy risolalari ham Sayyid Hasan Ardasherning sevimli asarlaridan bo'lgan. "Holoti Sayyid Hasan Ardasher"da keltirilishicha, Sayyid Hasan Navoiyni "faqr tariqi" – darveshlik sulukiga da'vat qilgan, she'r yozishga ilhomlantirib turgan. Shoirning aksar she'rlarini yod olib, majlislarda o'qib yurgan. Ayniqsa, Navoiyning quyidagi baytlarini takrorlab yurishni xush ko'rgan:

Furqatingdin za'faron uzra to'karmen lolalar,
Lolalar ermaski, bag'rimdin erur pargolalar...

Labing ko'rgach iligim tishlaram har dam tahayyurdin,
Ajab holatki, tutmay bolni barmoq yalaydurmen...

Navoiy bu zotni "rindlar shohi" deb atar ekan, uning saxovat, shafqat, lutfu tavoze, odob, hilm (yumshoq tabiatlilik), tahammul (sabrlilik), dunyoga befarqlik kabi boshqa hamma rindlarga ham nasib etavermaydigan ko'plab nodir fazilatlar egasi bo'lganligini ta'kidlaydi va buni bir necha voqealar misolida isbotlab beradi. Masalan, bir kuni bir majlisda qatnashuvchilardan biri:

"La'l sang astu degi sangin sang,
Lek andar miyon tafovuthost", –

degan baytni o'qiydi (Mazmuni: tosh qozon ham tosh, la'l ham tosh, lekin ular o'rtasida tafovut bor). Shunda Sayyid Hasan ushbu baytni shunday sharhlaydi: "Tosh qozon bilan la'l – ikkalasi ham tosh, ammo orada tafovut bor, ya'ni tosh qozon odamlarga naf' keltiradi, la'ldan esa xalqqa faqat zarar keladi".

Navoiyning yozishicha, bu suhbat kechayotgan paytda, "Sulton Abu Said Mirzo har kishida javohir bo'lsa olib, bo'lmasa, tafahhusida (qo'rqitishda) mubolag'alar qilib, anvoiy izo va zarar yetkazib erdi. Va bu baytni o'qug'on majlisda ham tosh qozonda osh pishur erdi".

Hukmdorlardan Sulton Husayn Boyqaro ham Sayyid Hasan Ardasherni juda chuqur hurmat qilib, uning saroyda biror mansabni egallashini xohlagan va podshohona ehtirom hamda darveshona muomala bilan uning ko'nglini olishga erishgan. Sayyid Hasan nihoyat podsho amriga ko'nib, mustashorlik, ya'ni saroy maslahatchisi lavozimini qabul qiladi. U ushbu lavozimda qoyim bo'lgan paytida xalq ham, podshoh ham uning tadbiri va ishlaridan rozi bo'lganlar: "...andoq suluk voqe' bo'ldikim, podshoh shokir va soyir xaloyiq va raoyo alarning zikri xayriga zokir bo'ldilar va podsho xilvatida anisu mahram va anjumanda rafig'u hamdam edilar". Podshoh Sayyid Hasan Ardasherni bosh vazir lavozimiga tayin qilmoqchi bo'lganda, amaldorlikni xush ko'rmagan Sayyid Hasan rozilik bermaydi va shohning ra'yini qaytarmaslik uchungina lashkarda oddiy navkar bo'lib ikki yil xizmat qiladi. Sulton tez orada Sayyid Hasan Ardasherga zulm qilayotganligini anglaydi va xizmatdan ozod qiladi. Shu kuni podshoh ham, Sayyid Hasan Ardasher ham yig'lab xayrlashadilar. Husayn Boyqaro o'z farzandlariga Sayyid Hasan Ardasherni hamisha o'rnak qilib ko'rsatgan.

Sayyid Hasan Ardasher saroy xizmatidan ketgach, Hirotning mashhur shayxi Mavlono Muhammad Tabodgoniy huzuriga boradi va unga murid tushib, o'zini toat-ibodatga, tariqat sulukini ado etishga bag'ishlaydi. Pirining rahbarligida bir necha marta chilla o'tirib, ruhiy-ma'naviy kamolot kasb etadi. Navoiy Sayyid Hasan Ardasherning holidan xabar olish uchun xonaqohga borib turgan. Shoirning yozishicha, bir borganida, Sayyid Hasan "avvalg'i arbain"da, ya'ni birinchi chilla o'tirishida bo'lgan. Shayx Tabodgoniydan ustozining ahvolini so'raganida Tabodgoniy: xalal bermang, "bu kun bir maqomdadurlarki, solik avvalgi arbainda ul maqomg'a yetsa, darde aning olliga kelurkim, agar bakoi mufrit (kuchli yig'i) yuzlansa, ishining guftoriga dalolat qilur, alarg'a bu hol yuzlanibdur va bag'oyat umidvorlig'laredur", deb javob beradi. Navoiy ustozini xilvatdan turib kuzatadi: Sayyid Hasan Ardasherning ko'zlaridan duv-duv

yosh oqar edi. Navoiy qattiq ta'sirlanadi va ko'zda yosh bilan ortga qaytadi.

"Holoti Sayyid Hasan Ardasher"da Sayyid Hasan Ardasherning pok e'tiqodi, Haqqa muhabbati, Allohning taqdiriga hamisha rozi ekanligi ta'kidlanar ekan, yana bir misol keltiriladi. Unga ko'ra, Sayyid Hasan Ardasherning Sayyid Muhammad ismli o'n to'rt yoshli yakkayu yagona o'g'li vafot etganida hamma g'amu qayg'uga tushganida, bu zot "Allohning irodasi", deya sabr bilan musibatni yengadi, hatto boshqalar, xususan, uni farzandidek ulg'aytirgan Navoiyga taskin ham beradi.

Sayyid Hasan Ardasher hajga borishni niyat qilar edi, lekin ko'p mone'liklar bo'lib bu niyatiga erisholmaydi. Shunda Samarqandga borib, Xoja Ubaydulloh Ahror suhbatidan bahramand bo'ladi. U yerda bir necha kun bo'lib, yana Hirotga qaytib keladi va hijriy 894, milodiy 1488/89 yilda yetmish uch yoshida vafot etadi. Navoiy bu paytda davlat yumushlari bilan Hirotdan tashqarida edi. Xabarni eshitib chuqur qayg'uga botadi. Qaytib kelgach, Hirot shimolidagi tog' etagida do'sti va ustozi hisoblanmish bu zotning qabri ustiga sag'ana qurdiradi. Keyinchalik Sayyid Hasan Ardasherga do'st va birodar bo'lgan boshqa insonlarining xoklari ham bu yerga keltirilib, shu yerga dafn etiladi. El orasida bu joy "Azizlar hazirasi" – "Aziz zotlar xilxonasi" deb nom oladi.

Navoiy asar yakunida Sayyid Hasan Ardasherning vafoti sanasiga bag'ishlangan ta'rix ilova qiladi, unga ko'ra bu sana (894) "Jannati pokash makon bod" ("Makoni pok jannatda bo'lsin") jumlasida namoyon bo'ladi:

Sari xayli fano Sayyid Hasan raft,
Ki joi o' bihishti jovidon bod.
Pai on pokrav justand ta'rix,
Biguftam: "Jannati pokash makon bod".

(Mazmuni: Fano olamining yetakchisi Sayyid Hasan ketdi. Uning joyi mangu jannat bo'lsin! U pokiza zot vafotiga ta'rix qidirdilar. Men "pok jannat makoni bo'lg'ay!" deb ta'rix tushirdim).

Xulosa tarzida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy Sayyid Hasan Ardasherni komil inson sifatida tasvirlaydi. Asarni o'qish jarayonida Sayyid Hasan Ardasherning ma'naviy-ruhiy

dunyosi bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ulug‘ shoir bu zotni bejiz komil inson sifatida tanlamaganligiga guvoh bo‘lamiz.

Hazrat Alisher Navoiy uchun ham do‘st, ham ota, ham ustoz maqomida bo‘lgan zotlardan biri Pahlavon Muhammad edi. Bu zotning vafotidan so‘ng ulug‘ shoir **“Holoti Pahlavon Muhammad”** asarini yozadi. Asarda Pahlavon Muhammadning ezgu amallari, barchaga birdek yoqimli fe’l-atvori, kuchli salohiyati haqida so‘z boradi.

Asar falakning bevafoligi, dunyoning o‘tkinchiligi haqidagi ruboiy bilan boshlanadi. Navoiy Pahlavon Muhammad haqida so‘z boshlar ekan, uning ta’rifida betakror so‘z o‘yinlaridan foydalanadi, “jahon” va “pahlavon” so‘zlarini turli shakl va ko‘rinishlarda qo‘llab, ajoyib tashbihlar yaratadi: “jahondag‘i pahlavonlarning pahlavoni jahoni va pahlavonlig‘ jahonining jahon pahlavoni...” Navoiy pahlavonlik unga nasab orqali o‘tganligi, tog‘asi Pahlavon Abusaid o‘z davrining benazir pahlavoni bo‘lganligi va Pahlavon Muhammad kurash tushishni shu tog‘asidan o‘rganganligi haqida ma’lumot beradi, uning jismoniy jihatdan zabardast va kuchli bo‘lish bilan birga ilm-u hunarda, fan sohasining turli tarmoqlarida kuchli bilimga ega bo‘lganligini ta’kidlaydi; musiqa, tibbiyot, she’riyat, qofiya, aruz, badiiy san’atlar, ilmi nujum (astronomiya), fiqhda o‘z zamonasining nodir kishisi ekanligini aytib o‘tadi. Ayniqsa, Pahlavon Muhammad musiqa borasida juda iqtidorli bo‘lib, bir necha g‘azallarga kuy bog‘lagan edi. Masalan, uning Ustod Muhammad Xorazmiy, Mavlono Nu’mon, Mavlono Sohib Balxiy, Shayx Safoyi Samarqandiy, Xoja Yusuf Andijoniy kabi mohir sozanda va bastakorlarning asarlari yo‘lida yaratgan kuylari tinglovchilar tomonidan iliq kutib olingan, hatto uning sozandalik mahorati yuksakroq hamda ovozi g‘oyat yoqimli bo‘lganligi uchun ulardan ko‘proq shuhrat tutgan. Ayniqsa, Pahlavon Muhammadning Mir Buzurg Termiziyga bag‘ishlangan va Mavlono To‘tiy she’ri bilan aytiladigan “Chahorgoh” kuyi butun Xurosonda, hatto Samarqand va Iroqda ham bag‘oyat mashhur bo‘lib, uni kuylamagan biror hofiz bo‘lmagan.

Pahlavon Muhammad muammo ilmi borasida ham tengsiz bo‘lib, “Kushtigir” taxallusi bilan bir qancha muammolar yaratgan. Navoiy uning Hofiz Sheroziy devonidan muammo yo‘li bilan “Ali”, “Amin” va “Taqiy” ismiga chiqargan baytlarini keltiradi.

"Holoti Pahlavon Muhammad"da Pahlavon Muhammadning Navoiyga javob tariqasida yuborgan ikki ruboiysi keltirilganki, Navoiy g'oyat kamtarlik yuzasidan o'z nomini atamay, bu ruboiylar Pahlavonning "ba'zi yoronlarig'a" yuborilgan edi, deb yozadi. Ulardan biri Navoiy Astarobodda ekanligida yozilgan:

Gar jon ajalam az tani noshod barad,
Hosho ki maro mehri tu az yod barad.
Xoham ki shavam xok, maro bod barad,
Boshad ki ba so'i Astarobod barad.

(Mazmuni: agar ajal noshod tanimdan jonni olsa ham, aslo mehringni mening yodimdan ola olmaydi. Xohlaymanki, tuproq bo'lsam u uni shamol olib ketsa, shunday bo'lsaki, uni Astarobod tomonga eltsa).

Pahlavon Muhammad g'oyat xushaxloq inson bo'lib, uni Hirotda barcha tanigan-bilgan insonlar yaxshi ko'rib, hurmat qilganlar: *"Takallufsiz va mubolag'asiz podshohdin gadog'acha va ahlullohdin yahud va tarsog'acha Pahlavonni sevmas va ilamas kishi yo'q erdi".*

Shuning uchun ham, Pahlavon Muhammad Sulton huzurida yuksak mavqega ega bo'lib, shohning har bir majlisida ishtirok etgan.

Navoiy Pahlavon Muhammad bilan bog'liq xotiralarini eslash asnosida Abu Said Mirzo davrida Mashhadda bo'lgan qiziqarli voqeani keltiradi. Mafosil (bod, revmatizm) bilan og'rigan yosh Alisher Navoiyni tabib Mavlono Abdussalom Sheroziy muolaja qilib, davolash usuli sifatida uqalashni tavsiya qiladi. Pahlavon Muhammad ham o'sha paytda Mashhadda edi. U tabiblikdan yaxshi xabardor bo'lganligi uchun Navoiyga mehribonlik ko'rsatib, bu ishni o'zi bajarishini aytadi va suhbat orasida yosh shoirdan turkiy ijodkorlarning qaysi birini ko'proq ma'qul ko'rishini so'raydi. Navoiy avvaliga barcha shoirlarni hurmat qilishini aytadi. Lekin Pahlavon Muhammad ular orasida tafovut bor, takallufni qo'yib, o'zingga eng ma'qulini ayt, deb turib olgach, Navoiy: "Lutfiy bu qavmning ustodi", deya javob beradi. Shunda Pahlavon Muhammad nega Sayyid Nasimiyni esga olmaganligini so'raydi. Alisher Navoiy Lutfiyning majoz yo'sinida she'r aytishini, Nasimiyning she'rlari esa haqiqat tariqida bitilganligini aytadi. Shunda Pahlavon Muhammad Nasimiyning she'riyati

zohiran majoz, ma'no jihatidan esa haqiqat yo'sinidadir deydi va shu kuni Navoiy tomonidan tongda yozilib, hali hech kimga ko'rsatilmagan g'azalni yoddan o'qiydi va maqta'dagi "Navoiy" taxallusi o'rniga "Nasimiy"ni qo'yadi:

Gar Navoiy siymbarlar vaslin istab ko'rsa ranj,
Yo'q ajab, nevchunki, xom etgan tama' ranjur erur.

Navoiy bu holdan hayratga tushadi. G'azal yozilgan qog'ozini tekshirib ko'radi, qog'oz o'z joyida turgan edi. Ertasi tongda Pahlavon Muhammad uch-to'rt kishini yetaklab kelib, bu g'azalni o'n ikki yil burun Abulqosim Bobur majlisida "tinglab, yod olganini" isbotlash uchun ularni guvoh qiladi. Ular ham bu g'azalni o'sha majlisda eshitganmiz, deb g'azalni yoddan aytib beradilar. Navoiyning hayrati yanada ortadi... Keyinchalik ma'lum bo'ladiki, Pahlavon Muhammad shu kuni yosh shoirning liboslarini yig'ishtirayotib, shoirning yangitdan yozilgan g'azalini olib yod oladi va yana joyiga qo'yadi. So'ng esa yuqorida ko'rib o'tilgan holatni uyushtiradi.

Navoiy va Pahlavon Muhammad qirq yil davomida do'st-u hamsuhbat bo'lganlar: "Qirq yilg'a yaqin bu faqir bila musohibi joniy, mahrami rozi pinhoniy erdi". Navoiyning yozishicha, kim agar u zotning o'ziga bo'lgan munosabatini o'z holicha mulohaza qilib ko'rsa, undan yaqinroq va muloyimroq do'sti va suhbatdoshi yo'qligiga ishonch hosil qiladi.

Asar so'ngida Navoiy Pahlavon Muhammadning vafot etganini chuqur alam va g'am bilan tasvirlaydi: Bir kuni Pahlavon Muhammadning to'satdan ahvoli og'irlashib qoladi, shogirdlaridan biri bu xabarni Navoiyga yetkazadi. Navoiy o'z huzurida bo'lgan mavlono Abdulhay va Mavlono Nuriddinni darhol uning yoniga jo'natadi, lekin fursat o'tgan, Pahlavon bandalikni bajo keltirgan edi. Pahlavon Muhammad Sulton Husayn Boyqaro uning uchun atab maxsus qurdirgan Ne'matoboddagi daxmaga dafn etiladi. Shohning o'zi katta marosim o'tkazadi. Shoir uning xotirasiga bag'ishlab yozgan ta'rixida Pahlavonning vafoti sanasi "ba'di Maxdumi ba yak sol" ("Maxdumdan bir yil keyin") ta'rix moddasi bilan aniqlanishini aytadi. Chunki Pahlavon Muhammad maxdumi nuran – Abdurahmon Jomiydan bir yil o'tib, bu foniy dunyoni tark etgan edi. Abjad hisobida bu hijriy 899, milodiy 1493 yilni bildiradi. Asar Pahlavon Muhammad

ruhiga duo tarzida yozilgan ruboiy bilan yakunlanadi.

"Munshaot" asari Alisher Navoiyning turli vaqtda turli shaxslarga yo'llagan maktublaridan iborat to'plam bo'lib, Musulmon Sharqi insho san'atining turkiy tilda yaratilgan yuksak namunalaridan hisoblanadi. Mazkur asar ustida adabiyotshunos olimlar S. G'aniyeva, Y. Tursunov va Q. Ergashevlar ilmiy izlanishlar olib borib, "Munshaot"ning xos xususiyatlariga doir tadqiqot va maqolalar yaratganlar.

Maktublar soni turli nusxalarda turlicha ko'rsatilgan. Bu holatni Alisher Navoiyning maktublari turli davrlarda yaratilganligi va keyinroq yozilgan xatlar asosida "Munshaot" tarkibi to'ldirib borilganligi bilan izohlash mumkin. Asarning nisbatan to'liqroq nusxasi Istanbuldagi To'pqopi saroyi kutubxonasida 808-raqam ostida saqlanayotgan Alisher Navoiy asarlari kulliyotining qo'lyozma nusxasi bo'lib, mazkur nusxadagi "Munshaot" tarkibida 107 maktub bor.

Musulmon Sharqida maktub insho san'atini o'zida namoyon qilib, unda maktub bituvchining badiiy salohiyati, nuktadonligi, so'zga hassosligi aks etgan. Bitiklarda maxsus axborot yetkazishdan ko'ra chuqur mazmun va yuksak badiiyatning ustuvor bo'lishiga e'tibor qaratilgan. Alisher Navoiy o'z asari muqaddimasida bu haqda to'xtalib, forsiy tilda yozilgan maktublardagi jimjimadorlik, noziklik, mazmunan teran baytlarning turkiy tildagi maktublarda uchramasligi, aksincha, turkiy tildagi xatlarning aksari badiiylikdan yiroq bo'lganligini ta'kidlab, turli she'riy parchalar bilan bezalgan go'zal maktublarni turkiy tilda ham yozish mumkinligini isbotlash maqsadida o'zi yozgan xatlarni to'plab, taqdim etayotganligini ma'lum qiladi. Shu ma'noda Navoiy "Munshaot"i tarkibiga kirgan maktublarda turli badiiy san'atlar – o'xshatish, istiora, tashbih, mubolag'a va saj' usulidan ko'plab o'rinlarda foydalanilganligi kuzatiladi. Deyarli har bir maktubda Qur'on oyatlari, hadislar, ruboiy, bayt, masnaviy, she'riy parchalar keltirilgan bo'lib, ular xat yuborilgan insonga fikrni yanada ta'sirchan tarzda yetkazishda xizmat qilgan. Maktublarda xat yo'llanayotgan shaxs nomi, manzili va sanasi ko'rsatilmagan, chunki bunga ehtiyoj bo'lmagan: maktub tayinli va ishonchli kishilar ("qosid", "homil" yoki "baranda") orqali jo'natilgan. "Munshaot"dagi maktublar turli voqea-hodisalar munosabati

bilan shoirning do‘sti Sulton Husayn Boyqaroga, shahzodalarga va boshqa shaxslarga yo‘llangan bo‘lib, ular mazmunan nasihat, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, minnatdorlik izhori, tabrik, ta’ziyanoma, shaxsiy kechinmalarni ifodalash ruhida yozilgan. O‘rta asr kishilari maktub bitishda bir-birlarining jamiyatdagi o‘rni, martabasini ham hisobga olganlar va shundan kelib chiqib, maktublar uch turga bo‘lingan: 1) *murofia* usulida bitilgan maktublar (maktub bituvchidan obro‘-e’tibori va jamiyatdagi mavqei baland bo‘lgan kishiga yo‘llangan bitiklar); 2) *murosala* yo‘sinida bitilgan maktublar (darajasi maktub muallifi bilan teng kishiga bitilgan xatlar); 3) *riqo‘* yo‘sinidagi maktublar (jamiyatdagi mavqei va nasabi jihatidan maktub bituvchidan quyi turuvchi shaxsga yuborilgan maktublar). Alisher Navoiyning “Munshaot” tarkibiga kirgan maktublari har uchala turda bitilgan bo‘lib, ularda Sharq insho san’atiga xos xususiyatlar ham, Navoiy uslubining o‘ziga xos jihatlari ham aks etgan. Asardagi murofia usulida bitilgan maktublar ikki guruhga bo‘linadi: xitobiya yo‘lida yozilgan xatlar va javobiya sifatida bitilgan maktublar. Bu ikki guruhga mansub maktublar o‘z navbatida murofianing bir nechta ko‘rinishlariga bo‘linadi. Ular orasida eng ko‘p uchraydiganlari duo – muddao – duo, madh – muddao – duo yoki har ikki ko‘rinishni o‘z ichiga olgan shakldagi maktublardir. Birinchi ko‘rinishga misol sifatida Alisher Navoiyning Husayn Boyqaroga atab uning taklifi bilan devon tuzish ishining ijrosi va yuzaga kelgan devonni o‘z odami orqali shoh huzuriga yuborilishi haqida yozilgan maktubi (15-maktub)ni keltirish mumkin. Bunda avval she’riy duo, so‘ng muddao bayoni berilib, maktub yana she’riy duo bilan yakunlanadi. Navoiy murofialariga xos xususiyat ularda o‘sha davr murojaat madaniyati, yozishmalar odobiga to‘liq rioya qilinishi bo‘lib, xatlarning deyarli barchasida maktub yo‘llanayotgan shaxsga bo‘lgan buyuk ehtirom, uni ulug‘lash va ezgu tilaklar bildirish tuyg‘ulari sezilib turadi. Sulton Husayn Boyqaroga bitilgan murofia maktublar shahzodalarga bitilgan maktublardan ajralib turadi: Husayn Boyqaroga bitilgan maktublarda sultonga cheksiz hurmat-ehtirom ruhi, uni behad ulug‘lab, ko‘klarga ko‘tarish, o‘ziga ko‘rsatilgan va ko‘rsatilayotgan inoyatlar uchun minnatdorchilik bildirish holatlari sezilsa, shahzodalarga yo‘llangan bitiklarda muallif-

ning nasihatlari, ayrim hollarda ta'na-yu tanbehlari ko'zga tashlanadi.

"Munshaot"da murosala yo'sinida bitilgan maktublar ham salmoqli o'rin egallaydi. Bunday maktublarga xos asosiy xususiyatlardan biri bitikning boshlanish qismi dabdabali emasligi, maktub bitilayotgan shaxsga nisbatan murojaat qilishning oddiy shakllari qo'llanilganligi, yakuniy qismning qisqagina duo va tilakdan iborat bo'lishidir. Ushbu maktublar Navoiyning yaqin kishilariga bitilganligi uchun ularda ko'proq shaxsiy kechinmalar, do'stlarga bo'lgan samimiy mehr, sog'inch, ishtiyoq kabi tuyg'ular ifodasi etakchilik qiladi. Masalan, "Munshaot"dagi oltmish beshinchi maktub shunday boshlanadi:

Firoq aroki, etar ko'kka shu'lai ohim,
Bu o'tg'a, oh, agar rahm qilmasa, mohim.

Murosalaga xos xususiyatlardan yana biri ularda she'riy parchalarning ko'p keltirilishidir. Masalan, asardagi 4-maktubning o'zida turli o'rinlarda oltita bayt, masnaviy va maktub so'ngida bitta ruboiy keltiriladi.

Asarda maktublarning uchinchi turi – riqo' yo'sinida bitilgan maktublar atigi ikkitani tashkil qiladi. Ularning biri nasihat, tanbeh mazmunida bo'lib, (90-maktub) Navoiyning akasi Darveshalining noibi Mavlono Qosimga qaratilgan. Bu xat "Munshaot"dagi maktub yo'llanayotgan shaxs nomi ko'rsatilgan birdan-bir bitikdir. Riqo' yo'sinida bitilgan maktublarning ikkinchisi Navoiyning asrandi farzandiga qaratilgan bo'lib, u chuqur dard-alam, o'ksinish bilan yozilgan (89-maktub). Maktub ta'na-yu dashnomlardan iborat bo'lib, unda Navoiy otalik mehri bilan o'stirgan, ta'lim-u tarbiya bergan, musiqa ilmini o'rganishida homiylik qilgan, lekin alaloqibat shoirni ranjitgan noshukur farzandga bag'ishlangan. Navoiyshunoslikda ushbu shaxsning aynan kimligi haqida bahsli fikrlar mavjud. Ba'zi olimlar bu Navoiyning akasi Shayx Bahlulbekning nabirasi *Mir Ibrohim* degan fikrni bildirsalar (A.Hayitmetov, S.G'aniyeva), ba'zilar ushbu maktub Navoiyning asrab olgan farzandi Shohquli g'ijjakchiga bitilgan, degan ma'lumotni keltiradilar (Q.Ergashev).

"Munshaot"da Navoiyning ilg'or davlat arbobi sifatidagi faoliyatini ko'rsatuvchi maktublar ham mavjud. Ulardan

biri shahzoda Badiuzzamonga bitilgan maktub bo‘lib, uni mamlakatni idora etishdagi o‘ziga xos yo‘riqnoma, ish yuritishdagi muhim qo‘llanma deyish mumkin (57-maktub). Maktubda Navoiy davlatni boshqarish usullari, hukmdor uchun farz bo‘lgan burchlar, mamlakat va fuqarolar osoyishtaligini saqlash, ularning obodonligi va farovonligini ta’min etish kabi masalalar yuzasidan fikrlar bildiradi, Badiuzzamonni shularga rioya qilishga chaqiradi. Maktubda o‘ttizdan ortiq idora usullari va qoidalari haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, ulardan ba’zilari quyidagilar: namozni imkon boricha jamoat bilan o‘qib, besh vaqt namozni tark qilmaslik; har kuni ertalab devonda o‘tirib, arz qilib kelganlarning arz-dodini tinglash va adolat bilan qaror qabul qilish; nonushtadan so‘ng maxsus qabulxonada o‘tirib, saroy xizmatchilari bilan davlat ishlari va mol-mulk masalalari haqida gaplashish; belgilangan ishlarning bitganligi haqida hisobot qabul qilish; ichkilikdan tiyilish; davlat ishlaridan xoli vaqtlarda tarixiy asarlar, xususan, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarini mutolaa qilish va b.

“Munshaot”dagi maktublarda, shuningdek, turli tarixiy shaxslar nomlari, ularning hayoti bilan bog‘liq ibratli jihatlar ham tilga olinib, Alisher Navoiy bu orqali maktub yo‘llanayotgan odamni to‘g‘ri yo‘lga chaqiradi. “Munshaot” asari musulmon Sharqi insho san’atining yuksak namunasi bo‘lish bilan birga o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy hayoti haqida xabar beruvchi muhim manba sifatida ham g‘oyat qimmatlidir.

“Mahbub ul-qulub” (“Ko‘ngillarning sevgani”) hazrat Navoiyning umri poyonida yozgan so‘nggi asari bo‘lib, 1500-yilda yaratilgan[37]. Asar muqaddima, uch qism va xotimadan iborat. Muqaddima an’anaga ko‘ra, Alloh hamdi bilan boshlanadi. Muallif Alloh taoloning Al-Azim, Al-Muhsin, Al-Qodir, Al-Vojid, Ar-Razzoq, Al–Xoliq, Al-Qahhor kabi zotiy va fe’liy sifatlariga izoh berish orqali Unga bandalik izhor etadi. Na’t mazmunidagi satrlarda esa, xotamul anbiyo vujididagi to‘rt unsurda oldingi payg‘ambarlar mo‘jizalari yashiringani madh etiladi. Islom payg‘ambari koinot sarvari va barcha payg‘ambarlardan afzal, insoniyatning eng yaxshisi deyiladi va buning vositasida islom

[37] Asar bo‘yicha A.Habibullayev, Sh.Hayitovlar tadqiqot va izlanishlar olib borganlar.

dinining o'zak mohiyatini tashkil qiluvchi g'oya – barcha dinlar o'z mohiyatiga ko'ra bitta, barcha odamlar bir ota-onaning farzandi, payg'ambarlar bir-birlariga birodardirlar, degan fikr salavotlar zamiriga singdiriladi.

Navoiy kitobning yozilish sabab va maqsadlari haqida fikr yuritarkan, qisqa jumlalar vositasida o'z o'tmishiga nazar tashlab, tanqidiy nazar bilan baho beradi. Unga ko'ra, hayotning ko'p achchiq-chuchugini totgan shoir qismatning turli sinovlariga duch keladi; falak uni gohida xorlik va bee'tiborlik bilan, gohida shuhrat va martaba bilan imtihon qiladi; ba'zida aziz zotlarning yaxshiligidan bahramand bo'ladi, gohida nokas va bezotlarning dastidan aziyat chekadi; gohi muhabbatning ko'rsatida toblansa, gohida zuhd va taqvo riyozatiga mahkum etiladi:

Gahe toptim falakda notavonlig',
Gahe ko'rdum zamondin komronlig'.
Base issig'-sovug' ko'rdim zamonda
Base achchig'-chuchuk tottim jahonda.

Hayoti davomida undan kerakli saboq olgan va insoniylik bobida ko'p tajriba orttirgan mutafakkir ushbu kitobni balog'at bo'sag'asida turgan yoshlarni to'g'ri yo'ldan adashmaslik uchun dasturulamal tariqasida yozganini qayd qiladi.

Birinchi qism "Xaloyiq ahvol va af'ol va aqvolining kayfiyati haqida" deb nomlanib, shoir undagi 40 faslda turli ijtimoiy tabaqalar haqida o'z xulosa va kuzatuvlarini bayon qiladi. Boblarga quyidagi tartibda sarlavhalar qo'yilgan: 1) Odil salotin zikrida; 2) Iolompanoh beklar zikrida; 3) Nomunosib noiblar zikrida; 4) Zolim va johil va fosiq podshohlar zikrida; 5) Vuzaro zikrida; 6) Noqobil sadrlar zikrida; 7) Fosiq va badmaosh, bahodirliq lofin urg'onlar zikrida; 8) Yasovul guruhi zikrida; 9) Yasog'liq va qaro cherik zikrida; 10) Shoh ulusi o'ziga mushobih bo'lur zikrida; 11) Shayx ul-islom zikrida; 12) Quzzot zikrida; 13) Muftiy faqihlar zikrida; 14) Mudarrislar zikrida; 15) Atibbo zikrida; 16) Nazm gulistonining xushnag'ma qushlari zikrida; 17) Kotiblar zikrida; 18) Dabiriston ahli zikrida; 19) Imomlar zikrida; 20) Muqriylar zikrida; 21) Huffoz zikrida; 22) Mutrib va mug'anniylar zikrida; 23) Qissasoz va qissaxonlar zikrida; 24) Nasihat ahli va voizlar zikrida; 25) Ahli nujum zikrida;

26) Tijorat ahli zikrida; 27) Shaharda olib sotquvchilar zikrida; 28) Bozor kosiblari zikrida; 29) Soyir hunarvar va san'atpardozlar zikrida; 30) Shahna va zindoniy va asaslar zikrida; 31) Dehqonlik zikrida; 32) Yatim va laimlar zikrida; 33) G'arib va benavolar zikrida; 34) Mubrim gadolar zikrida; 35) Qushchi va sayyod zikrida; 36) Tarbiyat topib, haromnamaklik qilg'on navkarlar zikrida; 37) Kadxudolig' sifati va xotunlar zikrida; 38) Riyoiy shayxlar zikrida; 39) Xarobot ahli zikrida; 40) Darveshlar zikrida.

Ushbu boblarni mazmun-mundarijasiga ko'ra, quyidagicha tasniflash mumkin: 1) podshoh va saroy ahlining tavsifiga bag'ishlangan boblar (1–10-boblar); 2) jamiyatning diniy hayotida muhim rol o'ynaydigan toifalar (11–13, 19–21-boblar); 3) ta'lim-tarbiya, fan va madaniyat sohalari bilan shug'ullanuvchi kishilar (16–18, 22–25-boblar); 4) shaharda tartibni saqlash, tijorat, dehqonchilik va hunarmandlik bilan shug'ullanuvchi tabaqa (26–31-boblar); 5) uylanganlar va ayollar qatlami (37-bob); 5) keraksiz va zararli narsalarni o'ziga kacb qilib olgan, aniq kasb-korga ega bo'lmagan hamda jamiyatning qashshoq toifasiga mansub kishilar (32–34, 36–37, 39–40-boblar).

"Mahbub ul-qulub"ning birinchi qismi jamiyatning siyosiy-iqtisodiy, harbiy va huquqiy hayotiga mas'ul bo'lgan toifaga tavsif berish bilan boshlanadi. Navoiyning uzoq yillar davomida hosil qilgan xulosasiga ko'ra, mamlakatning siyosiy barqarorligi, osoyishtaligi hamda rivoji, eng avvalo, odil podshoh, sadoqatli bek va vazirlar, o'z ishiga xolislik va diyonat bilan yondashadigan sadrlar, fidoyi bahodur va yasovullar, shijoatli va vatanparvar sipohiylarning dunyo hamda oxirat saodatini ko'zlab ish yuritishlariga bog'liqdir.

Navoiyning diniy arboblar, shayxlar hamda o'rta asrlarda jamiyatning huquqiy tizimini boshqaruvchi ruhoniylarga bo'lgan munosabati "Mahbub ul-qulub"da yaqqol ifoda etilgan. Ulug' mutafakkir ham diniy, ham dunyoviy bilimlardan puxta xabardor yirik davlat arbobi sifatida shayxulislomlar, qozi va faqihlar, tariqat shayxlari, qorilar va hofizi qur'onlar, voizlar haqida fikr yuritar ekan, ularni diyonatli insonlar hamda ilmini vositai joh aylagan dindorlar toifasiga ajratadi. Navoiyning ta'kidlashicha, din arboblari jamiyatning ilg'or toifasi sifatida odamlarni haq yo'lga hidoyat qilishda shaxsiy ibrat ko'rsatib,

riyokorlik, poraxo‘rlik, tamagirlik, g‘arazgo‘ylik kabi illatlardan pok, ilm, ma’rifat va go‘zal insoniy fazilatlar bilan ziynatlangan bo‘lishlari kerak. Yomon yo‘llarga boshlovchi, odamlarni gumroh etuvchi diyonatsiz dindorlar esa pok islom dini nomiga dog‘ tushiradilar.

Ilm va ijod bilan shug‘ullanuvchilarga bag‘ishlangan boblar ichida shoirlarga bag‘ishlangan 16-fasl alohida ahamiyatga ega. Bu faslda Navoiy o‘zining she’r va shoirlik bobidagi fikrlarini izchum tarzda bayon etib, shoirlarni bir necha tabaqaga ajratgan. Birinchi tabaqaga ilohiy ma’rifatni egallab, mutlaq haqiqatning ma’naviy durdonalarini nazm libosida ko‘rsatishga jazm qilgan Ali ibn Abutolib, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy kabi avliyo zotlar, orif shoirlar kiritilgan bo‘lsa, ikkinchi tabaqaga haqiqat asrorini bayon etishda majoz tariqi imkoniyatlaridan foydalangan Sa’diy Sheroziy, Avhadiy Kirmoniy, Sanoiy G‘aznaviy, Amir Xusrav Dehlaviy va Hofiz Sheroziyni mansub, deb biladi. She’rida “majoz tariqi adosi g‘olib” bo‘lgan Kamol Isfahoniy, Xoqoniy Shervoniy, Xoju Kirmoniy, Kamol Xujandiy, Anvariy Abivardiy, Zahir Foryobiy, Salmon Sovajiy, Kotibiy Nishopuriy, Shohiy Sabzavoriy kabi shoirlar Navoiy tasnifi bo‘yicha, shoirlarning uchinchi tabaqasiga taalluqli. Navoiy o‘z ustozi – Abdurahmon Jomiy ijodi haqida alohida to‘xtalib, uni ham haqiqat, ham majoz tariqini baravar egallagan, ikkinchi va uchinchi tabaqadagi shoirlar uslubini omuxta qilib, yangicha uslub va ravishga asos solgan shoir sifatida ta’riflaydi. Navoiyning o‘zi ham g‘azal tavrida ikkinchi tabaqadagi Amir Xusrav, Hofiz Sheroziy va Jomiyga izdoshlik qilgani, so‘nggi ikki tabaqada zikr etilgan barcha shoirlarga tatabbu’ qilgani hisobga olinsa, uning uslubi ham Jomiyniki kabi ham haqiqat, ham majoz tariqining unsurlaridan tarkib topganiga iqror bo‘lamiz. Shoirlarning so‘nggi tuban toifasi – she’rida ma’nodan ko‘ra da’vo ko‘proq bo‘lgan, shavq va ishq o‘tidan bebahra, ma’rifat va haqiqatdan uzoq satrlar tizmasini yasash bilan umrini havoga sovuradigan nazmbozlardan iborat; har zamonda tasodifan biror yaxshi bayt aytgani bilan bu badiiy topilmalar ularning havoyi iddaolari, xudbinlik va g‘arazgo‘yliklarining pardasi ortida ko‘rinmay qoladi.

Mudarrislar va muallimlar, tabiblar va mutriblar, kotiblar va qissaxonlar ta’rifiga bag‘ishlangan boblarda Navoiyning

ta'lim va tarbiya, jamiyatning ziyoli qatlamiga asos bo'lguvchi kasb-kor egalariga munosabati o'zining yorqin ifodasini topgan. Navoiy o'z davrida bunday kasb egalariga alohida g'amxo'rlik ko'rsatib, faoliyat yuritishlari uchun imkoni boricha qulay shart-sharoit yaratib bergan va bevosita ular bilan hamkorlik qilgan. Shu bois ularga berilgan tavsiflar ham yanada aniq, yorqin va haqqoniy chiqqan. Jumladan, kotiblar haqida ta'rif berarkan, kitobatning birlamchi sharti – matnni to'g'ri ko'chirish, deb hisoblaydi. Navoiyning fikriga ko'ra, xatosi ko'p va chiroyli yozuvdan ko'ra, badxat bo'lsa ham, to'g'ri yozilgan matn yaxshiroq.

Shunga o'xshash matlabni tabiblar zikridagi bobda ham o'qish mumkin. Navoiy aqidasiga ko'ra, tabobat ilmi bilan shug'ullanuvchi kishilar uchta qurolga – chuqur bilim va zakovat, jarrohlik tig'i bilan ishlash malakasi hamda bemorlar bilan muloqotda yumshoq muomala madaniyatiga ega bo'lishi kerak. Begunoh bemorlarning umrini erta xazon qiluvchi, fe'li yomon, besavod va uquvsiz tabibdan ko'ra, hukmdorlar amri bilan ish tutuvchi jallod yaxshiroqdir:

Hoziq tabibi xushxo'y tan ranjig'a shifodur,
Omiy-yu tund-u badxo'y el jonig'a balodur.

"Dabiriston ahli zikrida"gi bob – bolalarga boshlang'ich ta'lim beradigan, umrini yosh avlodning tarbiyasiga bag'ishlagan murabbiy va muallimlar haqida. Bolalarga qattiqqo'llik bilan yozuv-chizuv, hisob va o'qishni o'rgatish mashaqqatini tortish "odamdin kelmas, qaysi odamki, dev qila olmas." Muallimlarning bilimi ziyoli qatlamning boshqa toifasiga nisbatan kamroq bo'lishi mumkin, lekin bolalarning murg'ak qalbida ilm va ma'rifatga oshnolik va ishtiyoq o'tini yoqqanligi sababli, shogirdlar umrining oxirigacha birinchi ustozlari oldida ma'naviy qarzdorlik hissini tuyishlari lozim: *"Shogird agar shayxulislom, agar qozidur, agar andin ustod rozidur – Tangri rozidur"*.

"Mahbub ul-qulub" boshqa pandnoma asarlardan muallifning o'zi yashagan jamiyatdagi barcha kasb-hunar egalariga tavsif berilgani bilan ham farqlanadi. Navoiy salaflari pandnomalarida har bir jamiyatda uchrab turadigan tilanchi, gado, tayinli kasb-kor bilan shug'ullanmay, boshqalar hisobidan kun kechirishga

odatlangan tekinxo'rlar, befoyda mashg'ulotlar bilan aziz umrini sovuradigan kimsalar haqida alohida to'xtalinmagan. "Mahbub ul-qulub"da esa, ulardan farqli ravishda XV asr Hirotda yashab, umrguzaronlik qilgan jamiyatning barcha qatlamlari ko'zgu yanglig' aks etgan, mavjud holat haqida aniq xulosa va haqqoniy fikrlar bayon qilingan. Tarixiy manbalarga ko'ra, Sulton Husayn Boyqaro davrida bir guruh mushtumzo'r va betayin kimsalar "yatim", "lavand", "olufta" nomlari bilan shuhrat topib, odamlarning tinchini buzish, yo'lto'sarlik va zo'ravonlikdan topgan mablag'larini aysh-ishratga sarflab yurganlar. Bu toifadagi kishilarga nisbatan murosasiz bo'lgan Navoiy ularning pichoqbozlik bilan odamlarni qo'rqitib yurishlarini yirtqich hayvonlarga, birovning mehnati orqali kun kechirishlarini zararkunanda hasharotga qiyoslab, "Zararkunandalarni o'ldiring" ma'nosidagi hadis hukmiga ko'ra, tavba qilib, rost yo'lga kirmaganlardan dunyoni butkul xoli ko'rishni tilaydi:

Xaloyiqqa iyzo alarg'a sifot,
Nabiy dedikim: "Uqtulul– mu'ziyot".

Navoiyning xulosasiga ko'ra, har bir kasb-hunar, amal yo martaba, mansab yo vazifaning yaxshi-yomon bo'lishi o'sha kasbni egallagan odamning xulq-atvoriga bog'liq. Buyuk mutafakkir odamlarga ularning kasb-koriga qarab emas, balki faoliyatlari odamiylik mezoniga nechog'li mos kelish-kelmasligiga qarab baho berish kerak, degan aqidani turli misol va dalillar yordamida isbotlab bergan.

"Mahbub ul-qulub"ning ikkinchi qismi "Hamida af'ol va zamima xisol zikrida" deb nomlanib, o'n bobda Navoiy ijodining o'zak masalalardan hisoblanmish tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavozu' (xoksorlik) va odob, zikr, tavajjuh, rizo, ishq kabi tushunchalarning irfoniy-axloqiy talqini keltirilgan. Har bir bobda ruhiy tarbiyaning muhim bosqichlari bo'lmish ushbu o'nta insoniy fazilatning asl mohiyati ochilib, mashhur shayxlar va afsonaviy siymolar nomi bilan bog'liq ibratli hikoyat va rivoyatlar bilan quvvatlantiriladi. Ikkinchi qismda keltirilgan hikoyatlarning syujeti "Nasoyim ul-muhabbat", "Lison ut-tayr", "Bahoriston", "Risolai qudsiya", "Ilohiynoma" kabi asarlarda ham berilgan. Yuksak insoniy fazilatlarni targ'ib qiluvchi ushbu hikoyatlarda saj', tazod va muqobala, istiora, talmih kabi

ma'naviy hamda mushtarak san'atlarning unsurlari yordamida o'zbek tilining keng imkoniyatlari namoyish etiladi, hikoyat mantiqiy xulosani anglatuvchi bayt bilan tugallanadi. Hikoyat qahramonlari turli toifaga mansub – oldin yashab o'tgan shayxlar, Navoiyning zamondoshlari, afsonaviy siymolardan iborat. Muallif bu bilan yaxshilikni targ'ib etishning turli usul va vositalaridan foydalangan. Xususan, birinchi fasl "Tavba zikrida" deb ataladi. Ma'lumki, tavba tasavvuf maqomlaridan birinchisi bo'lib, bunda solik Haqqa yetishish yo'lida g'ov bo'ladigan jamiki narsalardan yuz o'girishga qat'iy jazm qiladi, butun intilishi, tavajjuhini Allohga qaratadi, avvalgi hayot tarzidan butunlay voz kechadi. Navoiy tavbaga ta'rif berib, shunday yozadi:

"Tavba mujrim bandaning vaqti ko'zgusin isyon zangidin oritur va niyoz musqili bilan yoritur... Bu martaba tariqat ahlining avvalg'i gomidur va maqsad vodiysining avvalgi manzilig'a homiydur...".

Ta'rifdan so'ng Navoiy tavba maqomi bilan bog'liq hikoyat keltiradi. Hikoyatga ko'ra, buyuk Shayx Abdulloh Muborak (vaf. 787–88) bir kanizak ishqiga giriftor bo'ladi. Qish kechalaridan birida tongga qadar ma'shuqa devori ostida turadi. Qor va sovuqda qoladi. Sahar namozi azonini xufton deb o'ylaydi. O'ziga kelgach, deydi: – Ey Muborakning nomuborak o'g'li, senga uyat emasmi? Agar Imom namozda uzunroq sura qiroat qilsa, toliqarding. Endi nafsing havosiga tong otquncha mundog' azob tortarsen". Shundan so'ng Abdulloh Muborak tavba qilib, sulukka beriladi.

To'rtinchi bob qanoat tushunchasi ta'rifiga bag'ishlanib, shoir qanoatga ibodat quvvati hosil bo'lgunga qadar rizq hosil qilmoq va undan ortig'ini havas qilmaslik, aniqrog'i, butkul xayoldan ko'tarmoq, deya ta'rif beradi. Qanoat tuyg'usini nafsni boshqarish va shahvatga berilmaslik, izzat va shavkat sohibi bo'lish, ko'ngil ochiqligi va ko'z yorug'ligiga erishish, pastkashlik va badbaxtlikdan qutulishning eng samarali vositasi va eng maqbul yo'li, insonning azaliy dushmani – nafsdan qutqaruvchi qo'rg'on, do'st-u dushman minnati va zahmatidan forig' etuvchi azamat bir tog', shodlik keltiruvchi talx mayga o'xshatadi. Bu fikrlarning isboti sifatida o'zining zamondoshi – Shayx Shoh Ziyoratgohiy hayotiga murojaat qiladi. Hikoyatda keltirilishicha, Shayx Shoh Ziyoratgohiy ulug' shayx va

tariqat arbobi bo‘lishiga qaramasdan, muridlarning nazr-niyozlari va podshohlarning in’om-u ehsonlaridan butkul ko‘ngil uzib, otasidan meros qolgan yerda o‘z qo‘li bilan bog‘ bunyod etadi. Natijada, poytaxtdan amirzoda va a’yonlar ham bu ko‘zi to‘q shayxning ziyoratlariga borib, tabarruk uchun bog‘idan mevalar olib keladilar. Navoiy ana shunday jonli misol orqali qanoat yo‘lini tutgan kishi huzuriga hatto podshohzodalar ham muhtoj bo‘lib kelishi, qanoat tufayli izzat va ehtirom sohibi bo‘lish mumkinligini ko‘rsatib, o‘z fikrini quyidagi qit’a bilan yakunlaydi:

Jahon ichra ko‘p sun’ ko‘rguzdi Sone’,
Emasdur kishi turfa andoqki, qone’.
Kishidin talabsiz g‘ino hosil etmak,
Yana judg‘a bo‘lmamoqhech mone’.

Gunohlarga sabab bo‘luvchi yomon xislatlar garchi boblar sarlavhasida ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, muayyan yaxshi xulq-atvorga ta’rif berishda uning ziddi hisoblangan yomon xislatlarga ham ta’rif berilgan. Jumladan, tavozu’ (xoksorlik) va adab zikriga ajratilgan bobda tavozeli bo‘lishni go‘zal axloqning ilk nishonasi, samimiy munosabatlarning ibtidosi va asosi sifatida talqin qilib, ushbu xislat, eng avvalo, o‘ziga to‘q va amaldor kishilarda bo‘lishi lozimligini ta’kidlanadi. Xoksorlik va adab ko‘ngil ko‘zgusining ikki tarafidan jilo berib, musaffo va yorug‘ etadi.

“Mahbub ul-qulub”ning uchinchi qismi “Mutafarriqa favoyid va amsol surati” (“Turli foydali o‘gitlar va masallar”) deb nomlanib, 127 *tanbeh*dan iborat. Kichik kirish so‘zida Navoiy baxt-saodatning asosi – ma’rifatda, eng katta baxtsizlik – ma’rifatsizlik va jaholat ekanligini ta’kidlab, keyingi tanbehlarda hayotiy haqiqatlar, tajriba va xulosalarini ixcham tarzda, asosan, aforizm shaklida bayon etishga kirishgan.

“Mahbub ul-qulub”ning ushbu qismi inson tabiatidagi bosh illatlardan biri – takabburlik va manmanlik mohiyatini ochib beruvchi tanbeh bilan boshlanadi. Birinchi tanbehda berilgan xulosaga ko‘ra, har bir insonda yuz berishi mumkin bo‘ladigan holat – o‘ziga faqat yaxshi narsalarni ravo ko‘rib, boshqalarning g‘am-tashvishi va mashaqqatlariga nisbatan beparvo bo‘lish haqida so‘z yuritilib, bu narsa insonning doimiy dush-

mani – nafsning xohish va istaklaridan paydo bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilgan. Nafsning istaklariga bo‘ysunish o‘ziga bino qo‘yish, o‘z so‘ziga oshiq bo‘lish hamda zohirparastlikka olib kelishi mumkinligini keyingi tanbehda o‘z she’rini Sa’diy Sheroziy va Amir Xusrav she’ridan ustun qo‘yadigan iste’dodsiz shoirlar, o‘zini Ja’far va Azhar kabi mashhur xattotlar qatorida sanaydigan badxat va xat-savodsiz kotiblar, Moniy va Abdulhay kabi ulug‘ musavvirlarning ijodini ham pisand etmaydigan uquvsiz rassomlar, o‘zining donoligini ko‘z-ko‘z qilish maqsadida erta-yu kech madrasada munozara bilan mashg‘ul nodon va mutaassib mutakallimlar misolida ko‘rsatib o‘tadi.

Beshinchi raqam ostida kelgan tanbehda takabburlik va o‘ziga bino qo‘yishlik illatiga mubtalo bo‘lganlarni Navoiy uch toifaga ajratadi. Birinchi guruhga yuqorida zikr etilganlar, ya’ni boshqalar uni inkor etsa ham, o‘jarlik bilan o‘z xatosini tuzatishga kirishmagan toifa kiradi. Ikkinchi toifaga esa, o‘zining xato fikrlari va noma’qul ishlarini boshqalarga ma’qullatishga kirishganlar hamda o‘zidan boshqa hech kimni nazar-pisand qilmay, to‘g‘ri yo‘lga kirishni maslahat berganlarni ham ranjitadiganlar mansub. Navoiy bunday kishilarni hayoti davomida ko‘p uchratganini, ularga qancha yaxshilik qilsa, evaziga faqat jafo va muruvvatsizlik ko‘rganini nadomat bilan qayd qilib, ko‘pchilikda uchraydigan bu illatning o‘zagini o‘ziga bino qo‘yishlik, shayton yo‘liga boshlovchi nafs amriga mute bo‘lishda deb hisoblaydi.

Uchinchi toifa takabburlikda haddan oshganlardan iborat bo‘lib, Navoiy ularni yana uch guruhga ajratadi: 1) boshidg podshoh bo‘lish xayoli tushib, bu yo‘lda nomunosib ishlar qilish va Xudo tomonidan yuborilgan Sultonga nisbatan isyon ko‘targanlar; 2) fosid xayollarga berilib, o‘zini payg‘ambar deb da’vo qilgan gumrohlar va ilohiy g‘azabga duchor bo‘lganlar: *“Va har xoini kozibki, bu da’vo qila kirishti, anbiyo arvohidin anga jazo va rasvoliqlar etishti”*. 3) Alloh bergan ne’matlarga kufr keltirib, Fir’avn va Namrud kabi xudolik da’vosini qilganlar. Sakkizinchi tanbehda oldingi fikrlarning xulosasi sifatida Navoiy quyidagi hikmatni keltiradi: *“Takabbur Shayton ishi va biyiklik nodon ishi... Butparastliq yaxshiroqkim, xudparastliq”*.

Insonning yaxshi-yomon qilmishlari haqida mulohaza yuri-

tarkan, fosiqlik va zohidlik, yaxshilik va yomonlik, gunoh va savob – barchasi Ilohiy iroda va ixtiyor tufayli sodir bo‘lishi, to‘g‘ri yo‘lga kirganlar – shukronalikni bajo keltirishlari, xato qilgan holatlarda esa, tavba qilishlari lozimligi ta’kidlanadi: *“Zuhdu fisq elga taqdiri Yazdondindur, ammo ikkalasini birdek ko‘rmak nodondindur. Taqvoga shukr kerak va isyong‘a uzr”.*

Ayrim tanbehlar (11-18, 58, 105, 106, 108)ga sarlavha qo‘yilgan, aksariyati sarlavhasiz keltirilgan. Sarlavha qo‘yilgan tanbehlarda muruvvat, vafo, hayo, halimlik kabi go‘zal insoniy xislatlarning mohiyati ochib beriladi. Ayrim tanbehlarda Navoiy forsiy tilda bitilgan didaktik adabiyotning eng go‘zal namunalarini turkiy tilda jaranglatish barobarida ularning yangi ma’no-mohiyatlar bilan boyitadi, nasihatning achchiq, ammo foydali tilidan yanada samaraliroq foydalanadi. Masalan, Sa’diy Sheroziyning “Badxo‘y ba dasti dushmane giriftor ast, ki har jo ravad, az on rahoyi nayobad” (“Fe’li yomon kishi qayonga borsa, zulmidan qutulmoq imkonsiz bo‘lgan bir dushmanga giriftordir”) hikmati asosida musajja’ nasrda yangi talqinni yaratgan: *“Yamon qilig‘liq badxo‘y va bot achig‘liq turshro‘y bir balog‘a giriftordur va bir ibtilog‘a mubtalokim, har yon borsa andin qutulmas va har sori borsa, andin xalos bo‘lmas”.*

“Mahbub ul-qulub”da ham nazm, ham nasrda teng qo‘llaniladigan badiiy san’atlar (tashbih, tavsif, istiora, tamsil, iqtibos, saj’, tazod va h.k.)dan tashqari faqat nasriy asarlarga xos bo‘lgan ma’naviy va lafziy san’atlardan ham keng foydalanilgan. Jumladan, nazmni nasrga aylantirish san’ati – hallning go‘zal namunalarini “Mahbub ul-qulub”da ko‘p uchratish mumkin. Masalan:

Xiradmand chin so‘zdin o‘zga demas,
Vale bori chin ham deguluk emas.

– baytini 68-tanbehda hall san’ati vositasida quyidagicha nasrlashtirgan: *“Xiradmand uldurkim, yolg‘on demas, ammo barcha chin deguluk ham emas”.*

“Mahbub ul-qulub” turkiy adabiyotda yaratilgan didaktik asarlarning ilk namunalaridan bo‘lishi bilan birga, Navoiyning hayoti oxirida yaratilgani hamda uning dunyoqarashini yaxlit tarzda ifodalaydigan yirik axloqiy-falsafiy qomus sifatida

bugungi kunga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. “Mahbub ul-qulub”dagi hikmatlarning aksariyati xalq maqollariga aylanib, keyingi avlodlarning tarbiyasi uchun muhim dasturulamal bo‘lib kelmoqda.

Navoiyga nisbat beriluvchi asarlar. Alisher Navoiyga nisbat beriluvchi asarlardan biri **“Sab’at abhur”** (“Yetti dengiz”) deb atalib, arab tili lug‘atshunosligiga bag‘ishlangan. Asarning muallifi masalasi adabiyotshunoslikdagi bahsli masalalardan biri bo‘lib, mazkur mavzuda tadqiqot olib borgan olim B.Hasanov fikriga ko‘ra, Navoiy qalamiga mansub. B.Hasanov o‘z fikrini dalillashda asarning kirish va xotima qismida kotib Ahmad ibn Ali Damashqiy Maniniy keltirgan quyidagi fikrlarni asos qilib oladi: *“Bu vaqt va zamon yagonasi Xuroson ufqida porlagan quyosh Mir Alisher Navoiy tartibi, ta’lifi, yaxshilanishi va tasnifi ustida zahmat chekkan “Sab’at abhur” musavvadasidan topilgan narsalarning so‘nggidir”.*

Asarning “Sab’at abhur” – “yetti dengiz” deb atalishiga sabab arab lug‘atshunosligiga mansub yetti kitobning mazkur asar uchun manba bo‘lganligidir. Ular quyidagilardir:

Javhariyning “Sahoh” izohli lug‘ati;

Sog‘oniyning “Takmila” lug‘ati;

Zamaxshariyning “Kashshof” (Qur’on tafsiriga oid) asari;

4-5) Ibn Hojibning grammatikaga oid “Mufassal” (ikkita muqaddim va sharhlari);

6)“G‘aroyibu-l-hadis” – hadis so‘zlariga tuzilgan lug‘atlar.

7) turli mualliflar, devon, risola va boshqa asarlarning sharhlari. Ular shartli ravishda “Zavoyid” nomi bilan atalgan.

“Sab’at abhur”ning tarkibiy tuzilishi asosiga o‘zak tizimi (fleksiya) qo‘yilgan. Arab tilidagi so‘zlar (misol uchun kataba – maktub – kotib – kitob – maktab)da o‘zak chiqarish qoidasiga asosan so‘z tarkibidagi qo‘shimcha unlilar tushirib qoldirilgandan keyin qoladigan ma’no tashuvchi harflar ma’lum bir ma’noli o‘zakni tashkil qiladi (yuqoridagi misolda keltirilgan ktb – kataba). O‘zaklar oxirgi harfiga ko‘ra alifbo tartibida 28 bobga ajratilgan. “Sab’at abhur” o‘z ichiga 8609 lug‘at maqolani kiritgan bo‘lib, undagi leksikaning asosiy qismini uch harfli o‘zaklar tashkil qiladi (6451 lug‘at maqola). Miqdor jihatdan ikkinchi o‘rinni to‘rt harfli o‘zaklar egallaydi (2056 ta). Uchinchi o‘rinda besh harfli o‘zaklar turadi (94 lug‘at maqola). Arab

tiliga chetdan kirgan kam iste'moldagi so'zlar olti (1 lug'at maqola) va yetti harfli (2 lug'at maqola) so'zlardir.

Mazkur asar arab lug'atshunosligi rivojlanishi susaygan davrda vujudga kelganligi bilan alohida ahamiyat kasb etib, arab leksikografiyasi tarixida Javhariyning "Sahoh" va Firuzobodiyning "Qomus" lug'atlari bilan bir qatorda turadi.

Alisher Navoiyga nisbat beriluvchi yana bir asar "Risolai tiyr andoxtan" tirandozlik, ya'ni kamondan o'q otish fazilatiga bag'ishlangan. Asarning muallifi masalasi adabiyotshunoslikdagi bahsli masalalardan bo'lib, mazkur asar ustida izlanish olib borgan Y.Bertels, A.Semyonov, S.G'aniyevalarning fikriga ko'ra, "Risolai tiyr andoxtan" Alisher Navoiy qalamiga mansub. Risola hajman kichik bo'lib, unda kamondan o'q uzishning savobli amal ekanini asoslashga e'tibor qaratilgan. Asardagi har bir fikr diniy dalillar – hadis va rivoyatlar asosida izohlangani bilan alohida xarakterlanadi. Unda keltirilgan bir rivoyatga ko'ra, Odam Ato(a.s.) shayton hiylasi bilan jannatdan yerga tushirilgach, Allohning amri bilan dehqonchilik qiladi – bug'doy ekadi. Ammo qarg'alar ekilgan bug'doyni kavlab yeb qo'ya boshlagach, Xudoga munojot qiladi. Shunda Xudo kamon va o'q yuboradi. Yoydan o'q otishni farishta Jabroil (a.s.) Odam (a.s.)ga o'rgatadi. Odam Ato (a.s.) qarg'alarga otgan birinchi o'qi tegmaydi, farishta Jabroil (a.s.) tabassum qiladi, ikkinchi bor otilgan o'q nishonga tegadi, shunda Jabroil (a.s.) o'z tabassumini qo'yidagicha izohlaydi: "Agar ilk o'qing nishonga tekkanida, qiyomatgacha hech narsa bolalaring qo'lidan qutulmas edi".

"Risolai tiyr andoxtan" bayon tilining sodda va tushunarli, badiiy bo'yoqdorlikdan xoli ekanligi bilan alohida xarakterlanadi. Asar bo'yicha Y.Bertels, A.Semyonov, G'.G'ulom, H.Sulaymonov, S.G'aniyeva kabi olim va shoirlarning maqolalari mavjud.



Tayanch tushunchalar

dinning nizomi
shariat
tasavvuf ilmi
din nazariyotchisi
hadislar talqini
sahih hadis

falsafiy o‘git
fiqhiy va aqidaviy masalalar
shariat hukmlari
Allohning sifatlari
islom dini farzlari
avliyo
riyozat
luqma halolligi
mutasavvuf olim
tarixshunoslik
anbiyo
hukamo
mursalin
vahiy
Qur’on qissalari
Ajam
tarixiy manbalar
muarrix
sulolalar
holot
yodnoma asarlar
jomiyshunoslik
sarf
nahv
ta’rix ilmi
rindlar shohi
azizlar xazirasi
insho san’ati
tabaqalar
Haqqa yetishish
tanbeh



Savol va topshiriqlar

1. Alisher Navoiyning sahih hadislarni to‘plab, tarjima qilishi sabablari haqida nima deya olasiz?
2. “Arba’in”da to‘plangan hadislar mazmun-mohiyatan qanday xarakterga ega?
3. “Vaqfiya” asari Alisher Navoiyning boshqa asarlaridan o‘zining qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
4. “Vaqfiya”da Alisher Navoiy asosiy e’tiborni qaysi jihatga qaratgan?

5. “Nazm ul-javohir” asarining yaratilish tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlarni keltiring.

6. “Nazm ul-javohir”dagi fikrlarning aynan musarra’ ruboiy shaklida keltirilganligi boisi nimada deb o‘ylaysiz?

7. Alisher Navoiyning “Siroj ul-muslimin” asarining xos xususiyatlari qaysi o‘rinlarda namoyon bo‘ladi?

8. Alisher Navoiy “Munojot”i uning “Xamsa” dostonlarining muqaddima qismida keltirgan munojotlaridan mazmunan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

9. “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasining “Nafohat ul-uns”dan farqlanuvchi xususiyatlariga to‘xtaling.

10. “Nasoyim ul-muhabbat” asarining ilmiy jihatdan ahamiyati qaysi o‘rinlarda namoyon bo‘ladi?

Adabiyotlar:

Matn va manbalar:

1. Алишер Навоий. Вақфия. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1998. 14-жилд. – Б. 231-270.

2. Алишер Навоий. Арбаъин. Сирож ул-муслимин.Муножот. Рисолаи тийр андохтан. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 2000. 16-жилд. – Б.261-308.

3. Алишер Навоий. Вақфийя / Нашрга тайёрл. И.Шамсимуҳамедов. – Т.: Фан, 1991.

4. Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. Насойим ул-муҳаббат. Арбаъин. Сирож ул-муслимин. Муножот. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.10.

5. Муножот / Нашрга тайёрл. ва луғатлар муаллифи: Суйима Ғани қизи. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991.

6. Арбаъийн / Нашрга тайёрл. Каримбек ва Саидбек Ҳасан; Шарҳловчи А.Рустам. – Т.: Мерос, 1991.

7. Арбаъин: Қирқ ҳадис шарҳи / Сўз боши муаллифлари ва шарҳловчи: Қ.Аҳад, О.Маҳмуд. – Т. : Адабиёт ва санъат, 1995.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

8. Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Movarounnahr – O’zbekiston NMIU, 2009.

9. Қаюмов А. Дилкушо такрорлар ва руҳафзо ашъорлар. – Т.: MUMTOZ SO’Z, 2011.

10. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.

11. Рамазонов Н. “Насойим”нинг ўзига хос хусусиятларига доир / Навоийнинг ижод олами (мақолалар тўплами). – Т.: Фан, 2001.

12. Ражабова М. “Назм ул-жавоҳир” тарихига оид муҳим манба / Алишер Навоий ижодий ва маънавий меросининг оламшумул аҳамияти (халқаро илмий-назарий анжуман материаллари). – Т.: Ўзбекистон, 2011.

13. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. 2-жилд (XV асрнинг иккинчи ярми). – Т.: Фан, 1977.

14. Шамсимухамедов И.У. “Вакфийе” Алишера Навои как литературный памятник: Дисс. на соискание канд филол. Наук. – Т., 1991.

15. Исламов Х. И. “Насойимул мухаббат” Алишера Навои и его научно-критический текст: Дисс. на соискание канд филол. наук. – Т., 1990.

16. Ҳасанхон Яҳё Абдулмажид, Ҳусайнхон Яҳё Абдулмажид. Навоийдин чу топқайлар навое. – Т.: Hilol-nashr, 2014.

II QISM
NAVOIY POETIKASI

NAVOIY POETIKASI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Reja:

1. Mumtoz poetika haqida umumiy ma'lumot. Ilmi balog'a.
2. Adabiy ilmlar haqida umumiy ma'lumot.
3. Ilmlar uchligi – mumtoz she'rni o'lchash vositasi.
4. Musulmon Sharqida mumtoz poetikaga doir asarlar.
5. Navoiy davrida adabiy turlar. Nazm va nasrga munosabat.
6. Nazmga xos adabiy janrlar.
7. Navoiyning mumtoz poetika bilan bog'liq qarashlari.
8. Navoiy poetikasi o'zbek mumtoz poetikasining tarkibiy qismi sifatida. Kursning maqsad va vazifalari.

"Poetika" so'zi yunoncha so'z bo'lib, "ijod qilish san'ati" ma'nosini bildiradi. Poetika ijodning qanday qilib san'atga aylanishi haqidagi fandir.

Bugungi kunda "poetika" atamasi ikki xil ma'noda ishlatiladi:

1) umumiy – keng ma'noda adabiyot nazariyasini bildiradi;

2) xususiy – tor ma'noda adabiyot nazariyasining tarkibiy qismi bo'lib, adabiy asar haqidagi ta'limotdir.

Zamonaviy tasnifga ko‘ra, poetika fani quyidagi yirik sohalarni o‘z ichiga oladi:

1) umumiy poetika (yoki nazariy poetika – makropoetika) – fonika, ritmika, metrika, strofika (band), stilistika, syujet va obrazlar tizimi;

2) xususiy poetika (yoki mikropoetika) – ma’lum bir ijodkorning asarlarini (yoki bir asarini) badiiy jihatdan tadqiq qilish;

3) tarixiy poetika – alohida olingan poetik usullar va ularning tizimini qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslik vositasida o‘rganish. Eng asosiy muammosi janrlar bilan bog‘liq bo‘lib, ildizlari xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi.

Shuningdek, ushbu istiloh zamonaviy adabiyotshunoslikda ma’no ko‘lami va qamrov jihatdan yanada kengroq tarmoqlarni o‘zida birlashtirib qo‘llanila boshlandi[38].

Demak, poetika fani muayyan adabiy asarning badiiy ta’sirchanlik qudratini tadqiq qiladi. Poeziya san’at bo‘lsa, poetika shu san’atni ilmiy tahlil qiluvchi fandir.

Aslida “Poetika” istilohi ilmiy muomalaga dastavval Arastu tomonidan kiritilgan bo‘lib, uning shu nomli asarida bu istiloh quyidagi ma’nolarda qo‘llanilgan:

– badiiy borliq hosil qiluvchi, badiiy makon va zamonda mavjud bo‘lib, dunyo va shaxs haqidagi muayyan konsepsiyalar tashuvchi vositalar yig‘indisidir;

– adabiyotshunoslik va ritorikaga yaqin bo‘lgan, badiiy borliqni hosil qiluvchi vositalar va uning strukturasini o‘rganuvchi ilmiy predmetdir (Y.Borev).

Y.B.Borevning ta’rifiga ko‘ra, tarixiy poetika mumtoz adabiyotning nazariy tarixi hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, mumtoz poetikani nazariy va tarixiy poetikaning muayyan tarzdagi umumlashmasi, deb qarash mumkin. Ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan musulmon Sharqi adabiyotida poetika masalasi har doim she’riyat ahlining diqqat markazida turgan. Muayyan ijodkorning badiiy salohiyati va iste’dodi haqida

[38] Poetikaning muayyan tarmog‘i ma’lum bir olim tomonidan nisbatan chuqurroq tadqiq qilinganligi uchun adabiyotshunoslikda shu olim nomi bilan bog‘liq holda talqin qilinadi: Tarixiy poetika (A.N.Veselovskiy), nazariy poetika (A.A.Potebnya), struktural poetika (R.Bart, Y.Lotman) va boshqalar. Shuningdek, ayrim ulug‘ ijodkorlarga nisbatan Navoiy poetikasi (Y.Is’hoqov), Pushkin poetikasi (S.G.Bocharov), Dostoyevskiy poetikasi (M.Baxtin) tarzida qo‘llanish ham qabul qilingan.

so'z borganda, uning tasvir obyekti sifatida nimalarni olgani emas, balki o'sha obyekt yoki predmetni qanday tasvirlagani muhim hisoblangan. Shu ma'noda u yoki bu ijodkor ijodiga yoxud muayyan badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalamoqchi bo'lgan g'oya qanday badiiy timsollar, vazn yoki qofiya vositasida bayon qilinganligi bilan birga she'riy asarda qo'llanilgan badiiy san'atlarning rang-barangligi, ularning asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qaratilgan.

Sharq musulmon mumtoz poetikasi dastavval ilmi balog'a (balog'at ilmi) doirasida vujudga kelgan. "Balog'at"ning lug'aviy ma'nosi "bulug' va vusul", ya'ni "erishish va yetishish" bo'lib, istilоh sifatida Qur'oni karim va hadisi sharif tili bo'lmish arab tilining sir-asrorlarini ochuvchi, uning nozik va nafis jihatlarini ko'rsatuvchi, balog'ati va fasohatini anglashni o'rgatuvchi ilm "balog'at ilmi" deyiladi. U ilmi maoniy, ilmi bayon, ilmi badi'lardan iborat[39]. Balog'at ilmi haqida hijriy ikkinchi asrdan boshlab kitoblar yozila boshlagan. Ushbu uch ilm bo'yicha Abu

[39] Aslida ilmi balog'a dastlab ilmi bayon shaklida paydo bo'lgan. Islom olamining mashhur olimlaridan bo'lgan Fazl ibn Rabiy'ning majlisida yig'ilganlar Qur'oni karimdagi "Zaqqum" to'g'risidagi oyatni tushunmaganliklari, undagi zaqqum daraxtining mevasi va shaytonning boshi haqidagi jumlalarni sharhlashni so'raganlarida, ularga Abu Ubayda javob beradi. U xalq orasida mashhur bo'lgan yalmog'iz kampirning o'tkir va uchli tishlari haqidagi baytlarni o'qib, "Ushbu bayt ma'nosini qanday tushunsangiz, oyatning ma'nosi ham shunday bo'ladi. Chunki oyatdagi o'xshatilmish ham, o'xshatiladigan ham noma'lum bo'lgan narsalar. Arablar surati xunuk barcha narsalarni shaytonga o'xshatishni odat qilganliklari uchun oyatda ham shunday o'xshatish kelgan" degan mazmundagi fikrni aytadi. Shundan so'ng Qur'oni karimdagi bu tariqa nozik o'rinlar haqida kitob yozishga ehtiyoj tug'iladi va Abu Ubayda Ma'mar ibn al-Musanniy al-Basriy tomonidan "Majoz ul-Qur'on" asari (hijriy ikkinchi asr) vujudga keladi. Bunda tashbih, istiora va kinoya *ilmi bayon*ning asosiy badiiy vositalari sifatida xizmat qilgan.

Ilmi ma'oniy sintaktik stilistikada grammatik va sintaktik jihatdan to'g'ri tuzilgan gapning sharoit taqozosiga mos bo'lish usullarini o'rganadi. Bu ilm mantiq va obrazlar haqidagi ilm bo'lib, u haqda dastlab asar yozgan olim Amr ibn Bahr al-Johizdir. Uning "Al-bayon vat tabyin" va "I'joz ul-Qur'on" asarlarida ilmi ma'oniy haqida fikr yuritiladi. Keyinchalik bu ilmlar qatoriga ilmi badi' haqidagi ilm ham qo'shilib, unda badiiy nutq vositalari (badiiy san'atlar) tadqiq qilingan va ilmi bayon uchun asos vazifasini o'tagan tashbih, istiora va kinoya san'atlaridan boshqa barcha san'atlar ushbu ilmning o'rganish obyektini tashkil qilgan. Bu ilm haqida ilk asar yozgan muallif sifatida Abdulloh ibn Mu'tazz nomi keltiriladi.

Ubayda Ma'mar, Ja'far ibn Yahyo, Sahl ibn Xorun, Abdulloh ibn Mu'tazz va boshqalar ilk kitob yozgan allomalardir.

Ilmi balog'a dastavval Qur'oni karim oyatlarini sharhlashga ehtiyoj tufayli paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik badiiy asarlarni ham shu ilm asosida tadqiq qilish boshlanadi. Mahmud Zamaxshariy o'zining "Al-kashshof" asariga yozgan muqaddimasida balog'at ilmining ahamiyati haqida shunday yozadi: "... faqih fatvo ilmida eng mashhuri bo'lsa ham, mutakallim butun dunyoni o'zining so'z san'ati bilan lol qoldirsa ham, hofiz Ibn Qirriyadan ham zehnliroq bo'lsa-da, nahvchi Sibavayhidan ham bilimdon bo'lsa, lug'atshunos har bir so'zni mohirona sharhlasa-da, ularning barchasi maoniy va bayon ilmlarini bilmay, Qur'on ma'nolarini tushunishga, haqiqatni bilishga ojiz bo'ladilar".

XI asrdan boshlab poetika masalalari ilmi adab (adabiy ilmlar) doirasida ish olib borgan. Mahmud Zamaxshariy o'zining "Aruzi Qistos" asarida adabiy ilmlarning bir necha turini keltirib o'tadi. "G'iyos ul-lug'ot" muallifi Muhammad G'iyosuddin ularning sonini 12 ta deb ko'rsatadi: 1) sarf (morfologiya) ilmi; 2) ishtiqoq ilmi – so'zlar yasalishi qonun-qoidalarini o'rgatuvchi fan; 3) lug'at ilmi (leksikologiya); 4) bayon ilmi; 5) maoniy ilmi; 6) badi' ilmi; 7) nahv ilmi (sintaksis); 8) qofiya ilmi; 9) aruz ilmi; 10) tanqidchilik ilmi; 11) insho ilmi; 12) kitobat ilmi.

Adabiy bilimga ega bo'lish kishidan bir necha xislatni kamolga yetkazishni talab qiladi: zakovat, taxayyul, hofiza, tuyg'u va zavq. Ikkinchidan, balog'at ahlining asarlarini puxta o'rganib, savod chiqarish ham adabiy ilmlarga ega bo'lishning muhim omilidir. Uchinchidan, nazm va nasrning o'ziga xos qonuniyatlari, ijod sirlaridan xabardor bo'lish talab etiladi. To'rtinchidan, tarixdagi ijodkorlarning uslubi bilan ham yaxshi tanishmoq kerak. O'tmishda adabiy ilmlarni to'liq o'zlashtirgan kishi adib, deb atalgan. Ularning bu fazli ba'zida taxallus sifatida ham qo'llanilgan. Masalan, Adib Ahmad Yugnakiy, Nizomiy Aruziy Samarqandiy, Abdujamil Kotib va h.k. Adib bilan olim o'rtasida farq bor: adib har bir narsadan eng yaxshisi va maqbulini tanlab oladi, olim esa maqsadga erishish yo'lida barcha narsalarni izchil o'zlashtirmog'i shart. Adabiy ilmlar o'rta asrlarda filologiyaga asos bo'lgan, nasr va nazmning nazariyasi hamda amaliyoti, til o'rganishning qonun-qoidalari, ifoda tarzi, badiiy san'atlar, aruz va qofiya kabi masalalarni o'z ichiga qamrab olgan.

Aristuning "Poetika" asariga Forobiy tomonidan sharh yozilgach, uning izdoshi Ibn Sino o'zining musiqa va she'riyatga doir asarlarida she'rga "mavzuni muxayyali muqaffo" deb ta'rif berdi va shu tariqa mumtoz poetikaning asosan she'riyat masalalari bilan ish ko'ruvchi tarmog'i – "ilmlar uchligi" (ilmhoi segvna) vujudga keldi. Bu ilm uchta mustaqil sohani o'z ichiga oldi. Bular quyidagilardir:

1) ilmi aruz – she'rdagi vaznlar va ularning qonun-qoidalari haqida baha yurituvchi soha;

2) ilmi qofiya – qofiya qonuniyatlari va turlari haqida ma'lumot beruvchi soha;

3) ilmi badi' – nutqqa bezak beruvchi san'atlar, ularning o'ziga xos jihatlari, fikrni go'zal va mazmunli ifodalash usullarini o'rganuvchi soha.

Mumtoz poetikaga doir asarlar dastavval ilmi badi' doirasida paydo bo'lgan. Bizgacha yetib kelgan va arab tilida yaratilgan ilmi badi'ga doir asarlar sifatida Nasr binni Hasanning *"Mahosin ul-kalom"* (IX asr), Ibn Mu'tazzning *"Kitob ul-badi'"* (IX–X asrlar), Qudama ibn Ja'farning *"Naqd ush-she'r"* (X asr) asarlarini keltirish mumkin.

Arab olimlari yaratgan ushbu asarlar Markaziy Osiyo va Xurosonda yashab faoliyat yuritgan ko'plab olimlar uchun dasturulamal bo'lib xizmat qildi va ular ham bu sohada ko'plab risolalar yaratdilar. Mumtoz poetikaga doir dastlabki forsiy asar XI asrda yuzaga kelgan. Bu Muhammad binni Umar Roduyoniy qalamiga mansub bo'lib, "Tarjumon ul-balog'a" deb ataladi. Roduyoniy o'z kitobini arab olimi Nasr binni Hasanning "Mahosin ul-kalom" (33 badiiy san'at) nomli asariga suyangan holda yaratgan va unda 77 ta san'atni keltirgan. XI–XII asrlarda Ahmad binni Muhammad Manshuriy Samarqandiy *talavvun* san'ati haqida risola ("Kanz ul-g'aroyib"), Abumuhammad binni Muhammad Rashidiy Samarqandiy "Ziynatnoma", Rashididdin Vatvot (vaf. 1182-1183) "Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she'r" nomli asarlar yaratganlar.

Tarixiy poetikaning yuqoridagi uch tarmog'ini o'zida mujassamlashtirgan yirik tadqiqot XIII asrning atoqli olimi Shamsiddin Muhammad binni Roziyning "Al-Mo'jam fi ma'oyir-ul-ash'or-ul-Ajam" nomli mashhur asaridir. Asarni o'sha paytgacha poetika masalalari bo'yicha qilingan barcha ishlarning

eng mukammali, deb aytish mumkin. Chunki muallif bu asarida mumtoz poetikaning har uchala bo'limi – aruz, qofiya va ilmi badi' haqida mukammal ma'lumot beradi, she'r va shoirlik, badiiy asarda shakl va mazmunning munosabati, tanqidning adabiy jarayondagi roli va vazifalari haqida mulohazalar yuritadi.

Mashhur shoir Xusrav Dehlaviy ham nasr qoidalari haqida ikki jilddan iborat kitob yozib, unda yuzlab badiiy san'atlar haqida so'z yuritgan. Vohid Tabriziyning "Jam'i muxtasar" (XVI asr) asarida esa aruz, qofiya bilan bir qatorda o'nlab she'riy san'atlar ham keltirilgan.

Nizomiddin Ahmad ibni Muhammad Solih Siddiqiy Husayniyning "Majma' us-sanoyi'" asari ham butunlay ilmi badi'ga bag'ishlangan bo'lib, 80 ta she'riy san'atni o'z ichiga oladi. Qabulmuhammad qalamiga mansub "Haft Qulzum" asarining yettinchi bo'limida ham badiiy san'atlar haqida fikr yuritilgan.

Turkiy poetikaga doir bizgacha yetib kelgan ilk asar – Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" (1436–1437) asari bo'lib, u **she'r nav'lari, ilmi qofiya, ilmi badi', ilmi aruz** kabi qismlarni o'z ichiga oladi (5-qism – muammo haqidagi bo'lim bizgacha yetib kelmagan). Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon", "Risolai muammo", "Majolis un-nafois", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Xamsa" dostonlarining kirish qismlarida, Boburning "Risolai aruz" asarlarida mumtoz poetika masalalari yoritilganligini ko'ramiz.

Mumtoz adabiyotimiz tarixida adabiy tur tushunchasi o'ziga xos ifoda shakllaridan iborat bo'lgan. Bunda adabiy asarlar asosan nazm va nasr yo'nalishlariga bog'liq holda tahlil qilingan. Nazm va unga mansub janrlar badiiy asarlarning asosiy ifoda shakli bo'lib, ularga nasrdan ko'ra "poyasi biyikrak" (martabasi yuksakroq) deb qaralgan.

Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida nazm va nasrga badiiy nutq hamda mumtoz adabiy asarlarning ikki asosiy ifoda shakli sifatida qaralar ekan, muallif "istisvob bobinda murattab" (to'g'rilik bobida tartibli) nutqni nazm va "avroq visoqinda parishon" (varaqlar maydonida sochilgan) nutqni nasr deb ataydi. Uning fikricha, agar ijodkor o'z fikrini nazmda bayon qilsa, oddiy ilmlardan bexabar nodon kishi unga hujum qilishga va buzishga qodir bo'la olmaydi. Qisqa qilib aytganda, Shayx Ahmad Taroziy qat'iy intizomga asoslangan nazmni

ma'rifat va hikmat muhofazasi uchun muhim ifoda shakli deb hisoblaydi.

Navoiy ham o'z asarlarida nazm va nasrga ta'rif berar ekan, nazmni gulshandagi gullarning saf tortib, ochilib turishiga, nasrni esa gullarning yerda sochilib to'kilib yotishiga o'xshatadi:

Nazm anga gulshanda ochilmog'lig'i,
Nasr qaro yerga sochilmog'lig'i.

O'rta asrlarda nasrdan asosan ilmiy asarlar, manoqib va risolalar yozishda istifoda etilgan bo'lsa-da, ularning tarkibida ham nazmiy parchalardan foydalanish an'ana tusiga kirgan edi. Ushbu turning o'ziga xos adabiy janrlaridan shoir-u nosirlar o'z mahoratlarini namoyish qilish, poetik qarashlarini ifodalashda foydalanar edilar. Xususan, shunday adabiy janrlardan biri tazkira bo'lib, **tazkira** *(ar. – xotira, esga olmoq)* asosan, shoir va olimlarning tarjimai holi va ijodiyoti haqida ma'lumot beruvchi tarixiy-adabiy majmua hisoblangan. Unda u yoki bu shaxs haqidagi muhim ma'lumotlar va uning mashhur asarlaridan diqqatga sazovor misollar ilova qilingan. Tazkiralar asosan tarixiy-irfoniy mavzuda, shoirlarga doir va ba'zan badiiy janrlar bo'yicha tuzilgan. Birinchi guruh tazkiralar atoqli mutasavvif va olimlar shaxsiyati, dunyoqarashi va ijodiy merosini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, ularga "Tabaqot us-sufiya" (Abdurahmon Sulamiy, X–XI asrlar), "Tabaqot us-sufiya" (Abdulloh Ansoriy, X asr), "Tazkirat ul-avliyo" (Farididdin Attor, XII asr), "Nafahot ul-uns" (Abdurahmon Jomiy, XV asr), "Nasoyim ul-muhabbat" (Alisher Navoiy, XV asr) kabi tazkiralarni kiritish mumkin. Ikkinchi guruh tazkiralar nisbatan ko'proq bo'lib, ularga Abu Tohir Xotuniyning (XI) "Manoqib ush-shuaro", as-Saolibiyning "Yatimat ud-dahr", Muhammad Avfiyning "Lubob ul-albob", Davlatshoh Samarqandiyning Navoiyga bag'ishlangan "Tazkirat ush-shuaro" (1486), Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkiralari va boshqalar misol bo'la oladi. Bu turdagi tazkiralarda shoirlar va ularning she'rlariga munosabat bildirish asnosida tazkira mualliflari o'zlarining adabiy qarashlarini ham bayon qilib o'tganlar.

Musulmon Sharqi adabiyotida **insho** janri ham mashhur bo'lib, asosan maktublar yig'indisidan iborat bo'lgan. Maktublar insho san'atini o'zida namoyon qilib, unda maktub bituvchining

badiiy salohiyati, nuktadonligi, so‘zga hassosligi aks etgan. Bitiklarda maxsus axborot yetkazishdan ko‘ra chuqur mazmun va yuksak badiiyatning ustuvor bo‘lishiga e’tibor qaratilgan. Alisher Navoiy o‘zining insho san’atiga bag‘ishlangan “Munshaot” asari muqaddimasida she’riy parchalar bilan bezalgan go‘zal maktublarni turkiy tilda ham yozish mumkinligini isbotlash maqsadida o‘zi yozgan xatlarni to‘plab, taqdim etayotganligini ma’lum qiladi. Shu ma’noda Navoiy “Munshaot”i tarkibiga kirgan maktublarda turli badiiy san’atlar – o‘xshatish, istiora, tashbih, mubolag‘a va saj’ usulidan ko‘plab o‘rinlarda foydalanilganligi kuzatiladi. Deyarli har bir maktubda Qur’on oyatlari, hadislar, she’riy parchalar keltirilgan bo‘lib, ular xat yuborilgan insonga fikrni yanada ta’sirchan tarzda yetkazishda xizmat qilgan.

Alisher Navoiyning mumtoz poetikaga doir nazariy qarashlari uning “Mezon ul-avzon”, “Risolai muammo”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Majolis un-nafois” kabi filologik asarlarida, “Badoyi’ ul-bidoya” va “Xazoyin ul-maoniy”ga yozgan debochalarida, “Xamsa” dostonlari muqaddimalarida o‘z ifodasini topgan. “Mezon ul-avzon” asari ilmlar uchligining muhim va tarkibiy qismi bo‘lmish aruz ilmi tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lsa, “Risolai muammo”da she’r nav’larining maxsus turi hisoblanmish (ayrim hollarda badiiy san’at) muammo janrining qonun-qoidalari haqida so‘z boradi. “Badoyi’ ul-bidoya”ga yozgan debochasida devon tartib berish masalalari, g‘azal janriga xos muhim xususiyatlar haqida fikr yuritgan buyuk so‘z san’atkori “Xazoyin ul-maoniy” debochasi va kulliyotdagi ayrim lirik she’rlari (masnaviy, soqiynoma, qit’alar)da badiiy ijod, she’r va shoirlik bilan bog‘liq masalalarga to‘xtalib o‘tadi. “Xamsa” muqaddimalarida tuyuq, masnaviy, mustazod kabi janrlar poetikasi, she’r tabiati va shoirlik, surat va ma’ni birligi bilan bog‘liq qarashlar shoir badiiy tafakkurining nechog‘li keng ekanligini ko‘rsatuvchi omillardandir. Xususan, “Hayrat ul-abror” dostonining o‘n beshinchi bobida o‘zini shoir deb biluvchi, aslida she’rga xos oddiy qonuniyatlardan ham bexabar, o‘zlari anglamagan badiiy vositalar-u usullarni she’rlarida qo‘llashga intilgan ba’zi she’rtaroshlar haqida shunday yozadi:

Tab’kaj-u borcha takallumnamoy,
Nag‘machapu borcha tarannumsaroy.

Anglamayin so'zda tuyuq bahrini,
Qaysi tuyuq, balki qo'shuq bahrini.

Lafzlari bemaza, tarkibi sust,
Nosara ma'niyu ado nodurust...

Turfa bukim, she'r qo'yub otini,
Yetkurubon ko'kka mubohotini.

Navoiyning mumtoz poetikaga doir qarashlari bevosita uning surat va ma'ni (shakl va mazmun) masalasiga bo'lgan munosabatida yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. U o'zigacha salaflari tomonidan qonuniyat darajasiga yetkazilgan – shakl va mazmun mutanosibligi masalasini ijodining bosh tamoyili qilib oldi. Shayx Abdulqohir Jurjoniy o'zining "Asror ul-balog'a" asarida "Eng yaxshi ma'noni o'z tabiati va ixtiyoriga qo'y, u o'ziga muvofiq so'zlar (shakl)ni o'zi topa olsin" deb yozgan bo'lsa, Navoiy bu fikrni she'riy yo'l bilan quyidagicha bayon qildi:

Nazmda ham asl anga ma'ni durur,
Bo'lsun aning surati har nedurur.

Nazmki ma'ni anga marg'ub emas,
Ahli maoniy qoshida xo'b emas.

Nazmki ham surat erur xush anga,
Zimnida ma'ni dog'i dilkash anga.

Navoiyning o'z ijodida bu tamoyilga qat'iy amal qilganligi o'z davridayoq zamondoshlarining asarlarida e'tirof etilgan edi. Daqiq she'rshunos Atoulloh Husayniy "Badoyi' us-sanoyi'" asarida she'rning matbu' turiga to'xtalar ekan, bunday she'rning shakli yoqimli va mazmuni maqbul bo'lishi kerakligini uqtiradi va Alisher Navoiy "Tuhfat ul-afkor" qasidasining matla'sini bunga misol qilib keltiradi: "Matbu' deb andoq she'rg'a aytarlarkim, ul sog'lom tab'larg'a maqbul vazng'a, tuzuk qofiyag'a asoslang'an bo'lur, alfozi yoqimlig'-u iste'molda mashhur bo'lur, tarkibi mustahkam-u latif bo'lur, aning ma'nosi maqbul bo'lub, kishilarning ko'ngliga tekkan bo'lmag'ay, sanoyi'din nimaiki anda ishlatilgan bo'lsa, yetuk tarzda bo'lg'ay va aning tufaylidin

kalom anglamig‘ayu husni adosig‘a qusur yetgan bo‘lmag‘ay; qadimg‘ilar she’r jihatidin orttirg‘an ortiqcha harf-u alfoz va alfoz o‘zgarishlaridin xoli bo‘lg‘ay, hazrati xudovandgor (Alisher Navoiy)ning quyidag‘i bayti yanglig‘:

Otashin la’le, ki toji xusravonro zevar ast,
Axgare bahri xayoli xom puxtan dar sar ast”.

Navoiyning poetik mahorat bilan bog‘liq qarashlari ustoz ijodkorlar va zamondosh shoirlarga bergan baholarida yanada konkretroq namoyon bo‘ladi. Shoir “Xamsa” dostonlarining ustozlarga bag‘ishlangan boblarida poetik mahoratning ijodiy asar yaratishdagi ahamiyati haqida to‘xtalar ekan, Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy kabi ulug‘ so‘z san’atkorlarining bu sohadagi mahoratlariga, o‘zining ular izidan borib, qanday o‘rganganligi, o‘z asarlari ustida qanday ishlaganligi bilan bog‘liq fikrlarini bayon qiladi. Xususan, Nizomiy va Dehlaviy haqida so‘zlar ekan, ularga nisbatan “mohir” va “mahorat” atamalarini qo‘llaydi:

Ul ikov ustodi mohir edi,
Kim, mahorat alarda zohir edi.

“Farhod va Shirin”da doston yozish mashaqqatini kon qazuvchining og‘ir mehnatiga, o‘zini esa qo‘lida tosh yo‘nuvchi – tesha ushlagan Farhodga o‘xshatar ekan, o‘ziga xitob qilib shunday deydi:

Yana bir konni qazmog‘liqqa mayl et,
Qazib ahbob aro naqdin tufayl et.

Bu kon qazmoqni ulkim qildi resha,
Kerak xorofikan ilgida tesha.

Sanga bu teshavarlik bo‘lsa matlub,
Erur Farhod hamsuhbatlig‘i xo‘b.

Bu kon ishqida teshang xorarez et,
Ani Farhod toshi birla tez et.

“Majolis un-nafois”da to‘rt yuzdan ortiq shoirlarning she’rlariga munosabat bildirar ekan, tasvirning go‘zal bo‘lishi, badiiy vositalarning o‘rinli ishlatilib, ularning asosiy mazmunni

ochib berishga xizmat qildirilishini bosh mezon qilgan shoirlarga alohida e'tibor qaratadi, ushbu ijodkorlarning she'rlarini nuktadonlik bilan tahlil qiladi. Xususan, Darvesh Dehakiy degan shoirga to'xtalar ekan, shunday yozadi: "... Devoni doyim beliga bog'liqdur. Har bayti, yo ma'nisig'a ehtiyoj bo'lsa, ko'rgali fil'hol devonin chiqarib, topib ko'rguzur. Fil-voqe' faqirning to she'rg'a shuurum bor, ul tarafdin aning abyotidin yaxshiroq nazm kelmadi. Bu matla' aningdurkim:

Bar misoli surati devor bejon mondaam,
Pusht bar devor-u ro' so'i tu hayron mondaam.

(Mazmuni: Devordagi suvratga o'xshab jonsiz bo'lib qolganman. Orqamni devorga qilib, yuzimni senga o'girib, hayronlikda qolganman).

Bu bayti dag'i xub voqe' bo'lubtur:

Ba g'ayri noqai Layliki, mekanad xore,
Digar kiro g'ame az rahguzori Majnun ast.

(Mazmuni: Laylining tikan yulqilab yuruvchi tuyasidan boshqa hech kim Majnunning yo'lovchi ekanligiga parvo qilmaydi)". Yoki Hoji Nujumiy degan shoir haqida o'qiymiz: *"bu matla'i yaxshi voqe' bo'lubturkim:*

Boz iyd omad, biyo jonoki, qurbonat shavam,
Hamchu chashmi go'sfandi kushta hayronat shavam.

Keltirilgan misollardan Darvesh Dehakiyning birinchi bayti va Nujumiyning misralarida go'yoki bir mazmun – yorning go'zalligi va iltifotidan hayratda qolish tasvir etilgandek ko'rinadi. Lekin shu mazmun ikki yozuvchida o'ziga xos uslubda bayon qilingan. Agar Darvesh Dehakiy o'zining hayratda qolgan holatini devorga chizilgan jonsiz suratga o'xshatsa va shu tufayli esda qolarli manzarani yaratgan bo'lsa, Nujumiy hayratda qolishni so'yilgan qo'yning ko'ziga o'xshatadi. Chunki so'yilgan qo'yning ko'zi ochiq bo'lib, baqrayib qaraganday tuyiladi. Yorni ko'rib qolgan oshiq ham o'zini yo'qotib, nima qilishini bilmay qarab qolgan edi. Ikkinchidan, shoir bu misralardagi o'xshatish bilan umuman hayit haqida emas, balki qurbon hayiti to'g'risida so'z yuritadi. Demak, ikki shoir bir mavzuda she'r yozgan bo'lsalar-da, ularning har biri o'z uslubi asosida shu mavzuni

yuksak badiiy mahorat bilan yorita olgan. Darvesh Dehakiydan keltirilgan ikkinchi misolda esa Majnunning kishilar tomonidan e'tiborsiz qabul qilinishi ajoyib tarzda ochib berilgan: Majnunning oyoqlariga tikan sanchilmasin deb, Laylining tuyasi Majnun yuradigan yo'ldan tikonlarni olib yer edi, deydi muallif. Garchi Layli va Majnunlar to'g'risida ko'p asarlar yozilgan bo'lsa-da, Darvesh Dehakiyning ushbu misralari o'ziga xos badiiy uslubi va betakror tasviriy vositalari bilan go'zal va mazmunlidir.

Shuningdek, Alisher Navoiy o'z tazkirasida sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan tajnis, tarsi', tardi aks, zulqofiyatayn va shu kabi san'atlarni ustalik bilan ishlatgan Darvesh Mansur, Ibn La'liy, Mavlono Muhammad Amin, Mirzobek kabi qator shoirlarga ham alohida hurmat va e'tibor bilan to'xtalib o'tadi.

Yuqoridagi holatlarning barchasi: mumtoz adabiyotimizning cho'qqisi hisoblangan Alisher Navoiy asarlarini poetik jihatdan tahlil qilish, shoir asarlarining badiiy ta'sirchanlik qudratini tadqiq etish bilan bog'liq masalalar "Navoiy poetika"si kursining vujudga kelishini taqozo qiladi. Navoiy poetikasi mumtoz poetikaning tarkibiy qismi bo'lib, ushbu jumla istiloh sifatida dastavval Y.Is'hoqov tomonidan qo'llanilgan. Olim o'zining aynan shu nom bilan ataluvchi tadqiqotida buyuk shoir poetikasini uning lirik asarlari misolida tadqiq qilgan. Y.Is'hoqov Navoiy lirikasi poetikasini ikki muhim jihat – janrlar poetikasi hamda badiiy tasvir vositalari asosida o'rganar ekan, shoir she'riyatiga xos badiiyatni "Xazoyin ul-maoniy" devonlari misolida o'rgangan.

Mumtoz poetikaga xos qoidalar va zamonaviy adabiyotshunoslikda qo'lga kiritilgan tajriba va yutuqlar asosida "Navoiy poetikasi"ni quyidagi to'rt yo'nalish: she'r nav'lari, ilmi aruz, ilmi badi' va ilmi qofiya asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunda ham nazariy poetika (fonika va ritmika masalalarini ilmi aruz doirasida), ham tarixiy poetika (strofika, stilistika, janrlar masalasini she'r nav'lari, ilmi badi' doirasida) masalalari umumlashtirilgan holda tahlil obyektiga tortiladi.

Ushbu yo'nalishlardan kelib chiqib, "Navoiy poetikasi" kursi quyidagi vazifalarni hal qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi:

– Navoiy she'riyatini janrlar poetikasini tadqiq qilish asosida o'rganish. Bunda asosiy e'tibor Navoiyning lirik janrlar

taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, shoirning yoshlik lirikasiga xos janrlar, "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining janr xususiyatlari va "Devoni Foniy"dagi lirik janrlar poetikasiga qaratiladi;

– nasriy asarlar badiiyatini nasr ritmiga xos birliklar – ritmik vositalar yordamida o'rganish. Bunda mumtoz saj'ning betakror namunasini o'zida mujassamlashtirgan "Mahbub ul-qulub" va "Munojot" asarlari tahlil qilinadi.

– Alisher Navoiy aruzi bilan bog'liq masalalarni tadqiq qilish. Bunda shoir devonlaridagi bahrlar miqdori tadrijiylik asosida ko'rib chiqiladi va shoirning aruz tizimidan foydalanish mahorati devondan devondan qay tarzda o'zgarib borganligiga diqqat qaratiladi, Navoiyning turkiy aruz taraqqiyotiga qo'shgan hissasi ochib beriladi. Dastlab muxlislar tomonidan tartib berilgan devonlarning vazn xususiyatlari o'rganib chiqiladi, keyingi bosqich sifatida "Badoyi' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya" devonlarida qo'llanilgan bahrlar tahlil qilinadi. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining vazn xususiyatlari, kulliyotning vazn ko'rsatkichlari o'rganiladi, Navoiy she'riyatida qo'llanilgan ruboiy vaznlari "Xazoyin ul-maoniy" va "Nazm ul-javohir"dagi ruboiylar asosida tadqiq qilinadi;

– Navoiy "Xamsa"sining vazn xususiyatlarini tadqiq qilish. Bunda vazn va ritmik variatsiyalar munosabati o'rganilib, hazaj axrab va xafif bahrlariga xos ritmik variatsiyalarga urg'u qaratiladi va ularning dostonlar mazmunini ochishdagi o'rniga to'xtalib o'tiladi. "Xamsa" dostonlarining ohang xususiyatlarini o'rganishda ritmik urg'uning ahamiyatiga e'tibor qaratiladi;

– Navoiy ijodida badiiy san'atlarning o'rnini tadqiq etish. Bunda badiiy san'atlarga mumtoz ilmi badi'ga doir tasnif (lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlar) asosida yondashiladi. "Xamsa" dostonlarida qo'llanilgan yetakchi badiiy san'atlarga e'tibor qaratiladi;

– Navoiy she'riyatini ilmi qofiya asosida tadqiq qilish. Bunda Navoiyning qofiya tizimiga kiritgan yangiligi, Navoiy ijodida qo'llanilgan qofiya turlari o'rganiladi, o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi qofiya turlari va tuzilishiga ko'ra farqlanuvchi qofiya turlarining Navoiy she'riyatidagi o'rniga ahamiyat qaratiladi. Radif va hojib, saj' va qofiya munosabatlari o'rganiladi.

Tayanch tushunchalar

poetika
nazariy poetika
tarixiy poetika
ilmi balog‘a
ilmi ma’oniy
ilmi bayon
ilmi badi’
ilmhoi segona
ilmi aruz
ilmi qofiya
tazkira
insho

Savol va topshiriqlar

1. “Poetika” atamasining lug‘aviy va istilohiy ma’nolariga ta’rif bering.

2. Ilmi balog‘aning vujudga kelish sabablariga to‘xtalib o‘ting. U qanday tarkibiy qismlardan iborat bo‘lgan?

3. Adabiy ilmlarga ta’rif bering.

4. Ilmlar uchligining tarkibiy qismlarini sanang.

5. Mumtoz poetikaga doir qanday nazariy asarlarni bilasiz?

6. Navoiy davridagi adabiy turlarga ta’rif bering. Ajdodlarimiz nazm va nasrga munosabatda qanday mezonlarga tayanganlar?

7. Nasrga xos janrlardan qaysilarini bilasiz?

8. Navoiyning poetik qarashlari qaysi asarlarida namoyon bo‘ladi?

9. Navoiy poetikasi kursining maqsad va vazifalari haqida so‘zlab bering.

ADABIYOTLAR:

Matn va manbalar:

1. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1991. Т. 7.

2. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1997. Т.13.

3. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб, Муншаот, Вақфия. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1998. Т.14.

4. Алишер Навоий. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. Назм ул-жавоҳир. Насойим ул-муҳаббат. Муҳокамат ул-луғатайн. Мезон ул-авзон. Арбаъин. Сирож ул-муслимин. Муножот. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.10.

5. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ / Форсчадан А. Рустамов таржимаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981.

6. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Т.: Хазина, 1996.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

7. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.

8. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1993.

9. Илми балоға фанидан маърузалар. Тузувчи З.Шарипов. – Т.: Movarounnahr, 2014.

10. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Зарқалам, 2006.

11. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983.

12. Куделин А. Средневековая арабская поэтика (вторая половина VIII–XI век). – М.: Наука, 1983.

13. Литературный энциклопедический словарь / Под общей редакцией В.М.Кожевникова и П.А.Николаева. – М.: Советская энциклопедия, 1987.

14. Мулласодиқова Н. Балоғат илмида ийжознинг қўлланилиши // Шарқшунослик, 2011. – №1. – Б.38–42.

15. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (X–XV вв.). – М.: Наука, 1989.

16. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979.

17. Шарқ мумтоз поэтикаси: Манба ва талқинлар / Нашрга тайёрловчи, талқин ва шарҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Т: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

18. Қудратуллаев Ҳ. Навоийнинг адабий-эстетик олами. – Т.: F.Fулом номидаги НМИУ, 1991.

19. Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2010.

20. Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – Т.: Ўқитувчи, 1993.

21. Ҳайитметов А. [illegible] и ўзбек адабиёти. – Т.: Фан, 1996.



NAVOIY SHE'RIYATI VA JANRLAR POETIKASI

Reja:

1. Navoiyning lirik janrlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi. Shoirning yoshlik lirikasiga xos janrlar.

2. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining janr xususiyatlari. G'azal va mustazod janrlari poetikasi.

3. Musammatlar badiiyati.

4. Tarkibband, tarji'band, soqiynoma va masnaviy janrlariga xos poetik xususiyatlar.

5. Kulliyotdagi kichik lirik janrlar badiiyati. Ruboiylar, tuyuqlar, qit'a va fardlar.

O'zbek mumtoz she'riyati tarixida lirik janrlar rivojining yangi bosqichga ko'tarilishi bevosita Alisher Navoiy lirikasi bilan bog'liq. Navoiy she'riyat maydoniga kirib kelgan davrda o'zbek adabiyotida lirik turning qasida, g'azal, masnaviy, tuyuq, fard kabi janrlari she'riy shakl sifatida o'z takomiliga yetgan, qit'a, ruboiy, musamman, tarkibband, tarji'band kabi janrlar esa shakllanish bosqichida edi.

Alisher Navoiygacha turkiy she'riyat maydonida Atoyi, Gadoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Hofiz Xorazmiy[40] kabi sohibdevon shoirlar qalam tebratib, ularning aksariyati haqida Navoiy o'z asarlarida ma'lumot berib o'tadi. Atoyi devoni faqat g'azal janridagi she'rlardan iborat bo'lsa, Sakkokiy devonining bizgacha yetib kelgan nusxalarida 40 ga yaqin g'azal va 11 (ba'zi ma'lumotlarga ko'ra 13) ta qasida mavjud. Gadoiy va Lutfiy devonlari lirik janrlar ko'lamining bir oz kengligi bilan xarak-

[40] Navoiy Hofiz Xorazmiy haqida biror asarida eslab o'tmaydi. Nazarimizda, u mazkur shoirning adabiy merosidan bexabar bo'lgan.

tarlanadi. Agar Gadoiy devonida g‘azal janri bilan birgalikda mustazod, qasida va qit’a janrlari ham mavjud bo‘lsa, Lutfiy devoni g‘azal va qit’adan tashqari, qasida, tuyuq va fard kabi janrlarni o‘z ichiga oladi. Hofiz Xorazmiy devonida esa lirik turning jami 9 janri: qasida, g‘azal, mustazod, muxammas, tarkibband, tarji’band, marsiya, qit’a, ruboiy kabi janrlardan foydalanilganlikni ko‘ramiz.

Navoiy o‘z oldiga turkiy she’riyatni janrlar jihatidan mukammal bir holatga keltirishni maqsad qildi va o‘z devonlarida 16 janrni muvaffaqiyat bilan qo‘lladi. Ba’zi janrlarning turkiy adabiyotga kirib kelishi Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liq bo‘lsa, ayrimlarining keng ko‘lamdagi rivoji shoir adabiy faoliyati bilan bog‘liq.

Alisher Navoiy bolalik chog‘laridanoq she’rlar mashq qilib, ustozlar e’tirofiga sazovor bo‘lganligi ilm ahliga yaxshi ma’lum. Uning o‘zi hali devon tartib berishga vaqt erta deb hisoblagan vaqtida Mashhadda shoirning muxlislari uning she’rlarini to‘plab, devon tuzgan edilar (1465–1466). Fanda bugun “Ilk devon” deb ataluvchi ushbu to‘plam tarkibida 391 g‘azal, 41 ruboiy, 1 mustazod va 1 muxammas, jami 4 lirik janrdagi 434 she’r mavjud.

O‘g‘uz turklari tomonidan Sherozda tartib berilgan (1471) yana bir devon – “Oqquyunli muxlislar devoni” esa jami 229 ta she’rdan iborat bo‘lib, ular ham 4 janrda bitilgan: 224 g‘azal, 1 mustazod, 3 muxammas, 1 tarji’band. Devonga avvalgi devonda mavjud bo‘lmagan tarji’band janri kiritilgan bo‘lib, “Ilk devon”dan o‘rin olgan ruboiy janridagi she’rlar ushbu devonda uchramaydi. Agar shoirning bu davrda Sayyid Hasan Ardasherga maktub tarzida masnaviy bitganligini, Husayn Boyqaro taxtga o‘tirishi munosabati bilan “Hiloliya” qasidasini ham yozganligini hisobga olsak, Navoiy 1471-yilgacha, bizda mavjud ma’lumotlar asosida, 7 ta lirik janrda she’rlar bitganligini ta’kidlash mumkin.

Agar muxlislar tuzgan devonlardagi janrlarni solishtiradigan bo‘lsak, ularda 3 ta janr umumiy ekanligi ma’lum bo‘ladi: g‘azal, mustazod va muxammas. “Oqquyunli muxlislar devoni”dagi 85% g‘azal “Ilk devon”da uchramaydi, bu holat ularning aksariyat qismi keyingi 5 yil orasida yozilganligini ko‘rsatadi. Har ikki devonda bittadan mustazod mavjud bo‘lib, “Ilk devon”ga kiritilgan mustazodning matla’si quyidagicha:

Ne vo‘sma-vu ne kesmadur ul zulfi sumansoy,
ne g‘amzayi jodu,
Mashshota sanga zoli falakdur magar, ey oy,
xurshid anga ko‘zgu.

“Oqquyunli muxlislar devoni”dan o‘rin olgan mustazod esa quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Ey, husnungga zarroti jahon ichra tajalli,
mazhar sanga ashyo,
Sen lutf bila kavn-u makon ichida mavli,
olam sanga mavlo.

Muxammas janridagi she’rlar esa har ikki devonda taxmis shaklida bo‘lib, ular mavlono Lutfiy g‘azallariga bitilgan. “Ilk devon”ga kiritilgan va “Sharbati “yuhyil-izom” erni mayi no-bindadur” deb boshlanuvchi muxammas keyingi devonga ham dastlabki muxammas tarzida kiritilib, “Oqquyunli muxlislar devoni”dan yana 2 taxmis joy olgan.

Alisher Navoiyning ilk rasmiy devoni “Badoyi’ ul-bidoya”-da 11 janrga oid 1046 ta she’r (MAT, 1-jild asosida) mavjud . Ushbu janrlarni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

T.r.	Lirik janr	She’rlar miqdori
1.	G‘azal	777
2.	Mustazod	3
3.	Muxammas	5
4.	Musaddas	2
5.	Tarji’band	3
6.	Qit’a	46
7.	Ruboiy	85
8.	Lug‘z	10
9.	Muammo	52
10.	Tuyuq	10
11.	Fard	53

Shoirning keyingi rasmiy devoni “Navodir un-nihoya”da, MATdagi nashr asosida fikr yuritadigan bo‘lsak, faqat bir janr – g‘azal janridagi 862 ta she’r mavjud. Aslida “Navodir un-nihoya”ning Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan nusxasida g‘azaldan tashqari, yana mustazod, tarji’band, qit’a, ruboiy, lug‘z, muammo va tuyuq kabi janrlar ham bo‘lib, ular jami 8 janrda bitilgan (Ushbu devon haqida nisbatan to‘liq ma’lumotlar darslikning 1-qismida keltirilgan).

Alisher Navoiy she'riyatining gultojini "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti tashkil qiladi. Shu ma'noda shoir she'rlaridagi badiiyat, ularning janr xususiyatlari, mavzu ko'lami, strukturasi va boshqa poetik xususiyatlari haqida har tomonlama va mukammal tasavvur hosil qilish uchun kulliyotdagi har bir janrga tarixiy poetika nuqtai nazaridan to'xtalib o'tishni lozim topdik.

"Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida eng ko'p qo'llanilgan janr bu, shubhasiz – **g'azal**dir. Shoirning turkiy tilda bitilgan 2600 g'azali ushbu kulliyotdan o'rin olgan. Navoiy g'azallari faqat miqdor jihatidan emas, balki g'oyaviy-badiiy ko'lami jihatidan ham Sharq mumtoz g'azalchiligining yuksak namunalari sirasiga kiradi.

Ma'lumki, g'azal *arabcha "oshiqona so'z", "ishq izhor qilish"* ma'nolarini bildirib, *a-a, b-a, d-a, e-a...* tarzida qofiyalanuvchi, 3 baytdan 19 baytgacha hajmda bo'lgan baytli she'r shaklidir. Adabiyotshunoslikda g'azal janri haqida ilk ma'lumot Shams Qays Roziyning "Al-Mo'jam" asarida (XIII asr) keltirilgan. Olim bunda g'azalning asosiy lug'aviy ma'nosi ayollarga muhabbat qo'yish bilan bog'liq ekanligiga e'tibor qaratadi. O'zbek adabiyotida 5-10 baytli g'azallar ko'p uchraydi. Navoiy g'azallari esa asosan 7 baytdan 13 baytgacha hajmda bo'lib, bu haqda shoirning o'zi "Badoyi' ul-vasat" devoniga kiritilgan qit'asida shunday ma'lumot beradi:

Navoiy she'ri to'qquz bayt-u, o'n bir bayt, o'n uch bayt
Ki, lavh uzra qalam ziynat berur ul durri maknundin.
Bukim albatta yetti baytdin o'ksuk emas, ya'ni
Tanazzul aylay olmas rutba ichra yetti gardundin.

Professor H. Sulaymonov Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidagi g'azallar hajmini quyidagi jadvalda aks ettirgan:

Baytlar soni	"G'aroyib us-sig'ar" devonida	"Navodir ush-shabob" devonida	"Badoyi' ul-vasat" devonida	"Favoyid ul-kibar" devonida	Jami
5	2	-	-	-	2
6	1	3	1	-	5
7	434	446	437	430	1747
8	30	8	8	12	58
9	163	162	187	183	695
10	8	7	1	3	19

11	11	23	14	20	69
12	-	-	1	-	1
13	1	1	1	2	5
	650	650	650	650	2600

G‘azalning birinchi bayti matla’ yoki mabda’, oxirgi bayti esa maqta’ deb ataladi va maqta’da shoir taxallusi qo‘llaniladi. Agar ikkinchi bayt ham matla’ singari qofiyalansa, ya’ni g‘azal qo‘sh matla’ga ega bo‘lsa, “husni matla’” yoki “zebi matla’”li g‘azal deb ataladi.

G‘azalning dastlabki namunalari VIII–IX asrlarda arab adabiyotida paydo bo‘lgan, fors-tojik adabiyotida ilk g‘azal yozgan shoir sifatida Ro‘dakiy tilga olinadi. O‘zbek adabiyotida esa dastlabki g‘azal Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida (XIV asr) uchraydi. G‘azalning dostonlar tarkibida uchrashi ilk bor Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sidan (1353–54) boshlanadi.

Navoiy turkiy tildagi g‘azal janrini o‘zigacha mavjud an’analardan foydalangan holda yangi bosqichga ko‘tardi. Forsiy g‘azalchilikning tajriba va yutuqlarini o‘rganib, uning eng yaxshi jihatlarini turkiy g‘azaliyot taraqqiyotiga xizmat qildirdi. Shoir *“G‘azalda uch kishi tavridir ul nav’”* deb boshlanadigan bir qit’asida forsigo‘y ustozlari Amir Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiy nomlarini tilga olib, o‘z g‘azallarining yaratilishida bu ijodkorlar ko‘rsatgan ta’sirni alohida e’tirof etadi. G‘azallaridagi irfoniy-ma’rifiy, ishqiy va rindona mavzular badiiy talqinining ildizlariga ishora qiladi.

Navoiy g‘azallarini mavzusiga ko‘ra shartli ravishda quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Hamd g‘azallar:

Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo,
Yuzung quyoshig‘a zarroti kavn o‘lub shaydo.

(“Navodir ush-shabob”, 1-g‘azal)

2. Na’t g‘azallar:

Ey nubuvvat xaylig‘a xotam bani Odam aro,
Gar alar xotam, sen ul otkim, erur xotam aro.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 6-g‘azal)

3. Oshiqona yoki ishqiy mavzudagi g‘azallar:

Tun oqshom bo‘ldi-yu kelmas mening sham’i shabistonim,
Bu anduh o‘tidin har dam kuyar parvonadek jonim.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 403-g‘azal)

4. Orifona yoki tasavvufiy-falsafiy mavzudagi g‘azallar:

Dema, ne sud erur o‘lmoq fano harimig‘a xos,
Yana ne sud kerak o‘zlugungdin etsa xalos.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 271-g‘azal)

5. Axloqiy-ta’limiy mavzudagi g‘azallar:

Sen o‘z xulqungni tuzgil, bo‘lma el axloqidin xursand,
Kishiga chun kishi farzandi hargiz bo‘lmadi farzand.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 115-g‘azal)

6. Ijtimoiy mavzudagi g‘azallar:

Topmadim ahli zamon ichra bir andoq hamdame
Kim, zamon osibidin bir-birga aytishsoq g‘ame.

(“Navodir ush-shabob”, 576-g‘azal)

7. Rindona g‘azallar:

Soqiyo, tut bodakim, bir lahza o‘zumdin boray,
Shart bukim, har necha tutsang labolab sipqoray.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 588-g‘azal)

8. Tabiat tasviri aks etgan g‘azallar:

Bulut hayoon zuloli birla tirguzdi havo jonin,
Sevunmak ashkidin shodob qildi sabza mujgonin.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 440-g‘azal)

9. Hajviy mavzudagi g‘azallar:

Ul shayxki, minbar uza afsung‘a berur tul,
Shaytondur o‘zi, majlisining ahli suruk g‘ul.

(“Favoyid ul-kibar”, 377-g‘azal)

Aslida bunday tasnif nisbiy bo‘lib, ba’zan Alisher Navoiyning ishqiy mavzudagi g‘azallari tarkibida (ko‘pincha maqta’dan oldingi baytda) ijtimoiy masalalar bilan bog‘liq baytlar, tabiat tasviri aks etgan g‘azallarida yor tasviri va h.k. mazmunidagi baytlarni ham kuzatish mumkin.

“Xazoyin ul-maoniy”da qirqdan ortiq hamd va qirqqa yaqin na’t g‘azallar mavjud. Shoir hamd g‘azallarda Allohni madh etib, ta’rif-u tavsif qilar ekan, Uning azaliy va abadiyligini, qudrati, lutfi, mehri-yu qahrini bu olamdagi tajalliysi vositasida badiiy ifodalaydi. Na’t mavzusidagi g‘azallarda Rasulullohga muhabbat va bu muhabbatning otashi, shiddati butun bo‘y-basti bilan namoyon bo‘lsa, rindona g‘azallarda may va u bilan bog‘liq holda *soqiy, qadah, mayxona, mug‘bacha* timsollaridan mohiyat va hodisani badiiy talqin etishda foydalanilgan. Shoirning zohiran muayyan mavzuni – oshiqona mazmunni ifodalagan ko‘pgina

g‘azallari botinda orifona mohiyatga ega. Buning natijasida bayt yoki g‘azalda qo‘llanilgan obraz va timsollar bir necha ma’nolar qatlamini o‘zida aks ettiradi. Navoiyning peyzaj mavzusidagi g‘azallarida tabiat tasviri keng planda qo‘yilib, muayyan ijtimoiy-falsafiy mohiyat kasb etadi. Y.Is’hoqovning qayd etishicha, shoir doimo tabiat bilan inson o‘rtasida umumiylik ko‘radi va ko‘pincha ularni bir-biriga tamsil tarzida tasvirlaydi. Ijtimoiy va axloqiy-ta’limiy mavzudagi g‘azallarda g‘azalning lirik qahramoni faylasuf va murabbiy sifatida olam va odamning mohiyati haqida o‘z qarashlarini bayon etadi.

Yuqorida aytilganidek, Navoiy g‘azaliyotida ishq mavzusi asosiy o‘rinni egallaydi. Bu mavzu umuman musulmon Sharqi she’riyatida ham yetakchi o‘rinda bo‘lib, Alisher Navoiy unga o‘z ijodining deyarli barcha bosqichlarida murojaat qilgan:

Ey Navoiy, ishq atvorini hifz aylay degan,
Barcha ishni tark etib, qilsun bizing devonni hifz.

Buyuk mutafakkir “Mahbub ul-qulub” asarida ishqni 3 darajaga ajratadi:

1) avom ishqi;
2) xoslar ishqi (majoziy ishq);
3) siddiqlar ishqi (haqiqiy ishq).

Alisher Navoiy ijodida ishqning quyi bosqichi – avom ishqini tasvirlash maqsad qilib olinmagan, zero, uning fikricha, bunday ishqning “zikri tarki adabdur va bayoni behijobliqqa sabab”. Shu ma’noda shoir ishqiy lirikasining asosini majoziy va haqiqiy ishq tarannumi tashkil etadi. Ta’kidlash joizki, Navoiy she’riyatida majoziy ishq haqiqiy ishqqa qarama-qarshi qo‘yilmaydi, balki majoziy ishq haqiqiy ishq uchun ko‘prik, degan g‘oya ilgari suriladi:

Majozdin manga maqsud erur haqiqiy ishq,
Nedinki, ahli haqiqatqa bu tariqat erur.

Majozdin chu haqiqatqa yo‘l topar oshiq,
Qilur majozni nafyi ulki, behaqiqat erur.
(“Favoyid ul-kibar, 5-qit’a)

Shoirning majoz tariqida boshlangan g‘azallari nihoyada haqiqiy ishq vasfi bilan intiho topadi, g‘azallarida tasvirlangan “yor” tushunchasi tor ma’noda ma’shuqa tisolini ifodalash bi-

lan birga keng ma'noda "do'st", "rafiq", "ustoz", "piri komil", Rasululloh (s.a.v.) va Alloh ma'nolarida ham kelishi mumkin.

Alisher Navoiyning ishqiy mavzudagi g'azallaridan birini ko'rib chiqsak:

Bo'lsa ikimizning yuzi aksi suda paydo,
Ul su ne taraf borsa, ochilg'ay guli ra'no.

Zulfung g'ami ko'nglumni beling fikriga soldi,
Ko'rkim, ne taxayyulg'a soliptur ani savdo.

G'avg'o qilur el mahvashlar ko'yida, lekin
Mahvashlar ishi qilmoq aning ko'yida g'avg'o.

Ahvolima Farhod ila Majnung'a taajjub,
Ishq etti xirad ahli qoshida meni rasvo.

Har sori tamoshog'akim, ul sho'x qilur azm,
Yo'q anga tamoshoki, erur elga tamosho.

Davron sanga zulm etsa, qadahlar to'la may ich,
Qon yutsang ayog'lar to'la, davrong'a ne parvo.

Ul sho'xki maydon aro ko'rganga solur tiyg',
Ko'rmasga solur, yetsa Navoiy sari, amdo.

G'azal 7 baytdan iborat bo'lib, "G'aroyib us-sig'ar" devonidan o'rin olgan. Mazkur g'azal zohiran qaraganda majoziy ishq tarannumi o'laroq taassurot qoldiradi. Ammo matn bilan yaqindan tanishar ekanmiz, majoz vositasida haqiqiy ishqqa ishora qilinganiga ham guvoh bo'lamiz.

Dastlabki baytda shoir o'zi va ma'shuqasining holatini tasvirlaydi: go'yoki u va yorining yuzi akslanib, suvga tushsa, bu suv oqib borgan joydan ra'nogullar ochilar ekan. Savol tug'iladi: nima uchun aynan ra'nogul? Chunki ra'nogulda qizil va sariq rang omuxta bo'ladi va shoir guldagi bu xususiyatni hisobga olib, uning qizilligini yorning chehrasiga, sariq rangini esa o'zining za'faron yuziga qiyos qiladi. Ikkinchi baytda oshiq o'zining ishq savdosida aqldan ozganini aytadi. Bayt mazmuniga ko'ra, yorning sochini ko'rgan oshiq uning belidan quchishni

orzu qila boshlaydi. Ammo bel boshqa, zulf boshqa-ku! Demak, ishq uni esidan og‘dirib, shunday xayollarga bandi qilib qo‘ygan:

Zulfung g‘ami ko‘nglumni beling fikriga soldi,
Ko‘rkim, ne taxayyulg‘a soliptur ani savdo.

Alisher Navoiy bu nozik ifoda orqali oshiqning asl kayfiyatini yorqin aks ettirgan. Mazkur ikki bayt oshiqning ma’shuqaga bo‘lgan cheksiz muhabbatini ifodalaydi va bu o‘rinda biz majoziy muhabbat izhorini ko‘rib turibmiz. Lekin navbatdagi bayt g‘azalning mazmunini keskin o‘zgartiradi va uning asl mohiyatini ochib beradi:

G‘avg‘o qilur el mahvashlar ko‘yida, lekin
Mahvashlar ishi qilmoq aning ko‘yida g‘avg‘o.

Yuqorida tasvirlangan Yor bu baytda tilga olinayotgan mahvashlarni ham o‘ziga oshiq qilgan ekan. Holbuki, xalq mahvashlarning ishqida g‘avg‘o, to‘polon qiladi. Savol tug‘iladi: xo‘sh, mahvashlarni ham o‘ziga maftun etgan kim? Bu savolning javobi keyingi baytlar vositasida ochila boradi.

Oshiq ishq ko‘yida o‘z holatining g‘aribligini bayon qilar ekan, hatto oshiqlar timsoli bo‘lgan Farhod va Majnun ham uning bu holidan taajjubda ekanliklarini bayon qiladi, ishq uni oqil kishilar orasida shunday rasvo qilib qo‘ygan:

Ahvolima Farhod ila Majnung‘a taajjub,
Ishq etti xirad ahli qoshida meni rasvo.

G‘azalning ushbu nuqtasiga qadar quyidagi aniq holatlar bayon etildi: 1) oshiq ma’shuqasini sevadi, agar ikkisi suvga qarasa, suv borgan joyda gulira’no ochiladi; 2) odamlar oy kabi go‘zal bo‘lgan mahvashlarga oshiq, ammo mahvashlar ham g‘azalda tasvir etilayotgan go‘zalga oshiqdir; 3) oshiq – lirik qahramon yorning ishqida xirad ahli – aqlli insonlar o‘rtasida rasvo bo‘lgan, chunki u ishq yo‘lida es-hushidan ayrilgan.

Alisher Navoiy biz o‘qiydigan keyingi baytda Yorning muhim belgisini keltiradi, ya’ni ul sho‘x – Yor olamni tomosha qilaman desa, jamiki xaloyiq uni tomosha qila boshlaydi:

Har sori tamoshog‘akim, ul sho‘x qilur azm,
Yo‘q anga tamoshoki, erur elga tamosho.

Bir qaraganda oddiy tasvir: Navoiyga xos o‘ta nuktadonlik bilan Yorning go‘zalligi ifoda etilgan. Ammo bu bayt Yorning kimligini bizga aniqlab beradigan kalitdir. Gap shundaki, Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlarida butun olam, koinot Allohning qudratini ko‘rsatib turuvchi ko‘zgu deb ta’riflangan. Masalan, "Hayrat ul-abror" dostonida Alloh olamni o‘zi uchun ko‘zgu etib yaratdi, o‘zi ham nozir (nazar soluvchi), ham manzur (nazar solingan) bo‘ldi, degan fikr ilgari suriladi. Shu ma’noda, inson atrofga nazar solib, Allohning qudratini, Allohning jamoli nurini ko‘rishi mumkin. Baytda tilga olingan Yorning *tomosha qilgani har sori borishi* Alloh taoloning qudrati butun olamni qamrab olganiga ishoradir. El esa uni tomosha qilishi – inson Allohning qudratiga, san’atiga lol qolishini bildiradi.

Demak, anglashiladiki, lirik qahramonning qalbidagi ishq bu dunyoviy, avomga xos bo‘lgan ishq emas, balki o‘zini yaratgan Zotga bo‘lgan muhabbatdir. Ammo bu muhabbatning hijroni og‘ir, g‘ami og‘ir. Bu toifa oshiq taqdirning – davronning zulmini hammadan ko‘ra ko‘proq his etadi, bu zulmdan qutulish uchun esa, qadah to‘la may ichish kerak, ya’ni Alloh zikri ila qalbini dunyo g‘amlaridan ozod etish kerak, shu eng maqbul yo‘l. Chunki insonlar qon yutadimi, may ichadimi davronga farqi yo‘q:

Davron sanga zulm etsa, qadahlar to‘la may ich,
Qon yutsang ayog‘lar to‘la, davrong‘a ne parvo.

Maqta’da Alisher Navoiy ul sho‘x – Yor maydon aro kim unga qarasa, tig‘ bilan halok etayotganini tilga olgan, ammo u ataylab o‘z oshig‘iga qaramaydi, ya’ni unga tig‘ urmaydi. Bu yerdagi tasvir tasavvufdagi insonning holi bilan bog‘liq. Ya’ni zikr bilan qalbi mast bo‘lgan kishining ko‘nglida Allohning nuri aks etadi, bu nur esa uni olamga qalb ko‘zi bilan nazar solishga undaydi. Shoir *Ul sho‘xki maydon aro ko‘rganga solur tiyg‘* misrasi orqali ushbu haqiqatga ishora qiladi.

Ko‘rib o‘tganimizdek, mazkur g‘azal Alisher Navoiyning badiiyati yuksak, mazmuni chuqur asarlari sirasiga mansub bo‘lib, unda ham majoziy, ham haqiqiy ishq tasviriga oid ma’no qatlamlarini topish mumkin.

Navoiy g‘azallari kompozitsiyasi ham uning mazmuni va tasvir usullari kabi rang-barang bo‘lib, kulliyotdagi 2600

g‘azalning har biri o‘ziga xos kompozitsiya va semantik strukturaga ega. Y.Is’hoqovning ma’lumot berishicha, shoir “Xazoyin ul-maoniy” debochasida o‘z g‘azallarining semantik strukturasiga oid ayrim qaydlarni bayon qilgan va shu asosda Navoiy g‘azallarini shartli ravishda usluban *ta’rif, tavsif, madh, sharhi hol* kabi turlarga ajratish mumkin.*Ta’rif* va *tavsif*, *ta’rif* bilan *madh* bir-biriga yaqin tursa-da, ular orasida o‘ziga xosliklar mavjud. Ta’rif madhga nisbatan torroq tushuncha bo‘lib, badiiy funksiyasi jihatidan uning tarkibiga kiradi, ta’rif ko‘pincha yorning husn-u jamolini umumiy tarzda aks ettirsa, madhda mamduh (maqtalayotgan obyekt)ning barcha zohiriy va botiniy fazilatlari maqtaladi. Ta’rif va tavsif ham ko‘p o‘rinda qo‘shilib ketgandek tuyulsa-da, lekin tavsifning qo‘llanish doirasi kengroq: uning uchun insoniy sifatlar ham, tabiat manzaralari ham, oshiqning iztirobli tuyg‘ulari bayoni ham obyekt bo‘la oladi. Ya’ni ta’rif, asosan ijobiy xarakterga ega bo‘lsa, tavsif ancha keng ko‘lamda qo‘llaniladi. Sharhi hol tarzidagi g‘azallar esa ichki kechinmalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayoni va sharhidan iborat. Navoiy g‘azallarning usluban bunday tasniflanishi ham nisbiy bo‘lib, ishqiy mavzudagi g‘azallarda, ko‘pincha, ta’rif, tavsif va madh birlashgan holda keladi.

Navoiy g‘azallarining semantik strukturasi uchun xos bo‘lgan yana bir xususiyat shundaki, shoirning aksariyat g‘azallarida maqta’dan oldingi bayt mazmun va uslub jihatidan butun g‘azal tarkibidagi boshqa baytlardan ajralib turadi. Bunday bayt, oldingi baytlardagi tasvir usulidan qat’i nazar, ikkinchi shaxsga *(mazmunan kitobxonga yoki umuman barchaga)* qaratilgan murojaat, xitob tarzidagi o‘git (ba’zan kinoya, ta’na) yoki umumlashgan ibratomuz xulosadan iborat bo‘ladi. Shoir, ko‘pincha, o‘z fikrini soqiyga yoki boshqa biror obyektga (ma’shuqaga, shohga, gulga) murojaat shaklida izhor qiladi. Shuni ham qo‘shimcha tarzida aytish kerakki, Alisher Navoiy mav’izatomuz baytlarda *soqiy, bog‘bon, ko‘ngul, rafiq, do‘st, yor* kabi obrazlarga murojaat qilsa-da, baytdagi xulosa va umumlashmalar eng avvalo, shoirning o‘ziga qaratilgan bo‘ladi. Voizlar, xatib va ulamolarning da‘vatidan farqli o‘laroq shoirlar barcha ayb-u nuqsonlarni o‘zlaridan axtarib, teran nazar bilan “o‘z nuqsonini isbot qilish”ga uringanlar. Navoiyning buyukligi shundaki, u hech qachon kibr va manmanlikka yo‘g‘rilgan ruhiy

yuksakliklardan quyiga nazar solmaydi. Balki inson nomiga noshoyista bo'lgan kamchiliklar nishonalarini o'zidan axtarib, keskin tanqid qiladi va shu orqali shaxsiy o'rnak ko'rsatib, boshqalarni ham ma'naviy tozarish, ruhiy poklanishga chorlaydi. A. Hayitmetov bunday baytlarni "lirik chekinish tarzidagi baytlar" deb atagan edi.

"Xazoyin ul-maoniy" kulliyotiga g'azaldan keyin tartib bo'yicha **mustazod** janri kiritilgan bo'lib, kulliyotda mustazodlar soni to'rtta, ya'ni har bir devonga teng tarzda joylashtirilgan. Mustazod *arabcha "orttirilgan", "ziyoda qilingan"* ma'nolarini bildirib, har misrasi 1,5 qatordan iborat she'r shaklidir. Mustazod uchun g'azal asos – zamin vazifasini o'taydi. Ikkala janrning qofiyalanish tizimi, baytlar soni, matla' va maqta', tasallusning mavjudligi bu fikrni isbotlaydi. Lekin g'azal aruz tizimining barcha bahrlarida yaratilgani holda mustazod faqat hazaj bahrining *hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod* (ruknlari va taqti'i: maf'uvlu mafoiylu mafoiylu fauvlun maf'uvlu fauvlun – – V / V – – V / V – – V / V – – / – – V / V – –) vaznida yoziladi. Turkiy adabiyotda Alisher Navoiygacha mustazod janri Hofiz Xorazmiy ijodida uchraydi. Uning devonida har biri 7 baytdan iborat ikkita mustazod mavjud.

Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida mustazod janriga alohida ta'rif berib, uning ohangi surud nag'amoti (kuy ohangi)ga mos kelishini aytadi: *"...xalq orasida bir surud bor ekandurkim, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida anga bayt boshlab bitib, aning misraidin so'ngra hamul bahrning ikki rukni bila ado qilib, surud nag'amotig'a rost keltururlar ermish va ani "mustazod" derlar ermish..."*

"Xazoyin ul-maoniy"ga kiritilgan to'rtta mustazod ham mavzu jihatdan rang-barang. Shoir devonlardagi janrlarni qo'llashda muayyan tartibga rioya qilganidek, she'rlarni mazmun-mavzusi asosida taqdim etishda ham muayyan izchillikni saqlab qoladi. Shu bois birinchi devon "G'aroyib us-sig'ar"ga hamd mazmunidagi mustazod, keyingi devonlarga rindona, oshiqona va to'rtinchi devonga orifona mazmunidagi mustazodni kiritadi. Birinchi devondagi mustazodda Haq va dunyoni tajalliy nazariyasiga asosan idrok etish, olamdagi barcha narsalar uning husni – go'zalligi uchun mazhar ekanligi, dunyoda

U zot mavlo – sohib bo‘lsa, olam unga qul, degan mazmun mujassamlashgan:

Ey husnunga zarroti jahon ichra tajalli,
mazhar sanga ashyo,
Sen lutf bila kavn-u makon ichida mavli,
olam sanga mavlo.

“Navodir ush-shabob”dan o‘rin olgan mustazodda esa oshiq rindning his-hayajonga to‘la, ko‘tarinki kayfiyati ifodalangan. Unda ta’rifi keltirilgan “mug‘bacha” oshiqni komil pir bilan bog‘laydigan, Allohdan mujda keltiradigan farishta timsolidir:

Din ofati bir mug‘bachai mohliqodur,
mayxora-vu bebok,
Kim ishqidin oning vatanim dayri fanodur
sarmast-u yaqom chok.
Ham turrasining dudu vara’ beliga zunnor,
men kofiri ishqi,
Ham yuzi majus o‘ti kibi shu’lafizodur,
men o‘rtanibon pok...

“Dayr” – komil inson huzuri, ma’naviyat olami. “Sog‘ar” esa komil inson qalbi, ishq manbai. Oshiq rind muhabbat mayidan mast, ishqda o‘zidan bexabar, uning xumorini yozish uchun falakdek kattalikdagi sog‘ar kerak...

Alisher Navoiyning zamondoshi, tarixchi Zayniddin Vosifiyning “Badoyi’ ul-vaqoye’” asarida keltirilishicha, bu mustazodga o‘z davrining mashhur bastakori Xoja Abdullo Marvarid kuy bastalagan. Qo‘shiq shunchalik shuhrat qozonganki, Hirotda bu qo‘shiqni tinglamaydigan xonadon bo‘lmagan. Hatto bir bazmda mustazodning “sarmast-u yaqom chok” satri kuylanayotganda, majlis ahli o‘z yoqalarini yirtganlar va bu holni bir tasodif tufayli tuynukdan qarayotgan hazrat Navoiyning o‘zi ham ko‘rgan. Alisher Navoiy keyinchalik “Hayrat ul-abror”da bu hodisani shunday tasvirlaydi:

Bazmda ul lahza aloloni ko‘r,
Ko‘yi xarobot aro g‘avg‘oni ko‘r.
Ko‘rki, nechukdur yaqo chok aylamak,
O‘zni fig‘on birla halok aylamak.

"Badoyi' ul-vasat"dan o'rin olgan mustazod ishqiy yo'nalishda bo'lib, unda ma'shuqaning husni betakror tashbihlar vositasida tavsiflanadi, uning vasliga yetishish mashaqqati bayon etiladi. Dastlabki baytda "g'amza joduli" yorning zulfi, qoshi vasf etilgan va uning pardozchisi "zoli falak" – taqdirning o'zi ekani, quyosh esa ul oy yuzli uchun ko'zgu ekanligi aytilib, keyingi baytlarda bu go'zallik ta'rifi chuqurlashtirib boriladi va maqta'da Navoiy yor uni bir qarash bilan qatl etmoqchi bo'lgani, lekin nazar solmagani va shu holatning o'zi oshiq uchun qatl bilan barobar ekanligini aytadi. Mustazodda majozan tariqat yo'liga kirgan solikning his-hayajonlari va tuyg'ulari bayon qilingan deb ham aytish mumkin. Mustazod quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Ne vo'sma-vu ne kesmadur ul zulfi sumansoy,
ne g'amzai jodu,
Mashshota sanga zoli falakdur magar, ey oy,
xurshid anga ko'zgu.

So'nggi devondan o'rin olgan mustazod irfoniy yo'nalishda bo'lib, kulliyotga yakun yasaydi. Unda keltirilgan xulosaga ko'ra, ishq yo'liga kirgan oshiq uchun eng maqbul joy Iloh muhabbati, irfoniy suhbatlardan dil orom topadigan komil inson huzuri. Faqat shu joy unga taskin beradi, o'z panohiga oladi, shu sababli mustazodning lirik qahramoni "dayri fano" (pir maskani)ni ko'zlab, yo'lga tushadi:

Bordim bu sahar dayri fano sori urub gom,
maxmuri shabona,
Tortar edi har lahza sabuh ahli ichib jom, noqusi mug'ona.

Kulliyotdagi uchinchi janr **muxammas** bo'lib, "Xazoyin ul-maoniy"da muxammaslarning soni 10 ta. Muxammas *arabcha "beshlik"* ma'nosini bildirib, har bandi 5 misradan iborat she'r hisoblanadi va *a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, d-d-d-d-a* tarzida qofiyalanadi. Muxammas musammat (bandli she'r)ning bir turi bo'lib, yaratilish xususiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1) tab'i xud (mustaqil);

2) taxmis (g'azalni beshlantirish asosida yaratilgan).

Tab'i xud muxammasda ijodkor o'zi mustaqil ravishda beshlik yaratadi. Taxmisda esa muallif o'zga shoir yoki ba'zida

(juda kam hollarda) o‘z g‘azalini asos – zamin qilib olib, shu mavzuni davom ettirgani holda, vazn, qofiya va radifni saqlab qolib beshlik yaratadi. Bunda asos qilib olingan g‘azaldagi har baytning yuqori qismiga uch misra qo‘shiladi. Masalan, Navoiyning Lutfiy g‘azaliga bog‘lagan taxmisining birinchi bandini ko‘rib o‘tsak (bunda yuqoridagi dastlabki uch misra Navoiy qalamiga, qoraytirilgan misralar esa Lutfiy qalamiga mansub):

Sharbati "yuhyil izom" erni mayi nobindadur,
Surai "Vash-shams" tafsiri yuzi bobindadur,
Sharhi "mozog‘ulbasar" nargislari xobindadur,
Laylatul me’rojning sharhi sochi tobindadur,
Qoba qavsayn ittihodi qoshi mehrobindadur.
("Badoyi’ ul-vasat", 1-muxammas)

Qizig‘i shundaki, Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy"ga kiritilgan 10 muxammasidan barchasi taxmis, ya’ni g‘azalni beshlantirish asosida vujudga kelgan muxammas hisoblanadi. Bularning 3 tasi "Malik ul-kalom" Lutfiyga, qolgan 7 tasi esa shoirning o‘z g‘azallari asosida yaratilganligi bilan xarakterlanadi. Mumtoz adabiyotimiz tarixida ijodkorning o‘z g‘azaliga taxmis bitish hodisasi kam uchraydi.

O‘zga shoir g‘azaliga taxmis bog‘lash, bu – go‘yo shu shoir bilan ijodiy hamkorlik va muayyan ma’noda adabiy musobaqaga kirishishdir. Shuning uchun ham ijodkorlar odatda o‘z taxmislarini ma’lum poetik mahoratga ega bo‘lganlaridan keyin yarata boshlaganlar. Bunda g‘azal muallifi bilan unga taxmis bog‘layotgan muallif o‘rtasida mushtarak dunyoqarash, estetik ideal hamohangligi va g‘oyaviy yaqinlik bo‘lishi zarur. Taxmis muallifi g‘azalda keltirilgan fikrlarni mantiqan rivojlantirib, uni o‘z ijodiy g‘oyalari bilan shunday to‘ldirishi va boyitishi kerakki, natijada vujudga kelgan she’r unga asos bo‘lgan g‘azal bilan uyg‘unlashib, bir muallif tomonidan yaratilgandek tasavvur uyg‘otsin.

Lutfiyning g‘azali quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Laylatul me’rojning sharhi sochi tobindadur,
Qoba qavsayn ittihodi qoshi mehrobindadur.

Matla’dayoq ma’lum bo‘ladiki, Lutfiy g‘azalining lirik qahramoni go‘zallikda tengsiz yor. Uning tundek qora sochi zamiriga

me'roj kechasining sharhi yashiringan, mehrobdek qoshi esa qoba qavsayn – ikki yoy oralig'idagi masofani yodga soladi. Bu o'rinda mavlono Lutfiy yor tasviri asnosida Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning me'roj tunida Xoliq huzuriga ko'tarilishi va Yaratgan bilan rasul orasidagi masofa ikki qosh oralig'idek yaqin bo'lganligi hodisasiga ham ishora qiladi. G'azalning keyingi baytlari ham yor go'zalligi ta'rifi bilan davom etib, uning shirin va jonbaxsh labidan Salsabil (jannat bulog'i) sargardon, Xizr va Iso Masihlar xijolatda ekanligi ta'kidlanadi. Shu tariqa g'azal baytlari yor ta'rif-u tavsifi tarzida davom etadi.

Lutfiy g'azalidagi ushbu go'zal tasvir Alisher Navoiyni maftun etadi va u o'zining ilk taxmisini mazkur g'azalga bog'laydi. Navoiy taxmisning birinchi bandida Lutfiy g'azali matla'sida keltirilgan komil go'zallik ta'rifiga hamohang tarzda *iqtibos* san'atidan foydalanib, har bir misrada Qur'on oyatlaridan jumla keltiradi:

Sharbati "yuhyil izom" erni mayi nobindadur,
Surai «Vash-shams» tafsiri yuzi bobindadur,
Sharhi "mozog'ulbasar" nargislari xobindadur...

Navoiy talqinida yorning labi o'liklarni tiriltiruvchi toza sharbat, Qur'oni karimdagi "Vash-shams" surasining izohi uning yuzida aks etadi, "ko'z aldanmadi" oyatining sharhi uning ko'zlarida namoyon. Bu ta'rif Lutfiy qalamidan to'kilgan soch va qosh ta'riflari bilan birlashib, mukammal go'zallik tasvirining yorqin namunasi vujudga kelganligini ko'ramiz.

Odatda, g'azalga taxmis bog'lanayotganda uning bandlari soni g'azal baytlariga mos holga keltiriladi. Lekin ba'zan shoirning xohishiga ko'ra, g'azaldagi ayrim baytlarga taxmis bitilmasligi, ya'ni ular qisqartirilishi mumkin. Aynan shu holat yuqoridagi taxmisda ham kuzatiladi. Taxmisga asos bo'lgan Lutfiy g'azali aslida hajman 7 baytdan iborat. Ammo taxmis bog'langanda uning ikki bayti qisqartirilib, 5 band holiga keltirilgan. Xususan, quyidagi ikki bayt Navoiy taxmisida uchramaydi:

Xomai qudrat-la bitganda ne mus'hafdur yuzi,
Kim malohat oyati majmu' aning bobindadur...
Ko'zlari har go'sha uyqudin qo'porur fitnalar,
Turfa maxmureki chandon fitnalar xobindadur.

Buning bir necha sabablari bor. Yuqoridagi ikki baytga e'tibor qaratsak, ularda yuz va ko'z tasvirini ko'ramiz. Birinchi baytda yor yuzi qudrat qalami ila bitilgan Mus'haf, ya'ni Qur'onga nisbat berilsa, ikkinchi baytda uning ko'zlari uyquda ham fitna qo'zg'otuvchi maxmur (mast)ga o'xshatilmoqda. Alisher Navoiy o'z taxmisining birinchi bandidayoq yuz va ko'z tasvirining mukammal tarzdagi bayonini berib bo'lganligi uchun uni yana takrorlashga ehtiyoj qolmayapti va o'z-o'zidan endi bu ikki bayt mazmun jihatidan taxmis uchun ortiqcha ekanligi seziladi. Yana bir sabab qofiya talabi bilan bog'liq. Tushirib qoldirilgan baytlardagi qofiyalarga e'tibor qaratsak, ular *"bobindadur"* va *"xobindadur"* tarzida ekanligini ko'ramiz. Alisher Navoiy taxmisning matla' bandidayoq ushbu qofiyalardan foydalanganligi uchun ularni takror holda qo'llashni istamagan va shu tarzda taxmis 5 band holatiga kelgan.

Shoirning keyingi ikki taxmisi ham aynan Lutfiy g'azallariga bog'langan. Ular dastlab "Oqquyunli muxlislar devoni"ga kiritilgan bo'lib, mazkur devonning 1471-yilda tuzilganligini esga olsak, 30 yoshli shoirning dastlabki taxmislari faqatgina ustozi Lutfiy g'azallari asosida yaratilayotganligi ma'lum bo'ladi.

Yosh Navoiyning dastlabki muxammaslarini "Malik ul-kalom" g'azallariga bog'layotganligi bejiz bo'lmay, bu holatni Lutfiyning Navoiygacha bo'lgan turkiy adabiyotda tutgan yuksak maqomi, uning badiiy jihatdan mukammal she'riyati bilan izohlash mumkin. Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn"da turkiy she'riyatda o'zidan avval yetishib chiqqan bir necha shoirlarni tilga olib, shunday yozadi: *"Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiy... Va* ***forsiy mazkur bo'lg'on shuaro*** *muqobalasida kishi paydo bo'lmadi, bir mavlono Lutfiydin o'zgakim, bir necha matla'lari borkim, tab' ahli qoshida o'qusa bo'lur..."*

Alisher Navoiy bu o'rinda turkigo'y shoirlar orasida forsiy adabiyotdagi Xoqoniy, Avhaduddin Anvariy, Kamol Ismoil, Zahir Foryobiy, Salmon Sovajiydek qasidanavislar; Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviydek masnaviy ustalari; Sa'diy Sheroziy va Hofiz Sheroziy kabi g'azalnavis shoirlar yetishib chiqmaganligiga e'tiborini qaratib, turkiy shoirlardan faqat Lutfiygina ular bilan she'riy musobaqaga kirishish salohiyatiga ega bo'lganligini ta'kidlayapti. Alisher

Navoiyning o'ttiz yoshgacha bo'lgan davrda yaratgan taxmislari aynan Lutfiy g'azallariga bitilganligi bu fikrni asoslaydi.

Kulliyotdagi keyingi taxmislar shoirning aynan o'z g'azallariga bog'langan. Diqqatimizni "Judo" radifli muxammasga qaratsak, Taxmis quyidagi band bilan boshlanadi:

Ohkim, volihmen ul sarvi xiromondin judo,
Ko'zlarim giryondur ul gulbargi xandondin judo,
Benavodur jon dog'i ul huri rizvondin judo,
Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,
Aylamas to'ti takallum shakkaristondin judo.

Agar "Badoyi' ul-bidoya" tarkibi o'rganib chiqilsa, mazkur taxmisga asos bo'lgan g'azal aynan shu devonning o'zida – 52-o'rinda kelayotganligini ko'rish mumkin. Demak, shoir mana shu o'rindan boshlab, o'z qalamiga mansub g'azallarga taxmis bog'lashga kirishyapti. Yana ham e'tiborni tortadigan jihati, taxmisga asos bo'lgan g'azal muxlislar tomonidan tartib berilgan "Ilk devon"da (19b-sahifa) ham uchraydi. Demak, ko'rinyaptiki, bu g'azal shoirning 25 yoshgacha bo'lgan davrida yaratilgan va keyinroq "Badoyi' ul-bidoya" tarkibiga ham kiritilgan. Ma'lum bo'lyaptiki, shoir o'zining yigitlik davrida bitgan g'azaliga alohida e'tibor bilan qarayapti. Uni dastlabki rasmiy devoniga ham kiritib, yana taxmis bog'lash uchun ham tanlab olyapti. Bundan ko'rish mumkinki, Alisher Navoiy o'zining yoshlik lirikasiga mansub g'azali mavzusiga oradan vaqt o'tgach yana qaytishga ehtiyoj sezgan va shu tariqa bu g'azalini muxammas holiga keltirgan. Mazkur taxmis tarkibini kuzatadigan bo'lsak, undagi ba'zi o'rinlar g'azal matnidan bir oz farqlanishini kuzatamiz. Xususan, mazmun talabiga ko'ra g'azaldagi to'rtinchi va beshinchi baytlarning o'rni almashgan. Shuningdek, beshinchi baytdagi *"gardun"* so'zi qofiya imkoniyatiga qarab taxmis tarkibida *"davron"* so'zi bilan almashtirilgan. Natijada shoir *"gardun"* so'zining o'rniga *"jonon"*, *"jon"*, *"hijron"* so'zlari bilan qofiyadosh bo'lish imkoniga ega bo'lgan *"davron"* so'zidan foydalangan. G'azal baytini taxmis misralari bilan qiyoslasak:

G'azal bayti:

*Hajr o'lumdin talx emish, mundin so'ng, ey **gardun**, meni*
Aylagil jondin judo, qilg'uncha jonondin judo.

Endi bu bayt taxmis tarkibida qanday holatda qo‘llanilganligini ko‘ramiz:

Qilg‘ali mahrum jomi vasldin jonon meni,
Talxkom etmish tiriklik bodasidin jon meni,
Ha zamone o‘lturur g‘am zahridin hijron meni
Hajr o‘lumdin talx emish, mundin so‘ng, ey ***davron****, meni*
Aylagil jondin judo, qilg‘uncha jonondin judo.

“Badoyi’ ul-bidoya”dagi “Oqibat” radifli taxmisga asos bo‘lgan g‘azal ham aynan shu devon tarkibida 82-o‘rinda uchraydi. Qolgan taxmislarni ham o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, 7 taxmisdan oltitasiga asos bo‘lgan g‘azallar shoirning yoshlik va yigitlik davrlarida yaratilgan bo‘lib, ular “Xazoyin ul-maoniy”ning muayyan devonidan o‘rin olish bilan birga undan ilgarigi devonlar tarkibida ham uchraydi. Xususan, ularning bittasi “Ilk devon”ga, ikkitasi “Badoyi’ ul-bidoya”, uchtasi “Navodir un-nihoya”ga kiritilganligini kuzatamiz.

Shoir taxmislari va ular uchun asos bo‘lgan g‘azallarni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

Lutfiyga taxmisning 1-misrasi va u kiritilgan devon	***O‘z g‘azallariga taxmis***	
	Muxammasning 1-misrasi va u kiritilgan devon	***Muxammasga asos bo‘lgan g‘azalning 1-misrasi va u kiritilgan devon***
Halqayi zulfungda ko‘nglum bo‘lg‘ali g‘am mahrami (“G‘aroyib us-sig‘ar”, 1-muxammas)	Ohkim, volih men ul sarvi xiromondin judo (“Navodir ush-shabob”, 2-muxammas)	Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo (“G‘aroyib us-sig‘ar”, 38-g‘azal)
Masnadi husn uzra tokim ko‘rmisham ul shohni (“Navodir ush-shabob”, 1-muxammas)	Bo‘lmag‘ay erdi jamoling muncha zebo koshki (“Navodir ush-shabob”, 3-muxammas)	Ochmag‘ay erding jamoli olam oro koshki (“Navodir ush-shabob”, 625-g‘azal)

Gharbatl yahyil izom erul mayi nahindadur ("Badoyi' ul-vasat", 1-muxammas)	Necha, ey oy, mendin ayru aylagay davron seni ("Badoyi' ul-vasat", 2-muxammas)	Kelgil, ey oromi jonimkim, tilaydur jon seni ("Favoyid ul-kibar", 618-g'azal)
	Ohkim, tarki muhabbat qildi jonon oqibat ("G'aroyib us-sig'ar", 2-muxammas)	Yoshurun dardimni zohir qildi afg'on oqibat ("Navodir ush-shabob", 72-g'azal)
	Jilva qildi dahr aro ko'p husni bexamto yigit ("Favoyid ul-kibar", 1-muxammas)	Ko'nglum oldi bir pariypaykar malaksiymo yigit ("G'aroyib us-sig'ar", 80-g'azal)
	Ishq o'tidin jismi zori notavonim o'rtading ("G'aroyib us-sig'ar", 3-muxammas)	Vahki, o'tluq chehra ochib xonumonim o'rtading ("Navodir ush-shabob", 354-g'azal)
	Ko'rguzub yuz, ko'nglumu yuz ming jafonu qilmading ("Favoyid ul-kibar", 2-muxammas)	Ishq o'tidin qismatim dardu balomu qilmading ("Badoyi' ul-vasat", 356-g'azal)

O'zga shoir g'azaliga taxmis bog'langanda muxammasning so'nggi bandida g'azal muallifi va uni beshlantirayotgan shoir taxallusi keltiriladi. Masalan, Alisher Navoiyning Lutfiy g'azali asosida yozilgan muxammasining oxirgi bandi quyidagicha:

Har gado egnida bo'lsa eski to'n yo choki jayb,
Bilmay asli niyatin qilmoq g'alatdur shakk-u rayb,
*Ey **Navoiy**, chun sanga ma'lum emastur sirri g'ayb,*
***Lutfini** mayxonada oshufta ko'rsang, qilma ayb*
Kim, bu majnun ixtiyori zulfi qullobindadur.

"Xazoyin ul-maoniy"ga **musaddas** ("oltilik") janri ham kiritilgan bo'lib, kulliyotdan 5 ta musaddas o'rin olgan. Musaddas ham muxammas singari ikki turga bo'linadi:

1) tab'i xud (mustaqil);

2) tasdis (g'azalni oltilantirish asosida yaratilgan).

Kulliyotdagi 5 ta musaddasdan 2 tasi Lutfiyga, bittasi Husayniyga tasdis bo'lsa, bittasi shoirning o'z g'azaliga tasdis va bittasi shoirning o'z tab'idan yaratilgan musaddasdir.

Navoiyning o'z g'azaliga bitgan tasdisi birinchi bandini ko'rib o'tsak (bunda qoraytirilgan misralar Navoiy g'azalining matla'si bo'lib, musaddas uchun asos vazifasini o'tagan, yuqoridagi to'rt misra esa keyinchalik shoir tomonidan qo'shilib, g'azal tasdis holiga keltirilgan):

Subhidam maxmurluqtin tortibon dardi sare,
Azmi dayr ettimki, ichgaymen sabuhiy sog'are,
Chiqti sog'ar to'ldurub kofirvashi mahpaykare,
Naqde din olib ichimga soldi maydin ozare,
Vahki, dinim kishvarin toroj qildi kofire,
Kufr eliga homiy-u din ahlig'a yag'mogare.

"Ishq zor etti xaloyiq ibtilosidin meni" deb boshlanuvchi musaddas esa Husayn Boyqaro g'azaliga bog'langan bo'lib, yetti bandni o'z ichiga oladi. Musaddas quyidagi band bilan boshlanadi:

Ishq zor etti xaloyiq ibtilosidin meni,
Har zamon bir ta'nagir muhlik adosidin meni,
Hajr xud kuydurdi dardi bedavosidin meni,
Ham o'lum qilg'ay xalos aning jafosidin meni,
Ey ajal, ozod qil hijron balosidin meni,
Bir yo'li qutqar ulusning mojarosidin meni.

Musaddasda Husayniy g'azalida aks etgan ma'no yanada boyitilgan, mazmunan to'ldirilgan, har bir band Navoiy qo'shgan to'rt misra vositasida poetik jihatdan sayqallashtirilgan. Dastlabki bandda ishqqa duchor bo'lgan oshiqning zamona va odamlarning ta'nalaridan qiynalgani, bu jafolardan oshiqni faqatgina o'lim ozod etishi mumkinligi bayon qilingan. Ayniqsa, shoh va shoir Husayniyning *"...bir yo'li qutqar ulus mojarosidin meni"* degan so'rovi uning qalbidagi samimiy tuyg'ularni,

dunyoqarashini aniqlashda muhim nuqtadir. Keyingi bandlarda shoh va gadoning o'limi orasida farq bo'lmasligi aytilgan, bu chaman – dunyo g'avg'osidan faqat ishq qutqarishi bayon etilgan. Shu tariqa oshiqning ishq oldidagi shikastaligi bayoni bandma-band yuksak pardalarda kuylangan, so'nggi bandda Humayniyning saltanatdan umuman faxrlanmasligi, u aslida ishq ko'chasining gadolaridan ekanligini e'tirof etishi Alisher Navoiy bilan hammaslak ekanligini oydinlashtiradi. Ushbu musaddas Alisher Navoiy bilan Husayn Boyqaroning dunyoqarashlaridan uyg'un nuqtalarni aniqlashda muhim manba va ayni paytda ikki buyuk shaxsning hayot hamda olam haqidagi tushunchalarini jam qilishi bilan ahamiyatlidir.

Navoiy tasdislari va ular uchun asos bo'lgan g'azallarni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

Tab'i xud musaddas	*Lutfiyga tacdis*	*Husayniyga tasdis*	*O'z g'azallariga tasdis*	
			Tasdisga asos bo'lgan g'azal	*Tasdis*
"Dahr aro chun quyg'usiz yo'q hech ishrat, ey rafiq" ("Navodir ush-shabob", 1-musaddas)	"Jonim o'rtarga ul o'tluq chehra gulzori Xalil" ("Badoyi' ul-vasat", 1-musaddas)	"Ishq zor etti xaloyiq ibtilosidin meni" ("Badoyi' ul-vasat", 2-musaddas)	"Vahki, dinim kishvarin toroj qildi kofire" ("Navodir ush-shabob", 580-g'azal)	"Subhidam maxmurluqtin tortibon dardi sare" ("G'aroyib us-sig'ar", 1-musaddas)
	"Zulfu siymin jisming af'i ganji Qorun ustina" ("Favoyid ul-kibar", 1-musaddas)			

Kulliyotdagi navbatdagi janr **musamman** deb atalib, "sakkizlik" ma'nosini bildiradi. Alisher Navoiygacha turkiy she'riyatda ushbu janrning ilk marta istifoda etilishi Yusuf Amiriy nomi bilan bog'liq. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida bitta musamman bo'lib, u "Favoyid ul-kibar" devoniga kiritilgan. Musamman *a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-b, d-d-d-d-d-d-d-d* tarzida qofiyalangan, 7 band

– jami 56 misradan iborat. She'r muraddaf (radifli) bo'lib, "ey ko'ngul" jumlasi radif bo'lib kelgan. Musamman ishqiy mavzuda: oshiqning yor ozoridan shikoyat qilib, ko'ngilga murojaati tarzida yaratilgan. Musamman quyidagi band bilan boshlanadi:

Har taraf azm aylab ul sho'xi sitamgor, ey ko'ngul,
Tig'i hajridin necha bo'lg'aybiz afgor, ey ko'ngul,
Chun safar aylab edi bir qatla dildor, ey ko'ngul,
Dardi hajrig'a bo'lub erduk giriftor, ey ko'ngul,
Buylakim, ta'rif etib g'urbatni bisyor, ey ko'ngul,
Shahru kishvardin malolat aylab izhor, ey ko'ngul,
Anglading yo yo'qmukim, aylar safar yor, ey ko'ngul,
Vahki, bo'lduq yana hajri ilgidin zor, ey ko'ngul...

Musamman ramal bahrining *ramali musammani mahzuf* (afoyili va taqti'i: foilotun foilotun foilotun foilun, – *V* – – / – *V* – – / – *V* – – / – *V* –) vaznida yaratilgan.

"Xazoyin ul-maoniy"da **tarji'band** janri ham alohida o'rin tutadi. Ma'lumki, tarji'band arabcha "takrorlab bog'lamoq" ma'nosini bildiradi. Adabiy istiloh sifatida esa bir necha banddan iborat bo'lib, g'azal singari qofiyalanadigan, birinchi bandning maqta'si qolgan bandlarning so'ngida ham takrorlanadigan she'r turini anglatadi. Bandlar oxirida o'zaro qofiyalanuvchi bayt barcha tarji'xonalarni o'zaro bog'lab turadi va *vosila* bayt deb ataladi. Tarji'bandlar odatda har biri 8–11 baytdan iborat bir necha banddan tashkil topadi. Turkiy adabiyotda tarji'bandning ilk namunalari Hofiz Xorazmiy ijodida uchraydi. Uning devoniga 3 ta tarji'band kiritilgan.

"Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida 4 ta tarji'band bo'lib, har bir devonga bittadan joylashtirilgan. Tarji'bandlarning ikkitasi tasavvufiy-falsafiy, ikkitasi ishqiy mavzuda.

"G'aroyib us-sig'ar" devoniga kiritilgan tarji'band "Ketur soqiy, ul mayki subhi alast" misrasi bilan boshlanib, hajman 10 band (har bandda 10 bayt), 100 baytni o'z ichiga oladi.

Tarji'band haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun uning dastlabki ikki bandini keltiramiz:

I

Ketur soqiy, ul mayki, subhi alast
Aning nash'asidin ko'ngul erdi mast.

Mayekim qilur, quysalar jom aro
O'zi mast-u kayfiyyati mayparast.

Eshit sarguzashteki, bir kun manga
Necha mayparast o'ldilar hamnishast.

May olmoqqa piri mug'on jazbasi
Meni chekti andoqki, mohiyni shast.

Qilib xirqa may rahni-yu zarfining
Etib og'zini mum ila sangbast.

Kelur erdim egnimda mayliq sabu,
Bo'lub to'qquz aflok ollimda past

Ki, ogoh o'lub to'sh-to'shumdin qabab
Manga toptilar ihtisob ahli dast.

Shikastim mening oncha ermas edi
Ki, may zarfi topti orada shikast.

Chu sindi sabu, chorae topmadim,
Meni muflisi ur[u], giryoni mast.

Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing'an safol.

II

Ketur, soqiyo, mujdaye jomdin
Ki, pajmurda bo'lmishmen anjomdin.

Bu gulshan guliga chu yo'qtur vafo,
Ne parhez etay jomi gulfomdin?

Chu yo'q shomi hijron xumorig'a subh,
Ichib anglamay subhni shomdin.

Xalos aylay o'zni may-u nuqlning
Suyu donasi birla bu domdin.

Bo'lay dayr pirig'a andoq murid
Ki, yod etmayin shayxul-islomdin.

Kiray dayr aro uyla majnunu mast
Ki, ketsun xirad xos ila omdin.

Solay bir alolo xarobot aro
Ki, chiqsun fig'on ahli ayyomdin.

Xarobotiy o'lmog'lig'im, zohido,
Suol etma men zori badnomdin.

Garav qilg'ali mayg'a chun qolmadi
Ne tasbih-u ne xirqa, nokomdin.

Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing'an safol.

Ko'rinadiki, bandlar oxiridagi bayt (vosila bayt) o'zaro mustaqil qofiyalangan misralardan tashkil topgan. Bu misralar qolgan bandlar so'ngida ham takrorlanadi. Tarji'band tasavvufiy-falsafiy mavzuda. Unda o'zligini va shu orqali Allohni izlayotgan, dunyo tartibotini, undagi sir-u sinoatlarni anglashga intilayotgan solikning ruhiyati aks ettirilgan. Tarji'bandning lirik qahramoni o'zi istayotgan haqiqat yo'lida tug'ilgan savollariga hech kimning javobidan qanoat hosil qilmaydi. Shu bois:

Nazar ayla bu korgah va'zig'a,
Ki ortar tamoshosida hayratim, –

deb yozar ekan, o'ziga suhbatdosh bo'lgan shayx ham, donishmand hakim ham uning savollariga javob berolmaganidan:

Mening boshima bas qotiq tushti ish,
Chu yoqo'ldi bu dard ila toqatim,

deya afsus-nadomat qiladi. Tarji'band shoirning yigitlik davrida yaratilgan, bu vaqtda u nafaqat ijodiy izlanish, balki o'z-o'zini anglash yo'lida tinimsiz faoliyatda ham edi. May va unga aloqador ramziy timsol va tushunchalar orqali so'fiyona ohangda ifodalangan fikrlar shoirning dunyo va uning mohiyati, irfon

haqidagi o'ylarining tajassumi edi. Tarji'bandning takrorlanuvchi baytidagi "sing'an safol" lirik qahramon – Navoiyning siniq ko'ngli bo'lsa, may – u istayotgan haqiqat edi.

Tarji'band mutaqorib bahrining mutaqoribi musammani mahzuf (afoyili va taqti'i: fauvlun fauvlun fauvlun faal, *V – –| V – –| V – –| V –*) vaznida yozilgan.

"Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidan joy olgan ikkinchi tarji'band "Jahon qasrig'adur su uzra bunyod" misrasi bilan boshlanib, hajman 8 band (bandlar 11–12 baytli), 103 baytni o'z ichiga oladi. Tarji'band "Navodir ush-shabob"dan o'rin olgan. Ushbu tarji'band ham tasavvufiy-falsafiy mavzuda bo'lib, unda buyuk mutafakkirning jahon – borliq haqidagi fikrlari, dunyoning bevafoligi, umrning o'tkinchiligi bilan bog'liq qarashlari aks etgan. Shoirning fikricha, jahondagi bor narsaning hammasi suv ustiga qurilgan, demak omonat. Faqatgina Haq boqiy. Inson o'z umrining ham qisqa va omonat ekanligini anglashi va o'zini to'laligicha irfonga, ya'ni Yaratganni tanishga, ezgu ishlar qilishga sarflamog'i lozim. Tarji'banddagi barcha bandlar "jahon" so'zi bilan boshlanadi va shu orqali shoir kitobxon diqqatini o'zi aytmoqchi bo'lgan asosiy fikrga qayta-qayta jalb qiladi. Tarji'banddagi vosita baytda ham ushbu so'z takrorlanadi:

Baqosizdur jahon ra'nosi valloh,
Jahon ra'nosi yo'qkim mosivalloh.

Tarji'band hazaj bahrining hazaji musaddasi maqsur (afoyili va taqti'i: mafouilun mafoiylun mafoiyl, *V – – –| V – – –| V – –*) vaznida yozilgan.

"Badoyi' ul-vasat" devoniga kiritilgan tarji'band ishqiy mavzuda bo'lib, "Ey kirpiki neshu ko'zi xunxor" misrasi bilan boshlanadi. Hajman 7 band (har bir band 8 bayt), 56 baytdan iborat. Tarji'bandda bir paytlar yori bilan hamnafas, ulfat bo'lgan, endilikda g'addor taqdirning zulmi bilan sevgilisidan ayrilgan oshiqning ruhiy kechinmalari bayon qilinadi. Tarji'band *nido* san'ati (*Ey kirpiki nesh-u ko'zi xunxor*) bilan boshlanib, yana shu san'at (*Ey kishvari husn uzra hokim*) bilan intiho topadi. She'rning dastlabki bandlarida jafokor yordan shikoyat, uning beparvoligi, o'z oshig'ini yodga olmasligidan yozg'irish kayfiyatlari hukmronlik qilsa, keyingi bandlarda vasl va firoqni barobar deb bilgan, taqdir izmiga ko'nikkan, yor etkazayotgan ozorlarni

rohat deb qabul qilishga tayyor oshiqning ruhiy kechinmalari bayon qilinadi. So‘nggi band esa butunlay o‘zga ruhda bo‘lib, unda yor vaslidan umidvorlik tuyg‘ulari yetakchilik qiladi. Bu bandda endi oshiq yorni husn mamlakatining hokimi deb atab, uni ta’rif va tavsif qiladi, o‘z iltijolarining yorga ta’sir qilishiga ishonadi, Tangri uni yor maqdamiga yetkazishiga umid bildiradi. She’r so‘ngida Navoiy so‘z o‘yini vositasida har band oxirida takrorlanib kelayotgan quyidagi bayt (vosila bayt)ni endi takrorlashga hojat yo‘qligini aytadi:

Yodingni qilay harifi majlis,
Fikringni etay ko‘ngulga munis...

Navoiyshunoslikda ushbu tarji’band “Sevginoma” deb atalgan (A.Qayumov). Tarji’bandda hazaj bahrining hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (afoyili va taqti’i: maf’uvlu mafoilun fauvlun, – – *V*| *V* – *V* – | *V* – –*)* vazni qo‘llanilgan.

“Xazoyin ul-maoniy”dagi so‘nggi tarji’band “To xarobot aromen durdoshom” misrasi bilan boshlanadi. Hajman 10 band (har bandda 11 bayt), 110 baytdan iborat bo‘lib, “Favoyid ul-kibar” devoniga kiritilgan. Ushbu tarji’band tasavvufiy-falsafiy mazmunda bo‘lib, kulliyotga kiritilgan tarji’bandlarning xotimasiday yangraydi. Tarji’bandda *“dayr tomi uza bir buti sarv”*ni ko‘rgach, *“Shayx San’on kibi din tarki qilib, zuhd-u taqvodin istig‘for”* qilgan, tasavvufiy til bilan aytganda, *hol* darajasiga yetishgan oshiqning ruhiy kechinmalari bayon qilingan. Tarji’banddagi “but” – ya’ni ma’shuq oshiqning asosiy matlabi timsolidir, dayr esa – butxona, otashparastlar ibodatgohi bo‘lib, orif kishilar majlisini anglatadi. Ko‘ngil dayrini but xayoli bilan bezash – pir suhbatini qo‘msash demak. Din tarki qilib, zuhd-u taqvodan voz kechish ham ramziy mohiyatga ega bo‘lib, Ilohga yetish uchun barcha dunyoviylikdan, jumladan, dunyoviy ilmlardan xoli bo‘lish, aqldan va aqliy narsalardan qutulish, o‘zligini unutishga ishoradir. She’rning lirik qahramoni o‘z tabiati va ishqdagi martabasiga ko‘ra “Lison ut-tayr” dostonidagi *Shayx San’on* timsolini yodga soladi. Tarji’banddagi vosila bayt quyidagicha:

Yana mug‘ dayrig‘a kirdim sarmast,
May tut, ey mug‘bachai bodaparast!

Tarji'band ramal bahrining *ramali musaddasi maxbuni maqsur* (afoyili va taqti'i: foilotun failotun failon, – V – – / V V – – / V V–) vaznida yozilgan.

"Xazoyin ul-maoniy"da bitta **tarkibband** ham mavjud. Tarkibband "biriktirib bog'lamoq" ma'nosini bildirib, qofiyalanish tizimi va hajmiga ko'ra tarji'bandga yaqin turadi. Faqat undan farqli o'laroq, tarkibbandda har bandning maqta'si o'zaro qofiyalanuvchi va bir-birini takrorlamaydigan mustaqil baytlardan iborat bo'ladi. Alisher Navoiyning tarkibbandi marsiya yo'nalishida bo'lib, ustozi va do'sti Sayyid Hasan Ardasher xotirasiga bag'ishlangan. Tarkibbandda shoirning aziz insonidan ayrilishi tufayli vujudga kelgan qalb og'riqlari, dardli hissiyotlari, alam-u iztiroblari bayon qilinadi. Shoir, ayniqsa, Sayyid Hasan Ardasher vafot etgan vaqtda Hirotdan uzoqda bo'lganligi, u bilan vidolasha olmaganligidan cheksiz iztirob chekadi. Mazkur tarkibband "Navodir ush-shabob" devonidan o'rin olgan bo'lib, hajman 56 baytdan iborat va u quyidagi band bilan boshlanadi:

Dahr bog'iki jafo shoriidur har chamani,
Juz vafo ahlig'a sonchilmadi aning tikani.

Kimdakim dog'i vafo ko'rsa shahid aylamasa,
Lolasining ne uchun qong'a bo'yalmish kafani.

Poymol etmasa andinki kelur mehr isi,
Oyog' ostida nedin qoldi giyohi damani.

Safhai xotiri pok o'lmasa barbod andin,
Bas, ne sovrulmoq erurkim ko'rar aning samani.

Rostlar bo'lsa aning arsasida barxo'rdor,
Javrdin, bas, nega bebarlik erur sarvi fani.

Gar yaqin ahlini Mansur kebi qatl etmas,
Bas nedindur shajaru sunbuli doru rasani.

V-ar kamol ahli jaloyi vatan ermas andin,
Nega tufrog'dur ul akmali davron vatani.

Bahri urfon duri Sayyid Hasan ulkim aflok,
Yetti durji aro bir ko'rmadi andoq duri pok.

Tarkibband ramal bahrining *ramali musammani maxbuni mahzuf* vaznida (ruknlari va taqti'i: foilotun failotun failotun failun – V – – / V V – – / V V – –/ V V –) yozilgan.

"Xazoyin ul-maoniy"dan o'rin olgan bitta **masnaviy** ham Sayyid Hasan Ardasher nomi bilan bog'liq. Ma'lumki, masnaviy arabcha "ikkilik" ma'nosini bildirib, har bandi ikki misradan tarkib topuvchi va *a-a, b-b, d-d...* tarzida qofiyalanuvchi she'r turidir. Navoiy o'zining "Sab'ai sayyor" dostonida bu janrni alohida tavsiflab, uni "vase'" – keng maydon deb ataydi:

Masnaviykim, burun dedim oni,
So'zda keldi vase' maydoni.

Mumtoz adabiyotimiz tarixida yaratilgan masnaviylarni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin:

1) lirik masnaviy (shoirning lirik kechinmalari, his-tuyg'ulari ifoda etiladigan she'r shakli);

2) epik masnaviy yoki doston (syujet asosiga quriladigan katta hajmli asar).

"Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidan o'rin olgan masnaviy lirik masnaviy bo'lib, "G'aroyib us-sig'ar" devoniga kiritilgan. Masnaviy she'riy maktub tarzida yozilgan va hajman 148 baytdan iborat. Navoiyshunoslikda ushbu masnaviy tarjimai hol xususiyatiga egaligidan "Hasbi hol", noma janriga mansubligidan "Navoiyning Sayyid Hasanga she'riy maktubi" deb ham yuritiladi. Masnaviyda Alloh hamdi va Payg'ambar na'tidan so'ng Sayyid Hasan Ardasher shaxsiga ta'rif-u tahsinlar aytiladi, uning fazl-u kamoloti, vafodorligi va saxovati madh etiladi:

Vafo anga pesha, saxo anga fan,
Vafovu saxo koni Sayyid Hasan.

Keyingi baytlarda shoir maktub yozishdan asosiy maqsadini bayon qilib, uning boshiga musofirlik – Vatan tarki tushganligini ma'lum qiladi va ushbu safarning sabablari sifatida Xurosonda ijod qilish uchun imkoniyatning yo'qli-

gini, yurtdagi notinchlik va ilm egallashga bo‘lgan ehtiyojni sanab o‘tadi.

Unda shuningdek, so‘z ta’rifi, she’r va shoirlik, badiiy ijod bilan bog‘liq masalalar ham qalamga olingan. Masnaviy mutaqorib bahrining *mutaqoribi musammani mahzuf* (afoyili va taqti’i: fauvlun fauvlun fauvlun faal, *V – – | V – – | V – – | V –*) vaznida yozilgan.

“Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi navbatdagi janr **qasida**dir. Qasida arabcha “maqsad”, “niyat” ma’nolarini bildirib, biror tarixiy shaxs yoki voqeaga bag‘ishlab yoziladigan katta hajmli she’r turi hisoblanadi. Qasidalar hajman 12 baytdan bir necha yuz baytgacha bo‘lishi mumkin.

Qasida g‘azal singari *a-a, b-a, d-a, e-a* ... tarzida qofiyalanadi. Ayrim hollarda masnaviy singari qofiyalanishi ham mumkin. Qasida tuzilishiga ko‘ra 2 xil bo‘ladi:

1. Qasidai tom (to‘liq qasida) – bunda qasida to‘rt qismdan tarkib topadi:

a) nasib – lirik kirish (tabiat tasviri);

b) gurizgoh – nasib bilan madhni bog‘lovchi, 4-5 baytdan tashkil topuvchi qism;

s) madh – asosiy qism;

d) qasd – mamduh (madh etilayotgan shaxs)ga niyat va istaklar bildirilagan qism.

2. Qasidai mujarrada (chala qasida) – bunda faqat madh keltiriladi.

Qasidalar mavzusiga ko‘ra *vasf, madh, hajv, marsiya, munojot* va *falsafiy* qasidalarga bo‘linadi. Turkiy adabiyotdagi ilk qasida “Devonu lug‘otit turk”da “qo‘nug‘” shaklida uchraydi.

Alisher Navoiyning mazkur kulliyotga kirgan qasidasi “Hiloliya” bo‘lib, uchinchi devon “Badoyi’ ul-vasat”dan o‘rin olgan. Qasida tuzilishiga ko‘ra to‘liq, mavzusiga ko‘ra esa madh qasida hisoblanadi. Hajman 91 baytdan iborat. Qasida 1469-yilning 14-aprelida ramazon hayiti kuni yozib tugallangan va Husayn Boyqaroning taxtga chiqishi munosabati bilan o‘tkazilgan marosimda shohga taqdim etilgan. Qasidaning “Hiloliya” deb atalishiga sabab, shoir Husayn Boyqaroning taxtga o‘tirishini yangi chiqqan oy – hilolga qiyos qiladi.

Qasidaning kattagina, ya’ni uchdan ikki qismi kirish – nasib

va gurizgohdan tashkil topgan. "Hiloliya" quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Chun nihon qildi turunji mehr raxshon tal'atin,
Oshkor etti falak bir tavqi g'abg'ab hay'atin.

Qasidadagi nasib va gurizgoh muayyan syujet asosiga qurilgan. Unga ko'ra, shoir oydin oqshomlardan birida osmonga sayr qilib, u yerda yetti qavat falakda joylashgan sayyoralar – Oy, Utorud, Zuhra, Quyosh, Mirrix, Mushtariy, Zuhalni uchratadi. Ularning har biri shohning taxtga o'tirish marosimiga hozirlik ko'rayotgan edilar. Navoiy kotiblar homiysi Utorud huzuriga borganda, Utorud unga Husayn Boyqaro madhiga bag'ishlangan she'rini o'qib beradi. Uning matla'si quyidagicha edi:

Ey, sening qoshing qilib zohir yangi oy xijlatin,
V-ey, yuzung sharmanda aylab iydi akbar tal'atin.

Ushbu matla'ni eshitgan shoirning rashki kelib, o'zining ta'bi quvvatini ko'rsatib qo'yish maqsadida ushbu matla'ni o'qiydi:

K-ey qoshingning rashki aylab xam yangi oy qomatin,
Iydi ruxsoring qilib nobud bayram ziynatin.

Utorudni xijolatda qoldirgan shoir uyga kelib, shoh marosimiga tayyorgarlik ko'rayotgan va uni kutib o'tirgan yorini uchratadi. Yoriga o'zi va Utorud yozgan she'rlarning matla'sini o'qib beradi. She'riy musobaqadan chetda qolishni istamagan go'zal ham qo'liga qog'oz va qalam olib, quyidagi baytni yozadi:

K-ey, yuzung zohir qilib bayram sabohi safvatin,
Anda qoshing aylabon paydo yangi oy hay'atin.

Shoir har uchala baytni Husayn Boyqaro hukmiga havola qilganda, shoh ularni ma'qullaydi va o'zi ham ushbu matla'larga javob yozadi:

K-ey, hiloling mayli aylab toq ko'nglum toqatin,
Jon berib, yod aylagach iydi visoling jannatin.

Shu bilan nasib va gurizgoh tugab, qasidaning asosiy qismi – madh boshlanadi. Madhda Husayn Boyqaro "shohlarning shohi" deb ta'riflanib, Navoiy o'zi orzu qilgan surati shoh-u siyrati

darveshi hukmdorni Husayn Boyqaro siymosida ko'rishni istaydi. Uning adolati, saxovati, tab'i nazmi, janglardagi shijoatini baland pardalarda tasvirlaydi; tashbih, istiora, talmih, mubolag'a san'atlari vositasida shoh timsolining betakror namunasini yaratadi. Qasidaning so'nggi to'rt bayti qasd (xotima)ni o'z ichiga olib, shoir Husayn Boyqaroga niyat bildiradi: unga saodatli va uzoq umr tilaydi, yangi oy va hayit bayrami uning ikki qulluq qiluvchisi bo'lishiga umid bildiradi. Qasida janrga xos *aa-ba-da...* tarzidagi qofiyalanish tizimiga ega, lekin ba'zi o'rinlar, xususan Utorud, shoir, ma'shuqa va Husayn Boyqaro tilidan matla'lari keltirilgan baytlar *aa* shaklida qofiyalangan, bu jihat bevosita Navoiyning turkiy tildagi qasida janriga kiritgan yangiligidir.

"Hiloliya" qasidasi Salmon Sovajiyning yangi oy ta'rifida yozilgan qasidalari uslubida va Zahir Foryobiyning shu nomdagi qasidasi ta'sirida yozilgan bo'lib, unda ramal bahrining *ramali musammani mahzuf* (afoyili va taqti'i: foilotun foilotun foilotun foilun, – V – – / – V – – / – V – – / – V –) vazni qo'llanilgan.

"Xazoyin ul-maoniy"da katta hajmli she'rlardan **soqiynoma** ham uchraydi. Ma'lumki, soqiynoma soqiy (may quyuvchi)ga murojaat tarzida yozilgan, masnaviy shaklida qofiyalanadigan katta hajmli she'r bo'lib, bir necha bandni o'z ichiga oladi. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida bitta soqiynoma mavjud bo'lib, "Favoyid ul-kibar" devoni tarkibiga kiritilgan. Alisher Navoiy soqiynomasi turli hajmdagi 32 qism(band)dan iborat. Jami 458 baytni o'z ichiga oladi. Birinchi band hajman ancha katta (41 bayt) bo'lib, quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Soqiyo, tut qadahi shohona,
Qatrasi la'l, vale yakdona...

Ushbu band dunyoning foniyligi, falakning bevafoligi tasviriga bag'ishlangan. Keyingi bandlar Husayn Boyqaro va shahzodalar ta'rifi haqida. 21-bandga kelib, Alisher Navoiy o'zining marhum ikki habibi Mirzobek va Mir Darveshni iztirob bilan yodga oladi:

Biri ham yor manga, ham farzand,
Jong'a orom-u yurakka payvand.
Biri hamsuhbat-u hamdard-u rafiq,
Tuqqanimdin dog'i yuz qatla shafiq.

22–23-bandlarda Navoiyning ijodkor do‘sti Shayxim Suhayliy va u yaratgan qasidalar, 25-bandda Abdurahmon Jomiy, 26-bandda Sayyid Hasan Ardasher, 27-bandda Pahlavon Muhammadlar haqida so‘z boradi. 28-band ishq ta’rifiga bag‘ishlangan[41]. 29-band esa vafo ta’rifi haqida bo‘lib, shoir olam ahlida vafo yo‘qligi to‘g‘risida shunday yozadi:

Olam ahlida chu yo‘q ahli vafo,
Aylaram men dag‘i jonimg‘a jafo.

30–31-bandlar Alisher Navoiyning do‘stlari: Piri Muammoiy, Xoja Kamol, Mir Sadr, Yor Tanbal, Olim Sabzoriy, Mir Atoyi, Fanoyi, Osafiy Hiraviy, Binoiy, Sultonali Mashhadiy, Kotibiylar ta’rifiga bag‘ishlangan bo‘lib, Alisher Navoiy qolgan do‘stlarini “Majolis un-nafois”da zikr etib o‘tganligini ta’kidlaydi:

O‘zgasin qilmadim andin mazkur,
Ki “Majolis”da erurlar mastur.

Soqiynomaning so‘nggi 32-bandi hazrat Navoiyning soqiyga murojaat qilib, uni rindlar bazmiga kiritishini so‘rab qilgan istak, iltijosi bilan boshlanib, rindlar shohi Sulton Abulg‘oziy Husayn Boyqaro ta’rifi va unga umrboqiylik tilagini bildirish bilan yakunlanadi.

Soqiynoma shoir fikrlarining yorqin ifodasi uchun xizmat qilgan o‘ziga xos uslubga ega. Har bir band soqiyga murojaat bilan boshlanish asnosida ushbu boshlanmada bandning mundarijasiga aloqador bo‘lgan imo-ishoralar ham keltirib o‘tiladiki, natijada baroati istehlol san’atining betakror namunasi vujudga keladi. Soqiynoma ramal bahrining *ramali musaddasi maxbuni maqtu’* yoki *mahzuf (ruknlari va taqti’i: foilotun failotun fa’lun* yoki *failun* – V – – / V V – – / – – yoki VV –) vaznida yaratilgan[42].

“Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida **qit’a** janri ham yetakchi o‘rinni egallaydi. Qit’a *(ar. “parcha”, “bo‘lak”, “qism”)* 2 bayt-

[41] Akademik Aziz Qayumov ushbu bandni “Sevginoma II” deb ataydi.

[42] Aslida ramali maxbun vazni sakkizta ritmik variatsiyadan iborat bo‘lib, bu ritmik variatsiyalar soqiynoma misralarida o‘zaro almashinib qo‘llanilgan. Ritmik variatsiyalar tarkibidagi o‘zgarishlar, asosan, birinchi va uchinchi rukndagi bo‘g‘inlar sifatini o‘zgartirish hisobiga ro‘y berib, ikkinchi rukn o‘zgarishsiz qolaveradi. Bunda birinchi rukn *foilotun* yoki *failotun*, uchinchi rukn esa *failun, failon, fa’lun, fa’lon* tarzida o‘zaro almashinib qo‘llanaverishi mumkin.

dan bir necha baytgacha hajmda bo'lgan, faqat juft misralari qofiyalanadigan (*ba . da. ca* ...) baytli she'r shakli hisoblanadi. Turkiy adabiyotda qit'aning ilk namunalari Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida uchraydi[43].

Qit'a, asosan, falsafiy, ijtimoiy va axloq-odob bilan bog'liq mavzularda yaratilgan. Shuningdek, qit'a nasriy asarlarda ma'lum bir masala haqidagi fikr-mulohazalarga yakun sifatida "qissadan hisse" tarzida keltirilgan.

Alisher Navoiy qit'alarini mavzusiga ko'ra shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1) ijtimoiy hayot masalalari aks etgan falsafiy-axloqiy mazmundagi qit'alar:

Qalbqda asra garonmoya so'zniyu fikr et
Ki, durrda a'lo, ne bo'lg'usidur sadaf holi.

So'zungni dag'i ko'ngul ichra asrag'ilkim, hayf
Kim, ayla durjni guhardin etkasen xoliy.

Bu durju ikki sadafni to'la dur etkanga,
Zihiy uluvvi guhar, balki gavhari oliy.

2) muayyan davr voqea-hodisalari hamda u yoki bu guruh vakillari faoliyati haqidagi qit'alar:

Falon kotib ar xatni mundoq yozar,
Bu mansabdin ani qo'parmoq kerak.

Yuzin nomasidek qora aylabon,
Qalamdek boshin dag'i yormoq kerak.

Kulliyotdagi qit'alarda ularning g'oyasini ifodalovchi sarlavhalar qo'yilgan. Masalan, yuqoridagi qit'a matnni xato ko'chiruvchi kotiblar haqida bo'lib, uning sarlavhasi quyidagicha:

"G'alat bitir kotib bobida qalam surmagu qorasining g'alatin yuziga kelturmak".

---

[43] Adabiyotshunoslikda turkiy adabiyotdagi ilk qit'a Xorazmiy "Muhabbatnoma"sida uchraydi degan qarash bor. "Qisasi Rabg'uziy"dagi she'riy parchalarning janr xususiyatlarini o'rganish natijalari asarda qit'a janriga mos keluvchi she'rlar mavjudligini ko'rsatdi.

Mumtoz she'rshunoslik mezonlariga ko'ra, qit'ada taxallus qo'llanilishi shart bo'lmagan. Lekin Navoiyning ayrim qit'alarida, xususan, hajmi 7 bayt va undan ortiq bo'lgan qit'alarda shoir taxallusi keltirilgan. Masalan, "G'aroyib us-sig'ar"dan 7-raqam ostida o'rin olgan va "Qanoat naqshining ifshosi-yu naqshbandiya tariqining adosi" deb sarlavha qo'yilgan qit'a 11 baytdan iborat bo'lib, uning so'nggi baytida quyidagicha taxallus keltirilgan:

Bu ohang ila bo'lg'asen naqshband,
Navoiy, agar yetsa navbat sanga.

Navoiy qit'alarida taxallus ba'zan birinchi baytda keltirilganligini ham kuzatish mumkin:

Ey Navoiy, olam ahlida tama'siz yo'q kishi,
Har kishida bu sifat yo'qtur, anga bo'lg'ay sharaf.

Sen agar tarki tama' qilsang, ulug' ishdur bukim,
Olam ahli barcha bo'lg'ay bir taraf, sen bir taraf.

("Badoyi' ul-vasat", 43-qit'a)

Qit'alar ba'zan *aa, bb, dd* tarzida ham qofiyalanishi mumkin. "Xazoyin ul-maoniy"ga kiritilgan 210 qit'adan 6 tasi aynan shu tarzda qofiyalangan. ("G'aroyib us-sig'ar"dagi 41-qit'a; "Badoyi' ul-vasat"dagi 3-, 18-, 52-qit'alar, "Favoyid ul-kibar"dagi 42-, 44-qit'alar). Adabiyotshunoslikda ularni qit'adan ko'ra masnaviy deb atash to'g'riroq, degan fikr bildirilgan (Y.Is'hoqov).

"Badoyi' ul-vasat"dagi 18-qit'aning qofiyalanishi quyidagicha:

Biyik himmatlik elga arzi ***hol et,*** *a*
Zamiri nurposh eldin ***savol et.*** *a*
Ki bor abri bahori ***gavharafshon,*** *b*
Choqin ham olam ahlig'a ***zarafshon.*** *b*

"Xazoyin ul-maoniy"da **ruboiy** janrining ham o'ziga xos o'rni bor. Ruboiy *(ar. "to'rtlik")* ikki baytdan iborat mustaqil she'r bo'lib, dastlab fors-tojik she'riyatida, Abu Abdulloh Rudakiy ijodida paydo bo'lgan. Turkiy adabiyotda ruboiy janrining dastlabki namunalari Hofiz Xorazmiy devonida uchraydi. Uning jami 12 ta ruboiysi mavjud. Ruboiyning 2 xil turi bor:

1) ruboiyi xasiy (erkin ruboiy) (qofiyalanishi: a-a, b-a):

Sen borg'ali ortmish ko'ngul zorlig'i,
Oh o'qlaridin har nafas afgorlig'i.
Bilman unutulg'anmu ekandur manga hajr,
Yo ko'prak erur bu qatla dushvorlig'i.

2) ruboyi musarra' yoki ziynatlangan ruboiy (qofiyalanishi: a-a, a-a):

Ollimda tabibi chorasozim ham yo'q,
Yonimda rafiqi dilnavozim ham yo'q.
Tegramda anisi jongudozim ham yo'q,
Boshimda shahi bandanavozim ham yo'q.

Ruboiy muayyan kompozitsiyaga ega bo'lib, unda mumtoz ruboiy talablariga ko'ra, to'rt unsur mavjud bo'ladi. Mazkur unsurlar to'rt misrada aytilmoqchi bo'lgan falsafiy, axloqiy yoki didaktik fikrning ma'lum bir yaxlitlikka erishishini ta'minlaydi. Shu ma'noda to'rt misrani quyidagi unsurlarga taqsimlash mumkin:

1) tezis – unda ruboiyda aytilmoqchi bo'lgan fikr, boshqacha aytganda ruboiy mavzusi bayon qilingan bo'ladi;

2) antitezis – bunda birinchi misraga qarama-qarshi fikr aytiladi;

3) moddai ruboiy – to'rtinchi misrada aytilmoqchi bo'lgan fikr uchun ko'prik vazifasini o'taydi;

4) sintez – xulosa.

Lekin bu unsurlarning doimiy mavjud bo'lish talabi nisbiy bo'lib, ko'pincha tezis va antitezisning o'rniga faqat moddai ruboiy va sintezning qo'llanilganligini kuzatish mumkin. Yuqorida keltirilgan ruboiyda ham oshiq kechinmalari, asosan, moddai ruboiy tarzida berilgan.

Ruboiy o'ziga xos maxsus vaznda yoziladi. Bu hazaj bahrining axrab va axram shajarasidir. Bu haqda Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida shunday yozadi:

"*Ruboiy vaznikim, oni "dubaytiy" va "tarona" ham derlar, hazaj bahrining "axram" va "axrab"idin istixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xushoyanda va vaznedur bag'oyat raboyanda*". Hazaj bahrining axrab shajarasi 12 vaznni, axram shajarasi yana 12 vaznni o'z ichiga oladi va ushbu jami 24 vazn ruboiy vaznlari hisoblanadi. Ruboiyning she'riy o'lchovi bilan bog'liq muhim xususiyat shundaki, boshqa she'riy janrlardan farqli

o‘laroq ruboiyning to‘rt misrasi mazkur shajaralarga mansub 4 vaznda yozilishi mumkin. Masalan, Alisher Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi 45-ruboiyni taqti’i bilan birga ko‘rsak:

Olam bor emish, Navoiyyo sho‘rangiz,
– – V / V – V – / V – – – / ~
Olamdagi el boshtin ayog‘ rangomiz.
– – V/ V – – V / V – – – / ~
Ishq istar emish seni adam Misri sari,
– – V / V – V – /V – – V / V –
Borg‘ilki, erur el tilagan yerda aziz.
– – V / V – – V / V – – V / V ~

Yuqoridagi chizmadan ma’lum bo‘lyaptiki, mazkur ruboiyning har bir misrasi alohida vaznda yozilgan ekan.

Navoiy ruboiylarining mavzu ko‘lami keng bo‘lib, ular ishqiy, ijtimoiy, shoir hayotiga aloqador bo‘lgan hijron mavzusi va boshqalardan iborat. Biroq ruboiy janri talablaridan kelib chiqilsa, ruboiy qaysi mavzuda bo‘lishidan qat’i nazar, avvalo, u falsafiy mohiyatga ega bo‘lishi zarur. Shu ma’noda Navoiy ruboiylarida jamiyat hayotidagi muhim masalalar badiiy-falsafiy talqin etiladi. Ruboiylarning muayyan qismida shoir o‘z hayotidagi konkret voqealarga murojaat qiladi. Biroq shoir voqelikning o‘zini emas, balki shu konkret voqelik bilan bog‘liq holda o‘zining umumlashma fikrlarini – tiriklikka, olam va odamga, jamiyatga munosabatini badiiy obraz va xilma-xil detallar yordamida badiiy aks ettiradi. Shoirning 1465-yilgacha bo‘lgan davrda yozilgan (bu ruboiy “Ilk devon”da uchraydi) va o‘z sharhi holidek yangraydigan quyidagi ruboiysida (77-ruboiy) ham falsafiy mazmun ustuvor:

Yo‘q dahrda bir besar-u somon mendek,
O‘z holig‘a sargashtavu hayron mendek.
G‘am ko‘yida xonumoni vayron mendek,
Ya’niki, aloxon-u alomon mendek.

Alisher Navoiy turkiy adabiyotda birinchi bo‘lib musarra’ ruboiy janrida ijod qildi (“Xazoyin ul-maoniy”dagi 133 ta ruboiydan 116 tasi musarra’ ruboiy hisoblanadi), ruboiy janrining mavzu doirasini kengaytirib, ma’rifiy mazmun bilan

boyitdi, falsafiy mohiyatini kuchaytirdi – hayotiy masala va muammolarga bog'lab hayotga yaqinlashtirdi, ruboiyni turkiy she'riyatda g'azal kabi faol janr darajasiga olib chiqdi.

Muammo *(ar. "ko'r qilingan", "berkitilgan")* – bir, ba'zan esa ikki baytdan iborat mustaqil she'r bo'lib, *a-a* yoki *a-b* tarzida qofiyalanadi. Muammoda biror ism yoki narsa-buyum nomi berkitiladi. Berkitilgan so'z shoirning turli-tuman ishoralari: ma'nodosh yoki shakldosh so'zlarni topish, bir tildagi so'zning ikkinchi bir tildagi muodili (ekvivalenti)ni qo'llash, so'zlardagi ma'lum bir harflarni tizib, yangi so'z yasash, ba'zan esa abjad hisobini ishlatib, raqamlar asosida so'z tuzish va boshqalar asosida topiladi. Muammoni yechish uchun dastavval asosiy e'tiborni matnda ishora qilingan kalit so'zga qaratish lozim bo'ladi.

Turkiy adabiyotda muammo janri Alisher Navoiy ijodidan boshlangan. Uning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida 52 ta muammo mavjud bo'lib, ularning barchasi kulliyotdagi ikkinchi devon "Navodir ush-shabob"ga kiritilgan. Alisher Navoiy muammolari asosan bir baytli bo'lib, faqat "Qosim" va "Zahir" ismlariga bitilgan muammolar 2 baytdan iborat.

Navoiyning ba'zi muammolarini ko'rib chiqsak:

Qasdi jonimg'a chu mujgoning ikki ***saf*** *tuzdi,*
Biri qosh yosi, biri g'amzang o'qin ko'rguzdi.

Bu muammoda kalit so'z "صف" – "saf" jumlasi orqali ko'rsatilgan, matnda bu so'z "ikki" so'zi bilan keltirilishi uning yechimi ham ikkita ekanligiga ishora qiladi. Birinchi "saf"ga qosh yosi, ya'ni "ى" "yoy" (i) harfi, ikkinchisiga g'amza o'qi, ya'ni "ا" "alif" (o) harfi qo'shiladi va natijada "صفى" – "Safi" va "صفا" – "Safo" so'zlari kelib chiqadi.

Qilur esang manga ***somon*** *ayo rafiq havas,*
Aning ayog'ig'a yetkur mening boshimni-yu bas.

Bu muammoda asosiy e'tibor "سامان" – "somon" (osoyishtalik) so'ziga qaratilgan. Ikkinchi misradagi "aning ayog'iga boshimni yetkur" jumlasidagi ishoraga ko'ra, "ا" – *"alif"* (o)ning oyog'i, ya'ni pastki kismiga "م" – *"mim"* (m)ning boshini yetkazish talab qilinadi, natijada "ا" – *"alif"* harfi "ل" – *"lom"* harfiga aylanib, "م" – *"mim"*ga qo'shiladi va "سلمان"– "Salmon" so'zi kelib chiqadi.

Alisher Navoiyning mazkur janr nazariyasiga bag‘ishlangan maxsus asari ham mavjud bo‘lib, fors-tojik tilida yozilgan. Asar “Mufradot” yoki “Risolai muammo” deb ataladi.

“Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida navbatdagi janr **l u g ‘ z** bo‘lib, arabcha “topishmoq”, “sir” ma’nolarini anglatadi. Lug‘z fors-tojik adabiyotida *chiston* (forscha “nima u”) deb ham yuritiladi. Lug‘z biror predmet yoki hodisaning xarakter va belgilarini ta’rif-u tavsif etish orqali kitobxonni o‘sha predmet yoki hodisani topishga undaydigan she’r turidir. Lug‘z dastavval xalq og‘zaki ijodida vujudga kelgan bo‘lib, X–XII asrlardan boshlab fors-tojik she’riyatida istifoda etila boshlagan. Lug‘zlar g‘azal, ruboiy va tuyuq kabi hajm, qofiya va boshqa shakliy jihatlardan qat’iy qonuniyatga ega emas. Ular fard, ruboiy, qit’a va ba’zan g‘azal singari qofiyalanishi mumkin.

Turkiy adabiyotda lug‘zning ilk namunalari Alisher Navoiy ijodida uchraydi. Shoirning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida jami 10 ta lug‘z mavjud bo‘lib, barchasi “Badoyi’ ul-vasat” devoniga kiritilgan. Mazkur janrdagi she’rlarida Navoiy o‘z atrofini o‘rab turgan predmetlarni ijtimoiy munosabatlar va turmush hodisalari bilan bog‘liq holda nozik yumor bilan tasvirlaydi. Navoiy lug‘zlari asosan qit’a (8 tasi) va ruboiy (2 tasi) singari qofiyalangan. Masalan, uning “parvona” tasviriga bag‘ishlangan lug‘zi musarra’i ruboiy shaklidadir:

Ul qushki, taashshuqdurur andisha anga,
Bir naxlg‘akim shomdadur besha anga.
Shoxi uchidin ayon bo‘lub resha anga,
Gul ochmaq o‘shul reshasidin pesha anga.

Tuyuq *(turk. “his qilmoq”, “tuymoq”)* – to‘rt misradan iborat mustaqil she’r shakli bo‘lib, faqat turkiy xalqlar she’riyatida qo‘llanilgan. Tuyuq, asosan, ruboiy singari qofiyalanadi, lekin ba’zan *ba, da* tarzida ham qofiyalanishi mumkin. Ruboiydan farqli o‘laroq tuyuqda qofiyaning o‘rnida asosan tajnis (shakldosh so‘zlar) qo‘llaniladi. Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida mazkur janrning xususiyatlari haqida shunday yozadi: *“...Birisi “tuyug‘” durkim, ikki baytqa muqarrardur va sa’y qilurlarkim, tajnis aytilg‘ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur, mundoqkim (tuyug‘):*

Yo rab, ul shahd-u shakar yo lab murur?
Yo magar shahd-u shakar yolabmurur?
Foilotun foilotun foilon
Jonima payvasta novak otqoli,
G'amza o'qin qoshig'a yolabmudur?
Foilotun foilotun foilon"

Bu o'rinda Alisher Navoiy tuyuqning uch jihatiga: ikki baytli bo'lishi, tajnisga asoslanishi va maxsus vaznda – ramali musaddasi maqsur (mahzuf)da yozilishiga diqqat qaratyapti. Bobur "Muxtasar"da tuyuqning nav'lari haqida gapirib, tajnissiz tuyuq ham mavjud bo'lishini aytadi.

Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida jami 13 tuyuq mavjud bo'lib, 11 tasi *aa ba*, 2 tasi *ba da* tarzida qofiyalangan. Barcha tuyuqlar "Badoyi' ul-vasat" devoniga kiritilgan.

Turkiy adabiyotdagi dastlabki tuyuq Lutfiy devonida uchraydi, lekin N.Mallayevning yozishicha, turkiy adabiyotda tuyuqning ilk namunalari Burhoniddin Sivosiy tomonidan yaratilgan.

"Xazoyin ul-maoniy"ni yakunlovchi janr **fard** bo'lib, (ar. "yakka", "yolg'iz") bir baytdangina iborat eng kichik mustaqil she'r shakli hisoblanadi. Fard *a-a* yoki *a-b* tarzida qofiyalanadi. Fard bir baytdangina iborat bo'lsa-da, unda muhim falsafiy-axloqiy masala qalamga olinib, ixcham poetik xulosa ifodalanadi. Shu ma'noda fardlar ko'pincha aforizm xarakteriga ega bo'ladi:

G'ofil o'lma, nazardin itsa adu,
Sham' o'churganda, yel ko'rinurmu...

Turkiy adabiyotda fardning ilk namunasi Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asarida uchraydi.

Alisher Navoiy fardlari ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta'limiy masalalarga bag'ishlangan bo'lib, badiiy jihatdan yuksak she'r namunalaridir. Ularda *iyhom, husni ta'lil, tamsil, irsoli masal, tashbih* kabi san'atlar mohirlik bilan qo'llanilgan. Masalan, quyidagi fardda "dam urmoq" jumlasi vositasida ikki ma'no: *nafas chiqarmoq* va *gapirmoq* ma'nolari anglashilyapti va bu orqali iyhom san'ati vujudga keltirilgan:

Kishi aybing desa dam urmag'ilkim, ul erur ko'zgu,
Chu ko'zgu tiyra bo'ldi, o'zga aybing zohir aylarmu?
("Favoyid ul-kibar", 29-fard)

Shuningdek, mazkur fardga "Musulmon musulmonga ko'zgudir" degan hadis mazmuni ham ustalik bilan singdirilgan.

Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy"sida 86 ta fard mavjud bo'lib, 82 tasi qofiyali, 4 tasi esa qofiyasizdir. Fardlarning barchasi "Favoyid ul-kibar" devoniga kiritilgan. Navoiy fardlari shoirning hayotiy tajribalari mahsuli bo'lmish chuqur mushohadalari va mantiqiy xulosalarini o'zida aks ettirish bilan birga, shoir she'riy dahosining ayrim qirralari haqida muayyan tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Quyidagi fardda shoirning davr va olam ahli haqidagi falsafiy qarashlari o'z ifodasini topgan:

Istasangkim, ko'rmagaysen bevafolig', ey rafiq,
Qilma olam ahli birla oshnolig', ey rafiq.

(26-fard)

Tayanch tushunchalar

baytli she'r shakli
g'azal
musajja'
muraddaf g'azal
mustazod
ruboiy
ruboiyi xasiy
musarra' ruboiy
tuyuq
qit'a
qasida
qasidai mujarrada
qasidai tom
muxammas
tab'i xud muxammas
o'z g'azaliga taxmis
taxmis
musaddas
tasdis
soqiynoma
tarkibband
tarji'band
masnaviy
lug'z
qit'a



Savol va topshiriqlar

1. Alisher Navoiygacha ijod qilgan turkiy shoirlar devonida qanday janrdagi she'rlar mavjud edi?

2. Navoiyning poshlik lirikasiga xos lirik janrlar haqida ma'lumot bering.

3. "Nazoyin ul-maoniy"da mavjud janrlarni sharhlashga harakat qiling.

4. Alisher Navoiy yaratgan g'azallarni ma'no jihatdan qanday guruhlarga bo'lish mumkin?

5. Tarkibband va tarji'band janrlarini qaysi janriy belgilarga ko'ra farqlash mumkin?

6. Masnaviy janr va shakl sifatida namoyon bo'lganda ularni qanday belgilar bilan farqlash mumkin deb o'ylaysiz?

7. Kulliyotdagi kichik lirik janrlarga tavsif bering.

8. Devondan o'zingizga yoqqan biror g'azalni yod oling va uni g'oyaviy-badiiy jihatdan sharhlang.

ADABIYOTLAR:

Matn va manbalar:

1. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний (Илмий-танқидий текст асосида нашрга тайёрловчи Ҳ.Сулаймонов). 4 жилдлик. 1-4-ж. – Т.: Фан, 1959-1960.

2. Алишер Навоий. Илк девон. 1466 йил кўчирилган қўлёзманинг факсимил нашри (Нашрга таёрл. Ҳ.Сулаймон). – Т.: Фан, 1968.

3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1987–1988. 1-2-ж.

4. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1988–1990. 3-6– ж.

5. Алишер Навоий. Айёми висол ўлди яна: Янги топилган газаллар (Нашрга тайёрл. Ф.Сулаймонова). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995.

6. Алишер Навоий. Xazoyin ul-maoniy. Нашрга тайёрл. О.Давлатов. Тўрт жилдлик. – Т.: TAMADDUN, 2011. 1–4-ж.

7. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. 1–4-ж.

8. Алишер Навоий. Оққуюнли мухлислар девони. 1471 йилда кўчирилган қўлёзманинг факсимил нашри (Нашрга таёрловчи

А.Эркинов / Ali Shir Navai. Divan of the Aq qoyunli Admirers (1471). Tokyo, 2015.



Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

9. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1 – 2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.

10. Алишер Навоий ва XXI аср (Республика илмий-назарий анжумани материаллари). – Т.: TAMADDUN, 2017.

11. Абдуғафуров А. "Хазойин ул-маоний"дан четда қолган ғазаллар // Навоийнинг ижод олами (мақолалар тўплами). – Т.: Фан, 2001.

12. Исҳоқов Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси: Филол. фан. номз. дис... – Т., 1963.

13. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т. : Фан, 1983.

14. Эркинов А. Навоийнинг мухлислари томонидан тузилган яна бир девони // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: Фан, 2012. – №1.

15. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. 2-жилд (XV асрнинг иккинчи ярми). – Т.: Фан, 1977.

16. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т.: O'zbekiston, 2016.

"DEVONI FONIY" POETIKASI

Reja:

1. "Devoni Foniy"ning tarkibiy tuzilishiga xos xususiyatlar.

2. Devondagi g'azallarning yaratilish xususiyatlari.

3. Musaddas va tarkibband janrlari.

4. "Sittai zaruriya" – qasidalar majmuasi sifatida. Qasidalarda tasavvufiy timsollar va salaflarga munosabat masalasi.

5. "Fusuli arbaa"da to'rt fasl talqini va Husayn Boyqaro timsoli.

6. Ta'rix va lug'z janrlarining badiiyati.

Zullisonaynlik Sharq she'riyati tarixida qadimiy an'analardan. XI asrda yaratilgan Saolibiyning "Yatimat ud-dahr" tazkirasida 119 ta zullisonayn shoir haqida ma'lumot berilgan. Ammo bu adiblarning iqtidori asosan bir tilda (ko'pincha o'z ona tilida) namoyon bo'lgan. Alisher Navoiyning ikki tilda barakali ijod qilgani, ham turkiy, ham forsiy adabiyotda mumtoz shoir, so'z san'atining ustozi maqomiga erishgani, "Foniy" taxallusi bilan yaratgan forsiy she'rlari nafaqat badiiy adabiyot vakillari, balki forsiyzabon xalqlar orasida ham katta shuhrat qozongani buyuk mutafakkir adabiy merosining jahonshumul ahamiyatini ko'rsatuvchi dalillardan biridir.

Navoiy "Majolis un-nafois"da dastlab yod olgan g'azali Sayyid Qosim Anvorning "Rindem-u oshiqem-u jahonso'z-u jomachok..." satri bilan boshlanadigan g'azali ekanligini qayd qilsa, "Lison ut-tayr"da bolalik payti Shayx Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlari bo'yicha ta'lim olganini, ayniqsa, Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostoni uni o'ziga oshufta qilganini alohida muhabbat bilan xotirlaydi. Fors adabiyotiga bo'lgan muhabbat uning bir umrlik hamrohiga aylandi.

"Muhokamat ul-lug'atayn"da yozilishicha, Navoiyning dastlabki mashqlari fors tilida bo'lgan: *"Bu xoksorga sabovat avoilidakim, og'iz huqqasidin biror gavhar zohir bo'la boshlar, ul gavharlar hanuz nazm silkiga kirmaydur erdikim, zamir*

daryosidin nazm silkiga tortilg'on gavharlar tab' g'avvosi sa'y bila og'iz sohiliga kela boshlamoq ko'rguzub erdi. Chun mazkur bo'lg'on qoida bilakim, ado topti – mayl forsiy sari bo'ldi". Bu mayl va ishtiyoq Navoiyning umri oxirigacha davom etdi, natijada g'azal, musaddas, tarkibband – marsiya, qit'a, ruboiy, ta'rix, muammo, lug'z va qasidadan iborat bo'lgan devon bizgacha yetib keldi.

"Devoni Foniy" o'z tuzilishiga ko'ra "Xazoyin ul-maoniy" tarkibidagi devonlardan bir necha xususiyatlari bilan farq qiladi:

– "Xazoyin ul-maoniy" lirik asarlar kulliyoti tarkibidagi devonlar umrning to'rt fasliga muvofiq nomlangan bo'lib, she'rlarda muayyan tarzdagi xronologiya ko'zga tashlanadi. "Devoni Foniy"dan esa she'rlarning xronologiyasi haqida ma'lumot topish dushvor;

– "Xazoyin ul-maoniy" mufassal debocha bilan boshlanib, unda shoir o'z ijodiy laboratoriyasi, devonning tuzilishi va tarkibi haqida ma'lumot beradi. "Devoni Foniy"ning bizgacha yetib kelgan nusxalarida esa debocha yo'q;

– "Badoyi' ul-bidoya"ning debochasida keltirilishicha, turkiy tildagi devonlarda an'anadagi arabcha 28 harfga qo'shimcha ravishda fors va o'zbek tillariga xos bo'lgan "chim", "je", "gof" va "lom-alif" harflari bilan tugaydigan g'azallar ham o'rin olgan. "Devoni Foniy"da esa bu holat kuzatilmaydi;

– "Xazoyin ul-maoniy"dagi devonlardan har bir harf turkumidagi g'azallarning boshlanishida hamd, na't, mav'iza yo irfon mavzusidagi she'rlar joy olgan. "Devoni Foniy"da esa, bu tartibga rioya qilinmagan (faqat "alif", "te", "jim", "kof" harfidagi turkum g'azallar bundan mustasno);

– "Devoni Foniy"dagi g'azallar o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra "Na't", "Tatabbu'", "Tavr", "Javobiya", "Muxtara'" (yo "Ixtiro'") kabi turlarga tasniflangan hamda har bir g'azalga alohida sarlavha qo'yilgan. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida esa, har bir harf turkumi uchun alohida nasriy sarlavha yozilgan;

– "Devoni Foniy"da turkiy devonlarga qaraganda janrlar xilma-xilligi kamroq. "Xazoyin ul-maoniy" tarkibiga 16 janrdagi she'rlar kirgan bo'lsa, "Devoni Foniy"da shoir 9 ta janrda qalam tebratadi. Bulardan ta'rix janri "Xazoyin ul-maoniy" tarkibida uchramaydi.

"Devoni Foniy"dagi g'azallar ning asosiy qismini **tatab-**

bu'lar tashkil etadi. Tatabbu' arabcha so‘z bo‘lib, biror narsaning izidan borish; "tadqiq va tahlil"; "izdoshlik qilish" kabi ma'nolarni anglatadi. Adabiy istiloh sifatida biror shoir she'ridan ta'sirlanib, undagi vazn, qofiya, radif va obrazlar tizimini saqlagan holda yaratilgan asarga nisbatan qo‘llaniladi. Sharq she'riyatida oldingi yoki zamondosh shoirlar she'riga javob aytish, muayyan she'riy "qolip"da adabiy mahorat va ijodkorlik iqtidorini namoyish etish go‘zal an'analardan hisoblanadi. Umuman, ijod jarayonida bir-biridan ta'sirlanish, ijodiy yutuqlardan bahramand bo‘lish hamda yangi topilma va ifoda vositalari yordamida rivojlanishning yangi cho‘qqisiga olib chiqish ijod jarayonining barcha turlari uchun umumiy holatdir. Foniy ham ijodiy hayotining barcha bosqichlarida doimiy o‘rganish va izlanishda bo‘lib, forsiy she'riyatning yetuk vakillari – Sa'diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiylar bilan bir qatorda Ahmad Hojibek Vafoiy, Amir Shayxim Suhayliy, Husayniy (Husayn Boyqaro) kabi zullisonayn zamondoshlarining forsiy g‘azallarining payravligida (jami 16 shoir) yangi g‘azallar bitdi. Bundan ma'lum bo‘ladiki, Foniy tatabbu' yozishda muayyan shoirga ergashishi emas, balki ma'lum bir she'rdagi ijodiy yangilik va topilmalarni rivojlantirishni maqsad qilgan.

Tatabbu'larning asosiy qismi Xoja Hofiz Sheroziy g‘azallariga bog‘langan. Bu tatabbu'larda rind, boda, soqiy, piri mug‘on, dayr, xirqa, voiz, muhtasib kabi Hofiz g‘azallariga xos bo‘lgan obraz va timsollar imkoniyatlaridan samarali foydalanilgan. Foniy yaratgan rind ham Xoja Hofiz g‘azallaridagi rind kabi oshiqpesha, ayyor, hayotsevar, qo‘rqmas, mast-u mustag‘raq. Bu rind riyokorlik va ikkiyuzlamachilik, jamiyatning rasm-rusumlarni pisand etmaydigan, dunyoga muhabbat ko‘zi bilan qaraydigan va olamda faqat Ishq tufayli yashash mumkinligiga iymon keltirgan, ikki olamning foyda-zararini yorning bir iltifotiga qurbon qilishga tayyor bo‘lgan fidoyi bir zot. Hofiz agar o‘z g‘azallarining birida:

Fosh mego‘yam-u az guftai xud dilshodam,
Bandai ishqam-u az har du jahon ozodam, –

(Mazmuni: Ochiq-oshkor aytaman va o‘z aytganlarimdan dilshodman – Men Ishq bandasiman, ikki olam savdosidan ozodman) degan bo‘lsa, Foniy ham maslagi rindlik va oshiqlik

ekanini quyidagicha ifodalagan:

Nabvad ba Foniy zuhdi nihoniy,
Rindast-u oshiq, vallohu billoh.

(Mazmuni: Foniyga yashirin zohidlik yarashmas, Xudoga ikki marta qasamki, u rind va oshiqdir).

Foniy ham Hofiz kabi rindlik va oshiqlikni riyokorlik, soxta dindorlik, xo'jako'rsin qabilidagi saxovat va ehsonlar, xalqqa manzur bo'lish uchun qilinadigan taqvodorlikdan ko'ra afzal deb biladi. Albatta, bu g'oya boshqa shoirlarning asarlarida ham ko'p marta ta'kidlangan, ammo Hofizning ijodida riyokorlikka qarshi kurash, eng qaltis tashbih va o'xshatishlar vositasida soxtakorlik va diyonatsizlik niqobini sidirib tashlash avji a'losiga ko'tarildi. Hofizning aqidasiga ko'ra, Haqni tanish o'zlik haqiqatidan ogoh bo'lishdan boshlanadi. Takabburlik va hasad, riyo va yolg'on, nayrang va munofiqlik bo'y ko'rsatgan joyda o'zlik ma'rifatidan ham, Borliq va uning Yaratuvchisining hikmatidan ham nishon qolmaydi. Bu illatlardan xalos qiluvchi, qalb ko'zgusini nojo'ya amallar va yomon xislatlardan poklovchi ma'rifat bodasi – o'zlikni anglash yo'lidagi riyozatlar lozim. Hofiz bir baytida qiyomat kuni taqvodorligi bilan nom chiqargani uchun nazr-niyoz hisobidan kun ko'radigan shayxning ahvoli mayxo'rlik bilan nom chiqargan rinddan hech qanday farq qilmasligini nadomat bilan shunday bayon etadi:

Tarsam, ki sarfae nabarad ro'zi bozxost,
Noni haloli shayx zi obi haromi mo.

(Mazmuni: Qiyomat kuni shayxning halol noni bizning harom suvimizdan hech qanday farq qilmaydi, deb qo'rqaman).

Xuddi shunday motivni biz Foniy g'azallarida ham mushohada etamiz. Foniy ham boda tarqatuvchi dayr pirini hiyla va nayrangdan tuzoq qo'ygan soxta zohidlardan ustun qo'yib, shunday yozadi:

Piri dayram, ki dihad boda, karomot ast in,
Zohidonand zi tazvir-u riyo dome chand.

(Mazmuni: Dayr piri menga boda bersa, haqiqiy karomotdir; u zohidlarga o'xshab hiyla va nayrangdan bir necha tuzoq qo'ymagan).

Foniyni va umuman she'riyat ahlini maftun qilgan Hofiz

she'riyatida eng murakkab falsafiy tushunchalar, chigal muammolar, olam va odam, azal va abad, tiriklik hikmati, shaxs va e'tiqod mohiyatini ochib beruvchi haqiqatlar shoirona majozlar yordamida bayon etilgan. Natijada kimki, Iskandarning jahonnamo ko'zgusidek bo'lgan bu g'azallarga murojaat qilsa, o'z holi va kayfiyatiga munosib ma'nolarni kashf etadi, o'z dard-u armonlariga taskin-tasalli topadi, Hofiz siymosida bir dardkash va maslakdoshni ko'rganday bo'ladi. Hofiz Sheroziy g'azallarining tili shunchalik ramz va majozlarga boyki, undagi obraz va timsollarning aynan qaysi ma'noda qo'llanilganini aniqlab, qat'iy hukm chiqarish qiyin. Shu sababli, Sayyid Qosim Anvor kabi orif zotlar tomonidan "Forsiy Qur'on" deya e'tirof etilgan bu devonni sof gedonistik (hayotsevarlik) kayfiyatda yozilgan, sharobxo'rlik va maishatparastlik targ'ibidagi g'azallar to'plami sifatida baholashlar ham bo'lgan va bu bahs bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Misol tariqasida mana bu matla'ni olaylik:

Sharobi talx mexoham, ki mardafkan buvad zo'rash,
Ki to yak dam biyosoyam zi dunyovu sharu sho'rash.
(Mazmuni: Eranlarni yiqita oladigan kuchi bor achchiq sharob istayman, Tokim bir lahza dunyo va uning g'alvalaridan osoyish topayin).

Bu g'azaldagi sharobni qator hofizshunos olimlar mast qiluvchi ichimlik ma'nosida tushunib, tahlil qilganlar. Aytish lozimki, ularning tahlillari ham butkul asossiz emas. Haqiqatda, bir qarashda bu g'azal olamning buqalamunligidan bezgan, ko'p hollarda johillar farog'atda-yu oqillar uqubatda yashashini, jang-u jadallar, xunrezliklar, nohaqliklarni ko'raverib ko'ngli zada bo'lgan mutafakkirning bir dam bo'lsa-da, bu dunyoning g'avg'olaridan orom topish uchun achchiq sharob istashi, nomardlarni siylaydigan davronning o'yinlaridan charchagan mard insonning istaklari tarannumidek ko'rinadi. Foniyning talqiniga ko'ra esa, g'azalda kuylangan achchiq sharobni "jahl mayi" deb tushunmaslik kerak. Harom qilingan narsadan najot istash iymonli kishining yo'li emas. Shu sababli, Foniy mazkur g'azalning tatabbu'ida Hofiz kuylagan sharobning aniqroq, ochiqroq ta'rifini quyidagicha keltiradi:

Chunin may boshad az xumxonai tavfiqi yazdoniy,

Ki natvon yoftan, ey dil, ba zori-yu zar-u zo'rash.
(Mazmuni: Ilohiy tavfiq mayxonasida shunday
bir sharob borki,
Ko'ngil uni tavallo yo kuch yo zar bilan ham topolmaydi).

Foniy ta'riflagan sharobni maqolga aylangan "Yo ba zo'ri, yo ba zori, yo ba zar" ("Yo zo'rlik bilan, yo zor-tavallo bilan, yo zar bilan") yo'li orqali qo'lga kiritish mumkin emas. Bu sharob – ilohiy mayxonadan ko'ngillarga inadigan ma'rifat va muhabbat bodasi. Ilohiy ma'rifat va muhabbatni aynan sharobga o'xshatilishi, bu ikki tushunchaning majoziy bog'liqliklari quyidagilardan iborat: 1) sharob o'zining asliy o'rni bo'lmish xum ichidan o'zganing ta'sirisiz o'zidan o'zi qaynab, o'zini ko'rsatishga harakat qilganidek, oshiqlar ko'nglidagi yashirin ishq ham g'alayon qilib zuhur etishga intiladi; 2) sharob qaysi idishga tushsa, shu idishning ichki shaklini oladi. Xuddi shuningdek, ishq aslan mutlaq bo'lib, oshiqlar orasidagi farqiyat ishqning zotiy xususiyatiga emas, balki ularning ko'ngil jomiga, ya'ni muhabbat yo'lidagi sobitligiga bog'liqdir; 3) may kishining hamma a'zosiga ta'sir qilganidek, ishq ham oshiqning qon-u joniga kirib, uning butun vujudini qamrab oladi; 4) may ham, ishq ham kishiga mardlik va botirlik bag'ishlaydi; 5) may ham, ishq ham kishi boshidan kibr-u havoni uchiradi va niyoz-u tavozega tushiradi; 6) may ham, ishq ham sirni fosh qiladi. Haqiqat-u ma'rifat sirlarini ishq yuzaga chiqaradi; 7) may ham, ishq ham kishini behush qiladi. Ammo ishq behushligi sezgirlik va ogohlikning eng oliy martabasidir; 8) mayparast may ichgani sari yana ko'proq ichgisi keladi, ishqparast ham ishq dardiga yanada ko'proq mubtalo bo'la boshlaydi.

Ma'lum bo'ladiki, Hofiz g'azali bir qarashda ko'zga tashlanadigan ma'nolardan boshqa yanada teranroq ma'no va hikmatlarni o'ziga mujassam etgan. Foniy g'azali esa, bu g'azalning go'zal javobiyasi bo'lish bilan birga, qaysidir ma'noda unga sharh o'laroq paydo bo'lgan.

"Devoni Foniy"da ***tavr*** asosida yaratilgan bir turkum g'azallar ham bor. Tavr *arabcha so'z bo'lib, "biror narsa atrofida aylanish", "tarz", "yo'sin", "uslub"* ma'nolarini anglatadi. Tatabbu'dan farqli o'laroq, tavrda vazn, qofiya yo radif mezon qilib olinmaydi, balki o'zga shoir qo'llagan uslubda yangicha

talqindagi timsollar va badiiy tasvir vositalaridan foydalanish talab qilinadi. "Devoni Foniy"da faqat to'rt shoir – Sa'diy Sheroziy (2 g'azal), Amir Xusrav Dehlaviy (11 g'azal), Hofiz Sheroziy (20 g'azal) va Abdurahmon Jomiy (8 g'azal) tavridagi g'azallarni uchratamiz.

Tavr va tatabbu' istiloh sifatida mumtoz fors va arab adabiyotshunosligi manbalarida uchramaydi. Bu istilohlar ilk marta Amir Xusrav Dehlaviyning "G'urrat ul-kamol" ("Komillikning ibtidosi") devonining debochasida qo'llanilgan bo'lib, Amir Xusrav she'riyatdagi ustoz-shogirdlik masalalarini yoritishda bu atamalardan foydalangan. Amir Xusrav she'riyatda ustoz-shogirdlik masalasida diqqatni jalb qiluvchi fikrlarni bayon etadi. Uning fikricha, she'riyatda faqat o'ziga xos uslub egasi bo'lgan shoirgina ustozlik maqomiga erishgan hisoblanadi. She'riyatda ustozlik maqomiga erishish uchun to'rt shartni bajo keltirish lozim bo'ladi: 1) shoir o'ziga xos uslub (***tarz*** yo ***tavr***) sohibi bo'lishi kerak; 2) ma'no ifodasi va so'zni qo'llashda she'riyat an'analariga sodiq bo'lishi shart (so'fiylar yo zikr ahli qo'llaydigan ochiq uslubdan voz kechish); 3) she'rda xato va noo'rin so'z qo'llanilmasligi kerak; 4) ko'chirmakashlik va ma'no o'g'riligidan saqlanish zarur.

Ko'rinib turibdiki, so'z san'atida ustozlik maqomiga erishishning birlamchi sharti xos uslubga ega bo'lmoqdir. Amir Xusrav tavsiyasiga ko'ra, yosh shoirlar o'z uslubini shakllantirish uchun ustozlardan bevosita ta'lim olish barobarida olamdan o'tgan yetuk shoirlarning devonini mutolaa qilishlari, ularning uslubi va so'z texnikasi mahoratidan ijodiy tarzda foydalanishlari foydadan xoli bo'lmaydi. Ustozlar yaratgan an'analarni o'zlashtirish mahoratiga qarab shogirdlar uch toifaga ajratilgan: 1) shogirdi ishorat – ustozlik maqomidagi katta shoirlar nazaridan yozgan she'rlarini o'tkazib, vazn, qofiya, obraz yo boshqa jihatlardan yuzaga kelgan xatolarni tuzattirib oladigan kishi; 2) shogirdi iborat – vafot etgan yoki hayot qaydida bo'lgan ustoz shoirlar she'rlariga ***tatabbu'*** bog'lab, ularning ***tavrida*** (uslubida) she'r yozish malakasini hosil qilib, rivojlantiruvchi; 3) shogirdi g'orat – yaxshi she'rlardagi obraz va topilmalarni qo'pol tarzda o'zlashtiruvchi, ma'no o'g'risi (plagiat). Ma'lum bo'ladiki, Foniy o'z ustozlariga nisbatan o'zini shogirdi iborat maqomida tutib, ularning uslublarini ijodiy o'zlashtirish va rivojlantirish uchun

tavr asosida g‘azallar yozgan. Bu haqda uning o‘zi “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida alohida to‘xtalib, Sa’diy Sheroziyga “g‘azal muxtari’i” (g‘azal janrining ixtirochisi), Hofiz Sheroziy g‘azallariga “jami’i suxanadolar va nazmpiyrolar nazarida mustahsan va matbu’” (barcha so‘z san’atkorlari va she’riyat ahli nazdida yaxshi va yoqimli), Amir Xusrav Dehlaviyga “ishq otashkadasining shu’laangizidur va dard g‘aribxonasining ashkrezi”, ya’ni oshiqona g‘azallar yozishda benazir, Mavlono Abdurahmon Jomiyga esa “kamol avjining mehri lomiidur va mazkur bo‘lg‘on azizlar holotining jomii” (komillik osmonining porloq quyoshi va yuqorida zikri ketgan shoirlar uslubini jamlovchi) deb baho beradi.

Ba’zan shoir bir g‘azalning o‘zida ikki ijodkordan ijodiy ta’sirlanganligini, ya’ni bir g‘azal ham tatabbu’, ham tavr asosida yaratilganligini kuzatish mumkin. “Devoni Foniy”da bunday g‘azallarga quyidagicha sarlavhalar qo‘yilgan: Tatabbu’i Mir dar tavri Xoja (Xoja Hofiz Sheroziy uslubida Amir Xusrav Dehlaviyga javob), Tatabbu’i Shayx dar tavri Maxdum (Abdurahmon Jomiy uslubida Shayx Sa’diyga javob) va h.k. Masalan, quyidagi g‘azalda Hofizning tavrida Jomiyga tatabbu’ qilingan:

Biyo, ki piri mug‘on dar sabo‘ sharob andoxt,
Havoi mug‘bacha dilho dar iztirob andoxt.

(Mazmuni: Kelki, mug‘lar piri ko‘zaga sharob soldi, mug‘bachaning ishqi ko‘ngillarga iztirob soldi).

“Fotihat ush-shabob” devonidan joy olgan Jomiyning ushbu g‘azali aslida Hofizning g‘azaliga nazira yo‘sinida yozilgan bo‘lib, quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Biyo, ki shohidi bo‘ston zi rux niqob andoxt,
Nasim dar sari zulfi bunafsha tob andoxt.

(Mazmuni: Kelgil, bo‘ston go‘zali yuzidan niqobni olib tashladi; Nasim gunafsha zulfi uchiga gajak tashladi).

Hofizning g‘azali esa, quyidagi matla’ bilan boshlanib, Foniy-Navoiyning g‘azaliga vazn va radif, obrazlar tizimi va umumiy ruhiyasi bilan mushtaraklik kasb etgan:

Xame, ki abro‘i sho‘xi tu dar kamon andoxt,
Ba qasdi joni mani zori notavon andoxt.

(Mazmuni: Qayrilma qoshingning kamondek egilib, menga

qarashi zor va notavon jonimga qasd qilgandi).

Tavr asosida yaratgan g'azallarining yana bir ahamiyatli jihati shundaki, bularda Foniy o'z salaflari – Sa'diy, Amir Xusrav, Hofiz va Jomiylarning uslubini rivojlantirib, eng xarakterli jihatlarining sintezidan yangi uslub yaratishga harakat qilgani yaqqol namoyon bo'ladi. Navoiy "Badoyi' ul-bidoya" devonining debochasida o'z uslubi haqida quyidagi fikrlarini bayon etgan: "Yana bukim, soyir davovinda rasmiy g'azal uslubidinkim, ahoyi'durur, tajovuz qilib, maxsus nav'larda so'z arusining jilvasig'a namoyish va jamolig'a oroyish bermaydururlar. Ba agar ahyonan matla'e maxsus nav'da voqi' bo'lg'on bo'lsa, hamul matla' uslubi bila itmom xil'atin va anjom kisvatin kiydurmaydururlar, balki tugang'uncha agar bir bayt mazmuni visol bahorida guloroyliq qilsa, yana biri firoq xazonida xornamoyliq qilibdurur. Bu surat dog'i munosabatdin yiroq va muloyamatdin qiroq ko'rundi. Ul jihatdin sa'y qilindikim, har mazmunda matla'e voqi' bo'lsa, aksar andog' bo'lg'aykim, maqta'g'acha surat haysiyatidin muvofiq va ma'ni jonibidin mutobiq tushkay". Bundan tashqari, Foniy fors mumtoz adabiyotiga xos bo'lgan teranlik xususiyatiga ko'lamlilik xossasini ham qo'shishga harakat qildi. Foniygacha bo'lgan g'azallarda (bu holat ayniqsa, Hofiz Sheroziy g'azallarida o'zining avji a'losiga yetgan) ma'no daqiqligi va teran tafakkur qilish orqali estetik zavq olish mumkinligi shoirlik mahoratining yetuk namunasi bo'lgan. Shu tariqa, har bir bayt, misra' yo iboraga turli mazmun-mohiyat "yuklanib", g'azallar "fikrlar assotsiatsiyasi"ga (I.S.Braginskiy ta'biri) aylanib qolgandi. Foniy esa, taxayyul ufqlarini kengaytirib, har bir g'azalni yaxlit ruhiy manzara va yagona kayfiyatni ifodalovchi so'zlar va ma'nolar tizmasiga aylantirishga erishgan. Foniy g'azallaridagi har bir ibora, har bir satr, har bir bayt ma'nolar silsilasini hosil qilib, muayyan holat va kayfiyatni to'liq tasvirlashga xizmat qiladigan detal vazifasini o'taydigan bo'ldi.

O'ziga xos uslubda, mustaqil yozilgan g'azallar Foniy devonida "Muxtara'" yoki "Ixtiro'" nomi bilan belgilangan. Shulardan "sharob" radifli ikkita g'azalning boshqalarga o'xshamaydigan bir jihati bor: bularda Foniy o'zining muxtara' g'azaliga o'zi javobiya g'azal yaratgan. Birinchi g'azalning matla'i quyidagicha:

Ba subh toibam az mehnati xumori sharob,

Vale ba shomi digar doram intizori sharob.

(Mazmuni: Sharob xumorining azobidan tong payti sharobdan tavba qilaman,

Lekin kech kirgach, yana sharobga muntazirman!).

Keyingi g'azal esa "*Dar javobi g'azali guzashta*" (Oldingi g'azalga javob) deb nomlanib, quyidagi matla' bilan boshlanadi:

Chunon shudast ruxat gul-gul az bahori sharob,
Ki digaram ba dil afkand xor-xori sharob.

(Mazmuni: Yuzing sharob bahoridan gul-gul ochilib, shunday yashnabdiku, Yana ko'nglimga sharob iztirobini soldi).

An'anaviy xamriyat mavzusida bitilgan ushbu g'azallarning boshqa g'azallardan farqlanuvchi asosiy xususiyati shundaki, ularda ham ohang, ham mazmun jihatidan bir-biriga juda mos va muvofiq tushgan qofiya va radif tanlangan. Radifli g'azal aytish esa, Amir Xusrav Dehlaviy isbotlaganidek, fors shoirlarining she'riyatga kiritgan yangiliklaridan hisoblanadi. Arab she'riyatida radifli g'azal deyarli yo'q, chunki arab tilining tabiati radifli she'r yozishga mos kelmaydi. She'rni radifning mantiqiy mehvari atrofida birlashtirish, shu orqali yagona mavzuning turli qirralarini ochib berish, har bir bayt va hatto ayrim paytlarda alohida bir misrada tugal bir ma'noni joylashtirib, go'zal ma'naviy silsila hosil qilish shoirdan katta kuch va iqtidor talab qiladi. Tahlil qilinayotgan g'azallarda ushbu fazilatlardan tashqari, unga ziynat bag'ishlab turgan yana bir shakliy unsur bor: qofiya va radifda yonma-yon keladigan cho'ziq alif (o) hamda sonorli undoshlardan bo'lmish "re" harfi (xum**or**, intiz**or**, bah**or**, x**or**-x**or** hamda shar**o**b) g'azaldagi xushohanglilik, musiqaviylik, ravonlikni ta'minlay olgan. G'arb adabiyotshunosligida alliteratsiya, mumtoz adabiyotshunosligimizda tavzi' san'ati nomi bilan yuritiladigan ushbu ifoda usuli shoirdan cheksiz taxayyul bilan bir qatorda teran tafakkur ham taqozo qiladi. Arab adabiyotshunosi al-Askariyning (XI asr) mashhur iborasi bor: "She'riyatda eng muhimi – yangi mavzu topish emas. Chunki bunga arab ham, ajamiy ham, shaharlik ham, ko'chmanchi ham bir xilda qodir. Muhimi – qay tariqa ifodalash". Agar Ibn Sino she'rga "kalomi mavzuni muxayyali muqaffo" (vaznga ega, taxayyul bilan yozilgan, qofiyalangan so'z) deya ta'rif berganini inobatga olsak, yuqoridagi baytlarda

ham vazn, ham qofiya va ham radif bir-biriga mutanosib ravishda tanlanganiga guvoh bo‘lamiz.

Foniy g‘azaliyotiga xos yaxlitlik, mantiqiy izchillikni ta’minlagan omillardan yana biri – har bir g‘azalga konkret bir fikr, timsol yo detalning asos qilib olinishi va tasviriy imkoniyatlarning barchasi tasvir obyektining to‘liq va izchil ifodasi uchun safarbar etilishidan iborat. Yuqoridagi misollarda ham matla’da tugal bir ma’no o‘z ifodasini topgan bo‘lib, g‘azalning umumiy mazmun-mohiyatini o‘zida aks ettira olgan. Agar birinchi g‘azalda lirik qahramonning ishtiyoqi, umidvorligi, ruhiy o‘zgarishlari sharob xumoridan tavba qilish yo‘lidagi nochorligi orqali tasvirlangan bo‘lsa, ikkinchi g‘azalda bu ikkilanishlar butkul bartaraf bo‘lib, shoir o‘z dardining chorasi sharobda ekanligini izhor etadi. Birinchi g‘azalda ruhiy tasvir unsurlari yetakchilik qilsa, ikkinchi g‘azalda falsafiy ohang ustuvor. Shu tariqa, ayni bir mavzuda, vazn, qofiya va radif, asosiy timsolni o‘zgartirmasdan ham ikkita mustaqil va ayni paytda bir-birini to‘ldiruvchi, umumlashma xulosalar, kutilmagan tashbihlar, oldin uchramagan kuzatuvlarga boy, eng muhimi, har biri o‘zgacha kayfiyat bag‘ishlovchi asar yaratish mumkinligini ushbu g‘azallar misolida ko‘ramiz.

Foniyning muxtara’ g‘azallarida ko‘zga tashlanadigan yangiliklaridan yana biri shuki, u xalq tilida mavjud, ammo o‘sha davr yozma adabiyotida qo‘llanilmaydigan so‘zlarni dadillik bilan qo‘llab, she’riyatni leksik jihatdan ham boyitgan. Jumladan, tahlil qilinayotgan g‘azalning quyidagi baytlarida mumtoz fors she’riyatiga “begona” ikkita so‘zga ko‘zimiz tushadi:

Baloxo‘roni *xaroboti ishqro dar dil,*
Chi fitnaho, ki daroyad ba ro‘zgori sharob
Sabo‘kashoni mayi ishqro chu ushturi mast
Ba rohi dayr ***kafandoz*** *bin zi bori sharob .*

(Mazmuni:

Ishq xarobotidagi ozig‘i balo bo‘lganlarning ko‘ngliga Sharob davronida ne fitnalar g‘alayon solur. Ishq mayining tarqatuvchilarining mast tuyalar kabi Sharob yukidan dayr yo‘lida og‘zidan ko‘pik sachrayotganiga qara).

Yuqorida belgilangan ikkala so‘z “Farhangi zaboni tojiki”da mavjud emas. Qolaversa, bu so‘zlar Foniyning g‘azalnavislikdagi ustozlari – Hofiz, Sa’diy, Amir Xusrav, Jomiylarning asarla-

rida ham uchramaydi. Navoiyning turkiy tilda yozgan asarlari o‘z navbatida turkiy tillarning bebaho qomusi ekanligini olimlarimiz allaqachon isbotlagan. Ma’lum bo‘ladiki, Navoiy-Foniy turkiy asarlarida qo‘llagan muvaffaqiyatli tajribalarini forsiy g‘azallarida ham tatbiq etgan va bunda ham yaxshi natijalarga erishgan.

“Devoni Foniy” g‘azallari aruz tizimining rang-barang vaznlarida yaratilgan. Birgina “alif” harfi bilan tugallaydigan g‘azallar turkumida hazaj (18 g‘azal), ramal (11 g‘azal), muzori’ (5 g‘azal), mujtass (5 g‘azal), sari’ (2 g‘azal), rajaz (2 g‘azal), munsarih (2 g‘azal) bahrlarining turli vaznlarini uchratishimiz mumkin. Forsiy she’riyat tabiatiga hazaj bahrining o‘lchovlari ko‘proq mos tushganligi sababli, Foniy g‘azallarida ham bu bahr yetakchilik qiladi. Turkiy g‘azal yozishda Navoiy imkoni boricha aruz vaznlarining turli-tumanligini ta’minlash, g‘azalchilikning vazn imkoniyatlarini yanada kengaytirishni maqsad qilgan bo‘lsa, forsiy she’riyatda bu masala ungacha hal etilgani bois imkoni boricha o‘ynoqi, latif va o‘qilishi ravon bo‘lgan vaznlardan foydalanadi.

Devondan Mavlono Abdurahmon Jomiyning g‘azaliga bog‘langan bitta musaddas joy olgan. U aruzning ramali musammani mahzuf (ruknlari va taqti’i: foilotun foilotun foilotun foilun – V – – / – V– – /– V– – /– V-) vaznida yozilgan bo‘lib, 27 baytdan iborat. «Xamsat ul-mutahayyirin» asarida keltirilishicha, Navoiyning:

Ochmag‘ay erding jamoli olamoro koshki,
Solmag‘ay erding bori olamg‘a g‘avg‘o koshki,

matla’li g‘azali el orasida shuhrat topib, hatto Husayn Boyqaro kabi she’riyatning nozik bilimdoniga ham manzur bo‘ladi. G‘azal ovozasi Abdurahmon Jomiyga ham yetib boradi. Jomiyga ham g‘azal ma’qul tushib, forsiy tilda ayni shu bahr, qofiya va radifda tatabbu’ yozadi. Jomiy g‘azalining matla’si shunday:

Didame didori on dildori ra’no koshki,
Dida ravshan qardame z-on ro‘yi zebo koshki.

Jomiyning tatabbu’ tariqida yozgan g‘azali ham el orasida shuhrat topib, Husayn Boyqaro e’tiborini qozonadi va podshoh Navoiyga ushbu forsiy g‘azalga musaddas bog‘lash (har bir

baytni olti misralik bandga aylantirish)ni buyuradi. Hazrat Navoiy bu amrni bajaradi. Yana yangi go‘zal asar vujudga keladi. Musaddas shunday boshlanadi:

Kardame dar xoki ko‘yi do‘st ma’vo koshki,
Sudame ruxsori xud bar xoki on po koshki,
Omadi berun zi ko‘y on sarvi bolo koshki,
Burqa’ afkandi zi ro‘yi olamoro koshki,
Didame didori on dildori ra’no koshki,
Dida ravshan kardame z-on ro‘yi zebo koshki.

(Mazmuni: Do‘st ko‘chasi tuprog‘ida makon-ma’vo tutsaydim, ul oyoqlar tuprog‘iga yuzimni surtsam qani edi, u sarv qomatli yor ko‘chasidan chiqsaydi koshki, olamni yorituvchi yuzidan niqobini olsaydi, u ra’no dildorning diydorini ko‘rsaydim, ko‘zimni o‘sha zebo yuzdan ravshan qilsaydim koshki.)

Alisher Navoiy Jomiy g‘azaliga musaddas bog‘laganda, taxallusini keltirmagan. Bu an’anaga zid. Chunki kimningdir g‘azaliga muxammas yoki musaddas bog‘laganda o‘z taxallusini qo‘shish an’anasi mavjud. Aftidan, bunda Navoiy sulton Husayn Boyqaroga ehtirom yuzasidan shunday yo‘l tutgan. Navoiy musaddasi sultonga ham, Jomiyga ham ma’qul kelgan. Shoir musaddas yozishining boshqa talablariga to‘liq rioya etgan, ya’ni ilova qilingan baytlar g‘azal baytlari ma’nosini rivojlantirgan, to‘ldirgan. Unda mavzu va mazmundan chetga chiqish ko‘zga tashlanmaydi.

Devonda keltirilgan **marsiya-tarkibband** shoirning ustozi va piri Abdurahmon Jomiy vafoti munosabati bilan yaratilgan bo‘lib, she’rga “Marsiyai hazrati Maxdum” deb nom qo‘yilgan. Navoiy ustozi vafotiga bir yil to‘lganda uning qabri ustiga katta maqbara qurdirib, marosim uyushtiradi va ushbu voqea munosabati bilan marsiya yozadi. Marosimda mazkur marsiyani o‘sha davrning mashhur olimlaridan biri Husayn Voiz Koshifiy o‘qib beradi. Bu haqda Abulvose’ Nizomiyning “Maqomoti Mavlaviy Jomiy” asarida ma’lumot keltiriladi. Marsiya 7 bandli bo‘lib, har bir band 10 baytni o‘zi ichiga oladi (jami 140 misra). Bu marsiya “Xamsat ul-mutahayyirin”ning xotimasiga ham kiritilgan. Marsiya quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Har dam az anjumani charx jafoe digar ast,

Har yak az anjumi u dog'i baloe digar ast.

(Mazmuni: Har dam osmon anjumanidan yangi bir jafo keladi, Uning har bir yulduzi yangi bir baloning dog'idir)

Ushbu tarkibband-marsiya aruz tizimining *ramali musammani maxbuni maqsur* (ruknlari va taqti'i: foilotun failotun failotun failon – V– – / V V– – /V V– – / V V~) vaznida yozilgan.

"Devoni Foniy"da **qit'a** janri ham alohida o'rin egallaydi. Devonda jami 64 qit'a mavjud bo'lib, shundan 44 tasi 2 baytli, 13 tasi 3 baytli, 5 tasi 4 baytli va 2 tasi 5 baytli qit'alardir. Qit'alarda shoirning ma'naviy-axloqiy qarashlari, shaxsiy kuzatishlari bilan bir qatorda she'r va shoirlik haqidagi fikrlari ham o'z ifodasini topgan.

Zi sar to po naboshad she'ri kas xub,
Ki in mumkin naboshad hech kasro.

Badu nek ar barobar hast, bad nest,
Base dorand in neku havasro.

Zi bad gar neki o' boshad ziyoda,
Nadid az sad yake in dastrasro.

Kalomi Haq nayomad jumla yakson,
Chi boshad nukta mushti xoru xasro.

(Mazmuni: Hech kimning she'ri boshdan bir xilda yaxshi bo'lmaydi, Bu deyarli mumkin emas. Agar yaxshi-yu, yomoni barobar bo'lsa, bu – yomon emas, Buni ko'pchilik orzu qiladi. Yomonidan yaxshisining ko'p bo'lishi Yuzdan bir Shoirga ham muyassar bo'lgan emas, Haqningki, barcha so'zi bir xil bo'lmagandan keyin Bizdek xoru xaslarga (tenglikni) kim qo'yibdi?)

Ushbu qit'a aruz tizimining *ramali musaddasi mahzuf* (ruknlari va taqti'i: foilotun foilotun foilun – V– – /– V– – / – V–) vaznida yozilgan.

"Devoni Foniy"dan 72 **ruboiy** o'rin olgan. Diqqatga sazovor tomoni, ularning barchasi har to'rt misrasi ham o'zaro qofiyalanuvchi murassa' ruboiylardir.

Jonam ba du la'li jonfizoi tu fido,

Ruham ba nasimi atrsoi tu fido.
Oshufta dilam ba ishvahoi tu fido,
Farsuda tanam ba xoki poi tu fido.

(Mazmuni: Jonim sening jon bag'ishlovchi ikki labingga fido, Ruhim sen tomondan esadigan muattar nasimga fido, Oshiq ko'nglim sening ishvalaringga fido, Xasta jismim oyog'ing tuprog'iga fido).

"Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida ayni shu va radifda quyidagi murabba' ruboiy o'rin olgan.

Jonimdag'i "jim" ikki dolingg'a fido,
Andin so'ng "alif" toza niholingg'a fido.
"Nun"i dag'i anbarin hilolingg'a fido,
Qolg'an iki nuqta ikki holingg'a fido.

Forsiy ruboiyda inson vujudining asosiy to'rt unsuri – jon, ruh, dil va badan Yorning la'li labi, ifor taratuvchi nasimi, ishvalari va qadamlariga fido bo'lishi aytilgan bo'lsa, turkiy ruboiyda kitobat san'ati imkoniyatlaridan foydalanib, "jon" so'zidagi harflar va yorning chehrasidagi o'xshashliklar ("jim" – zulfga, "alif" – qomatga, "nun" – qoshga, nuqtalar – xolga)ni keltirib, juda chiroyli tarzda ifodalab bergan. Bundan Navoiyning ikkala tilda ham bir-birini takrorlamaydigan poetik usul va vositalardan mahorat bilan foydalanib, original asar yaratish qudrati haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Devonda ta'rix janriga oid she'rlar ham mavjud bo'lib, ularning soni 16 ta. Ta'rix bu muayyan voqea-hodisa yoki inson hayoti bilan bog'liq biror sanani ochiq aytilmay, arab alifbosidagi harflar vositasi, ya'ni abjad usuli asosida ko'rsatishdir. She'rshunoslik ilmida ta'rixga alohida she'riy janr sifatida ham, badiiy san'at sifatida ham qarash mavjud. Bu ikkala qarash ham muayyan asosga ega. Agar ta'rix usuli katta hajmdagi asarlar: dostonlar, manzumalar tarkibida va ko'pincha asarlarning oxirida kelsa, bu alohida janr bo'lmasdan, badiiy san'at hisoblanadi ("Yusuf va Zulayho", "Hayrat ul-abror" dostonlaridagi kabi).

Devonlar ichida alohida mustaqil she'r shakli sifatida keltirilgan ta'rixlarni janr sifatida talqin qilish mumkin. Shu ma'noda "Devoni Foniy" tarkibiga kiruvchi 16 ta ta'rix alohida janr bo'lib, ular qit'a, ruboiy va to'rtliklar shaklida yaratilgan.

Ta'rixlar mavzusiga ko'ra kishilar tavalludi yoki vafotiga

doir; muayyan binolarning qurilishiga oid; taxtga chiqish, fath va biror voqea– hodisa sodir bo‘lgan sanaga bag‘ishlab yaratilishi mumkin.

Alisher Navoiy ta’rixlari, asosan, kishilar vafotiga oid (mutavaffiyot) yo‘nalishida bo‘lib, hazrat Navoiyning ustozlari va do‘stlari Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammad, Sayyid Hasan Ardasher, Xoja Ubaydulloh Ahror, Sulton Mahmud kabi shaxslarning vafoti sanasiga bag‘ishlangan. Masalan, Abdurahmon Jomiy vafotiga bag‘ishlangan ta’rixda “خدا بیامرزد” – “Xudo biyomurzad” jumlasi ta’rix sanasi sifatida keltiriladi:

Sarvi chamani hayot Abdurahmon,
K o‘ raft az in dayri fano so‘i jinon.
Ta’rixi chunin voqeai g‘ussarason,
Gar mexony: “Xudo biyomurzad” xon.

(Mazmuni: Hayot chamanining sarvi – Abdurahmon, bu foniy dunyodan (ruhi) jannatga ketdi. G‘am-g‘ussa yetkazuvchi shunday voqealarning ta’rixini o‘qiganingda: “Xudo biyomurzad” – deb o‘qi).

Mazkur ta’rixdagi “خدا بیامرزد” – “Xudo biyomurzad” jumlasidagi harflar abjad hisobiga ko‘ra belgilanganda hijriy 989, milodiy 1492 yil kelib chiqadi. Ushbu ta’rix ruboiy shaklida yozilgan.

Devoni Foniy”dan **muammo** janri ham o‘rin olgan. Muammolarning aksariyati bir baytli, faqat 11 – “Anis” ismiga bitilgan muammo ikki baytdan iborat. Muammolar devonga muammoning javobi boshlangan harflarning arab alifbosidagi tartibi asosida joylashtirilgan. Ya’ni dastlab yechimi “ا” – *“alif”* harfi bilan boshlanuvchi ism yoki nomlar keltiriladi. Masalan, Odam, Amin, Omir va b. Shu tarzda yechimi “ب” – *“be”*, “ت” – *“te”* va boshqa harflar bilan boshlanuvchi muammolar berib boriladi. “Xazoyin ul-maoniy”dagi tartibga asosan, muammoning javobi sarlavha sifatida matn boshida keltiriladi. Devonda javobi *“alif”* bilan boshlanuvchi muammolar eng katta ko‘rsatkichni tashkil qiladi. Ularning soni 78 ta. *“Be”* bilan tugallanuvchi muammolar miqdori esa 46 ta. Devonda ba’zi harflar bilan boshlanadigan muammolar uchramaydi. “Devoni Foniy”dagi tartibga e’tibor qaratish shuni ko‘rsatadiki, aslida shoir har bir harfga mos holda muammo yaratgan-u, lekin ular bizgacha yetib kelmagan

yoki joriy nashrlardan o‘rin olmagan. Chunki Navoiyning o‘zi “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida forsiy tildagi muammolari sonini 500 ga yaqin deb ko‘rsatib, ularning aksariyati Abdurahmon Jomiy nazariga tushganini aytadi. Bu ma’lumot “Devoni Foniy” nusxalarining hech biri hali to‘liq mukammal nusxa emasligini ko‘rsatadi.

Navoiy o‘zbek tilida bitta qasida (“Hiloliya”) yozgan bo‘lsa, forsiy tildagi qasidalari sanog‘i o‘ntaga boradi. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida forsiy qasidalarni nomma-nom tilga olib, ularning matla’ini keltiradi. Shoirning forsiy qasidalariga alohida ahamiyat berilishi bejiz emas: katta ijtimoiy-falsafiy ma’nolar, keng qamrovli xulosa va umumlashmalarni ifodalaydigan qasidalar yozish ancha-muncha shoirning qo‘lidan kelmas edi. Shoirona mahorat va teran tafakkur, katta hayotiy tajriba va chuqur bilim, latif taxayyul va orifona jo‘shqin qalb sohibi bo‘lganligi hamda forsiy tilda falsafiy-irfoniy jihatdan yetuk qasidalar yaratganlar juda kamsonli bo‘lib, ulardan Xoqoniy Shervoniy “Xalloq ul-maoniy” (yangi ma’nolar yaratuvchi), Anvariy Abivardiy esa “qasida payg‘ambari” kabi yuksak unvonlarga sazovor bo‘lishgan. Navoiyning forsiy tildagi qasidalari ikki turkumga: “Sittai zaruriya” (“Olti zarurat”) va “Fusuli arbaa” (“To‘rt fasl”)ga ajratilgan. “Sittai zaruriya” olti qasidadan iborat bo‘lib, Alisher Navoiy ularning mavzusi haqida “Muhokamat ul-lug‘atayn”da shunday yozadi: “*Bu olti qasida hamd va na’t va sano va mav’izotdur va ahli tasavvuf va haqiqat tili bila ma’rifat*”. “Sittai zaruriya”ning debochasiga ko‘ra, bu turkum 1497-yilda tartib berilgan bo‘lib, uni tuzishga Navoiyni avval ustozi Jomiy, uning vafotidan so‘ng esa Sulton Husayn Boyqaro ilhomlantirgan.

Majmuadagi birinchi qasida **“Ruh ul-quds”** (“Muqaddas ruh”) deb atalib, 132 baytni o‘z ichiga oladi. Qasidaning yozilgan sanasi matn tarkibida ta’rix yo‘li bilan hijriy 895, milodiy 1491-yil deb ko‘rsatib o‘tilgan. Qasidada ilohiy tavhid: olamning yagonaligi, yagona abadiy va azaliy borliq, Yaratganning qudrat va azimati, zarradan koinotgacha uning izmida ekanligi vahdat ul-vujud ta’limoti asosida talqin etilgan. Unda olam yaxlit holda yakka-yu yagona Parvardigor qudrati bilan yaratilganligi va ana shu Ruhi mutlaqning tajalliysi tufayli mavjudlik topishi va uzluksiz harakatda bo‘lishi ta’kidlangan. Qasida dasturiy-

muqaddimaviy xarakterga ega. Unda Alloh – olam aloqadorligining barcha sabablari ruhning olti quvvasi bilan bog'liqligiga e'tibor qaratiladi. "Ruh ul-quds" tuzilishiga ko'ra to'liq qasida bo'lib, mazmun-mohiyatiga ko'ra uni shartli ravishda o'n ikki qismga ajratish mumkin. *Birinchi qism* nasib (kirish)dan iborat bo'lib, 9 baytni o'z ichiga oladi. Unda Ilohiy qudratga umumiy ta'rif beriladi. Qasida quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Zihy ba xomai qudrat musavviri ashyo,
Hazor naqshi ajib har zamon az o' paydo.

(Mazmuni: Ashyolarga surat beruvchi (Allohning) qudrat qalamiga tasannokim, Har zamon undan minglab ajoyib naqshlar paydo bo'lgay).

Hamdning "xomai qudrat" (qudrat qalami) iborasi bilan boshlanishi bejiz emas. Hadisda keltirilishicha, Muhammad alayhissalomga nozil bo'lgan ilk surada "O'qing! Rabbingiz esa Karamlidir. U insonga qalam bilan (yozishni) o'rgatdi" mazmunidagi oyatlar bor ("Alaq" surasi, 3–4-oyatlar). "Musavvir" so'zi ham Allohning go'zal ismlaridan biri bo'lib, dastlabki misradayoq Parvardigorning uch sifati – Ilmi, Qudrati va Yaratuvchanligi hamd etilgan. Ko'rinadiki, shoirning so'z tanlashi asl manba – Qur'oni karim oyatlari asosida bo'lsa ham, qo'llanilishida shoirona mahorat iymonli insonning kechinmalari va irfoniy dunyoqarash asoslari bilan omuxta bo'lib, ajoyib so'z san'ati namunasini vujudga keltirgan.

"Ruh ul-quds"ning *ikkinchi qismida* (10–28-baytlar) aytilishicha, Alloh olamni yaratgach, odamni ham yaratdi va ulug' martaba berdi. Odam jismi mo'jizaviy mukammal qilib yaratildi, odam jismining tuzilishi bilan olam tuzilishi orasida yaqinlik bor. Odamdagi har a'zo – asab, qon aylanishi, yurak, hissiy a'zolar barchasi Alloh qudrati mo'jizasi, ammo bular orasida ikki narsa: aql va ko'ngil insonni mumtoz etadigan ulug' mo'jizalardir. *Uchinchi qismdan yettinchi qismgacha* yilning to'rt fasli ta'riflanadi (29–74-baytlar). Unda zamon va makon tushunchalari, fasllarning almashinib turish qonuniyati, olamning turfa tovlanishlarida Ilohiy qudrat sir-u sinoatining namoyon bo'lishi ko'rsatiladi. *Sakkizinchi qism* bahor faslining qaytalanishi tasviridan boshlanib, sobit-u sayyoralar ta'rifi, Sharq ilmi nujumiga ko'ra sayyoralarning joylashish o'rni va ularga xos xususiyatlar tasviri

bilan davom etadi (75–92-baytlar). "Ruh ul-quds"ning *to'qqizinchi qismida* so'z o'yini vositasida o'n ikki burjning nomlari inson taqdiri va hayot hodisalariga uyg'un holda tasvirlangan (93–106 baytlar). Keyingi qism Arsh, Kursi, maloikalar tasviridan boshlanib, Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning Me'roj tunida Alloh huzuriga ko'tarilganlari tasviri bilan davom etadi. Rasullulloh Alloh vasliga erishib, to'qson ming ilohiy kalomni tinglab, qaytib kelganlarida, yotgan o'rinlari sovumaganligi Parvardigor ko'rsatgan bemisl mo'jiza ekanligi aytiladi (107–115-baytlar). Qasidaning so'nggi ikki qismi qasd (xotima)ni o'z ichiga oladi. Undan Allohga munojot va asarning yozilish ta'rixi sanasi, nomlanishi haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Qasida aruz tizimining *mujtassi musammani maxbuni maqtu'* (afoyili va taqti'i: mafoilun failotun mafoilun fa'lun V – V – / V V – – / V – V –/ – –) vaznida yozilgan. Unda badiiy san'atlardan *tashxis* eng ko'p qo'llanilgan bo'lib, odam va olam sirlari ushbu san'at vositasida talqin etilgan. Jumladan, quyidagi baytlarda inson jismi – butun olamni o'zida aks ettirgan g'aroyib mamlakat, ko'ngil – bu mamlakatning shohi, aql – vaziri sifatida tasvirlangan:

G'arib kishvare orosti ba mulki badan,
Zi mulk to malakut on chi hast, hast on jo.

Dar o' nishondi dilro ba taxti sultoni,
Ki shud ba rasmi salotin xidevi mulkoro.

Xirad vazorati on shohro muayyan shud,
Gadoy – shohu vaziron – kamina banda turo.

(Mazmuni: Badan mulkida g'aroyib bir mamlakat tuzding, Mulk olamidan malakut olamigacha neki bor, unda mavjud. Bu mamlakatda ko'ngilni sultonlik taxtiga o'tqazding, U sultonlardek badan mulkini obod qildi. Aql bu shohning vazirligiga tayinlandi, Shohlar – gadoying, vazirlar – kamtarin bandangdir)

Majmuadagi ikkinchi qasida **"Ayn ul-hayot"** ("Hayot chashmasi") deb nomlangan. Hajman 106 bayt bo'lib, mazmuniga ko'ra na't qasida hisoblanadi. Qasidaning yaratilgan yili noma'lum. "Ayn ul-hayot" olamlar sarvari, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning muborak me'rojlari, ularning diydorlariga barcha

sayyoralar, oy-u quyosh, arsh-u kursi, farishtalar muntazir ekanligi, Payg'ambarimizning Parvardigor bilan muloqotlari tasviriga bag'ishlangan.

"Ruh ul-quds" kabi "Ayn ul-hayot" qasidasi ham "tab'i xud", ya'ni mustaqil ravishda yozilgan asarlardan hisoblanadi. Bu asarda Foniy an'anaviy me'roj mavzusini yangi, ohorli tasvirlar bilan yoritadi, aql qudratidan xorij bo'lgan bu mo'jiza vasfida so'zning qudratidan foydalanadi.

Qasida muraddaf bo'lib, "afganand" (tushirishar) radif vazifasini bajargan. Me'rojning lug'aviy ma'nosi esa, "ko'tarilmoq", "Haq taolo huzuriga yuksalmoq"dir. Ham jismoniy, ham ruhiy uruj (yuksalish) tasviri va tavsifiga bag'ishlangan baytlarni "tushirmoq" ma'nosini anglatuvchi radifning mantiqiy mehvari atrofiga birlashtirish katta san'atkorlik talab qiladi. Bir yuz-u olti baytda "tushirmoq" so'zini qo'llab, sarvari koinotning ma'naviy kamoloti, koinot gultojining yuksak maqomi va martabasini belgilovchi, kufr va iymon ahli o'rtasidagi farqni uzil-kesil belgilab beruvchi mo'jiza – me'roj kechasini ta'riflash orqali Foniy forsiy she'riyatda ham zabardast shoir ekanligini isbotlab bergan.

Qasida quyidagi matla' bilan boshlanadi:

Hojiboni shab chu shodurvoni savdo afganand,
Jilva dar xayli butoni mohsiymo afganand.

(Mazmuni: Tun hojib – pardadorlari qora chodirlarini tushirgan paytda Oy yuzli sanamlar xayliga jilva – nur tushiradilar).

Bu baytdagi har bir istiora bir necha ma'noni ifoda etadi. "Tun hojiblari" istiorasi qo'riqchi farishtalar ma'nosini anglatadi. "Savdo" so'zi qoralik ma'nosidan tashqari, "muhabbat, shaydolik, tayyorgarlik, faol harakat" ma'nolarini ham ifodalaydi. "Butoni mohsiymo" – osmondagi sobit-u sayyoralar. Demak, tun farishtalari Payg'ambarimiz (s.a.v.) me'rojining taraddudiga muhabbat bilan kirishib, osmonga qora chodir tushirdilar, oy tal'atli sayyoralarni bezatdilar, demoqchi shoir. Shu tariqa, 40 bayt davomida tashxis, istiora, tashbih, iyhom kabi mushtarak va ma'naviy san'atlar vositasida me'roj kechasi tasvirga tortiladi. Bu baytlarda osmon jismlari va tungi manzara ham badiiy obraz, ham moddiy mavjud ashyo kabi taassurot uyg'otadi.

Qasidada osmon faqat sayyora va yulduzlar makoni emas, balki farishtalar maskani, ruhlar olami, pok va ulug‘vor manzil, tiriklik sarchashmasi, hayot ko‘zgusi sifatida tasvirlangan. Me’roj kechasining tasviriga bag‘ishlangan yana bir xususiyat – baytlar yuqori ko‘tarinki ruh, farahbaxshlik bag‘ishlovchi, ohangdor so‘zlar tizimidan tarkib topgan. Chiroyli o‘shatishlar va tashxis unsurlari yordamida yetti sayyora va o‘n ikki burjning asosiy xususiyatlari qalamga olinadi.

Qasida aruz tizimining *ramali musaddasi maqsur* (afoyili va taqti’i: foilotun foilotun foilon – V– – /– V– – / – V–) vaznida yozilgan.

Uchinchi qasida **“Tuhfat ul-afkor”** (“Fikrlar sovg‘asi”) deb nomlanib, hajman 99 baytni o‘z ichiga oladi. Shoirning “Sittai zaruriya” debochasidagi ishoralari va qasida matnidagi ta’rixdan mazkur qasidaning barcha qasidalardan oldin, ya’ni 1476-yilda yaratilganligi ma’lum bo‘ladi. Qasidaning yaratilish tarixi haqida “Xamsat ul-mutahayyirin”da batafsil ma’lumot keltirilgan. Qasida Xusrav Dehlaviyning “Daryoi abror” va Abdurahmon Jomiyning “Lujjat ul-asror” qasidalariga javoban yozilgan bo‘lib, darvishlikning oliy rutbasi – faqr tavsifiga bag‘ishlangan. Bunda faqr maqomi komillikning oliy namunasi sifatida mansabdor shaxslar, xususan shohlar axloqiga qarama-qarshi qo‘yiladi. Qasidada ushbu g‘oyaning *tamsil* va *kitobat* san’atlari vositasida bayon qilinishi uning badiiy jihatdan yetukligini ta’minlagan. Qasida quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Otashin la’le’, ki toji xusravonro zevar ast,
Axgare bahri xayoli xom puxtan dar sar ast.

(Mazmuni: Podshohlar tojidagi qip-qizil la’l – boshda xom xayol pishiruvchi (yetiltiruvchi) bir cho‘g‘dir).

Qasida ikki katta bo‘limni o‘z ichiga oladi, bu bo‘limlarni shartli ravishda yana bir necha kichik qismlarga ajratish mumkin. Dastlabki kichik qismda shohlar va saltanatga ta’rif berilib, shoirning ularga nisbatan manfiy munosabati aks ettirilgan (1–5-baytlar). Bu faqat shoh-u sultonlarning adolatsizliklari, xalqqa jabr-u sitam yetkazishlarini aks ettirish emas, balki masalaga so‘fiyona yondashuv ham edi. Navoiyning fikricha, shohlikning o‘zi shohni zanjirband etadi, zero, saltanat dabdabani, zeb-ziynatni, oltin-kumush to‘plashni talab

qiladi. Busiz shohlikning qiymati yo‘q. Ikkinchi tomondan, dabdaba va boylik – o‘tkinchi, foniy. So‘fiy esa foniy dunyoning emas, balki boqiy olamning oshig‘i. Keyingi qismda Navoiy shohlardan keyin keladigan mansabdorlar – vazir, sadr, faqih, qozi, shayx, voiz-u mullolarning poraxo‘rligi-yu tamagirliklarini sanab o‘tadi (6–13-baytlar). Navbatdagi qismdan boshlab darvish va tariqat ahlining axloqi tavsifi berilib, ularning fazilatlari mansab va mansabdor shaxslarga qarama-qarshi qo‘yiladi, faqr ma’naviy yetuklikning oliy namunasi, degan fikr ilgari suriladi (14–38-baytlar).

Qasidaning ikkinchi bo‘limidan boshlab yana jamiyatdagi illatlarga diqqat qaratiladi, biroq endi umumiy tanqidiy munosabat o‘rnini bir-biriga zid xislatlar (odil va zolim, rostlik va yolg‘onchilik kabi) qiyosi egallaydi. Shoirning yozishicha, odil shoh ma’naviyati darvish ma’naviyatidan suv ichgan odamdir, zolim esa bundan mutlaq bebahra. Shuning uchun odil podshoning ishi dehqon kabi yurtini obod qilish bo‘lsa, zolimning faoliyati qobon kabi ekinzorni vayron qilishdir. Yolg‘onchi hokimlar, el moliga ko‘z tikkan firibgar amaldorlar mol-dunyo yig‘ish bilan ovora, oddiy dehqon yoki kosib o‘z hunari bilan rizq topadi, ularning qo‘li qabarsa-da, qalbi tinchdir. Bu bilan Navoiy mehnat ahli bilan faqr ahli ranj-u zahmati va axloqi orasida yaqinlik borligiga ishora qiladi (39–60-baytlar).

Navoiyning ta’kidlashicha, faqr ahli uchun fano mulkidan baqo olamigacha bir qadam yo‘l, shohlar ham bunday odamlarga xizmat qilishi, ularni qadrlashi lozim. Valiyulloh darajasiga ko‘tarilgan faqir inson o‘z qadr-qimmati, salohiyat – nufuzi bilan shohdan ustundir, ya’ni ma’naviyat saltanatdan baland, bu ikkisi orasida doimiy kurash boradi, saltanat ahli har qancha intilgani bilan faqr ahli darajasiga yetolmaydi (61–71-baytlar). Navoiy Haq sari olib boradigan yo‘llardan eng yaqini faqr yo‘li ekanligini aytar ekan, bu yo‘l Payg‘ambarimiz (s.a.v.) yo‘llari ekanligini ta’kidlaydi va bu yo‘lning izchil davomchisi sifatida Abdurahmon Jomiyni ko‘rsatadi. Shu tariqa, qasidaning o‘n baytida Jomiyning salohiyatiga yuksak baho berilib, uning ilm-u adab va fazl-u kamolotda yagonaligi aytiladi (74–83-baytlar). Navoiy qasida so‘ngida yana shoh-u darvish mavzuiga qaytib, aynan Jomiy ma’naviyat saltanatining podshohi ekanligiga ishora qiladi, zero qasidadan maqsad Abdurahmon Jomiy siyratini

ta'riflash edi. Navoiy "Tuhfat ul-afkor"ning oxirida qasidaning hajmiga ishora qilar ekan, so'z o'yini vositasida uning baytlari soni (99-bayt) Allohning go'zal ismlariga hamohang ekanligini aytadi. Qasida badiiy jihatdan yuksak saviyada yozilgan bo'lib, unda ikki jihat alohida ko'zga tashlanadi: 1) har bir bayt tamsil san'ati asosida yozilgan; 2) qasidada ko'plab so'z o'yinlari, jumladan, *muammo*, *kitobat* san'atidan foydalanilgan. "Tuhfat ul-afkor" tatabbu' tarzida yozilganligi uchun unda salaflar qasidalarida qo'llanilgan *ramali musaddasi maqsur* (ruknlari va taqti'i: foilotun foilotun foilon – V– – /– V– – / – V~) vazni saqlangan.

Majmuadagi to'rtinchi qasida **"Qut ul-qulub"** ("Qalblar quvvati") deb ataladi. Asar hajman 120 baytdan iborat bo'lib, XII asr fors-tojik adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Avhadiddin Anvariy (1105-1187) qasidasiga tatabbu' tarzida yaratilgan. Mazmuniga ko'ra falsafiy qasida hisoblanadi. Unda dunyoning bebaqo va bevafoligi, falakning zolim ekanligi aytilib, insonlarning ana shu o'tkinchi, foniy dunyoga mehr qo'ymay, oxirat kunini o'ylashlari, ruhiy-ma'naviy yuksalishga e'tibor qaratishlari zarurligi uqtiriladi. Qasidani shartli ravishda ikki katta qismga ajratish mumkin. Birinchi qismda bu olamning bevafoligi va falakning zolimligi bilan bog'liq fikrlar keltiriladi (66 bayt). Qasida quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Jahonki, marhalat tangi shohrohi fanost,
Dar o' majo'y iqomat, ki rohi shoh-u gadost.

(Mazmuni: Jahonkim, fanoning bepoyon yo'lidagi tor bir yo'lakchadir. Unda abadiy yashamoqni o'ylamakim, bu – shoh-u gadoning (o'tar-ketar) yo'lidir).

Navoiyning yozishicha, bu dunyo o'tkinchi, uni tashlab ketish ota-bobolardan meros, ming yil umr ko'rilsa-da, u bir lahzaday o'tib ketadi. Bu olamda bir osoyish – rohat yo'q, yashashning o'zi qiyin, ustiga ustak yana falak ham inson boshiga jabr-u zulm yetkazadi. Bu fikrlar bayoni bilan shoir bir necha maqsadni ko'zlaydi. Birinchidan, Navoiy dunyoga haddan ziyod muhabbat qo'yishni, chin insoniy mohiyatni unutib qo'yishga olib boradigan qusurlarning ildizini ochib bermoqchi. Ikkinchidan, bu o'rinda qazo va qadar masalasi ham bor, ya'ni inson ham, u tug'ilib o'sgan makon ham, butun borliq Alloh hukmida, uning

irodasi bilan harakatda, inson buni anglashi kerak. Uchinchidan, bu olam doimiy harakatda ekan, inson ham doimiy faoliyatda bo‘lishi kerak, mehnat, intilish hayot qonuni – Alloh belgilagan taqdir qonunidir, degan fikr singdiriladi. Qasidada shu tariqa harakat va faoliyat bilan bog‘liq fikrlar bayon qilinar ekan, inson umrini to‘g‘ri yashab o‘tishi uchun shariat ahkomlariga rioya qilishi kerak. Qasidaning ikkinchi qismi ana shu fikr bayoniga bag‘ishlangan. Unda keltirilishicha, Allohning yagonaligiga iymon keltirish har bir musulmonning birinchi vazifasidir. Shundan so‘ng U yaratgan farishtalar, yuborgan osmoniy kitoblar, payg‘ambarlar, qiyomat kuni, taqdiri azalga ishonish, islom dinining besh rukniga amal qilib yashash muslim uchun farzdir. Shoirning uqtirishicha, inson ruhi uchun eng kerakli ozuqa taqvodir. Navoiy qasidada ushbu axloqqa rioya qilmagan riyokor kishilarni ham tilga olib, ularni qattiq hajv ostiga oladi, nafratini bayon qiladi (85–102-baytlar). Qasida so‘ngida Navoiy Allohga munojot qilib, undan mag‘firat tilaydi va qasidaning “Qut ul-qulub” deb nomlanish sababini aytib (taqvo, shariat ahkomini ado etib, dunyo foniyligini anglab, boqiy dunyoga pok qaytish – qalblarning quvvati), o‘z taxallusini keltiradi. “Qut ul-qulub” Anvariy qasidasida qo‘llanilgan *mujtassi musammani maxbuni maqsur* (ruknlari va taqti’i: mafoilun failotun mafoilun failon V – V –/ V V – – / V – V – / V V ~) vaznida yaratilgan. Unda asosan *kalomi’ jomi’* san’atidan foydalanilgan.

Beshinchi qasida **“Minhoj un-najot”** (“Najot yo‘li”) 138 baytdan iborat. Sarlavhada keltirilgan nomlardan ma’lum bo‘ladiki, u ikki forsigo‘y adib – Anvariy va ozarbayjon shoiri Xoqoniy Shervoniy (1120-1199) qasidalariga tatabbu’ tarzida yaratilgan. Asarda Inson va Shayton munosabatlari, yaxshilik va yomonlik tasvirlari beriladi, jannatdan badarg‘a bo‘lgan Odam Ato farzandlari va bani basharning komil insonga xos bo‘lmagan noxush va nomunosib axloqiy belgilari tanqid qilinadi. “Minhoj un-najot” tuzilishiga ko‘ra to‘liq qasida bo‘lib, uning nasib (kirish) qismi 11 baytdan iborat. Unda Hazrati Odamning Tangri qudrati bilan yaratilgani, Allohning ilmiga musharraf bo‘lgani uchun barcha mavjudotlarga sardor-u sarvar etib tayinlangani, jannatda Havo bilan osuda va baxtli hayot kechirishi haqida so‘z boradi. Qasida quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Zihiy az sham’i ro‘yat chashmi mardum gashta nuroniy,

Jahonro mardumi chashm omadiy az ayni insoniy.

(Mazmuni: Qanday yaxshiki, yuzingning sham'i (nuridan) insonlarning ko'zi yoridi. Insonlikning javhari bo'lganing uchun jahon odamlarining ko'z qorachig'iga aylanding).

Matla'da uch ma'no mujassam: 1) Odam Atoning hali jannatdan quvilmagan pok vujudi; 2) Muhammad (s.a.v.) nuri; 3) Komil inson vujudi. Uchala ma'no ham bir-biriga bog'liq, ya'ni Odam Parvardigor tomonidan yaratilganda hamma fazilati bilan mukammal edi, unda Nuri Rahmoniy aks etgan bo'lib, u jahon ko'zgusining gavhariday aziz va mukarram edi. Chunki Odam Atoda Nuri Muhammad (s.a.v.) azaldan mavjuddir. Odam Ato va Muhammad (s.a.v.) komil inson timsoli bo'lib, insoniylik javhari komil insonda aks etadi. Qasidaning 12-baytidan boshlab asosiy qism boshlanadi. Unda Odam Atoning jannatdan quvilishi Qur'oni karimdagi rivoyat asosida badiiy talqin qilinadi. Navoiyning fikricha, Odamning jannatdan quvilishi buyuk bir fojia bo'lib, bu poklik olamidan, Parvardigor huzuridan haydalish va farishtalikdan shaytoniylikka qarab harakatlanishdir. Inson o'z asliga – komillik yo'liga qaytishi uchun har qadamda, hamisha kurash olib borishi zarur. Odamning jannatdan quvilgani qanchalik fojiali bo'lsa, uning o'zini, o'z burchi, oliy vazifalarini anglamay, g'ofil bo'lib, hirs-u havas, yolg'on va riyoga berilishi shunchalik achinarlidir. Navoiy baytdan baytga tanqidiy tavsifni kuchaytirib, insonga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan turli nuqsonlar, falokat keltiruvchi illatlarning poetik sharhini berib boradi. Shoirning fikricha, inson tavba qilib, solih amallar bilan shug'ullansa, savob ishlar qilsa, yana jannatga qaytishi mumkin. Komillik, avvalo, insonning o'ziga bog'liq, uning o'zi gunoh-u nuqsini anglab, bularni tark etishi va fazilat-u ruhoniy sharaf kasb etishi lozim. Najot yo'li shundadir. Navoiy qasidada Allohga munojot qilib, o'zini "zulmoniy nafs"ga giriftorlar sirasiga kiritadi va Yaratgandan mag'firat tilaydi. Bu holat qasidaning umumlashtiruvchilik xususiyatini ta'minlab, ta'sirchanligini oshirgan. Navoiy qasida xotimasidan oldin zamona hukmdori Husayn Boyqaroni madh etib, unga shohlik Yofas davridan boshlab meros ekanligini ta'kidlaydi va uni madh etishda ojiz ekanligini sahoba Hassonning Rasullulloh madhini keltirishda ojiz qolganligi bilan qiyoslaydi. Qasida-

ning xotima qismida shoir o‘z baytlarining insonlar qalbini uyg‘otishiga, gumrohlikdan qutulishiga najot bo‘lishini tilab, uni “Minhoj un-najot” deb ataganini aytib o‘tadi. “Minhoj un-najot” salaflar qasidalari singari *hazaji musammani solim* (afoyili va taqti’i: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun, V – – – / V – – – / V – – – / V – – –) vaznida yozilgan.

Majmuaning so‘nggi qasidasi **“Nasim ul-xuld”** (“Jannat shamoli”) Xoqoniy Shervoniy, Amir Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy qasidalariga tatabbu’ tarzida vujudga kelgan bo‘lib, 129 bayni o‘z ichiga oladi. Qasidada inson poklanishi va komillikka erishishi uchun nimalar qilishi lozimligi, tariqat odobi va usullari, murshid va murid munosabatlari, Haq yo‘liga kirgan solik oldiga qo‘yiladigan talablar birma-bir bayon etiladi. “Nasim ul-xuld”da Navoiyning naqshbandiya tariqati, tasavvuf haqidagi qarashlari yaxlit bir tizimda ifodalab beriladi, shu ma’noda qasidani naqshbandiya tariqatining o‘ziga xos dasturi, she’riy bayonnomasi deb aytish mumkin. Qasida tasavvufning muhim masalalaridan biri – ishq va aqlning muqoyasasi bilan boshlanadi:

Muallim ishqu piri aql shud tifli dabistonash,
Falak don, bahri ta’dibi vay inak charxi gardonash.

(Mazmuni: Muallim ishqu uning maktabining talabasi aql piridir. Falakni unga adab o‘rgatish uchun aylanib turuvchi charx deb bil).

Navoiyning fikricha, ishq – nur, aql esa zulmat, ular o‘zaro birlashishi mumkin emas, chunki aql Allohni va uning g‘ayb olamini bilishga ojiz. Ishq va undan tug‘ilgan jazba esa so‘fiyni oliy maqomlarga olib chiqadi, maqsad sari yetaklaydi. Shundan so‘ng Navoiy so‘fiylar tasavvuridagi jannat ta’rifiga o‘tadi. Unga ko‘ra ushbu jannat bog‘ining sarv daraxti iymon bog‘ining aliflaridir (“iymon” so‘zidagi aliflarga ishora), unda Allohning kalomi tinmaydi, anhorlarida muqaddas suvlar oqadi. Shoirning talqinicha, bu gulshan – ma’rifat bog‘i bo‘lib, u komil inson makonidir (8–15-baytlar). Keyingi baytlarda Navoiy komil inson ta’rifini keltiradi. Unga ko‘ra, komil inson quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi kerak: botiniy olami sarishta, zohiriy ko‘rinishi parishon, jismi vayron, qalbi esa obod va nurafshon. U doimo xafiy zikr bilan band, kiygani janda xirqa, nafsoniy

lazzatni tark etgan, himmati osmon qadar oliy. Ushbu tavsiflarda naqshbandiya tariqati talablari ifodalanganligini ko'rish mumkin. Keyingi baytlarda Navoiy ana shu martabaga talabgor solik uchun zarur bo'lgan ishlar bayonini keltiradi. Navoiyning fikricha, bu yo'lga kirish hech qachon kech emas, chunki bu Yaratganning tavfiqidir. Buning uchun, eng avvalo, nafsni yengish kerak, uni yengish piri murshid rahnamoligida amalga oshiriladi. Shundan so'ng qasidada naqshbandiya sulukiga xos zikr tushish qoidasi, faqrning mohiyati, belgi va fazilatlari haqida so'z boradi. Qasidaning 101-baytidan Sulton Husayn Boyqaro tavsifi keltirilib, unga darvishlikni shohlikdan yuqori qo'ygan sulton degan ta'rif beriladi, uning shijoati, adolati va saxovatiga tahsin aytiladi (101–118-baytlar). Xotimada "Nasim ul-xuld"ning yozilish tarixi, ushbu mavzuda qalam tebratgan salaflar: Xoqoniy, Dehlaviy va Jomiy qasidalari haqida ma'lumot keltiriladi (120–129-baytlar). "Nasim ul-xuld" salaflar qasidalari singari *hazaji musammani solim* (ruknlari va taqti'i: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun V – – – / V – – – / V – – – / V – – –) vaznida yaratilgan.

"Devoni Foniy"dan o'rin olgan ikkinchi qasidalar majmuasi *"Fusuli arbaa"* ("To'rt fasl") deb ataladi. Qasida 4 qismdan iborat bo'lib, yil fasllarining go'zal manzarasi tasviriga bag'ishlangan. Shoir tabiatni tasvirlash orqali asl maqsadiga erishadi: zamona sultoni Husayn Boyqaroni madh etadi. Navoiy har bir fasl va undagi tasvir usullarini e'tiborga olgan holda ularda turli vaznlarni qo'llaydi. Xususan, yoz fasliga bag'ishlangan **"Saraton"** deb nomlangan qasida 71 baytdan iborat bo'lib, mazmuniga ko'ra vasf va madh xususiyatlarini o'zida birlashtirgan qasida hisoblanadi. "Saraton" tuzilishiga ko'ra to'liq qasida bo'lib, unda nasib (lirik kirish) kattagina qismni (yigirma besh bayt) egallaydi. Aynan nasibda qasidaning vasfiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Qasida saratonning kirib kelishi tasviri bilan boshlanadi:

Boz otashi xo'r soxt samandar saratonro
Afro'xt chu otashkada gulzori jahonro.

(Mazmuni: Quyosh otashi saratonni yana samandarga aylantirdi, Jahon gulzorini otashkada kabi lovillatdi).

Keyingi baytlarda saraton jaziramasi tasvirlanar ekan, issiqdan butun borliq go'yo otashga aylanganligi va saratonning

insonga ko‘rsatgan jismoniy ta’siri tasvirlanadi. “Saraton”da gurizgoh (kirishdan asosiy qismga o‘tuvchi ko‘prik) nisbatan kichik (ikki bayt) bo‘lib, unda “yozning taftidan panoh izlovchi kishilar uchun Husayn Boyqaro tug‘i soyasi makondir” degan fikr orqali asosiy qism – Husayn Boyqaro madhiga o‘tiladi:

Z-in garmii xurshed birast, on, ki, panah soxt,
Zilli sharafi royati Jamshedi zamonro (27-bayt).

(Mazmuni: Quyoshning taftidan panoh izlovchi kishi, (uni) zamona Jamshidi tug‘i soyasining sharofatidan topqusidir).

Madhda shohning adolati, saxovati, do‘stlarga mehri-yu, dushmanlarga qahri bayon qilinadi.

Qasidaning qasd qismi (xotima) olti baytdan iborat bo‘lib, unda muallif o‘zining faqir va gunohkor ekanligini ta’kidlaydi hamda shohning lutf-u inoyatiga umid bildiradi. Qasida hazaj bahrining eng o‘ynoqi vazni hisoblangan *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* vazni (ruknlari va taqti’i: *maf’ulu mafoiylu mafoiylu fauvlun* – – *V/V* – – *V/V* – – *V/V* – –)da yozilgan. Bu vazn ruhiyat tasviri bayonidan ko‘ra ko‘proq jismoniy: yengil va shaxdam harakat, sho‘xchan kayfiyat bayoniga mos keladi. Har ikki cho‘ziq bo‘g‘indan keyin ikki qisqa bo‘g‘inning yonma-yon kelishi ritmga o‘ynoqilik bag‘ishlaydi. Va shunga mos holda mazkur qasidada yozning insonga ko‘proq jismoniy ta’siri ko‘rsatilganligini, har bir baytda saraton jaziramasi aynan inson a’zoi badaniga (ruhiyatiga emas) ta’sir qilayotganligini kuzatish mumkin.

Majmuada **“Xazon”** (“Kuz”) fasli ta’rifi boshlanishi bilan undagi she’riy o‘lchov ham o‘zgaradi:

Digar shud bahri sanjidan barobar adli davronro,
Zi kofo‘ri zi mushk ro‘zu shab du palla mezonro

(Mazmuni: Davron adolatini o‘lchash mezonlari o‘zgardi, tarozuning bir pallasida (kunduzning ramzi) kofur, ikkinchisida (kechaning timsoli) mushk tortiladigan bo‘ldi).

“Saraton”da qo‘llanilgan o‘ynoqi vaznning o‘rnini endi salobatli va sokin ohangga ega bo‘lgan *hazaji musammani solim* vazni (ruknlari va taqti’i: *mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun V– – – / V– – – / V– – –/ V– – –)* egallaydi. Cho‘ziq bo‘g‘inlar nisbatining qisqa bo‘g‘inlardan 3 baravar ko‘pligi

ohangning vazmin chiqishini ta'minlaydi. Aynan shunga mos holda 33 baytdan iborat bu qasidada ruhiyat tasviri, ta'bir joiz bo'lsa, kuzga xos o'ychanlik, mahzunlik yetakchilik qiladi. "Xazon" mazmuniga ko'ra vasf qasida hisoblanadi. "Xazon"da kuz faslining go'zal manzarasi tasvirlangan bo'lib, turkumdagi boshqa qasidalardan farqli ravishda unda Husayn Boyqaro madhi keltirilmagan, shuningdek, Navoiyning boshqa qasidalaridan farq qilib, "Xazon" tuzilishiga ko'ra to'liq qasida emas (qasida unsurlarining barchasi ishtirok etmagan). Uning mujarrad shaklga ega ekanligi va Husayn Boyqaro siymosi keltirilmaganligiga yo qasidaning matni to'liq yetib kelmagan yoki Navoiy kuzga xos mahzunlikni Husayn Boyqaro siymosiga ko'chirishni istamaganligi sabab bo'lishi mumkin. "Bahor" qasidasida keltirilgan quyidagi bayt bu holat izohiga asos bo'la oladi:

Agar xohy bahori bexazon biny, varo bingar,
Bahoristoni xalqi xusravi Eronu Turonro...

(Mazmuni: Agar bexazon bahorni ko'rishni istasang, uni ko'rgil – Eron-u Turon podshohi xalqining bahoristonini).

"Xazon"da kuz manzarasi sariq rang tasviri bilan uyg'un holatda keltirilgan, qasidada kuz faslidan kelib chiqqan holda sariqlik butun borliqqa: daraxt barglariga, ariq suviga, suhbatdoshlar ichmoqchi bo'lgan sharobga, oshiqning hijrondan azoblangan yuziga ko'chganligi badiiy tasvir vositalari yordamida yuksak badiiyat bilan ifodalangan:

Ba shoxoni shajar bingar, ki az bemorii mufrit,
Ayon gardand har so' za'faroni rangi bo'stonro.

(Mazmuni: Daraxt shoxlariga qara, haddan ziyod xastalikdan, qaysi tarafga nigoh tashlasang, hamma yoqdan daraxtzorning za'faron (sariq) rangi ko'zga tashlanadi).

Qasida *hazaji musammani solim* (ruknlari va taqti'i: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun V– – – V– – – V– – – V– – –) vaznida yozilgan.

Majmuaga **"Bahor"** kirib kelishi bilan unga xos yaratuvchanlik, yangilanish kayfiyati ham kirib keladi:

Vazad bodi bahor ih'yoi amvoti gulistonro,
Zi anfosi Maseho toza sozad olami jonro.

(Mazmuni: Bahor shamolining esishi, guliston gullariga

yangidan hayot bag'ishlaydi, go'yo Masiho nafasidan jonlar olamini yangilaydi).

Hajman 57 baytdan iborat ushbu qasida mazmuniga ko'ra vasf va madh xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Unda bahor fasli tasviri bilan birga zamona hukmdori Husayn Boyqaro madh qilinadi, uning ta'rif-u tavsifi keltiriladi. "Bahor" tuzilishiga ko'ra to'liq qasida hisoblanadi. Nasibda qasidaning vasfiy xususiyatlari namoyon bo'ladi: bahor fasliga xos go'zalliklar tasvirlanadi. Gurizgoh (kirishdan asosiy qismga o'tuvchi ko'prik) 10–13-baytlarni o'z ichiga olib, unda bahorning g'animatligi, umr bahorining o'tkinchiligi, inson hayotiga kuzning kelishi muqarrar ekanligi haqidagi masalalar qalamga olinadi. Madhda bahorga xos yaratuvchanlik, yangilanish Husayn Boyqaro tabiatiga uyg'un tarzda tasvirlanadi, shohning saxovati bahor quyoshiga, rahmdilligi bahor yomg'iriga, janglardagi shijoati momaqaldiroq shovqiniga o'xshatiladi:

Turo bo on tavonoivu zarbi teg'i olamgir
Dihad ro' olami digar, ki rezy ashki g'altonro.

(Mazmuni: Shunchalar qudrating-u olamni olishga qodir tig' zarbang bilan, ajib yumshoqliging ham borki, bunday paytlarda ko'z yosh to'kasan).

"Bahor" shoh haqqiga qilingan duo va uning martabasi bahorining kuz shamolidan omon bo'lishi, shavkat-u iqbolining benuqson bo'lishi bilan bog'liq niyatlar bilan yakunlanadi. Qasida *hazaji musammani solim* (afoyili va taqti'i: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun V– – – V– – – V– – – V– – –) vaznida yozilgan.

Nihoyat majmua yil fasllarining oxiri bo'lgan "Day" ("Qish") tasviri bilan yakun topadi. Qasida hajman 70 baytdan iborat. "Day" tuzilishiga ko'ra to'liq qasida bo'lib, unda nasib (lirik kirish) kattagina qismni egallaydi. Aynan nasibda qasidaning vasfiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Unda qish fasli va unga xos go'zal manzaralar vasf etiladi. "Day" quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Zi dargahi falak otash nuhuft dudi sahob,
Daro ba xirgahu otash furo'z az mai nob.

(Mazmuni: Falak chodiridan ko'rinayotgan otashni bulutlar

pardasi to'sdi, chodirga kirginu tiniq, qizil may otashiga zo'r ber).

Dastlab tevarak-atrofning qish faslidagi tasviri berilgach, qasidaning 12-baytidan boshlab jonivorlarning jismoniy sovuq ta'siridagi holati tasviriga o'tiladi. Navoiy qish sovug'idan panoh topish uchun anordek teshigi va tuynugi yo'q bir xona izlashni, undagi donalar cho'g', suvi esa tanani isituvchi qizil sharobday bo'lishi zarurligini ta'kidlar ekan, bu holat zamona hukmdori majlisini yodga solishini aytadi va shu tariqa gurizgoh (kirishdan asosiy qismga o'tuvchi ko'prik) vositasida qasidaga Husayn Boyqaro tasviri kirib keladi. Qasidaning teng yarmi, ya'ni 36-baytdan boshlab asosiy qism – Husayn Boyqaro madhi keltiriladi. Madh sultonning yuksak qalbi, saxovati, dushmanlarga siyosati, janglardagi shijoatidan boshlanib, sharob bazmlari tasviri bilan yakun topar ekan, bu tasvirlar qish faslidagi manzaraga parallel ravishda berib boriladi, so'nggi ikki bayt (qasd – xotima)da shoir Husayn Boyqaro bazmlariga fayz-u quvvat tilaydi, javonmardlik va saxovat unga ming yil hamroh bo'lishiga niyat bildiradi. Navoiy ta'biri bilan inson umrining poyoniga o'xshatilgan qish fasli *"kishining xam qad bila adam yo'lig'a kirib, zamon ahli bilan xayirbod qilish"*("Xazoyin ul-maoniy" debochasi) davri bo'lib, qasidada Foniy taxallusining qo'llanilishi shunga ishoradir:

Ba bo'i vasl nihad ro' ba dargahat, Foniy,
Chunon ki ahli ibodat ba go'shai mehrob.

(Mazmuni: Vasling bo'yi umidida, Foniy dargohingga yuzini qo'yadi, bu ibodat ahlining mehrob go'shasiga bosh qo'yishidek-dir).

Qasidada falsafiy mushohadakorlik bilan bog'liq tuyg'ularni berishga nihoyatda mos bo'lgan *mujtass* bahri (ruknlari va taqti'i: mafoilun failotun mafoilun fa'lun V – V – / V V – – / V – V – / – –)ning qo'llanilganligi shoirning yuksak badiiy salohiyatini ko'rsatuvchi yana bir omildir.

"Devoni Foniy" **lug'z** (chiston) janri bilan yakun topadi. Devonda jami 9 lug'z keltirilgan bo'lib, ular masnaviy, qit'a va ruboiy tarzida qofiyalangan. Lug'zlar sham', miqroz (qaychi), parvona, tirgaz (o'q), taxtiravon, kema kabi narsa-hodisalarga bag'ishlangan. Masalan, sham'ga bag'ishlangan lug'z qit'a

shaklida yozilgan:

Chist on naxle, ki bargash nest, ammo hast gul,
Lek, on gulro buvad andar nazar andomu barg.
Garcha nabvad abr, lekin abrson shud qatrarez,
Qatra az vay chun judo, aftod bandad chun tagarg.
Ham kushandu ham bimirad turfa boshad, lek on-k,
Kushtanash nabvad zi qatlu murdanash nabvad zi marg.

(Mazmuni: U qanday daraxtdurki, bargi yo'g'u guli bor. Lekin u gulga nazar qilsang, qomati-yu bargi bor. Bulut bo'lmasa ham bulutdek qatralar to'kadi. Qatralar tushib do'ldek qotib qoladi. Qiziq, uni ham o'ldiradilar, ham o'zi o'ladi. O'ldirilishi qatldanu o'limi esa ajaldan emas).

Chiston ramal bahrining *ramali musammani maqsur* (ruknlari va taqti'i: foilotun foilotun foilotun foilon – V – – /– V – –/ – V – –/ – V –) vaznida yaratilgan.

Tayanch tushunchalar

muxtara'
tavr
tatabbu'
marsiya-tarkibband
ta'rix
qasidalar majmuasi

Savol va topshiriqlar

1. *Alisher Navoiy o'zining forsiy she'rlari haqida qaysi asarida kengroq ma'lumot bergan?*
2. *"Devoni Foniy" va "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidagi devonlar orasida qanday mushtarak va farqli jihatlar bor?*
3. *"Devoni Foniy"ning janriy tarkibini sharhlashga harakat qiling.*
4. *Alisher Navoiy o'z forsiy devonida qanday adabiy yangilik yaratdi?*
5. *"Devoni Foniy"dagi qasidalar va ularning mohiyati haqida fikr yuriting.*
6. *Devondagi ta'rix va muammo janrlariga ta'rif bering.*
7. *Devondagi ruboiylarni turkiy devonlardagi ruboiylar bilan*

taqqoslang.

8. "Devoni Foniy"da ritm va mazmunning badiiy mutanosibligi ko'proq qaysi janrda namoyon bo'ladi, deb o'ylaysiz?

ADABIYOTLAR:

Matn va manbalar:

1. Алишер Навоий. Девони Фоний. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 2000–2003. 18–20 жилдлар.

2. Алишер Навоий. Девони Фоний. Қасоид. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.5.

3. Мир Алишер Навоий. Фоний гулшани (форсийдан Ж.Камол таржимаси). – Т.: MERIYUS, 2011.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

4. Алишер Навоий: қомусий лугат. 1-2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.

5. Давлатов О. Фонийнинг мухтараъ ғазаллари / ЎзАС, 2013. №47.

6. Комилов Н. Фақр нури порлаган қалб (Алишер Навоийнинг форсий қасидалари). – Т.: Маънавият, 2001.

7. Шодиев Э. Навоий татаббуларига оид баъзи мулоҳазалар: "Девони Фоний" ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1997. – №2.

8. Зоҳидов Л. "Девони Фоний" бадииятига доир мулоҳазалар // Адабиёт кўзгуси. – Т., 2010. – №10.

9. Юсупова Д., Қуронов С. Навоийнинг форсий қасидалари // Жаҳон адабиёти. – Т., 2011.

10. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. 2-жилд (XV асрнинг иккинчи ярми). – Т.: Фан, 1977.



ALISHER NAVOIY ARUZI

Reja:

1. Alisher Navoiygacha turkiy she'riyatda aruz tizimi.

2. Navoiy devonlaridagi bahrlar miqdori. Muxlislar tartib bergan devonlarning vazn xususiyatlari.

3. "Badoyi' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya" devonlarida qo'llanilgan bahrlar.

4. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining vazn xususiyatlari. Kulliyotning vazn ko'rsatkichlari.

5. Ruboiy vaznlari.

Aruz she'r tizimi Sharq xalqlari she'riyatining asosiy she'riy o'lchovi sifatida ming yillardan beri turkiy she'riyatimizda keng qo'llanilib kelayotgan she'riy vaznlardan biridir. Uning she'riyatimizga kirib kelishi va mustahkam o'rin olishi tasodifiy bo'lmay, islomdan oldingi she'riy merosimizda ham misralardagi cho'ziq va qisqa hijolar o'rtasida muayyan mutanosiblik mavjud bo'lgan. Olimlarimizning aniqlashlaricha, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridan o'rin olgan 224 she'riy parcha aruzdagi *– V – –, V – V – , – V V –, V V – –, V – – –, – V –, V – –* turoqlariga mos keluvchi o'lchovda yaratilgan (A.Hojiahmedov). Kuzatuvlarga ko'ra, turkiy xalqlar ilk bor aruz tizimida qalam tebrata boshlaganlarida, barmoq vazn tizimiga yaqin turuvchi vaznlardan foydalanganlar. Aruz muomalaga kirgan ilk davrlarda yaratilgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari "Shohnoma" vaznida, ya'ni mutaqorib bahrida yozilgan. Yusuf Xos Hojibning aynan shu o'lchovni tanlashiga sabablardan biri sifatida mutaqorib bahrining turkiy xalqlar she'riy tizimi bo'lmish barmoqning eng faol shakllaridan bo'lgan o'n bir bo'g'inli vazniga juda ham uyg'un ekanligini keltirish mumkin. Adib Ahmadning "Hibat ul-haqoyiq" asarida ham ushbu o'lchov to'rtliklar shaklida ifoda etilgan.

XIV–XV asrlar turkiy xalqlar adabiyotida aruz tizimidan foydalanishning yangi bosqichi bo'ldi. Bu davrda Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asaridagi 600 misraga ya-

qin she'riy parchalar, Xorazmiy "Muhabbatnoma"si va boshqa nomalar, Qutb, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy, Sayyid Qosimiy dostonlarida aruz tizimining ramal, hazaj, sari', muzori' kabi bahrlari istifoda etildi.

Navoiygacha bo'lgan turkiy she'riyatda aruz tizimining xushohang vaznlaridan foydalanish va ularni turkiy she'riyatga olib kirishda Sakkokiy, Gadoiy, Atoyi, Hofiz Xorazmiy, Lutfiy kabi shoirlarning xizmatlari katta bo'ldi. Sakkokiy o'zining 40 ga yaqin g'azali va 11 (ba'zi ma'lumotlarga ko'ra 13) qasidasida aruz tizimining 5 bahridan foydalangan bo'lsa, Atoyi va Gadoiy she'riyatida 6 bahr, Lutfiy va Hofiz Xorazmiy devonlarida esa 9 tadan bahr istifoda etilganligini ko'ramiz. Ushbu bahrlar va ularga mansub bo'lgan vaznlarni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

T.r.	Mumtoz ijodkor nomi	Qo'llanilgan bahrlar soni	Vaznlar miqdori
1.	Sakkokiy	5 ta	11 ta
2.	Gadoiy	6 ta	15 ta
3.	Atoyi	6 ta	18 ta
4.	Lutfiy	9 ta	38 ta
5.	Hofiz Xoramiy	9 ta	54 ta

Turkiy aruzning ham nazariy, ham amaliy jihatdan rivojlanishi va taraqqiyoti bevosita Alisher Navoiy ijodi bilan bog'liq. Buyuk mutafakkir shoir o'zining aruz qonun-qoidalariga bag'ishlangan "Mezon ul-avzon" asarida 19 bahr, 160 vazn haqida ma'lumot bergan bo'lsa, lirik va epik she'riyatida 13 bahr, 100 ga yaqin vazndan keng foydalandi va bu bilan aruz tizimi turkiy she'riyatning ajralmas qismiga aylanganligini asoslash bilan birga bu she'riy tizimning turkiy til qonuniyatlariga har tomonlama mos kelishini isbotladi.

Alisher Navoiy bolalik chog'laridanoq fors-tojik va turkiy tilda yozilgan g'azallarni yod olgan va o'zi ham she'rlar bitib, Mavlono Lutfiy, Sayyid Hasan Ardasher kabi ustozlarning e'tirofiga sazovor bo'lgan edi. Uning dastlab yozgan she'rlarida fors-tojik va turkiy salaflari g'azallarining ohangi, bu ohang orqali esa ularning she'riyatida qo'llanilgan vaznlarning ta'siri bor. Zero odatda yosh shoir she'r yozar ekan, odatda uni o'z xotirasi yoki shuurida saqlanib qolgan ohang asosida yaratadi.

Shu ma'noda yosh Alisherning dastlabki she'rlari ramal, hazaj yoki muzori' kabi musta'mal bahrlarda yozilgan deb aytish mumkin. Navoiyning o'zi "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" asarida yoshlik yillaridayoq ba'zi she'rlari Xurosonda shuhrat qozonganligi va Sayyid Hasan Ardasher ularni takrorlab yurishni xush ko'rganligi haqida ma'lumot beradi. Ular orasida

Furqatingdin za'faron uzra to'karmen lolalar,
Lolalar ermaski, bag'rimdin erur pargolalar...

Ul parivashkim, bo'lubmen zor-u sargardon anga,
Ishqdin olam manga hayron-u men hayron anga

matla'lari ramal bahrida yaratilgan bo'lsa,

Labing ko'rgach, iligim tishlaram har dam tahayyurdin,
Ajab holatki, tutmay bolni barmoq yalaydurman

baytida hazaj bahri qo'llanilganligini ko'rish mumkin.

Alisher Navoiyning ijodiy faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, buyuk mutafakkir o'zbek tilining jonli muloqot tilidan ilm-fan, adabiyot va san'at tili darajasiga yuksalishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishga harakat qilganligi, tilning rivoji uchun nazariy asoslar yaratib, amalda tatbiq etganligiga guvoh bo'lamiz. Aruz – tilning fonetik tovlanishlarini saqlash uchun eng maqbul vosita ekanligini anglagan Navoiy bu she'riy o'lchovni turkiy tilda tatbiq etishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratdi:

Navoiy she'riyatida arab va fors tilidan o'zlashtirilgan so'zlar asl talaffuz holatini saqlab qoldi. Arabiy va forsiy so'zlar aruz vazniga solib o'qilganda jonli muloqotda qo'llanilgan shaklda emas, balki asliyatga mos holatda keltirildi. Masalan, qasr so'zi Navoiy she'riyatida bitta o'ta cho'ziq (–V) hijodan iborat, holbuki biz jonli muloqotda bu so'zni qas(i)r shaklida (V–) talaffuz qilishga o'rganib qolganmiz. Yor, dor, zor kabi asli arabcha yoki forscha bo'lgan so'zlar ham forsiy va arabiy aruz o'lchoviga mos ravishda bitta o'ta cho'ziq (–V) hijo hisoblanadi. Ammo asli turkiy bo'lgan va "o" unlisi ishtirok etgan quyosh, tufroq, yosh, sori, dog'i kabi so'zlar matn va aruz talabiga muvofiq turli shaklda – bitta qisqa (V), bitta cho'ziq (–) yo bitta o'ta cho'ziq (–V) tarzida talaffuz qilinishi mumkin. Masalan, "Navodir ush-shabob" devonidagi quyidagi

baytga diqqat qilaylik:

Yoshdin angla yuzum, gar siymgundur, gar qizil,
Toshdin angla tanimni: gar ko'k o'lmish, gar qaro.

Baytning boshida kelgan "yosh" bitta o'ta cho'ziq bo'g'inni (–V) tashkil qiladi. Mana bu baytda esa, ayni shu so'z bitta qisqa bo'g'indan iborat bo'lmoqda:

Daf'a-daf'a gul sochilmaydur gulafshon bog'ida
Kim, mening gulgun yoshimdin qatra-qatra qon erur.

Quyidagi baytda esa, "tufroq" so'zi ikki xil taqti' qilinadi:

Faqr ko'yi tufrog'in shah mulkiga bermas faqir,
Mulk, ko'rkim, teng emas tufrog' ila qiymat anga.

Birinchi misradagi "tufrog'in"da "ro" bo'g'ini qisqa talaffuz qilinsa, ikkinchi misrada cho'ziq talaffuz qilinadi.

Bilamizki, ayrim turkiy shevalarda "o" tovushi umuman qo'llanilmaydi (tosh– tash, bosh – bash, qora – qara). Navoiy o'z she'riyatida ikkala variantni ham teng qo'llab, ham aruz imkoniyatlarini kengaytirgan, ham shevalardagi rang-barang-likni saqlab qolishga erishgan. Turkiy shevalardagi talaffuz rang-barangligi faqat "o" va "a" tovushlarida emas, balki "o'", "i", "e" unlilarida ham kuzatiladi. Navoiy aruz vazni talablaridan tashqari, ana shu talaffuz turlichaligidan hosil bo'ladigan ma'no tovlanishlarini ham hisobga olgan. Bu holat ayniqsa, tajnis san'ati qo'llanilgan baytlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Navoiy aruzining forsiy va arabiy aruzdan farqlanuvchi yana bir jihati – bu dimog' orqali talaffuz etiladigan "ng" tovushidir. Forsiy aruzda "ng" tovushi yo'qligi sababli, so'zlar taqti'i odatda ikki cho'ziq (– –) yoki bitta cho'ziq va bitta qisqa (–V) bo'g'inlarga bo'linadi (sangin – –; tanga – V).

Navoiy she'riyatida esa, –ga qo'shimchasi "n" undosh bilan tugaydigan sof turkiy so'zlar tarkibida kelganida taqti' bitta qisqa bo'g'in bilan boshlanadi. Masalan:

Ko'rgali husnungni zoru mubtalo bo'ldim sango,
Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldim sango.

Dimog' bilan talaffuz qilinadigan "ng" tovushi barcha shevalarda ham qo'llanilmasligini bilgan Navoiy har doim ham

bu qoidaga rioya qilmaydi. Masalan, mashhur ruboiysidagi "El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish" misrasini o'qiganimizda "ng" tovushini dimog' bilan emas, balki alohida-alohida talaffuz qilishimizga to'g'ri keladi. Ma'lum bo'ladiki, Navoiy turkiy tilni aruz qoidalargiga zo'rlab moslashtirmasdan, balki aruz tizimini ona tili tabiatiga uyg'unlashtirishga harakat qilgan va shu tariqa talaffuz tabiiyligini ta'minlashga erishgan.

Navoiy devonlarida qo'llanilgan vaznlarni o'rganish jarayonida shoir she'rlarining devondan devonga bahr jihatdan o'zgarib borganligini, vazn ko'rsatkichlari o'sib borganligini kuzatish mumkin. Xususan, shoirning yoshlik lirikasi jamlangan "Ilk devon" (1465–1466)dagi she'rlari vaznini o'rganish yosh shoirning aruz tizimidan foydalanish mahoratini aniqlashga yordam beradi.

Ma'lumki, "Ilk devon"da jami 434 she'r bo'lib, shundan 391 tasini g'azal janridagi she'rlar tashkil etadi. Bularning vazn xususiyatlariga nazar tashlasak, yosh Alisherning 24–25 yoshgacha bo'lgan she'rlarida aruz tizimining 8 bahri va 47 ta vazni qo'llanilganligini kuzatamiz[44]. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

T.r.	Bahr nomi	G'azallar	Boshqa janrdagi she'rlar	Jami she'rlar soni
1.	Ramal	255	1	256
2.	Hazaj	59	42	101
3.	Mujtass	45	-	45
4.	Muzori'	13	-	13
5.	Mutaqorib	12	-	12
6.	Rajaz	4	-	4
7.	Munsarih	2	-	2
8.	Sari'	1	-	1
	Jami	391	43	434

Shoirning yoshlik davri lirikasini vazn nuqtai nazaridan o'rganish shuni ko'rsatadiki, Navoiy o'z she'rlari uchun vazn tanlar ekan, ularni she'rning mavzusi, g'oyaviy mazmuni, qahramonlar ruhiyatini ochib berishga xizmat qildirgan. Agar ishq

[44] "Ilk devon" shoirning o'zi tomonidan tartib berilmaganligi uchun Navoiyning yoshlik lirikasida qo'llanilgan vaznlar ko'rsatkichi haqidagi xulosa nisbiylik kasb etadi, zero, bu muxlislarning shoir g'azallariga o'ziga xos yondashuvlari va ehtiyojlari nahsuli bo'lib, ushbu devonga shoirning o'sha davrgacha yozilgan barcha she'rlari kirmaganligi tabiiy.

iztiroblari, lirik qahramon kechinmalari vazmin va salobatli ohanglarda ta'sirchan ifodalangan bo'lsa, yor ta'rif-u tavsifi, uning go'zalligi madh etilgan baytlar yengil, o'ynoqi vaznlar vositasida tarannum etilganligini ko'ramiz.

Agar e'tibor qaratilsa, shoirning yoshlik lirikasiga xos she'rlarining yarmidan ko'prog'i turkona ohangga mos keluvchi ramal bahrida yaratilgan. Xususan, uning 161 g'azali ushbu bahrning *ramali musammani mahzuf (afoyili va taqti'i: foilotun foilotun foilotun foilun, – V – – / – V – –/ – V – –/ – V –)* vaznida yozilganligini ko'rish mumkin. Ulardan ayrimlarining matla'larini keltiramiz:

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarimg'a kecha tong otquncha uyqu kelmadi...

Ko'rgali husnungni zor-u mubtalo bo'ldum sango,
Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldum sango...

Navoiyning yoshlik davri lirikasida hazaj bahri ikkinchi o'rinni egallaydi. Shoir g'azallarining 59 tasi ushbu bahr vaznlarida yaratilgan bo'lib, ular orasida *hazaji musammani solim* vazni jozibali ohangi bilan alohida ajralib turadi:

Tun oqshom bo'ldi-yu kelmas mening sham'i shabistonim,
Bu anduh o'tidin har dam kuyar parvonadek jonim...

Bir oy o'tti meni mahzung'a bir oy intizorinda,
Ki ne ko'nglum erur hushinda, ne hushum qarorinda.

Devondan o'rin olgan 41 ruboiy ham an'anaviy hazaj bahri vaznlarida bo'lib, ularda Navoiy mazkur janrga xos 24 vaznning 13 tasidan mahorat bilan foydalangan. Ushbu vaznlardan 8 tasi axrab, qolgan 3 tasi esa axram shajarasiga mansub vaznlar hisoblanadi. Quyidagi ruboiyda axrab va axram shajarasi aralash tarzda qo'llanilgan (jami 3 vazn):

Qo'rqutma meni tamug'din, ey zohidi yax,
– – V / V – V – /V – – V / V –
Jannat manga bo'lg'usi debon urma zanax.
– – V / V – – V /V – – V / V –
Kim, do'zax aning yodi bila jannat erur,
– – V / V – – V /V – – V / V –

Jannat bori sening biladur do'zax.
– – – / – V – / V – – – / –

"Ilk devon"da ramal va hazajdan keyin istifoda etilish darajasiga ko'ra uchinchi o'rinni mujtass bahri egallaydi. Shoirning jami 45 g'azali ushbu bahr vaznlarida bitilgan.

Qaro ko'zum, kelu mardumlug' emdi fan qilg'il,
Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il...

Agarchi yo'q talabingdin dame qaror manga,
Irodat emgagidur bu, ne ixtiyor manga...

matla'li g'azallar shular jumlasidandir.

Shoirning yoshlik lirikasiga mansub she'rlarida muzori' bahri vaznlariga ham murojaat mavjud bo'lib, uning 13 g'azalida ushbu bahr istifoda etilgan. Umuman olganda, muzori' bahri ohanglari shoir shuuriga ancha erta kirgan bo'lib, olimlarimiz Navoiyning ilk yod olgan g'azali deb e'tirof etadigan Qosim Anvorning

Rindem-u oshiqem-u ɣahonso'z-u ɣoma chok,
– – V / – V – V /V – – V / – V ~
Bo davlati g'ami tu zi fikri ɣahon chi bok
– – V / – V – V /V – – V / – V ~

matla'li g'azali ham ushbu bahrda yaratilgan edi.

Shoirning muzori' bahrida yaratilgan g'azallaridan namunalar:

Ravshandururki mehr yuzungdin olur safo,
Yo'qsa, ne vajh ila qamar andin topar ziyo...

Bo'ynumg'a qayd qilg'ay ul oy qo'lini moyil,
Kim basdurur qulog'a it bo'ynig'a hamoyil...

El dardi yordin kam o'lur menda yor yo'q,
Ko'nglumda yuz tuman g'amu bir g'amgusor yo'q.

Shoirning yoshlik davrida yaratilgan g'azallari orasida asosan epik she'riyat uchun xos bo'lgan mutaqorib bahrida yaratilgan g'azallar ham borki, ularning soni 12 ta. Navoiy mazkur bahrning 4 vaznidan mahorat bilan foydalanib, ularda

Qachon otsa ul g'amza novak manga,
V – – / V – – / V – – / V –
Kelur gar ming o'lsa yako-yak manga...
V – – / V – – / V – – / V –

Zihi, ahli din qatli oyin sanga,
V – – / V – – / V – – / V –
Ne oyindur, ey kofiri Chin, sanga...
V – – / V – – / V – – / V –

matla'li g'azallarini bitgan edi.

"Ilk devon"dan vazmin va salobatli ohangga ega bo'lgan rajazi musammani solim (afoyili va taqti'i: mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun, – – *V* – / – – *V* – / – – *V* – / – – *V* –) vaznida yaratilgan she'rlar ham o'rin olgan bo'lib, unda shoirning 4 g'azali yaratilgan. Ulardan ayrimlarining matla'larini keltiramiz:

Ey, yetti manzar tarhig'a me'mori sun'ungdin bino,
Masnu'lar foniy, vale maslubi soni'din fano...

Mir'oti husnung tiyradur bu ohi dardolud aro,
Ravshanlig'i mumkin emas, chun sham' qoldi dud aro.

Navoiyning yoshlik lirikasi orasida munsarih bahrida bitilgan g'azallar ham mavjud. Munsarih bahri turkiy she'riyatimizda Alisher Navoiygacha deyarli qo'llanilmagan (faqat Hofiz Xorazmiyda uchraydi) bahr bo'lib, Navoiy uning vazn imkoniyatlarini o'rganib, ushbu bahrning turkiy til qonuniyatlariga to'la mos ekanligini isbotladi va yoshlik davridayoq ushbu bahrda 2 g'azal yaratdi. Ulardan birining matla'ini keltiramiz:

Ko'nglum ochilmas dame bu badani zordin,
– V V – / – V – / – V V – / – V –
O'ylaki mahkam tugun inchkaroq tordin.
– V V – / – V – / – V V – / – V –

Shoirning ilk lirikasida sari' bahrida yaratilgan bittagina g'azal ham mavjud bo'lib, bu bahr ham turkiy g'azaliyotda kam qo'llanilgan edi.

Yor labi aksi tushub jom aro,

– V V – / – V V – / – V –
Bodag'a jon ta'mi berur kom aro.
– V V – / – V V – / – V –

Alisher Navoiyning 1465-yildan 1471-yilgacha yaratilgan she'rlari uning muxlislar tomonidan tartib berilgan ikkinchi devoni – "Oqquyunli muxlislar devoni"dan o'rin olgan bo'lib, uning tarkibida 229 ta she'r bor, bu "Ilk devon"dagi she'rlardan qariyb ikki baravar kam demakdir. Bu miqdor bevosita devondan o'rin olgan she'rlarning vazn ko'rsatkichlariga ham ta'sir ko'rsatadi, albatta. Devondagi she'rlarni aruz nuqtai nazaridan tadqiq etish natijasida ularda 6 bahr, 22 vazndan foydalanilganligi ma'lum bo'ldi. "Ilk devon"da istifoda etilgan munsarih va sari' bahrlari ushbu devonda qo'llanilmaganligini ko'ramiz. Shuningdek, "Oqquyunli muxlislar devoni"da ruboiy janridagi she'rlarning ham mavjud emasligi undagi vaznlar sonining nisbati kamroq bo'lishiga olib kelgan. Devondagi she'rlarning bahrlar bilan bog'liq holdagi vazn ko'rsatkichlarini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

T.r.	Bahr nomi	G'azallar	Boshqa janrdagi she'rlar	Jami she'rlar soni
1.	Ramal	159	3	162
2.	Mujtass	26		26
3.	Hazaj	22	2	24
4.	Muzori'	12		12
5.	Mutaqorib	3		3
6.	Rajaz	2		2
	Jami	224	5	229

Agar diqqat qaratilsa, ushbu devonda avvalgi devondan farq qilib, ramal bahridan so'ng mujtass bahri yetakchilik qilayotganligini kuzatish mumkin ("Ilk devon"da 2-o'rinni hazaj bahri egallagan edi). Mujtass bahrining 4 tagacha ritmik variatsiyaga ega ekanligi va bu orqali shoirda bir g'azal tarkibida xilma-xil ohanglarni almashtirish imkoniyati mavjudligi, mujtass vaznlarining "Shashmaqom" kuylariga mos tushishi Navoiyning bu davrda yozilgan she'rlarida ushbu bahrga ko'p murojaat qilishiga sabab bo'lgandir. "Oqquyunli muxlislar devoni"ni aruz tizimi nuqtai nazaridan "Ilk devon"dan ajratib turuvchi yana bir jihat unda avvalgi devonda mavjud bo'lmagan ba'zi vaznlarning istifoda etilganligidir. Navoiy bu yillardagi ijodida ramal

bahrining *ramali musammani mashkul*, rajaz bahrining *rajazi musammani matviyi maxbun* kabi vaznlaridan ham foydalanib, o'z poetik mahoratini namoyish etdi. Xususan, adabiyotimizda juda kam qo'llanilgan – *ramali musammani mashkul (afoyili va taqti'i: failotu foulotun failotu foilotun, V V – V / – V – – / VV – V / – V – –)*ga murojaat qilib, o'zining bir g'azalini yaratdi. Ushbu vazn tarkibida 8 ta qisqa va 8 ta cho'ziq hijoning *failotu* va *foulotun* tarzida o'zaro almashinib takrorlanishi murakkab va ohang jihatidan og'ir, kuyga oson tushmaydigan o'lchovni hosil qiladi, shu sababli mazkur vazndan she'riyatimizda kam foydalanilgan.

Talabim sening huzurung, dilagim sening jamoling
Necha kun dirikligimdin g'arazim sening visoling.

deb boshlanuvchi g'azal shoirning ushbu murakkab vazndan mohirlik bilan foydalanganligini ko'rsatadi.

Avvalgi mavzularda aytib o'tilganidek, ushbu devondagi she'rlar o'g'uz lahjasiga moslashtirilib, ba'zi so'zlarning o'rni almashtirilib ko'chirilgan. Yuqoridagi g'azalda ham "tilagim" so'zi "dilagim", "tirikligim" so'zi "dirikligim" tarzida qo'llanilganligini, "talabim" va "dilagim" so'zlarining o'rni almashinib kelganligini kuzatish mumkin. "Badoyi' ul-bidoya" nashrlarida ushbu bayt quyidagi shaklda kelgan:

Tilagim sening huzurung, talabim sening jamoling
Necha kun tirikligimdin g'arazim sening visoling.

Alisher Navoiyning o'zi tomonidan tuzilgan birinchi rasmiy devoni "Badoyi' ul-bidoya"ning vazn xususiyatlarini o'rganish shoirning aruz tizimidan foydalanish imkoniyatlari she'rdan she'rga takomillashib borganligini ko'rsatadi. Mazkur devonda endi aruzning 9 bahridan foydalanganlikni ko'ramiz. Bu bahrlarni jadvalda quyidagicha aks ettirish mumkin:

T.r.	Bahr nomi	She'rlar miqdori
1.	Ramal	532
2.	Hazaj	284
3.	Mujtass	137
4.	Muzori'	43
5.	Mutaqorib	25
6.	Rajaz	16
7.	Sari'	2

8.	Komil	1
9.	Xafif	12
	Jami	**1046**

Jadvaldan ko‘rinadiki, shoir bu davrda avvalgi devonlarida foydalanmagan ikki bahrga – komil va xafif bahrlariga ham murojaat qilgan va turkiy aruzni yangi bahrlar bilan boyitgan. Ma’lumki, komil bahri arab she’riyatiga xos bahrlardan bo‘lib, bir rukn tarkibidagi 5 tagacha hijoning mavjud bo‘lishi muayyan murakkablikni vujudga keltiradi va bu bahr turkiy she’riyatda Alisher Navoiygacha istifoda etilmagan edi. Navoiy fors-tojik she’riyatida sinovdan o‘tgan ushbu o‘lchovni ilk bor turkiy she’riyatga olib kirdi. Uning komil bahrida yaratgan yagona g‘azali keyinchalik “Xazoyin ul-maoniy”ning “Navodir ush-shabob” (339-g‘azal) devoniga kiritilgan. G‘azalning matla’si quyidagicha:

Ne xayol edi yanakim ko‘ngul qushi saydini havas aylading,
V V – V– / VV – V – / V V – V – / V V – V –
Badanimg‘a har saridin xadang urubon anga qafas aylading.
V V – V– / VV – V – / V V – V – / V V – V –

Shoirning bu davrda yaratilgan she’rlari orasida xafif bahrida yaratilgan g‘azallar ham mavjud. Ma’lumki, ushbu bahr ko‘p vaznlilik imkoniyati (ritmik variatsiya)ga ega bo‘lib, uning birinchi va uchinchi ruknlarida cho‘ziq va qisqa hijolar o‘rin almashinib qo‘llanaverishi mumkin. Masalan,

Lab uza xatti anbaroludi,
Otashin la’lining erur dudi,

deb boshlanuvchi g‘azalning beshinchi baytida dastlabki misraning birinchi va uchinchi ruknlari qisqa hijolarning yetakchilik qilishi bilan xarakterlanadi:

Tan-u jon rishtasi g‘amingg‘a libos,
V V – – / V – V – / V V ~
Bu biri tori, ul biri pudi.
V – – / V – V – / – –

Ko‘rinadiki, “Badoyi’ ul-bidoya” devonidagi she’rlar avvalgi devonlarda istifoda etilmagan ikki bahr vaznlarida ham bitilgan bo‘lib, shoirning ilk davri lirikasida mahorat bilan qo‘llanilgan munsarih bahridan ushbu devonda foydalanilmagan ekan.

Umuman olganda, 1465–1480-yillar oralig‘ini Navoiy aruzi takomilining birinchi bosqichi, deb aytish mumkin. Bu davrda shoir bir qator yangi bahr va vaznlarni turkiy she’riyatga olib kirdi va turkiy til imkoniyatlarining kengligini isbotladi.

Navoiy she’riyatida aruz takomilining ikkinchi bosqichini 1480–1490-yillar oralig‘i tashkil qiladi. Shoirning shu davrda tartib berilgan “Navodir un-nihoya” devonidagi she’rlar aruz tizimining 11 bahrida yaratilgan (A.Hojiahmedov). Devonning yigirma jildlik “Mukammal asarlar to‘plami”dan o‘rin olgan nashri asosida (jami 862 g‘azal) g‘azallarning vazn xususiyatlarini o‘rganib chiqsak, quyidagi manzara hosil bo‘ladi:

T.r.	Bahr nomi	G‘azallar miqdori
1.	Ramal	599
2.	Hazaj	104
3.	Mujtass	102
4.	Muzori’	18
5.	Mutaqorib	22
6.	Rajaz	9
7.	Munsarih	1
8.	Mutadorik	2
9.	Komil	1
10.	Xafif	2
11.	Tavil	1
12.	Ariz	1[1]
	Jami	862

Agar devonda qo‘llanilgan bahrlarni avvalgi devonlar bilan qiyoslasak, “Navodir un-nihoya”da avvalgi devonlarda mavjud bo‘lmagan *tavil*, *mutadorik* hamda *ariz* bahrlari qo‘llanilganligi, avvalgi devonlarda istifoda etilgan sari’ bahridan esa foydalanilmaganlikni kuzatamiz.

Devonning o‘ziga xos bahrlarini ko‘rib chiqsak. “Navodir un-nihoya”da ilk tajriba sifatida qo‘llanilgan mutadorik bahri Alisher Navoiygacha bo‘lgan turkiy she’riyatda uchramaydi. Navoiy mazkur bahrning ikki vaznini she’riyatimizga olib kirib, ularning turkiy til imkoniyatlariga qanchalik mos kelishini tajribadan o‘tkazdi. Xususan, mutadoriki musammani solim (afoyili va taqti’i: foilun foilun foilun foilun, – *V* – / – *V* – / –

(Footnotes)

[1] Keyingi izlanishlar natijasida devonda ariz bahrida yaratilgan bir g‘azal ham borligi ma’lum bo‘ldi (Bu haqda qarang: Юсупова Д. Алишер Навоий ва Заҳириддин Муҳаммад Бобур: ариз баҳрига муносабат // Шарқ юлдузи, 2014. -№ 5).

V – / – V –) vaznida shoirning quyidagi matla'li g'azali bitilgan:

Jong'a la'ling mayi jomidur multamas,
Ne Xizr suyi, ne jomi Jamdir havas.

Ushbu bahrning yana bir vazni – *mutadoriki musammani maqtu'* (afoyili va taqti'i: fa'lun fa'lun fa'lun fa'lun, – – / – – / – – / – – da ham shoirning bir g'azali yaratilgan:

Borg'il, ey hamdam, har yoni,
Ko'nglum itmish, topqil oni.

Devondan arab she'riyatiga xos yana bir bahr – *tavil* bahrida yaratilgan bir g'azal ham o'rin olgan bo'lib, Navoiy mazkur vaznning tilimiz xususiyatlariga mos kelishi, yengil va serjilo ohangga ega ekanligini tajribada sinab ko'radi va keyinchalik ushbu vazn asosida yana ikki g'azal yaratadi. Ushbu bahr *fauvlun* va *mafoiylun* ruknlarining ketma-ket takroriga asoslanadi va she'riyatda faqat musamman shaklida uchraydi. "Navodir un-nihoya"ga kiritilgan g'azal matla'sini ko'rib chiqsak:

Yuzungdek qamar yo'qtur, qadingdek shajar yo'qtur,
V – – / V – – – / V – – / V – – –
Shajar bo'lsa ham anda labingdek samar yo'qtur.
V – – / V – – – / V – – / V – – –

Devonga ariz bahrida yaratilgan bir g'azal ham kiritilgan. Ariz bahri forsiy aruzshunoslarning kashfiyoti bo'lib, arab she'riyatida qo'llanilmagan. Tavil bahriga o'xshab mafoiylun va fauvlun ruknlarining takroriga asoslanganligi uchun aruzshunoslikda *maqlubi tavil* (tavilning aksi) deb ham ataladi, chunki unda avval mafoiylun, keyin fauvlun ruknlari keladi. Devonga kiritilgan g'azal hamd mavzusida bo'lib, quyidagi matla' bilan boshlanadi:

Sanoyi zoting ichra topib ajz, ahli idrok,
V – – – / V – – / V – – – / V – ~
Gahi lo uhsi aytib zamone mo arafnok.
V – – – / V – – / V – – – / V – ~

Navoiy aruzining cho'qqisi "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti devonlarida aks etgan. Kulliyotda aruz tizimining jami 13 bahr, 100 ga yaqin vazn qo'llanilgan. Ushbu bahr va vaznlarni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

T.r.	Bahr nomi	Vaznlar miqdori	She'rlar miqdori
1.	Ramal	20	1827
2.	Hazaj	35 (shundan 15 tasi ruboiy vazni)	668
3.	Mujtass	5	348
4.	Muzori'	7	105
5.	Mutaqorib	8	75
6.	Rajaz	4	24
7.	Munsarih	3	12
8.	Mutadorik	3	3
9.	Komil	1	1
10.	Sari'	2	3
11.	Xafif	5	62
12.	Tavil	3	3
13.	Ariz	1	1
	Jami		**3132**

Navoiy ushbu kulliyotida avvalgi devonlarida kuzatilmagan ba'zi vaznlarda she'rlar bitib, turkiy aruz rivojini yangi bosqichga olib chiqdi. Ruboiy vaznlarining yangi o'lchovlari, munsarih, mutaqorib bahrlarining she'riyatimizda qo'llanilmagan vaznlaridan ilk bor foydalanib, ularning turkiy til imkoniyatlariga mos ekanigini amaliy jihatdan isbotladi. Xususan, munsarih bahrining *munsarihi musammani matviyi mavquf* (afoyili va taqti'i: muftailun foilotu muftailun fa', – *V V* – / – *V* – *V* / – *V V* – / –) vaznida shoir quyidagi matla'li g'azalini bitdi:

Ko'nglum aro bir ajab muhol havastur,
– V V – / – V – V / – V V – / –
Lablaridinkim, husuli mumkin emastur.
– V V – / – V – V / – V V – / –

Mutaqorib bahrining mutatavval (ko'p ruknli) vazni – *o'n olti ruknli mutaqoribi maqbuzi aslam*ni turkiy she'riyatga olib kirish shoirning ushbu bosqichdagi muhim xizmatlaridan bo'ldi. Navoiy ushbu o'lchovda ikki g'azal yaratdi. Ulardan birini taqti'i bilan ko'rib chiqamiz:

Ne pok Majnunki, bir parichehra pok husnig'a zor bo'lg'ay,
V – *V* / – – / *V* – *V* / – – / *V* – *V* / – – / *V* – *V* / – –
Bu pok ishq ichra pok jon tarki etsa, ne ixtiyor bo'lg'ay.
V – *V* / – – / *V* – *V* / – – / *V* – *V* / – – / *V* – *V* / – –

("Favoyid ul-kibar", 634-g'azal)

"Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti tarkibidagi she'rlarning vazn ko'rsatkichi dastlab aruzshunos olim Sodiq Mirzayev tomonidan

1948-yilda "Navoiy aruzi" nomli nomzodlik dissertatsiyasi ilova qismida aks ettirilgan va bunda olim kulliyotdagi har bir she'rning bahri va vaznini alohida belgilab bergan edi. Keyinchalik bu ko'rsatkich navoiyshunos olim Hamid Sulaymonov tomonidan nashrga tayyorlangan "Xazoyin ul-maoniy"ning akademik nashri (to'rt jild) dan o'rin oldi hamda Navoiy ixlosmandlari uchun aruz nazariyasi va amaliyotini o'zlashtirishlarida muhim hissa bo'ldi. Oradan bir oz vaqt o'tib, aruzshunos olim A.Hojiahmedov ham ushbu ko'rsatkichlarni tadqiq etib, ularni qayta ko'rib chiqish va to'ldirish zarurati borligini aniqlab, o'zining "Navoiy aruzi nafosati" tadqiqotida tuzatilgan va to'ldirilgan holatda qayta e'lon qildi.

Alisher Navoiyning aruz nazariyotchisi sifatidagi faoliyati uning "Mezon ul-avzon" nomli nazariy risola bitganligi bilan bog'liqki, biz bu risolaning nazariy ahamiyati, turkiy aruzshunoslikdagi o'rni haqida kitobimizning birinchi qismida ma'lumot berib o'tganmiz.

Ruboiy vaznlari. Ma'lumki, mumtoz adabiyotimizda ruboiy janri alohida o'rin tutib, uning o'ziga xos shartlaridan biri maxsus vaznda yozilishidir. Bu **hazaj** bahrining *axrab* va *axram* shajarasi bo'lib, bu haqda Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida shunday yozadi:

"Ruboiy vaznikim, oni "dubaytiy" va "tarona" ham derlar, hazaj bahrining "axram" va "axrab"idin istixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xushoyanda va vaznedur bag'oyat raboyanda". Hazaj bahrining axrab shajarasi 12 vaznni, axram shajarasi yana 12 vaznni o'z ichiga oladi va ushbu jami 24 vazn ruboiy vaznlari hisoblanadi. Ruboiyning she'riy o'lchovi bilan bog'liq muhim xususiyat shundaki, boshqa she'riy janrlardan farqli o'laroq uning to'rt misrasi mazkur shajaralarga mansub 4 xil vaznda yozilishi mumkin. Alisher Navoiy she'riyatida ruboiy vaznlarining 15 turidan foydalanilgan. Ushbu vaznlarni ko'rib chiqsak.

Dastavval hazaj bahrining asliy rukni hisoblangan ***mafoiylun*** ruknidan hosil bo'lgan hamda ruboiy vaznlarini shakllantiradigan tarmoq ruknlarni eslab olsak:

№	Rukn nomi	Taqti'i	Chizmasi
1	Maqbuz	Mafoyilun	V – V –
2	Makfuf	Mafoiylu	V – –V
3	Axram	Maf'uvlun	– – –
4	Axrab	Maf'uvlu	– – V

5	Ashtar	Foilun	– V –
6	Ajabb	Faal	V –
7	Ahtam	Fauvl	V ~
8	Abtar	Fa’	–
9	Azall	Fo‘	~

Ruboiy janridagi she’rlar aynan mana shu ruknlar ishtirokida hosil bo‘lgan vaznlarda yoziladi. Yuqorida aytganimizdek, ruboiy hazaj bahrining axrab va axram shajarasi vaznlarida yoziladi.



Bu hazaj bahridan hosil bo‘lgan ikki shajara: axrab va axramning boshlanishidir. Endi har bir shajarani alohida o‘rganib chiqamiz. Dastavval axrab shajarasiga diqqat qaratamiz.

Ruboiy vaznlari, odatda, musamman shaklida kelib, misradagi to‘rtinchi rukn bevosita uchinchi ruknga bog‘liq. Ya’ni uchinchi rukning oxirgi hijosi cho‘ziq bo‘lsa, to‘rtinchi rukn ham cho‘ziq bilan, qisqa bo‘lsa, qisqa bilan boshlanadi. Axrab shajarasiga mansub vaznlarni ko‘rib chiqamiz:

1. Hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar
Maf’uvlu mafoyilun mafoiylun fa’
– – V / V – V – / V – – – / –
Til so‘z bila to qizitti hangomamni,
Bir ham tiya olmadim bu xudkomamni.
Har necha itikrak ayladim xomamni,
Ul xoma qaroroq ayladi nomamni.
(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 133-ruboiy)

Ushbu ruboiyning barcha misralari yuqoridagi vazn asosida yozilgan.

2. Hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi azall
Maf’uvlu mafoyilun mafoiylun fo‘
– – V / V – V – / V – – – / ~
Mahbubdurur gul-u visoli matlub,
Ko‘rmak ani gulbun uzra bilgil mahsub.

Bazm ichra uzub keturgan ermas marg'ub,
Ul nav'ki majlis ichra o'lgan mahbub.
("G'aroyib us-sig'ar", 16-ruboiy)

Ushbu ruboiyning barcha misralari yuqoridagi vazn asosida yozilgan.

3. Hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi ajabb
Maf'uvlu mafoyilun mafoiylu faal
– – V / V – V – / V – – V / V –
Qo'rqutma meni tamug'din, ey zohidi yax,
Jannat manga bo'lg'usi debon urma zanax.
Kim, do'zax aning yodi bila jannat erur,
Jannat bori sening biladur do'zax.
("G'aroyib us-sig'ar", 27-ruboiy)

Ushbu ruboiyning 1-, 2-misralari yuqoridagi vazn asosida yozilgan.

4. Hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi ahtam
Maf'uvlu mafoyilun mafoiylu fauvl
– – V / V – V – / V – – V / V ~

Kim istasa saltanat, saxodur anga shart,
Har va'daki aylasa vafodur anga shart.
Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,
Ollig'a nekim kelsa, rizodur anga shart.
("G'aroyib us-sig'ar", 62-ruboiy)

Ushbu ruboiyning 1-, 2-misralari yuqoridagi vazn asosida yozilgan.

5. Hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar
Maf'uvlu mafoiylu mafoiylun fa'
– – V / V – – V / V – – – / –

Jonimg'a qilur javr-u jafo yor asru,
Kim yor ichida javr-u jafo bor asru.
Bo'ldum chekibon javr-u jafo zor asru,
Men javrkash-u yor jafokor asru.

("G'aroyib us-sig'ar", 108-ruboiy)

Ushbu ruboiyning barcha misralari yuqoridagi vazn asosida yozilgan.

6. Hazaji musammani axrabi makfufi solimi azall
Maf'uvlu mafoiylu mafoiylun fo'
– – V / V – – V / V – – – / ~

Yoshimg'a bag'ir qoni chu erdi monand,
Ko'z asradi yoshdek bo'lub andin xursand.
Turmodi ko'zumda yetkach ul sarvi baland
Bo'lmas kishi farzandi kishiga farzand.
("G'aroyib us-sig'ar", 29-ruboiy)

Ushbu ruboiyning 1-, 2-, 4-misralari yuqoridagi vazn asosida yozilgan.

7. Hazaji musammani axrabi makfufi ajabb
Maf'uvlu mafoiylu mafoiylu faal
– – V / V – – V / V – – V / V –

Johilki hasad bo'lg'ay aning jahlig'a zam,
Nur el ko'zidin anglasa o'z ko'zida kam.
Ko'zlarni alishmoqqa chekib tig'i sitam,
El ko'zini ham o'yg'a-yu o'z ko'zini ham.
("G'aroyib us-sig'ar", 94-ruboiy)

Ushbu ruboiyning barcha misralari yuqoridagi vazn asosida yozilgan.

8. Hazaji musammani axrabi makfufi ahtam
Maf'uvlū mafoiylu mafoiylu fauvl
– – V / V – – V / V – – V / V ~

Chun xanjari hajring manga qat' etti hayot,
Bori g'amu darding o'qini tinmayin ot
Kim, oncha qovursun par o'lub butsa qanot,
Toyir bo'lubon etkamen oxir sanga bot.
("G'aroyib us-sig'ar", 21-ruboiy)

Axrab shajarasining qolgan 4 vazni Navoiy she'riyatida u qadar keng qo'llanilmagan.

Axrab shajarasi

1. *Hazaji musammani axrami ashtari solimi abtar*
Maf'uvlun foilun mafoiylun fa'
– – – / – V – / V – – – / –

Quyidagi ruboiyning to'rtinchi misrasi aynan shu vazn asosida yozilgan:

Hajringda mening sabrima juz nuqson yo'q,
Ko'nglum aro g'ayri nolau afg'on yo'q.
Jonimg'a hayot umidi xud imkon yo'q,
Yo'q, yo'q, yo'q, sabr yo'q, ko'ngul yo'q, jon yo'q.
("G'aroyib us-sig'ar", 76-ruboiy)

2. *Hazaji musammani axrami ashtari solimi azall*
Maf'uvlun foilun mafoiylun fo'
– – – / – V – / V – – – / ~

Quyidagi ruboiyning ikkinchi misrasi aynan shu vazn asosida yozilgan:

Yosh ulg'aysa toqi muqarnasdur dard,
Balki mamlu sipehri atlasdur dard.
Qari kishiga balki kam ermasdur dard,
Yuz sihhati bo'lsa, qariliq basdur dard.

3. *Hazaji musammani axrami ashtari makfufi axtam*
Maf'uvlun foilun mafoiylu faal
– – – / – V – / V – – V / V –

Quyidagi ruboiyning birinchi misrasi aynan shu vazn asosida yozilgan:

Xushtur bo'lsoq ikovla hamdam sen-u men,
Bir-biriga desak yetushsa har g'am sen-u men.
Bo'lsoq bor esak haramg'a mahram sen-u men,
Mug' dayri aro bo'lsa vatan ham sen-u men.
("G'aroyib us-sig'ar", 102-ruboiy)

4. *Hazaji musammani axrami axrabi solimi abtar*
Maf'uvlun maf'uvlu mafoiylun fa'
– – – / – – V / V – – – / –

Quyidagi ruboiyning ikkinchi va to‘rtinchi misralari aynan shu vazn asosida yozilgan:

Olam tarki kishiga himmatdin erur,
Kim ko‘p shiddat ul sori rag‘batdin erur.
Nafsingg‘a qayu alamki shiddatdin erur,
Maxfiy tutmoq oni muruvvatdin erur.

5. Hazaji musammani axrami axrabi solimi azall
Maf’uvlun maf’uvlu mafoiylun fo‘
– – – / – – V / V – – – / ~

Quyidagi ruboiyning ikkinchi misrasi aynan shu vazn asosida yozilgan:

Ey joni habib-u ko‘ngli ahbobqa lol,
Men ham qildim jon-u ko‘ngulni irsol.
Ko‘nglimga ber ahbob bila jomi visol,
Jonimni habib ayog‘i tufrog‘ig‘a sol.
(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 88-ruboiy)

6. Hazaji musammani axrami axrabi makfufi ajabb
Maf’uvlun maf’uvlu mafoiylu faal
– – – / – – V / V – – V / V –

Quyidagi ruboiyning uchinchi misrasi aynan shu vazn asosida yozilgan:

Har kimki tama’durur giriftorlig‘i,
Ne sud anga ahli saxo yorlig‘i.
Izzat bermas naqd-u diram borlig‘i,
Kim bo‘ldi tama’din kishining xorlig‘i.

7. Hazaji musammani axrami axrabi makfufi ahtam
Maf’uvlun maf’uvlu mafoiylu fauvl
– – – / – – V / V – – V / V ~

Quyidagi ruboiyning uchinchi misrasi aynan shu vazn asosida yozilgan:

Ul damki quyosh ayladi mag‘ribqa ruju’,
Gar suhbat o‘shul quyosh bila topsa vuqu’,
Xushtur qilmoq jom quyoshig‘a shuru’,
Ul damg‘achakim, qilur quyosh jomi tulu’.
(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 65-ruboiy)

Umuman olganda, Alisher Navoiy o‘zigacha bo‘lgan turkiy va forsiy she’riyatning vazn xususiyatlaridan ijodiy foydalangan holda o‘z she’riyatida 13 bahr va 100 ga yaqin vaznlarni qo‘llab, turkiy tilda g‘oyaviy va badiiy jihatdan yuksak asarlar yaratish mumkinligini isbotlab berdi. Buyuk mutafakkir tomonidan turkiy she’riyatga olib kirilgan bahr va vaznlar keyingi davr shoirlari uchun mahorat mezoni bo‘lib xizmat qildi.



Tayanch tushunchalar

aruz
vazn
bahr
ramal
hazaj
rajaz
mutaqorib
mujtass
muzori’
munsarih
sari’
xafif
mutadorik
komil
tavil
ariz
ruboiy vaznlari
axrab shajarasi
axram shajarasi



Savol va topshiriqlar

1. Navoiygacha bo‘lgan turkiy she’riyatning bahr va vaznlar ko‘lami haqida ma’lumot bering.

2. “Ilk devon”da nechta bahr va va vazn istifoda etilgan?

3. Oqquyunli muxlislar devonining vazn xususiyatlari haqida nimalar deya olasiz?

4. “Badoyi’ ul-bidoya” devonida qaysi bahrlar yetakchilik qiladi?

5. “Navodir un-nihoya” devoniga xos bahrlar haqida ma’lumot bering.

6. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining vazn ko‘rsatkichlari haqida nimalar bilasiz? Ko‘rsatkichlarning yaratilishida qaysi olimlarning xizmatlari bor?

7. Ruboiy vaznlari haqida ma'lumot bering. Axrab va axram shajaralar o'zaro qanday farqlanadi?

8. Navoiy she'riyatida qo'llanilgan ruboiy vaznlarini sanang.



ADABIYOTLAR:

Matn va manbalar:

1. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний (Илмий-танқидий матн асосида нашрга тайёрловчи Ҳ.Сулаймонов). 4 жилдлик. 1-4-жилдлар. – Т.: Фан, 1959-1960.

2. Алишер Навоий. Илк девон. 1466 йилда кўчирилган қўлёзманинг факсимил нашри. Нашрга тайёрл. Ҳ.Сулаймон. – Т.: Фан, 1968.

3. Алишер Навоий. Оққуюнли мухлислар девони. 1471 йилда кўчирилган қўлёзманинг факсимил нашри. Нашрга тайёрл. А.Эркинов / Alī Shīr Navā'ī. Dīvān of the Aq qoyunlu Admirers (1471). Tokyo, 2015.

4. Алишер Навоий. Бадоеъ ул-бидоя. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1987. 1-ж.

5. Алишер Навоий. Наводир ун-ниҳоя. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1987. 2-ж.

6. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. МАТ. 20 жилдлик. Т.: Фан, 1988-1990. 3–6-ж.

7. Алишер Навоий. Хазойинул маоний. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. 1–4-ж.

8. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Нашрга тайёрл. О.Давлатов. Тўрт жилдлик. – Т.: TAMADDUN, 2011. 1–4-ж.



Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

9. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1–2-жилдлар /Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.

10. Исҳоқов Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси: Филол. фан. номзоди дисс... – Т., 1963.

11. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979.

12. Эркинов А. Навоийнинг мухлислари томонидан тузилган яна бир девони // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: Фан, 2012. – №1.

13. Yusupova D. Aruz alifbosi (Navoiy poetikasi fanidan saboqlar). – T.: Akademnashr, 2015.

14. Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006.



NAVOIY "XAMSA"SINING VAZN XUSUSIYATLARI

Reja:

1. "Xamsa" vaznlari va turkiy epik she'riyat.

2. Vazn va ritmik variatsiyalar.

3. Hazaji axrab va xafif bahrlariga xos ritmik variatsiyalar. Ularning dostonlar mazmunini ochishdagi o'rni.

4. Ritmik urg'u va "Xamsa" dostonlari.

Alisher Navoiy "Xamsa"si tarkibiga kiruvchi dostonlar vaznini o'rganish shoir badiiy mahoratining yana bir muhim qirrasi haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Zero, dostonlarda vazn va u orqali ritm obraz yaratishning asosiy vositalaridan bo'lib, muallif g'oyaviy niyati, qahramonlar ruhiyati, voqealar rivoji va umuman badiiy asar mazmuniga ko'p jihatdan bog'liqdir. Sharqshunos olim N.Konrad Navoiy "Xamsa"si haqida gapirar ekan, ritmlardagi har xillik jihatidan bu besh dostonni musiqa ilmidagi pentatonikaga o'xshatgan edi. "Biri – haqiqiy major, ikkinchisi – haqiqiy minor; uchinchisi – majorga "yaqinlashayotgan", to'rtinchisi – "minorga yaqinlashayotgan" va nihoyat beshinchi doston major va minorning ajralmas birligidir". Garchi Navoiy "Xamsa"si forsigo'y salaflari Nizomiy va Dehlaviy dostonlariga nazira tarzida vujudga kelgan bo'lsa-da, Navoiy o'z "Xamsa"si misolida an'anaviy shakl doirasida ham yangi fikr ayta olish imkoniyatini, belgilab berilgan shakllarni jilvalantirish usullari mavjudligini ko'rsatib berdi. Xususan, "Xamsa" dostonlari uchun avvaldan qat'iy belgilab qo'yilgan she'riy o'lchovlarning vazn xususiyatlaridan foydalanib, o'z g'oyaviy niyatini amalga oshirdi. Dastavval, "Xamsa" vaznlarining turkiy epik she'riyatda qo'llanilish ko'lamiga va Navoiyning bu sohadagi novatorligi bilan bog'liq jihatlarga e'tibor qaratsak.

Alisher Navoiy "Xamsa"sidagi birinchi doston "Hayrat ul-abror" Nizomiy dostoni singari sari' bahrining *sariyi musaddasi matviyi makshuf vazni* (afoyili va taqti'i: muftailun muftailun

foilun, –*VV*–/–*VV*–/–*V*–) da yaratilgan. O‘zbek adabiyotida Navoiygacha bu vazn Durbekka nisbat beriladigan “Yusuf va Zulayxo”, Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” (“Gulshan ul-asror”)i va Sayyid Qosimiy dostonlarida qo‘llanilgan edi.

So‘nggi ikki muallifning dostonlari Nizomiy “Maxzan ul-asror”iga bevosita javob bo‘lganligi uchun ushbu dostonlarda mazkur she’riy o‘lchov qo‘llanilgan. Sayyid Qosimiyning “Gulshani roz” dostoni garchi Nizomiy dostoniga javoban yozilmagan bo‘lsa-da, mazmuniga ko‘ra pandnoma ruhidagi doston bo‘lganligi uchun unda aynan shu mavzudagi dostonlar uchun mo‘ljallangan sari’ bahridan foydalanilgan. A.Rustamov sari’ bahri pand-nasihat ohangiga ega bo‘lgan bahr bo‘lganligi uchun “Xamsa”larning birinchi dostoni shu she’riy o‘lchovda yaratilgan, degan fikrni bildiradi. Haqiqatan ham, sari’ bahri epik poeziya vaznlari orasida eng yengil va o‘ynoqi ohangga ega bo‘lgan vazn hisoblanadi. Pand-nasihat ruhidagi fikrlarning kitobxon tomonidan malol kelmaydigan darajada qabul qilinishiga erishish uchun aynan shunday ohangdagi she’riy o‘lchov zarur edi. Har ikkala holatda ham dostonlar uchun tanlangan she’riy o‘lchov asar mavzusiga mutanosib ekanligini ko‘rish mumkin.

Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi ikkinchi doston “Farhod va Shirin” 1484- yilda yozib tugallanadi. Unda an’anaviy ***hazaji musaddasi mahzuf*** (afoyili va taqti’i: mafoiylun mafoiylun fauvlun, *V– – –/V– – –/V– –*) vazni qo‘llanilgan. O‘zbek epik poeziyasida mazkur vaznning ilk bor istifoda etilishi Xorazmiy nomi bilan bog‘liq. Uning 1353–1354-yillarda yaratilgan “Muhabbatnoma” dostoni shu vaznda yaratilgan edi. Alisher Navoiy o‘zining “Mezon ul-avzon” asarida turk xalqida “Muhabbatnoma” deb atalgan qo‘shiq borligini va mazkur qo‘shiqning o‘lchovi biz yuqorida tilga olgan vazn bilan mutanosib kelishini ta’kidlaydi: *“Va yana turk ulusida bir suruddurkim, ani “muhabbatnoma” derlar, ul hazaji musaddasi maqsur bahridadur va xolo matruqdur, budur (bayt) :*

Meni og‘zing uchun shaydo qilibsen,
Manga yo‘q qayg‘uni paydo qilibsen”.

Xorazmiydan keyin bu vazn turkiy adabiyotda ishqiy mavzudagi dostonlarning asosiy she’riy o‘lchovi bo‘lib qoldi. Xususan, Amiriy “Dahnoma”si, Said Ahmad “Taashshuqnoma”-

si, Xo‘jandiy “Latofatnoma”si, Sayfi Saroyining “Suhayl va Guldursun”i, Haydar Xorazmiy “Gul va Navro‘z”i, Sayyid Qosimiyning “Haqiqatnoma” va “Ilohiynoma” dostonlari shu vaznda yaratilgan edi. Ushbu dostonlardan Nizomiy “Xisrav va Shirin”iga javob tarzida yaratilgan turkiy doston Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni hisoblanadi. Navoiy mazkur dostonni yaratishda Nizomiy dostonidan ta’sirlangan holda turkiy adabiyotda o‘zigacha yaratilgan ishqiy dostonlardan ham muayyan darajada foydalandi.

Navoiy “Xamsa”sidagi “Layli va Majnun” dostoni hazaj bahrining *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf* (afoyili va taqti’i: maf’ulu mafoilun fauvlun, – – *V*/*V* – *V* –/*V* – –) vaznida yaratilgan. O‘zbek epik poeziyasida Navoiygacha Layli va Majnun muhabbati bilan bog‘liq mavzu ishlanmagan edi. Navoiy bu mavzuni birinchilardan bo‘lib qalamga oldi va undagi she’riy o‘lchov – *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf vazni*ni ham turkiy epik she’riyatda birinchi bo‘lib qo‘lladi. Ungacha biror turkiy doston mazkur vaznda yaratilmagan edi.

Ma’lumki, beshlik tarkibidagi to‘rtinchi doston “Sab’ai sayyor” g‘oyaviy yo‘nalishiga ko‘ra ishqiy-sarguzasht doston hisoblanadi. Navoiy bunday dostonlar uchun oldindan belgilab qo‘yilgan *xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf* (afoyili va taqti’i: foilotun mafoilun failun, – *V* – – *V* – *V* – *V V* –) vaznidan she’riy o‘lchov sifatida foydalanadi. Mazkur vazn ham turkiy epik she’riyatda Navoiygacha istifoda etilmagan edi. Alibek Rustamov “Sab’ai sayyor” dostoni qolgan dostonlarga nisbatan yengil ruhdagi doston bo‘lganligi uchun uning vazni ham asarga yengillik ohangi beruvchi xafif bahridadir deb hisoblaydi. Darhaqiqat, xafif bahri lug‘aviy ma’nosiga (arabcha “yengil”) mos keluvchi ritmga ega. Bunga sabab sifatida bu she’riy o‘lchov tarkibida qisqa va cho‘ziq bo‘g‘inlarning deyarli teng nisbatda ekanligini keltirish mumkin, ya’ni cho‘ziq bo‘g‘inlar soni 6 ta, qisqa bo‘g‘inlar esa 5 tani tashkil qiladi. Ba’zan esa bu nisbat (ritmik variatsiyalar qo‘llanilgan paytda) aksincha ham bo‘lishi mumkin (qisqa bo‘g‘inlar 6 ta, cho‘ziq bo‘g‘inlar 5 ta). Qisqa bo‘g‘inlarning vazn tarkibida ko‘proq qo‘llanilishi ohangning yengil va o‘ynoqi bo‘lishiga olib keladi, buni “Hayrat ul-abror” dostonida qo‘llanilgan sari’ bahriga nisbatan ham aytish mumkin, bu she’riy o‘lchovda ham qisqa va cho‘ziq bo‘g‘inlar soni

orasida deyarli farq yo‘q, ya’ni qisqa bo‘g‘inlar soni 5 ta, cho‘ziq bo‘g‘inlar esa 6 tani tashkil qiladi. Fikrimizni yanada asoslash uchun “Farhod va Shirin”da qo‘llanilgan hazaji mahzuf vaznidagi cho‘ziq va qisqa hijolar nisbatiga e’tibor qaratamiz:

V – – –/V – – –/V – –

Ko‘rinyaptiki, mazkur taqti’da qisqa bo‘g‘inlar soni 3 ta, cho‘ziq bo‘g‘inlar esa undan ancha ko‘p (8 ta) ekan. Aynan shu fikrni “Layli va Majnun” dostonida qo‘llanilgan she’riy o‘lchov (– – V/V – V –/V – –)ga nisbatan ham aytish mumkin. Demak, vazn tarkibida qisqa bo‘g‘inlar sonining ko‘proq qo‘llanilishi ohangga yengillik va o‘ynoqilik bag‘ishlasa, cho‘ziq bo‘g‘inlar miqdorining yetakchilik qilishi natijasida esa sokin va vazmin ohang vujudga kelar ekan.

Navoiy beshligidagi so‘nggi doston “Saddi Iskandariy” Nizomiy “Iskandarnoma”si singari mutaqorib bahrida yaratilgan. Alisher Navoiygacha bu vazn Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig”ida va Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” dostonlarida qo‘llanilgan edi. Navoiy ushbu dostonlardan “Hibat ul-haqoyiq” dostoni bilan tanish bo‘lganligini “Nasoyim ul-muhabbat”da eslab o‘tadi.

Demak, yuqoridagilardan ma’lum bo‘lyaptiki, Alisher Navoiy “Xamsa”si dostonlarida qo‘llanilgan she’riy o‘lchovlar uchun Nizomiy “Xamsa”si vaznlari asos bo‘lgani holda turkiy epik she’riyatda Navoiygacha qo‘llanilgan vaznlar ham muayyan darajada ta’sir ko‘rsatgan, shu jihatdan Navoiyni ham xamsachilik an’anasiga munosabat bildirgan ijodkor sifatida, ham turkiy epik she’riyatning davomchisi sifatida o‘rganish mumkin.

Endi “Xamsa” vaznlari va ular bilan bog‘liq ritmik variatsiyalarga to‘xtalib o‘tsak. “Xamsa” vaznlarini tarkibiy tuzilishiga ko‘ra shartli ravishda 2 guruhga ajratish mumkin:

1. Mustaqil vaznlar.

2. Ritmik variatsiyalarga ega bo‘lgan vaznlar.

Mustaqil vaznlarga sari’i musaddasi matviyi makshuf, hazaji musaddasi mahzuf, mutaqoribi musammani mahzuf vaznlarini kiritish mumkin. Mazkur vaznlar dostonlar tarkibida boshdan-oxirigacha bir xil tarzda takrorlanib boradi. Ular ritmik variatsiyalarga ega emas[45].

[45] Aslida bu fikr ham nisbiy. Yuqorida sanalgan ushbu uch vazn doston misralarida uchinchi ruknning so‘nggi bo‘g‘ini o‘ta cho‘ziq bo‘g‘in bo‘lgan vazn bilan o‘zaro almashinib qo‘llanaveradi. Xususan, sari’i musaddasi matviyi

Ma'lumki, **ritmik variatsiya** bu bir vaznning ichki imkoniyatlar asosida yangi variantlarga ega bo'lishidir. Bunda bir cho'ziq bo'g'in ikki qisqa bo'g'in bilan almashishi yoki qisqa bo'g'inning o'rnini cho'ziq bo'g'in egallashi, misra oxiridagi cho'ziq bo'g'in o'ta cho'ziq bo'g'in bilan o'rin almashinib qo'llanaverishi mumkin. Asarda uzun hijolarning ko'proq bo'lishi – voqeaning ulug'vorligini, harakatning salmoqdorligini ta'minlaydi; qisqa hijolarning ko'pligi esa harakatga tezlik, yengillik, o'ynoqilik bag'ishlaydi.

"Xamsa" vaznlari orasida ritmik variatsiyalarga ega bo'lgan vaznlar sirasiga *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf* va *xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf* vaznlarini kiritish mumkin. Ularning har birini alohida ko'rib chiqamiz. Dastlab hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf vazni haqida[46].

A.Hojiahmedov ushbu vazn tarkibidagi o'zgarishlarni "... aruz ilmiga xos bir qonun – ikki qisqa hijoning bir cho'ziq hijo bilan almashtirilishi mumkinligi asosida ro'y bergan" deb hisoblaydi. Darhaqiqat, aruzda va umuman, metrik she'r tuzilishiga asoslangan sistemalarda ikki qisqa bo'g'in bir cho'ziq bo'g'inga teng hisoblanadi va misralarda ularning o'rnini almashtirib qo'llash holatlari uchrab turadi. Mazkur vaznni ritmik variatsiyasi bilan birga quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

№	Vazn nomi	Afoyili va taqti'i
1.	Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf	Maf'uvlu mafoilun fauvlun – – V/V –V –/V – –
2.	Hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf	Maf'ulun foilun fauvlun – – –/– V – /V – –

N. Konrad ushbu vaznning xushohangligini nazarda tutib, Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni ritmini musiqadagi major va minorning ajralmas birligi deb atagan edi.

---

makshuf (–VV– –VV– –V–) sari'i musaddasi matviyi mavquf bilan (–VV– – VV– –V –), hazaji musaddasi mahzuf (V– – – V– – – V– –) hazaji musaddasi maqsur (V– – – V– – – V– –) bilan, mutaqoribi musammani mahzuf (V– – V– – V– – V–) mutaqoribi musammani maqsur (V– – V– – V– – V –) bilan o'zaro almashinib qo'llanaverishi mumkin. Bu vaznlar orasidagi farq faqat so'ngi bo'g'inda bo'lganligi va bu farq doston mazmuni bilan deyarli munosabatga kirishmaganligi uchun biz ularni alohida ajratib o'tirmadik.

[46] Qisqalikka erishish uchun bundan keyingi o'rinlarda bu vazn hazaji axrab nomi bilan beriladi.

Darhaqiqat, hazaji axrab vazni ohang jihatdan keng imkoniyatga ega bo‘lib, birinchi rukndagi ikkita cho‘ziq va bitta qisqa bo‘g‘in o‘rni kelganda uchta cho‘ziq bo‘g‘inga aylanishi mumkin, bunda ikkinchi rukndagi qisqa bo‘g‘in birinchi rukndagi shunday bo‘g‘in bilan qo‘shilib, bitta cho‘ziq bo‘g‘in hosil qiladi, ya’ni

V+ V= – ; – – V+ V = – – –

Taqti’da esa quyidagi holat vujudga keladi:

– – V V –V– V– –

– – – –V– V– –

Bu holat tasodifiy bo‘lmay, doston qahramonlarining chuqur ruhiy holatlari bilan bog‘liq. Muallif ziddiyatli voqealar va qahramonlarning ruhiy iztiroblari bayonida ritmik variatsiyaga murojaat qiladi:

Oqshomdin | tongga jo| ni mahzun
– – – | – V – | V – –
Tongdin oq| shomga ash | ki gulgun.
– – – | – V – | V – –
"Layli, Lay| li!" debon | chekib un,
– – – | – V – |V – –
Et deb: "Maj| nundur, ush| bu majnun!"
– – – | – V – | V – –

Darhaqiqat, bu ritmik variatsiyada mahzun tuyg‘ularni ifodalash imkoniyati kengroq, misralarning 4 ta cho‘ziq bo‘g‘in bilan boshlanishi ohangning hazin chiqishiga olib keladi.

Navoiy o‘z dostonining fojiaviy yakuni to‘g‘risidagi fikrini ham ritmik variatsiyada bitgan edi:

Yig‘lay–yig‘ | lay tugot | tim oxir.
– – – | – V – | V – –

Tekshirishlar natijasida “Layli va Majnun” dostonidagi 3623 baytdan 240 misra ritmik variatsiya asosida yaratilganligi ma’lum bo‘ldi. Mazkur ritmik variatsiya asosida yaratilgan misralarni mazmuniga qarab shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

– qahramonlar nomi keltirilgan misralar:

Majnun ko‘rgach bo‘lub mushavvash,
Ko‘ngliga bu zulm keldi noxush...
Yetgach Navfal salom qildi,
Majnun anga ehtirom qildi...

Jonin Majnun so'zida berdi,
Hargiz Layli degil yo'q erdi.

– qahramonlar kayfiyatini peyzaj vositasida ochish bilan bog'liq misralar:

Nasrin bargi to'kulsa sahbo
Ko'p yog'ini aylar oshkoro...
Bulbul topmay o'zin azosiz
Bo'lg'ay pari bo'ynig'a qaro kiyz.
Sarv o'lmay, mehnatidin ozod,
Qolmay shamshod dardidin shod.

– qahramonlarning iztirobli holatlari aks etgan misralar:

Yig'lab otasi qilib yaqo chok,
Bunyod etti hazin-u g'amnok...
Yig'lay-yig'lay izin irishti,
Ul yerda yetishtikim yetishti...
Chun voqea ko'rguchi ko'z ochti,
Ko'zdin qonlig' sirishk sochti...

– hayrat mazmuni ifodalangan misralar:

Alloh, Alloh, bu ne so'z o'lg'ay,
Ul qavmg'a tengri uzr qo'lg'ay...
Alloh, Alloh ne ot erur bu,
Ne pok-u xujasta zot erur bu...

– muallifning doston haqidagi shaxsiy mulohazalari aks etgan misralar:

Chun surmish kilki durfishonni,
Tahrir etmish bu dostonni...
Bu qissag'a oncha berdilar zeb,
Kim bo'lmas vasfi ichra so'z deb...
Ul nav'ki hotif etti irshod,
Men ham qildim fasona bunyod...
So'ngin nechakim uzottim oxir,
Yig'lay-yig'lay tugottim oxir...

Navbatdagi vazn xafifi maxbun deb atalib, 8 ta ritmik variatsiyaga ega. Bu ritmik variatsiyalar doston misralarida o'zaro almashinib qo'llanaveradi va doston matni bilan munosabatga

kirishadi. Ritmik variatsiyalar tarkibidagi o‘zgarishlar, asosan, birinchi va uchinchi rukndagi bo‘g‘inlar sifatini o‘zgartirish hisobiga ro‘y berib, ikkinchi rukn o‘zgarishsiz qolaveradi. Bunda birinchi rukn *foilotun* yoki *failotun*, uchinchi rukn esa *failun*, *failon*, *fa’lun*, *fa’lon* tarzida o‘zaro almashinib ham qo‘llanaverishi mumkin. “Bu, asosan, shoirning bir kayfiyatdan boshqa kayfiyatga o‘tish chog‘ida, qahramonlarning hayrat yoki hayajonlarini ifodalash, shuningdek syujet chiziqlarining keskin o‘zgarishi va doston qahramonlari ruhiy holatining almashishi davrida qo‘llanilishi mumkin. Vazn ohangining bunday o‘zgarishi hisobiga shoir she’rlarning kitobxon tomonidan o‘zgacha ehtiros bilan qabul qilinishiga erishadi”[47]. Mazkur vaznni ritmik variatsiyalari bilan aniqroq tasavvur qilish uchun quyidagi jadvalni keltiramiz:

T.r	Ritmik variatsiyalar	Afoyili va taqti’i
1.	Xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf	Foilotun mafoilun failun – V – – V – V – V V –
2.	Xafifi musaddasi solimi maxbuni maqsur	Foilotun mafoilun failon – V – – V – V – V V ~
3.	Xafifi musaddasi solimi maxbuni maqtu’	Foilotun mafoilun fa’lun – V – – V – V – – –
4.	Xafifi musaddasi solimi maxbuni maqtu’i musabbag‘	Foilotun mafoilun fa’lon – V – – V – V – – ~
5.	Xafifi musaddasi maxbuni mahzuf	Failotun mafoilun failun V V – – V – V – V V –
6.	Xafifi musaddasi maxbuni maqsur	Failotun mafoilun failon V V – – V – V – V V ~
7.	Xafifi musaddasi maxbuni maqtu’	Failotun mafoilun fa’lun V V – – V – V – – –
8.	Xafifi musaddasi maxbuni maqtu’i musabbag‘	Failotun mafoilun fa’lon V V – – V – V – – ~

Ta’kidlab o‘tganimizdek, mazkur ritmik variatsiyalarning doston tarkibida o‘zaro almashinib qo‘llanilishi tasodifiy bo‘lmay, dostondagi voqealar, qahramonlarning ruhiy holati, bir hikoyatdan boshqasiga o‘tish paytlari, syujet chiziqlarining o‘zgarishiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

[47] S.Hasanov “Sab’ai sayyor”ning 200 baytini maxsus o‘rganib chiqib, unda yuqoridagi vaznning 7 turi qo‘llanilganligini aniqladi (Ҳасанов С. Навоийнинг 7 туҳфаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б. 178-180).

Ma'lumki, Bahrom Diloromdan ayrilgandan keyin haftaning 7 kunida 7 xil rangda bezatilgan qasrlarda 7 iqlimdan kelgan musofirlarni qabul qilib, ularning hikoyatlarini tinglaydi. Shanba kuni Bahromning qora libosda hijron o'tidan qora bo'lgan kunda 1-musofirning hikoyatini tinglash arafasidagi holati aks etgan quyidagi parchaga diqqat qaratsak:

Subhi shanbaki, shomi dayjuriy, (3)
Yuziga hulla yopti kofuriy. (3)
Qasri mushkinga qo'ydi yuz Bahrom, (4)
Ichgali mushkbo' g'azol ila jom. (2)
Lu'bati hindzodu chiniyvash, (3)
La'li jonbaxshu sunbuli dilkash. (3)
Hullasin oydek aylabon shabgun, (3)
Durlar ul hulla uzra kavkabgun. (3)
Taxtu raxtini aylabon mushkin, (3)
Mushk uza yer tutub g'azolai Chin. (1)
Shah dag'i hulla mushkfom aylab, (3)
Kirdi mahvash sari xirom aylab. (3)
Taxt uza chiqdi vorisi Jamshid, (4)
Anga yondoshti g'ayrati xurshid. (7)
Ichilur erdi mushkbo' boda, (3)
Mushk-u anbar buhuri omoda. (3)
Anga tegruki mushk sochib shom, (8)
Qildi olam yuzini anbarfom. (4)
Elga edi tarabfizo shanba, (3)
Shahg'a erdi vale azo shanba... (3)[48]

Agar e'tibor qaratilsa, keltirilgan 10 bayt (20 misra)dan 16 misra yuqoridagi jadvalda aks etgan 3- va 4-ritmik variatsiyalarda yaratilganligini ko'rish mumkin. Ushbu variatsiyalarning taqti'ida cho'ziq bo'g'inlarning yetakchilik qilishini (qisqa bo'g'inlar soni 3 ta) ko'ramiz. Aslida boshqa bahrlarga nisbatan yengil ohangga ega bo'lgan xafif bahrining ushbu ritmik variatsiyalari cho'ziq bo'g'inlar sonining yetakchilik qilishi hisobiga vazminroq ohang kasb etyapti va bu jihat Bahromning "hijron o'tining dudi qaro qilg'on kun"dagi holatiga mos kelyapti.

[48] Qavs ichidagi raqamlar jadvalda keltirilgan ritmik variatsiyalar tartibini bildiradi.

Endi Bahromning hikoyatlar oxirida – Diloromning xabarini eshitgan paytdagi holati ifodalangan parchani ko‘rib chiqsak:

Chunki ul kecha shohi shohnishon, *(2)*
G‘oyibidin bu nav’ topti nishon. *(2)*
To sahar beqaror-u bedil edi, *(1)*
O‘ylakim saydi nimbismil edi. *(1)*
Shavq o‘tig‘a kuyub nechukki xase, *(1)*
Betahammulluq aylar erdi base. *(1)*
Topsa erdi buzuq mizoji qaror, *(2)*
Buyurur erdi qissag‘a takror. *(8)*
Ishi chun qilg‘anini bilmak anga, *(1)*
Goh o‘lmak, gahi tirilmak anga, *(1)*
Hajr anduhi chun qilib behol, *(4)*
Holiga kelturub umidi visol... *(2)*

Mazkur parchada jadvaldagi 1-va 2-ritmik variatsiyalarning yetakchilik qilishini kuzatishimiz mumkin. Endi birinchi parchadagidan farqli ravishda taqti’da qisqa bo‘g‘inlar soni ortyapti, bu o‘zgarish esa ohangga o‘ynoqilik hamda yengillik baxsh etyapti va bu hol “o‘luk tanig‘a ruh kirgon” Bahromning ruhiy holati bilan mutanosiblik kasb etyapti.

Bahrom Diloromning daragini eshitgach, unga maktub yozib, qaytmog‘ini so‘raydi. Bu maktub Bahromning kelgusi taqdiri bilan bog‘liq edi, shu sababli u juda ta’sirli chiqishi va Diloromning qalbiga yetib borishi kerak edi. Navoiy shu o‘rinda yana 3-variatsiyaga murojaat qiladi va o‘zining ijodiy niyatiga erishadi. Darhaqiqat, maktubda Bahrom tilidan uning ruhiy holati shu qadar dardli tasvirlanganki, yana bir bor mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligiga guvoh bo‘lamiz:

Ki: “Firoqing ichimni qon qilmish, (3)
Oni ko‘z yo‘lidin ravon qilmish, (3)
Kelki, aylay sanga fido jonim, (3)
Yo‘qsa bo‘ynungg‘a bo‘lg‘usi qonim, (3)
Furqat ichra chiqorma jonimni, (3)
Dashna urmay oqizma qonimni. (3)
Kelki, chiqsun qoshingda jonim ham, (3)
Yana oqsun yo‘lungda qonim ham. (3)
Hajr tig‘ini jonima surma, (3)
Jon berurdin burunroq o‘lturma...” (3)

Maktub shu tariqa hazin ohanglar bilan davom etadi. E'tiborga molik jihati, 15 bayt (30 misra)dan iborat bu maktub asosan bir ritmik variatsiyaning yetakchilik qilishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, Navoiy deyarli har bir baytda "jon" va "qon" so'zlarini turli o'rin va shakllarda qo'llash bilan nihoyatda ta'sirchan ritmik ohangning vujudga kelishiga erishadi.

A.Hojiahmedov dostonda 8 ta ritmik variatsiyalarning 4 tasi faolroq, keyingi 4 tasi nisbatan kamroq qo'llanilganligini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, yuqorida ritmik variatsiyalarning birinchi va uchinchisi mazkur dostonda qo'llanilish jihatidan yetakchi ekanligiga guvoh bo'ldik.

"Xamsa" dostonlariga xos ritmik ohangni ta'minlashda urg'uning ham o'ziga xos o'rni bor. Navoiy dostonlari va, umuman, aruzda yaratilgan badiiy asarlardagi urg'uga e'tibor qaratmaslik oqibatida ularni o'qish vaqtida xatoga yo'l qo'yilishi va, natijada, dostonlar ritmiga putur yetishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, aruziy matnda so'z urg'usi (leksik urg'u) va rukn urg'usi orasida mutanosiblik yo'q, ular aruzda yozilgan matnda bir xil kuchga ega emas, ya'ni so'z urg'usi matndan tashqaridagina yetakchilik qiladi. Matn (bayt) tarkibida esa so'z urg'usi tushunchasi o'z ahamiyatini yo'qotadi, chunki aruzda rukn urg'usi yetakchidir. Baytda nechta rukn bo'lsa, shuncha urg'u bor. Aruzdagi urg'u faqat cho'ziq bo'g'in bilan bog'liq va qisqa bo'g'in hech qachon urg'u olmaydi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, aruziy matnda urg'u qisqa bo'g'indan oldin kelgan cho'ziq bo'g'inga tushadi, aniqrog'i, qisqa bo'g'inning chap tomoniga joylashadi, chunki qisqa bo'g'indan avval kelayotgan bo'g'in boshqalariga nisbatan cho'ziqroq talaffuz qilinadi.

Bu holatni "Xamsa" dostonlari bilan bog'liq holda quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

T/r	**Vaznlar nomi, afoyili, taqti'i va ularda urg'uning joylashish o'rni**
1.	Sari'i musaddasi matviyi makshuf Múftailun múftailun fóilun – V V – – V V – – V –
2.	Hazaji musaddasi mahzuf Mafoiylún mafoiylún fauvlún V – – – V – – – V – —

3.	Hazaji musaddasi axrab Maf'úlu mafóilun fauvlún – –V V– V– V– –
4.	Xafifi musaddasi maxbun Foilotun mafoilun failun –V– – V– V– VV–
5.	Mutaqoribi musammani mahzuf Fauvlún fauvlún fauvlún faál V – – V – – V – – V –

Endi Alisher Navoiy "Xamsa"sining har bir dostonida mavjud bo'lgan "Munojot"lardagi urg'uni tahlil qilish orqali dostonlarning ritm xususiyatlariga diqqatimizni qaratsak.

Dastlab "Hayrat ul-abror" dostonidagi "Munojot"dan olingan parchani ko'rib chiqamiz:

Ey sanga mab | dá'da abad | dék azal
– V V – | – V V – | – V –
Zóti qadi |míng abadiy |lám'azal.
– V V – |– V V – |– V –
Né bo'lub av | válda bido | yát sanga,
– V V – |– V V – | – V –
Né kelib o |xírda niho |yát sanga.
– V V – |– V V – |– V –
Ávval o'zung, | óxiru mo |báyn o'zung,
– V V – |– V V – | – V –
Bórchag'a xo |líq, borig'a | áyn o'zung...
– V V – – V V – – V –

Ko'rinyaptiki, ushbu she'riy o'lchovda urg'u har bir ruknning birinchi cho'ziq bo'g'iniga tushyapti. Urg'uning ruknlardagi bunday tanosubi va qisqa bo'g'inlarning ketma-ket qo'llanilishi yengil va o'ynoqi ritmning vujudga kelishini ta'minlayapti.

Endi "Farhod va Shirin" dostonidan olingan "Munojot"ni ko'rib chiqamiz:

Ilohiy án | dakim yo'q ér|di budúm,
V – – – | V – – – |V – –
Adam uyqú | sida erdí | vujudúm.
V – – – |V – – – | V – –

Ne ruhum gúl |shanidin dár| d paydó
V – – – ´|V – – – ´| V – –´
Ne jismim túf|rog'idin gár|d paydó.
V – – – ´|V – – – ´|V – –´
Vujudumdá |anosir bán|d topmáy,
V – – – ´|V – – – ´|V – –´
Tanim ichrá |so'ngak payván|d topmáy...
V – – – ´V – – – ´V – –

Keltirilgan taqti'dan ma'lum bo'lyaptiki, mazkur she'riy o'lchovda urg'u har bir ruknning oxirgi cho'ziq bo'g'iniga tushar ekan. Urg'uning bunday joylashishi va cho'ziq bo'g'inlar miqdorining qisqa bo'g'inlardan uch baravar ko'pligi (har bir qisqa bo'g'inga uchta cho'ziq bo'g'in to'g'ri kelyapti) salobatli va vazmin ritmning vujudga kelishini ta'minlayapti.

"Layli va Majnun" dostonidagi urg'ular o'rniga nazar tashlasak:

Pokó si | fatíngda ah |li idrók,
– – ´V | V – ´V – |V – –´
So'z súrma|di g'áyri "mo|arafnók".
– – ´V | V – ´V – |V – –´
Har náv' |ki áylasam |xitobíng,
– – ´V |V – ´V – |V – –´
Yuz óncha |biyíkdurur | javobíng,
– – ´V |V – ´V – |V – –´
Ulkím, "a |na áfsah" et|ti da'vó,
– – ´V |V – ´V – |V – –´
Fosh étti |bu dáv'i ich |ra ma'nó.
– – ´V |V – ´V – |V – –´

Ushbu taqti'da yana boshqacharoq holatning guvohi bo'lyapmiz: urg'u har bir ruknda turlicha o'rin olgan. Xususan, birinchi ruknda ikkinchi cho'ziq bo'g'in, ikkinchi ruknda birinchi cho'ziq bo'g'in va uchinchi ruknda so'nggi bo'g'in urg'uli ekanligini ko'rish mumkin. Misralarning ikkita cho'ziq bo'g'in bilan boshlanishi va bunda ikkinchi cho'ziq bo'g'inning urg'u olishi hazin va dardli ohangni vujudga keltiryapti va bu holat Navoiy tomonidan "Firoqnoma" deb atalgan doston mohiyatiga mos kelyapti.

"Sab'ai sayyor" dostonidan olingan "Munojot" ritmini ko'rib chiqsak:

Éy xudovan|dlár xudo|vándi,
– ´V – – |V – ´V – |– ´ –
Yo ´q xudoliq|da kímsa| mónandi.
– ´V – – |V – ´V – | – ´ –
Azamat bó | bidá gumon |din ulúq,
V V – – ´| V – ´V – |V V – ´
Nékim andin| ulúq, yo ´q an|din ulúq.
– ´V – – |V – ´V – |V V – ´
Jabarutúng| havósida |xúrshed,
V V – – ´| V – ´V – |– ´ –
Zárradek bo ´l|mayín nazar|da padíd...
– ´V – – |V – ´V – | V V – ´

E'tibor qaratiladigan bo'lsa, keltirilgan parchada misralardagi cho'ziq va qisqa bo'g'inlar sonida ham, urg'ular o'rnida ham har xillik borligini ko'rish mumkin. Bu holat dostonda qo'llanilgan she'riy o'lchov tabiatiga mos bo'lib, yuqorida ta'kidlaganimizdek, xafifi maxbun vazni ritmik variatsiyalarga ega bo'lgan she'riy o'lchov hisoblanadi va bu ritmik variatsiyalar doston ichida o'zaro o'rin almashinib qo'llanaveradi. Ruknlar tarkibining bunday o'zgarishi esa urg'ular o'rnining ham o'zgarishiga olib keladi. Mazkur she'riy o'lchovning bu xususiyati ishqiy-sarguzasht mavzusidagi dostonlar uchun juda qulaydir.

"Xamsa"ning so'nggi dostoni bo'lmish "Saddi Iskandariy"dan olingan parchani ko'rib chiqsak:

Lakal–hám|d, yo ák |ramal–ák|ramín,
V – – ´|V – – ´|V – – ´| V – ´
Karam áh|lin etgán| gadoyí| kamín.
V – – ´|V – – ´|V – – ´| V – ´
Karim o ´l|sa olám|da har náv| ' shóh,
V – – ´|V – – ´|V – – ´|V – ´
Anga sén |karam qíl|ding, ul dás |tgóh.
V – – ´|V – – ´|V – – ´|V – ´
Karamdín| kishi qáy|da sochqáy | dirám,
V – – ´|V – – ´|V – – ´|V – ´
Diram sén| anga qíl|mog 'unchá |karám.
V – – ´|V – – ´|V – – ´| V – ´

Agar e'tibor qaratilsa, mazkur she'riy o'lchovda ruknlarning 3 bo'g'indan tarkib topganligi, bandlarning ham yuqorida keltirilgan parchalardan farqli ravishda musaddas emas, balki musamman ruknlardan iborat ekanligi va shunga mos holda urg'ular soni ham 8 ta ekanligini ko'rish mumkin. Bu holat jangnomalarga xos shiddatli ritmni keltirib chiqaryapti.

Umuman olganda, "Xamsa"da istifoda etilgan vaznlarni o'rganishda ritmik variatsiya va ritmik urg'uning ham o'ziga xos o'rni bo'lib, ular dostonlar mazmunini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Tayanch tushunchalar

epik she'riyat
ko'pvaznlilik
ritmik variatsiya
sari' bahri
hazaji musaddasi mahzuf
hazaji axrab
xafifi maxbun
mutaqoribi musammani mahzuf



Savol va topshiriqlar

1. Alisher Navoiygacha turkiy epik she'riyatda qanday vaznlardan foydalanilgan?

2. Ritmik variatsiya deganda nimani tushunasiz?

3. "Xamsa" vaznlaridan qaysilari ritmik variatsiyalarga ega?

4. Hazaji axrab vaznining ritmik variatsiyasi haqida ma'lumot bering.

5. Xafifi maxbun vazni nechta ritmik variatsiyaga ega va ularning qanchasi doston tarkibida faol qo'llanilgan?

6. Ritmik variatsiyalarning doston mazmuniga qanday bog'liqligi bor?



ADABIYOTLAR:

Matn va manbalar:

1. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1991. Т. 7. – 392 б.

2. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1991. Т. 8. – 544 б.

3. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1992. Т. 9. – 356 б.

4. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1992. Т. 10. – 448 б.

5. Алишер Навоий. Садди Искандарий. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1993. Т. 11. – 640 б.

6. Алишер Навоий. Хамса: Ҳайрат ул-аброр. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.6. – 808 б.

7. Алишер Навоий. Хамса: Лайли ва Мажнун. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.7. – 696 б.

8. Алишер Навоий. Хамса: Садди Искандарий. Тарихи анбиё ва қуҳамо. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.8. – 712 б.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

9. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.

10. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983. – 168 б.

11. Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Movarounnahr – O‘zbekiston, 2009. – 448 б.

12. Конрад Н.И. Запад и Восток (статьи). – М.: Главная редакция Восточной литературы, 1972. – 496 с.

13. Мирзаев С. Навоий арузи: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Т., 1946.

14. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – 216 б.

15. Хасанов С. Роман о Бахраме. – Т.: Издательство литературы и искусства, 1988. – 208 с.

16. Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. – Тошкент: MUMTOZ SO’Z, 2011. – 144 б.

17. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. Ж.2. (XV асрнинг иккинчи ярми). – Т.: Фан, 1977. – 460 б.

18. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. – 224 б.

19. Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006. – 288 б.



BADIIY SAN'ATLAR VA ULARNING NAVOIY SHE'RIYATIDAGI O'RNI

Reja:

1. Mumtoz poetikada ilmi badi'.

2. Navoiy asarlarida ilmi' badi'ga doir qarashlar.

3. Mumtoz she'riy san'atlar tasnifi.

4. Badiiy san'atlarning Navoiy lirikasidagi o'rni. Lafziy san'atlar.

5. Ma'naviy va mushtarak san'atlar.

Musulmon Sharq poetikasining tarkibiy qismlaridan biri nutqqa bezak beruvchi san'atlar, ularning o'ziga xos jihatlari, fikrni go'zal va mazmunli ifodalash usullarini o'rganuvchi soha *ilmi badi'* bo'lib, uning asosini mumtoz she'riyat, ba'zan nasrda keng ishlatilgan va zamonaviy adabiyotda hozir ham qo'llanilayotgan badiiy san'atlar tashkil qiladi. Shundan kelib chiqib, ilmi badi' *sanoyi' ilmi* deb ham yuritiladi.

Ilmi badi'ga doir dastlabki asarlar arab tilida yaratilgan bo'lib, ularga Ibn Mu'tazning "Kitob ul-badi'" (IX asr), Nasr binni Hasanning "Mahosin ul-kalom" (IX–X asrlar), Qudama ibn Ja'farning "Naqd ush-she'r" (X asr) asarlari kiradi. Ilmi badi' fors-tojik adabiyotshunosligida o'zining yuksak cho'q-qisiga ko'tarildi. Umar Roduyoniyning "Tarjumon ul-balog'a" (XI asr), Rashididdin Vatvotning "Xadoyiq us-sehr" (XII asr), Shams Qays Roziyning "Al-Mo'jam" (uchinchi qismi, XIII asr), Vohid Tabriziyning "Jam'i muxtasar" (XVI asr) kabi asarlari shu sohaga bag'ishlangan mumtoz asarlar sifatida alohida ahamiyat-ga ega. Turkiy tilda ilmi badi' masalalari nazariy jihatdan aks etgan dastlabki asar sifatida Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" (1436-1437) risolasini keltirish mumkin. Risolaning uchinchi qismi badiiy san'atlar tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda 97 san'at turi haqida so'z boradi.

Ilmi badi'ga doir nisbatan mukammalroq asar Atoulloh Hu-sayniyning "Badoyi' us-sanoyi'" (XV asr) risolasi bo'lib, unda

ilmi badi' tarixida ilk marta badiiy san'atlar uch katta guruhga: ma'naviy, lafziy va mushtarak san'atlarga ajratilgan.

Alisher Navoiy ilmi badi'ga doir maxsus asar yaratmagan bo'lsa-da, o'zining "Majolis un-nafois", "Xamsa", "Mahbub ul-qulub", "Muhokamat ul-lug'atayn" va boshqa ko'plab asarlarida ilmi badi'ning ba'zi nazariy jihatlariga to'xtalib o'tadi. Ushbu asarlar tarkibida buyuk so'z ustasining ba'zi badiiy san'atlar haqidagi yo'l-yo'lakay qaydlari ham Alisher Navoiyning Sharq mumtoz poetikasi, xususan ilmi badi'ni chuqur bilganligi, o'zigacha mavjud badiiy san'atlarni mukammal o'rganib chiqib, ularga daqiq she'rshunos sifatida munosabat bildirganligiga yaqqol dalildir.

Navoiy o'zining filologiya sohasiga doir asarlarida ilmi badi'ga doir ba'zi istiloh va atamalar sharhiga to'xtalib, o'z qarashlarini bayon etadi. Xususan, *tarsi'* san'atiga to'xtalar ekan, "Muhokamat ul-lug'atayn"da shunday yozadi: "Tarsi' san'atikim, matla'dan o'zga baytda bo'la olmas, ul qasidaning agarchi mustaxraj matla'i rostdur, ammo asli matla'da avvalgi misraning bir lafzida takalluf qilibdur va matla'i budurkim, bayt:

Safol safvati ro'yat birext obi bahor,
Havol jannati ko'yat bibext mushki tator.

(Mazmuni: Pokiza yuzingning sofligi bahor suvini to'kdi. Jannatdek manzilingning havosi xushbo'y hid taratdi). Navoiy bu o'rinda forsigo'y adib Salmon Sovajiy (1310–1376)ning qasidasi haqida fikr yuritib, uning matla'sida tarsi' san'ati bilan bog'liq asosiy mezon, ya'ni ikki misradagi barcha so'zlarning o'zaro ohangdosh bo'lish qoidasi bir juflikda **(obi – mushki)** buzilganligini ta'kidlaydi. Fikrini davom ettirar ekan, ushbu matla'ga javob yozgan aksar shoirlar muddaoga erisha olmay, pand yeganlarini, o'zi esa unga javobiya tarzida quyidagi baytni bitganligini faxriya tarzida shunday bayon qiladi:

"Bu matla'ga tatabbu' qilg'on ko'p suxanvarlar va nazmgustarlar chun muqobalada debdurlar, lat yebdurlar. Bu faqirning matla'i budurki, bayt:

Chunon vazid ba bo'ston nasimi fasli bahor,
K-az on rasid ba yoron shamimi vasli nigor.

(Mazmuni: Bahor faslining shamoli bo‘ston uzra shunday esdiki, undan oshiqlarga nigor (sevikli yor) vaslining xush isi yetishdi). Basorat ahli mulohaza qilsalar bilurlarki, bu matla’ tarsi’ga voqe’ bo‘lur, aybdin muarro va murassa’g‘a kelur, e’tirozdin mubarrodur”. Darhaqiqat, ushbu baytdagi so‘zlar raviy va ohangdoshlik nuqtai nazaridan o‘rganib chiqilsa, ulardagi barcha so‘zlarning o‘zaro mos ekanligini kuzatish mumkin. Navoiy shuningdek, tarsi’ san’ati asosida arab va forsiy she’riyatda ungacha hech kim ruboiy janrida she’r bitmaganligini ta’kidlar ekan, shunday yozadi:

“Bu nav’ she’rning ta’kid va mubolag‘asi uchun yana bir ruboiy ham debmenki, to Xalil binni Ahmad ruboiy qoidasin vaz’ qilibdur, tarsi’ san’atida ruboiy aytilg‘on eshitilmaydur, balki yo‘qtur va ul budurkim, ruboiy:

Ey rui tu kavkabi jahon oroe,
V-ey bui tu ashhabi ravon osoe,
Be mui tu, yo Rab, chunon farsoe,
Gisui tu chun shabi fig‘on afzoe.

(Mazmuni: Ey, sening yuzing jahonni bezovchi yulduzdir, Ey, sening xushbo‘y hiding jon rohatidir; Yo Rab, sening soching bo‘lmasa, chunonam parishonlik bo‘ladi, Kokiling (esa) fig‘onli tunga o‘xshaydi).

“Majolis un-nafois”da shoirlarning badiiy mahoratiga baho berishda *maqlubi mustaviy* (misra yoki bayt tarkibidagi ibora yoki jumlalarning teskari o‘qilganda ham ma’no anglatishiga asoslangan badiiy san’at)ga to‘xtalar ekan, Atoulloh Husayniyga ajratilgan faslda shoirning bir baytini tahlil qiladi va uning mahoratini aniqlash uchun ushbu san’at qo‘llangan bayt kifoya qilishini aytadi: “Bovujudi ixtisor maqlubi mustaviy san’atidakim, andin mushkulroq san’at bo‘lmas, bu bayt ul risolada aning xossa baytidurkim:

Shakkar dahano g‘ame nadoriy,
Dayr o daniyi mug‘ona darkash.
Aning tab’i diqqatig‘a bu bayt dalili basdur”.

Shuningdek, Mavlono Shihob nomli ijodkorga baho berar ekan, uning tabiatida bo‘lgan o‘zgarishni maqlubi mustaviy san’ati asosida yozgan she’riga bog‘lab talqin qiladi:

Mushi xari farrux shavam,
Darki raqam qar kard.

Bunda har bir misra alohida teskari holda o‘qilganda, yana o‘zha misra hosil bo‘ladi. Lekin baytda shaklga e’tibor kuchayib ketib, ma’noga putur etgan. Birinchi misra “Farrux eshagining oldiga bo‘lay” degan mazmunni bildirgani holda ikkinchi misradan ma’no anglashilmaydi.

Navoiy ijodining badiiy qimmati, shoir san’atkorligining o‘ziga xos qirralari uning badiiy tasvir vositalari va san’atlardan amaliyotda foydalanish yo‘llarida yanada konkretroq namoyon bo‘ladi. Navoiy lirikasida yuzdan ortiq badiiy san’atlar qo‘llanilgan bo‘lib, ularning ayrimlari misolida ham shoir badiiy tafakkurining yuksak darajasi haqida tasavvur hosil qilish mumkin bo‘ladi. Shoirning badiiy san’atlardan foydalanish tamoyillarini quyidagi holatlarda ko‘rish mumkin:

Birinchidan, Navoiy ijodida badiiy san’atlarning qo‘llanilish usuli har bir she’rning mavzui va usluban qaysi turga mansubligi (tavsifiy, tasviriy, izhor, aralash) bilan bevosita aloqador. Masalan, muayyan timsol yoki predmet asosiga qurilgan g‘azalda boshdan oxirigacha biror san’at yetakchilik qilishi mumkin. Ikkinchidan, aksariyat she’rlarda badiiy san’atlar navbat bilan o‘zgarib boradi va, natijada, bitta she’r doirasida o‘nlab san’atlar ishlatiladi. Uchinchidan, bir qator she’rlar uchun (ba’zan bir bayt doirasida) bir nechta badiiy san’at yoki poetik usulning qo‘shilib ketgan holda – murakkab shaklda ishlatilishi xos holatlardandir. To‘rtinchidan, aksariyat hollarda shoir o‘z g‘oyaviy niyati ifodasi uchun bir badiiy san’atni birlamchi darajaga ko‘targani holda boshqa san’atlarni uning ro‘yobi uchun xizmat qildiradi, boshqacha aytganda, shoir she’rlaridagi muayyan baytda ma’lum bir san’at yetakchidek ko‘rinsa-da, aslida uning mohiyati baytda qo‘llanilgan boshqa san’atlar vositasida yanada yorqinroq ifoda kasb etadi. Beshinchidan, shoir qaysi bir san’atni qanday janr yoki maqsadda qo‘llamasin, har doim qat’iy tanosib talablari asosida ish ko‘radi. Ma’no, tasvir va tasvir unsurlarining o‘zaro mantiqiy mutanosibligi uning poetik tizimi uchun temir qonundir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, mumtoz she’riyatga xos badiiy san’atlar mohiyat e’tibori bilan uch guruhga ajratiladi: 1. Lafziy

san'atlar. 2. Ma'naviy san'atlar. 3. Mushtarak san'atlar. Lafziy san'atlar nutqning ifoda usuli, xususan so'z shakli bilan aloqador san'atlar bo'lib, Atoulloh Husayniy ular sirasiga *tarsi', tajnisli tarsi', tajnis, radd (qaytarish)* san'ati va uning turlari, *qalb* va uning turlari, *saj', tashtir, tajziya, tasri', tasmit, aks, tardid, tashri', zulqofiyatayn, tavshih, talavvun, mulamma', muqatta', muvassal, jam' ul-huruf, mudavvar, mushokala* va boshqa san'atlarni kiritadi. Olimning fikricha, lafziy san'atlar ijodkor yetkazmoqchi bo'lgan fikrni yuksak badiiy shaklda ifodalashga xizmat qilishi kerak. Navoiy poetikasini lirik janrlar va badiiy san'atlar misolida o'rgangan olim Y.Is'hoqov shoir ijodida qo'llanilgan asosiy san'atlarni ularning she'riy matn doirasidagi funksiyasi bilan aloqadorlikda 10 ta guruhga ajratib o'rganishni tavsiya qiladi[49]. Lafziy san'atlar ushbu guruhlardan *sintaktik-stilistik usullar* (tarsi', tardi aks, radd ul-ajz il-as sadr, tashobeh ul-atrof, mudavvar, muzdavaj, tashtir, tajziya, tasri', tardid, takror, tajdidi matla' va b.), *so'zning ichki va tashqi shakli bilan aloqador san'atlar* (ishtiqoq, ittifoq, qalb, mutazalzil va b.), *murakkab san'atlar* (hijoi huruf, harfiy san'atlar), *qofiya bilan aloqador san'atlar* (e'not, radd ul-qofiya (iyto), zulqofiyatayn, musajja', tasmit va b.) tarkibiga kiritilishi mumkin.

Mumtoz she'riy san'atlar Z.Mamajonov tomonidan ham tasnif qilingan bo'lib, olim ularni yuzaga kelish asosi nuqtai nazaridan 12 guruhga ajratadi. Uning tasnifida lafziy san'atlar asosan *takror asosidagi san'atlar* (tajnis, tavzi', ishtiqoq, radd (qaytarish), tardu aks, tardid, taattuf, mukarrar, takrir, radd ul-matla', tarji'), *ohangdoshlik (qofiyadoshlik) asosidagi san'atlar* (tarsi', saj', mumosala, tashtir, tajziya, tasri', tashri', e'not va b.), *shakl o'yinlari asosidagi san'atlar* (tavshih, talavvun, tarofuq, murabba', mu'aqqad, mudavvar, mushajjar va b.), *yozuv asosidagi san'atlar* (istihroj, musahhaf, tajnisi xat, qalb, muqatta', muvassal va b.) degan guruhlar tarkibida o'rganilgan. Biz ushbu tasniflarning ijobiy jihatlarini e'tirof etgan va umumiy tarzda ulardan foydalangan holda Navoiy she'riyatida qo'llanilgan san'atlarni asosan uchta katta guruh

[49] Olimning ta'kidlashicha, bu tasnif shartli bo'lib, ba'zi san'atlar (tarsi', tashtir, tajziya kabilar) bir vaqtning o'zida ikki guruhga kiritilishi ham mumkin.

(Atoulloh Husayniy tasnifi) doirasida ko‘rib chiqamiz[50]. Dastlab takrorlash yo‘li bilan hosil qilinadigan ayrim lafziy san’atlarga to‘xtalib chiqsak.

Navoiy she’riyatida takrorga asoslangan va nisbatan ko‘p qo‘llanilgan lafziy san’atlardan biri **radd ul-matla’** san’ati bo‘lib, bu san’at g‘azal yoki qasida matla’idagi birinchi misraning maqta’da, ba’zan she’r tarkibidagi baytlardan birida takrorlanib kelishiga asoslanadi. Bu tarzdagi takror tasodifiy bo‘lmasdan, muayyan poetik maqsadga ega. G‘azal matla’si yoki qasidaning birinchi baytida ilgari surilgan fikr keyingi baytlarda rivojlantirilib boriladi va she’r nihoyasida misrani takrorlash orqali o‘sha fikr yangicha uslub va ifoda orqali bayon qilinadi.

Ilmi badi’ga doir forsiy manbalarda bu san’at haqida deyarli ma’lumotlar uchramaydi. Faqat Atoulloh Husayniy o‘zining qofiya ilmiga doir “Risolai vofiy dar qavoyidi ilmi qavofiy” (1487) nomli risolasida ushbu san’at nomini keltirib, uni qofiya san’atlaridan biri sifatida tilga oladi va matla’da keltirilgan qofiyaning keyingi baytlar tarkibida takrorlanishi *radd ul-matla’* deb atalishini ta’kidlaydi. Aynan shunga o‘xshash fikr Husayn Voiz Koshifiyning “Badoyi’ ul-afkor fi sanoyi’ ul-ash’or ” asarida ham keltiriladi.

Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” (1436-1437) asarida esa ushbu atama ostida uch xil turga ega bo‘lgan san’atga ta’rif berilgan: “Bu san’at aningtek bo‘lurkim, she’rning matla’ini radd qilurlar. Bu uch nav’ bo‘lur. Biri ulkim, matla’ning avvalgi misraini tamom maqta’da radd qilurlar...” Aynan shu ta’rif biz nazarda tutayotgan *radd ul-matla’*ga mos keladi.

Alisher Navoiy ijodida radd ul-matla’ san’ati shoir g‘azallaridagi bosh g‘oya – fikr, xulosa yoki uning ayrim jihatlarini, yetakchi fikr, xulosaning yuzaga kelishi uchun turtki bo‘lgan asosiy sababga urg‘u qaratish va alohida ta’kidlash uchun xizmat qilgan. Shoir g‘azallarida radd ul-matla’ning ikki xil ko‘rinishi: matla’dagi birinchi misra maqta’ning so‘nggi misrasida takrorlanib kelishiga asoslangan va matla’dagi birinchi misraning ikkinchi bayt tarkibida qaytarilib kelishiga asoslangan turlari

[50] Aslida Atoulloh Husayniy tasnifida ham ba’zi bahstalab o‘rinlar mavjud. Xususan, so‘z takroriga asoslangan *takrir* ma’naviy san’atlar guruhida o‘rganilgan bo‘lsa, *tajnis* lafziy san’atlar tarkibida o‘rganilgan. Biz tajnisni mushtarak san’atlar guruhida tahlil qilish tarafdorimiz, chunki tajnisda so‘zning ham shakl, ham ma’no tomoni teng hisobga olinadi.

keng qo‘llanilgan.

“Xazoyin ul-maoniy”da radd ul-matla’ san’ati asosida yozilgan 35 ga yaqin g‘azal mavjud bo‘lib, shulardan 31 tasida radd ul-matla’ning birinchi ko‘rinishi, qolganlarida esa matla’dagi birinchi misraning ikkinchi bayt tarkibida takrorlanib kelishiga asoslangan ko‘rinishi qo‘llanilgan (Y.Is’hoqov). Radd ul-matla’ning birinchi ko‘rinishiga Navoiyning quyidagi matla’li g‘azalini misol tariqasida keltirish mumkin:

Kechti umrum naqdi g‘aflat birla nodonlig‘da hayf,
Qolg‘ani sarf o‘ldi anduh-u pushaymonlig‘da hayf.

Maqta’:
Ey Navoiy, voqif erman xalqdin, bori mening
Kechti umrum naqdi g‘aflat birla nodonlig‘da hayf.
(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 303-g‘azal).

Radd ul-matla’ning Alisher Navoiy ijodidagi ikkinchi ko‘rinishiga esa misol tariqasida quyidagi g‘azalni keltirish mumkin:

Otashin gul bargidin xil’atki jononimdadur,
Xil’at ermas, ul bir o‘tdurkim, mening jonimdadur.

Otashin la’lidururkim, anda muzmar bo‘ldi jon,
Otashin gulbargidan xil’atki jononimdadur.
(“Badoyi’ ul-vasat”, 194-g‘azal).

Ushbu g‘azalda shoirning maqsadi yorning “otashin gul bargidin” tikilgan libosini mubolag‘ali ravishda tasvirlash va uning oshiq ruhiy holatiga ta’sirini ko‘rsatishdan iborat bo‘lib, shoir bunda g‘oyaviy niyatiga erishish uchun yana boshqa san’atlar: *tashbih* va *ruju’* san’atlaridan ham mohirlik bilan foydalanadi. Agar birinchi misrada yorning libosi cho‘g‘dek qizil gul bargiga o‘xshatilgan bo‘lsa, ikkinchi misrada shoir ruju’ vositasida ushbu fikrini rad etib, undan ham kuchliroq va mubolag‘aliroq tashbihni keltiradi: yorning egnidagi xil’at bu libos emas, balki oshiqning joniga tushgan o‘t – alangadir. Keyingi misrada tasvir yanada yuqori pog‘onaga ko‘tariladi: yor egnidagi libos bu cho‘g‘dek la’l bo‘lib, uning ichiga jon (yor vujudi) yashiringan. Shunga bog‘liq holda to‘rtinchi misra ushbu fikrni yana bir bor ta’kidlayotgandek tasavvur uyg‘otadi.

Navoiy she'riyatida radd ul-matla' san'atining bir oz o'zgargan ko'rinishi ham qo'llanilgan bo'lib, unda matla'dagi birinchi misra ikkinchi bayt yoki maqta'da bir oz o'zgargan shaklda takrorlanadi. Bu san'atni shartli ravishda *yarim radd ul-matla'* deb atash mumkin (Y.Is'hoqov). "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida o'ndan ortiq g'azal ushbu san'at asosida yozilgan. Matla' va ikkinchi bayt orasidagi yarim radd ul-matla'ga misol:

O'puy olsam ***eshiking tufrog'ini yostanibon,***
Saltanat taxtig'a chiqmoq tilamon uyg'onibon.

It kibi har necha qavsang urubon tosh-u kesak,
Yona kelgum ***eshiking tufrog'ini yostanibon...***
("Navodir ush-shabob", 452-g'azal).

G'azalda lirik qahramon yorga nisbatan o'z muhabbati va sadoqatini isbotlashga harakat qilayotgan holat tasvirlangan. Shoir bunda tazod san'ati yordamida mubolag'ali tasvirdan foydalanadi. Matla'da o'z maqsadini umumiy tarzda ifodalagan oshiq keyingi baytda yorning konkret harakati (oshiqni tosh va kesak bilan it kabi quvish)ga javoban yanada kuchliroq sadoqat namoyon qiladi:

Yona kelgum ***eshiking tufrog'ini yostanibon.***

Takrorga asoslangan va qofiya bilan bog'liq san'atlar orasida she'rning umumiy strukturasiga bevosita aloqador san'atlardan biri **radd ul-qofiya** bo'lib, u g'azal yoki qasida matla'idagi qofiyaning undan keyingi baytlardan birida yoki maqta'da takrorlanishiga asoslanadi. Bu san'at XVI asrgacha yaratilgan poetikaga doir manbalarda "*iyto*" deb yuritilgan. Sakkokiyning "Miftoh ul-ulum", Shams Qays Roziyning "Al-Mo'jam", Nasiriddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or", Husayn Voiz Koshifiyning "Badoyi' ul-afkor fi sanoyi' ul-ash'or", Abdurahmon Jomiyning "Risolai qofiya" (1465), Atoulloh Husayniyning "Risolai vofiy dar qavoyidi ilmi qavofiy" asarlarida mazkur san'at haqida ma'lumotlar keltiriladi. Ushbu asarlarning deyarli barchasida *iyto* qofiya nuqsonlaridan biri sifatida e'tirof etilib, agar takrorlanuvchi qofiyalar orasida muayyan masofa bo'lsa (g'azal va qit'ada 7 baytdan keyin, qasidada esa 14-20 baytdan keyin) yoki she'r ikki matla'ga ega bo'lsa (she'r o'rtasida yana bir qo'sh qofiyalanuv-

chi bayt kelsa), *iyto*dan foydalanish mumkin, degan umumiy xulosa aytiladi. Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" (1436-37) asarida radd ul-qofiya san'ati radd ul-matla' tarkibida tahlil qilinib, risolada keltirilgan radd ul-matla'ning ikkinchi va uchinchi turlari aynan radd ul-qofiya san'atiga mos keladi.

Alisher Navoiy g'azaliyotida ushbu san'at ancha faol qo'llanilgan bo'lib, "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida uning turli ko'rinishdagi 450 dan ortiq namunalarini uchratish mumkin (Y.Is'hoqov). Shoir she'riyatida radd ul-qofiya shoirning maqsadi, tasvir jarayoni bilan aloqador san'at bo'lib, Navoiy qofiyaga shunchaki shakl bilan bog'liq hodisa sifatida qaramaydi, balki ma'noni yuzaga chiqaruvchi muhim vosita sifatida yondashadi. Shoir g'azaliyotida keng qo'llanilgan ushbu san'at ma'lum fikrning takrori uchun emas, balki yangi nutqiy jarayon doirasida yangicha uslubiy ko'rinishlar ifodasi uchun xizmat qiladi. Navoiy ijodida radd ul-qofiyaning g'azaldagi birinchi misraning qofiyasi ikkinchi baytda takrorlanishiga asoslangan, birinchi misraning qofiyasi ikkinchidan keyingi baytlardan birida takrorlanishiga asoslangan, matla'dagi ikkinchi misraning qofiyasi ikkinchidan keyingi baytlardan birida takrorlanishiga asoslangan va matla'dagi qofiyalardan birining maqta'da takrorlanishiga asoslangan turlari qo'llanilgan. Shulardan birinchi turga misol keltiramiz:

Bahor sensiz o'luptur manga ajab ***do'zax,***
Qizil gul anda o'tu oq shukufalardur yax.

Bahor sensiz agar do'zax o'lsa tong ermas,
Bihisht ichinda liqo bo'lmasa erur ***do'zax...***
("G'aroyib us-sig'ar", 108-g'azal).

G'azal matla'sida oshiq uchun yor bo'lmasa, bahor fasli ham qish kabi tuyulib, ko'klamda ochilgan qizil gul olov, oq gul muz singari bo'lishi bayon qilinmoqda (Shu o'rinda mumtoz adabiyotimizda **yor** orqali ma'shuqa, do'st, piri komil, Payg'ambar (s.a.v.) va Alloh nazarda tutilishini eslatish joiz). Diniy manbalarga ko'ra, oxiratda gunohkorlarga do'zax azobi ikki bir-biriga qarama-qarshi hodisa – olov va qattiq sovuq (muz) orqali namoyon qilinadi. Navoiy bu o'rinda do'zaxdagi ana shu azobga ishora qiladi. Ikkinchi baytda lirik qahramon yorga qa-

rata "bahor sensiz qishga teng bo'lishi tabiiy va bu ajablanarli emas, chunki diydor bo'lmasa jannat ham do'zax bilan tengdir", der ekan, *liqo* so'zi orqali jannatda yuz beradigan ilohiy jamolga ishora qiladi. Diniy manbalarga ko'ra, jannatda Alloh o'z diydorini suyukli bandalariga namoyon qiladi: ushbu diydor chog'ida barcha hushidan ketadi. Hushlariga kelgach, ular yana shu ilohiy jamolni qo'msaydilar, ushbu jamolsiz endi jannat ham ularga xuddi do'zaxdek bo'lib ko'rinadi. Baytda qo'llanilgan **tamsil** san'ati oshiqning ruhiy holatini ta'sirchan ifodalashga xizmat qilgan. Ko'rinadiki, birinchi baytda do'zaxning ma'nosi umumiy holatda ifodalangan bo'lsa, ikkinchi baytda konkret hodisa – Yor jamoli bo'lmasa, jannat do'zax bo'lib ko'rinishi ta'kidlangan.

Navoiy ijodida takrorga asoslangan san'atlar asosida **tardi aks** san'ati ham alohida o'rin egallaydi. Ma'lumki, tardi aks *(ar. – teskari qilib takrorlangan)* bayt tarkibidagi ikki so'z yoki birikmani avval muayyan bir tartibda keltirib, so'ng ularning o'rnini almashtirib takrorlash san'ati bo'lib, mumtoz poetikaga doir manbalarda "aks", "tabdil" nomlari bilan ham keladi. Tardi aks san'ati takrorning qaysi o'rinda kelishiga qarab *komil* (tardi aksning bayt doirasida sodir bo'lishi, bunda baytning birinchisi misrasidagi ikki so'z yoki birikma ikkinchi misrada o'rin almashinib takrorlanadi) va *maxraj* (tardi aksning misra doirasida hosil qilinishi, bunda bir misradagi ikki so'z shu misraning o'zida o'rin almashinib takrorlanadi) kabi turlarga bo'linsa, mazmun nuqtai nazaridan *mutahodiy* (ikki so'z yoki iboraning tartibini o'zgartirib takrorlash oqibatida yangi ma'no hosil qilinmaydigan) va *majro* (ikki so'z yoki birikmaning o'rin olmashinib takrorlanishi natijasida yangi ma'no hosil qilinadigan) kabi turlarga ajratiladi. Masalan, "Sab'ai sayyor"dan olingan quyidagi bayt qo'llanilish o'rniga ko'ra komil bo'lib, mazmunning saqlanib qolganligiga ko'ra mutahodiy aks hisoblanadi:

Har ne ul buzdi, bu barin tuzdi,
Bu barin tuzdi, har ne ul buzdi.

Baytda Navoiy Bahromni uning otasi Yazdijurdga qarama-qarshi qo'yib, "otasi nimaniki vayron qilgan bo'lsa, bu obod qildi", deb yozar ekan, ikkinchi misrada bu fikrni o'zaro almashinib kelgan jumlalar vositasida qayta uqtirib, farzand

otaning tamoman aksi bo‘lib chiqqanligini ta’kidlaydi.

Quyidagi baytda esa tardi aksning maxraj turi qo‘llanilgan bo‘lib, o‘rin almashinish ikkinchi misra doirasida ro‘y bergan:

Ne bo‘ldi dardima, ey bevafo, davo qilsang,
***Vafog‘a va’da** qilib, **va’dag‘a vafo** qilsang.*

(“Badoyi’ ul-vasat”, 357-g‘azal)

Bunda oshiq yordan vafo qilishni o‘tinar ekan, birinchi jumlada avval “vafoga va’da qilish”ni so‘raydi, so‘ngra ikkinchi jumla orqali ana shu “va’daga vafo qilish”ni tasdiqlatib oladi, natijada shoir baytda majro aks orqali vafoni qat’iylashtirishga erishadi.

Navoiy “Majolis un-nafois”da “insoniyat va xush axloqliqda Xuroson va Samarqand mulkida yagona” bo‘lgan Mirzobekning bir matla’sini keltirib, unda tardi aks san’ati qo‘llanilganligini aytib o‘tadi:

*Ko‘zung ne **balo qaro** bo‘lubtur,*
*Kim jonga **qaro balo** bo‘lubtur.*

Navoiy keyinchalik Mirzobek tomonidan oxiriga yetkazilmagan bu baytni uning xotirasi uchun g‘azal holiga keltirib, “Xazoyin ul-maoniy”ning birinchi devoni bo‘lmish “”G‘aroyib us-sig‘ar”ga 161-raqam ostida kiritadi.

Navoiy she’riyatida lafziy san’atlardan yana **tarsi’** (baytdagi barcha so‘zlarning o‘zaro teng va ohangdosh bo‘lishiga asoslangan), **tavzi’** (baytda bir xil tovushlarni bir necha marta takrorlashga asoslangan), **qalb** (misra yoki bayt tarkibidagi so‘zning teskari o‘qilganda ham ma’no anglatishiga asoslangan), **radd ul-ajuz al as-sadr** (baytning oxirida kelgan so‘z keyingi baytning boshida takrorlanib keladigan), **tasdir** yoki **radd us-sadr il-al ajuz** (baytning boshida kelgan so‘z baytning oxirida ham takrorlanadigan), **tasbi’** yoki **tasbig‘** yoki *tashobih ul-atrof* (avvalgi misra oxiridagi so‘z yoki jumla keyingi misra boshida aynan takrorlanishiga asoslanadigan), **tajziya** (bayt misralarining teng bo‘laklarga bo‘linib, birinchi va uchinchi, ikkinchi va to‘rtinchi bo‘laklarning o‘zaro qofiyadoshligiga asoslanadigan), **zulqofiyatayn** (qo‘sh qofiya keltirishga asoslanadigan), **zulqavofi’** (uch va undan ortiq qofiya keltirishga asoslanadigan) va boshqa san’atlar ham keng qo‘llanilgan.

Badiiy san'atlarning ikkinchi katta guruhi ma'noning birlamchiligiga asoslanib, badi' ilmida ***ma'naviy san'atlar*** deb yuritiladi. Y.Is'hoqov tasnifida ular *istioraviy-ramziy tasvir usullari* (majoz, istiora, kinoya, baroati istehlol va b.), *qiyosiy-assotsiativ usullar* (tashbih, talmih, tansiq us-sifot va b.), *fikrni dalillash (motivirovka) yo'llari* (husni ta'lil, tamsil, irsoli masal va b.), *emotsional-mubolag'ali tasvir usullari* (mubolag'a, tashbihning ayrim turlari, ruju', murojaat, savol-u javob va b.) kabi guruhlarga kiritilgan bo'lsa, Z.Mamajonov ularni *o'xshatish asosidagi san'atlar* (tashbih, tamsil, talmih, irsol ul-masal, laff va nashr), *majoz asosidagi san'atlar* (istiora, kinoya, tashxis, intoq), *belgini kuchaytirish asosidagi san'atlar* (mubolag'a, tafrit, iyg'ol va b.), *ifoda usullari asosidagi san'atlar* (mulamma', tajohuli orif, mazhabi kalomiy, husni ta'lil, ruju', savol-u javob, nido va b.) degan guruhlarga kiritadi.

Mumtoz adabiyot, xususan, Alisher Navoiy she'riyatida shunday ma'naviy san'atlar va tasvir vositalari borki, ular badiiy ijodning muhim tarkibiy qismiga aylanib ketgan va shoir ijodini ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. *Tashbih, istiora, mubolag'a* kabi san'atlar nafaqat Alisher Navoiy, balki butun Sharq adabiyotining eng qadimiy va ajralmas poetik unsurlaridan sanaladi. O'rta asrlarda mubolag'a san'atiga xos tasvirni bo'rttirish va kuchaytirish xususiyatlari badiiy asarlarga zeb berganligini "Ahsanahu akzabahu" (Eng yaxshi she'r – eng yolg'on she'r) degan fikrning ommalashganligi bilan bog'liqlikda kuzatsak, shoirning badiiy mahoratini belgilovchi asosiy mezon sifatida tashbih san'atidan foydalanish darajasi asos qilib olinganligini manbalardagi fikrlar tasdiqlaydi: "Har bir shoirning katta mahorati tashbihlarda ko'rinadi. Tashbihda qudratliroq bo'lgan har bir shoir jahongirroqdir" (Said Nafisiy). Ma'lumki, **tashbih** biror predmet yoki hodisaning xususiyatini shu xususiyati bor boshqa narsa yoki hodisa orqali tasvirlashga asoslanadi. Adabiyotshunoslikda tashbih san'ati *mushabbah* yoki o'xshamish (tasvirda fikr qaratilayotgan (o'xshatilayotgan) narsa yoki tushuncha), *mushabbahun bih* yoki o'xshatilmish (tasvirda qiyoslanayotgan narsa yoki tushuncha), *vajhi shabah* yoki o'xshatish sababi (nimaga ko'ra o'xshatishning yuzaga chiqqanligi) va *odoti tashbih* yoki o'xshatish vositasi (o'xshatilish belgisi) kabi to'rt unsur asosiga qurilishi ta'kidlangan.

Ushbu unsurlarning barchasi ishtirok etgan o‘xshatish *tashbihi mufassal* deb ataladi. Agar ulardan vajhi shabah tushirib qoldirilsa, bunday o‘xshatish *tashbihi mujmal* va agar odoti tashbih ham qatnashmasa, bunday o‘xshatish *tashbihi muqayyad* deb ataladi. Tashbihi muqayyad tashbihi mufassalga qaraganda o‘xshatish belgisining kuchliligi bilan ajralib turadi. Masalan,

Ey nasimi subh, ahvolim diloromimg‘a ayt,
***Zulfi sunbul, yuzi gul** sarvi gulandomimg‘a ayt.*
(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 84-g‘azal)

misralarida Alisher Navoiy “yorimning zulfi sunbulga o‘xshash” yoki “yorimning yuzi gul kabidir” jumlalari o‘rniga **“zulfi sunbul”, “yuzi gul”** tarzidagi aniq va qisqa o‘xshatishlarni qo‘llar ekan, bunda yor go‘zalligi yorqinroq namoyon bo‘ladi.

Navoiy ijodida qo‘llanilgan tashbihlarda o‘xshamish faqat shaklga emas, ko‘p hollarda vazifaga asoslanganligini kuzatish mumkin. Masalan, “Sab’ai sayyor”dan olingan quyidagi baytda Navoiy tongni libosga, falakni gozur, ya’ni kir yuvuvchiga va quyoshni sovunga o‘xshatar ekan, tong otishi bilan qorong‘ulik ketishini shunday tasvirlaydi:

Subh savbini gozuri aflok,
Mehr sobuni surtubon yudi pok.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: falak ham tozalovchi qilgan ishni qiladi, ya’ni u ham o‘zining libosidagi (tongdagi) kirni (zulmatni) yo‘qotadi, lekin uning kir yuvish vositasi anchayin mukammal: uning sovuni quyoshdir.

Navoiy tashbihlari ko‘pincha bir necha qatlamli ekanligi bilan ajralib turadi, ya’ni ularda o‘xshatish unsurlari bir vaqtning o‘zida bir necha funksiyalarni bajaradi. Bunda shoir o‘zidagi biror narsa yoki holatni tasvirlanayotgan shaxsdagi biror narsaga o‘xshatadi-da, so‘ng undagi biror narsa bilan o‘zidagi narsani qiyoslaydi. Masalan, quyidagi baytlarga nazar tashlasak:

Mening firoqim-u oning visoli tun bila tong,
Bu nav’ dahrda yo‘q ehtimoli tun bila tong...

Tongim yorug‘-u tunum tiyradurki, chirmashadur
Ko‘ngul aro yuz-u zulfung xayoli tun bila tong...

Tunung xujasta, tonging qutlug‘ o‘lsun, ey mahvash
Ki, ikki banda sanga bo‘ldi xoli tun bila tong.

Ushbu baytlarda oshiqning firoqi ham, yorning visoli ham tun bilan tongga o‘xshatilar ekan, shoir *tazod* san’ati vositasida o‘xshatishlarning ma’no qatlamlarini ochib beradi.

Navoiy tashbihlariga xos yana bir xususiyat shundan iboratki, ularning aksariyati kundalik hayotda, turmushda uchraydigan oddiy narsa va hodisalarga asoslangan. Masalan, quyidagi baytga e’tibor qarataylik:

Suvang ul oy evining tomini balchig‘ yasabon,
Paykarimning evini, hajrki tufrog‘ etadur.

Baytda Navoiy poetik mahoratining yana bir qirrasiga guvoh bo‘lamiz: oshiqqa qarashli narsa yoki uning holati ma’shuqqa tegishli narsa yoki voqeaga o‘xshatiladi. Bu o‘rinda oshiq ma’shuqaning uyini obod qilishni va shu maqsadda o‘zining hijron tufayli tufroqqa aylangan jismini fido qilishni istaydi. Shoir yor uyining obod bo‘lishi uchun oshiq vujudini fido qilishi tabiiyligini o‘zining jismini ayriliq tuproqqa aylantirgan **uyga** o‘xshatish orqali erishgan. Shuningdek, ushbu o‘xshatish orqali fikr falsafiylashtirilgan: bir uyning buzilishi ikkinchi uyning obod bo‘lishiga xizmat qiladi (A.Rustamov).

Navoiy ijodida **mubolag‘a** san’atidan ham ustalik bilan foydalanilgan. Ma’lumki, mubolag‘a *(ar. – kattalashtirish, kuchaytirish)* adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol harakati yoki holatini bo‘rttirib, kuchaytirib ifodalash san’ati bo‘lib, bu xil tasvirda badiiy timsol xususiyatlari yanada yaqqol namoyon bo‘ladi, o‘quvchi ko‘z oldida yorqinroq gavdalanadi. Mubolag‘a san’ati haqida ilmi badi’ga doir mumtoz manbalarda ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, mazkur asarlarda mubolag‘aning asosan *ig‘roq* turiga to‘xtalib o‘tilgan. Xususan, “Funun ul-balog‘a” muallifi shunday yozadi: “Bu san’at aningdek bo‘lurkim, bir narsaning vasfinda mubolag‘ani had va g‘oyattin o‘tkarurlar”. Sharafiddin Romiy esa o‘zining “Haqoyiq ul-hadoyiq”asarida mubolag‘ani uning yuqori darajasi bo‘lgan ig‘roqdan ajratish zarurligini ta’kidlaydi. Mubolag‘a va uning darajalari haqida nisbatan to‘liqroq ma’lumot Atoulloh Husayniyning “Badoyi’ us-sanoyi’” asarida berilgan bo‘lib, muallif mubolag‘aning tab-

lig‘, ig‘roq, g‘uluvv, mardud g‘uluvv kabi turlarini keltiradi. Mubolag‘aning quyidagi 3 darajasi mumtoz adabiyotimizda, xususan Alisher Navoiy ijodida keng qo‘llanilgan:

1) *tablig‘ (ar. yetkazmoq)* – aqlan ishonish mumkin bo‘lgan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo‘lgan mubolag‘a. Bunda bo‘rttirib tasvir qilinayotgan hodisa yoki xususiyat aqlga to‘g‘ri keladi va ba’zan qiyinchilik bilan bo‘lsa-da, amalga oshishi ham mumkin:

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulru kelmadi,
Ko‘zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

(“Badoyi’ ul-vasat”, 608-g‘azal)

Visol va’dasini bergan yorning kelmagani oqibatida oshiqning kechasi bilan uxlamay chiqishi mubolag‘ali tasvir, lekin bu holatni aqlan tasavvur ham qilish mumkin va ba’zan hayotda ham uchrab turadi.

2) *ig‘roq (ar. kamonni qattiq tortmoq)* – aqlan ishonish mumkin bo‘lsa ham, hayotda yuz bermaydigan mubolag‘a. Bunday tasvirda o‘quvchi voqea yoki xususiyatni ko‘z oldiga keltirib, tasavvur qila oladi, biroq uning amalda yoki hayotda sodir bo‘lishi mumkin emas. Masalan, “Farhod va Shirin” dostonida Shirinning oti yiqilay deganda, Farhodning otni va Shirinni yelkasiga ko‘tarib bir necha chaqirim yo‘l bosishini aqlan qabul qilish mumkin bo‘lsa ham, bunday voqea hayotda yuz berishi mumkin emas:

Ko‘tardi orqasig‘a bodponi,
Nechukkim bodpo, ul dilraboni...

Chu ikki-uch yig‘och gom urdi shaydo,
Bo‘lub ollinda qasr-u havz paydo.

3) *g‘uluvv (ar. – qo‘lni imkon boricha baland ko‘tarish)* – aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo‘lmagan mubolag‘a:

Har qizil gulkim, yuzung shavqida olib isladim,
Yetkach ohim shu’lasi, oni sarig‘ gul ayladim.

(“Favoyid ul-kibar”, 426-g‘azal)

Baytda keltirilishicha, oshiq o‘z yorining qizil yuzini sog‘inib, qizil gulni olib hidlagan ekan, ohining shu’lasidan qi-

sil gul sariq gulga aylanibdi. Tasvirlanayotgan ushbu hodisani aqlan qabul qilish mumkin emas hamda bunday hodisa hayotda ham yuz bermaydi.

Navoiy she'riyatining barcha davrlari uchun xos bo'lgan badiiy san'atlardan yana biri **istiora** bo'lib, shoir ijodining ilk davriga mansub bo'lgan "Qaro ko'zum" deb boshlanuvchi g'azalidayoq istioralar guldastasi: "yuzing guli", "ko'ngul ravzasi", "qading niholi", "jon gulshani", "jon rishtasi", "xazon sipohi", "anjumani shavq", "boshoqli o'q" kabilardan mahorat bilan foydalanilgan edi. Ma'lumki, istiora (ar.– oriyatga yoki omonatga olish) so'z yoki iboralarni she'rda asl ma'nosida emas, balki majoziy ma'noda ishlatishga asoslangan badiiy san'atdir. Shams Qays Roziy istiorani majozning ko'rinishlaridan biri sifatida ta'riflaydi. Rashididdin Vatvot esa istiora san'ati barcha tillarda mavjud va benihoya go'zal san'at ekanligini, agar u tabiiy bo'lsa, so'zga go'zallik bag'ishlashini ta'kidlaydi. Istiora o'z xususiyatlariga ko'ra, ikkiga bo'linadi: 1) *ochiq istiora* yoki *istiorai bit-tasreh* (istiora obyekti (o'xshatilayotgan narsa) tilga olinmay, faqat istioralanuvchigina zikr qilinadigan); 2) *yopiq istiora* yoki *istiorai izofiy* (istioralanuvchi zikr etilmasdan, uning biror sifati, xulq-atvori, uzv-a'zosi izofat sifatida keltiriladigan). Agar

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi,

degan mashhur baytda ma'shuqa ochiq istiora yo'li bilan sarvga o'xshatilgan bo'lsa,

Soqiyo, may tut, mug'anniy, navhayi ohingni chol
Kim, sipohi umrum o'lmish ko'si rihlat cholg'udek, –

baytining ikkinchi misrasida shoir yuksak mahorat bilan umrni shoh yoki lashkarboshiga, o'tayotgan umrning oy-u yillarini askarlarga o'xshatib, yopiq istiorani mahorat bilan qo'llaganligiga guvoh bo'lamiz.

Alisher Navoiy juda ko'p o'rinlarda, istiorani boshqa badiiy san'atlar bilan uyg'unlikda qo'llagan holda tasvir va tavsifning nihoyatda yorqin namunalarini yaratgan. Uning she'rlarida mavhum tushunchalarga real xususiyatlar baxsh etish orqali yaratilgan istioralar va ana shunday istioralar vositasida bir

bayt doirasida yuzaga kelgan yorqin lavha va manzaralar ham ko‘plab uchraydi. Masalan, quyidagi baytga nazar tashlaylik:

Buki har yondin ko‘kartibdur yuzumni koji dard,
Jism uyi toqini oltun birla qildim lojuvard.

Baytda Navoiy ustma-ust *“koji dard”* (g‘am shapalog‘i)dan ko‘kargan za’faron yuzini *“jism uyi”*ning lojuvard va oltin bilan bezatilgan peshtoqiga o‘xshatar ekan, yangicha istioralar, tashbih va mubolag‘a san’atlari uyg‘unligida nihoyatda go‘zal real manzara tasvirini kitobxonning ko‘z oldida gavdalantiradi.

Navoiy ijodida mahorat bilan qo‘llanilgan ma’naviy san’atlar orasida eng murakkablaridan biri **husni ta’lil**dir. Ma’lumki, husni ta’lil *(ar. – chiroyli dalillash)* biror voqeani unga bevosita daxli bo‘lmagan boshqa bir hodisa bilan izohlash san’ati bo‘lib, bunda shoir o‘zi tasvir etayotgan hodisaga biror go‘zal sabab ko‘rsatadi. Bu asoslash mantiqiy va hayotiy bo‘lmasdan, aksincha xayoliy, shoirona shaklda namoyon bo‘ladi. Husni ta’lil san’atining nomi dastlab Umar Roduyoniyning *“Tarjumon ul-balog‘a”* asarida uchraydi. Muallif husni ta’lilni “muayyan obyektni tasvirlashda biri birining sababi bo‘lgan ikki sifatning namoyon bo‘lishiga asoslangan san’at” sifatida tasvirlaydi. Husni ta’lil haqidagi nisbatan kengroq ma’lumot Atoulloh Husayniyning *“Badoyi’ us-sanoyi’”* asarida berilgan bo‘lib, muallif Taftazoniy va Qutbiddin Sheroziyning ushbu san’at haqidagi fikrlariga batafsil to‘xtaladi va Taftazoniy tasnifini keltirib o‘tadi. Bu tasnifga ko‘ra, husni ta’lil quyidagi to‘rt tur: 1) belgining mavjudligi, lekin sabab aniq ko‘zga tashlanmaganligi uchun uni xayoliy, badiiy sabab bilan izohlashga asoslangan; 2) belgining zikr etilgan sababdan boshqa yana bir – hayotiy bo‘lmagan sababga ega ekanligiga asoslangan; 3) belgining ba’zan sababga ega bo‘lish, ba’zan ega bo‘lmasligiga asoslangan va 4) belgining umuman sababga ega bo‘lmasligiga asoslangan husni ta’lilni o‘z ichiga oladi.

Alisher Navoiy ijodida husni ta’lilning ushbu turlaridan keng istifoda etilgan. Xususan, “G‘aroyib us-sig‘ar”dan 9-raqam ostida o‘rin olgan g‘azalning quyidagi baytida uning birinchi turi qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin:

Nomai shavqum ne nav’ ul oyg‘a yetkay, chunki men
El otin o‘qur hasaddin yozmadim unvon anga.

Bunda shoir "Shavqim maktubi u oydek go'zal yorimga qanday qilib yetib borar ekan, axir men xalq uning nomini o'qib, bilib olishidan hasad (rashk) qilib, maktubimning manzilini yozmadim-ku" der ekan, hodisaga "hasad qilib" manzilni yozmaganlikni sabab sifatida ko'rsatib, baytning ta'sirchanligini oshirgan.

Alisher Navoiy husni ta'lil ifodasi uchun xizmat qilishi mumkin bo'lgan hayotiy timsollar ko'lamini boyitib, o'zigacha bo'lgan fors-tojik va turkiy g'azaliyotda qo'llanmagan o'nlab timsollarni she'riyatga olib kirdi. Yulduzlar va bulutlar, subh va shafaq, ra'd va barq, nargis va rayhon kabi o'nlab yangi timsollardan foydalanish husni ta'lilning bir-biridan yorqin va jozibador namunalarini yoritish imkonini berdi. Agar ustoz ijodkorlar o'z she'rlarida husni ta'lil san'atidan asosan mahbuba go'zalligi-yu latofatini ifodalash uchun foydalangan bo'lsalar, Navoiy she'riyatida ushbu san'at lirik qahramonning ma'naviy qiyofasi va ruhiyati tasviri uchun ham xizmat qildirildi:

Men havoyini ne tong ko'rguzsalar bir-birgakim,
Egma qoshing fikri andoqkim hilol etmish meni.

Ma'lumki, mumtoz adabiyotda hilol timsoli asosan yor qoshining vasfi uchun qo'llanilgan. Yuqoridagi baytda esa shoir ushbu timsolni lirik qahramonga xos ruhiy holatni aks ettirishga xizmat qildiryapti. Baytda yorining egma qoshi haqida xayol suravergan oshiqning o'zi ham hilolga o'xshab qomati bukilib qolgani, yangi oyni tomosha qilib, uni bir-birlariga ko'rsatayotgan odamlar aslida oshiqning holatidan iztirob chekayotganliklari ajoyib badiiy lavha tarzida aks ettirilgan.

Agar Atoyi, Lutfiy kabi ijokorlar gullarning qizarishiga ularning mahbuba ruxsoridan uyalishini dalil qilib keltirgan bo'lsalar, Navoiy bu holatga oshiq tortgan "o'tlug' oh" sabab bo'lganligini ta'kidlaydi:

Gullar o'lmish otashin to o'tlug' ohim tortibon,
Aylamishmen orazing hijronidin gulgashti bog'.

Navoiy ijodida keng qo'llanilgan ma'naviy san'atlardan yana biri **irsoli masal** *(ar. – maqol yoki matal yuborish)* bo'lib, baytda maqol, matal va hikmatli so'zlarni keltirishga asoslangan she'riy san'at hisoblanadi. Ilmi badi'ga doir deyarli bar-

cha manbalarda ushbu san'at haqida ma'lumotlar keltiriladi. Irsoli masal haqidagi nisbatan to'liqroq ma'lumot Atoulloh Husayniy asarida keltirilgan bo'lib, unda ushbu san'atning ikki usul bilan hosil bo'lishi aytiladi: "Birinchi va afzali uldurkim, masalning so'z va tartibin o'zgartirmay bergaylar... Ikkinchi yo'li uldurkim, masalda o'zgarish yuz berur". Bunda muallif irsoli masal san'atining birinchi turida she'r tarkibida keltiriladigan maqol yoki hikmatli so'zning hech o'zgarishsiz berilishini, ikkinchi turida esa matnning mazmuni saqlangan holda she'r talabi bilan maqol yoki hikmatli so'zning shakli bir oz o'zgartirilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Atoulloh Husayniy irsoli masal san'atining lug'aviy ma'nosiga ham e'tibor qaratib, "irsol" so'zi "yubormoq, jo'natmoq" ma'nosini bildirishini, baytda masal keltirishdan maqsad esa uni muayyan kishiga jo'natish ekanligini ham aytib o'tadi. Alisher Navoiy ijodida bu san'atning istifoda etilishini uch xil holatda ko'rish mumkin:

1) bayt tarkibida qo'llanilayotgan maqol, matal yoki hikmatli so'z "masal", "masaldur", "masalkim", "derlar" jumlalari yordamida keltiriladi:

Chun masal bo'ldi soching zulm ichra, yoshurmoq ne sud
Mushk isin yoshursa bo'lmas, bu ***masal*** *mashhur erur.*
("G'aroyib us-sig'ar", 186-g'azal)

2) maqol yoki matal yuqoridagi jumlalarsiz aynan keltiriladi:

O'qlaring ko'nglumga tushkach, kuydi ham ko'z, ham badan
Kim, kuyar xo'lu qurug' chun naysitong'a tushti o't.
("G'aroyib us-sig'ar", 86-g'azal)

3) maqol yoki matalning mazmuni saqlangan holda uning shakli bir oz yoki butunlay o'zgartiriladi:

Chu mazra' ichra sochting har ne dona,
Hamul dona ko'targung jovidona. ("Farhod va Shirin")

Baytda "Har kim ekkanini o'radi" xalq maqoli o'zgargan shaklda keltirilyapti.

Navoiy she'riyatida **tamsil** san'ati ham o'ziga xos tarzda qo'llanilgan. Ma'lumki, tamsil *(ar. – misol keltirish, dalillash)* – she'r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifa-

tida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishga asoslangan badiiy san'at bo'lib, bunda birinchi misradagi fikr bilan keltirilgan misol o'rtasidagi munosabat, ya'ni mantiqiy aloqa ko'pincha qiyosiy yo'nalishda bo'ladi. Tamsil san'ati mohiyatiga ko'ra *irsoli masal* san'atiga o'xshab ketsa-da, fikrning, maqsadning isboti uchun hayotiy dalillar keltirishi bilan undan farqlanadi, chunki irsoli masalda mashhur maqol, hadis yoki hikmat dalil sifatida keltiriladi.

Tamsil haqidagi dastlabki ma'lumot Shams Qays Roziyning "Al-Mo'jam" asarida keltirilgan bo'lib, muallif tamsilni istioraning bir turi sifatida sanab o'tadi: "Ushbu san'at ham istioralarga mansubdir. Faqat u istioraning misol keltirish bilan bog'liq turi bo'lib, agar shoir biror fikrga ishora qilmoqchi bo'lsa, boshqa ma'noni anglatuvchi so'zlarni shu fikrga monand qilib keltiradi va shu orqali o'zi maqsad qilgan ma'noni ifodalaydi". Aynan shu kabi fikrlar ilmi badi'ga doir boshqa manbalar: Husayn Voiz Koshifiyning "Badoyi' ul-afkor" va Atoulloh Husayniyning "Badoyi' us-sanoyi'" asarlarida ham takrorlangan.

Alisher Navoiy ijodida tamsil san'atining istifoda etilishi alohida jihat kasb etadi. Shoir lirikasida ushbu san'atning qo'llanilishida janrlararo tabaqalanish mavjudligini kuzatish mumkin. Xususan, poetik dalillash g'azal janrida, asosan, bir bayt doirasida ko'rinsa, qit'a va ruboiyda bir she'r doirasida, tarji'bandda esa har bir band doirasida namoyon bo'ladi, lekin takrorlanuvchi maqta'-bayt tufayli bandlar bir-biri bilan bog'lanib keladi. Natijada, maqta'dagi mazmunni dalillash musalsal, ya'ni bosqichli holat kasb etadi (Y.Is'hoqov). Masalan, quyidagi misolda dalillash usuli g'azaldagi bayt doirasida namoyon bo'lmoqda:

Zaxmim ichra qoldi paykoning, ne yanglig' butkay ul,
Chunki qo'ymas yorag'a yopushqali marhamni su.
("G'aroyib us-sig'ar", 511-g'azal).

Baytda oshiq o'z yarasida yorning o'qi (kiprigi) qolganligini va uning bu holatda tuzalishi amri mahol ekanligini aytar ekan, bunga malhamni yaraga surtmoqchi bo'lsalar, suv uni yopishgani qo'ymasligini sabab sifatida ko'rsatadi.

Quyidagi ruboiyda esa tamsil san'ati yaxlit bir she'r doirasida qo'llanilganligini kuzatamiz:

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg'a tikandek oshyon bo'lmas emish.

("G'aroyib us-sig'ar", 55-ruboiy).

Navoiy qit'alarida tamsil san'ati muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu janrda ijtimoiy-tarbiyaviy mazmun, pand-nasihat ruhi yetakchilik qiladi va shu sababli har bir muhim fikr va xulosa hayotiy hodisalar bilan dalillanadi. Masalan, quyidagi qit'ada birinchi baytda shoir aytmoqchi bo'lgan fikr-xulosa (pok ayollar oyog'ining izi yuz ming nopok erlardan afzalroq ekanligi bilan bog'liq) bayon qilingan bo'lsa, keyingi baytlarda uning dalil-isboti (Lutning o'g'li nafsiga mag'lub bo'lib, dinga ofat keltirgani, Rasulullоh (s.a.v.)ning qizlari esa pokligi tufayli sayyidlar (Payg'ambar avlodlari)ga yo'lboshchi bo'lganligi) keltirilgan:

Yuz tuman nopok erdin yaxshiroq,
Pok xotunlar ayog'ining izi.

Lut o'g'lin ko'rki soldi tiyralik,
Ding'a nafs ilgida tab'i ojizi.

Dahr aro yoqti siyodat mash'alin,
Pokravliqtin rasulullоh qizi.

("Navodir ush-shabob", 9-qit'a)

Navoiy she'riyatida, ma'naviy san'atlardan, shuningdek, **talmih** (she'rda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, shaxs nomlari, adabiy asar qahramonlari, joy nomlarini keltirishga asoslangan), **kalomi' jomi'** (she'rda yoki baytda pand-nasihat, o'git, axloq-odobga oid, zamona va zamondoshlardan shikoyat bilan bog'liq fikrlarni keltirishga asoslangan), **ruju'** (shoirning she'rdagi avvalgi misra yoki baytda ifodalagan fikridan voz kechib, keyingi misra yoki baytda uni yanada kuchliroq ifodalashiga asoslangan), **tashxis** (hayvonlar, qushlar, o'simliklar va jonsiz narsalarga insonning xususiyatlarini ko'chirish san'ati) kabilar ham keng qo'llanilgan.

Navoiy ijodida ham lafzga, ham ma'noga aloqador **mushtarak** san'atlar ham istifoda etilgan bo'lib, Atoulloh Husayniy ular

sirasiga *mutobaqa, muroat un-nazir, ta'dil, tansiq us-sifot, iqtibos, aqd, tazmin, baroati istehlol, husni taxallus, husni matla', husni maqta'* va boshqa san'atlarni kiritgan. Biz ushbu guruhga ham shakl, ham mazmunga birday aloqador bo'lganligi uchun tajnis san'atini ham kiritamiz. Ma'lumki, **tajnis** *(ar. – jinsdosh, hamjins)* baytda shaklan bir xil yoki bir-biriga yaqin so'zlarni qo'llashga asoslangan she'riy san'at bo'lib, asosan nazmda, ba'zan nasrda ham istifoda etiladi. Ilmi badi'ga doir manbalarda tajnisning bir necha turlari farqlanadi. Xususan, Umar Roduyoniyning "Tarjumon ul-balog'a" asarida tajnisning 4 turi (tajnisi mutlaq, tajnisi murakkab, tajnisi zoid, tajnisi muraddad), Rashididdin Vatvotning "Hadoyiq us-sehr", Shams Qays Roziyning "Al-Mo'jam" va Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarlarida 7 turi (tajnisi tom, tajnisi noqis, tajnisi zoid, tajnisi mukarrar, tajnisi murakkab, tajnisi mutarraf, tajnisi xat) keltirib o'tilgan.

Turkiy adabiyot, jumladan, Alisher Navoiy ijodida tajnisning asosan quyidagi turlari keng qo'llanilgan:

1) tajnisi tom yoki mutlaq tajnis – to'liq shakldoshlikka (harflar tarkibi jihatidan) asoslangan:

Sahnida yuz gul chiqorib bir ***yig'och,***
Har gulining atri borib bir ***yig'och.***
(Hayrat ul-abror)

"Yig'och" so'zi birinchi misrada daraxt, yog'och ma'nosida, ikkinchi misrada masofa o'lchovi (taxminan 8 kmdan ortiqroq) ma'nosida kelgan.

2) tajnisi muzori' – shaklan yaqin so'zlarning bir-biridan bir yoki ikki undosh tovush bilan farqlanishi natijasida vujudga keluvchi tajnis:

Shoh olinda hamisha ***hozir*** *o'lsam,*
Bu ish kayfiyatidin ***nozir*** *o'lsam*
("Farhod va Shirin")

3) tajnisi xat – arab yozuvidagi so'zlarning faqat nuqtalar orqali farqlanishiga asoslangan tajnis:

Barcha xo'blarning qad-u ruxsor-u xattu ***xoli*** *bor,*
Lek ulkim bizni behol aylar o'zga ***holi*** *bor.*
("G'aroyib us-sig'ar", 176-g'azal)

4) tajnisi mukarrar – shaklan bir-biriga yaqin ikki so‘zning misra oxirida yonma-yon kelishiga asoslangan tajnis:

Ishq erur andoq murabbiykim, qilur yetkach asar,
Bulbul o‘lg‘ay, ochsa yuz bir sarvi ***gulruxsor sor.***

(“Badoyi’ ul-vasat”, 158-g‘azal)

5) tajnisi murakkab – shakldosh so‘zlarning biri yaxlit bir so‘zdan, ikkinchisi ikki so‘zdan iborat bo‘lishi orqali vujudga keladigan tajnis:

Charx tortib xanjari hijron ***bu tun,***
Qo‘ymadi bir zarra bag‘rimni ***butun.***
Tunga borib bizni behol aylading,
Ne balolig‘ yer emish, yo Rab, ***bu tun.***

(Badoyi’ ul-vasat, 6-tuyuq)

6) tajnisi zoyid (orttirilgan tajnis) – shaklan yaqin so‘zlarning birida bir-ikki harfning ortiqcha bo‘lishiga asoslangan:

Topib ul nuktadin ***ozor*** *yig‘lab,*
O‘zin tufroqqa soldi ***zor*** *yig‘lab*

(“Farhod va Shirin”)

Mushtarak san’atlar orasida **tazod** *(ar. – zid qo‘yish, qarshilantirish)* san’ati ham alohida o‘rin egallaydi. Yaxshi ma’lumki, tazod baytda ma’no jihatdan o‘zaro zid, qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlarni qo‘llashga asoslangan san’at bo‘lib, nazm va nasrda keng qo‘llaniladi. Ilmi badi’ga doir manbalarda tazod san’ati turli nomlar bilan yuritilgan. Xususan, Umar Roduyoniyning “Tarjumon ul-balog‘a”, Toj al-Halaviyning “Daqoyiq ush-she’r”, Sharafiddin Romiyning “Haqoyiq ul-hadoyiq” asarlarida *mutazod*, Rashididdin Vatvotning “Hadoyiq us-sehr”, Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a”, Husayn Voiz Koshifiyning “Badoyi’ ul-afkor” asarlarida *al-mutazod*, Shams Qays Roziyning “Al-Mo‘jam”, Hamididdin Najotiyning “Risolai feruziy” asarlarida *mutobiqa*, Shams Faxriy Isfahoniyning “Me’yori jamoliy” asarida esa *al-ittizod* istilohlari bilan keltirilgan.

Tazod haqidagi nisbatan kengroq ma’lumot Atoulloh Husayniyning *“Badoyi’ us-sanoyi’”* asarida berilgan bo‘lib, muallif o‘z asarining lafzi-yu ma’naviy (mushtarak) san’atlarga ajratilgan qismida *mutobaqa* atamasi ostida ushbu san’atga to‘xtalib o‘tadi

va tazod san'atining *tiboq*, *tatbiq*, *tazod* va *takofu* deb ham yuritilishini ta'kidlaydi. Risolada ushbu atamalarning har biriga alohida izoh berilib, ularning lug'aviy ma'nosi keltiriladi. Shuningdek, risolada Atoulloh Husayniy bir misrada barcha so'zlarning o'zaro qarama-qarshi ma'noda kelganligi bilan bog'liq misolni keltirib, uni Alisher Navoiydan eshitganligini aytib o'tadi: "Hazrati xudovandgor (Alisher Navoiy)din eshittimkim, Xoja Salmon bir misra aytiptur, aning birinchi yarminda uch nimani zikr etiptur va ikkinchi yarminda ul uch nimaning muqobili bo'lg'an yana uch nimani zikr qiliptur va ul misrada o'shul olti mutaqobil nimadin o'zga hech lafz yo'qtur. Aning ikkinchi misrain o'shul tariqada aytmaptur. Ul misra budur:

Hushyor darun raftu berun omad mast".

(Mazmuni: Hushyor ichkariga kirdi-yu, mast tashqariga chiqdi). Ushbu misrada uch juft zid ma'noli so'zlarning qo'llanilganligini ko'ramiz: hushyor↔mast, darun (ichkariga)↔berun (tashqariga), raft (kirdi)↔omad (chiqdi).

Alisher Navoiy ijodida tazod san'ati yuksak mahorat bilan qo'llanilgan bo'lib, shoir g'azallarida ushbu san'atning ishlatilishida ikki xususiyat ko'zga tashlanadi. Ba'zi o'rinlarda Navoiy g'azalning bir yoki bir necha baytidagina tazod usulidan foydalansa, shoirning ayrim g'azallari boshdan-oxirigacha ushbu san'at asosiga qurilganligini ko'ramiz. Masalan, quyidagi g'azal matla'sida birinchi misra faqat zid ma'noli so'zlardan tashkil topganligini kuzatish mumkin:

*Ne **tirigmen**, ne **o'lug**, ne **sog'**, ne **bemormen**,*
Ayta olmankim, firoqingdin ne yanglig' zormen.
("G'aroyib us-sig'ar", 497-g'azal).

Quyidagi matla' bilan boshlanuvchi g'azal esa boshdan oxir ushbu san'at asosida yaratilgan:

*Har gadokim, **bo'ryoyi** faqr erur kisvat anga,*
*Saltanat **zarbaftidin** hojat emas xil'at anga...*

Navoiy she'riyatida mushtarak san'atlardan bo'lgan **iqtibos**dan ham mahorat bilan foydalanilgan. Ma'lumki, iqtibos *(ar. – nur olish, ziyolanish)* Qur'on oyatlari va hadislarning matnini adabiy asarda aynan keltirishga asoslangan badiiy san'at bo'lib, unga arab va fors manbalarida turlicha ta'rif berilgan. Alloma

Qutbiddin Sheroziy va Sa'diddin Taftazoniy talqiniga ko'ra, iqtibos mashhur maqol yo masal mazmuniga ishora qilish yoki ularni adabiy matnda keltirish usulidir. Atoulloh Husayniy "Badoyi' us-sanoyi'" asarida iqtibosning to'rt xil: ko'chirma aynan keltirilib, mazmuniga muvofiq talqin qilingan; aynan ko'chirilgan matn boshqa ma'noni ifodalashga xizmat qiladigan; iqtibos matni juz'iy o'zgarishga uchragan va iqtibos qilingan matn ham shakl, ham mazmun jihatidan o'zgarishlarga uchragan shakllarini keltiradi. Husayn Voiz Koshifiy iqtibosga Qur'on oyatlari va hadis matnidan parchalarni she'rda aynan, o'zgarishsiz istifoda etish san'ati, deb ta'rif beradi. Alisher Navoiy o'z she'riy asarlarida ko'pincha oyat va hadisni to'liq emas, balki ma'lum bir bo'lagini keltirish orqali uning mazmuniga ishora qiladi. Masalan, *"azza man qana' va zalla man tama'"* (qanoat qiluvchi aziz, tamagir esa xor-u zalildir) hadisi shoirning o'nlab baytlarida ishlatilgan. Jumladan:

Xorlig'lar boshi tama' bilg'il,
Doimo azza man qana' bilg'il.

Nasriy asarlarning muqaddimalarida, "Xamsa"ning musajja' sarlavhalarida iqtibos turlicha shaklda qo'llangan. Birdan ortiq oyat va hadis keltirilgan o'rinlar debocha va sarlavhalarda ko'p uchraydi. Iqtibos qilingan oyat va hadislar, asosan, axloqiy mavzularda bo'lib, Alisher Navoiy insoniylikning muhim sharti bo'lmish go'zal axloqni targ'ib qilishda diniy matnlardan ustalik bilan foydalangan.

Iqtibos o'z mohiyatiga ko'ra talmi', tazmin san'atlariga o'xshab ketadi. Farqi shuki, talmi' va tazminda faqat shoirning ikki tilda she'r ayta olish salohiyatini namoyon etish yoki mashhur misra yo baytni keltirib, o'sha bayt darajasida she'r ayta olish imkoniyatini namoyon etish nazarda tutilgan bo'lsa, iqtibosda oyat va hadis keltirish vositasida aytilgan fikrni rad etib bo'lmas haqiqat darajasiga ko'tarish, she'rga nur va ziyo bag'ishlash asosiy maqsad qilib olinadi.

Navoiy she'riyatida iqtibos bilan parallel ravishda **aqd** san'ati ham keng istifoda etilgan san'atlardan hisoblanadi. Aqd san'ati *(ar. – ikkita narsani bir-biriga mustahkam bog'lamoq, tugish)* Qur'on oyatlari va hadislar matnini she'riy asarlarda vazn va qofiya talabiga muvofiq juz'iy o'zgartishlar bilan keltirishga

asoslanadi. Aqdga mumtoz adabiyotshunoslik manbalarida turlicha ta'rif berilgan. Jumladan, Atoulloh Husayniy oyat, hadis yo biror mashhur manbadan biror gapni juz'iy o'zgartishlar bilan she'rda joylashtirishni aqd san'ati deb bilgan. Husayn Voiz Koshifiy esa faqat oyat va hadis matnini vazn va qofiya talablariga moslashtirish uchun juz'iy o'zgartishlar bilan keltirishni aqd hodisasi deb hisoblaydi. Shoir bunday holatlarda mazkur oyat yo hadisning mazmun-mohiyatini ochib berish va o'quvchiga yetkazishni asosiy maqsad qilgani bois oyatning tashqi tuzilishiga kamroq e'tibor qaratadi. Alisher Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devonidan joy olgan quyidagi baytlar oyatning kompozitsion yaxlitligini saqlamasdan ham undagi ma'noni o'quvchi zehnida aks ettirish mumkinligiga dalildir:

Ey yetti manzar tarhig'a me'mori sun'ungdin bino,
Masnu'lar foniy, vale maslubi soni'din fano.

Chekmay falak lutfung tuni juz zikr ila tasbih uni,
*Odam debon qahring kuni har dam "**zalamno rabbano**".*

"Zalamno rabbano" so'zlari "A'rof" surasining 23-oyatidan olingan bo'lib, u: "*Qolo rabbano zalamno anfusano*" deb boshlanadi. Ushbu oyat, Odam Ato bilan Momo Havvo jannatdan haydalgandan keyin Tangriga qilgan tavbasining mazmunidir: Ikkisi aytdilar: "Ey, Rabbimiz! Biz o'zimizga (o'zimiz) zulm qildik. Agar bizni kechirmasang, biz, albatta, ziyon ko'ruvchilardan bo'lib qolurmiz". Navoiy she'r vazni talabiga muvofiq "rabbano" va "zalamno" so'zlarining o'rnini almashtiradi, ammo bu usul oyatning ma'nosini o'zgartirib, o'quvchi fikrini chalg'itmaydi. Ko'rinadiki, agar iqtibos san'atida muqaddas manbalarga murojaat qilishda aynan manba asliyatining saqlanishi bosh mezon qilib olinsa, aqdda Qur'on oyatlari yoki hadislardan she'riyat qonun-qoidalariga mos holatda juz'iy o'zgartirishlar asosida foydalanish nazarda tutiladi.

Navoiy ijodida keng qo'llanilgan mushtarak san'atlardan yana biri **baroati istehlol** san'atidir. Ushbu san'at *(ar. baroat – bir sohada ustunlik, istehlol – yangi oyni ko'rish talabi)* asarning qaysi mavzuga bag'ishlanganiga ishora qilishga asoslangan badiiy san'atlardan bo'lib, bunda o'quvchi muallifning asar debochasi; masnaviy, qasida yoki marsiya avvali, kitobning bob va fasllari boshida kiritgan so'z hamda fikrlaridan asar va uning

muayyan bobining mavzusi, mundarijasi yoki asosiy mazmunini bilib olish imkoniga ega bo‘ladi. Ko‘pgina adabiyotlarda baroat – mahorat, fasohat, ravshanlik, fazilat, ustalik hamda fazl-u hunarda yetuklik sifatida talqin qilinsa, istehlol yangi oyni ko‘rish talabi ma’nosini anglatadi. G‘iyosiddin Muhammadning “G‘iyos ul-lug‘at”ida “Munshaot”ga tayanib ma’lumot berilishicha, istehlol chaqaloqning tug‘ilish jarayonida chiqargan ovozi bo‘lib, uning o‘g‘il yoki qizligini shunga qarab bilishgan. Ilmi badi’ga doir manbalarda ta’kidlanishicha, muqaddimaning eng yaxshisi baroati istehlolga ega bo‘lganidir.

Navoiyning deyarli barcha asarlarida baroati istehlol san’atidan mahorat bilan foydalanilganlikni ko‘ramiz. Buyuk mutafakkir barcha asarlari muqaddimasida, albatta, uning nima maqsadda yozilgani haqida ma’lumot beradi, unda qanday mavzuda so‘z borishini aytib o‘tadi. Ayniqsa, “Xamsa” dostonlaridagi boblarning sarlavhalari baroati istehlol san’atining badiiy barkamol namunalaridir. Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” muqaddimasida ustozi Abdurahmon Jomiyning shayx va avliyolar haqidagi “Nafahot ul-uns” tazkirasidan turkiy tilli o‘quvchilar ham bahramand bo‘lishi uchun yigirma yil davomida tarjima qilish niyatida yurgani va, nihoyat, bu ulkan va xayrli ish muyassar bo‘lganini aytar ekan, tarjima jarayonida o‘zi amalga oshirgan o‘zgarishlar, qisqartirishlar va qo‘shimchalar haqida ma’lumot berish bilan birga, asar mazmun-mundarijasini ham bayon qiladi: “Hazrat shayx Fariduddin Attor (q.s.) bitigan “Tazkirat ul-avliyo”din ba’zi kibor mashoyixkim, “Nafahot ul-uns”g‘a doxil bo‘lmaydur erdi – har qaysini munosib mahalda doxil qildim va Hind mashoyixi sharhi ham oz mazkur erdi, mumkin bor tilab, topib, hazrat qutb ul-avliyo Shayx Farid Shakarganj (q.a.)din so‘nggi mashoyixgacha ilhoq qildim va turk mashoyixi zikri ham ozroq erdi, oni dog‘i Hazrat shayx ul-mashoyix Xoja Ahmad Yassaviy (r.a.) din bu zamong‘acha ulcha mumkin bor tilab topib, zikrlarin va ba’zi holot-u so‘zlarin o‘z mahalida darj qildim”.

Navoiy Samarqanddan Sayid Hasan Ardasherga yozgan she’riy maktubida an’anaviy hamd va na’t, ustozi sha’niga aytilgan maqtovlardan keyin o‘zining vatani Hirotni nega tark etganligining sababini tushuntirib berish ehtiyoji ushbu nomani yozishga undaganini ta’kidlaydi va o‘quvchi bundan masnaviyda nima xususida so‘z borishini taxmin qiladi:

Chu holimdin ahbob ogoh emas,
Degaylar hadiseki, dilxoh emas.

Ayon bo'lg'ay ollingda hangomaye,
Bitilmak manga farz edi nomaye.

Sanga holatimni ayon aylamak,
Bu azmim vujuhin bayon aylamak.

Manga necha nav' o'ldi bechoralig' –
Ki, ollimg'a tushti bu ovoralig'.

"Xamsa" dostonlari boblarining nasriy shakldagi sarlavhalarini o'quvchi uchun o'ziga xos yo'lko'rsatkich, deyish mumkin. Masalan: "Majnunning atosi ani ishq bodiyasidin kelturub, Ka'ba tavofig'a olib borg'oni va ul munojot bahonasi bila ko'nglidagi chirni yozg'oni va duo qilmoq taronasi bilan xotiridag'i maxfiy maqosidin tilidin chiqarg'oni va Arafot ahlidin arasot qo'porg'ani" yoki "Xoqonning o'z gavharin xazoyin g'aroyibi, balki g'aroyib xazoyinig'a kiyurmog'i va aning ko'ziga sangpora ushoq toshcha va qizil oltun qaro tufrog'cha ko'runmay, ko'zi jaz'i billuriy durjg'a tushub, suvda mehri xovariydek billurda Oyinai Iskandariyg'a tushgoni va ul ko'zgu tilismidin g'arib suratlar anga yuz ko'rguzub, ko'ngli ko'zgu aksidek iztirobga tushgani" kabi sarlavhalarda "Layli va Majnun" va "Farhod va Shirin" dostonlaridagi bosh qahramonlarning muayyan holatda kechirajak ruhiy ahvollari bayoniga ishora qilingan.

Navoiy she'riyatida mushtarak san'atlardan **tanosub** yoki **muroat un-nazir** (baytda ma'no jihatdan bir-biriga yaqin va o'zaro mutanosib so'zlarni qo'llashga asoslangan badiiy san'at), **ishtiqoq** (bir o'zakdan hosil bo'ladigan bir nechta so'zni bir bayt yoki jumlada qo'llashga asoslanadigan), **siyoqat ul-a'dod** yoki **ta'dil** (she'rda sodda otlarni muayyan tartib bilan ketma-ket keltirishga asoslangan) san'atlar ham mahorat bilan qo'llanilgan bo'lib, ular muallif g'oyaviy niyatini ochib berishda muhim poetik unsurlar sifatida alohida ahamiyatga ega.

Umuman olganda, Alisher Navoiy ijodida qo'llanilgan badiiy san'atlarni o'rganish shoir badiiy tafakkurining salohiyati, ona tilining cheksiz go'zalliklaridan foydalanish iqtidorini ochib

berishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Tayanch tushunchalar

ilmi badi'
lafziy san'atlar
ma'naviy san'atlar
mushtarak san'atlar
tashbih
istiora
irsoli masal
kalomi jomi'
mubolag'a
maqlubi mustaviy
radd ul-ajuz al as-sadr
radd ul-matla'
radd ul-qofiya
ruju'
siyoqat ul-a'dod
tavzi'
tajnis
tazod
talmih
tanosub
tardi aks
tarsi'
tasbi'
tasdir
tashxis
tazmin
husni ta'lil
tamsil
aqd
iqtibos
baroati istehlol



Savol va topshiriqlar:

1. Mumtoz poetikada ilmi badi'ning o'rni haqida ma'lumot bering.
2. Mumtoz adabiyotshunoslikda badiiy san'atlar qanday tasnif qilingan?
3. Zamonaviy adabiyotshunoslikdagi tasniflarga munosabat bildiring.
4. Navoiy she'riyatida keng qo'llanilgan lafziy san'atlar haqida ma'lumot bering.

5. Qaytarishga asoslangan san'atlarga qaysilar kiradi va ularning shoir she'riyatidagi o'rniga to'xtalib o'ting.

6. Navoiy she'riyatida radd ul-qofiya va radd ul-matla' san'atlarining qaysi turlaridan foydalanilgan?

7. Navoiy ijodida ma'naviy san'atlarning o'rni qanday?

8. Shoir she'riyatida tajnis va tardi aksning qanday turlaridan foydalanilgan?

9. "Xamsa" dostonlaridan baytlar keltirib, ularda qo'llanilgan san'at turlarini sanang.

ADABIYOTLAR:

Matn va manbalar:

1. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Нашрга тайёрл. О.Давлатов. Тўрт жилдлик. – Т.: TAMADDUN, 2011. 1–4-ж.

2. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний (Илмий-танқидий текст асосида нашрга тайёрловчи Ҳ.Сулаймонов). 4 жилдлик. 1-4-ж. – Т.: Фан, 1959-1960.

3. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. 1–4-ж.

4. Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. 6-8-ж.

5. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ / Форсчадан А. Рустамов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981.

6. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Т.: Хазина, 1996.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

7. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.

8. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам, 2006.

9. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983.

10. Мамажонов З. Мумтоз шеърий санъатларнинг назарий таснифи (ўхшатиш асосидаги санъатлар). – Т.: Akademnashr, 2016.

11. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (X–XV вв.). – М.: Наука, 1989.

12. Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Ленинобод, 1972.

13. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979.

14. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Т.: Шарқ НМК, 1998.

15. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ, 1999.

16. Ҳожиаҳмедов А. Ҳусни таълил санъати. – Т.: Фан, 2006.



NAVOIY IJODIDA QOFIYA TIZIMI

Reja:

1. Mumtoz qofiya haqida umumiy ma'lumot.

2. Navoiyning qofiyadan foydalanish mahorati.

3. Navoiy ijodida qofiya turlari. Mujarrad, muassas, murdaf va muqayyad (qaydli) qofiyalar.

4. Navoiy she'riyatida qofiyaning tuzilishiga ko'ra turlari. Mutlaq va muqayyad qofiyalar.

5. Navoiy ijodida radif va hojib.

Qofiya misralar oxiridagi qo'shimcha, so'z va so'z qo'shilmalarining o'zaro ohangdosh bo'lib kelishidir. Qofiya she'rning musiqiyligi, ohangdorligi va ta'sirchanligini kuchaytiradi, uning yod olinishini osonlashtiradi.

Qofiya mumtoz she'rshunoslikda vazn kabi she'riy ritmni vujudga keltiruvchi asosiy unsur bo'lib, uning bayt so'ngida qo'llanilishi zaruriy talablardan biri bo'lgan. Sharq musulmon adabiyotshunosligida qofiya haqidagi nazariy qarashlar maxsus fan – *ilmi qofiya*da o'z ifodasini topgan.

Mumtoz adabiyotda shoirlarning badiiy salohiyati she'rda qo'llangan qofiyalarning g'oyalar mohiyati, timsollar olamini ochib berishdagi ahamiyati, qofiya uchun tanlangan so'zlarning ohangdorligi bilan ham belgilangan. Qofiya san'atlari va turlaridan unumli foydalanish, qofiyaning boshqa she'riy unsurlar – vazn, badiiy san'atlar bilan munosabatiga e'tibor qaratish mumtoz ijodkor mahoratining muhim qirralaridan biri hisoblangan. Shu sababli o'tmishda shoirlarimiz qofiya ilmini maxsus fan sifatida alohida o'rganganlar, shu sohadagi yetuk ustozlardan ta'lim olganlar.

Bizga ma'lumki, qofiya she'riy asarlarda ifodalanishi maqsad qilingan g'oyalarni badiiy so'z yordamida teran va ta'sirchan aks ettirishning o'ziga xos va muhim vositalaridan biridir. Har bir misra yoki bayt tarkibidagi qofiyalarda shoirning g'oyaviy-badiiy niyati muayyan ma'noda o'z ifodasini topadi. Ijodkor

qofiya vositasida kitobxon diqqatini she'rdagi eng muhim fikrlarga jalb qiladi.

Qofiyaning tarkibiy qismini qofiya harflari va harakatlari tashkil qiladi. Qofiya harflari mumtoz poetikaga doir manbalarda "hurufi qofiya" deb atalib, ularning soni 9 tadir. Qofiya harflari qofiyaning qaysi qismida qo'llanilishiga qarab ikki guruhga ajratiladi: a) o'zak tarkibida keladigan harflar; b) qo'shimcha tarkibida qo'llaniladigan harflar. Dastlab o'zak tarkibida keladigan harflarni ko'rib chiqamiz:

1. **Raviy** *(ar. – yukni tuyaga bog'laydigan arqon)* – qofiyadosh so'zlar o'zagi yo negizi so'ngida aynan takrorlanib keluvchi cho'ziq unli yoki undosh harf. Mumtoz poetikaga doir manbalarda qofiyaning asosini tashkil qiluvchi va takrorlanishi shart bo'lgan harf sifatida tilga olinadi. Masalan, quyidagi baytda qofiya so'ngidagi cho'ziq "o" unlisi raviy hisoblanadi:

*Ashraqat min aksi shamsil-ka'si anvor ul-**hudo**,*
*«Yor aksin mayda ko'r» deb, jomdin chiqti **sado**.*

Mumtoz qofiya talabiga ko'ra, qofiyadosh so'zlar o'zagi oxirida kelgan qisqa unli raviy bo'la olmaydi, bunday hollarda undan oldin turgan undosh harf raviy hisoblanadi. Masalan, Alisher Navoiyning:

*Sham'dek qomatu yuz sham'i ila **jonona**,*
*Qildi o'rtarga ko'ngullar qushini **parvona** –*

deb boshlanuvchi g'azalida raviy harfi qofiyadosh so'zlar (jonona – parvona) oxiridagi qisqa "a" unlisi emas, balki undan oldin turgan "n" undoshidir.

2. **Ta'sis** *(ar. – asoslash)* – raviy harfidan oldin bir harakatli undosh joylashgach, shu undoshdan oldin keladigan cho'ziq "o" unlisi. Mumtoz poetika talabiga ko'ra, faqat "o" unlisi ta'sis vazifasini bajarishi mumkin. Masalan, "moyil – hamoyil"da "o" unlisi ta'sis hisoblanadi. Ta'sis qatnashgan qofiya turi *muassas qofiya* deb yuritiladi.

3. **Daxil** *(ar. – oraga kiruvchi)* – ta'sisdan keyin keluvchi birinchi undosh harf. Daxil ko'p hollarda takrorlanadi, ba'zan esa takrorlanmasdan, ikki turli xil undosh daxil bo'lishi mumkin. Masalan, "jarohat – rohat" qofiyalarida daxil bir undosh

("t") takroridan hosil qilingan bo'lsa, "tojir – musofir"da "j" va "f" undoshlari daxildir.

4. Ridf *(ar. – mingashish, izma-iz ergashish)* – raviy harfidan oldin keluvchi cho'ziq unli harf. Mumtoz poetikaga doir manbalarda uning ikki turi keltiriladi:

1) *ridfi asliy* (asosiy ridf) yoki *ridfi mufrad* (yakka ridf)– raviydan oldin keluvchi cho'ziq unli harf. Masalan, "jon – rayhon"da "o" unlisi ridfi asliydir.

2) *ridfi zoyid* (orttirma ridf) – ridfi asliy va raviy orasida takrorlanib keluvchi undosh harf. Masalan, "rost – norost"da "s" undoshi ridfi zoyid hisoblanadi. Ridf qatnashgan qofiya turi *murdaf qofiya* deb yuritiladi.

5. Qayd *(ar. – bog'langan)* – qator undosh bilan tugagan so'zlarda raviydan oldin, qisqa unlidan keyin kelib takrorlanuvchi undosh harf. Masalan, "arjumand – pisand" qofiyalarida "n" undoshi qayddir. Qayd qatnashgan qofiya turi *muqayyad (qaydli) qofiya* deb yuritiladi.

b) qo'shimcha tarkibida qo'llaniladigan harflarga esa quyidagilar kiradi:

1. Vasl *(ar. – ulanish)* – raviydan keyin keluvchi cho'ziq unli yoki undosh harf. Masalan, "shiddati – furqati" qofiyalarida "t"dan keyin keluvchi cho'ziq "i" unlisi vasldir. Vasl qatnashgan qofiya tuzilishiga ko'ra *mutlaq qofiya* hisoblanadi.

2. **Xuruj** *(ar. – tashqari chiqish)* – vasldan keyin keluvchi cho'ziq unli yoki undosh harfdir. Masalan, "zamondin – ondin" qofiyalarida birinchi turgan "n" raviy bo'lsa, undan keyin kelgan "d" undoshi – vasl, qofiya so'ngida turgan "n" esa xurujdir. Xuruj qatnashgan qofiya tuzilishiga ko'ra *mutlaq qofiya* hisoblanadi.

3. Mazid *(ar. – orttirilgan)* – xurujdan keyin keluvchi cho'ziq unli yoki undosh harfdir. Masalan, "hamdamlari – xurramlari" qofiyalarida "r" harfi xuruj, undan keyin kelgan cho'ziq "i" unlisi maziddir.

4. **Noyira** *(ar. – chetga olish)* – maziddan keyin keluvchi cho'ziq unli yoki undosh harf.

Qofiyani vujudga keltirishda qofiya harakatlari ham ahamiyatga ega bo'lib, ular qisqa unli tovushni ifodalovchi harflar: "a", "i" va "u" yordamida vujudga keladi. Ushbu harakatlarning soni oltita: ras, ishbo', hazv, tavjih, majro, nafoz. Ular

qofiyaning qo‘shimcha tarkibiy qismi bo‘lib, qofiyada uchrashi ham, uchramasligi ham mumkin.

Qofiya raviy harfi bilan tugallansa, *muqayyad qofiya* deb, raviydan keyin ham davom etsa, *mutlaq qofiya* deb ataladi. Ushbu qofiyalar tuzilishiga ko‘ra yana to‘rtta katta guruhga ajratiladi:

1) *Mujarrad qofiya*
2) *Murdaf (ridfli) qofiya.*
3) *Muqayyad (qaydli) qofiya*
4) *Muassas (ta’sisli) qofiya.*

Ushbu qofiya guruhlari o‘z ichida yana bir qancha turlarga ajratiladi. Qofiya turlari yuqorida sanalgan qofiya harflarining ishtiroki orqali belgilanadi. Shu ma’noda nazariy jihatdan qofiyaning 55 ga yaqin turi mavjud. M. Akbarovaning tadqiqotiga ko‘ra, turkiy she’riyatda qofiyaning 25 turi keng qo‘llanilgan bo‘lib, shundan 23 tasi Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida istifoda etilgan.

Alisher Navoiy mumtoz Sharq adabiyotining vakili sifatida o‘z davrida mavjud nazariy qarashlarni chuqur o‘rgandi va ayni paytda uning ijodiy merosi ham adabiyot nazariyasining yanada taraqqiy topishiga, boyishiga zamin bo‘lib xizmat qildiki, bu holat bevosita uning qofiya san’atlari va turlaridan foydalanish mahoratida ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

She’riyatga ham ilm, ham san’at, ham xalq ma’naviyatining ajralmas qismi sifatida munosabatda bo‘lgan mutafakkir shoir qofiya tizimiga muhim yangiliklar kiritdi va shu amaliy harakatlari bilan turkiy adabiyotni mumtozlik darajasiga ko‘tara bildi. Navoiy she’riyatida qo‘llanilgan qofiya tizimida ustoz ijodkorlar tomonidan amalga oshmagan quyidagi jihatlar ko‘zga tashlanadi:

Alisher Navoiy davrigacha bo‘lgan turkiy she’riyatning qofiya tizimi fors-tojik she’riyati tufayli an’anaviylik kasb etgan qofiyadosh so‘zlar asosida shakllangan. Navoiy bu an’anani ijodiy o‘zlashtirib, forsiy qofiyadosh so‘zlar tizimiga turkiy qofiyadosh so‘zlarni shu qadar mahorat bilan singdirganki, asli forscha bo‘lgan so‘zlar ham turkcha jarang va ohang kasb etadi. Masalan, arg‘uvon, jon, ravon, zamon kabi arabiy va forsiy qofiyadosh so‘zlar tarkibiga qon, yig‘labon, yomon kabi

o‘zbekcha qofiyadosh so‘zlar qo‘shilgani tufayli she’r aytish imkoniyatlari yanada kengaygan.

Arab tilida kesim gapning boshida keladi. Forsiy va turkiy tillarda esa, kesim xulosalovchi qism sifatida odatda gapning oxirida kelishini bilamiz. Fors tilida qofiyadosh fe’llar tizimi juda kamligi sababli, fors shoirlari she’rda fe’lni o‘rtaroqqa olishga majbur bo‘ladilar. Shu sababli, fors she’riyatining grammatik tuzilishi tilning grammatik qoliplaridan farqlanadi. Turkiy tilda qofiyadosh fe’llar turkumi ko‘pligini nozik anglagan Navoiy ko‘pincha shunday uslubni tanlaydiki, she’rning nasriy bayoni bilan asl matnning o‘rtasida deyarli farq qolmaydi:

Qaro ko‘zum, kelu mardumlig‘ emdi fan qilg‘il,
Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.

Ko‘rinib turganidek, baytda gapning grammatik tuzilishi o‘zgarmagan. Bu narsa turkiy tilning qofiya tizimidagi imkoniyatlari fors tiliga nisbatan ancha kengligini ko‘rsatadi.

Navoiy turkiy qofiya tizimidagi erkinlik haqida “Muhokamat ul-lug‘atayn” jumladan shunday deydi: “Yana bir misol: terki, termak ma’nisi biladur. Terki, andin daqiqdur, uldurki, sortlar ani «araq» va «xay» derlar. Terki, boridin ariqdur, o‘q ma’nisi biladur. Va bu nav’ alfoz ko‘p, uch harakat bila vaz’ qilibdurlarki, holo shoe’dur. Va necha hurufqa iborat vus’ati uchun, balki qofiya suhulati uchun bir-biriga shirkat beribdurlar. Ul jumladin biri, «alif» bila «ho» orasida munosabat va mushorakat beribdurlarki, bir lafzni ham oxiri alif lafz bila qofiya qilsa bo‘lur. Andoqki, «aro» lafzin «saro» va «daro» bila qofiya qilsa bo‘lur, «sara» va «dara» bila ham qofiya qilsa bo‘lur. Yana bir misol: andoqki, «yado» lafzin «sado» bila qofiya qilsa bo‘lur, «boda» bila ham qilsa bo‘lur. Va «vov» bila «zamma» orasida ham ul nav’ shirkatdur. Andoqki, «erur» lafzin «hur», «dur» lafzi bila qofiya qilsa bo‘lur, «g‘urur» va «zarur» lafzi bila ham joyizdur. Va «yo» bila «kasra» orasida dag‘i bu nav’dur, andoqki, «og‘ir» va «bog‘ir» alfozin «sodir» va «qodir» alfozi bila qofiya qilsa bo‘lur, «ta’xir» va «tag‘yir» alfozi bila ham bo‘lurki, forsiy alfozda bu suhulatlar yo‘qtur”.

Salaflar ijodida bo‘lgani kabi Alisher Navoiy she’riyatida ham qofiya asarning g‘oyasi va umumiy ohangini belgilovchi vosita sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Masalan, “Ba-

doyi' ul-vasat" devonidan 425-raqam ostida o'rin olgan quyidagi g'azalda qofiya uchun tanlangan so'zlar g'azalning mazmuni va vaznini belgilashda yetakchi omil bo'lib xizmat qilganligini kuzatish mumkin. G'azalning dastlabki ikki baytini ko'rib chiqsak:

Kuyar hajringda jismi notavonim,
Ne jismi notavonkim, xasta jonim.

Gar o'ltursang meni, qil tig' ila qatl
Ki, bo'lsun ko'yunga og'ushta qonim...

G'azalda hijron mavzusi ifodalanayotganligini ko'rishimiz mumkin. Qofiya sifatida tanlangan "notavonim", "xasta jonim", "qonim" so'zlari bir tomondan ushbu mazmunni ochib berishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan g'azalning umumiy ohangi yoki vaznini belgilashga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, *notavonim*, *xasta jonim* so'zlarining taqti'i "*–V – –*" belgisidan iborat bo'lib, bu bevosita hazaj bahrining yakunlovchi rukni *fauvlun*ning tarkibiy qismiga mos keladi, chunki olti ruknli vaznlarda *–V – –* taqti'i solim shaklida qo'llanilmaydi, shu sababli g'azal *hazaji musaddasi mahzuf* vaznini taqozo qilmoqda.

Alisher Navoiyning qofiya qo'llashdagi mahorati va novatorligi haqida so'z borganda, uning sof turkiy so'zlardan foydalanib, qofiya yaratishga bo'lgan intilishini alohida ta'kidlash zarur. Ma'lumki, turkiy tilda qofiyalar asosan fe'llardan iborat bo'lib, Navoiy she'riyatida ularning aksariyati turkiy tilga xos yana bir xususiyat – qo'shimchalar asosida yangi so'z hosil qilish yordamida vujudga keltirilgan. Masalan, "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi "be" harfi bilan tugallangan g'azallarda fe'l-qofiyalarning asosan qo'shimcha hisobiga vujudga keltirilganligini kuzatamiz. G'azalning dastlabki 3 baytini ko'rib chiqsak:

Bovujudikim adam bo'ldum g'amidin ***qayg'urub,***
Hech og'zining so'rog'in la'lidin topman ***so'rub.***

Jonki, qat-qat qon bo'luptur, dog'i ishqing ketmagay,
Lola bargidek ani bir-bir sovursang ***kuydurub.***

Novaking ko'nglumda qilmish xona, bovar qilmasang,
Ko'ksuma ilgingni kelturkim, turuptur ***bilgurub.***

Ushbu baytlarda qofiya uchun tanlangan so‘zlarning barchasi fe’l so‘z turkumidan iborat bo‘lib, ularda qo‘shumchalar yordamida ohangdoshlik vujudga keltirilgan, lekin ayni paytda mumtoz qofiya talabiga rioya qilingan: “r” harfi barcha qofiyadosh so‘zlar uchun raviy vazifasini o‘tagan.

Devondan 61-raqam ostida o‘rin olgan g‘azalda ham qo‘shimchalar hisobiga yangi ma’noli fe’llar vujudga keltirilib, ular qofiya vazifasini bajarganligini ko‘ramiz:

Kimsa yori birla xushtur g‘am deyishib ***mungrashib,***
Yotsa gohe chirmashib, o‘ltursa gohe ***yondashib.***

Zulfi el ko‘nglin parishon aylamakka jam’ o‘lub,
Turfaroq bukim, ko‘ngullarni yig‘arg‘a ***tarqashib.***

Mumkin ermas tortmoq paykonlarinkim, jism aro
Har biri maskan tutupturlar so‘ngakka ***o‘rnashib.***

Navoiy turkiy she’riyatda birinchilardan bo‘lib g‘azalni ichki qofiyalar asosida (musajja’ g‘azal) yaratish an’anasini ham boshlab berdi. Uning quyidagi musajja’ g‘azalida ichki qofiya zulqofiyatayn (qo‘sh qofiyalilik) bilan birlashib, ohangning yanada jozibali va ta’sirchan chiqishiga zamin hozirlagan:

Vayronayedur maskanim, andin manga bisyor ***g‘am,***
Ohim bila eshikta o‘rt, ashkim bila devor ***nam.***

No‘shidin elga **guftugo‘**, *ey hajr icharmen men* **og‘u,**
Kosh o‘lsamu ko‘nglumni **bu** *anduhdin qutqorsam.*

Qil ishq dayrida **maqar,** *sukkonig‘a solg‘il* **nazar**
Kim, bor bu majma’ ichra **har** *durdiykashi xammor* ***Jam.***

Har yerki anda bir **nafas,** *ishratqa topsam* **dastras,**
Yuz qatla aylarmen **havas**kim, *bo‘lsa erdi yor* ***ham.***

Soqiy, bugun mayni **unut,** *mendek dame xunoba* **yut,**
Mutrib navoyi navha **tut,** *sozungg‘a bog‘la tor* ***bam.***

Desamki, ey badmehr **o‘g‘ul,** *yuzung ko‘rub oy tutti* **yo‘l,**
Der: “Yer quyi gar bordi **ul,** *bir shabravi ayyor* ***kam”.***

Miskin Navoiy bersa **jon**, *ey diyda, har dam to'kma* **qon**,
Ul har necha qilsa **fig'on**, *sen asrag'il zinhor* ***dam***.
("G'aroyib us-sig'ar", 415-g'azal)

Agar g'azalga e'tibor qaratilsa, undagi asosiy qofiyalar (g'am, nam, jam, ham...) yonida yana bir qo'shimcha qofiya (bisyor, devor, xammor, yor...) qo'llanilib, g'azalning boshdan oxirigacha qo'shqofiyali bo'lishiga zamin hozirlagan bo'lsa, ikkinchi tomondan har bir baytning teng to'rt bo'lakka bo'linib, 1-, 2-, 3-bo'laklarning o'zaro qofiyadosh qilinishi g'azalning musajja' bo'lishini ta'minlagan. Qo'shqofiyalilik bevosita vaznning ham tanlanishiga sabab bo'lgan, chunki, birinchidan, musajja' g'azallarni faqat simmetrik, ya'ni sezura (pauza)ning ikki tomonidagi ruknlar teng bo'lgan vaznlardagina bitish mumkin, ikkinchidan esa, *bisyor g'am, devor nam* qofiyalari *– – V – (mustaf'ilun)* taqti'iga mos keladi, binobarin, bu rukn rajazi musammani solim vaznini taqozo qiladi. G'azalning qofiyalanish usulidagi yana bir diqqatni tortadigan jihat ikkinchi baytda bo'lib, bu "qutqorsam" qofiyasidir. Bu so'z aslida yaxlit fe'l shaklida kelgan. Lekin shoirning mahorati shundaki, u asosiy qofiyalar (g'am, nam...)da "m" harfini raviy tarzida keltirgan, qo'sh qofiyalar (bisyor, devor...) uchun esa raviy sifatida "r" harfidan foydalangan edi. Ikkinchi baytda endi ustalik bilan bir so'zni yashirin tarzda ikki qofiyaga ajratib yuborib, ohangning yaxlitligini ta'minlaydi, ya'ni g'azalning umumiy qofiyalanish tizimidan kelib chiqib, "qutqorsam" so'zini "qutqor" va "sam" shakllarida qo'llaydiki, bu shoirning qofiya qo'llashdagi mahoratini ko'rsatuvchi yana bir muhim dalildir. Bu kabi misollarni Navoiy she'riyatida ko'plab keltirish mumkin.

Yuqorida aytganimizdek, Navoiy she'riyatida mumtoz qofiyaning 23 turi qo'llanilgan bo'lib, ularni quyidagi to'rt qofiya guruhiga birlashtirish mumkin:

1. Mujarrad qofiya *(ar. – yakka, yolg'iz, tanho)* – qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Bunday qofiya turida raviy harfi cho'ziq unlidan iborat bo'lishi yoki raviy undosh bilan yakunlanib, undan oldin *tavjih* – qisqa unli kelishi asosiy talab hisoblanadi. Mujarrad qofiya raviy harfidan keyin harflarning qo'llanilish va qo'llanilmasligiga ko'ra *muqayyad*

va *mutlaq* ko‘rinishlariga ega bo‘ladi. Alisher Navoiy ijodida mujarrad qofiyaning bir necha turi keng qo‘llanilgan:

Mujarrad muqayyad qofiya. Uning ikki ko‘rinishi mavjud bo‘lib, birinchi ko‘rinishida raviy cho‘ziq unlidan iborat bo‘ladi va unda shu cho‘ziq unlidan boshqa biror harf ishtirok etmaydi.

*Ko‘zung ne balo **qaro** bo‘lubtur,*
*Kim jonga qaro **balo** bo‘lubtur.*

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 161-g‘azal)

Bunda “qaro” va “balo” so‘zlaridagi “o” raviysi cho‘ziq unli bo‘lib, qofiyadosh so‘zlar shu harf bilan yakunlangan.

Mujarrad muqayyad qofiyaning ikkinchi turida raviy undosh bilan yakunlanib, undan oldin qisqa unli keladi. Bunda qisqa unli *tavjih* deb yuritiladi. Masalan:

*Yor holidin menga vahkim **xabar** yo‘qtur bu kun,*
*Bu jihatdin aql-u hushumdin **asar** yo‘qtur bu kun.*

(“Favoyid ul-kibar”, 485-g‘azal)

Bunda “xabar” va “asar” so‘zlari qofiyadosh bo‘lib, “r” undoshi raviy, undan oldingi “a” qisqa unlisi tavjih hisoblanadi. Qofiya raviy harfi bilan yakunlanyapti va shu orqali mujarrad muqayyad qofiya vujudga kelyapti.

Mujarrad mutlaq qofiya. Uning ham bir necha turi bo‘lib, raviy harfidan keyin keluvchi harflar: vasl, xuruj, mazid va noira bilan bog‘liq holda vujudga keladi (ushbu harflar orasida keluvchi qisqa unlilar: majro va nafoz nomlanishda e’tiborga olinmaydi). Ulardan birini keltirib o‘tamiz:

Vaslli mujarrad mutlaq qofiya raviydan keyin *vasl* harfining kelishi orqali yasaladi.

*Necha yilda qilmadi ko‘nglumga ishqi **shiddati,***
*Ulcha qildi xasta jong‘a necha kunluk **furqati** –*

(“Navodir ush-shabob”, 587-g‘azal)

– baytida “shiddati”, “furqati” so‘zlari qofiya, “t” – raviy, undan oldin turgan “a” harfi – tavjih, raviydan keyin turgan cho‘ziq “i” unlisi vasl hisoblanadi.

2. Murdaf qofiya – qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan biri. Ridfli qofiya deb ham ataladi. Bunday qofiya turida raviy harfidan oldin cho‘ziq unlilardan biri – *ridfi asliy,* ba’zan esa *ridfi zoyid* keladi. Murdaf qofiya raviy

harfidan keyin harflarning qo'llanilish va qo'llanilmasligiga ko'ra *muqayyad* va *mutlaq* ko'rinishlariga ega bo'ladi. Alisher Navoiy ijodida murdaf qofiyaning bir necha turlari qo'llanilgan:

Ridfli muqayyad qofiya. Alisher Navoiy g'azaliyotida uning ikki turi keng qo'llanilgan bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Ridfi asliyli muqayyad qofiya – raviydan oldin ridfi asliy (ko'pincha "o")ni keltirish orqali hosil qilinadi. Mufrad ridfli muqayyad qofiya deb ham ataladi. Masalan:

To bo'ldi ko'ngul ul ko'zi usrukka ***giriftor,***
El ko'ziga sog'men, vale o'z-o'zuma ***bemor.***

("G'aroyib us-sig'ar", 182-g'azal)

baytida "giriftor" va "bemor" so'zlari qofiya, "r" – raviy, undan oldin turgan "o" unlisi – ridfi asliy. Qofiyadosh so'zlarda birgina ridfi asliy ishtirok etayotganligi uchun ushbu qofiya turi shunday atalgan.

2. Ridfi zoyidli muqayyad qofiya – raviy bilan ridfi asliy orasida yana bir undosh – *ridfi zoyid*ning takrorlanib kelishi asosida vujudga keladi. Boshqacha aytganda, qator undoshdan oldin cho'ziq unlining kelishiga asoslangan qofiya. Murakkab ridfli muqayyad qofiya deb ham ataladi. Masalan:

Chun kinavu qatlin angladim rost,
Qildim neki mumkin erdi darxost -

("Layli va Majnun")

baytida "rost" va "darxost" so'zlari qofiya, "t" harfi – raviy, "o" – ridfi asliy, "s" – ridfi zoyiddir.

Ridfli mutlaq qofiya. Uning ham bir necha ko'rinishlari bo'lib, raviy harfidan keyin keluvchi harflar – vasl, xuruj, mazid va noira bilan bog'liq holda vujudga keladi (ushbu harflar orasida keluvchi qisqa unlilar: majro va nafoz nomlanishda e'tiborga olinmaydi). Navoiy ijodida ridfli mutlaq qofiyaning bir necha turi qo'llanilgan. Ulardan birini keltirib o'tamiz:

Ridfi asliy va xurujli mutlaq qofiya – ridfi asliy va raviydan keyin vasl va xuruj harflarining kelishi orqali hosil qilinadi. Masalan:

Oshiq o'ldum, necha javr ahli zamondin tortayin,
Ulkim oshubi zamondur bori ondin tortayin.

("Navodir ush-shabob", 480-g'azal)

Yuqoridagi baytda “zamondin” va “ondin” so‘zlari qofiya, birinchi “n” – raviy, raviydan oldin turgan “o” unlisi – ridfi asliy, “d” – vasl, qisqa “i” – nafoz, qofiyaning oxirida turgan “n” harfi xuruj hisoblanadi.

3. Muqayyad (qaydli) qofiya *(ar. bog‘langan, kishanlangan)* – qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan biri. Qaydli qofiya deb ham ataladi. Bunday qofiya turida o‘zak tarkibida qisqa unlidan so‘ng qator undosh keladi. Bunda qisqa unli *hazv,* raviydan oldin turgan undosh *qayd* deb ataladi. Qaydli qofiya raviy harfidan keyin harflarning qo‘llanilish va qo‘llanilmasligiga ko‘ra *muqayyad* va *mutlaq* ko‘rinishlariga ega bo‘ladi. Alisher Navoiy ijodida bu qofiya turi u qadar keng qo‘llanilmagan.

Qaydli muqayyyad qofiya – qisqa unlidan keyin kelgan qator undosh bilan yakunlanadi. Masalan:

Ey ko‘ngul, yor o‘zgalar domig‘a bo‘ldi ***poybast,***
Senga mushkil holat-u bizga qatiq ish berdi ***dast,***
(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 76-g‘azal)

baytida “poybast” va “dast” so‘zlari qofiya, “t” harfi – raviy, “s” – qayd, qisqa “a” unlisi hazv hisoblanadi.

Qaydli mutlaq qofiya. Uning bir necha turi bo‘lib, raviy harfidan keyin keluvchi harflar – vasl, xuruj, mazid va noira bilan bog‘liq holda vujudga keladi (ushbu harflar orasida keluvchi qisqa unlilar: majro va nafoz nomlanishda e’tiborga olinmaydi).

1. Qayd va vaslli mutlaq qofiya – qator undoshdan so‘ng vaslning kelishi orqali hosil bo‘ladi. Masalan:

Yubordi yor bazmidin manga bir pistai ***qandi,***
Olib o‘ptumki, bor erdi labiyu og‘zi ***monandi.***
(“Favoyid ul-kibar”, 589-g‘azal)

Bunda “qandi”, “monandi” so‘zlari qofiya, “d” – raviy, “n” harfi – qayd, raviydan keyin turgan “i” unlisi vasl hisoblanadi.

2. Qayd va noyirali mutlaq qofiya – qator undoshdan keyin vasl, xuruj, mazid va noyira harflarining kelishi orqali hosil bo‘ladi. Masalan:

Dedimki, ko‘zga chekay gardi ***rahnavardingni,***
Fig‘onki, topmadi ko‘z to‘tiyog‘a ***gardingni*** –
(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 615-g‘azal)

baytida “rahnavardingni” va “gardingni” so‘zlari qofiya, “d” – raviy, undan oldin turgan “r” harfi – qayd, raviydan keyin turgan qisqa “i” unlisi – majro, majrodan keyingi “n” undoshi – vasl, “g” – xuruj, keyingi “n” – majro, qofiya oxiridagi “i” unlisi noyira hisoblanadi.

4. Muassas qofiya – qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan biri. Ta’sisli qofiya deb ham ataladi. Bunday qofiya turida cho‘ziq “o” unlisi bilan raviy o‘rtasida bir undosh va undan keyin bir unli keladi. Cho‘ziq “o” unlisi *ta’sis* deb, undan keyingi undosh *daxil* deb, raviy oldidagi qisqa unli esa *ishbo‘* deb ataladi. Muassas qofiya raviy harfidan keyin harflarning qo‘llanilish va qo‘llanilmasligiga ko‘ra *muqayyad* va *mutlaq* ko‘rinishlariga ega bo‘ladi. Alisher Navoiy ijodida muassas qofiyaning quyidagi turlari qo‘llanilgan:

*I. **Ta’sisli muqayyad qofiya*** – raviydan oldin harakatli bir undosh, undan oldin esa cho‘ziq “o” unlisi (ta’sis) keladigan qofiya. Masalan:

*Gar yetar ag‘yordin yuz ming **jarohat**, ey ko‘ngul,*
*Chunki bordur yor uchun bor aysh-u **rohat**, ey ko‘ngul* –
(“Navodir ush-shabob”, 384-g‘azal)

baytida “jarohat” va “rohat” so‘zlari qofiya, “t” harfi – raviy, “o” – ta’sis, “h” undoshi – daxil, “a” unlisi – ishbo‘ hisoblanadi.

Ba’zan ta’sisli qofiyada ikki misradagi daxil ikki xil undoshdan iborat bo‘lishi ham mumkin. Masalan:

*Ishq ahli go‘ristonida qabrim chu **zohir** bo‘lg‘usi,*
*Farhod aning toshin yo‘nub, Majnun **mujovir** bo‘lg‘usi.*
(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 627-g‘azal)

baytida “zohir” va “mujovir” so‘zlari qofiya bo‘lib, daxil ikki xil undoshdan: “h” va “v” undoshlaridan iborat ekanligini kuzatish mumkin.

II. Ta’sisli mutlaq qofiya. Uning bir necha turlari bo‘lib, raviy harfidan keyin keluvchi harflar: vasl, xuruj, mazid va noira bilan bog‘liq holda vujudga keladi (ushbu harflar orasida keluvchi qisqa unlilar: majro va nafoz nomlanishda e’tiborga olinmaydi). Ulardan birini keltirib o‘tamiz:

Ta’sis va mazidli mutlaq qofiya – raviydan keyin vasl, xuruj va mazid harflarining kelishi orqali hosil qilinadi. Masalan:

Qahring o'lsa, barcha ishimdin malolatdur sanga,
Lutfung o'lsa, yuz meningdekdin farog'atdur sanga –
("G'aroyib us-sig'ar", 17-g'azal)

baytida "malolatdur"va "farog'atdur" so'zlari qofiya, "t" harfi – raviy, "o" – ta'sis, "l" va "g'" undoshlari – daxil, "a" unlisi – ishbo', "d" – vasl, "u" – xuruj, qofiya so'ngida kelgan "r" undoshi maziddir.

Mumtoz she'riyatimizda qofiya ko'p hollarda radif deb ataluvchi she'riy unsur bilan birgalikda qo'llanilgan. **Radif** *(ar. – izma-iz keluvchi, otning orqasidan ergashib boruvchi)* qofiyadan so'ng aynan takrorlanib keluvchi so'z yoki so'zlar qo'shilmasi bo'lib, she'rda ifodalanayotgan yetakchi fikrni takrorlash, kitobxon e'tiborini asosiy g'oyaga jalb etib, muallif g'oyaviy niyatini chuqurroq yetkazib berishga xizmat qiladi. Mumtoz she'rshunoslikda radif qofiya ilmi tarkibida o'rganilgan. Shams Qays Roziyning "Al-Mo'jam" (1218-1233), Nosiruddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" (1251–1252), Abdurahmon Jomiyning "Risolai qofiya", Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" (1436–1437) asarlarida radif forsiy she'riyatda vujudga kelgan bo'lib, arablarda qo'llanilmaganligi ta'kidlanadi. Adabiyotshunoslikda radif qo'llanilgan bayt yoki she'rni *muraddaf* deb atash qabul qilingan.

Alisher Navoiy ijodida radif muhim ahamiyatga ega she'riy unsur hisoblanadi. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidan o'rin olgan g'azallarning deyarli teng yarmini (1294 g'azal) radif qo'llanilgan baytlar tashkil qiladi. Uning "Nazm ul-javohir"dan o'rin olgan ruboiylarining 255 tasi muraddaf she'rlardir. Shoir radiflari bir bo'g'indan 11 bo'g'ingacha bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Masalan, shoirning

Dilbaro, sendin bu g'amkim, ***menda bordur, kimda bor?***
Furqatingdin bu alamkim, ***menda bordur, kimda bor?*** –
("Navodir ush-shabob", 148-g'azal)

bayti bilan boshlanuvchi g'azalida radif "menda bordur, kimda bor?" so'zlaridan iborat bo'lib, 7 bo'g'indan tashkil topgan. Navoiy g'azaliyotida radif qo'llash bilan bog'liq muhim jihatlardan biri shundaki, shoir bir radifni bir nechta, ba'zan 7-8 tagacha g'azalda qo'llab, uning turli variantlarini yaratgan. Muraddaf

baytlar faqat qasida, g'azal yo dostonlardagina emas, balki qit'a, ruboiy, fard kabi kichik lirik janrlarda ham keng qo'llanilgan. Masalan quyidagi ruboiyning uchta qofiyadosh misrasida dastlabki so'zlar (jondin, sondin, ondin) qofiyani ta'minlagan bo'lsa, misralarning qolgan qismi radifning takrori bo'lib kelgan:

*Jondin **seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,***
*Sondin **seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.***
Har neniki sevmak andin ortuq bo'lmas,
*Ondin **seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.***

Alisher Navoiy "Xamsa"sida ham radif muhim ahamiyat kasb etadi. Agar "Xamsa" tarkibidagi dostonlarda radifning qo'llanilish darajasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, quyidagi manzaraning guvohi bo'lamiz:

T.r	Dostonlar	Dostonlarning umumiy hajmi	Radif qo'llangan baytlar miqdori	% hisobida
1.	"Hayrat ul-abror"	3988	1306	32,7
2.	"Farhod va Shirin"	5782	999	17
3.	"Layli va Majnun"	3623	595	16,4
4.	"Sab'ai sayyor"	5000	1250	25
5.	"Saddi Iskandariy"	7215	1936	26,8

Yuqoridagi jadvaldan ma'lum bo'lyaptiki, "Hayrat ul-abror" dostoni radifning qo'llanilishiga ko'ra birinchi o'rinda turar ekan. Dostondagi baytlarning 32 foizini radif qo'llanilgan baytlar tashkil qiladi. Bunga bir qancha omillarni sabab qilib ko'rsatish mumkin:

– "Hayrat ul-abror" mazmuniga ko'ra falsafiy-ta'limiy doston bo'lib, boshqa dostonlardan yagona syujet chizig'iga ega emasligi bilan farqlanadi. Dostonda didaktika asosiy maqsad hisoblanadi. Radifning vazifasi esa badiiy asarda ifodalanayotgan yetakchi fikrni ta'kidlash, kitobxon e'tiborini asosiy g'oyaga jalb etib, shoir g'oyaviy niyatini o'quvchi qalbiga to'laroq, chuqurroq yetkazishdan iborat. "Hayrat ul-abror"dagi radiflarning asosiy qismi dostondagi hikoyatlar bilan bog'liq boblarda emas, balki aynan nazariy-axloqiy masalalarga bag'ishlangan maqolatlar qismida qo'llanilganligi ham fikrimizni tasdiqlaydi;

– ma'lumki, turkiy she'riyatda radif vazifasida ko'pincha yordamchi fe'llar qo'llanilgan, ba'zan olmosh, ot, ko'makchilarning ham takrorlanib kelishi kuzatilgan. "Hayrat ul-abror"da qo'llanilgan radiflarning asosiy qismi fe'l va olmosh so'z turkumlariga mansubligini ko'rish mumkin;

– tilshunoslikda mantiqiy urg'u degan tushuncha bo'lib, uning yordamida gap ichidagi biror bo'lak alohida ta'kidlanadi, kuchliroq aytiladi va kitobxonning e'tibori o'sha so'zga qaratiladi. Turkiy tilda mantiqiy urg'u odatda gapning oxiridan o'rin oladi, gapning oxirida esa ko'pincha fe'l so'z turkumi joylashgan bo'ladi. Demak, radif qofiyadan keyin kelib, uning mantiqiy urg'u olishiga xizmat qilyapti va ijodkorning g'oyaviy niyatini kitobxon qalbiga chuqurroq yetkazishga ko'maklashyapti.

– avvalgi mavzularda aytilganidek, "Hayrat ul-abror" dostoni sari' bahrining sari'i musaddasi matviyi makshuf (ruknlari va taqti'i: muftailun muftailun foilun *–V V –/–V V –/– V* –) vaznida yaratilgan. So'nggi rukn cho'ziq, qisqa va cho'ziq bo'g'inlarning birikuvidan vujudga keladi, bunday birikish turkiy tildagi yordamchi fe'llar uchun juda mosdir. Demak, ko'rinyaptiki, radif badiiy asarda qo'llanilgan she'riy o'lchovga ham bevosita bog'liq ekan.

Yuqoridagi fikrlarga misol tariqasida "Hayrat ul-abror" dostonidan bir parcha keltiramiz:

Shar' tariqini shior ***aylagil***
Adl ila mulkunga mador ***aylagil.***

Shohki ish adl ila bunyod ***etar,***
Adl buzuq mulkni obod ***etar.***

Kofiri odil ani obod ***etib,***
Mo'mini zolim ani barbod ***etib.***

Shahki erur adl ila davron ***anga***
Bo'ldi sirot o'tmagi oson ***anga.***

Kim yurumak ip uza kom ***ayladi,***
Adli chu tuz bo'ldi xirom ***ayladi...***

Yuqoridagi parcha dostonning yakunlovchi maqolati bo‘lmish 20-maqolatdan olingan bo‘lib, undagi nasihatlar Husayn Boyqaroning o‘g‘li shahzoda Badiuzzamonga qaratilgan. Keltirilgan besh baytdan to‘rttasida radif yordamchi fe’l, bittasida olmosh o‘rnida kelyapti. Radiflardan oldin qo‘llanilgan *shior–mador, bunyod–obod, obod–barbod, davron–oson, kom–xirom* qofiyalari mantiqiy urg‘u, ayni paytda ritmik zarb vazifasini o‘tayapti. *Aylagil* va *ayladi* radiflari – *V* – taqti’ga; *etar, etib, anga* radiflari esa *V* – taqti’ga mos kelyapti.

Jadvalga e’tibor qaratilsa, “Xamsa” dostonlari orasida radif eng kam qo‘llanilgan doston “Layli va Majnun” ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Dostonning 595 baytida mazkur unsurning istifoda etilganligini ko‘ramiz. Bu dostondagi jami baytlarning 16 foizini tashkil qiladi. Bu ko‘rsatkich biz yuqorida tahlil qilgan “Hayrat ul-abror” dostonidagi radiflar miqdoridan 2 baravar kam demakdir. Bunga Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini yozishdan maqsadi Layli va Majnun ishqi bilan bog‘liq afsonani hikoya qilib berish yoki kitobxonga muayyan bir fikrni ta’kidlashdan iborat emas, balki “dard navhasi” bayoni va ruhiyat tasvirini ko‘rsatib berishdan iborat ekanligini sabab qilib keltirish mumkin. Zero, Navoiyning o‘zi doston xotimasida yozganidek:

Yozmoqta bu ishqi jovidona,
Maqsudum emas edi fasona.

Mazmunig‘a bo‘ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli...

Insong‘a erur kamol matlub,
Andin dag‘i dardu hol matlub.

Mumtoz she’riyatimizda qofiya bilan birga ba’zan ***hojib*** deb ataluvchi she’riy unsur ham qo‘llaniladi. Hojib *(ar. – pardador, berkituvchi)* she’riy misralarda qofiyadan oldin aynan takrorlanib keluvchi so‘z yoki so‘zlar qo‘shilmasi bo‘lib, xuddi radif singari qofiya ilmi tarkibida o‘rganilgan. Adabiyotshunoslikda hojib qo‘llangan bayt yoki she’r mahjub deb ataladi. Mumtoz poetikaga doir manbalarda hojibning bir ma’noda qo‘llanilishi zaruriy shartlardan hisoblangan.

Alisher Navoiy ijodida hojib ko‘proq “Xamsa” tarkibidagi dostonlarda qo‘llanilgan. Masalan, “Layli va Majnun” dostonidan olingan:

*Chek aynima **ishq** to‘tiyosin,*
*Ur qalbima **ishq** kimiyosin! –*

baytida “ishq” so‘zi hojib bo‘lib kelgan.

Umuman olganda, Alisher Navoiy ijodida qo‘llanilgan qofiya va uning unsurlarini o‘rganish shoirning badiiy iqtidori va so‘zdan foydalanish mahoratini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.



Tayanch tushunchalar

ilmi qofiya
raviy
murdaf
muassas
mutlaq
muqayyad
mujarrad
radif
hojib



Savol va topshiriqlar:

1. Ilmi qofiyaning mumtoz poetikadagi o‘rni haqida so‘zlab bering.

2. Mumtoz qofiya turlarini sanang. Navoiy ijodida ularning qaysilari faol qo‘llanilgan?

3. Mujarrad qofiyaga ta’rif bering va Navoiy ijodidan misol keltiring.

4. Murdaf qofiyaga ta’rif bering va Navoiy ijodidan misol keltiring.

5. Muassas qofiyaga ta’rif bering va Navoiy ijodidan misol keltiring.

6. Muqayd qofiyaga ta’rif bering va Navoiy ijodidan misol keltiring.

7. Radif va qofiyaning o‘xshash va farqli jihatlari haqida so‘z yuriting. Ularning qofiyaga qanday aloqasi bor?

8. Navoiyning nechta g‘azali muraddaf g‘azal hisoblanadi?



ADABIYOTLAR:

Matn va manbalar:

1. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Нашрга тайёрл. О.Давлатов. Тўрт жилдлик. – Т.: TAMADDUN, 2011. 1–4-ж.

2. Алишер Навоий. Хазойинул маоний (Илмий-танқидий текст

асосида нашрга тайёрловчи Ҳ.Сулаймонов). 4 жилдлик. 1-4-ж. – Т.: Фан, 1959-1960.

3. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. 1–4-ж.

4. Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. 6-8-ж.



Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

5. Акбарова М. Алишер Навоий ғазалларида қофия: Филол. фан. номз. дис. ... автореф. – Т., 1997.– 20 б.

6. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1–2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Шарқ, 2016.

7. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – 426 б.

8. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги.–Т.: Ўзбекистон, 2014. – 320 б.

9. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. –Т.: Шарқ, 1990.– 240 б.

10. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Т.: Шарқ, 1998. – 160 б.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Matn va manbalar:

1. Аёзий Мирзо Муҳаммад Ҳайдар. Тарихи Рашидий. – Т.: O'zbekiston, 2011. – 704 б.

2. Алишер Навоий. Айёми висол ўлди яна: Янги топилган ғазаллар (Нашрга тайёрловчи Ф.Сулаймонова). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995.

3. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний (Илмий-танқидий текст асосида нашрга тайёрловчи Ҳ.Сулаймонов). 4 жилдлик. 1–4-жилдлар. – Т.: Фан, 1959–1960.

4. Алишер Навоий. Бадоеъ ул-бидоя. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1987. Т. 1. – 723 б.

5. Алишер Навоий. Наводир ун-ниҳоя. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1987. Т. 2. – 620 б.

6. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний: Ғаройиб ус-сиғар. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1988. Т. 3. – 616 б.

7. Алишер Навоий.Хазойин ул-маоний: Наводир уш-шабоб. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1989. Т. 4. – 557 б.

8. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний: Бадоеъ ул-васат МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1990. Т. 5. – 541 б.

9. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний: Фавойид ул-кибар. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1990. Т. 6. – 568 б.

10. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1991. Т. 7. – 392 б.

11. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1991. Т. 8. – 544 б.

12. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1992. Т. 9. – 356 б.

13. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1992. Т. 10. – 448 б.

14. Алишер Навоий. Садди Искандарий. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1993. Т. 11. – 640 б.

15. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1996. Т. 12. – 326 б.

16. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1997. Т.13. – 284 б.

17. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб, Муншаот, Вақфия. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1998. Т.14. – 303 б.

18. Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. Назм ул-жавоҳир. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1999. – Т. 15. – 236 б.

19. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. Мезон ул-авзон.

Тарихи анбиё ва ҳукамо. Тарихи мулуки Ажам. Арбаъин. Сирож ул-муслимин. Муножот. Рисолаи тийр андохтан. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 2000. Т. 16. – 336 б.

20. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 2001. Т. 17. – 519 б.

21. Алишер Навоий. Девони Фоний. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 2002. Т. 18. – 551 б.

22. Алишер Навоий. Девони Фоний (Давоми). МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 2002. Т. 19. – 600 б.

23. Алишер Навоий. Девони Фоний (Давоми): Қасидалар, муфрадот, иловалар МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 2003. Т. 20. – 567 б.

24. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж. 1. – 804 б.

25. Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж. 2. – 772 б.

26. Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж. 3. – 764 б.

27. Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж. 4. – 840 б.

28. Алишер Навоий. Девони Фоний. Қасоид. Муфрадот. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.5. – 860 б.

29. Алишер Навоий. Хамса: Ҳайрат ул-аброр. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж. 6. – 808 б.

30. Алишер Навоий. Хамса: Лайли ва Мажнун. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж. 7. – 696 б.

31. Алишер Навоий. Хамса: Садди Искандарий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж. 8. – 712 б.

32. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. Мажолис ун-нафоис. Маҳбуб ул-қулуб. Муншаот. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж. 9. – 768 б.

33. Алишер Навоий. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. Назм ул-жавоҳир. Насойим ул-муҳаббат. Муҳокамат ул-луғатайн. Мезон ул-авзон. Арбаъин. Сирож ул-муслимин. Муножот. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж. 10. – 692 б.

34. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр (насрий баёни билан) / Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ: – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 352 б

35. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин (насрий баёни билан) / Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1989. – 246 б.

36. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун (насрий баён муаллифи В.Раҳмонов, Н.Норқулов). – Т.: Адабиёт ва санъат, 1990. – 365 б.

37. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр (насрий баёни билан) / Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. – 544 б.

38. Алишер Навоий. Садди Искандарий (насрий баёни билан) / Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. – 832 б.

39. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр (насрий баёни билан) / Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. – 464 б.

40. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror (nasriy bayoni bilan). – T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2006.

41. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin (nasriy bayoni bilan). – T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2006.

42. Alisher Navoiy. Layli va Majnun (nasriy bayoni bilan). – T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2006.

43. Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor (nasriy bayoni bilan). – T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2006.

44. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy (nasriy bayoni bilan). – T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2006.

45. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr (nasriy bayoni bilan). – T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2005.

46. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб: Қалблар севгилиси / Масъул муҳаррир ва сўз боши муаллифи С.Ғаниева. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1983. – 111 б.

47. Алишер Навоий. Муншаот / Изоҳ баён муаллифи: Ю. Турсунов. – Т.: Маънавият, 2001. – 152 б.

48. Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғатайн / Қосимжон Содиқов таҳлили, табдили ва талқини остида. – Т.: Akademnashr, 2017. – 128 b.

Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ / Форсчадан А. Рустамов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. – 398 б.

49. Заҳириддин Бобур. Бобурнома / Ҳозирги ўзбек тилига Ваҳоб Раҳмонов ва Каромат Муллахўжаева табдили. -Т.: “O‘qituvchi” NMIU, 2008. – 288 b.

50. Заҳириддин Бобир. Мухтасар / Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент: Фан, 1971. – 413 б.

51. Ҳусайн Бойқаро. Рисола: Девон. – Т.: Шарқ, 1995. – 160 б.

52. Зайниддин Восифий. Бадоеъул вақоеъ – Нодир воқеалар / Форсийдан Н.Норқулов таржимаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – 216 б.

53. Жомий Абдураҳмон. Лайли ва Мажнун. Саломон ва Абсол / Масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи А.Қаюмов. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1989. – 224 б.

54. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони (“Тазкират уш-шуаро”дан). – Т.: Адабиёт ва санъат, 1967. – 224 б.

55. Муҳаммад Ризобек Хоксор. Алишер Навоий асарлари луғати. Мунтахаб ул-луғот. Зубд ул-луғот / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Akademnashr, 2017. – 416 б.

56. Хондамир Ғиёсиддин бинни Ҳумомиддин. Макорим ул-ахлоқ. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981. – 136 б.

57. Хондамир Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар. – Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Т.: Хазина, 1996. – 212 б.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

58. Абдуғафуров А. "Хазойин ул-маоний"дан четда қолган ғазаллар// Навоийнинг ижод олами (мақолалар тўплами). – Т.: Фан, 2001.

59. Акбарова М. Алишер Навоий ғазалларида қофия: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Т., 1997. – 20 б.

60. Алиев Г. Ю. Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока. – М.: Наука, 1985. – 366 б.

61. Алишер Навоий: 1441-1501 йил. Адабиётлар кўрсаткичи / Туз. З.Бердиева, А.Туропова. – Т., 1991.

62. Алишер Навоий. Ғазаллар. Шарҳлар. – Т.: Камалак, 1991.

63. Алишер Навоий "Хамса"си (мақолалар тўплами). Тадқиқотлар. – Т.: Фан, 1970.

64. Алишер Навоий ижодий ва маънавий меросининг оламшумул аҳамияти (халқаро илмий-назарий анжуман материаллари). – Т.: O'zbekiston, 2011. – 176 б.

65. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар /Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.– 536 б.

66. Араслы Н.Г. Ариф Ардебили и его поэма "Фархаднаме": Афтореф. дис. ... канд. филол. наук. – Баку, 1969. – 27 с.

67. Араслы Н. Г. Низами ва турк эдебйати. – Баку: Элм, 1980. – 206 с.

68. Афсахзод Аълохон. Лирика Абд ар-Рахмана Джами. Проблемы текста и поэтики. – М.: Наука, 1988. – 326 с.

69. Аҳмедов Т. Алишер Навоийнинг "Лайли ва Мажнун" достони. – Т.: Фан, 1970. – 140 б.

70. Бартольд В.В. Мир Али Шир и политическая жизнь. Сочин. В IX томах. – М.: Наука, 1964. Т. II. Ч.2. – С. 199–263

71. Бертельс Е.Э. Низами. Творческий путь поэта. – М.: Наука, 1956.

72. Бертельс Е.Э. История персидско-таджикской литературы. – М.: Наука, 1960. – 554 с.

73. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Низами и Физули. – М.: Наука, 1962. – 552 с.

74. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Навои и Джами. – Москва: Наука, 1965. – 500 с.

75. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1965. – С. 24.

76. Бертельс Е.Э. Избранные труды. История литературы и культуры Ирана. – М.: Наука, 1988. – 560 с.

77. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – 191 б.

78. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. 1 жилд. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – 304 б.

79. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиёти тарихи (XV асрнинг иккинчи қисми) II китоб). – Самарқанд, 2002.

80. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O‘zYU Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 528 b.

81. Жумахўжа Н. Сатрлар силсиласидаги сеҳр. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 224 б.

82. Зоҳидов Л. “Девони Фоний” бадииятига доир мулоҳазалар // Адабиёт кўзгуси. – Т, 2010. – №10.

83. Имомназаров М. Ҳақиқат ва мажоз (2-3-мақолалар) // Шарқ юлдузи. – Т., 1989. – № 4; 1991. – №4.

84. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам, 2006. – 128 б.

85. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983. – 168 б.

86. Каримова Ф. Ўзбек адабиётида дебоча. – Т.: Mumtoz so‘z, 2008 – 112 б.

87. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Т.: TAMADDUN, 2012. – 316 б.

88. Комилов Н. Фақр нури порлаган қалб (Алишер Навоийнинг форсий қасидалари). – Т.: Маънавият, 2001. – 96 б.

89. Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Movarounnahr – O‘zbekiston, 2009. – 448 б.

90. Конрад Н.И. Запад и Восток (статьи). – М.: Главная редакция Восточной литературы, 1972. – 496 с.

91. Литературный энциклопедический словарь / Под общей редакцией В.М.Кожевникова и П.А.Николаева. – М.: Советская энциклопедия, 1987. – 752 с.

92. Мамадалиева З. Лисон ут-тайр” достонидаги рамзий образлар тизими. Филол. фан. номз. дисс. – Т., 2011. – 26 б.

93. Мирзаев С. Навоий арузи: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Т., 1946.

94. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (X–XV вв.). – М.: Наука, 1989. – 240 с.

95. Муҳиддинов М. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси (“Хамса”ларнинг биринчи достонлари асосида): Филол. фан. докт. дис. ... автореф. – Тошкент, 1995. – 60 б.

96. Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Т.: Маънавият, 2005. – 208 б.

97. Муҳиддинов М. Нурли қалблар гулшани. – Т.: Фан, 2007. – 168 б.

98. Нарзуллаева С.Н. Тема "Лейли и Меджнун" в истории литературы народов Советского Востока: Афтореф. дисс. ...док. филол. наук. – Баку, 1980. – 49 с.

99. Олимов М. Рисолаи аруз. – Тошкент: Ёзувчи, 2002. – 88 б.

100. Олимов С. Ишқ, ошиқ ва маъшуқ. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1992. – 80 б.

101. Рахимов Ж. Жанр автобиографии (хасби хол) в "Пятерице" Алишера Навои: Афтореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 20 с.

102. Расулов А. Илми ғарибани қўмсаб... – Тошкент: Маънавият, 1998. – 64 б.

103. Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Ленинобод, 1972. – 180 б.

104. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – 216 б.

105. Сирожиддинов Ш. Навоий замондошлари эътирофида. – Самарқанд: Зарафшон, 1996. – 65 б.

106. Сирожиддинов Ш.С. Алишер Навоий ҳаёти ва фаолиятига оид XV–XIX асрларда яратилган форс-тожик манбалари (қиёсий-типологик, текстологик таҳлил): Филол. фан. докт. дисс. ... автореф. – Тошкент, 1998. – 45 б.

107. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий–типологик, текстологик таҳлили. – Т.: Akademnashr, 2011. – 326 б.

108. Стеблева И.В. Ритм и смысл в классической тюркоязычной поэзии. – М.: Наука, 1993. – 180 с.

109. Султон Иззат. Навоийнинг қалб дафтари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2010. – 416 б.

110. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 392 б.

111. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 272 b.

112. Хасанов С. Роман о Бахраме. – Ташкент: Издательство литературы и искусства, 1988. – 208 с.

113. Шарипов Ш. Алишер Навоий "Лисонут тайр" достонининг генезиси ва ғоявий-бадиий хусусиятлари. – Т.: Фан, 1982. – 96 б.

114. Шарипов Ш. "Лисон ут-тайр" ҳақиқати. – Т.: Маънавият, 1998. – 160 б.

115. Шарқ мумтоз поэтикаси: Манба ва талқинлар / Нашрга тайёрловчи, талқин ва шарҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 430 б.

116. Шомуҳамедов Ш.М. Форс-тожик адабиёти тарихидан қисқача курс: Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТошДУ, 1987. – 110 б.

117. Эргашев К. Некоторые аспекты государственной деятельности Алишера Навои. – Т.: Фан, 2009. – 96 с.

118. Эркинов А.С. Алишер Навоийнинг пейзаж яратиш маҳорати ("Садди Искандарий" достони мисолида): Филол. фан. номз. дисс. ... – Тошкент, 1990. – 121 б.

119. Эркинов А.С. Алишер Навоий "Хамса"си талқинининг XV–XX аср манбалари: Филол. фан. докт. дисс. ... – Тошкент, 1998. – 220 б.

120. Эркинов А.С. Источники интерпретации "Хамса" Алишера Навои в XV–XX вв. : Афтореф. дисс. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1998. – 52 с.

121. Эркинов А.С. Подражательность или оригинальность: оценка В.В.Бартольдом узбекской классической литературы // Русская диаспора в Узбекистане: время, события, люди. Материалы научной конференции. – Ташкент, 2009. – С.72–78.

122. Эркинов С. Навоий «Фарҳод ва Ширин»и ва унинг қиёсий таҳлили. – Тошкент, 1971. – 276 б.

123. Эркинов С. Шарқ адабиётида Фарҳод қиссаси. – Тошкент: Фан, 1985. – 64 б.

124. Эркинов С., Ғанихонов М. Низомий Ганжавий. – Тошкент: Фан, 1992. – 68 б.

125. Эркинов А. Навоийнинг мухлислари томонидан тузилган яна бир девони // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: Фан, 2012. – №1.

126. Юсупова Д., Қуронов С. Навоийнинг форсий қасидалари // Жаҳон адабиёти. – Т, 2011. – №1.

127. Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2011. – 144 б.

128. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. Ж.2. (XV асрнинг иккинчи ярми). – Т.: Фан, 1977. – 460 б.

129. Қаюмов А. Нодир саҳифалар. Навоийнинг кам ўрганилган баъзи асарлари тўғрисида. – Т.: Фан, 1991. – 144 б.

130. Қаюмов А. "Ҳайрат ул-аброр" талқини. – Т.: F. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1985.

131. Қаюмов А. Ишқ водийси чечаклари: А.Навоий ижоди ҳақида.– Т.: Адабиёт ва санъат, 1985. – 256 б.

132. Қаюмов А. "Садди Искандарий". – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 196 б.

133. Ғаниева С. Алишер Навоий: Ҳаёти ва ижоди /Масъул муҳаррир: А.Қаюмов. – Т.: Фан, 1968. – 148 б.

134. Ғаниева С. Алишер Навоийнинг прозаик асарлари. – Т.: Ўзбекистон, 1981. – 37 б.

135. Ғаниева С. Алишер Навоий: Ҳаёти ва ижоди / Масъул муҳаррир: А.Қаюмов. – Т.: Фан, 1968. – 148 б.

136. Ғаниева С. Алишер Навоийнинг прозаик асарлари. – Т.: Ўзбекистон, 1981.– 37 б.

137. Ғаниева С. Навоий ёдга олган асарлар. – Т., 2009.

138. Қаюмов А. Дилкушо такрорлар ва руҳафзо ашъорлар. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2011. – 274 б.

139. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Фан, 2007. – 227 б.

140. Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – Т.: Ўқитувчи, 1993. – 216 б.

141. Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. – Т.: Фан, 1996. – 160 б.

142. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси / Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Н.Жумахўжа, масъул муҳаррир А.Н.Қаюмов. – Т.: O'zbekiston, 2015. – 328 б.

143. Ҳасанов С. Бобирнинг "Аруз рисоласи" асари. – Т.: Фан, 1981. – 96 б.

144. Ҳасанов С. Навоийнинг 7 туҳфаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. – 192 б.

145. Ҳасанхон Яҳё Абдулмажид, Ҳусайнхон Яҳё Абдулмажид. Навоийдин чу топқайлар навое. – Т.: Hilol-nashr, 2014.

146. Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърият. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. – 184 б.

147. Ҳаққулов И. Камол эт касбким. –Тошкент: Чўлпон, 1991. –240 б.

148. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. – Т.: Фан, 2007. – 224 б.

149. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. –Тошкент: Шарқ, 1998. – 224 б.

150. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Т.: Шарқ НМК, 1998. – 158 б.

151. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ, 1999. – 240 б.


152. Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006. – 288 б.

153. Ҳожиаҳмедов А. Ҳусни таълил санъати. – Т.: Фан, 2006. – 288 б.

154. http://www.referun.com/n/issledovanie-zhizni-i-tvorchestva-alishera-navoi-v-zapadnoevropeyskom-vostokovedenii#ix-zz2HOWXH4iO

155. http://www.payam-aftab.com/en/news/3094/Ali-Shir-Nava%27i

ALISHER NAVOIY IJODINING O‘RGANILISHI



Yurtimizda navoiyshunoslikning rivojlanishi

Istiqlolgacha bo'lgan navoiyshunoslik

Abdurauf Fitrat: "Navoiyning forsiy shoirlig'i ham uning forsiy devoni to'g'risida" ("Maorif va o'qitg'uchi" jurn., 1925), "Farhodu Shirin" dostoni to'g'risida" ("Alanga" jurn., 1930) . "Xamsa"ning qisqartirilgan varianti (Sadriddin Ayniy, 1939). Olim Sharafiddinov: "Alisher Navoiy", 1939. M.Shayxzoda: "Genial shoir", 1940. V.Abdullaev: "Navoiyning Samarqanddagi hayoti va faoliyati haqida, 1940. A.Borovkov, E.E.Bertels, H.Olimjon, X.Zarif, O.Usmonov, M.Shayxzoda va boshqa olimlarning ilmiy maqolalarini o'z ichiga olgan to'plam: "Rodonachalnik uzbekskoy literaturы", 1940. "Xamsa"ning mukammal nashri (Porso Shamsiev, 1960), "Xazoyin ul-maoniy"ning akademik nashri (Hamid Sulaymonov, 1959-60), Alisher Navoiy "Asarlar"i 15 tomligi, "Alisher Navoiy: 1441-1501 yil. Adabiyotlar ko'rsatkichi" (1991). 20 jildlik "Mukammal asarlar to'plami" (1987-2003). P.Shamsiev, N.Mallaev, V.Zohidov, I.Sulton, H.Sulaymonov, A.Qayumov, S.G'anieva, A.Rustamov, A.Hayitmetov, A.Abdug'afurov, S.Erkinov, B.Valixo'jaev, Y.Is'hoqov, N.Komilov, R.Vohidov, M.Hakimov, L.Zohidov kabi olimlar navoiyshunoslik taraqqiyotiga alohida hissa qo'shdilar.

Istiqlol davridagi navoiyshunoslik

Tadqiqotlar: S.Hasanov: "Navoiyning yetti tuhfasi", 1991. M.Muhiddinov: "Ikki olam yog'dusi", 1991. H.Qudratullayev: "Alisher Navoiyning adabiy-estetik qarashlari", 1991. A.Hayitmetov: "Navoiyxonlik suhbatlari", 1993 "Temuriylar davri o'zbek adabiyoti", 1996. A.Abdug'afurov: "Buyuk beshlik saboqlari", 1995. R.Vohidov: "Alisher Navoiyning ijod maktabi", 1994 "Alisher Navoiy va ilohiyot", 1994. N.Komilov: "Tasavvuf", 1996, 2009. "Ma'nolar olamiga safar", S.Olimov: "Naqshband va Navoiy", 1996. N.Jumayev: "Satrlar silsilasidagi sehr", 1996. A.Hojiahmedov: "Navoiy aruzi nafosati", 2006. A.Qayumov: "Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash'orlar". I.Haqqul: Navoiyga qaytish (3 kitob, 2007, 2011, 2016). Sh.Sirojiddinov: "Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili", 2011. M.Imomnazarov: "Navoiyshunoslikka kirish" (2015), Y.Tursunov: "Munshaot" asarining matniy tadqiqi" (2016), Q.Sodiqov: "Muhokamat ul-lug'atayn" asarining tahlili, matn transkripsiyasi va hozirgi o'zbek tiliga tabdili" (2017).

Dissertatsion ishlar: M.Rashidova: "Alisher Navoiy "Nazm ul-javohir" asarining matniy tadqiqoti" (1991),M.Hamidova: "Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining ilmiy-tanqidiy matni va matniy tadqiqi" (1994), M.Muhiddinov: "Alisher Navoiy va uning salaflari ijodida inson konsepsiyasi"("Xamsa"larning birinchi dostoni asosida, 1995), Q.Ergashev: "O'zbek nasrida insho" (Navoiyning "Munshaot"i misolida, 1996), M.Akbarova: "Alisher Navoiy g'azallarida qofiya" (1997), A.Erkinov: "Alisher Navoiy "Xamsa"si talqinining XV-XX asr manbalari" (1998), A.Abdullajonov: "Navoiy badiiyatini nemischa tarjimalarda qayta yaratish va tabdil etish" (1998), F.Hayitmetov: "Alisher Navoiy g'azallari qofiyasida mantiq urg'usining berilishi" (1998), H.Eshonqulov: "Alisher Navoiy she'riyatida samoviy timsollar" (1999), D.Salohiy: "Alisher Navoiy poetik uslubining tadrijiy takomili" (2001), I.Azimov: "Alisher Navoiyning nasriy asarlarida kesim markazli bosh bo'lakli gaplarning shakliy va mazmuniy xususiyatlari" (2001), N.Bekova: "Alisher Navoiyning hamd g'azallari va "Ruh ul-quds" qasidasining badiiyati" (2003), K.Mullaxo'jayeva: "Alisher Navoiy g'azaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san'atlar uyg'unligi: "Badoye' ul-bidoya" devoni misolida",(2005), S.O'tanova: "Alisher Navoiy g'azaliyotida rang simvolikasi" (2007), D.Yusupova: "Alisher Navoiy "Xamsa"sida mazmun va ritmning badiiy uyg'unligi" (2008), Z.Mamadaliyeva: "Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidagi ramziy obrazlar tizimi" (2011), M.Tojiboyeva: "Alisher Navoiyning "Ilk devon"idagi arabcha so'zlarning leksik-semantik talqini" (2011).

1987-2003 yillarda chop etilgan Alisher Navoiy "Mukammal asarlar to'plami"ning to'liq ro'yxati

Jild raqami	Jild tarkibidagi asarlar
1-jild	"Badoyi' ul-bidoya", devon
2-jild	"Navodir un-nihoya", devon
3-jild	"G'aroyib us-sig'ar", devon
4-jild	"Navodir ush-shabob", devon
5-jild	"Badoyi'ul-vasat", devon
6-jild	"Favoyid ul-kibar", devon
7-jild	"Hayrat ul-abror", doston
8-jild	"Farhod va Shirin", doston
9-jild	"Layli va Majnun", doston
10-jild	"Sab'ai sayyor", doston
11-jild	"Saddi Iskandariy", doston
12-jild	"Lison ut-tayr", doston
13-jild	"Majolis un-nafois"
14-jild	"Mahbub ul-qulub", "Munshaot", "Vaqfiya"
15-jild	"Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Nazm ul-javohir"
16-jild	"Muhokamat ul-lug'atayn", "Mezon ul-avzon", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi muluki Ajam", "Arba'in", "Siroj ul-muslimin", "Munojot", "Risolai tiyr andoxtan"
17-jild	"Nasoyim ul-muhabbat"
18-jild	"Devoni Foniy", g'azallar
19-jild	"Devoni Foniy", g'azallar (davomi)
20-jild	"Devoni Foniy" (davomi), "Mufradot", Ilovalar

2011 yilda chop etilgan Alisher Navoiy
10 jildligining to‘liq ro‘yxati

Jildraqami	Jild tarkibidagi asarlar
1-jild	“G‘aroyib us-sig‘ar”
2-jild	“Navodir ush-shabob”
3-jild	“Badoye’ ul-vasat”
4-jild	“Favoyid ul-kibar”
5-jild	“Devoni Foniy”; “Qasoid”; “Mufradot”; “Xamsat ul-mutahayyirin”
6-jild	“Xamsa”: “Hayrat ul-abror”; “Farhod va Shirin”
7-jild	“Layli va Majnun”; “Sab’ai sayyor”
8-jild	“Saddi Iskandariy”; “Tarixi anbiyo va hukamo”; “Tarixi muluki Ajam”
9-jild	“Lison ut-tayr”; “Majolis ul-nafois”; “Mahbub ul-qulub”; “Munshaot”; “Vaqfiya”
10-jild	“Holoti Sayyid Hasan Ardasher”; “Holoti Pahlavon Muhammad”; “Nazm ul-javohir”; “Nasoyim ul-muhabbat”; “Muhokamat ul-lug‘atayn”; “Mezon ul-avzon”; “Arba’in”; “Siroj ul-muslimin”; “Munojot”

HAYOTIGA DOIR MUHIM MA'LUMOTLAR

1441-yil 9-fevralda Amir Temurning o'g'li Shohruh Mirzo hukmronligi davrida Hirotda tug'ildi. Bu sana hijriy 844 -ramazon oyining 17-kunida bo'lib, tovuq yiliga to'g'ri keladi *("Makorim ul-axloq")*

1445-yil maktabga boradi va shahzoda Husayn bilan birga o'qiydi.

1447-yil Shohruh Mirzo vafot etadi va Alisherlar oilasi Iroqqa ko'chadi. Alisher Taft shahrida Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi, ulug' olim yosh Alisherni duo qiladi.

1451-yil taxtga Abulqosim Bobur chiqadi va G'iyosiddin oilasini Hirotga olib qaytadi **1447-yil** Shohruh Mirzo vafot etadi.

XV asrning 60-yillarida Tog'alari Mirsaid Kobuliy va G'aribiylar jangda halok bo'lgan edi. SHoir Xurosondan Samarqandga yo'l oladi.

1452-yilda Abulqosim Bobur G'iyosiddin Kichkinani Sabzavorga hokim qilib tayinlaydi, Alisher Sabzavorda tahsilni davom ettiradi.

1453-yil Alisher do'sti Husayn bilan Abulqosim Bobur xizmatiga kiradi.

1457-yil Abulqosim Bobur vafot etadi. Abu Sa'id taxtga chiqadi. Husayn taxt uchun kurashga kirishib ketadi, Alisher Mashhadda o'qishni davom ettiradi, shu davrda Lutfiy va Kamol Turbatiylar bilan uchrashadi.

1465-69-yillarda Navoiy Samarqandda yashab, ilm oladi. Dastlabki qiyinchiliklardan keyin yosh shoirga shahar hokimi Ahmad Hojibek homiylik qiladi, Xoja Abullays Fazlullohdan fiqh ilmini o'rganadi, ilm va she'r ahli suhbatida bo'ladi.

1465-66-yillarda Mashhadda Navoiyning muxlislari uning she'rlarini to'plab, devon tuzadilar. Uni Sultonali Mashhadiy ko'chiradi. Bu devon bugungi kunda "Ilk devon" nomi bilan mashhur **XV asrning 60-yillari**da. Tog'alari Mirsaid Kobuliy va G'aribiylar jangda halok bo'lgan edi. Shoir Xurosondan Samarqandga yo'l oladi.

1468 yil Abusa'id Eron uchun jangda halok bo'lgach, taxtni **1469-yil** Husayn Boyqaro egallab, do'sti Navoiyni Hirotga chaqirib, muhrdor qilib tayinlaydi.

1471-yil Oqquyunlilar saroyida (G'arbiy Eron) Navoiyning ikkinchi devoni muxlislari tomonidan tuziladi.

1469-1472-yillarda Navoiy muhrdor lavozimida xizmat qiladi.

1472-1476-yillarda Navoiy amir (vazir) vazifasini bajaradi, "amir ul-kabir", "amir ul-muqarrab" kabi unvonlar oladi.

1476-yil Navoiy saroydan rasman iste'fo beradi, lekin sulton uchun eng yaqin inson bo'lib qolaveradi.

1487-1488-yillarda Navoiy Astrobodda hokimlik qiladi.


1489-yil Navoiy Hirotga qaytadi, uning ukasi Darveshali Balxda isyon ko'taradi, Sulton Navoiyni olib Balxga jo'naydi, sulh tuziladi. Saroyda siyosiy kurashlar avj oladi. Shu asnoda shahzoda Mo'min Mirzo qatl etiladi.

1499-yil Navoiy bu hodisadan qattiq ta'sirlanib, ko'pdan buyon niyat qilgani – hajga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Ammo shu payt Husayn Boyqaroning o'g'li Abulmuhsin Marvda isyon ko'taradi, Sulton isyonni bostirishga borganda, shahzoda faqat Navoiy o'rtaga tushsa, sulh tuzishini aytadi. Navoiy yo'ldan noiloj ortga qaytadi va ota-bolani yarashtiradi.


1500-yil dekabr oyi oxirida Husayn Boyqaro Astrobod yurishidan qaytadi. Navoiy uni kutib olgani saroy a'yonlari bilan chiqadi. Yo'lda uning ahvoli og'irlashadi. Shoh bilan uchrashganda esa Navoiy uning ko'ksiga bosh qo'yib, hushdan ketadi.

1501-yil 3-yanvar kuni uch kun hushsiz yotgan Alisher Navoiy Hirot shahrida sakta kasalligi sababli vafot etadi.

Alisher Navoiyning XV asr 60-yillarida Xurosondan Samarqandga ketishi sabablari xususida



Alisher Navoiy to'laqonli devon uchun belgilagan mezonlar ("Badoye' ul-bidoya" debochasida)




ALISHER NAVOIYNING TURKIY SHE'RIYATI BOSQICHLARI

Bosqichlar	Navoiyning turkiy devonlari	Tartib berilish sanasi
I	"Ilk devon"	1465-66
II	"Oqquyunli muxlislar devoni"	1471
III	"Badoyi' ul-bidoya"	1470-80
IV	"Navodir un-nihoya"	1480-87
V	"Xazoyin ul-maoniy"	1492-98

“Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi lirik janrlar tavsifi

№	*Navoiy foydalangan lirik janrlar*	*“G‘aroyib us-sig‘ar” devonida*	*“Navodir ush-shabob” devonida*	*“Badoye’ ul-vasat” devonida*	*“Favoyid ul-kibar” devonida*	*Jami to‘rt devonda*
1	G‘azal	650 ta (4975 bayt)	650 ta (4998 bayt)	650 ta (5001 bayt)	650 ta (5029 bayt)	2600 ta (20003 bayt)
2	Mustazod	1 ta (7 bayt)	1 ta (7 bayt)	1 ta (7 bayt)	1 ta (7 bayt)	4 ta (28 bayt)
3	Muxammas	3 ta (57,5 bayt)	3 ta (52,5 bayt)	2 ta (30 bayt)	2 ta (37,5 bayt)	10 ta (177,5 bayt)
4	Musaddas	1 ta (27 bayt)	1 ta (27 bayt)	2 ta (42 bayt)	1 ta (21 bayt)	5 ta (117 bayt)
5	Musamman				1 ta (28 bayt)	1 ta (28 bayt)
6	Tarji’band	1 ta (100 bayt)	1 ta (103 bayt)	1 ta (56 bayt)	1 ta (110 bayt)	4 ta (369 bayt)
7	Tarkibband		1 ta (56 bayt)			1 ta (56 bayt)
8	Masnaviy	1 ta (148 bayt)				1 ta (148 bayt)
9	Qasida			1 ta (91 bayt)		1 ta (91 bayt)
10	Soqiynoma				1 ta (458 bayt)	1 ta (458 bayt)
11	Qit’a	50 ta (138 bayt)	50 ta (126 bayt)	60 ta (127 bayt)	50 ta (112 bayt)	210 ta (503 bayt)
12	Ruboiy	133 ta (266 bayt)				133 ta (266 bayt)
13	Muammo		52 ta (54 bayt)			52 ta (54 bayt)
14	Lug‘z			10 ta (40 bayt)		10 ta (40 bayt)
15	Tuyuq			13 ta (26 bayt)		13 ta (26 bayt)
16	Fard				86 ta (86 bayt)	86 ta (86 bayt)
Jami		***840 ta (5718,5 b.)***	***759 ta (5423,5 b.)***	***740 ta (5420 b.)***	***793 ta (5888,5 b.)***	***3132 ta (22450,5 b.)***


Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotiga kirmay qolgan she'rlari manbalari



XAMSANAVISLIK AN'ANASI VA ALISHER NAVOIY "XAMSA"SI

XV asr Hirot adabiy muhitida xamsanavislik


To'liq "Xamsa" mualliflari	Ba'zi dostonlarga javob yozgan mualliflar	Faqat bitta dostonga javob yozganlar	
		"Maxzan ul-asror" tipida	"Layli va Majnun" tipida
• ***Jamoliy*** "Xamsa" (1402-1417): 1. "Tuhfat ul-abror" 2. "Mehru Nigor" 3. "Mahzun va Mahbub" 4. "Haft avrang" 5. ? ("Iskandarnoma"tipida) • ***Ashraf Marog'iy*** "Xamsa"(1428-1444): 1. "Minhoj ul-abror" 2. "Riyoz ul-oshiqin" 3. "Ishqnoma" 4. "Haft avrang" 5. "Zafarnoma" • ***Abdurahmon Jomiy*** "Xamsa"(1481-84): 1. "Tuhfat ul-ahror" 2. "Subhat ul-abror" 3. "Yusuf va Zulayho" 4. "Layli va Majnun" 5. "Xiradnomai Iskandariy" • ***Alisher Navoiy***	• ***Kotibi Turshiziy*** 1. "Gulshanul-abror" 2. "Layli va Majnun" 3. "Bahrom va Gulandom" • ***Abdulloh Hotifiy*** 1. "Layli va Majnun" 2. "Shirin va Xusrav" 3. "Haft manzar" ("Etti manzara") 4. "Temurnoma" • ***Badriddin Hiloliy*** 1. "Sifat ul-oshiqin" 2. "Layli va Majnun" • ***Shahobiddin Jomiy*** 1. "Layli va Majnun" 2. "Xusrav va Shirin"	• *Osafiy Hiraviy* • *Nargisiy* • *G'iyosiddin Sabzavoriy* • *Fosih Rumiy* • *Sayyid Qosimiy*	• *Shayxim Suhayliy* • *Ali Ohiy* • *Xoja Imod Loriy* • *Xoja Hasan Xizrshoh* • *Zave Qozisi*


"HAYRAT UL-ABROR"
"Hayrat ul-abror" dostoni
63 bob, 3988 bayt
Muqaddima – 21 bob
1-bob. Basmala bobi. "Bismillahir rohmanir rohim" oyatining badiiy talqini
2-bob. Allohga hamd.
3-6- boblar. Munojot.
1-munojotda Alloh taoloning Bir-u Borligi, jamiki maxluqot Unga sano aytsalar ham, uning hamdini ado etolmasliklari, Haq taolo o'z Zotiga mazhar – ko'zgu yaratish maqsadida olamni yo'qdan bor qilgani haqida so'z yuritiladi.
2-munojotda Alloh olamdagi jamiki mavjudotning yaralish va foniylikka yuz tutish jarayoni davomida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jamiyki voqea va hodisalarni o'z ilmi, irodasi va qudrati bilan tasarruf etishi, azaliylik va abadiylik faqat Xudoga xos ekanligi, haqiqiy iloh faqat Alloh taoloning O'zi bo'lib, olamdagi jamiyki mavjudot faqat Unga sajda va itoat qilishlari lozimligini bayon etiladi.
3-munojotda olam ahlining qiyomat kunidagi ahvoli tasvirga tortilib, o'sha kuni oxirzamon payg'ambari – Muhammad mustafo (s.a.v) Haq taolo izni bilan musulmon ummatini shafoat qilishi, Navoiy ham bu shafoatdan umidvor ekanligi haqida so'z yuritiladi.
4-munojot Alloh taoloning karami kengligi, jamiki bandalariga mehribon va rahmli ekanligi haqida
21-bob. Xoja Bahouddin Naqshband hamda Xoja Ubaydulloh Ahror madhi
Xoja, ya'ni ko'ngulning avval mulk (narsalar) olamiga sayri
18–20-boblar hayrat ta'rifi.
malakut (farishtalar) olamiga sayri
"ajoyib bir shahar" (inson tanasi)ga sayri
17-bob "Ko'ngul ta'rifida"
16-bob zamona sultoni Husayn Boyqaro madhiga bag'ishlangan.
14–15-boblar so'z ta'rifiga bag'ishlangan
13-bob. Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhi
12-bob. Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy madhi.
7–11-boblar. Payg'ambar Muhammad (s.a.v)ga na't
1-na't "Nuri Muhammadiya" nazariyasi haqida
2-na't Payg'ambar (s.a.v.)ning tug'ilishlari, bolalik paytlarida otadan yetim qolishlari, savdogarlik bilan shug'ullanishlari, hali payg'ambarlik maqomiga yetishmagan zamonlarida ham qabiladoshlari orasida yuksak axloqlari bilan nufuz topganlari va h.k. haqida.
3-na't Muhammad alayhissalomning payg'ambarliklariga dalil bo'lgan mo'jizalar haqida.
4-na'tda Navoiy ahli sunnat va jamoat e'tiqodiga ko'ra, Payg'ambar (s.a.v.)ning sifatlarini bayon etadi.
5-na't me'roj kechasining ta'rifi

“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAGI MAQOLAT VA HIKOYATLAR

№	Maqolatlar	Hikoyatlar
1	Iymon sharhida	Shayx Boyazid Bistomiy va uning muridi haqidagi hikoyat
2	Islom bobida	Ibrohim Adham va Robiya Adviya haqidagi hikoyat
3	Salotin (sultonlar) zikrida	Shoh G‘oziy hikoyati
4	Xirqa kiygan riyokor shayxlar xususida	Abdulla Ansoriy haqidagi hikoyat
5	Karam (xayru ehson) vasfida	Hotami Toyi hikoyati
6	Adablilik to‘g‘risida	No‘shiravon va Nargis haqidagi hikoyat
7	Qanoat bobida	Qanoatli va qanoatsiz do‘stlar haqidagi hikoyat
8	Vafo bobida	Ikki va foliyor hikoyati
9	Ishq o‘ti ta’rifida	Shayx Iroqiy haqidagi hikoyat
10	Rostliq ta’rifida	Sher bilan Durroj hikoyati
11	Ilm osmonining yulduzlardek baland martabaliligi haqida	Imom Roziy va Xorazmshoh haqidagi hikoyat
12	Qalam va qalam ahllari haqida	Yoqut haqidagi hikoyat
13	Bulutdek foyda keltiruvchi odamlar haqida	Ayyub va o‘g‘ri haqidagi hikoyat
14	Osmon tuzilishidan shikoyat	Iskandar haqidagi hikoyat
15	Jaholat mayining quyqasini ichadiganlar haqida	Isroiliyrind haqidagi hikoyat
16	Xunasa sifat oliftalar haqida	Abdulloh Muborak haqidagi hikoyat
17	Bahor yigitligining sofligi haqida	Zaynuljbiddin va uning o‘g‘li haqidagi hikoyat
18	Falak g‘amxonasi haqida	Go‘zal malika va uning oshig‘i haqidagi hikoyat
19	Xurosonning misli yo‘q viloyati bayonida	Bahrom va bog‘ haqidagi hikoyat
20	Maqsadning o‘talgani haqida	Xoja Muhammad Porso haqidagi hikoyat


“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONINING TIMSOLLAR OLAMI




"FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDAGI RAMZIY TIMSOLLAR IFODALAGAN MA'NOLAR

Timsollar nomi	Ular anglatgan ma'no
Farhod	Haqqa yetishishni maqsad qilgan solik
Shirin	Mazhar, ya'ni Haq jamolini o'zida zohir qilgan timsol
Moniy, Boniy, Qoran	Farhodga, ya'ni solikka dunyoviy ilmlarni o'rgatgan ustozlar
Suhaylo	Farhodga Haqqa yetishda yo'l ko'rsatuvchi murshidni topishga ko'maklashgan ustoz, Farhodning tariqatdagi 1-piri
Xizr	Tariqatdagi 2-pir
Suqrot	Haqqa yetish va ko'ngil sirlarini yechish yo'lini ko'rsatgan pirimurshid, komil inson timsoli
Ajdarho	Nafs
Dev	Saltanat
Samandar yog'i	Ishq
Sher	G'azab
Temir paykar	Ro'yo, yolg'on dunyo
Jamshid jomi	Ko'ngilni ochish kaliti
Oyinai jahon namo	Ko'ngil
Xusrav, Sheruya, Yosuman	Nafsga qul bo'lgan, shayton izmidagi bandalar

“Farhod va Shirin” dostonida solikning Haqqa erishish bosqichlarining ramziy ifodasi



“Layli va Majnun” dostonining tarkibiy tuzilishi




“Layli va Majnun” mavzusidagi dostonlarda Qays (Majnun) timsoli tasviriga doir konseptual jadval

Qiyoslanuvchi jihatlar	Nizomiy Ganjaviy. “Layli va Majnun”	Xusrav Dehlaviy. “Majnun va Layli”	Abdurahmon Jomiy. “Layli va Majnun”	Alisher Navoiy. “Layli va Majnun”
Oiladagi o‘rni	Bani Omir qabilasi boshlig‘ining yagona o‘g‘li	Bani Omir qabilasi boshlig‘ining yagona o‘g‘li	Omiriy qabilasi sardorining 10-farzandi	Bani Omir qabilasi boshlig‘ining yagona o‘g‘li
Bolaligi	Tug‘ilishidan boshlab tasvirlanadi	Qays tug‘ilgach, munajjim uning kelgusida telba oshiq bo‘lishini bashorat qiladi	Bolaligi bilan bog‘liq tafsilotlar keltirilmagan, 14 yoshdan boshlab tasvirlanadi	Tug‘ilishidan boshlab batafsil tasvirlanadi
Laylini ilk bor uchratishi	10 yoshida maktabga boradi va Laylini uchratadi	Yoshi yetib, maktabga boradi va u yerda Laylini uchratadi	Dastlab Karima ismli qizga ko‘ngil qo‘yadi, lekin uning badavlat yigitga rag‘batini sezib, qabilani tark etadi. Layli ta’rifini choparlardan eshitib, uni ko‘rishga boradi va sevib qoladi	Hay qabilasiga maktabga boradi va gulshanda Laylini uchratadi
Ka’ba epizodi	Otasi bilan Ka’ba ziyoratiga boradi		Ka’baga 2 marta boradi, birinchi marta Laylini uchratgani uchun shukrona sifatida, ikkinchi marta Laylining hajga borayotganidan xabar topib, uning karvoniga hamroh bo‘ladi	Haj mavsumida otasi uni Ka’ba ziyoratiga olib boradi
Uylanishi bilan bog‘liq holat	Otasi o‘z qabilasidan biror qizga uylantirmoqchi bo‘ladi, lekin u ko‘nmaydi	Navfalning qizi Xadichaga uylanadi, lekin unga yaqinlashmay, uyni tark etadi	Amakisining qiziga uylantirmoqchi bo‘ladilar, lekin u ko‘nmaydi	Otasining iltimosi bilan Navfalning qiziga uylanadi, lekin Navfalning qizi boshqa insonni sevishini aytgach, dashtga chiqib ketadi
Ota-onasining vafoti bilan bog‘liq o‘rinlar	Otasi Majnunning ahvolidan qattiq iztirobga tushib, xastalanadi va vafot etadi. Bir oz o‘tgach, onasi ham hayotdan ko‘z yumadi		Ota-onasidan avval o‘zi vafot etadi	Ota-onasi vafotini tush orqali bilib, ularning qabriga boradi
O‘limi bilan bog‘liq holatlar	Laylining o‘limini eshitgach, qabristonga keladi va uning qabrini quchib, vafot etadi	Layli Majnunning o‘lganligi haqidagi yolg‘on xabarni eshitib, xastalanib, vafot etgach, Majnun Layli yotgan qabr ichiga o‘zini tashlab, jon taslim qiladi. Ikkisini bir qabrga qo‘yadilar	Uni yovvoyi hayvonlar orasida o‘lik holda topadilar	Laylining o‘limini ilohiy xabar (Surush) orqali sezib, uning qabilasi tomon keladi va Laylining ruhsiz tanasi oldida jon beradi


“Layli va Majnun” mavzusidagi dostonlarda Layli timsoli tasviriga doir konseptual jadval

Qiyoslanuvchi jihatlar	Nizomiy Ganjaviy. “Layli va Majnun”	Xusrav Dehlaviy. “Majnun va Layli”	Abdurahmon Jomiy. “Layli va Majnun”	Alisher Navoiy. “Layli va Majnun”
Oiladagi o‘rni	Hay qabilasi boshlig‘ining qizi	Hay qabilasi boshlig‘ining qizi	Hay qabilasi boshlig‘ining qizi	Hay qabilasi boshlig‘ining qizi
Bolaligi	Maktab hayoti bilan bog‘liq holda tasvirlangan	Bolaligi tasvirlanmagan	Bolaligi bilan bog‘liq tafsilotlar keltirilmagan, uning tasviri Qaysning 14 yoshidan keyin keltiriladi	Ayrim o‘rinlarda tasvirlanadi
Qaysni ilk bor uchratishi	Qaysni maktabda uchratadi	Qaysni maktabda uchratadi	Uni izlab kelgan Qaysni o‘z qabilasida uchratadi. Ularning qabilasi o‘zaro adovatda edi	Qaysni gulshanda uchratadi
Ka’ba epizodi	–	–	Qabilasi bilan Ka’ba ziyoratiga boradi	–
Turmushga chiqishi bilan bog‘liq holatlar	Bani Asad qabilasidan Ibn Salomga turmushga chiqadi, lekin uni o‘ziga yaqinlashtirmaydi	–	Ka’baga ketayotganida, Saqif qabilasidan bir davlatmand yigit (ismi keltirilmagan) unga oshiq bo‘ladi. Otasining ra’yiga qarshi chiqolmay, unga nikohlanadi, lekin yuzini ochmay, Qaysga sodiq qoladi	Bani Asal qabilasidan Ibn Salomga turmushga chiqadi, lekin to‘y kunida Ibn Salomning tutqanoq kasali qo‘zg‘ab, behush yiqiladi va Layli dashtga chiqib ketadi
O‘limi bilan bog‘liq o‘rinlar	Kuz fasli kelib, xastalanadi va vafot etadi	Majnunning o‘lganligi haqidagi yolg‘on xabarni eshitib, xastalanadi va vafot etadi	Majnunning o‘limini eshitib, xastalanadi va vafot etadi	Ruhiy ahvolida o‘zgarish sodir bo‘ladi, tabiblar uni davolashda ojiz qoladilar, Majnun kelsa, uni huzuriga kiritishlarini so‘rab, vafot etadi

Haqqa yetish yo‘lidagi soliklar – Farhod va Majnun qiyosi




"SAB'AI SAYYOR" DOSTONINING TUZILISHI, HIKOYATLÁR TAHLILI



“SADDI ISKANDARIY”DOSTONINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

“Saddi Iskandariy” dostonining tuzilish tarkibi



“Bahromnoma”lar va ularning tarkibiy tuzilishiga doir konseptual jadval

Qiyoslanuvchi jihatlar	Nizomiy	Xusrav Dehlaviy	Ashraf Marog‘iy	Alisher Navoiy
Doston nomlari	“Haft paykar”	“Hasht behisht”	“Haft avrang”	“Sab’ai sayyor”
Hajmi	4600 bayt	3352 bayt	3775 bayt	5009 bayt
Bosh qahramonlar nomlari	Bahrom va Fitna	Bahrom va Dilorom	Bahrom (kanizak ishtirok etmaydi)	Bahrom va Dilorom
Tarkibiy tuzilishi	Qoliplovchi voqea va unga mazmunan bog‘lanmagan 7 hikoyat	Qoliplovchi voqea bilan birga 8 hikoyat		Qoliplovchi voqea va unga mazmunan bog‘langan 7 hikoyat

Bahrom timsoli tasviriga doir konseptual jadval

Qiyoslanuvchi jihatlar	Firdavsiy	Nizomiy	Xusrav Dehlaviy	Alisher Navoiy
Ov sahnasidagi holat	Bahrom Ozodani otning tuyoqlari ostiga tashlab o‘ldiradi	Bahrom Fitnani o‘ldirishni buyuradi, lekin u tadbir ishlatib, omon qoladi	Bahrom Diloromni jazirama sahroda tashlab ketadi	Bahrom kanizakni uzun sochlari bilan qo‘l oyoqlarini bog‘lab, sahroga tashlab ketadi
Ovdan keyingi holat	-	Bahrom Fitnadan uzr so‘rab, unga uylanadi	Bahrom Diloromni o‘z saroyiga olib ketadi	Bahrom Diloromni yo‘qotgach, haqiqiy oshiqlik sifatlariga ega bo‘ladi
Keyingi taqdiri	-	Bahrom ovga chiqib, bir kiyikning orqasidan g‘orga kirib ketadi va qaytib chiqmaydi. Mulozimlari uni izlab g‘orga kirganlarida: “Orqangizga qaytib ketavering, shohlaringiz qaytib chiqmaydi, u ish bilan band” degan ovoz eshitiladi.	Bahrom ov vaqtida kiyikni quvib ketayotganida quduqqa tushib, g‘oyib bo‘ladi. Mulozimlari uni qancha qidirsalar-da, topa olmaydilar.	Bahrom Dilorom va saroy ahli bilan ovga chiqib, botqoqlikka g‘arq bo‘ladi

Dilorom timsoli tasviriga doir konseptual jadval

Qiyoslanuvchi jihatlar	Firdavsiy	Nizomiy	Xusrav Dehlaviy	Alisher Navoiy
Kanizakning ismi	Ozoda	Fitna	Dilorom	Dilorom
Ov sahnasidagi holat	Bahrom Ozodani otning tuyoqlari ostiga tashlab o‘ldiradi	Bahrom Fitnani o‘ldirishni buyuradi, lekin u tadbir ishlatib, omon qoladi	Bahrom Diloromni jazirama sahroda tashlab ketadi	Uzun sochlari bilan qo‘l oyoqlarini bog‘lab, sahroga tashlab ketadi
Ovdan keyingi holat	-	Bahrom Fitnadan uzr so‘rab, unga uylanadi	Bahrom Diloromni o‘z saroyiga olib ketadi	Bahrom Diloromni yo‘qotgach, haqiqiy oshiqlik sifatlariga ega bo‘ladi
Keyingi taqdiri	-	Saroyda qoladi	Saroyda qoladi	Bahrom bilan ovga chiqib, botqoqlikka g‘arq bo‘ladi

Hikoyatlar qiyosiga doir konseptual jadval

Qiyoslanuvchi jihatlar	Nizomiy	Xusrav Dehlaviy	Ashraf Marog'iy	Alisher Navoiy
1-hikoyat, shanba kuni, qora qasr	Furak ismli Kashmir malikasidan "Qora libos kiygan shoh" haqidagi hikoyat	"Sarandib shohi va uning uch oqil o'g'li" bilan bog'liq hikoyat	"Hindiston malikzodasi va uning do'sti" haqidagi hikoyat	Hindistonlik sayyohdan "Farrux va Axiy" haqidagi hikoyat
2-hikoyat, yakshanba kuni, sariq qasr	Turk malikasi Yag'monozdan "Iroqlik kanizakfurush podshoh va uning go'zal kanizagi" haqidagi hikoyat	"Usta Hasan zargar" haqidagi hikoyat	"Solim va Salim ismli ikki do'st" haqidagi hikoyat	Rumlik sayyohdan "Zargar Zayd Zahhob" haqidagi hikoyat
3-hikoyat, dushanba kuni, yashil qasr	Nozpari ismli malikadan "Diyonatli Bishr va maqtanchoq Maliha" haqidagi hikoyat	"Hindistonlik mehmondo'st podshoh va uning diyonatsiz vaziri" haqidagi hikoyat	"Misrlik taqvodor va uning Shahzoda ismli o'g'li" haqidagi hikoyat	Misrlik sayyohdan "Sa'd hikoyati"
4-hikoyat, seshanba kuni, qizil qasr	Slavyan podshosining qizi Nasrinnushdan "Slavyan podshosining qizi va uning oshiqlari" haqidagi hikoyat	"Multonlik shahar hokimi va qizil libos kiygan qiz" haqidagi hikoyat	"Xitoylik hokim va uning Navjahon ismli xizmatkori" haqidagi hikoyat	"Shoh Juna va uning do'sti Mas'ud" haqidagi hikoyat
5-hikoyat, chorshanba kuni, moviy qasr	Beshinchi iqlim shohining qizi Ozariyundan "Misrlik Mohin ismli savdogarning boshidan kechirgan sarguzashtlari" haqidagi hikoyat	"Rumlik savdogar va uning qiziqqon o'g'li" haqidagi hikoyat	"Farg'ona go'zalidan misrlik podshoh va uning ovparast o'g'li" haqidagi hikoyat	"Mehr va Suhayl" haqidagi hikoyat
6-hikoyat, payshanba kuni, sandal qasr	Chin malikasi Humoydan "Xayr va Sharr" haqidagi hikoyat	"Yamanlik podsho va uning tuhmatga uchragan Rom ismli o'g'li" haqidagi hikoyat	"Uch musofir yigit va ularning keksa hamrohi" haqidagi hikoyat	"Muqbil va Mudbir" haqidagi hikoyat
7-hikoyat, juma kuni, oq qasr	Eron malikasi Durustiydan "Olim va oshiq yigit" haqidagi hikoyat	"Podshoh va uning to'rt xotini" haqidagi hikoyat	"Eronlik Xoja ismli olim va uning go'zal xotini" haqidagi hikoyat	"Xorazmlik musofir hikoyati» (Dilorom haqidagi hikoyat)


“Saddi Iskandariy” dostonining asosiy qismi kompozitsiyasi

№	Iskandar voqeasi *(Iskandar hayoti bilan bog‘liq voqealar)*	Nazariy masala *(muayyan axloqiy muammoning ta’rifi)*	Hikoyat *(mazkur masalaga oid hikoyat)*	Hikmat *(Arastu va Iskandar (ba’zan boshqa hakimlar) suhbati)*
1	**XV bob** – Iskandarning otasi Faylaqusning dunyodan o’tgani va taxtni Iskandar egallagani haqida	**XVI bob** – Himmat humoyining balandparvozligi ta’rifida	**XVII bob** – Iskandar bilan gadolik yo’lini tutgan podshoh yoki chindan ham podshohlikka yetgan gado hikoyati	**XVIII bob** – Iskandarning Arastuga savoli: “Maqsadga qaysi manzil yaqinroq?”
2	**XIX bob** – Iskandarning saltanat tojidan bosh, shohlik taxtidan esa oyoq tortgani xususida	**XX bob** – Adolat bulog’i ta’rifida	**XXI bob** – Mahmud G’aznaviy hikoyati	**XXII bob** – Iskandarning Arastuga savoli: “Adolat natijasida qanday ishlarni amalga oshirish mumkin?”
3	**XXIII bob** – Iskandarning keng miqyosda olib borgan ishlarining qisqacha bayoni (Dorodan elchi kelishi)	**XXIV bob** – Muxolifat – kelishmovchilik haqida	**XXV bob** – Ikki jahongir: Chingizxon va Xorazmshoh urushi haqidagi hikoyat	**XXVI bob** – Iskandarning Arastuga savoli: “Noahilchilik va urushga qarshi hamma uchun maqbul va foydali ish topiladimi?”
4	**XXVII bob** – Doroning Iskandar mamlakati tomon yurishi haqida	**XXVIII bob** –Shohlikning tartib-qoidalari haqida	**XXIX bob** – Sulton Abu Said Ko‘ragon hikoyati	**XXX bob** – Iskandarning Arastuga savoli: “Fikr egasi aql ishlatib, pokiza ish yuzidan niqob ochgandan keyin nega uning visolidan bahra topmaydi?”
5	**XXXI bob** – Iskandarning Doro mamlakatiga bosh bo’lgani, dunyodagi boshqa mamlakatlar podsholariga elchi yuborgani haqida	**XXXII bob** – Qish ta’rifida	**XXXIII bob** – Majnun hikoyati	**XXXIV bob** – Iskandarning Arastuga savoli: “Qish faslida sovuqning qattiqligidan va yog‘ingarchilikning ko‘pligidan odamlar qiynaladilar, lekin shunga qaramay, nega xalqning tabiati unga tolib va rog’ibdir?”
6	**XXXV bob** – Iskandar jahongirlik yurushlarining boshlanishi; Hirotni barpo etib, Samarqandning tarhini tuzgani haqida	**XXXVI bob** – Jahon allomalarining dunyo kezishi haqida	**XXXVII bob** – Ikki do’st hikoyati (birining safar qilib, mamlakatga podshoh bo‘lgani, ikkinchisining unga vazir bo’lgani xususida)	**XXXVIII bob** – Iskandarning Arastuga savoli: “Modomiki safar qilish mashaqqatli ish ekan, hikmat ahllari nechun bunga ruxsat eturlar?”
7	**XXXIX bob** – Iskandarning Kashmir shahridagi sarguzashtlari haqida	**XL bob** – Yoshlik yelinng sabohati – go‘zalligi haqida	**XLI bob** – G’ofil yigit hikoyati	**XLII bob** – Iskandarnig Arastuga savoli: “Kishi tabiati yigitlikda nechun mehnatdan nafratlanadi va qarilikda miyada aql kamayadi?”
8	**XLIII bob** – Iskandarning Kashmirdan Hindistonga safari, Nigor o‘rmoni vasfi haqida	**XLIV bob** – Afv etish fazilati haqida	**XLV bob** – Savdogar hikoyati	**XLVI bob** – Iskandarning Arastuga savoli: “Har bir ishning yaxshi va yomonligiga qarab mukofot yo jazo bordir, buning hikmati nimada?”
9	**XLVII–XLVIII boblar** – Iskandarning Chin mamlakatiga yurishi, Chin xoqonining Iskandar huzuriga elchi qiyofasida borgani haqida	**XLXIX bob** –To’g’rilik haqida	**L bob** – Ardasher hikoyati	**LI bob** – Iskandarning Arastuga savoli: “To’gri fikrlashning mavqe’i qanaqa-yu, xatoning kishi uchun nuqsonligiga sabab nima?”
10	**LII bob** – Chin xoqonining Iskandarni ziyofatga taklif qilgani to’g’risida	**LIII bob** – Mehmonni o’z tabiatiga mos tarzda kutish haqida	**LIV bob** – Bahrom Go’r hikoyati	**LV bob** – Iskandarning Arastuga savoli: “Ziyofat dasturxonini qanday yozish yaxshiroqdir va birovning ko’nglini olish uchun mehmondorchilikni qanday tashkil qilmoq tahsinga loyiqdir?”


11	**LXVI bob** – Iskandarning olam va falakkiyot sirlarini o'rganishi xususida	**LXVII bob** –Yigitlik bahorining xushligi va bahor yigitligining dilkashligi haqida	**LVIII bob** – Bulbul hikoyati	**LIX bob** – Iskandarning Arastuga savoli: "Insonlarning bahor tabiatiga va gullarga ishqiboz bo'lmog'i nimadan? "
12	**LX bob** – Iskandarning muhabbati tasviri hamda Mag'rib sarguzashtlari	**LXI bob** – Basirat (aql-idrok, tafakkur) ko'zlari bayoni	**LXII bob** – Baliqlar hikoyati	**LXIII bob** – Iskandarning Arastuga savoli: "Modomiki inson fahmi maqsadning asl va to'liq haqiqatini idrok qilishdan ojiz ekan, uning o'zga maxluqotlardan ne farqi qoladi?"
13	**LXIV bob** – Iskandarning chumolilar bilan urushi	**LXV bob** – Hajr shominng qorong'iligi ta'rifida	**LXVI bob** – Majnun hikoyati	**LXVII bob** – Iskandarning Arastuga savoli: "Yolg'izlik erkin bo'lish imkonini beradi, ko'pchilik esa parishonlikning boisi bo'ladi, shunga qaramay, hijronni hech kim yoqtirmaydi-yu, vaslni hamma yaxshi ko'radi. Buning sababi nima?"
14	**LXVIII bob** – Iskandarning Rumga qo'shin tortgani, Qirvon xalqini ya'juj-ma'jujlardan himoya qilib, sadd – devor qurdirgani haqida	**LXIX bob** – Bu damni g'animat bilish to'g'risida	**LXX bob** – Kabutar hikoyati	**LXXI bob** – Iskandarning Arastuga savoli: "Nechun kishining tabiati o'z vatanida yashash va o'rgangan maskanda orom olishni istaydi?"
15	**LXXII bob** – Iskandarning uch ming dona kema qurdirib, dengiz fathiga otlangani haqida	**LXXIII bob** – Iskandarning dengiz haqida olimlardan so'ragani va Suqrotning sharhlari bayonida	**LXXIV bob** – Mashriqda ganj topgan kishi hikoyati	**LXXV bob** – Iskandarning Suqrotga savoli: "Kurrayi arzni boshdan-oyoq suv ihota qilmog'ining hikmati nimada?"
16	**LXXVI bob** – Iskandarning Muhit (ummon) markaziga yetgani haqida	**LXXVII bob** – Jahon bazmi soqiylarining hayosizligi va umr bog'ining bog'bonlari haqida	**LXXVIII bob** – Luqmon hikoyati	**LXXIX bob** – Bir kishining Luqmoni hakimga savoli: "Bunchalik ilm egasi bo'lishingga kim sababchidir?"
17	**LXXX bob** – Iskandarning o'limi oldidan onasiga maktub yozib, o'z o'limi uchun aza tutishni man' etgani to'g'risida	**LXXXI bob** – Yetti hakimning Iskandar onasiga ta'ziya bildirganlari haqida	**LXXXII bob** – Bilagi kesilgan odam hikoyati	**LXXXIII bob** – Savol: "Ikki hamdard bir-birlariga nima sababdan ulfat bo'ladilar?"

“LISON UT-TAYR”-IRFONIY DOSTON NAMUNASI SIFATIDA

“Lison ut-tayr” dostonining tarkibiy tuzilishi



Hudhud boshchiligidagi qushlar bosib o‘tgan yetti vodiy tavsifi



ALISHER NAVOIYNING ILMIY MEROSI

Adabiyotshunoslik va tilshunoslikka doir asarlari

Adabiyotshunoslik asarlari

"Mufradot", (1485)

- Fors tilida yozilgan bo'lib, muammo janriga bag'ishlangan
- Janrga oid kamchiliklar yoritilib, bartaraf etish yo'llari ko'rsatilgan
- Kirish qismida asar yosh avlodga muammoni o'rgatish uchun yozilganligi aytilgan
- Muammo amallari 3 qismga ajratilgan:
  1) a'moli tahsiliy – hosil qilish amallari
  2) a'moli takmiliy – mukammallashtirish amallari
  3) a'moli tasxiliy – osonlashtirish amallari
- 121 muammoning yechish usullari ko'rsatilgan

"Majolis un-nafois", (1491–98) XV asrda yashab ijod etgan 459 shoir haqida ma'lumot berilgan

Majlislar raqami	Shoirlar adadi
1	46
2	91
3	175
4	72
5	21
6	31
7	22
8	Husayn Boyqaroga bag'ishlangan

"Mezon ul-avzon", (1492–93)

- Navoiy bu asarini turkiy tildagi aruzga oid ilk asar deb hisoblaydi. Chunki Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asaridan bexabar bo'lgan
- Hamd va na'tdan so'ng ushbu asarni yozishga H.Boyqaro ilhomlantirganligi aytiladi


Tilshunoslik asari

"Muhokamat ul-lug'atayn" (1499)


- O'z "Xamsa"siga asos bo'lgan manbalar to'g'risida ma'lumot
- **Tillarning kelib chiqishi bilan bog'liq qarashlar.** "Asl va mo'tabat tillar": turkiy (Yofas), forsiy (Som), hind (Hom) tillari
- Forsiy (sort) va turkiy tillar qiyosi (forsiy tilda muqobili bo'lmagan 100 turkiy fe'l, tuyuq va iyhom san'ati bilan bog'liq turkiy til imkoniyatlari va hokazo


Turkiy she'riyatning sust rivojlanish sabablari:

1) turkiy shoirlar ona tilining murakkab va nozikligini bildiruvchi so'zlarni qo'llash mashaqqatidan cho'chib, osonlik sari mayl ko'rsatadilar;
2) ba'zi turkiy shoirlar o'z zamonidagi hukmron an'ana va adabiy rasm-rusumlardan chetga chiqishni xohlamay, shu doirada qolishni ma'qul ko'radilar;
3) yosh ijodkorlar o'z yozgan she'rlarini tajribali forsigo'y ijodkorlar e'tirofini qozonish uchun forsiy tilda yozadilar.


Navoiyning tarixiy asarlari
"Tarixi anbiyo va hukamo" asari payg'ambarlar tarixiga oid bo'lib, bosh manba Qur'on va hadis qissalaridir. Asar shartli ravishda ikki qismga bo'linadi.
"Tarixi muluki ajam" – arab bo'lmagan shohlar tarixiga bag'ishlangan bo'lib, Eron va Turonda hukmdorlik qilgan quyidagi 4 sulolaning 63 hukmdori (shulardan 3 nafari ayol) tarixidan hikoya qiladi. "Muhokamatu-l-lug'atayn"da ijodkor bu asarni "Zubdatu-t-tavorix" ("Tarixlar qaymog'i") nomi bilan eslaydi.
1.Anbiyolar tarixi. 60 dan ziyod payg'ambar tarixi berilgan. Shuningdek, Qur'onda qissasi keltirilgan Ashobi kahf (G'ordagi suhbatdoshlar) qissasi va boshqa islomga aloqador ko'plab hikoyatlar ham mavjud.
2.Hukamolar tarixi. Yunon va forslarning 13 nafar allomasi haqida to'xtaladi. Asarda tugallanish mazmuni sezilmaydi.
Peshdodiylar (11 shoh tarixi)
Kayoniylar (9 hukmdor tarixi)
Ashkoniylar (15 podshoh)
Sosoniylar (28 hukmdor)
Akademik A.Qayumovning fikricha, bu ikki asar Navoiyning Husayn Boyqaro haqida yozmoqchi bo'lgan asarining ilk bo'laklaridir. Haqiqatan, ikkala asarda ham maxsus muqaddima va tugallanma mavjud emas. Bu esa an'anaviy tugal asarga xos hisoblanmaydi. Navoiy "Tarixi muluki ajam"ning so'ngida Husayn Boyqaro tarixini yozishga kirishmoqchi ekanligini aytadi.

Alisher Navoiyning diniy va tasavvufiy asarlari





Navoiyning insho janridagi asari

"Munshaot" asari Navoiyning turli yillarda ko'plab shaxslarga yo'llagan turli mavzudagi maktublar to'plami bo'lib, ular 107 tani tashkil etadi. Maktub yozish Musulmon Sharqida san'at darajasida bo'lganligi uchun shoir turkiy tilda maktub yozish imkoniyatini ko'rsatish uchun o'zi yozgan xatlarni shu tarzda to'plagan. Asarda maktublar uch usulda bitilgan: 1) *murofia* usulida bitilgan maktublar (maktub bituvchidan obro'- e'tibori va jamiyatdagi mavqei baland bo'lgan kishiga yo'llangan bitiklar); 2) *murosala* yo'sinida bitilgan maktublar (darajasi maktub muallifi bilan teng kishiga bitilgan xatlar); 3) *riqo'* yo'sinidagi maktublar (jamiyatdagi mavqei va nasabi jihatidan maktub bituvchidan quyi turuvchi shaxsga yuborilgan maktublar).

“Mahbub ul-qulub” (1500)

1-qism. *“Xaloyiq ahvol va af’ol va aqvolining kayfiyati”(Xalqning ahvoli, fe’l va so’zlari xususida, 40 fasl). Ijtimoiy tabaqalar:*

1) Odil salotin zikrida;
2) Islompanoh beklar zikrida;
3) Nomunosib noiblar zikrida;
4) Zolim va johil va fosiq podshohlar zikrida;
5) Vuzaro zikrida;
6) Noqobil sadrlar zikrida;
7)Fosiq va badmaosh, bahodirliq lofin urg‘onlar zikrida;
8) Yasovul guruhi zikrida;
9) Yasog‘liq va qaro cherik zikrida;
10) Shoh ulusi o‘ziga mushobih bo‘lur zikrida;
11) Shayx ul-islom zikrida;
12) Quzzot zikrida;
13) Muftiy faqihlar zikrida;
14) Mudarrislar zikrida;
15) Afibbo zikrida;
16) Nazm gulistonining xushnag‘ma qushlari zikrida;
17) Kotiblar zikrida;
18) Dabiriston ahli zikrida;
19) Imomlar zikrida;
20) Muqriylar zikrida;
21) Huffoz zikrida;
22) Mutrib va mug‘anniylar zikrida;
23)Qissasoz va qissaxonlar zikrida;
24)Nasihat ahli va voizlar zikrida;
25)Ahli nujum zikrida;
26) Tijorat ahli zikrida;
27) Shaharda olib sotquvchilar zikrida;
28) Bozor kosiblari zikrida;
29) Soyir hunarvar va san’atpardozlar zikrida;
30) Shahna va zindoniy va asaslar zikrida;
31) Dehqonlik zikrida;
32) Yatim va laimlar zikrida;
33) G‘arib va benavolar zikrida;
34) Mutbrim gadolar zikrida;
35) Qushchi va sayyod zikrida;
36) Tarbiyat topib, haromnamaklik qilg‘on navkarlar zikrida;
37) Kaduxudolig‘ sifati va xotunlar zikrida;
38) Riyoiy shayxlar zikrida;
39) Xarobot ahli zikrida;
40) Darveshlar zikrida.

2-qism. *“Hamida af’ol va zamima xisol xosiyatida” (Maqtovga loyiq axloq va yomon xislatlar haqida, 10 fasl). Har bir axloqiy fazilat hikoyat bilan dalillangan.*

T.r.	Axloqiy fazilat nomi	Hikoyat
1.	Tavba	Shayx Abdulloh Muborak haqida
2.	Zuhd	Mavlono Shamsuddin Muiddi haqida
3.	Tavakkul	Shayx Ibrohim Sitnaba haqida
4.	Qanoat	Shayx Shoh Ziyoratgohiy haqida
5.	Sabr	Tuhmat bilan zindonband qilingan kishi haqida
6.	Tavozu’ va adab	Muqbil va Mudbir haqida
7.	Zikr	Xoja Abdulloh Ansoriy haqida
8.	Tavajjuh	Bir devonaning shahzodaga oshiqligi haqida
9.	Rizo	Ali ibn Abu Tolib haqida
10.	Ishq: 1) avom ishqi; 2) xoslar ishqi; 3) siddiqlar ishqi	1) - 2) Majnunning ishqi haqida 3) Haj safariga chiqqan shayxlar haqida

3-qism. *“Mutafarriqa favoyid va amsol surati” (Turli foydali o‘gitlar va masallar)*

127 ta tanbeh keltirilgan. Tanbehlar takabburlik, manmanlik, saxovat, himmat, karam, futuvvat, muruvvat, vafo, hayo, hilm, safarning foydalari va boshqa .ko‘plab insoniy xislatlar ta’rifini o‘z ichiga oladi.

Tanbehlardan namunalar:

- Baxil behishtqa kirmas agar sayyidi Qurashiy bo‘lsun va saxiy tamug‘i bormas, agarchi bandai habashiy bo‘lsun.
- Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q. Har kimda bu ikki yo‘q — imon yo‘q va har kimda imon yo‘q, andin umid ko‘zin yorutsa bo‘lmas.
- Har nekim, bebaqodur, anga ko‘ngul bog‘lamoq xatodur.
- Fosiq olim donishvaredur o‘z nafsig‘a zolim, g‘aniyi baxil nodonedur, o‘z ziyonig‘a nadim. Bu ikki kishi umr zoye‘ o‘tkardilar va go‘rga hasrat va armon olib bordilar. Bir ulkim, ilm o‘rganurga ranj torttiyu amal qilmadi, bir ulkim, mol yig‘arg‘a emgak chektiyu sarf qilurin bilmadi.
- Agar badnafsdin zulm yetsa, shukr vojib bila va tengri hamdin ado qilkim, sen emassen lozim, gar biz ul emasdur mazlum va ojiz. Mazhumluq ibtilosida bo‘lg‘on yaxshiroqkim, zolimliq balosida.
- Chin so‘z – mo‘‘tabar, yaxshi so‘z – muxtasar.
- Xiradmand uldurkim, yolg‘on demas, ammo barcha chin deguluk ham emas.
- Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim va orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.
- Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur.
- O‘zi poku ko‘zi pokni inson desa bo‘lur. Tili arig‘ va ko‘ngli arig‘ni musulmon desa bo‘lur.
- Sihhat tilasang ko‘p ema, izzat tilasang ko‘p dema.
- Oz degan – oz engilur, oz egan – oz yiqilur.

Navoiyga nisbat beriluvchi asarlar


"Sab'at abhur" ("Yetti dengiz") – arab tili lug'atshunosligiga bag'ishlangan asar. Mazkur mavzuda tadqiqot olib borgan olim B.Hasanov fikriga ko'ra, Navoiy qalamiga mansub. B.Hasanov o'z fikrini dalillashda asarning kirish va xotima qismida kotib Ahmad ibn Ali Damashqiy Maniniy keltirgan quyidagi fikrlarni asos qilib oladi: "*Bu vaqt va zamon yagonasi Xuroson ufqida porlagan quyosh Mir Alisher Navoiy tartibi, ta'lifi, yaxshilanishi va tasnifi ustida zahmat chekkan "Sab'at abhur" musavvadasidan topilgan narsalarning so'nggidir".*


Asarga Javhariyning "Sahoh" izohli lug'ati; Sog'oniyning "Takmila" lug'ati; Zamaxshariyning "Kashshof" (Qur'on tafsiriga oid) asari; Ibn Hojibning grammatikaga oid "Mufassal" ikkita muqaddima va sharhlari; "G'aroyib ul-hadis" hadis so'zlariga tuzilgan lug'atlar hamda turli mualliflari, devon, risola va boshqa asarlarning sharhlari ("Zavoyid") kabi 7 manba asos bo'lgani uchun shunday nomlangan.

"Sab'at abhur"ning tarkibiy tuzilishi asosiga o'zak tizimi (fleksiya) qo'yilgan. O'zaklar oxirgi harfiga ko'ra alifbo tartibida 28 bobga ajratilgan. "Sab'at abhur" o'z ichiga **8609** lug'at maqolani kiritgan bo'lib, undagi leksikaning asosiy qismini uch harfli o'zaklar tashkil qiladi (6451 lug'at maqola). Miqdor jihatdan ikkinchi o'rinni to'rt harfli o'zaklar egallaydi (2056 ta). Uchinchi o'rinda besh harfli o'zaklar turadi (94 lug'at maqola). Arab tiliga chetdan kirgan kam iste'moldagi so'zlar olti (1 lug'at maqola) va yetti harfli (2 lug'at maqola) so'zlardir.

"Risolai tiyr andoxtan" ("Kamondan o'q otish fazilatlari") tirandozlik – kamonchilik fazilatiga bag'ishlangan hajman kichik asar, 7 hadis va rivoyatni o'z ichiga oladi. Mazkur asar ustida izlanish olib borgan Y.E. Bertels, A.Semyonov, S.G'aniyevaning fikrlariga ko'ra, asar Alisher Navoiy qalamiga mansub. Risola hajman kichik bo'lib, unda kamondan o'q uzishning savobli amal ekanini asoslashga e'tibor qaratilgan. Asardagi har bir fikr diniy dalillar – hadis va rivoyatlar asosida izohlangani bilan alohida xarakterlanadi.


NAVOIY POETIKASI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT





Ilmi balog‘a
Ilmi maoniy – sintaktik stilistikada grammatik va sintaktik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan gapning sharoit taqozosiga mos bo‘lish usullarini o‘rganuvchi ilm. Iyjoz (fikrni qisqa va lo‘nda ifodalash), itnob (fikrni ko‘p so‘zlar vositasida ifodalash) va musavva (so‘z va ma’no tengligi) usullari muhim ahamiyat kasb etadi.
Ilmi bayon – fikrni tashbih, istiora va kinoya vositasida bayon qilishga asoslangan ilm. Qur’oni karimning nozik o‘rinlarini sharhlashga ehtiyoj tufayli vujudga kelgan bo‘lib, ilmi balog‘aning dastlabki bosqichi sifatida e’tirof etiladi.
Ilmi badi’ – badiiy san’atlar haqidagi ilm. Ilk bosqichida tashbih, istiora va kinoyadan tashqari qolgan barcha san’atlarni o‘z ichiga olgan.

ADABIY ILMLAR

(Muhammad G'iyosuddin tasnifi)




ilmi aruz – she'rdagi vaznlar va ularning qonun-qoidalari haqida bahs yurituvchi soha.
Ilmlar uchligi
ilmi qofiya – qofiya qonuniyatlari va turlari haqida ma'lumot beruvchi soha.
ilmi badi' – nutqqa bezak beruvchi san'atlar, ularning o'ziga xos jihatlari, fikrni go'zal va mazmunli ifodalash. usullarini o'rganuvchi soha

Alisher Navoiyning turkiy devonlaridagi she'riy janrlar miqdori

№	She'riy janrlar	"Ilk devon" (1465-66)	"Oqquyunli muxlislar devoni" (1471)	"Badoyi' ul-bidoya" (1470-80)	"Navodir un-nihoya" (Sultonali Mashhadiy nusxasi asosida, 1487-90)	"Xazoyin ul-maoniy" (1492-98)
1	G'azal	391	224	777	628	2600
2	Mustazod	1	1	3	3	4
3	Muxammas	1	3	5		10
4	Musaddas			2		5
5	Musamman					1
6	Tarji'band		1	3	3	4
7	Tarkibband					1
8	Masnaviy					1
9	Qasida					1
10	Soqiynoma					1
11	Qit'a			46	5	210
12	Ruboiy	41		85	46	133
13	Muammo			52	6	52
14	Lug'z			10	1	10
15	Tuyuq			10	1	13
16	Fard			53		86
	Jami	434	229	1046	693	3132

Alisher Navoiy g‘azallarining shartli mavzusi

№	G’azal mavzusi	Misollar
1.	Hamd g‘azallar:	*Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo,* *Yuzung quyoshig‘a zarroti kavn o‘lub shaydo.*
2.	Na’t g‘azallar:	*Ey nubuvvat xaylig‘a xotam bani Odam aro,* *Gar alar xotam, sen ul otkim, erur xotam aro.*
3.	Oshiqona yoki ishqiy mavzudagi g‘azallar:	*Tun oqshom bo‘ldi-yu kelmas mening sham’i shabistonim,* *Bu anduho‘tidin har dam kuyar parvonadek jonim*
4.	Orifona yoki tasavvufiy-falsafiy mavzudagi g‘azallar:	*Dema, ne sud erur o‘lmoq fano harimig‘a xos,* *Yana ne sud kerak o‘zlugungdin etsa xalos.*
5.	Axloqiy-ta’limiy mavzudagi g‘azallar:	*Sen o‘z xulqungni tuzgil, bo‘lma el axloqidin xursand,* *Kishiga chun kishi farzandi hargiz bo‘lmadi farzand.*
6.	Ijtimoiy mavzudagi g‘azallar:	*Topmadim ahli zamon ichra bir andoq hamdame* *Kim, zamon osibidin bir-birga aytishsoqg‘ame.*
7.	Rindona g‘azallar:	*Soqiyo, tut bodakim, bir lahza o‘zumdin boray,* *Shart bukim, har necha tutsang labolab sipqoray.*
8.	Tabiat tasviri aks etgan g‘azallar:	*Bulut hayvon zuloli birla tirguzdi havo jonin,* *Sevunmak ashkidin shodob qildi sabza mujgonin.*
9.	Hajviy mavzudagi g‘azallar:	*Ul shayxki, minbar uza afsung‘a berur tul,* *Shaytondur o‘zi, majlisining ahli suruk g‘ul.*

Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy"dagi g'azallari baytlari miqdori tasnifi

Baytlar soni	*"G'aroyib us-sig'ar" devonida*	*"Navodir ush-shabob" devonida*	*"Badoyi' ul-vasat" devonida*	*"Favoyid ul-kibar" devonida*	*Hammasi*
5	2	-	-	-	2
6	1	3	1	-	5
7	434	446	437	430	1747
8	30	8	8	12	58
9	163	162	187	183	695
10	8	7	1	3	19
11	11	23	14	20	69
12	-	-	1	-	1
13	1	1	1	2	5
	650	**650**	**650**	**650**	**2600**

"Xazoyin ul-maoniy" janrlari ta'rifi

G'azal – ar. "oshiqona so'z", "ishq izhor qilish", *a-a, b-a, s-a, d-a…* tarzida qofiyalanuvchi, 3 baytdan 19 baytgacha hajmli, baytli she'r shakli. O'zbek adabiyotida 5 baytdan 10 baytgacha bo'lgan. **G'.** ko'p uchraydi. Navoiyda **G'.** asosan 7 baytdan 13 baytgacha hajmda. **G'.** dastlabki namunalari VIII-IX asrlarda arab adabiyotida paydo bo'lgan, fors-tojik adabiyotida ilk **G'.** yozgan shoir sifatida Rudakiy tilga olinadi. O'zbek adabiyotida esa dastlabki **G'.** Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida (14 asr) uchraydi. **G'.**ning dostonlar tarkibida uchrashi ilk bor Xorazmiyning "Muhabbatnoma"sidan (1353-54) boshlanadi. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida eng ko'p qo'llanilgan janr **G'.**dir (2600 ta) . Alisher Navoiy o'zining qit'alaridan birida g'azaldagi ustozlari sifatida fors-tojik shoirlari Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Hofiz Sherozivni keltirib o'tadi.

Mustazod – ar. "orttirilgan", "ziyoda qilingan", har misrasi 1,5 qatordan iborat she'r shakli. **M.** uchun g'azal asos – zamin vazifasini o'tagan. Ikkala janrning qofiyalanish tizimi, baytlar soni, matla' va maqta', taxallusning mavjudligi bu fikrni isbotlaydi. Lekin g'azal aruz tizimining barcha bahrlarida yaratilgani holda **M.** faqat hazaj bahrining *hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod* (ruknlari va taqti'i: maf'ulu mafoiylu mafoiylu fauvlun maf'ulu fauvlun – – V / V – – V / V – – V / V – – / – – V / V – –) vaznida yoziladi. Turkiy adabiyotda Navoiygacha **M.** janri Hofiz Xorazmiy ijodida uchraydi. Uning devonida har biri 7 baytdan iborat ikkita **M.** uchraydi. "Xazoyin ul-maoniy"ga 4 ta mustazod kiritilgan bo'lib, 1-devonga hamd mazmunidagi, 2-devonga rindona, 3-devonga oshiqona va 4-devonga orifona mazmundagi mustazod kiritilgan.


Baytli she'riy janrlar

Qasida – ar. "maqsad", "niyat" ma'nolarini bildirib, biror tarixiy shaxs yoki voqeaga bag'ishlab yoziladigan katta hajmli she'r turi hisoblanadi. **Q.** hajman 12 baytdan bir necha yuz baytgacha bo'lishi mumkin. **Q.** g'azal singari *a-a, b-a, s-a, d-a …* tarzida qofiyalanadi. Ayrim hollarda masnaviy singari qofiyalanishi ham mumkin. **Q.** tuzilishiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

1. **Qasidai tom (to'liq Q.)** – bunda **Q.** to'rt qismdan tarkib topadi: *1)* ***nasib*** *– lirik kirish (tabiat tasviri); 2)* ***gurizgoh*** *– nasib bilan madhni bog'lovchi, 4-5 baytdan tashkil topuvchi qism; 3)****madh*** *– asosiy qism; 4)* ***qasd*** *– mamduh (madh etilayotgan shaxs)ga niyat va istaklar bildirilagan qism.*
2. **Qasidai mujarrada (chala Q.)** – bunda faqat madh keltiriladi.

Q. mavzusiga ko'ra *vasf, madh, hajv, marsiya, munojot* va *falsafiy* qasidalarga bo'linadi. Turkiy adabiyotdagi ilk **Q.** "Devoni lug'oti-t-turk"da "qo'nug'" shaklida uchraydi.

Alisher Navoiyning "Hiloliya" qasidasi kulliyotdagi 3-devon "Badoyi' ul-vasat"dan o'rin olgan. Hajman 91 baytdan iborat.


Kichik lirik janrlar
Qit'a – ar. "parcha", "bo'lak", "qism" – 2 baytdan bir necha baytgacha hajmda bo'lgan, faqat juft misralari qofiyalanadigan (ba , sa, da ...) baytli she'r shakli. Turkiy adabiyotda Q.ning ilk namunalari Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida uchraydi. "Xazoyin ul-maoniy"da 210 ta Qit'a mavjud bo'lib, ularni mavzusiga ko'ra shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:
1) ijtimoiy hayot masalalari aks etgan falsafiy axloqiy mazmundagi Q.;
2) zamondosh davr voqea hodisalari hamda u yoki bu guruh vakillari faoliyati haqidagi Q.
Muammo – ar. "ko'r qilingan", "berkitilgan" — bir, ba'zan esa ikki baytdan iborat mustaqil she'r bo'lib, a-a yoki a-b tarzida qofiyalanadi. M.da biror ism yoki narsa-buyum nomi berkitiladi. Berkitilgan so'z shoirning turli tuman ishoralari: ma'nodosh yoki shakldosh so'zlarni topish, bir tildagi so'zning ikkinchi bir tildagi muodili (ekvivalenti)ni qo'llash, so'zlardagi ma'lum bir harflarni tizib, yangi so'z yasash, ba'zan esa abjad hisobini ishlatib, raqamlar asosida so'z tuzish va boshqalar asosida topiladi. M.ni yechish uchun dastavval asosiy e'tiborni matnda ishora qilingan kalit so'zga qaratish lozim bo'ladi. Turkiy adabiyotda M. janri Navoiy ijodidan boshlangan. Uning kulliyotida jami 52 ta M. mavjud.
Lug'z – ar. "topishmoq", "sir" ma'nolarini anglatadi. L. fors-tojik adabiyotida chiston (forscha "nima u") deb ham yuritiladi. L. biror predmet yoki hodisaning xarakter va belgilarini ta'rif-tavsif etish orqali kitobxonni o'sha predmet yoki hodisani topishga undaydigan she'r turidir. L. dastavval xalq og'zaki ijodida vujudga kelgan bo'lib, X-XII asrlardan boshlab fors-tojik she'riyatida istifoda etila boshlagan. L. g'azal, ruboiy va tuyuq kabi hajm, qofiya va boshqa shakliy jihatlardan qat'iy qonuniyatga ega emas. Ular fard, ruboiy, qit'a va ba'zan g'azal singari qofiyalanishi mumkin. Turkiy adabiyotda L. ilk namunalari Alisher Navoiy ijodida uchraydi. Uning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida 10 ta L. mavjud.
Fard – ar. "yakka", "yolg'iz" bir baytdangina iborat eng kichik mustaqil she'r shakli hisoblanadi. Fard a-a yoki a-b tarzida qofiyalanadi. Fard bir baytdangina iborat bo'lsa-da, unda muhim falsafiy axloqiy masala qalamga olinib, ixcham poetik xulosa ifodalanadi. Shu ma'noda fardlar ko'pincha aforizm xarakteriga ega bo'ladi. "Xazoyin ul-maoniy"da 86 ta fard mavjud bo'lib, "Favoyid ul-kibar"dan o 'rin olgan.
Ruboiy – ar. "to'rtlik" – ikki baytdan iborat mustaqil she'r bo'lib, dastlab fors tojik she'riyatida, Abu Abdulloh Rudakiy ijodida paydo bo'lgan. R.ning 2 xil turibor:
1) xasiy yoki erkin ruboiy (qofiyalanishi: a-a, b-a)
2) musarra' yoki ziynatlangan ruboiy (qofiyalanishi: a-a, a-a)
"Xazoyin ul-maoniy"da 133 ta ruboiy mavjud.
Tuyuq – turkiycha "his qilmoq", "tuymoq" – to'rt misradan iborat mustaqil she'r shakli bo'lib, faqat turkiy xalqlar she'riyatida qo'llanilgan. T. asosan ruboiy singari qofiyalanadi, lekin ba'zan ba, va tarzida ham qofiyalanishi mumkin. Ruboiydan farqli o'laroq T. da qofiyaning o'rnida asosan tajnis (shakldosh so'zlar) qo'llaniladi. "Xazoyin ul-maoniy"da 13 ta T. mavjud.

Musammatlar


Muxammas – ar. "beshlik", har bandi 5 misradan iborat she'r. M. *a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, s-s-s-s-a* tarzida qofiyalanadi. Yaratilish xususiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) tab'i xud (mustaqil); 2) taxmis (g'azalni beshlantirish asosida yaratilgan). Tab'i xud **M.**da shoir o'zga shoir she'rini asos qilib olmasdan, o'zi mustaqil ravishda beshlik yaratadi. Taxmisda esa muallif o'zga shoir yoki ba'zida (juda kam hollarda) o'z g'azalini asos-zamin qilib olib, shu mavzuni davom ettirgani holda, vazn, qofiya va radifni saqlab qolib beshlik yaratadi. Bunda asos qilib olingan g'azaldagi har baytning yuqori qismiga uch misra qo'shiladi. Maqta' bandda taxmis bog'layotgan shoirning taxallusi ham keltiriladi. Navoiy kulliyotida 10 ta M. mavjud bo'lib, ularning barchasi taxmis shaklidadir.

Musaddas – ar. "oltilik", har bandi 6 misradan iborat she'r hisoblanadi va *a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-a, s-s-s-s-s-a* tarzida qofiyalanadi. **M.** yaratilish xususiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) tab'i xud (mustaqil); 2) tasdis (g'azalni oltilantirish asosida yaratilgan)

"Xazoyin ul-maoniy"dagi 5 ta **M.**dan 2 tasi Lutfiyga, bittasi Husayniyga tasdis bo'lsa, bittasi shoirning o'z g'azaliga tasdis va bittasi shoirning o'z tab'idan yaratilgan **M.**dir.

Musamman – ar. "sakkizlik" ma'nosini bildiradi.

Navoiygacha turkiy she'riyatda **M.** janri faqat Yusuf Amiriy ijodida uchraydi. Kulliyotda bitta **M.** bo'lib, u "Favoyid ul - kibar" devoniga kiritilgan. **M.** *a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-b-a, s-s-s-s-s-s-s-s-a* tarzida qofiyalanib, 7 banddan – jami 56 misradan iborat. "Ey ko'ngul" jumlasi radif bo'lib kelgan. Musamman ishqiy mavzuda: oshiqning yor ozoridan shikoyat qilib, ko'ngilga murojaati tarzida yaratilgan.


Ham bayt, ham bandga asoslangan she'riy janrlar
Masnaviy – ar. "ikkilik" ma'nosini bildirib, har bandi ikki misradan tarkib topuvchi va a-a, b-b, s-s... tarzida qofiyalanuvchi she'r turidir. Navoiy o'zining "Sab'ai sayyor" dostonida bu janrni alohida tavsiflab, uni "vase'" – keng maydon deb ataydi.
Mumtoz adabiyotimiz tarixida yaratilgan M. ni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin:
1) lirik M. (shoirning lirik kechinmalari, his tuyg'ulari ifoda etiladigan she'r shakli);
2) epik M. yoki doston (syujet asosiga quriladigan katta hajmli asar).
Tarji'band – ar. "takrorlab bog'lamoq". Adabiy istiloh sifatida bir necha banddan iborat bo'lib, g'azal singari qofiyalanadigan, birinchi bandning maqta'si qolgan bandlarning so'ngida ham takrorlanadigan she'r turi. Bunda maqta' misralari o'zaro qofiyalanadi.
Turkiy adabiyotda T.ning ilk namunalari Hofiz Xorazmiy ijodida uchraydi. "Xazoyin ul-maoniy"da 4 ta T. bo'lib, har bir devonga bittadan joylashtirilgan. T.larning ikkitasi tasavvufiy-falsafiy, ikkitasi ishqiy mavzuda.
Soqiynoma – soqiy (may quyuvchi)ga murojaat qilib yozilgan, masnaviy shaklida qofiyalanadigan katta hajmli she'r. Bir necha bandni o'z ichiga oladi. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida bitta S. mavjud bo'lib, "Favoyid ul-kibar" devoni tarkibiga kiritilgan. Ushbu S. turli hajmdagi 32 qism(band)dan iborat. Jami 458 baytni o'z ichiga oladi.
Tarkibband – ar. "biriktirib bog'lamoq", qofiyalanish tizimi va hajmiga ko'ra tarji'bandga yaqin turadi. Faqat undan farqli o'laroq, T.da har bandning maqta'si o'zaro qofiyalanuvchi va bir-birini takrorlamaydigan mustaqil baytlardan iborat bo'ladi. Navoiyning tarkibbandi marsiya yo'nalishida bo'lib, ustozi va do'sti Sayyid Hasan Ardasher xotirasiga bag'ishlangan. Mazkur T. "Navodir ush-shabob" devonidan o'rin olgan bo'lib, hajman 56 baytdan iborat.

Alisher Navoiy muxammas va taxmislari

Lutfiyga taxmisning 1-misrasi va u kiritilgan devon	*O‘z g‘azallariga taxmis*	
	Muxammasning 1-misrasi va u kiritilgan devon	*Muxammasga asos bo‘lgan g‘azalning 1-misrasi va u kiritilgan devon*
Halqayi zulfungda ko‘nglum bo‘lg‘ali g‘am mahrami (“G‘aroyib us-sig‘ar”, 1-muxammas)	Ohkim, volih men ul sarvi xiromondin judo (“Navodir ush-shabob”, 2-muxammas)	Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo (“G‘aroyib us-sig‘ar”, 38-g‘azal)
	Bo‘lmag‘ay erdi jamoling muncha zebo koshki (“Navodir ush-shabob”, 3-muxammas)	Ochmag‘ay erding jamoli olam oro koshki (“Navodir ush-shabob”, 625-g‘azal)
	Necha, ey oy, mendin ayru aylagay davron seni (“Badoyi’ ul-vasat”, 2-muxammas)	Kelgil, ey oromijonimkim, tilaydur jon seni (“Favoyid ul-kibar”, 618-g‘azal)
Masnadi husn uzra tokim ko‘rmisham ul shohni (“Navodir ush-shabob”, 1-muxammas)	Ohkim, tarki muhabbat qildi jonon oqibat (“G‘aroyib us-sig‘ar”, 2-muxammas)	Yoshurun dardimni zohir qildi afg‘on oqibat (“Navodir ush-shabob”, 72-g‘azal)
	Jilva qildi dahr aro ko‘p husni bexamto yigit (“Favoyid ul-kibar”, 1-muxammas)	Ko‘nglum oldi bir paripaykar malaksiymo yigit (“G‘aroyib us-sig‘ar”, 80-g‘azal)
Sharbati yuhyil izom erni mayi nobindadur (“Badoyi’ ul-vasat”, 1-muxammas)	Ishq o‘tidin jismi zori notavonim o‘rtading (“G‘aroyib us-sig‘ar”, 3-muxammas)	Vahki, o‘tluq chehra ochib xonumonim o‘rtading (“Navodir ush-shabob”, 354-g‘azal)
	Ko‘rguzub yuz, ko‘ngluma yuz ming jafomu qilmading (“Favoyid ul-kibar”, 2-muxammas)	Ishq o‘tidin qismatim dard-u balomu qilmading (“Badoe’u-l-vasat”, 356-g‘azal)

Alisher Navoiy musaddas va tasdislari

Tab’i xud musaddas	*Lutfiyga tasdis*	*Husayniyga tasdis*	*O‘z g‘azallariga tasdis*	
			Tasdisga asos bo‘lgan g‘azal	*Tasdis*
“Dahr aro chun qayg‘usiz yo‘q hech ishrat, ey rafiq” (“Navodir ush-shabob”, 1-musaddas)	“Jonim o‘rtarga ul o‘tluq chehra gulzori Xalil” (“Badoyi’ ul-vasat”, 1-musaddas)	“Ishq zor etti xaloyiq ibtilosidin meni” (“Badoyi’ ul-vasat”, 2-musaddas)	“Vahki, dinim kishvarin toroj qildi kofire” (“Navodir ush-shabob”, 580-g‘azal)	“Subhidam maxmurluqtin tortibon dardi sare” (“G‘aroyib us-sig‘ar”, 1-musaddas)
	“Zulfu siymin jisming af’i ganji Qorun ustina” (“Favoyid ul-kibar”, 1-musaddas)			


MAT asosidagi "Devoni Foniy" tarkibi

№	Janrlar	She'rlar miqdori
1	G'azal	552
2	Musaddas	1
3	Tarkibband-marsiya	1
4	Qit'a	64
5	Ruboiy	72
6	Ta'rix	16
7	Muammo	266
8	Qasida	10
9	Lug'z	9
Jami		991

G'azallariga tatabbu' va tavr bitilgan shoirlar

№	Shoirlar	Tatabbu'	Tavr
1	Amir Xusrav Dehlaviy	32	11
2	Xoja Hofiz Sheroziy	211	20
3	Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy	22	2
4	Jaloliddin Rumiy	1	
5	Xoja Salmon Sovajiy	2	
6	Xoja Kamol Xo'jandiy	4	
7	Xoja Hasan Dehlaviy	2	
8	Abdurahmon Jomiy	31	8
9	Amir Shayxim Suhayliy	3	
10	Ahmad Hojibek Vafoiy	2	
11	Shohiy Sabzavoriy	3	
12	Sohib Balxiy	1	
13	Sayfiy Buxoriy	1	
14	Ismat Buxoriy	1	
15	Najmiddin Kohiy Miyonkoliy	1	
16	Husayniy	2	
Jami		317	41

"Devoni Foniy" tarkibidagi qasidalar tasnifi



ALISHER NAVOIY ARUZI

“Ilk devon”dagi she’rlarning vazn ko‘rsatkichi

T.r.	Bahr nomi	G‘azallar	Boshqa janrdagi she’rlar	Jami she’rlar soni
1.	Ramal	255	1	256
2.	Hazaj	59	42	101
3.	Mujtass	45	-	45
4.	Muzori’	13	-	13
5.	Mutaqorib	12	-	12
6.	Rajaz	4	-	4
7.	Munsarih	2	-	2
8.	Sari’	1	-	1
	Jami	**391**	**43**	**434**

“Oqquyunli muxlislar devoni”dagi she’rlarning vazn ko‘rsatkichi

T.r.	Bahr nomi	G‘azallar	Boshqa janrdagi she’rlar	Jami she’rlar soni
1.	Ramal	159	3	162
2.	Mujtass	26		26
3.	Hazaj	22	2	24
4.	Muzori’	12		12
5.	Mutaqorib	3		3
6.	Rajaz	2		2
	Jami	224	5	229

“Badoyi’ ul-bidoya”dagi she’rlarning vazn ko‘rsatkichi

T.r.	Bahr nomi	She’rlar miqdori
1.	Ramal	532
2.	Hazaj	284
3.	Mujtass	137
4.	Muzori’	43
5.	Mutaqorib	25
6.	Rajaz	16
7.	Sari’	2
8.	Komil	1
9.	Xafif	12
	Jami	**1046**


“Navodir un-nihoya”dagi she’rlarning vazn ko‘rsatkichi

T.r.	Bahr nomi	G‘azallar miqdori
1.	Ramal	599
2.	Hazaj	104
3.	Mujtass	102
4.	Muzori’	18
5.	Mutaqorib	22
6.	Rajaz	9
7.	Munsarih	1
8.	Mutadorik	2
9.	Komil	1
10.	Xafif	2
11.	Tavil	1
12.	Ariz	1
	Jami	**862**

“Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi she’rlarning vazn ko‘rsatkichi


T.r.	Bahr nomi	Vaznlar miqdori	She’rlar miqdori
1.	Ramal	20	1827
2.	Hazaj	35 (shundan 15 tasi ruboiy vazni)	668
3.	Mujtass	5	348
4.	Muzori’	7	105
5.	Mutaqorib	8	75
6.	Rajaz	4	24
7.	Munsarih	3	12
8.	Mutadorik	3	3
9.	Komil	1	1
10.	Sari’	2	3
11.	Xafif	5	62
12.	Tavil	3	3
13.	Ariz	1	1
	Jami		**3132**

NAVOIY "XAMSA"SINING VAZN XUSUSIYATLARI



ALISHER NAVOIY IJODIDA QOFIYA TIZIMI

Mumtoz qofiya haqida umumiy ma'lumot



Alisher Navoiy ijodida qo'llanilgan qofiya turlari

Qofiyalarning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlari

1. Mujarrad qofiya *(ar. – yakka, yolg'iz, tanho)*. Bunday qofiya turida raviy harfi cho'ziq unlidan iborat bo'lishi yoki raviy undosh bilan yakunlanib, undan oldin *tavjih* – qisqa unli kelishi asosiy talab hisoblanadi. Mujarrad qofiya raviy harfidan keyin harflarning qo'llanilish va qo'llanilmasligiga ko'ra *muqayyad* va *mutlaq* ko'rinishlariga ega bo'ladi. Alisher Navoiy ijodida mujarrad qofiyaning bir necha turi keng qo'llanilgan.

2. Murdaf qofiya. Ridfli qofiya deb ham ataladi. Bunday qofiya turida ravіy harfidan oldin cho'ziq unlilardan biri – *ridfi asliy*, ba'zan esa *ridfi zoyid* keladi. Murdaf qofiya ravіy harfidan keyin harflarning qo'llanilish va qo'llanilmasligiga ko'ra *muqayyad* va *mutlaq* ko'rinishlariga ega bo'ladi. Alisher Navoiy ijodida murdaf qofiyaning bir necha turlari qo'llanilgan.

3. Muassas qofiya. Ta'sisli qofiya deb ham ataladi. Bunday qofiya turida cho'ziq "o" unlisi bilan raviy o'rtasida bir undosh va undan keyin bir unli keladi. Cho'ziq "o" unlisi *ta'sis* deb, undan keyingi undosh *daxil* deb, raviy oldidagi qisqa unli esa *ishbo'* deb ataladi. Muassas qofiya raviy harfidan keyin harflarning qo'llanilish va qo'llanilmasligiga ko'ra *muqayyad* va *mutlaq* ko'rinishlariga ega bo'ladi. Alisher Navoiy ijodida muassas qofiyaning ba'zi turlari qo'llanilgan.

4. Muqayyad (qaydli) qofiya *(ar. bog'langan, kishanlangan)*. Qaydli qofiya deb ham ataladi. Bunday qofiya turida o'zak tarkibida qisqa unlidan so'ng qator undosh keladi. Bunda qisqa unli *hazv*, raviydan oldin turgan undosh *qayd* deb ataladi. Qaydli qofiya raviy harfidan keyin harflarning qo'llanilish va qo'llanilmasligiga ko'ra *muqayyad* va *mutlaq* ko'rinishlariga ega bo'ladi. Alisher Navoiy ijodida bu qofiya turi u qadar keng

“Xamsa” tarkibidagi dostonlarda radifning qo‘llanilish darajasi

T.r.	Dostonlar	Dostonlarning umumiy hajmi	Radif qo‘llangan baytlar miqdori	foiz hisobida
1.	“Hayrat ul-abror”	3988 bayt	1306	32,7 %
2.	“Farhod va Shirin”	5782 bayt	999	17 %
3.	“Layli va Majnun”	3623 bayt	595	16,4 %
4.	“Sab’ai sayyor”	5009 bayt	1250	25 %
5.	“Saddi Iskandariy”	7215 bayt	1936	26,8 %

MUNDARIJA

I QISM

Alisher Navoiy ijodining o‘rganilishi. Hayotiga doir muhim ma’lumotlar....5
Alisher Navoiyning lirik merosi. Devonlari....34
Xamsanavislik an’anasi va Alisher Navoiy “Xamsa”si. “Hayrat ul-abror”....54
“Farhod va Shirin” dostonining timsollar olami....101
“Layli va Majnun” dostonida muallif badiiy niyatining ifodalanishi....117
“Sab’ai sayyor” dostonining tarkibiy tuzilishi, hikoyatlar tahlili....132
“Saddi Iskandariy” dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari....150
“Lison ut-tayr” – irfoniy doston namunasi sifatida....169
Alisher Navoiyning ilmiy merosi....199
Diniy-tasavvufiy, ma’rifiy-ta’limiy asarlari, yodnomalar 226

II QISM

Navoiy poetikasi haqida umumiy ma’lumot....275
Navoiy she’riyati va janrlar poetikasi....290
“Devoni Foniy” poetikasi....333
Alisher Navoiy aruzi....366
Navoiy “Xamsa”sining vazn xususiyatlari....388
Badiiy san’atlar va ularning Navoiy she’riyatidagi o‘rni....404
Alisher Navoiy ijodida qofiya tizimi....434
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati....452
Mavzular jadval va chizmalarda....460

SHUHRAT SIROJIDDINOV, DILNAVOZ YUSUPOVA,
OLIMJON DAVLATOV

NAVOIYSHUNOSLIK

(1-kitob)

Darslik

Muharrir **Ismat Xudoyorov**
Sahifalovchi **Ilhom Jumanov**
Musahhih **Diyora Abdujalilova**

«TAMADDUN» nashriyoti. 100029.
Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

Nashriyot litsenziyasi AI №247, 02.10.13.
Bosishga 29.01.2018 yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90$^{1}/_{16}$.
“UZ-SchoolBook” garniturasi. Ofset bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tobog‘i 32,5. Nashr tobog‘i 33.
Adadi 1000 nusxa. 8-sonli buyurtma.

«TURON-MATBAA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Olmazor tumani, Talabalar ko‘chasi, 2-uy.

ISBN 978-9943-5113-6-1

“Xamsa” tarkibidagi dostonlarda radifning qo‘llanilish darajasi